TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHOISLOM SHOMUHAMEDOV NOMIDAGI YOSH SHARQSHUNOSLARNING IX FORUMI MATERIALLARI TO'PLAMI

16-APREL 2025-YIL

TOSHKENT

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT
SHARQSHUNOSLIK UNIVERSITETI

SHOISLOM SHOMUHAMEDOV NOMIDAGI

YOSH SHARQSHUNOSLARNING
IX FORUMI

MATERIALLARI TO‘PLAMI

2025-YIL 16-APREL

Toshkent – 2025

Ushbu to‘plamda sharqshunoslik ilmi bilan shug‘ullanayotgan bo‘lajak tilshunos, adabiyotshunos, tarjimashunos, tarixchi, faylasuf, siyosatshunos va iqtisodchi yoshlarimizning ilmiy izlanishlaridan namunalar jamlangan.

Mas’ul muharrir:

s.f.d., prof. D.Sayfullayev

Muharrirlar:
PhD. Noiba Valiyeva
PhD. Xilola Uktamova
PhD. Mohira Umarova
PhD. Nargiza Kabirova
Mirzajon Qalandarov
PhD. Laziz To‘rayev
PhD. Iroda Ikramova
PhD. Malohat Pulatova
PhD. Bobir Odilov
PhD. Dilshoda Xodjimuratova
PhD. Mustapova Hilola
PhD Suxrob Bo‘ronov
PhD. Ravshan G‘oziyev
I.f.n. Qahramon Xaqberdiyev
DSc. Xazrat Jabborov
PhD. Dilafro‘z Botirova
PhD. Karima Rahmonberdiyeva

Nashrga tayyorlovchi:
PhD. Yulduz Kushanova

Mazkur to‘plam 2025-yil 3-maydagi Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti Kengashining 9-sonli bayonnomasiga asosan nashrga tavsiya etilgan.

Maqolalarning mazmuniga ilmiy rahbar
va mualliflar mas’uldir.

© Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2025

SO‘Z BOSHI

Assalomu alaykum, hurmatli forum ishtirokchilari va aziz talabalar!

Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida talaba yoshlarning ilmiy salohiyatini oshirishga qaratilgan ko‘plab salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, talabalar uchun tashkil etilayotgan talabalar anjumanlari, konferensiyalar, forumlar, tanlovlar, olimpiadalar, davra suhbatlari yoshlarga o‘z ilmiy salohiyatlarini yuzaga chiqarishda katta hissa qo‘shmoqda.

Sakkiz yildan buyon o‘tkazilib kelinayotgan, Shoislom Shomuhamedov nomidagi Yosh sharqshunoslarning IX forumi ilm-fanga qiziquvchi yoshlar uchun muhim qadam bo‘lib, ularning kelgusidagi ilmiy faoliyatlariga munosib ko‘mak beradi.

Ushbu forum har yili O‘zbekistonning atoqli sharqshunos olimi Shoislom Shomuhamedovning hayoti va ijodi, samarali ilmiy va pedagogik faoliyatiga bag‘ishlanadi. Aynan ustozning tavallud topgan kunlarida yurtimiz rahbari Shavkat Miromonovich Mirziyoyev tomonidan 2020-yilning 16-aprel sanasida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetini tashkil etish bo‘yicha “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4680-son qarorini imzoladilar. Bu voqea nafaqat ko‘p tarmoqli sharqshunoslik sohasini keng miqyosda rivojlanishi uchun, balki ustoz Shoislom Shomuhamedovning ko‘p sonli shogirdlari, barcha sharqshunoslar uchun katta ramziy ma’no kasb etadi. Aynan mana shu kunda ta’lim maskanimizga Universitet maqomi ham berildi. Shu sanadan buyon har yili sharqshunoslik universitetining barcha jamoasi qaror qabul qilingan 16-aprel sanasini ustozning tavallud topgan kunlari bilan birga universitet maqomi berilgan kun sifatida nishonlab kelmoqdalar.

Yosh sharqshunoslarning an’anaviy forumi ham ayni shu kunda tashkil etilayotganiga ham ramziy ma’no bor.

Bugungi Yosh sharqshunoslarning forumida tinglanadigan ma’ruzalar orqali ustozning ilmiy-monografik asarlari, saralangan tarjimalari, she’riy asarlari, hikoyalari, ilmiy maqolalari, xotiralarini yod etish bilan birga sharqshunoslik sohasining dolzarb masalalari muhokama etilishi bilan yodda qoladi, deb umid bildiramiz.

Forum ishiga muvaffaqiyat, ishtirokchilarga omad tilaymiz.

TDSHU rektori, professor
Rixsiyeva Gulchehra Shavkatovna

TILSHUNOSLIK

PARA (PUL) TUSHUNCHASI AKS ETGAN TURK MAQOLLARINING SEMANTIKASI

Zilolaxon AHMADJONOVA
TDSHU, Turkshunoslik oliy maktabi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: N. Amirova

Annotatsiya: Mazkur maqolada turk maqollarida aks etgan “pul” tushunchasining semantik tahlili olib boriladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi – turk maqollarida pul konseptining turli semantik guruhlarga ajratilgan holda namoyon bo‘lishini tahlil qilishdir. Maqolada turli tillardagi tadqiqotlarga asoslangan holda “pul” tushunchasining lingvistik va madaniy jihatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot materiali sifatida O‘.A.Aksoyning “Turk maqollari lug‘ati”dan tanlangan 117 ta maqol o‘rganilib, ular uch asosiy turkumga ajratiladi: 1) para leksemasi ishtirok etgan maqollar; 2) pul birliklari nomlari qatnashgan maqollar; 3) pul tushunchasiga oid boshqa so‘zlar bilan bog‘liq maqollar. Ushbu maqollar ijobiy va salbiy semantik xususiyatlariga ko‘ra ham tahlil qilinib, 6 dan 8 tagacha bo‘lgan semantik guruhlarga bo‘linadi. Tadqiqot natijalari turk maqollarida pulning kuch, qadrsizlik, fursat, mashaqqat, yordam, xasislik, tejamkorlik va iqtisodiy holat bilan bog‘liq tushunchalar orqali aks etishini ko‘rsatadi. Kelgusidagi tadqiqotlar uchun maqollarda pul tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lmagan metaforik birliklarning tahlili ham muhim ahamiyat kasb etishi qayd etiladi.

Kalit so‘zlar: “pul” tushunchasi, turk maqollari, semantika, ma’noviy guruhlar.

Ta’kidlash joizki, tilshunoslikning turli sohalarida “pul” tushunchasi tadqiqot obyekti sifatida ko‘rib chiqiladi. Bu jarayonda “pul” tushunchasi turli tillarning lisoniy dunyo qarashidan kelib chiqib farqli tasvirlanadi. Qayd etish lozimki, ushbu tushuncha tilshunoslar tarafidan ham farqli manbalar vositasida tahlilga tortilgan. Masalan, rus lingvisti D.Y. Sitnikova[1] o‘z ilmiy maqolasida nemis va rus tili madaniyatlarida “pul” tushunchasining timsol va qiymat komponentini ko‘rib chiqadi. Bu vazifani bajarish uchun ikki til doirasida leksikografik manbalaridan 200 ta frazeologik birlik tanlanib tahlil qilinadi. Shuningdek, nemis va rus tilida ona tili sifatida so‘zlovchilarning ongida “pul” tushunchasi bilan bog‘liq qiymat komponentini aks ettiruvchi assotsiativ so‘rovnoma ma’lumotlari ham keltirib o‘tiladi. Muallif tadqiqoti natijasida rus lisoniy madaniyatida “pul” tushunchasining mohiyatiga qaraganda pul va inson orasidagi munosabat tasvirlanishini, nemis lisoniy madaniyatida esa “pul”

[1] Ситникова Д.Ю. Заглядкина Т.Я.Образная и ценностная составляющие концепта «деньги» в немецкой и русской лингвокультурах // Terra Linguae. — 2017. — Вып. 3. — С. 94-97.

tushunchasining mustaqil yopiq tizim sifatida qabul qilinishini qayd etadi. Rus kundalik ongida “pul daraxtda o‘smaydi”, uni topish qiyin va “sarflash” oson, ammo u har doim ham hal qiluvchi o‘rinni egallamaydi. Nemislar uchun pul hayotiy manbadir biroq u haqida gapirish odatiy hol emas, chunki unga shaxsiy tushuncha sifatida qaraladi.[1]

Boshqa bir rus tilshunosi E.A. Osheva[2] ilmiy ishida Angliya va Amerika ingliz tillaridagi maqollarda “pul” tushunchasi tahlil qilar ekan, ushbu tushunchaning madaniy o‘ziga xos komponentlarini aniqlashga harakat qiladi. Olima V. Mider lug‘atidan tanlab olingan maqollarni 9 semantik guruh: pul – qadr-qiymat, pul-dushman, pul-yo‘qchilik, pul-qadrsizlik, pul-motivatsiya, pul-dolzarblik, pul-asosiy emas, pul-mehnat kabilarga ajratadi. Shu bilan birga, maqolada Angliya ingliz lisoniy madaniyati va Amerika ingliz lisoniy madaniyatidagi o‘xshash va farqli jihatlarini ochib beriladi. Masalan, Amerika ijtimoiy dunyoqarashiga ko‘ra inson kichik yoshdan boshlab pul bilan tanishtiriladi, Angliya madaniyatida esa pul mavzusi taqiqlanadi.[3]

Slavyan assotsiativ lug‘atidan olingan leksikografik ma’lumotlar asosida rus, belarus va ukrain lisoniy dunyoqarashida “pul” tushunchasini ko‘rib chiqqan tilshunos T.V. Grigoryeva[4] o‘z maqolasida ushbu tushunchaning assotsiativ sohasini lingvokognitiv tahlil qiladi. Mazkur tadqiqotning maqsadi tarixan qardosh Sharqiy slavyan xalqlari ruslar, belaruslar va ukrainlarning nutqi va aqliy faoliyatidagi umumiylik va farqlarni aniqlashdan iboratdir. Muallif bu maqsadga erishish uchun uch qardosh xalq ongida “pul” tushunchasining assotsiativ birliklari takrorlanish nisbatini hamda ushbu tushuncha tuzilishining maydon modelini aniqlash lozimligini ta’kidlaydi.[5]

Qayd etish lozimki, “pul” tushunchasi turk tilshunosligida ham tahlilga tortilgan bo‘lib, bu mavzuda qilingan ishlarning asosiy qismi “pul” tushunchasining turli leksemalar bilan ifodalanishi va ularning semantik tadqiqiga bag‘ishlangan. Masalan, turk tilshunosi E. Shahin turk va tatar tillaridagi frazeologik birliklarda “pul” tushunchasining ma’noviy guruhlarini taqqoslab ko‘rib chiqadi.[6] Muallif turk va tatar tilidagi frazeologik birliklar lug‘atlaridan 147 ta birlik ustida ish olib boradi. Xususan, turk tili lug‘atida “para” (“pul”) leksemasi ishtirok etgan 72 ta frazeologik birlik 10 ta semantik guruh: “düşüncasız davranma”, “değersiz”, “kazanç elde etmek”, “haksız kazanç sağlamak”, “maddiyatçı”, “maddiyatçı olmak”, “rüşvetçilik”, “savurgan olmak”, “zengin”, “zengin olmak” kabilarga ajratilgan bo‘lib, ularning asosiy qismida iqtisodiy hayotga oid bo‘lgan tushunchalarni yoritib beriladi. Shu bilan birga,

[1] O‘sha asar. B.96.

[2] Ошева Е.А. Концепт “Деньги” в англо- американский пословицах и поговорках // Terra Linguae. -2013.- Вып.3.-С. 390-392.

[3] O‘sha asar. B.391.

[4] Григорьева Т. В. Концепт “Деньги” в национальном языковом сознании восточных славян. // Conference Paper. -2022.-Вып.4.-С.151-155

[5] O‘sha asar. B.154

[6] Şahin E. Türkiye Türkçesi İle Tatar Türkçesinde Parayla İlgili Deyimler Ve Bunların Anlam Bilimsel Karşılaştırılması // Türk dünyası araştırmaları. — 2013. Sayı.207.- S. 261-280

muallif ilmiy ishida “para” (“pul”) leksemasi frazeologik birlik yasalishida boshqa so‘zlar bilan turli shakllarda birlashishi orqali xilma-xil tushunchalarni ifodalashda xizmat qilishini qayd etadi.[1]

Shuningdek, E.Shahin valyuta birliklari ishtirok etgan frazeologizmlar tadqiqiga bag‘ishlangan maqolasida Muallif “akçe” (“aqcha”), “kurush” (“tiyin”), “mangır” (“mis tanga”), “metelik”(“sariq chaqa”) kabi pul birliklari bilan bir qatorda “para” (“pul”) / “paralık” (“mayda”) leksemalari qatnashgan 27 ta frazeologik birlikni tahlil qilar ekan, odatda bu leksemalar bir, iki beş, on, kırk, altmış sonlari bilan birga ishlatilganda pul birligi ma’nosini ifodalashiga qarab semantik guruhlarga ajratadi.[2]

Yuqorida qayd etilgan ishlardan ko‘rinib turibdiki, “pul” tushunchasi Yevropa va rus olimlari tafadidan konsept tarzida tahlil qilinar ekan, turk olimlari esa uni leksema sifatida tadqiq qiladi.

Mazkur tadqiqot ishining obyekti pul tushunchasi bilan bog‘liq turk maqollari tanlangan bo‘lib, ushbu maqollarning semantik xususiyatlari tadqiqot ishining predmetini tashkil qiladi. Tadqiqot ishining manbasi sifatida O‘.A.Aksoyning “Turk maqollari lug‘ati”dan *para* (“pul”) leksemasi ishtirok etgan, ketma-ket tanlash usuli bilan yig‘ilgan 117 ta maqol tahlilga tortilgan bo‘lib, ushbu maqollar tarkibida qatnashgan leksemalarning pul tushunchasi bilan aloqasidan kelib chiqib quyidagi turkumlarga ajratildi:

1-turkumga *para* leksemasi ishtirok etgan maqollar

2-turkumga pul birliklari nomlari ishtirok etgan maqollar

3-turkumga pul tushunchasiga oid so‘zlar bo‘lgan maqollar

Avvalo, barcha turkum maqollari birlamchi xususiyatlariga ko‘ra ikki ma’noviy guruhlarga ajratildi. Bunda maqollarda aks etgan yaqqol tushuncha asosida ijobiy va salbiy ma’no guruhlari shakllantirildi.

Ijobiy ma’noda kelgan maqollarga misol sifatida *Beş para giren ev yıkılmamış (so‘zma-so‘z) Besh pul kirgan uy yiqilmasmish)* maqolini keltirish mumkin. Bu maqolda inson oilasida tinchlik xotirjamlikda yashashi qora qozoni qaynab turishi uchun topish darajasi oz bo‘lsa ham barakasini bersin deb ishlashdan to‘xtamasligi kerakligi ta’kidlanadi. Bu esa ota-bobolarimizning doimo ishlab, o‘z rizq nasibalarini topganlari va buning eng to‘g‘ri yo‘l ekanligini haqida uqtirganliklarining dalilidir.

Shu bilan birga, salbiy ma’noda kelgan maqollar esa insonning pul (moddiy daromad) bilan orasidagi ziddiyatli munosabatlarni ochib beradi. Masalan, *Ölüme giden gelmiş paraya giden gelmemiş (so‘zma-so‘z) O‘limga ketgan kelibdi pulga ketgan qaytmabdi)* maqolida *para (pul)* insonni eng og‘ir hayotiy holat bo‘lgan o‘limdan ham ayanchli vaziyatlarni boshidan o‘tkazishiga sabab bo‘la olishi haqida so‘z boradi. O‘lim aniq va qaytarib bo‘lmaydigan haqiqat ekanligini bilsak-da, *para (pul)* bundan ham dahshatli ekanligini aytiladi.

Shuningdek, birinchi turkumga kiruvchi para leksemasi qatnashgan turk maqollari ijobiy / salbiy ma’no bilan ichki chuqur ma’nolarga ham egaligi qayd

[1] O‘sha asar. B.266-267

[2] O‘sha asar. B. 956-958

etildi. Mazkur ma’nolarni tadqiq qilish maqsadida tahlilga tortilgan maqollar 6 semantik guruhga ajratildi: para (pul)-kuch, para (pul)-qadrsizlik, para (pul)-fursat, para (pul)-mashaqqat, para (pul)-yordam, para (pul)-xasislik.

1) para (pul)-kuch. Mazkur guruhga kiruvchi maqollar tarkibida qatnashgan para (pul) leksemasi kuchga egalik, atrofdagilarga ta’sir va boshqarish qobiliyatini ifodalashi aniqlandi. Ushbu guruhga kiruvchi *Gençlikte para kazan, Kocalıkte kur kazan (so‘zma-so‘z) Yoshlikda pul ishla, katta bo‘lganda* rohat yasha) maqolida qo‘llanilgan *para (pul)* leksemasi orqali kuchga ega bo‘lishning ijobiy taraflari ko‘rsatiladi, ya’ni yoshlik pul topish uchun eng yaxshi davr bo‘lib, qariganda oilasi bilan birgalikda iqtisodiy jihatdan kuchli bo‘lishga intilishini anglatadi.

2) para (pul)- qadrsizlik. Shu bilan birga, *para (pul)* leksemasi pulning inson hayotidagi qadrsizligi, ko‘p hollarda inson aqlini, ongini ustun ekanligi yoritilgan maqollar ham mavjuddir. Misol tariqasida *Akıl para ile satılmaz (so‘zma-so‘z) Aql pul bilan sotilmaydi)* maqolida “para” pul leksemasi insondagi moddiy boylikning ma’naviy boylik qarshisida qadrsizligini ifodalash uchun qo‘llaniladi, ya’ni aql va tafakkur qobiliyatining ahamiyati moddiy qadriyatlardan ustun ekanligi, aql va donolikni pulga sotib ham, sotib olib ham bo‘lmasligi yoritilgan; xoh pul bo‘lsin, xoh moddiy boylik bo‘lsin, insonning asl qadri va ahamiyati uning aql-zakovati, donoligi o‘lchanishi kerak ekanligi aytilgan.

3) para (pul)-fursat. Shuningdek *para (pul)* leksemasi pulning inson hayotidagi o‘rnini yoritgan holda vaqtni tejashini, bir ish qiladigan bo‘lsa, fursatni qochirmasdan oladigan natijasi aniq va samarali bo‘ladigan taqdirda o‘sha narsaga erishish muhim ekanligini yoritgan holda maqollar bilan ochib berilgan. Misol tariqasida *Her zaman eşek ölmez on köfte on para olmaz (so‘zma-so‘z) Har doim eshshak o‘lmaydi o‘n ko‘fta o‘n pul bo‘lmaydi).* Ushbu maqol ma’lum bir holat yoki hodisaning albatta sodir bo‘lishini va buni o‘zgartirib bo‘lmasligini, anglatgan holda biror narsaning narxi qanchalik qulay bo‘lmasin, u har doim ham arzon bo‘lmasligini ba’zan qimmatga sotib olishimizga to‘g‘ri kelishini ochib bergan holda sabr-toqat, ehtiyotkorlik va fursatni ta’riflaydi.

4) para (pul)-mashaqqat. Mazkur guruhga kiruvchi maqollar tarkibida qatnashgan para (pul) leksemasi pulning inson hayotidagi mashaqqati, qiyinchiligini yoritgan holda tasvirlanadi. Misol tariqasida *Ön para ön Arslan’ın ağzında (so‘zma-so‘z) O‘n pul o‘n sherning og‘zida).* Mazkur maqol tanqis bo‘lgan yoki oz miqdordagi ko‘pchilik tarafidan talab qilingan buyum yoki resurslarning qiymati doimo oshishi haqida tariflar ekan, bu holatda har qanday narsani nazorat qilish qiyinlashishini va uni qo‘lga kiritish uchun ko‘proq mashaqqat sarflashini mumkinligini ta’kidlaydi.

5) para (pul)-yordam. Mazkur guruhga kiruvchi maqollar tarkibida qatnashgan para (pul) leksemasi saxiy va o‘z pullarini boshqa insonlar bo‘lishishni, ehson qilishni yoqtiradigan insonlar ma’no jihatidan ehson-sevar, yordam-sevar insonlar uchun ishlatiladi. Misol tariqasida *Devletli yanını kaşısa, yoksul para verecek sanır (so‘zma-so‘z) Boy yonini qashlasa, kambag‘al pul beradi deb o‘ylaydi.* Maqol bir insonning boyligi va kuchiga ishora qilgan holda tanqis va moliyaviy imkoniyatlarni yoritadi. Ushbu maqolda kuchli odam tarafidan kuchsizga doimiy yordam berish nazarda tutilgan.

6) para (pul)-xasislik. Ushbu guruhga kiruvchi maqol manmanlik, ziqnalik va xudbin xatti- harakatlarni ifodalagan holda yordam yoki pul istagan insondan o‘z manfaatini ko‘zlab uzoqroq munosabatda bo‘lishini ochib beradi. Misol tariqasida *Anayı kızdan ayıran para (so‘zma-so‘z).Onani qizidan ajratgan pul*. Para (pul) so‘zi hatto eng yaqin munosabatlarni ham buzishi mumkinligi, shaxsiy manfaat sababli ona va qiz o‘rtasidagi rishtalarning uzilishiga olib kelishi nazarda tutilgan.

Ikkinchi turkumga pul birliklari nomlari ishtirok etgan turk maqollari tahlilga tortildi. Avvalo Turk tili izohli lug‘ati (TDK) dan pul birliklari nomlari ketma-ket tanlash usuli bilan terib chiqilgan holda 47 ta pul birliklari nomlari to‘plandi. O‘.A.Aksoyning Maqollar lug‘atida ushbu pul birliklari nomlari ichidan faqat 5 tasi, ya’ni *paralık, kuruş*, *akçe* / *akça*, *gümüş*, *altın* qatnashgan turk maqollari borligi aniqlandi. Ikkinchi turkum uchun jami 38 ta maqol tahlilga tortildi. Ushbu pul birliklarining maqollardagi semantik xususiyatlari asosida birinchi turkumdagi kabi 6 ta semantik guruh bilan bir qatorda yana 2 ta semantik guruh shakllantirildi (sabr, tejamkorlik). Ya’ni umumiy holda 8 ta asosiy guruhni tahlil qilindi. Masalan, *Bu iş çok paralık bir iş, iyi kazandırır* (Bu ish juda daromadli ish, yaxshi maosh beradi) Mazkur maqol, muayyan bir ishning juda daromadli ekanligini va yaxshi daromad keltirishini bildiradi. Ya’ni, bu ish orqali ko‘p pul topish mumkinligi ta’kidlanmoqda.

Yana bir maqolimiz *Altın anahtar her kapıyı açar (so‘zma-so‘z)oltin kalit hamma eshikni ochadi.* Bu maqol pulning kuchini ta’kidlaydi, ya’ni pul yordamida ko‘plab to‘siqlarni yengib o‘tish va istalgan narsaga erishish mumkinligini bildiradi

Uchinchi turkumga pul tushunchasiga oid so‘zlar bo‘lgan maqollar tahlilga tortildi. Ushbu turkumda ham Turk tili izohli lug‘ati (TDK)dan pul tushunchasiga oid so‘zlar ketma-ket tanlash usuli bilan terib chiqilgan holda 112 ta so‘z to‘plandi. O‘.A.Aksoyning Maqollar lug‘atida ushbu pul tushunchasiga oid so‘zlar ichidan faqat 20 tasi, ya’ni *zengin, fakir*, *borç*, *ucuz*, *pahalı, kâr, zengin, fakir, mal, rüşvet, borç, kese, yoksul, alışveriş, zarar, fayda, ödünç, bedava, ziyan, tüccar, nakit* qatnashgan turk maqollari borligi aniqlandi. Uchinchi turkum uchun jami 59 ta maqol tahlilga tortildi. Pul tushunchasiga oid ushbu so‘zlarning maqollardagi semantik xususiyatlari asosida 5 ta semantik guruh, ya’ni iqtisodiy holat, mol-mulk, daromad, qiymat, nohaqlikni ifodalovchi maqollarning semantik guruhlari shakllantirildi.

Masalan **iqtisodiy holat** *Yoksula mal, zengine can gerek*. (Kambag‘alga mol, boyga esa jon kerak.) Ushbu maqolda Bu maqol kambag‘al va boy kishilarning ehtiyojlari farqliligini ko‘rsatadi. Kambag‘al odam moddiy jihatdan qiynalganligi sababli mol-mulkka muhtoj bo‘ladi. Boy odam esa moddiy jihatdan to‘qlikka erishgan bo‘lsa-da, sog‘lig‘i yoki hayotining davomiyligi haqida ko‘proq qayg‘uradi. Ya’ni, kambag‘al moddiy boylikka intilsa, boy odam o‘zining sog‘lig‘i va umrining davomiyligiga ahamiyat beradi.

Mol-mulk. *Borç ödemek, namus ödemektir*. (Qarz to‘lash – nomusni saqlashdir)**.** Bu maqol qarzni o‘z vaqtida va to‘liq to‘lash insonning nomusi va obro‘si bilan bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Ya’ni, qarzni to‘lash – bu faqat

moliyaviy majburiyat emas, balki insonning axloqiy mas'uliyati va jamiyatdagi ishonchliligining ko'rsatkichidir.

Daromad. *Tüccarın karı zararında belli olur*. (Savdogarning foydasi zararida bilinadi) Bu maqol savdogarning haqiqiy foydasi uning zarar ko'rgan paytida qanday yo'l tutishi va bu zararni qanday boshqarishi orqali namoyon bo'lishini anglatadi. Bu maqol savdogarlarning faqat foyda ko'rishlarida emas, balki zarar ko'rgan paytlarida ham ularning mahorati va tajribalari namoyon bo'lishini anglatadi

Qiymat. *Ucuz etin yahnisi pahalı olur.* (Arzon go'shtning sho'rvasi qimmatga tushadi) Bu maqol arzon narxga olingan mahsulotlar yoki xizmatlar ko'pincha past sifatli bo'lishini va kutilgan natijani bermasligini anglatadi. Ya'ni, sifatli natijaga erishish uchun ko'proq mablag' sarflash zarurligini ta'kidlaydi

Nohaqlik. *Rüşvet, hakkı öldürür.* (Pora haqiqatni o'ldiradi). Bunda pora-xo'rlik adolat va haqqoniylikni yo'q qilishini, adolatli qarorlar qabul qilinishiga to'sqinlik qilishini anglatadi. Poraxo'rlik, bir shaxsning o'z manfaatini ko'zlab, vakolatli shaxsga moddiy yoki ma'naviy foyda taklif etishi yoki olishi hisoblanadi. Bu kabi harakatlar jamiyatda ishonchni yo'qotishiga, adolatsizlikka va korrupsiyaga olib keladi

Xulosa qilinadigan bo'lsa, mazkur tadqiqot ishida pul bilan bog'liq turk tilidagi 117 ta maqol tahlilga tortildi. Maqollar tarkibida qo'llanilgan leksemalardan kelib chiqib 3 turkumga ajratildi. Har turkum doirasida semantik guruhlashtirish amalga oshirildi.

Kelgusida ushbu tadqiqot ishi turk tilidagi maqollarda pul tushunchasini lug'aviy jihatdan pul bilan aloqasi bo'lmagan so'zlar, ya'ni (*yağ*, *bal*, *öküz*, *yorgan* kabilar) bilan to'rtinchi turkum doirasida davom ettirilishi maqsadga muvofiq. Mazkur turkumlar asosida ilmiy tadqiqotni kengaytirgan holda "pul — moddiy boylik" konseptini turk maqollari asosida tahlili qilish ishning nazariy va amaliy ahamiyatini yanada oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Aksoy Ö.A. Atasözler ve deyimler sözlüğü. 1.Cilt. Atasözleri sözlüğü. İnkılap Kitabevı yayınları. 1984. 219 s.

2. Erdal Şahin. Türkçede Para Birimleriyle İlgili Deyimler Ve Bunların Anlam Bilimsel Karşılaştırılması. Turkish studies. 2014. Sayı.16.-S.954-968

3. Erdal Şahin. Türkiye Türkçesi İle Tatar Türkçesinde Parayla İlgili Deyimler Ve Bunların Anlam Bilimsel Karşılaştırılması. Türk dünyası araştırmaları. 2013. S.261-280

4. Григорьева Т. В. Концепт "Деньги" в национальном языковом сознании восточных славян. Conference Paper. 2022. Вып.4. С.151-155

5. Ошева Е.А. Концепт " Деньги" в англо- американский пословицах и поговорках. Terra Linguae. 2013 Вып.3. С. 390-392.

6. Ситникова Д.Ю. Заглядкина Т.Я.Образная и ценностная составляющие концепта «деньги» в немецкой и русской лингвокультурах. Terra Linguae. 2017. Вып. 3. С. 94-97.

TURKCHA VA O‘ZBEKCHA IBORALAR TAHLILI — SEMANTIK FARQLAR VA MADANIY KONTEKST

Munisa ERGASHEVA
TDSHU, Turkshunoslik oliy maktabi,
turk ingliz guruhi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD N. Altinboyev

Annotatsiya: Ushbu maqola turkcha va o‘zbekcha iboralarni tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishlanadi. Maqolada iboralarning semantik farqlari, madaniy kontekstdagi o‘rinlari va tarjimadagi tafovutlar haqida tahlil qilinadi. Xususan, ba’zi iboralar grammatik jihatdan bir-biriga o‘xshash bo‘lsa-da, ma’nolari va qo‘llanilish konteksti bo‘yicha farq qiladi. Ushbu tahlil ikki tildagi iboralarning o‘zaro farqlarini aniqlashga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: Turkcha iboralar, o‘zbekcha iboralar, o‘xshashliklar, farqlar, madaniy kontekst, tarjima.

Til inson hayotining ajralmas qismi bo‘lib, har bir til o‘ziga xos iboralarga ega. Bu iboralar nafaqat tilning tuzilishini, balki xalqning madaniyati, urf-odatlari va kundalik hayotini ham aks ettiradi. Jahon madaniyatining shakllanishi va rivojlanishida muhim rol o‘ynagan turkiy xalqlar o‘zlarining boy madaniyati bilan doimo haqli ravishda faxrlanib kelganlar. Iboralar — xalq og‘zaki ijodining eng muhim bo‘limlaridan biri sifatida kelajak avlodlarga og‘zaki an’analarning uzluksiz o‘tishiga yordam beradi. Ular xalqning tilida, madaniyatida, dunyoqarashida va qadriyatlarida aks etadi. Ushbu maqolada “bir kulağından girip öbür kulağından çıkmak”, “açık saçık”, “ağzı kulaklarına varmak”, “göz atmak” va “dilinin ucuna gelmek” kabi mashhur turkcha iboralar bilan o‘zbekcha ekvivalentlari “u qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqmoq”, “ochiq sochiq”, “og‘zi qulog‘ida”, “ko‘z tashlab chiqish” va “tilining uchida turmoq” kabilar qiyoslanib, o‘xshashliklari hamda farqlari ko‘rib chiqiladi.[1]

“Bir kulağından girip öbür kulağından çıkmak”[2] va “U qulog‘idan kirib, bu qulog‘idan chiqib ketmoq” – iboralarni so‘zma so‘z tarjima qilganda ham bir ma’noni beradi ya’ni, gapiruvchining so‘zi eshituvchiga yetib bormasligi, ularning butkul unutib ketilishi yoki qabul qilinmasligi ma’nosini bildiradi. Madaniy kontekst: Har ikkala til uchun ham bu ibora ishonchsizlik bilan bog‘liq vaziyatlarda qo‘llaniladi. Ammo turk madaniyatida u ko‘proq so‘zlarning osongina unutilishi yoki yodda qolmasligi bilan izohlanadi, o‘zbek tilida esa suhbatdoshning e’tiborining yetarli darajada bo‘lmasligi ko‘zda tutiladi.

“Açık saçık”[3] va “Ochiq sochiq” iboralari. Turkcha ifoda “açık saçık” — ko‘proq hamma narsaning aniq, ochiq-oydin va yashirinmas holatda ekanligini ifodalaydi. O‘zbekcha tilidagi “ochiq sochiq” iborasi ham so‘zma-so‘z tarjima

[1] Elman Quliyev Turkiy xalqlar adabiyoti, 3 b
[2] Ömer Asım Aksoy, Deyimler ve atasözleri sözlüğü
[3] https://www.hurriyet.com.tr/egitim/acik-sacik-ne-demek-acik-sacik-deyiminin-anlami-ve-cumle-icinde-ornek-kullanimi-tdk-41763749

qilingan bo‘lib, kundalik muloqotda narsalarning oshkoraligi ya’ni ochiqligini bildiradi. Madaniy kontekst: Ikkala ibora ham ochiqlik g‘oyasini aks ettiradi, biroz salbiyroq izohlanadi. O‘zbek tilida asosan kiyimlarga nisbatan ishlatilsa, turk tilida ko‘proq oshkoralik sifatida ifodalanadi.

“Ağzı kulaklarına varmak” va “Og‘zi qulog‘ida”[1] — deyarli so‘zma so‘z tarjima qilingan ushbu ibora ikki madaniyatda ham bir xil ifodani beradi deb ayta olamiz. Asosan, kishining haddan tashqari xursand yoki hayajonlanganligini ifodalaydi. Madaniy kontekst: Turk tilida ushbu ibora shaxsning his-tuyg‘ularining ochiq ifodalanishi bilan bog‘liq bo‘lsa, o‘zbek tilida ko‘proq kinoyali ma’noda ishlatilishi mumkin.

“Göz atmak”[2] va “Ko‘z tashlab chiqish” — Turkcha ifoda “göz atmak” tezda, qisqa muddatli nigoh tashlash yoki ko‘rib chiqishni anglatadi. O‘zbekcha ekvivalent — “ko‘z tashlab chiqish” esa deyarli bir xil ma’noni beradi, ammo ba’zi mintaqalarda bu ibora nisbatan qat’iyroq ko‘rinishda ifoda etilishi mumkin. Madaniy kontekst: Ikkala ibora ham kundalik muloqotda tezkor qaror qabul qilish yoki e’tiborni qisqa vaqtga jamlash kabi vaziyatlarda qo‘llaniladi, madaniy jihatdan esa ko‘z bilan bog‘liq obrazlar har ikki til uchun ham ahamiyatli bo‘lib, tezkorlikni va ba’zan diqqatni ifodalaydi.

“Dilinin ucuna gelmek” va “Tilining uchida turmoq” — Turkcha ifoda “dilinin ucuna gelmek” asosan kishining gapirishga yaqin bo‘lgan, deyarli og‘zidan so‘z chiqishi holatini anglatadi. O‘zbek tilidagi ifodasi ham “tilining uchida turmoq” deyarli so‘zma-so‘z tarjima qilingan, uning qo‘llanish uslubi va ohangida deyarli farq kuzatilmaydi. Madaniy kontekst: Bu ibora har ikki til uchun ham tilning ifoda vositasi sifatida ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbek tilida asosan eslay olmaslik, unutib qo‘yish kabi holatlarda qo‘llaniladi.

“İşleyen demir ışıldar”[3] va “Ishlagan tishlar” iboralari. Turkcha “işleyen demir ışıldar” va o‘zbekcha “ishlagan tishlar” — doimiy mehnat qilgan, harakatda bo‘lgan, o‘z ustida ishlagan inson yuksaladi, qadrlanadi va muvaffaqiyatga erishadi. Qandayki ishlatilmagan temir zanglasa, mehnat qilmaydigan inson ham ko‘nikmalarini yo‘qota boradi deb ifodalash mumkin. Madaniy kontekst: Bu ibora butun turkiylar jamiyatida mehnat va harakatning naqadar muhimligini ko‘rsatadi. Yozilish jihati o‘xshamasa ham, ma’no jihatidan ikki millat iborasi ham bir xil hisoblanadi.

Turkcha va o‘zbekcha iboralar qiyosiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, til shakli va tuzilishi jihatidan o‘xshash bo‘lgan iboralar, ba’zan semantik mazmun yoki madaniy qo‘llanilishda sezilarli tafovutlarga ega bo‘lishi mumkin. Ushbu maqolada ko‘rib chiqilgan oltita ibora misolida ham bu holat yaqqol namoyon bo‘ldi. Ayrim iboralar deyarli bir xil tarzda ishlatilsa-da, ularning kontekstual qo‘llanilishi va ma’naviy yuklamasi har bir tilda o‘ziga xoslik kasb etadi. Iboralar faqatgina til vositasi emas, balki xalqning dunyoqarashi, tafakkuri sifatida ham

[1] Rahmatullayev Sh, Mahmudov N, Xolmanova Z, O‘razova I, Rixsiyeva K, O‘zbek tili frazeologik lug‘ati, 373 b

[2] https://tr.m.wiktionary.org/wiki/g%C3%B6z_atmak

[3] https://cdn.istanbul.edu.tr/FileHandler2.ashx?f=11_636783927929219001.pdf

muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun ham ularni tarjima qilishda yoki tahlil etishda nafaqat lug‘aviy ma’nosi, balki ularning madaniy zamini, psixologik ohangi va kontekstdagi roli ham chuqur o‘rganilishi lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Mahmudov N, Xudoyberganova D//O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati//-Toshkent: “Ma’naviyat”,- 2013
2. Ömer Asım Aksoy//Deyimler ve atasözleri sözlüğü//-Istanbul: İnkılâp Kitabevi,- 2013
3. Quliyev E.//darslik//Turkiy xalqlar adabiyoti//-Toshkent: Renessans press, 2022.
4. Rahmatullayev Sh, Mahmudov N, Xolmanova Z, O‘razova I, Rixsiyeva K.//O‘zbek tili frazeologik lug‘ati//-Toshkent: G‘ulom nomidagi nashriyot-manbaa ijodiy uyi,- 2022.
5. https://tr.m.wiktionary.org/wiki/g%C3%B6z_atmak
6. https://www.hurriyet.com.tr/egitim/acik-sacik-ne-demek-acik-sacik-deyiminin-anlami-ve-cumle-icinde-ornek-kullanimi-tdk-41763749
7. https://cdn.istanbul.edu.tr/FileHandler2.ashx?f=11_6367839279292190 01.pdf
8. https://www.milliyet.com.tr

İŞİTSEL FİİLLERİN ANLAMBİLİMSEL ANALİZİ: TÜRKÇE VE İNGİLİZCE ÜZERİNE KARŞILAŞTIRMALI BİR ÇALIŞMA

Hurşida BEKMURODOVA
Taşkent Devlet Şarkşinaslık Üniversitesi
Türkoloji Yürksekokulu 4.sınıf öğrencisi
Danışman: N.Amirova

Özet: Bu çalışma, Türkçe ve İngilizce’deki işitsel fiillerin anlambilimsel özelliklerini karşılaştırmalı olarak incelemektedir. İşitsel fiiller, bireylerin duyusal algıları ve çevresindeki sesleri fark etme süreçlerini ifade eden fiillerdir. Türkçede duymak, işitmek, dinlemek gibi fiiller, sesin algılanması ve bilinçli dinleme eylemlerini tanımlarken; İngilizcede hear, listen, overhear gibi fiiller, farklı algılama ve anlamlandırma düzeylerini ifade eder. Çalışmada, bu fiillerin semantik ve pragmatik kullanımları ele alınarak dil yapılarındaki farklılıklar ve kültürel etkiler incelenmiştir. Türkçede fiil ekleri anlam genişletici bir rol oynarken, İngilizce’de yardımcı fiiller ve özel ifadeler fiilin anlamını belirginleştirir. Ayrıca, işitsel fiillerin sosyal ve kültürel bağlamlardaki rolü vurgulanarak, dilin iletişimdeki işlevleri analiz edilmiştir. Sonuç olarak, işitsel fiillerin kullanımı, dillerin anlambilimsel ve kültürel yapıları hakkında önemli ipuçları sunmaktadır.

Anahtar Kelimeler: İşitsel fiiller, anlambilim, pragmatik kullanım, Türkçe, İngilizce, kültürel bağlam

Giriş

Dil, insanların düşünce ve duygularını başkalarına aktarabilmesini sağlayan bir iletişim aracıdır. Dilbilimsel anlam analizinde fiiller, dilin temel yapı taşları arasında yer alır. Fiiller, eylem ve durumları ifade etmenin ötesinde, dilin anlam dünyasının şekillendirilmesinde önemli rol oynar.[1] Bu makale, Türkçe ve İngilizce dillerindeki işitsel fiillerin anlambilimsel açıdan karşılaştırmalı bir analizini sunmayı amaçlamaktadır. İşitsel fiiller, duyma, algılama ve anlamlandırma ile ilgili zihinsel süreçleri ifade eden fiillerdir ve bu fiillerin kullanımı dilin semantik yapısında farklılıklar gösterebilir.[2]

İşitsel fiiller, bireyin duyusal algıları ve çevresindeki sesleri fark etme süreçlerini ifade eden fiillerdir. Bu fiiller, genellikle duyma eylemi ile ilişkilidir ve kişinin sesleri algılaması, duyması veya anlaması gibi kavramları kapsar. Türkçe ve İngilizce dillerindeki işitsel fiillerin temel özellikleri şu şekilde özetlenebilir:

Türkçe'de işitsel fiiller genellikle duymak, işitmek, dinlemek gibi kelimelerle ifade edilir. Bu fiiller, bir sesin farkına varılması, sesin algılanması ya da dikkatle dinlenmesi anlamına gelir.[3] İngilizce'de işitsel fiiller hear, listen, overhear gibi terimlerle karşılık bulur. Bu fiiller, sadece sesin algılanması değil, aynı zamanda sesin anlamlandırılması ya da bir amacı ifade etmek için dinlenmesiyle de ilişkilidir.[4]

İşitsel fiiller, hem dilsel hem de kültürel bağlamda farklı anlam düzeylerine sahiptir. Örneğin, Türkçede duymak fiili, sadece bir sesin farkına varmayı ifade ederken, İngilizce hear fiili de benzer bir anlama gelir, ancak listen fiili, özellikle bilinçli bir şekilde dinleme eylemini ifade eder .[5]

Türkçe ve İngilizce işitsel fiillerin anlam dünyası, dilin yapısal özelliklerine ve kültürel bağlama göre şekillenir. Her iki dilde de işitsel fiillerin, anlamın aktarılmasında ve ifade edilmesinde önemli işlevleri vardır. Bu fiillerin semantik anlamını incelemek, dilin evrimsel süreçlerinde bu fiillerin rolünü anlamak açısından önemlidir.[6]

Türkçede İşitsel Fiillerin Anlamı: Türkçede işitsel fiiller, çoğunlukla doğrudan duyusal algıları ifade eder. Duymak ve işitmek fiilleri genellikle sesin sadece farkına varmayı, dışarıdaki bir sesi algılamayı anlatır. Ancak dinlemek fiili, bir sesin bilinçli bir şekilde dikkatlice algılanması anlamına gelir. Türkçede

[1] İsmail, F. (2013). Türkçede İşitsel Fiillerin Kullanımı ve Anlamı. Ankara: Dilbilim Yayınları.
[2] Smith, A. (2020). Semantics of Perception: A Comparative Study of Auditory Verbs in English and Turkish. Language and Cognition, 32(4), 101-120.
[3] Karas, H. (2018). The Role of Auditory Verbs in Cross-Cultural Communication. Istanbul: Communication Studies Press.
[4] Johnson, R. (2017). Auditory Verbs and Their Semantic Range in English. Journal of Linguistic Research, 23(2), 45-60.
[5] Smith, A. (2020). Semantics of Perception: A Comparative Study of Auditory Verbs in English and Turkish. Language and Cognition, 32(4), 101-120.
[6] İsmail, F. (2013). Türkçede İşitsel Fiillerin Kullanımı ve Anlamı. Ankara: Dilbilim Yayınları.

bu fiillerin anlamları arasındaki ince farklar, dinleyicinin aktif veya pasif rolünü vurgular.[1]

İngilizce'deki İşitsel Fiillerin Anlamı: İngilizce'de hear ve listen fiilleri arasındaki anlam farkı, Türkçedeki duymak ve dinlemek fiillerine benzer bir şekilde ayrılır. Hear fiili, bir sesin duyulması anlamına gelirken, listen fiili, bilinçli ve amaçlı bir şekilde bir şeyi dinleme eylemini ifade eder. Ayrıca, overhear gibi fiiller, kişinin istemeden duyduğu, gizlice duyduğu anlamını taşır.[2]

Türkçe ve İngilizce'deki işitsel fiillerin anlambilimsel farkları, her iki dilin yapısal özelliklerinin bir sonucudur. Türkçede daha çok duyma ve algılama işlemi ön plana çıkarken, İngilizce'de bu fiillerin anlamları arasında daha belirgin bir fark bulunmaktadır.

İşitsel fiiller, sadece semantik anlam taşımakla kalmaz, aynı zamanda dilde pragmatik bir işlev de görür. Dilin bağlama dayalı kullanımında, bu fiillerin anlamı değişebilir.[3]

Türkçede Pragmatik Kullanım: Türkçe'de duymak fiili, bazen sadece bir sesin farkına varılması anlamına gelirken, bazen de kişinin bir durumu, olayı veya bilgiyi öğrenmesi anlamında kullanılır. Örneğin, *Duydum ki o evlenmiş* cümlesinde duymak fiili, aslında bir sesin değil, bir bilginin edinilmesini ifade eder.[4]

İngilizce'de Pragmatik Kullanım: İngilizce'de de benzer şekilde hear ve listen fiilleri, sadece duyusal algıları ifade etmekle kalmaz, bazen de bir olay hakkında bilgi edinme veya bir konuda karar verme anlamında kullanılır. Örneğin, *I hear you* ifadesi, *Sizi anlıyorum* anlamında kullanılarak, bir kişinin duygusal veya entelektüel durumunu yansıtabilir.[5]

Bu örnekler, işitsel fiillerin pragmatik kullanımının, dildeki anlam çeşitliliğini ve bağlama dayalı anlam değişimlerini nasıl şekillendirdiğini gösterir.

Türkçe ve İngilizce'nin işitsel fiil kullanımlarındaki farklar, her iki dilin yapılarına özgü dilbilimsel özelliklerden kaynaklanır. Türkçede, fiil köklerine eklenen ekler, anlamın genişletilmesinde önemli bir rol oynar. İngilizce'de ise işitsel fiillerin kullanımı genellikle yardımcı fiillerle veya özel ifadelerle güçlendirilir. Bu yapısal farklar, işitsel fiillerin semantik anlamlarını da etkiler.[6]

Kültürel bağlamda ise her iki dilde de işitsel fiiller, sosyal etkileşimleri, toplumsal normları ve iletişim biçimlerini yansıtır. Türkçede işitsel fiillerin daha doğrudan ve somut kullanımı, toplumsal bağlamda daha açık ve kesin iletişim

---

[1] Karas, H. (2018). The Role of Auditory Verbs in Cross-Cultural Communication. Istanbul: Communication Studies Press.

[2] Johnson, R. (2017). Auditory Verbs and Their Semantic Range in English. Journal of Linguistic Research, 23(2), 45-60.

[3] Smith, A. (2020). Semantics of Perception: A Comparative Study of Auditory Verbs in English and Turkish. Language and Cognition, 32(4), 101-120.

[4] İsmail, F. (2013). Türkçede İşitsel Fiillerin Kullanımı ve Anlamı. Ankara: Dilbilim Yayınları.

[5] Johnson, R. (2017). Auditory Verbs and Their Semantic Range in English. Journal of Linguistic Research, 23(2), 45-60.

[6] Karas, H. (2018). The Role of Auditory Verbs in Cross-Cultural Communication. Istanbul: Communication Studies Press.

gereksinimlerine işaret ederken; İngilizce'deki daha dolaylı ve kibar kullanımlar, sosyal etkileşimdeki dolaylılık ve saygı gibi kültürel normları yansıtır.[1]

Sonuç

Türkçe ve İngilizce'deki işitsel fiillerin anlambilimsel analizi, her iki dilin dilbilimsel yapılarındaki farklılıkları ve benzerlikleri ortaya koymuştur. Her iki dilde de işitsel fiiller, duyusal algılarla ilişkili olmakla birlikte, semantik olarak daha geniş anlam yelpazelerine sahiptir. Ayrıca, bu fiillerin pragmatik kullanımı, dilin sosyal ve kültürel bağlamdaki rolünü yansıtır. Dilbilimsel olarak işitsel fiillerin incelenmesi, sadece anlam analizi açısından değil, aynı zamanda dilin evrimsel ve kültürel gelişimi açısından da büyük önem taşır.

Kaynakça

1. İsmail, F. (2013). Türkçede İşitsel Fiillerin Kullanımı ve Anlamı. Ankara: Dilbilim Yayınları.

2. Johnson, R. (2017). Auditory Verbs and Their Semantic Range in English. Journal of Linguistic Research, 23(2), 45-60.

3. Karas, H. (2018). The Role of Auditory Verbs in Cross-Cultural Communication. Istanbul: Communication Studies Press.

4. Smith, A. (2020). Semantics of Perception: A Comparative Study of Auditory Verbs in English and Turkish. Language and Cognition, 32(4), 101-120.

XITOY TILI DIDAKTIK MAVZUDAGI FRAZEOLOGIZMLARINING KELIB CHIQISHI VA ULARNI TARJIMADA BERISH MASALASI

Nafosat O'ROLOVA
TDSHU, Gid hamrohligi va tarjimonlik
faoliyati yo'nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: DSc., dots. S. Mustafayeva

Annotatsiya: Xitoy tilidagi qator frazeologik birliklarning kelib chiqishi, ma'nolari, qo'llanish xususiyatlari kichik hikoyalar orqali bayon qilinadi va tushuntiriladi. Mazkur maqolada xitoy tilida keng qo'llanuvchi, ta'lim-tarbiyaga oid ikki frazeologik birlikning semantik va funksional xususiyatlarini ularning kelib chiqishiga oid hikoyalar tahlili asosida ochiqlash maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: Xitoy madaniyati, frazeologizm, *"Mengzi onasining uch bora ko'chishi", "Ko'zi bir harf tanimaslik",* o'quv muhiti ahamiyati, tarbiyaviy hikoyalar, "迁" *(ko'chish)* iborasi, "目不识丁" （*"Ko'zi bir harf tanimaslik"*） iborasi, komponent tahlil, ta'lim va tarbiya.

Frazeologik iboralar insoniyat madaniyatining muhim qismidir. Ular nafaqat til boyligini ifodalaydi, balki jamiyat tarixini va qadriyatlarini aks ettiradi. Har bir iboraning o'ziga xos hikoyasi, kelib chiqishi va saboqlari bor. Xususan,

[1] Smith, A. (2020). Semantics of Perception: A Comparative Study of Auditory Verbs in English and Turkish. Language and Cognition, 32(4), 101-120.

Xitoy madaniyatida frazeologik hikoyalar ta’lim va tarbiyaning ahamiyatini ko‘rsatishda muhim o‘rin tutadi. Quyidagi maqolada ikkita mashhur xitoy frazeologik hikoyasining — *“Mengzi onasining uch ko‘chishi” va “Bir harfni tanimaslik”* — ning kelib chiqishi, ma’nosi hamda ular bilan bog‘liq tarixiy saboqlar haqida so‘z yuritiladi.

Asosiy qism

“Mengzi onasining uch ko‘chishi” (孟母三迁)[1]

我国古代思想家孟子，人称“亚圣”。他三岁那年，父亲去世了。开始，母子俩住在墓地附近，常看到出殡的场面，孟母怕影响他学习，把家搬迁到集市附近。在集市常看到杀猪卖肉也不行，又搬到一所学堂附近。孟子每天看到的是读书郎，就喜欢读书了。于是，他们才住了下来，不再搬家了。

“*Mengzi* onasining uch bora ko‘chishi” Xitoyning qadimiy tarixidan kelib chiqadi. Bu hikoya Xitoy falsafasining buyuk vakili, “Ikkinchi donishmand”[2] (yoki “*Yashen*”) deb ataluvchi *Mengzi* (miloddan avvalgi 372–289-yillar) hayoti bilan bog‘liq. Hikoya *Mengzining* onasi qiyin sharoitda farzandining ta’lim olishiga bo‘lgan intilishiga qaratilgan.

Mengzining otasi u uch yoshga to‘lganida vafot etgan. Onasi uni tarbiyalashda juda ehtiyotkor bo‘lib, yaxshi muhit yaratishga harakat qilgan. Dastlab ular qabriston yaqinida yashashgan va Mengzi ko‘pincha dafn marosimlariga guvoh bo‘lgan. Onasi bu muhit bolaning ruhiyatiga salbiy ta’sir qilishi mumkin deb hisoblab, ko‘chishga qaror qilgan. Keyinchalik ular bozor yaqiniga ko‘chib o‘tishadi, lekin bu yerda Mengzi har kuni go‘sht savdogarlarini kuzatib, noto‘g‘ri odatlarni o‘rganishi mumkin edi. Oxir-oqibat, ular bir maktab yaqinida joylashadi va Mengzi har kuni o‘qiyotgan o‘quvchilarni ko‘rib, o‘qishga qiziqib qoladi. Shu tariqa, ular bu joyda qolishga qaror qilishadi.

Bu hikoya Xitoyda ta’lim muhitining ahamiyatini ifodalaydi. “Mengzi onasining uch ko‘chishi” iborasi ota-onaning farzand tarbiyasidagi mas’uliyatini va muhitning ta’limga ta’sirini anglatadi. Bu ibora hanuzgacha Xitoy ta’lim falsafasida qadrlanadi va ota-onalarga yaxshi o‘rnak sifatida ko‘rsatiladi.

Komponent tahlil yordamida hikoyada uchragan “迁”[3] *qiān* frazeologizmini quyidagicha tushuntirish mumkin:

“迁” so‘zi lug‘aviy ma’noda “ko‘chish”, “joyni o‘zgartirish”ni anglatadi. Bu so‘z harakat va o‘zgarish bilan bog‘liq bo‘lib, ma’naviy jihatdan yangi joy yoki sharoit izlashni ifodalaydi.

---

[1] “中国成语故事” (Xitoy iboralari hikoyalari), 北京出版社, 2010.

[2] https://www.hwjyw.com/article/926.html

[3]刘明。 成语的文化内涵。~ 语言与文化研究， 2015.

“迁” so‘zi “孟母三迁” *(“Mengzi onasining uch bora ko‘chishi”*) frazeologik hikoyasida ishlatilgan. Bu ibora Mengzining onasi o‘g‘lining ta’lim olishiga to‘g‘ri keladigan muhitni tanlash uchun bir necha bor yashash joyini o‘zgartirganligini bildiradi. Bu frazeologizm ta’lim olishda yoki tarbiyada muhitning ahamiyatini ta’kidlaydi. “迁” faqat oddiy “ko‘chib o‘tish” ni anglatmaydi: bu yangi imkoniyatlar va maqsadga erishish uchun muhitni ongli ravishda o‘zgartirishni ifodalaydi. “孟母三迁” orqali bu frazeologizm yaxshi ta’lim yoki tarbiya uchun sharoitning ahamiyatini ko‘rsatadi. Bugungi kunda bu frazeologizm odatda inson hayotida yaxshi imkoniyatlarni yaratish yoki o‘ziga mos muhitni topish jarayonida qo‘llaniladi.

“Ko‘zi bir harf tanimaslik” (目不识丁)

唐朝时，张弘靖手下有两个部将，他们没有什么文化，经常聚在一起喝酒发牢骚。每当喝多了酒，他们就责骂士兵：“现在天下太平，不需要打仗了，你们空有拉开硬弓的力气，有什么用？还不如认识一个字。”后来被误传为“识一丁字”。[1]

“Ko‘zi bir harf tanimaslik” iborasining kelib chiqishi Tang sulolasi davriga (618–907) borib taqaladi. Hikoyada Zhang Hongjing ismli amaldorning ikki qo‘mondoniga oid voqea tasvirlanadi. Ular deyarli savodsiz bo‘lishgan, biroq harbiy xizmatda faol edilar. Ular tez-tez yig‘ilib, o‘zlarining noroziliklarini bildirgan va “tinchlik zamonida jang qilishning nima keragi bor?”-, deb shikoyat qilishgan.

Bir kuni ichib olishgach, ular askarlar ustidan shunday kinoya qilishadi: “Sizlarda kamonni tortishga kuch bor, lekin birgina harfni ham o‘qiy olmasangiz, buning nima foydasi bor?”.

Bu gaplarni boshqalar “ko‘zi bir harfni ham tanimaslik” deb talqin qilishgan va keyinchalik “目不识丁” frazeologik iborasi shakllangan.

Bu ibora oddiy savodsizlikni anglatadi, lekin uni tanqidiy ohangda ishlatish ham mumkin. *“Ko‘zi bir harfni tanimaslik”* iborasi Xitoyda madaniyat va bilim ahamiyatini ta’kidlaydi. Ushbu ibora insonning ta’lim olishdagi e’tiborsizligi yoki imkoniyatlarini boy berishi haqida ogohlantiruvchi qissa hisoblanadi.

Komponent tahlil asosida “目不识丁” frazeologizmi ochiladi. “目不识丁” xitoycha frazeologizmi so‘zma-so‘z tarjimada *“ko‘z harfni tanimaydi”* degan ma’noni anglatadi bu ibora bizdagi *“Alifni kaltak deyish”*[2] iborasiga yaqin keladi va odatda “juda savodsiz” yoki “biror narsa haqida umuman tasavvurga ega emas” degan ko‘chma ma’noda qo‘llaniladi. Ushbu frazeologizmni komponent tahlili

[1] “中国成语故事” (Xitoy iboralari hikoyalari), 北京出版社, 2010.

[2] https://uztrj.uz/wp-content/uploads/2025/02/9-O%E2%80%98zbek-tili-frazeologik-lug%E2%80%98ati.pdf

orqali yoritish uchun uning tarkibiy qismlarini alohida koʻrib chiqish orqali oson tushuntirish mumkin:

1. 目 *mù* – “Koʻz”

Bu komponent koʻpincha “koʻrish” yoki “sezish” bilan bogʻliq boʻlgan tushunchalarni bildiradi. “目” bu yerda insonning koʻzlari orqali biror narsani tanish yoki anglash qobiliyatini ifodalaydi.

2. 不*bù* – "Emas"

“不” inkor yuklamasi boʻlib, biror narsaning yoʻqligini yoki mumkin emasligini koʻrsatadi. Bu yerda “koʻz tanimaydi” degan inkorni kuchaytiradi.

3. 识 (shí) – “Tanish”,

“识” soʻzi odatda tanish, bilishni anglatadi. Bu frazeologizmda “文字” (harflar)ni tanishni nazarda tutadi.

4. 丁 *dīng* – “Ding” iyeroglifi

“丁” bu yerda xitoy yozuvining eng sodda iyerogliflaridan biri sifatida ishlatiladi. Ushbu belgi murakkab narsa emasligini ta’kidlaydi, ya’ni shunchaki oddiy, soda belgi.

Endi umumlashtiradigan boʻlsak, ushbu ibora – insonning hatto eng oddiy belgini ham bilmasligi, savodsizligi tasvirini koʻz oldimizga keltirishimiz mumkin.

“目不识丁” frazeologizmi asosan 2 holatda gapda quyidagicha ishlatiladi:

1. Tanqidiy: Birovning savodsizligini tanqid qilishda.

Misol: 他目不识丁，却想当作家。*tā mù bù shí dīng, què xiǎng dàng zuòjiā.*

U juda savodsiz, ammo yozuvchi boʻlishni istaydi.

2. Kamtarin ifoda: Oʻzining bilim darajasini kamtarlik bilan past baholashda:

Misol: 我目不识丁，全靠您指导。*Wǒ mù bù shí dīng, quán kào nín zhǐdǎo.*

Men juda savodsizman, faqat sizning yoʻlboshchiligingizga tayanaman.

“目不识丁” frazeologizmi insonning bilim darajasini oʻlchashda qoʻllaniladigan ibora boʻlib, xitoy tili va madaniyatida chuqur ildizga ega. Uning komponentlari birgalikda ham ma’noni, ham hissiyotni ifodalab beradi.

Yuqorida tahlil qilingan ikki hikoya — “Mengzi onasining uch bora koʻchishi” hamda “Koʻzi bir harfni ham tanimaslik” — qadimiy Xitoy jamiyatida ta’lim va tarbiyaning naqadar muhim qadriyatlar sifatida qaralganini yaqqol namoyon etadi. Komponent tahlil asosida bu asarlarda aks ettirilgan asosiy gʻoyalar — tarbiya jarayonida muhitning roli, onaning farzand taqdiridagi faol ishtiroki, savodxonlikning ijtimoiy maqomi, hamda ta’limning shaxs shakllanishidagi oʻrni — alohida ajralib turadi.

“Mengzi onasining uch bora koʻchishi” hikoyasida muhit komponenti orqali bolaning axloqiy va ma’naviy shakllanishiga tashqi omillar qanday ta’sir qilishi tahlil etiladi. Bu hikoya ijtimoiy muhit va tarbiya uygʻunligining

ahamiyatini koʻrsatadi. Shu bilan birga, ona obrazining faol harakati farzand tarbiyasida onaning masʼuliyatini yuksak darajada ifodalaydi.

“Koʻzi bir harfni ham tanimaslik” hikoyasi esa taʼlimning ijtimoiy qadriyat sifatidagi oʻrnini ochib beradi. Bu yerda savodsizlik — shaxsiy zaiflik emas, balki jamiyat nazaridagi kamchilik sifatida aks ettiriladi. Savodli boʻlish — ijtimoiy hurmat va obroʻga erishishning zaruriy sharti sifatida ilgari suriladi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu hikoyalar Xitoy anʼanaviy madaniyatida tarbiya, taʼlim va axloqiy yetuklikning jamiyat taraqqiyoti uchun asosiy komponentlar ekanini tasdiqlaydi. Bu qadriyatlar nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy tarbiyaviy yondashuvlar uchun ham dolzarb metodologik asos boʻlib xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. “中国成语故事” (Xitoy iboralari hikoyalari), 北京出版社, 2010.
2. 刘明。 成语的文化内涵。~ 语言与文化研究， 2015.
3. https://www.hwjyw.com/article/926.html
4. http://paper.people.com.cn/rmrbhwb/html/2016-05/17/content_1679816.htm
5. https://uztrj.uz/wp-content/uploads/2025/02/9-O%E2%80%98zbek-tili-frazeologik-lug%E2%80%98ati.pdf

XITOY VA INGLIZ TILLARI LINGVOMADANIYATIDA KOʻK RANG TASVIRI

Oygul SHUHRATOVA
TDSHU, Xitoyshunoslik oliy maktabi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Xitoyshunoslik oliy maktabi
katta oʻqituvchisi Z. Artikova

Annotatsiya: Ushbu maqola tilshunoslikda frazeologizmlarni oʻrganuvchi frazeologiya va til, madaniyatlarni bogʻlab turuvchi lingvokulturologiya haqida boʻlib, maqolada ranglar guruhiga mansub boʻlgan frazeologizmlarning ikki til madaniyatlaridagi oʻrni va ahamiyati tadqiq qilingan. Til va madaniyat har qanday millatning oʻziga xosligida ahamiyat kasb etuvchi muhim omil hisoblanadi. Hozirgi kunga kelib til va madaniyat oʻrtasidagi umumiy bilimlari mujassamlashtirish natijasida lingvokulturologiya fani tilshunoslikning bir boʻlagiga aylanib bormoqda. Xitoy va Ingliz tillaridagi frazeologik birliklarni oʻrganish davomida frazeologiya va lingvokulturalogiya fanlari tilshunoslikda hozirgi kunda eng koʻp izlanish va tadqiqotlarga sabab boʻlib kelayotgan mavzularni oʻz ichiga olayotganligi koʻrish mumkin.

Kalit soʻzlar: Frazeologizm, lingvokulturologiya, lingvokulturema, tabu, leksika, grammatika.

Lingvokulturologiya hozirgi kunda til va madaniyatlar o‘rtasida ma’lumotlar almashish va ularni to‘ldirish uchun mustahkam bir ko‘prik vazifasini o‘tamoqda. Lingovokulturalogiyada hozirda ochiq qolib kelayotgan va munozarali masala — tilning madaniyatga ta’siri masalasini o‘rganish muhim maqsad qilib qo‘yilgan. “Lingvokulturalogiya” atamasiga nazar soladigan bo‘lsak bu dastlab frazeologik maktab asoschisi V.N. Teliya[1] va V.V.Voroboyov[2] ,V.A. Maslova[3] va boshqalarning ishlarida ko‘rindi. Frazeologik maktabda dastlab qo‘llanishni bu atama XX asrning 90- yillariga kelib yangi fan va maxsus soha sifatida shakllanib tilshunoslikda ham o‘zining muhim o‘rniga ega bo‘ldi.

Lingvokulturalogiya fanining asosiy va eng muhim tushunchalaridan biri bu — lingvokulturemadir. Fanda til va madaniyatning uzviy bog‘liqligiga asoslangan til birliklariga nisbatan “lingvokulturema” atamasi ishlatiladi. Lingvokulturemalarga madaniyatning biror bo‘lagini aks ettiruvchi so‘zlar, frazeologik birliklar, so‘z birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Madaniyatlarning o‘ziga xosligini til yordamida ko‘rsatib beruvchi frazeologizmlar lingvokulturologiya atamasi paydo bo‘lgandan hozirgi kunga qadar bu fan rivojiga o‘z hissasini qo‘shib kelmoqda. Ayniqsa lingvokulturemaning bir bo‘lagi bo‘lgan frazeologizmlar sharq va g‘arb madaniyatlaridagi umumiylik va o‘ziga xosliklarni tahlil qilishga imkonini yaratadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. Frazeologizmlar kishilar orasida yuzaga keladigan turli munosabatlarni qisqa, lo‘nda va ta’sirchan qilib ifodalaydi. Tilda frazeologizmlarning qanchalik ko‘p bo‘lishi o‘sha til imkoniyatlarining kengligidan dalolatdir. Xitoy tili esa mana shu tillar orasida yetakchi o‘rinlarni egallaydi. Xitoy tilshunosligida frazeologiya mavzusi shu darajada keng qamrovli ekanligidan hanuzgacha to‘liq o‘rganib chiqilmagan. Go Sin-i o‘zining nomzodlik dissertatsiyasi “Xitoy tilshunosligida frazeologiya hozirga qadar alohida tadqiqot obyekti sifatida o‘rganilmagan hamda leksikologiyaning bu bo‘limi hali maxsus nomga ega emas” deb ta’kidlagan[4]. Frazeologik birliklar tilning o‘ziga xos, ma’naviy va madaniy xususiyatlarini aks ettiruvchi eng muhim elementlaridan biridir.

Tilning frazeologik to‘plami faqat grammatik va leksik qismlardan iborat emas, balki uning har bir elementi milliy va madaniy qadriyatlar, tarixiy tajriba, shu bilan birga, tilning pragmatik vazifalarni ham o‘z ichiga oladi. Frazeologizmning tarkibiy komponentlaridan biri bo‘lgan ranglar hisoblanib, Ranglarning frazeologik birliklarda qo‘llanilishi, ularning lingvistik va madaniy mazmundagi ma’nolari hamda bu ma’nolarning frazeologik strukturalarda

---

[1] Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

[2] Воробьев В. В. Лингвокультурология. — М. Изд-во РУДН, 2008. — 340 с

[3] Маслова В.В. Лингвокультурология в системе гуманитарного знания / Критика и семиотика. — М., 1987.

[4] Go Sin-I.Телесный код в китайской фразеологии и его русское соответствие: Автореф. Дис… канд. Филол. наук – М, 2004 – С 4.

qanday shakllanishi tilshunoslikda keng o‘rganilgan mavzulardan biridir. Shuning uchun ham, rang komponentli frazeologizmlarning o‘rni va lingvokulturalogiyadagi xususiyatlarini o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, psixologiya, antropologiya, sotsiologiya, tarix va etnologiya sohalarida ham bevosita muhim ahamiyat kasb etadi.

Frazeologizmlar borasida tadqiqotlar olib borgan tilshunos olim F.I.Buslayev ularni quyidagicha ta’riflagan: — Frazeologizmlar o‘ziga xos kichik dunyo bo‘lib, ular ajdodlar tomonidan avlodlarga meros qilib qoldirilgan axloqiy qoidalar va haqqoniy fikrlarni o‘z ichiga olgan qisqa hikmatli ifodalardir. Ular millatning o‘ziga xos ruhini betakror obrazlar vositasida ifodalaydigan har qanday milliy tilning jonidir. Frazeologizmlar har qanday tilda til birligi maqomiga ega bo‘lib, so‘z kabi tilning rivojiga xizmat qilarkan.

Muhokama va natijalar. Olib borilgan tadqiqotlar, izlanishlar shuni ko‘r-satadiki, frazeologik birikmalar qaysi mavzuga doir bo‘lmasin har bir tilning mentalitetiga xos bo‘ladi. Shu jumladan rang komponentlarini o‘z ichiga oluvchi frazeologizmlar ham ingliz va xitoy tillarida millatning kelib chiqish tarixi va an’analariga sodiq qolgan holda ma’no kasb etadi. G‘arb mamlakatlarida aynan rang atamalarini o‘rganish uzoq tarixiy jarayonlarni o‘z ichiga oladi. Birgina ko‘k rangi ishtirok etgan frazeologizmlarni olib qaraydigan bo‘lsak. Bu rangga nisbatan xitoy va ingliz millatining o‘z qarashlariga ega ekanligini sezish mumkin.

Amerika madaniyati va tarixiga qaraydigan bo‘lsak ko‘k rangi ular uchun sevimli va muhim rol o‘ynovchi rang hisoblanadi. Buning isboti sifatida davlat ramzlaridan ham bilishimiz mumkin. Hatto o‘tkazilgan so‘rovnomalarga qaraganda Yevropa va Amerika aholisi ham sevimli rang sifatida tanlashgan. Chunki, rang xotirjamlik, bilim, an’anaviy va konservativ ko‘rinishga ega bo‘lgan xavfsiz rang hisoblanadi. Shu bilan birga, ba’zi diniy manbalarga ko‘ra ko‘k rang motam belgi sifatida ham qayt etilgan. Shuning uchun ham yuqoridagi frazeologik birikmalarda ruhiy va jismonan murakkab bo‘lgan vaziyatlarni ifodalab kelmoqda. Bundan tash-qari, zamonaviy va og‘zaki xitoy tilida “blue” ba’zan “sariq” degan ma’nolarda ham ishlatilish holatlari kuzatiladi. Masalan, “blue jokes” (odobsiz va qo‘pol hazillar) kabi iboralarda ranglarda o‘zgarish yuz berish holatlarini ko‘rishimiz mumkin.

Xitoy va madaniyati va tarixiga qaraydigan bo‘lsak “ko‘k” yog‘och elementini ifodalaydi. Adabiyotlarga nazar soladigan bo‘lsak aynan ko‘k rangning xitoy tilidan ingliz tiliga tarjima jarayonida ekvivalenti sifatida ko‘pincha yashil rang qo‘llaniladi. Zamonaviy xitoy tiliga kelib ko‘k va yashil ranglari orasida farq paydo bo‘ldi. “藍” [lán] – ko‘k “綠” [lǜ] – yashil rangni ifodalamoqda. Ko‘pincha “yashil” deb tarjima qilingan bo‘lsa-da, u aslida ko‘k va yashil o‘rtasidagi rangni anglatib “青” iyeroglifi bilan ham ifodalanadi. “蓝” esa dastlab indigo[1] o‘simlikning bo‘yog‘iga ishora qilgan.

[1] indigo-(lat. Indigofera suffruticosa, Gvatemala indigosi, mayda bargli indigo, hind indigosi, yovvoyi indigo) – no‘xatdoshlar oilasiga mansub gulli o‘simlik.

Buni misol tariqasida keltirilgan frazeologizmlar talqinida ham koʻrish mumkin. Va bundan tashqari koʻk “tabu” rang hisoblanadi. Bu e’tiqod mintaqaviy xalq ertaklarida uchraydi va ayniqsa janubiy Xitoyning bir qancha qismlarida, xususan Guangdong, Gonkong va Makaoda kuchli. Bu tabu, ayniqsa, keksalar uchun, ayniqsa bayram mavsumida juda muhimdir. Quyida tasvirlangan koʻk rang Xitoy madaniyatida “janoza rangi” deb nomlanadi, chunki bu rangni odatda dafn marosimlarida va Xitoyning an’anaviy dafn marosimlarida topish mumkin. Ajablanarlisi shundaki, bunday rang shuning uchun noqulaylik keltirib chiqaruvchi rang deb ham hisoblanadi.

Ingliz va xitoy tillarida koʻk rangi ishtirokidagi frazeologizmlarda oʻxshashliklar ham mavjud. Masalan: insonlar tasavvurida “koʻk” osmonning rangi sifatida qabul qilinadi. Bu tushuncha esa rivojlanish, lavozimga koʻtarilish ma’nolarini anglatadigan boʻlsa, “blue collar” va “蓝领” [lánlǐng] (moviy yoqali ishchilar) iboralari buning yaqqol namunasi boʻloladi. Shuningdek, “blue print” va “蓝图” [lántú] rejalar yoki loyihalar uchun ishlatiladi. Bundan tashqari, “koʻk” ikkala tilda ham kutilmagan hodisalar maʻnosini anglata oladi.

Masalan, xitoy tilida “青天霹雳” [qīngtiān pīlì] iborasi toʻsatdan sodir boʻladigan voqealarni tasvirlash uchun ishlatiladi, ingliz tilida esa “out of the blue” iborasi ham aynan shu ma’noni bildiradi. Ijtimoiy kelib chiqishi jihatidan boy va zodagon oilada dunyo kelgan farzandli ifodalashda ham ikki tilda ham “koʻk” rangli komponentlardan tashkil qilingan birikmalardan foydalaniladi.

Masalan, “蓝田出玉” [Lántián chū yù] va “Blue blood” birikmalari hisoblanib ikkalasi ham ma’no jihatidan bir xil vazifani bajaradi. Quyidagi xitoy va ingliz tilidagi frazeologik birikmalarni yuqorida ta’kidlab oʻtgan ma’lumotlarimizga misol tariqasida keltirishimiz mumkin:

“Blue in the face” (exhausted and speechless) – charchagan, holdan toygan. Bu birikma insonning jismoniy holati yomon ekanligini va charchoqni ifodalab keladi.

“ Once in a blue moon” (very rarely) – juda kamdan-kam. Biror-bir vaziyatni sodir boʻlish va takrorlanish darajasi juda past ekanligini ifodalaydi.

“Out of the blue” (If something happens out of the blue, you’re not expecting it to happen and you’re surprised when it does) – kutilmagan holda sodir boʻlgan yahshi bir voqeadan quvonishni anglatadi.

“Between the devil and deep blue sea” (a type of situation where u must choose between two equallyunpleasant situations) – ikkita murakkab boʻlgan vaziyatdan birini tablashga majbur boʻlish ma’nosini ifodalaydi.

“In the blues” (low spirited) – bu birikma insonning ruhiy ahvolidagi tushkunlikni anglatadi.

“Blue Blood” (adj. blue-blooded) – person of aristocratic background. Biror-bir kishining ijtimoiy kelib chiqishi boy va badavlat oiladan ekanligini bildiradi.

“Bolt From the Blue” (something completely unexpected) – kutilmagan vaziyatni ifodalash uchun qoʻllaniladigan frazeologik birikma.

“青出于蓝” [qīng chū yú lán] – yashil rangli indigo (oqmiya) o‘tidan olinadi, lekin rangi indigo o‘tiga qaraganda to‘qroq. Bu shogirdlarning ustozlariga qara-ganda bilimliroq bo‘lib yetishishlarini ifodalab keladi.

“蓝田出玉” [lán tián chū yù] – Lantian-joy nomi, Shansi provinsiyasida joylashgan. Ijtimoiy kelib chiqishi boy va badavlatda oilada tug‘ilgan farzand uchun qo‘llaniladigan metafora.

“白袷蓝衫” [bái jiá lán shān] – qadimgi olimlarning kiyimlari. Muvaffaqiyatga erisholmagan insonlarni ifodalaydi.

“青蓝冰水” [qīng lán bīng shuǐ] — yashil osmondan muz esa suvdan. Bu birikma shogirdning ustozdan o‘zib ketishi yoki ajdodlaridan ustun bo‘lgan avlodlarga nisbatan qo‘llaniladi.

Xulosa: Frazeologiya va Lingvokulturalogiya fanlarida o‘rganilishi va izla-nishlar olib borish kerak bo‘lgan fanlardan biri. Bu fanlarni o‘rganish orqali Tilshunoslikda boshqa sohalardagi tadqiqotlarga ham yengilliklar yaratish mum-kin.Chunki, bu ikki soha o‘rganilayotgan tildagi xalqning ongi va tafakkurining o‘ziga xosligi, davrlar mobaynida rivojlanib kelayotgan madaniy-ma’rifiy jarayon-ni, tarixiy merosini va kelajagini ko‘rsatib beruvchi ikki ustun vazifasini bajarmoqda. Frazeologiya o‘rganilgan sari yanada yangi bilimlarga muhtojlik keltirib chiqaruvchi va o‘rganilgan tilning tarixi qanchalik go‘zal va murakkablik darajasini ochib beruvchi bir fandir. Amerika madaniyati va tarixiga ko‘k rangi ular uchun sevimli va muhim rol o‘ynovchi rang hisoblanadi. Xitoy tilida ko‘k rang “青” iyeroglifi bilan ham ifodalanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. T.Akimov. Xitoy tilidagi somatik frazeologizmlar: shakllanishi va semantikasi. Toshkent, 2022. – 18-bet.

2. Go Sin-I.Телесный код в китайской фразеологии и его русское соответствие: Автореф. Дис… канд. Филол. наук – М, 2004 – С 4.

3. Pu Meng. A Language and culture comparative study of three primary color in English and Chinese idioms and usual expressions from the prespective of metaphorical cognition. 2021 International Conference on Education, Language and Art (ICELA 2021).

4. Erikson. How Translating Colors Across Cultures Can Help You Make a Positive Impact February 3, 2020.

5. E.Heller. Psychologie de la couleur: effects et symboliques . – France, 2009.

6. Ch.Kendra. The color Blue: Meaning and color Psychology. – February 20, 2024.

7. Y. Nurmuhammedov. Frazeologik birliklarning Lingvomadaniy xususiyatlari. – Iyul, 2022.

8. Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – С. 222.

ARAB TILIDA ISTISNO KATEGORIYASI

Xurshidaxon ABDUSALOMOVA
TDSHU, Sharq tillari adabiyoti va instituti,
arab filologiyasi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi A.E.Rustamov

Annotatsiya: Ushbu maqolada arab tilida istisno jumlalari va ularning grammatik qoidalari batafsil tahlil qilingan. Istisno vositalari (إلا, غير, سوى, خلا, عدا, حاشا va boshqalar) orqali so‘zlarning gapdagi o‘rni, mansub va muvofiqlik holatlari, shuningdek, inkor va tasdiq jumlalarida istisno qilish usullari misollar orqali yoritilgan

Kalit so‘zlar: istisno jumlasi, إلا, غير, سوى, خلا, istisno vositalari, istisno mufarraq, istisno tam.

Arab tilida istisno — bu gapdagi hukmdan إلا yoki uning o‘rnini bosuvchi boshqa istisno vositalari orqali keyingi so‘zni ajratib ko‘rsatish jarayonidir. Ya’ni, bu jarayon bir butundan bir qismini chiqarib tashlash ma’nosini anglatadi.[1]

O‘zbek tilida aynan shu grammatik kategoriyaning muqobil varianti yo‘q. “Istisnolik” termini o‘zbek tili grammatikasida ishlatilmaydi, chunki u alohida grammatik kategoriya hisoblanmaydi.

Istisnolikni konkret tasavvur qilish uchun “Sendin o‘zga kimni derman, yori janonim — o‘zing”, “Bog‘imizda gilosdan boshqa hamma mevalar mavjud” misollarini keltirish kifoya. Bu misollardagi “sendin o‘zga”, “gilosdan boshqa” iboralari istisnolikni bildiradi.[2]

Arab tilida istisno jumlasi quyidagi tarkibiy qismlardan tashkil topadi:

1. Istisno qilingan so‘z – bu istisno vositasidan keyin keluvchi va oldingi so‘z hukmidan chiqariluvchi so‘z.

2. Istisno vositasi – undan keyin kelgan so‘zni oldingi hukmdan chiqarish uchun ishlatiladigan so‘z.

3. Istisno qilingan so‘zga tegishli umumiy ma’no – istisno vositasidan oldin keluvchi so‘z bo‘lib, unga nisbatan hukm beriladi va undan istisno qilinadi.

4. Hukm – bu istisno qilingan so‘zga tegishli bo‘lgan, lekin istisno qilingan so‘zga taalluqli bo‘lmagan ma’no, u tasdiq yoki inkor shaklida bo‘ladi. Masalan,

جاء التلاميذ إلا محمداً *O‘quvchilar keldi, faqat Muhammad bundan mustasno yoki Muhammaddan tashqari o‘quvchilar keldi.* Bu misolda

“التلاميذ” (*o‘quvchilar*) — istisno qilingan guruh (منه المستثنى);

“محمداً” (*Muhammad*) — istisno qilingan shaxs (المستثنى);

“إلا” — istisno vositasi (الاستثناء أداة).

Muhammad o‘quvchilardan biri bo‘lib, butun guruhdan ajratib ko‘rsatilgan.

Istisno uchun quyidagi vositalar ishlatiladi: إلا ,غير, سوى , خلا , عدا , حاشا, ليس , يكون لا .

[1] التحفة السنية بشرح المقدمة الاجرمية, محمد عبد الحميد محي الدين :.خ, مكتب السنه, 1989 ز-234 ص

[2] Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil. 368-bet

إلا bilan istisno va uning grammatik qoidalari:

Agar istisno vositasi إلا bo‘lsa va u takrorlanmasa, uch xil grammatik hukm bo‘lishi mumkin.

1. Majburiy nasb (mansub holat). Bu holatda gap to‘liq va musbat ya’ni bo‘lishli bo‘lishi kerak.[1] Masalan, "الكتابَ قرأتُ إلا خاتمتَه (*Kitobni o‘qidim, faqat xotimasidan tashqari*).

امتلأت إلا الجداولُ جدولًا كبيراً (*Daryo kanallari to‘ldi, faqat katta kanal bundan mustasno*). Bu misollarda:

“خاتمته” va “جدولًا كبيرًا” — istisno qilingan unsur (المستثنى);

“الكتاب” va “الجداول”— istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“إلا” — istisno vositasi (أداة الاستثناء). Bu turdagi istisno “istisno tam” (الاستثناءالتام) deb ataladi, chunki unda barcha asosiy unsurlar, ya’ni istisno qilingan guruh (المستثنى منه), istisno qilingan unsur (المستثنى), istisno vositasi (أداة الاستثناء) mavjud va istisno musbatdir (الموجب الاستثناء). Bu gapda inkor yoki shunga o‘xshash ma’no yo‘qligini anglatadi, ya’ni gap tasdiqlovchi hukmda bo‘ladi. Masalan, امتلأت إلا الجداولُ جدولًا كبيراً (*Daryo kanallari to‘ldi, faqat katta kanal bundan mustasno*). Bu yerda gap bo‘lishli, shuning uchun bu “musbat istisno” hisoblanadi.

2. Jozibiy nasb yoki kelishikda ergashish (الاتباع أو النصب جواز). Bu holatda ham istisno vositasi إلا bo‘lib, gap to‘liq va inkor shaklida ya’ni bo‘lishsiz bo‘lsa (yoki inkorga yaqin ma’noni anglatsa), istisno qilingan so‘z ikki xil usulda kelishi mumkin: mansub (nasb) holatda va muvofiqlik (ittiboh) holatida (ya’ni, istisno qilingan so‘z istisno qilingan guruhning erobiga mos ravishda keladi). Masalan, ما تخلف الطلابُ إلا طالباً (*O‘quvchilardan faqat bitta o‘quvchi qoldi*). إلا الطلابُ طالبٌ ما تخلف (*O‘quvchilardan faqat bitta o‘quvchi qoldi*). Bu misollarda

3. “الطلاب” — istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“طالباً” va “طالبٌ” — istisno qilingan shaxs (المستثنى);

“إلا” — istisno vositasi (أداة الاستثناء). Ikki usuldagi farq quyidagicha: bu yerda istisno qilingan unsur to‘liq ajratilgan. “طالبٌ” (muvofiq holat) — bu holatda “طالبٌ” (*o‘quvchi*) so‘zi “الطلاب” (*o‘quvchilar*) so‘ziga erob jihatdan mos ravishda marfu kelgan. Yana bir misol: ما بأحدٍ مررتُ أخاك إلا (*Men hech kim bilan uchrashmadim, faqat akangdan tashqari*).

ما مررتُ بأحدٍ إلا أخيك (*Men hech kim bilan uchrashmadim, faqat akangdan tashqari*). Bu misollarda: “أحدٍ” — istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“أخاك” — mansub holatda kelgan istisno qilingan shaxs (المستثنى);

“أخيك” — muvofiqlik (ittiboh) holatda kelgan istisno qilingan shaxs.

3. Istisno mufarraq (الاستثناء المفرغ). Bu holatda gap inkor yoki inkorga yaqin bo‘lib, unda istisno qilingan guruh (المستثنى منه) ochiq aytilmaydi. Istisno qilinadigan unsurdan oldin kelgan so‘z ham aytilmagan bo‘ladi.

Misollar: ما حضر إلا زيدٌ (*Faqat Zayd keldi*). جاءإلا ما خالدٌ (*Faqat Xolid keldi*). Bu misollarda istisno qilingan guruh (منه المستثنى) ochiq aytilmagan bo‘lsa-da,

[1] Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil. 369-bet

ma’no jihatidan mavjud. Istisno qilingan unsur (المستثنى) “زيدٌ” va “خالدٌ” bo‘lib, u marfu holatda keladi, chunki u gapda ega vazifasida keladi.

غير va سوى vositalari bilan istisno va uning qoidalari

غير va سوى arab tilida ba’zan إلا vazifasini bajaradi va ularning qoidalari shunga o‘xshash, biroq bu ikki vositaning o‘ziga xos grammatik xususiyatlari mavjud.[1]

1. غير va سوى doim mavofiq (ittiboh) holatida keladi. Ikkalasi ham mudof bo‘lib, keyin kelgan so‘z doim majrur bo‘ladi. Ma’nosi jihatidan إلا bilan bir xil bo‘lsa-da, erob jihatidan farq qiladi.[2]

2. غير va سوى ning grammatik hukmlari:

a) Mansub (nasb) holatdagi istisno gap bo‘lishli va to‘liq bo‘lsa, غير va سوى istisno qilingan unsur sifatida nasb holatda keladi.

Masalan, جاء القومُ غيرَ سعيدٍ (*Qavm keldi, faqat Said kelmadi*). القومُ سعيدٍ سوى جاء (*Qavm keldi, faqat Said kelmadi*). Bu misollarda:

“القوم” — istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“غيرَ” va “سوى” — istisno vositasi (أداة الاستثناء);

“سعيدٍ” — majrur holatda kelgan so‘z bo‘lib, “غير” va “سوى” so‘zlariga bog‘langan.

b) Mansub yoki muvofiqlik (ittiboh) holatdagi istisno. Gap inkor (bo‘lishsiz) shaklda va to‘liq bo‘lsa, غير va سوى ikki xil holatda kelishi mumkin:

1. Mansub (nasb) holatda. Muvofiqlik (ittiboh) holatida (istisno qilingan guruhning erobiga mos ravishda)

Misollar: ما سبق المتسابقون غيرَ سعيدٍ (*Musobaqachilardan faqat Said ortda qoldi*). ما سبق غيرُ المتسابقون سعيدٍ (*Musobaqachilardan faqat Said ortda qoldi*). Bu misollarda: “المتسابقون” — istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“غيرَ” — mansub holatda kelgan istisno unsuri;

“غيرُ” — marfu holatda kelgan va istisno qilingan guruhning erobiga mos ravishda ishlatilgan.

c) Istisno mufarraq (الاستثناء المفرغ) holatida. Gap inkor shaklda bo‘lib, istisno qilingan guruh ochiq aytilmagan bo‘lsa, غير va سوى gapda o‘zining erobiga mos ravishda keladi.[3]

Masalan, ما فازغيرُ عليٍّ (*Faqat Ali g‘alaba qozondi*). ما نجح سوى زيدٍ (*Faqat Zayd muvaffaqiyat qozondi*). Bu misollarda:

“غيرُ” va “سوى” — istisno qilingan unsur (المستثنى) bo‘lib, marfu holatda kelgan, chunki gapdagi hukm ular bilan bog‘langan.

عدا ,خلا va حاشا vositalari bilan istisno va uning qoidalari

[1] Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil. 369-bet

[2] Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil.369-bet

[3] ص-210 .2007الإسكندرية , "العقيدة دار", صالح وحممد طموم ومصطف دياب ومحمد ناصف حفني, النحوية الدروس

خلا, عدا va حاشا arab tilida istisno vositalari hisoblanadi va ular ikki xil rolni bajarishi mumkin: fe’l yoki harf sifatida. Har ikki holatda ham ularning qo‘llanilishida grammatik farqlar mavjud.[1]

1. خلا, عدا va حاشا fe’l sifatida. Agar bu so‘zlar fe’l vazifasida kelsa, ularning ma’nosi “chiqarib tashlash” (istisno qilish) bo‘ladi. Undan keyingi so‘z mansub (nasb) holatda keladi, chunki u fe’lning to‘ldiruvchisi (maf’ul bihi) hisoblanadi. Masalan, جاء القومُ خلا زيداً

(*Qavm keldi, faqat Zayd bundan mustasno*).جاء القومُ عدا عمراً (*Qavm keldi, faqat Amr bundan mustasno*). Bu misollarda

“القوم” — istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“زيداً”, “عمراً” — mansub holatda kelgan istisno unsuri (المستثنى).

“خلا”, “عدا”, “حاشا” — fe’l vazifasida kelgan istisno vositalari.

2. خلا, عدا va حاشا harf sifatida. Agar bu so‘zlar harf (yordamchi so‘z) sifatida kelsa, ularning ma’nosi yana “chiqarib tashlash” (istisno qilish) bo‘ladi.Undan keyingi so‘z majrur holatda keladi. Masalan, جاء القومُ خلا زيدٍ (*Qavm keldi, faqat Zayd bundan mustasno*). جاء القومُ عدا عمرو (*Qavm keldi, faqat Amr bundan mustasno*). Bu misollarda

“القوم” — istisno qilingan guruh (المستثنى منه);

“زيدٍ”, “عمروٍ” — majrur holatda kelgan istisno unsurlari (المستثنى);

“خلا”, “عدا”, “حاشا” — harf (yordamchi so‘z) sifatida kelgan istisno vositalari.

3. Agar خلا, عدا va حاشا vositalaridan oldin ما yuklamasi kelsa, bu so‘zlar faqat fe’l sifatida keladi va ulardan keyingi so‘z har doim mansub holatda bo‘ladi.

Masalan, ما جاء القومُ خلا زيداً (*Qavm keldi, faqat Zayd bundan mustasno*).

ما حضرَ الطلابُ عدا طالباً (*Talabalardan faqat bitta talaba keldi*). Bu misollarda

“ما” — harf (manfiy yuklama);

“خلا”, “عدا” — fe’l;

“زيداً” va “طالباً” — mansub holatda kelgan istisno unsuri.

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, ushbu maqolada arab tilida istisno jumlalari va ularning grammatik xususiyatlari chuqur tahlil qilindi. Istisno vositalari (إلا, غير, سوى, خلا, عدا, حاشا va boshqalar) yordamida gap tarkibida qanday o‘zgarishlar yuz berishi, istisno qilinadigan so‘zlarning holati, mansubligi va gapda egallagan o‘rni misollar bilan yoritildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, istisno jumlalari arab tilining muhim sintaktik va semantik unsurlaridan biri bo‘lib, ularni to‘g‘ri qo‘llash gap mazmunini aniq ifodalash uchun zarurdir. Xususan, istisno vositalarining tasdiq va inkor jumlalaridagi ishlatilishi, istisno mufarraq va istisno tam kabi tushunchalar misollar orqali izohlandi. Bu esa arab tilining nozik jihatlarini tushunish va tarjima qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, istisno vositalarining turli kontekstlardagi qo‘llanilishi tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganildi va ularning grammatik tizimdagi o‘rni tahlil qilindi. Ushbu mavzuni yanada chuqur o‘rganish arab tilida savodxonlikni oshirish, matnni to‘g‘ri tushunish va tarjima jarayonida

[1] Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil. 390-bet

xatolarga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Shu boisdan, arab tilida istisno jumlalarining qo‘llanilishiga oid ilmiy yondashuvlarni yanada kengaytirish va ularning qo‘llanilish amaliyotini batafsil o‘rganish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil.

2. Arab tili darsligi 1-kitob, Rahmatullayeva Ra’no, O‘zbekiston musulmonlar idorasi “Hadichai Kubro” islom o‘rtamahsus ayol-qizlar bilim yurti Toshkent. 2008.

3. النحوية الدروس, حفني ناصف ومحمد دياب ومصطفى طموم وحممد صالح, "العقيدة دار" , الإسكندرية2007.

4. الاجرىمية المقدمة بشرح السنية التحفة, الحميد عبد الدين محي محمد :.خ, السنه مكتب, 1989

ARAB TILIDA FOIL VA UNING O‘ZBEK TILIDAGI EGADAN FARQI

Moxiraxon XUDOYBERGANOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Arabshunoslik oliy maktabi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi A.E. Rustamov

Annotatsiya: Ushbu maqola arab tilidagi “foil” va o‘zbek tilidagi “ega” grammatik tushunchalarining farqlarini o‘rganadi. Foilning turli shakllari — “sorih”, “muavval”, “mudmar” va “mustatir” va ularning o‘zbek tilidagi ega bilan taqqoslanishi tahlil qilinadi. Maqola arab va o‘zbek tillaridagi grammatik tizimlarning o‘zaro farqlarini va ularning til o‘rganishidagi ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar. Arab tili, foil, ega, grammatik farqlar, sorih foil, muavval foil.

Arab tilining grammatikasida “foil” (فاعل) tushunchasi juda muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu fe’lli gaplarda harakatni bajaruvchi shaxs yoki narsani bildiradi. O‘zbek tilida esa bu tushuncha “ega” deb ataladi, u harakatni bajaruvchini anglatadi. Arab va o‘zbek tillaridagi bu grammatik kategoriyalar o‘xshash bo‘lsa-da, ularning grammatik shakllari va qo‘llanilish usullari bir-biridan farq qiladi. Arab tilida foilning turli shakllari, shuningdek, uning o‘zbek tilidagi ega bilan qanday aloqasi borligini o‘rganish, bu ikki tilning sintaktik tizimlaridagi farqlarni yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Ushbu maqola arab va o‘zbek tillaridagi foil va ega tushunchalarini tahlil qilib, ularning grammatik jihatlarini va o‘zaro farqlarini batafsil ko‘rsatadi. Maqola, shuningdek, arab tilining grammatik tizimida foilning o‘rni va uning o‘zbek tiliga nisbatan murakkabliklarini yoritib beradi.

Arab tilida foil va uning o‘zbek tilidagi egadan farqi

Foil (arabcha فاعل) — arab tilidagi fe’lli gaplarda ish-harakatni bajarayotgan shaxs yoki narsani bildirib, o‘zbek tilidagi “ega”ga o‘xshaydi. Ya’ni, ish-harakat

kim yoki nima tomonidan bajarilayotganini bildiradi[1]. Arab tilida fe’l mustaqil kelmaydi, u bilan birga kim harakatni bajarayotgani haqida ma’lumot beruvchi so‘z ham bo‘lishi kerak. Foil arab tilida doimo “rof’” holatda bo‘ladi, ya’ni oxirgi harakati damma (ُ) bilan ifodalanadi[2]. Bu grammatik holat u gapda foil ekanini bildiradi. Masalan, الطَّالِبُ، الْمُعَلِّمَةُ، الَطْفَالُ — bularning barchasi agar fe’l bilan birga kelib, harakatni kim bajarayotgani haqida xabar berayotgan bo‘lsa foil bo‘lishi mumkin. Fe’l va foil jins va son jihatidan bir-biriga mos keladi. Agar foil muzakkar bo‘lsa, fe’l ham muzakkarga xos shaklda bo‘ladi. Agar foil ko‘plik bo‘lsa, fe’l ham ko‘plik shaklida ishlatiladi. Masalan,

يَكْتُبُ الطَّالِبُ – Talaba yozmoqda

تَكْتُبُ الطَّالِبَةُ – Talaba qiz yozmoqda.

يَكْتُبُ الطُّلَّابُ – Talabalar yozmoqda.

Arab tilida odatda gap fe’l bilan boshlanadi, undan keyin foil keladi. Buni o‘zbek tilidan farqli jihati deyishimiz mumkin. Chunki o‘zbek tilida odatda avval ega, keyin fe’l keladi. Masalan,

كَتَبَ الطَّالِبُ الرِّسَالَةَ – Talaba maktubni yozdi. Foil, ya’ni harakat egasini to‘g‘ri aniqlash arab tili grammatikasida muhim o‘rin tutadi. Chunki jumlaning ma’nosi aynan foil va uning fe’l bilan aloqasi orqali to‘liq shakllanadi. Foil arab tilida turli shakllarda keladi va uning grammatik xususiyatlarini to‘g‘ri anglash ifodali gap tuzishda muhim o‘rin tutadi. Jumladagi foilning ochiq yoki yashirinligi, qanday turdagi so‘z bilan ifodalangani kabi jihatlar nahv ilmida alohida tahlil qilinadi.[3]

Foil sorih va muavval bo‘lishi

Arab tilida foil ikkiga bo‘linadi:

1. **Foil sarih (فاعل صريح)** – ya’ni ochiq ifodalangan foil. Bu, odatda, ism yoki domir bo‘lib, aniq tarzda aytiladi va osonlik bilan ko‘rinib turadi:

كَتَبَ الطَّالِبُ الدَّرْسَ – Talaba darsni yozdi.)Bu yerda "الطَّالِبُ" ochiq ko‘rinib turgan foil(.

قَرَأَتْ فَاطِمَةُ الْكِتَابَ – Fotima kitobni o‘qidi. O‘zbek tilida bu oddiy egaga to‘g‘ri keladi. O‘zbek tilida ham ega ochiq ifodalansa, sorih foilga mos keladi.

2. **Foil muavval (فاعل مؤول بالصريح)** – ya’ni ochiq emas, boshqa grammatik vositalar orqali ifodalangan foil. Bu holatda foil odatda masdar yoki masdarga muqobil tuzilmalar orqali keladi.[4]

يَسُرُّنِي أَنْ تَجْتَهِدَ – Jidd-u jahd qilishing meni quvontiradi.)Bu yerda "أَنْ تَجْتَهِدَ" fiil أن + orqali muavval foil bo‘lib kelgan, ya’ni" sening tirishishing-jidd-u jahd qilishing "ma’nosida(.

أَفْضَلُ شَيْءٍ أَنْ تُسَافِرَ – Eng yaxshi narsa safar qilishingdir.)Bu yerda "أَنْ تُسَافِرَ" jumlasi butunlay foil vazifasini bajarmoqda(.

Mudmar foil va uning turlari

Foil ochiq yoki yashirin bo‘lishi mumkin. Nahv ilmida yashirin foil mudmar ضمير مستتر deb ataladi va ikki xil bo‘ladi:

---

[1] Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil. 150-bet.

[2] الاجرمية المقدمة بشرح السنية التحفة, الحميد عبد الدين محي محمد .:خ, السنه مكتب, 1989 ز-ص.167

[3] ص-168 ز1989, السنه مكتب :.خ, الحميد عبد الدين محي محمد, الاجرمية المقدمة بشرح السنية التحفة

[4] ص-65 .2007الإسكندرية , "العقيدة دار", صالح وحممد طموم ومصطف دياب ومحمد ناصف حفني, النحوية الدروس

1.Bariz foil (فاعل بارز) – ya’ni ko‘rinib turgan, ochiq foil. Bu foil aniq bir ism yoki zamir bilan ifodalangan bo‘lib, jumlada oson ajralib turadi.[1]

– ذَهَبَ عَلِيٌّ إِلَى السُّوقِAli bozorga ketdi.

– أَكَلَ الطِّفْلُ التُّفَّاحَBola olmani yedi.

2.Mustatir foil (فاعل مستتر) – ya’ni yashirin foil. Bu holda foil ochiq emas, balki fe’lning ichida yashiringan bo‘ladi va alohida so‘z sifatida kelmaydi:

– أَكْتُبُ الدَّرْسَMen darsni yozayapman.

– نَقْرَأُ الْكِتَابَBiz kitobni o‘qiyapmiz.

– اِجْلِسْo‘tiring.

Bu gaplarda foil fe’l tarkibiga yashiringan.

– (يَعنى: أَنَا أَكْتُبُ)أَكْتُبُMen yozayapman "deganda “men” so‘zi fe’l tarkibida yashirin.

– (يَعنى: نَحْنُ نَقْرَأُ)نَقْرَأُ“Biz o‘qiyapmiz” deganda “biz” so‘zi ko‘rinmayapti.

– (يَعنى: أَنتَ اِجْلِسْ)اِجْلِسْ“o‘tiring!” deganda “sen” so‘zi fe’l ichida yashiringan.

O‘zbek tilida ham ba’zan ega fe’l tarkibida yashirin bo‘lishi mumkin. Masalan,

Ketdim. (Men ketdim degani, lekin “men” aytilmagan).

O‘qidingmi? (Sen o‘qidingmi degani, lekin “sen” yashirin).

Yozayapsiz. (Siz yozayapsiz degani, lekin “siz” so‘zi aniq aytilmagan).

Ko‘rinib turibdiki, arab tilidagi mustatir foil o‘zbek tilida fe’lning shaxs qo‘shimchalari orqali ifodalanadi. O‘zbekchada bu shaxs qo‘shimchalari (-dim, -di, -miz, -ing, -yapman va h.k.) orqali yuzaga chiqadi, arab tilida esa fe’lning o‘zi bu ma’noni anglatadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, foil arab tilida nahv tizimida juda muhim grammatik tushuncha bo‘lib, harakatni amalga oshiruvchi yoki ishni bajaruvchi shaxs yoki narsani ifodalaydi. Uning arab tilidagi grammatik shakllari sarih (ochiq) va muavval (yashirin) tarzlarida bo‘lishi mumkin. Sarih foil, aniq ism yoki zamir orqali ifodalansa, muavval foil esa fe’l yoki masdar orqali ifodalanadi. Yashirin foil esa fe’l tarkibida bo‘lib, bevosita ko‘rinmaydi, lekin ma’lum bo‘ladi.

Arab tilidagi foil va o‘zbek tilidagi ega o‘rtasidagi farq shundaki, arab tilida foil o‘zining grammatik vazifasini fe’l va boshqa so‘zlar orqali bajaradi, o‘zbek tilida esa egalar ko‘pincha bevosita ifodalanadi. Arab tilida foilning ko‘plab shakllari va turlari mavjud bo‘lib, ular tilning murakkablik darajasini oshiradi, o‘zbek tilida esa bu jarayon oddiyroq va aniqroq. Xulosa qilib aytganda, arab tilidagi foil nafaqat sintaktik, balki morfologik jihatdan ham o‘ziga xos bo‘lib, jumladagi barcha elementlar bilan qat’iy moslikni talab qiladi. O‘zbek tilidagi ega esa oddiyroq tuzilishga ega bo‘lib, grammatik jihatdan soddaroqdir. Arab tilidagi foilning murakkabligini to‘g‘ri tushunish va tahlil qilish uning o‘rganilishini osonlashtiradi, ayniqsa so‘zlarning o‘zaro munosabatlari va ularning kontekstdagi o‘rnini anglashda yordam beradi. Shuningdek, arab tilida ega faqat foildan iborat deyish ham mumkin emaski, unda o‘zbek tilidan farqli o‘laroq mubtado va noib

[1] ص-168 ز1989 ,السنه مكتب :.خ, الحميد عبد الدين محي محمد ,الاجرىمية المقدمة بشرح السنية التحفة

foil kabi ega turlari ham mavjud. Demak, arab tilida ega murakkab grammatik birlik hisoblanib uning o‘zbek tilidan farqi ochiq-oydin ko‘rinadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arab tili grammatikasi 1-qism, Nematillo Ibrohimov, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Toshkent. 1997-yil.

2. Arab tili darsligi 1-kitob, Rahmatullayeva Ra’no, O‘zbekiston musulmonlar idorasi “Hadichai Kubro” islom o‘rta maxsus ayol-qizlar bilim yurti Toshkent. 2008.

3.النحوية الدروس, حفني ناصف ومحمد دياب ومصطف ومحمد طموم وحممد صالح, "العقيدة دار" , الإسكندرية2007.

4.الاجرىمية المقدمة بشرح السنية التحفة, الحميد عبد الدين محي محمد :.خ, السنه مكتب, 1989.

5. mawdoo3.com تعريف الفاعل.

6. twinkl.com الجملة الفعلية — فاعل.

MUMTOZ SHE’RIY ASARLARNING SINTAKSIS XUSUSIYATLARI (XIV-XV ASR SHE’RIYATI TIMSOLIDA)

Jamila XUSANOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,
Turkshunoslik oliy maktabi,
3-kurs mumtoz-arab guruhi
Ilmiy rahbar: Phd. Sh. To‘laganova

Annotatsiya: Ushbu maqolada XIV-XV- asrlarda yashab ijod etgan shoirlarning she’riyatidagi inversiya hamda iqtibos san’ati haqida tanishishingiz mumkin. Ushbu davrning o‘ziga xos jihati unda she’riyat fors va arab so‘zlaridan, jumlalaridan mohirlik bilan foydalanilganidadir.

Kalit so‘zlar: “iqtibos”, “inversiya”, “Sakkokiy”, “Qutb al-Xorazmiy”, “Lutfiy”.

Inversiya (lotincha unversio – o‘rnini almashtirish) (tilshunoslikda) – gap bo‘laklari odatdagi tartibining o‘zgarishi. Tilda ikki xil vazifa bajaradi: semantik va asemantik. Semantik vazifasi gapning biror bo‘lagini alohida ta’kidlash yo‘li bilan nutqqa emotsional-ekspressiv ruh baxsh etishda, asemantik vazifasi esa, she’riyatda kompozitsiya, ritm, vazn, qofiya hosil qilishda namoyon bo‘ladi. U faqat uslubiy emas, balki sintaktik-uslubiy (sintaktikpoetik) hodisadir. U jonli so‘zlashuv tilida, badiiy adabiyotda, ayniqsa, she’riyatda ko‘p uchraydi. Badiiy asar tilining fonetik, leksik va uslubiy o‘ziga xosligini tadqiq etish o‘sha shoir ijodiy laboratoriyasi, fenomeni, u yashagan davrdagi gap bo‘laklarining qurilishi, gapning tuzilishiga ko‘ra turlari, uslubiy vositalar, ijtimoiy hayotda ro‘y bergan o‘zgarishlarning tilga ta’siri kabilarni o‘rganish imkonini beradi. Bu masala milliy

adabiyotshunoslikda ancha chuqur o‘rganilgan va bu jarayon hali davom etmoqda.[1]

اولوغ تنکری نینک آتین یاد قیلدیم
محبت نامه نی بنیاد قیلدیم

Uluğ täŋriniŋ atïn yād qïldïm,
Muḥabbatnāmanï bunyād qïldïm.[2]

(Xorazmiy, Muhabbatnoma)

Ushbu to‘rt misradagi farqli jihat undagi kesimning turli o‘rinlarda qo‘llanganligidir. Ikkinchi baytning ikkinchi misrasida gapning kesim bilan boshlanib undagi ega vazifasini o‘tayotgan so‘z bilan bevosita o‘rin almashgan deyishimiz mumkin.

یتی قات زنکار ایوان والا
یراتتی التی کوندا حق تعال

Yeti qat zaŋar ayvān vālā,
Yarattï altï kündä Ḥaq ta’ālā.[3]

(Xorazmiy, Muhabbatnoma)

Badiiy uslub bu badiiy asarning tilidir. Badiiy asarlarning tili ham turlar nuqtayi nazaridan farqlanadi.

قاتیق تاشدین قیلور کوهرنی بیدا
قوروق نی دین قیلور شکرنی پیدا

Qatïq tašdïn qïlur gavharnï paydā,
Quruq naydïn qïlur šakarnï paydā.[4]

(Xorazmiy, Muhabbatnoma)

Yuqoridagi baytda ko‘makchi fe’l va asosiy fe’l o‘rtasida distant holati vujudga kelgan, bu shoirning nafaqat uslubi bo‘lib, balki so‘zlarning ham grammatik, ham ma’no xususiyatini oshirishda vosita bo‘lib xizmat qilmoqda.

Asarlarda avvalo, gap bo‘laklarining o‘zgargan tartibi muhim rol o‘ynaydi. Ijodkor badiiy maqsadining asl mohiyatini ifodalovchi so‘zlarni oldi qo‘llaydi. Odatdagi tartibda ega va uning aniqlovchilari oldi, kesim va uning izohlovchilari bo‘lgan to‘ldiruvchi va hol undan oldi qo‘llanadi. Odatdagi tartibda payt holi egadan oldin kelishi kuzatilishi mumkin. She’riy asarlarda ham odatdagi tartibning qo‘llanilishiga guvoh bo‘lish mumkin, birgina gap ikki misrada taqsimlanish holatlari ko‘p kuzatiladi.

[1] M. Hamroyev, D. Muhamedova va boshqalar /Ona-tili/ T.: 2007
[2] Y. S. Saidov, R. R. Sayfullayeva. “Eski o‘zbek tili yodnomalari tili va uslubi” Toshkent-2021
[3] Begali Qosimov, Sherbak *A.M.* Oguzname, Muhabbatname. — L.: 1959.
[4] Mallayev N.M. O‘zbek ad*a*biyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent: / O‘qituvchi/ 1976.

چقاردیم خوش ینکلیغ لیق سو کولدین
کونکول لار قانسو تیب بو صافی سو دین

Čïqardïm xuš yazïğlïq suw bu köldin,
Köŋüllär qansu tep bu šāb suwdïn.

نیجاکیم کلدیم ارسا من و لیکن
توکال کلدیم توکال لیک یخشی اوش جین

Nečükim keldim ersä-män va lekin,
Tükäl keldim tükällik yaxšï uš čïn.

نتانک شاه تبغینکا بیر برغا من تیب
بو کونکلوم قذغوسینی ترغا من تیب

Netäŋ šäh tabğïŋa bir barğa-men tep
Bu köŋlüm qaðğusïnï tapğa-men tep[1]

(Nizomiy, Xusrav va Shirin)

Yuqoridagi ikki baytda birinchi misrada gap kesim bilan boshlanib, uning ma’nosi keyingi misrada ham davom etganini ko‘rishimiz mumkin.

Bunda hol, aniqlovchi, ot-kesim shaklida qo‘llangan, gap oxirida undalmaning keltirilishi asosiy diqqatni undalmaga emas, fikr tashiyotgan bo‘laklarga qaratgan. Ikkinchi misrada ega oldin, uning aniqlovchilari esa so‘ng keltirilgan.

عاصی امت نینک پناهی یا شفیع المذنبین
جهل جاهیندین جقارغه سنتینک حبل المتین

Ăşiy ummatnïŋ panohï yă šafi’al-muznibin,
Jahl čăhidïn čïqarğa sunnatïŋ hablul-matin.[2]

(Devoni Lutfiy)

Alohida ma’no tashuvchi so‘zlarning dastlabki o‘rinlarda keltirilishi lirik psixologizmning ifoda yo‘sinini yanada aniqroq belgilab beradi. She’riy asarlarning so‘z tartibi qofiya tizimini belgilash uchun ham xizmat qiladi. Ritm, ohangdorlikning yuzaga chiqishida so‘z tartibining o‘rni beqiyos.

آقتاب خاوری مهرینکده ذره تینما ییین
کوک آتی اوزره مینیب تون کون ییلار اول شهسوار

Ăftăb xăvari mehrïŋda zarra tinmäyin,
Kök atï üzrä minip tün kün bilä ul šahsuvăr.

آه اوروب عشقینکده یر کوک کنبذینی کویدرار
اهل طاهر انینک اصلین بلمایین ایتور بحار

Ăh ürüp išqiŋda yer kök gumbazïnï küydirär,
Ahlï tăhir äniŋ aslïn bilmäyin äytür bahăr.

(Devoni Sakkokiy)

[1] Erkinov S., G‘anixonov M. Nizomiy Ganjaviy.Toshkent: 1992.
[2] Erkinov S, Lutfiy (hayoti va ijodi), T., 1963.

Shuningdek, she’riyatda so‘z tartibi formal grammatik aloqa vositasidan ko‘chma va turlanuvchan, so‘z va so‘z birikmalari, gap ma’no-mohiyatini oydinlashtiradigan, ularga semantik va uslubiy nozikliklar bag‘ishlaydigan usul maqomiga ko‘tarildi. Nutqning aniq maqsadiga mos ravishda sintaktik birliklarni tanlash doimo eng qulay variantlarni izlash bilan bog‘liq. Bunda eng qulay variant zaruriy mazmunni va emotsional jarangdorlik talablarini qanoatlantirishi talab etiladi. Nutqda so‘zlarning qanday tartibda bo‘lishi gapning aktual bo‘linishi masalasi bilan chambarchas bog‘liqdir. Gapning aktual bo‘linishi ta’limotining lingvistikaga kiritilishi turkiy tillarda so‘z tartibi muammosini hal qilishda mustahkam tayanch bo‘lib xizmat qiladi.

Badiiy asarga tasviriylik berish maqsadida poetik nutq figuralari deb yuritiluvchi poetik sintaksis vositalarida keng foydalaniladi. O‘zbek tili badiiy poetik sintaksisi elementlari haqida fikr yuritilganda inversiya alohida o‘ringa ega. Inversiya formal nuqtayi nazardan to‘g‘ri, buning nasrga xosligi bizga ma’lum. Inversiyaning gapdagi asosiy vazifasi badiiy matnda, ayniqsa, she’riy asarlarda muallif uslubiy maqsadining amalga oshishini ta’minlash, gap tarkibidagi biror bo‘lakni alohida ajratib, ta’kidlab ko‘rsatish orqali asosiy fikrning o‘quvchi tomonidan tez va oson tushunilishiga erishishdan iboratdir.

نیجا ییل عصیان طغیان تونینی قیلدیم لباس
ایمدی اوش توتوم یقام استغفر الله درکذار

Nečä yil isyănu tuğyăn tönini qïldïm libăs,
Emdi uš tuttum yaqăm astağfirullah darguzăr.

هدایا اول قموغنی کیکوروب او یولونککا
وقت آخر بولسه ایمان بیرله دنیا دین چقار

Hidăyă avval qamuğnï kikürüp u yoluŋa,
Vaqt ăxir bolsa iymăn birlä dunyădïn čïqar.[1]

(Devoni Sakkokiy)

Iqtiboslar asosan sitata bo‘lib mashhur aytilgan gap,ibora va Qur’on oyatlari hamda hadislar, payg‘ambarlarning so‘zlari keltiriladi. Iqtibos — bu biror muallif tomonidan aytilgan fikrdan yoki shu fikr bayon qilingan matndan so‘zma-so‘z olingan parcha. Odatda shaxsiy fikrni tasdiqlash yoki muayyan bir fikrni inkor etish uchun iqtibosdan foydalaniladi. Ushbu baytda hamdu-sano ma’nosidagi arabiy jumla va o‘zbekcha jumlalarga mohirlik bilan qorishtirib foydalanilganiga guvoh bo‘lamiz.

احمد دم لا احصی اورور جون صفتینکده
نی حدی بیلا لطفی ثنا ایلاسون یا اشنا

Ahmad dam la ahsă ürür čun sifatïŋda,
Ne haddï bilä lutfï sanä aylasun yă ašnă.[2]

(Devoni Lutfiy)

[1] Devoni Mavlono Sakkokiy. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685 inv.
[2] S.Erkinov. Lutfiy. Hayoti va ijodi.– Toshkent: 1965.

قیلب خان دولتی بو قول غا یاری
کتاردی تنکری طبعیم نونک غباری

Qïlïp xan davlatï bu qulğa yărï,
Ketärdi täŋri tab'ïmnuŋ ğubărï.[1]

(Nizomiy, Xusrav va Shirin)

هم اول آخر سین و هم ظاهر و باطن
هم مبدع اشیا سین و هم حی توانا

Ham avvalu ăxir senü ham zăhiru bătin,
Ham mubdi'u ašyă senü ham hayyu tavănă.[2]

(Devoni Lutfiy)

جمله ذرات جان یادنک بیله مشغول ایرور
آی کون افلاک نجم بحر بر لیل و نهار

Jumlai zarrāti jān yādïn bilä mašğul erür,
Āy kün aflāk najm bahru –bar laylu nahār.[3]

(Devoni Sakkokiy)

Ushbu misralarda ega ilk satrda bo‘lib uning izohlovchisi esa keyingi satrga ko‘chgan. Har qanday lingvistik hodisa kabi so‘z tartibining birlamchi va ikkilamchi vazifalarini farqlash lozim, chunki so‘z tartibi turlarining ifoda imkoniyatlari o‘rganar ekanmiz, bajaradigan vazifasi nuqtai nazaridan ham ularni darajalab olish zarurati yuzaga keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Devoni Mavlono Sakkokiy. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685 inv.
2. S.Erkinov. Lutfiy. Hayoti va ijodi. – Toshkent: 1965.
3. АН-НА'ЙМ. القاموس العربى وزبكىّ الأ/ Арабча ўзбекча луғат (Тузувчилар: О.Носиров ва бошқалар). – Тошкент: Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2003. – Б. 300.
4. Erkinov S, Lutfiy (hayoti va ijodi), Toshkent: 1963.
5. Nizomiy she'riyatidan, Toshkent: 1983.
6. Abdurahmonov F, Mutallibov S. Devonu lug‘otit-turk. – Toshkent: “Fan” nashriyoti, 1967.
7. Наделяев В. М., Насилов Д. М., Тенишев Э. Р., Щербак А. М., Боровкова Т. А., Дмитриева Л. В., Зырин А. А., Кормушин И. В., Летягина Н. И., Тугушева Л. Ю. Древнетюркский словарь. – Ленинград: Наука, 1969.

[1] Nizomiy she'riyatidan, Toshkent:1983
[2] Erkinov S, Lutfiy (hayoti va ijodi), T., 1963.
[3] Devoni Mavlono Sakkokiy. O‘zbekiston FA Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti, 7685 inv.

8. Erkinov S., G‘anixonov M. Nizomiy Ganjaviy.Toshkent: 1992.
9. Y. S. Saidov, R. R. Sayfullayeva. “Eski o‘zbek tili yodnomalari tili va uslubi” Toshkent: 2021.
10. Begali Qosimov, Sherbak A.M. Oguzname, Muhabbatname. — L.: 1959.
11. Mallayev N.M. O‘zbek ad.biyoti tarixi. Birinchi kitob. Toshkent: “O‘qituvchi” 1976.

TRANSLATION CHALLENGES OF UZBEK IDIOMS INTO ENGLISH IN THE EXAMPLE OF “SHUM BOLA” (“NAUGHTY BOY”) BY GAFUR GULOM

Mashxuraxon RASULOVA
2nd-year Bachelor’s student,
majoring in Philology and Language teaching
(Languages Department)
Academic Supervisor: Senior Teacher H. Shernazarova

Absract: This very article explores the translation challenges of Uzbek idioms into English, more specifically in the example of Gafur Gulom’s story “Shum Bola” (The Naughty Boy). The paper analyses cultural nuances and the obstacles, which translators face in order to preserve the real meaning and context of idiomatic expressions. The analysis involves examples from the story and makes a comparison between their translation and similar idioms in English, drawing on historical, cultural and linguistic insights. The aim of the article is to highlight the sophistication of idiomatic translation, shedding light on the vitality of cultural sensitivity in making idiomatic expressions accessible to a global audience, thus popularizing our own literature works.

Keywords: Translation challenges, Uzbek idioms, idiomatic expressions, cultural equivalence, linguistic adaptation, translation strategies, English language translation, intercultural communication, Gafur Gulom, Shum Bola (The Naughty Boy), phraseology in translation, loss of meaning in translation, translation theory, , formal equivalence, contextual meaning.

Introduction:

An idiom is a combination of words or a phrase whose meaning cannot be comprehended from the individual meanings of the words, from which it is constituted. These expressions are hugely rooted in the culture, history, and social context of the language in which they originate. Linguists categorize idioms into varying types, including proverbs, phrasal verbs, collocations, and set expressions, which all share the common feature of figurative meaning.

Some examples include:

Proverbs: “Actions speak louder than words”.

Phrasal Verbs: “Break up”, which means to end a relationship.

Set Expressions: “A piece of cake”, meaning something easy to do

The differences between languages like Uzbek and English pose particular challenges in translating idiomatic expressions. Uzbek idioms often reflect unique cultural practices, historical references, and local beliefs, which may not have direct equivalents in English. For example, the structure of a phrase or the context in which an idiom is used may differ drastically between the two languages. English idioms, in turn, can sometimes be too abstract or less grounded in a particular cultural context, making it challenging to find an appropriate idiom in Uzbek that conveys the same meaning.

In the realm of Uzbek literature, Shum Bola (The Naughty Boy) by Gafur Gulom stands as a distinctive and influential work, first written in 1936. This short story, which portrays the childhood of a mischievous boy, Qoravoy and the vibrant life of early 20th-century Tashkent, is a satirical narrative that blends real historical events with artistic imagination and fantasy. Despite its strong ties to Gafur Gulom's own experiences, the work is not an autobiography, but rather a fictionalized account of his life, filled with humor and a vivid portrayal of the social dynamics of the time. Shum Bola has been translated into several languages, including Russian and Ukrainian, and has been widely praised by both local and international critics. On top of that, the story was privileged to be translated into

English by professor I.M. Tukhtasinov, and U.R.Yuldashev in the Yangi asr avlodi to make it accessible for foreign readers. In 2023, the work was included in BBC's list of the 100 best children's books of all time, a testament to its enduring relevance and appeal[1]. However, translating a literary work like Shum Bola (The Naughty Boy), which is rich in cultural nuances, historical references, and local idioms, presents several challenges. The purpose of this article is to analyze these translation problems, focusing on how the translator navigated the complexities of conveying the essence of the story while making it comprehensible and accessible to a global audience.

Challenges in Translation:

When translating idioms, several types of challenges can arise, including:

Cultural Nuances: Idioms are often tied to the history, social customs, and traditions of a particular culture. Translating these without a deep understanding of the culture can lead to misinterpretation or loss of meaning[2].

Linguistic Differences: The syntax and structure of idiomatic expressions in one language may not be directly transferable to another, leading to awkward or inaccurate translations.

Figurative vs. Literal Meaning: Idioms convey meanings beyond their literal translations, so it's essential to find equivalent expressions that capture the figurative sense while respecting the tone and style of the original.

[1] BBC's 100 Greatest Children's Books of All Time (2023) – https://www.tomiungerer.com/news-events/the-100-greatest-childrens-books-of-all-time-64afs-flwpF

[2] Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. (Brill, 1964)

The Uzbek idiom **“Xayr-ma’zurni nasiya qilib ketaver**”, which was used in this story conveys the notion of leaving a place without informing others, akin to the English expressions “take French leave” or “sneak off”. However, the direct application of these English idioms in the context of Uzbek culture and the narrative of Gafur Gulom’s Shum Bola (The Naughty Boy) may not fully encapsulate the original sentiment.

The expressions “**taking French leave**” and “**sneak off”** have distinct origins and cultural connotations[1]. While both imply to leaving without informing others, their usage and the contexts in which they appear do differ.

1. “**Taking French Leave**[2]”: This phrase refers to departing from a place without informing one’s host or employer, often without permission. The term originated in the 18th century, with the French practice of leaving a social gathering without bidding farewell being viewed as polite in France but considered rude in England.

Example in Literature:

In *Robert Louis* Stevenson’s **The Master of Ballantrae**, the character reflects on the notion of taking French leave:

“But as I was certain I should not be allowed to leave the enclosure, my only plan was to take French leave”.

Context: Here, the character intends to leave without permission, anticipating that formal leave would be denied.

2. **“Sneak Off”[3]:** To “sneak off” means to leave a place quietly and secretly, often to avoid detection or without informing others.

Example in Literature:

In **The Adventures of Tom Sawyer** by *Mark Twain*, Tom sneaks away without telling Aunt Polly:

“Tom slipped away without a word”.

Context: Tom’s departure is unannounced, highlighting his desire to leave without drawing attention.

Cultural and Contextual Suitability: While both expressions involve leaving without notice, “taking French leave” carries a historical and cultural weight, often implying a departure without formalities, sometimes without permission, and can be seen as either polite or rude depending on the context. In contrast, “sneak off” emphasizes secrecy and avoidance, typically with a connotation of trying to escape notice. In the context of translating the Uzbek idiom “Xayr-ma’zurni nasiya qilib ketaver” from Shum Bola (The Naughty Boy), neither “taking French leave” nor “sneak off” may fully capture the original sentiment. The Uzbek phrase conveys a sense of leaving without informing others, possibly due to the expectation of not being granted permission, but without the negative connotations that “sneak off” might imply. Therefore, translators

[1] https://www.merriam-webster.com/ — Merriam Webster Dictionary
[2] https://www.merriam-webster.com/ — Merriam Webster Dictionary
[3] G‘afur G‘ulom, Shum Bola (Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2018)

considered alternatives like “leave without saying goodbye” to preserve the original meaning without introducing unintended nuances.

Original Context in Uzbek:

The phrase “*Hozir oydin kecha, shomdan endigina o‘tdi, hali ham gap-so‘zni chuvalashtirib o‘tirmay ketaver*[1]*”* was translated as: ***“Now it is night, the evening has just passed, don’t stretch words and go*[6]*”.***

Here, for the idiomatic expression **“gap-so‘zni chuvalashtirmoq”**, a number of equivalent phrases can be found in English. Although their translations suit the above one, they may not be the best option to go, thanks to the contextual problems.

1. “**Beat Around the Bush**” *Etymology:*The phrase “beat around the bush” originates from hunting practices in medieval times. The idea is that a person would “beat” the bushes with a stick to drive game out, but the actual hunting (the real action) would be left to others. So, beating around the bush referred to someone who was doing all the unnecessary or preparatory work while avoiding the main task. By the 16th century, the idiom came to represent the avoidance of a subject and was used metaphorically to describe evasion or indirectness in communication.

Literary Examples:

In **Pride and Prejudice** by *Jane Austen:*

“Mr. Collins, you are always so willing to entertain us, but you really must not beat around the bush”.

Context: Here, Elizabeth Bennet scolds Mr. Collins for being overly verbose and evasive in his proposal to Charlotte Lucas. It fits the definition of avoiding the point by being indirect.

In **The Adventures of Huckleberry Finn** by *Mark Twain:*

“We never beat around the bush about our plans. We just went straight ahead”.

Context: Huck and Jim directly confront their plans and goals without evasion, showing the opposite of “beating around the bush”.

Why It Doesn’t Fit the Uzbek Context:

“Beating around the bush” is about evasion or not getting to the main point, whereas “Gapni chuvalashtirma” is about avoiding unnecessary expansion or over-explanation. The Uzbek idiom encourages being direct and to the point, not avoiding the point altogether.

2. “Muddy the Waters[2]”

Etymology: The phrase “muddy the waters” refers to making a situation unclear or more difficult to understand by introducing irrelevant details. It originates from the literal concept of stirring up muddy water, making it difficult to see the bottom or get a clear view. It’s often used in contexts where someone is complicating an issue or making things more confused than they need to be.

---

[1] G‘afur G‘ulom, Shum Bola (The Naughty Boy). English translation by I.M. Tukhtasinov and U.R. Yuldashev, (“Yangi asr avlodi” 2017)

[2] https://www.merriam-webster.com/ — — Merriam Webster Dictionary

Literary Examples:

In **The Tempest** by *William Shakespeare:*

"The truth be told, you are only trying to muddy the waters of our conflict".

Context: This would apply to a character trying to introduce confusion into a situation that should be straightforward.

In **The Great Gatsby** by *F. Scott Fitzgerald*:

"You're only muddying the waters with these unnecessary details".

Context: Here, someone's attempt to complicate the story with irrelevant details is criticized.

Why It Doesn't Fit the Uzbek Context:

The idiom "muddy the waters" suggests causing confusion, whereas the Uzbek idiom is about simplifying a conversation, avoiding unnecessary elaboration. The Uzbek phrase does not suggest adding complications, but rather being straightforward and clear. Therefore, this idiom doesn't suit the context of the passage.

By considering the etymology and context of these idioms in literature, we can see how cultural and linguistic differences affect the translation of idioms, highlighting the importance of preserving both the figurative meaning and cultural nuances when translating[1].

Conclusion:

1. **Cultural Nuances and Contextual Sensitivity:**

The idiomatic expressions used in Shum Bola reflect not only the linguistic features of Uzbek but also the cultural context in which the story is set. For example, expressions like "Xayr-ma'zurni nasiya qilib ketaver" are deeply rooted in Uzbek culture, where leaving without notice or sneaking away is a subtle but meaningful social behavior. In contrast, English idioms like "take French leave" or "sneak off" capture only a fraction of the original meaning, failing to encompass the cultural undertones. This highlights the importance of understanding both the source and target cultures when translating idiomatic expressions.

2. **Challenges of Finding Equivalent Idioms**:

While English has its own set of idiomatic expressions, such as "beat around the bush" and "muddy the waters", they do not always align with the original Uzbek idioms. For instance, the Uzbek phrase "Gapni chuvalashtirma" (don't stretch the words) is more accurately conveyed in English as "stretch the conversation", emphasizing the avoidance of unnecessary elaboration. However, "beat around the bush" and "muddy the waters" suggest evasion and confusion, which do not fully align with the straightforward, concise nature of the Uzbek expression. This reinforces the idea that idioms are often culturally bound, and direct translations may result in a loss of meaning or misinterpretation[2].

3**. Translation Methods and Adaptation**:

[1] Karimov A. "Challenges in Translating Uzbek Idioms into English". Journal of Language & Culture, vol. 5, no. 3, 2015, pp. 56–67

[2] Dagut, Menachem. "Can 'Metaphor' Be Translated?" Babel, vol. 22, no. 1, 1976, pp. 21–33.

In some cases, translators need to adapt idioms rather than directly translate them. For example, “Xayr-ma’zurni nasiya qilib ketaver” might be best translated as “sneak off” or “take French leave”, but the translator must provide additional context to ensure the meaning is conveyed to readers unfamiliar with the cultural significance of the phrase. Similarly, in the case of “Gapni chuvalashtirma”, phrases like “get to the point” or “don’t over-elaborate” might serve as more accurate alternatives to “beat around the bush” or “muddy the waters”.

Translating idioms from Uzbek to English involves a delicate process of navigating cultural differences and language structures. While some idioms can be translated directly, others require more nuanced adaptation to maintain their original intent. In the case of Shum Bola, the translation of idiomatic expressions offers valuable insights into the complexities of language and culture, highlighting the importance of cultural sensitivity and creative solutions in the art of translation. By understanding both the linguistic and cultural contexts of idioms, translators can more effectively bridge the gap between languages and provide readers with an experience that remains faithful to the spirit of the original work.

References:

1. Nida, Eugene A. Toward a Science of Translating. (Brill, 1964)
2. Dagut, Menachem. “Can ‘Metaphor’ Be Translated?” Babel, vol. 22, no. 1, 1976, pp. 21–33.
3. G‘afur G‘ulom, Shum Bola (The Naughty Boy). English translation by I.M. Tukhtasinov and U.R. Yuldashev, (“Yangi asr avlodi” 2017)
4. G‘afur G‘ulom, Shum Bola (Yoshlar nashriyot uyi, Toshkent – 2018)
5. BBC’s 100 Greatest Children’s Books of All Time (2023) – https://www.tomiungerer.com/news-events/the-100-greatest-childrens- books-of-all-time-64afs-flwpF
6. Karimov, A. “Challenges in Translating Uzbek Idioms into English”. Journal of Language & Culture, vol. 5, no. 3, 2015, pp. 56–67
7. https://www.merriam-webster.com/

BOZORG ALAVIYNING “چشم‌هایش” ASARI TARJIMASIDA SIFATLAR BERILISHIDA TARJIMON MAHORATI (tarjimon professor A.Quronbekov)

Hulkar MUROTOVA
TDSHU, Tarjima nazariyasi va amaliyoti
fors-ingliz yo‘nalishi 4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar f.f.d., dots. D. Axmedova

Annotatsiya: Ushbu maqolada fors adabiyotining taniqli vakili Bozorg Alaviyning چشم‌هایش badiiy asaridagi sifatlar va ularning o‘zbek tiliga A.Quronbekov tarjimasi jarayonidagi sifatlarning ifodaviy mosligi tahlil qilinadi.

Asarda mavjud sifatlar ruhiy holat, ijtimoiy bosim, siyosiy atmosfera va obrazlarni tasvirlashda muhim rol o‘ynaydi. Maqolada asl matn bilan tarjima matni qiyoslab o‘rganilib, ba’zi sifatlarning semantik siljishlari, ba’zilarining esa to‘g‘ri o‘girilganlik darajasi aniqlanadi. Tarjimaning badiiy, emotsional va uslubiy to‘liqligi sifatlarga munosabat orqali yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Tarjima, sifat, badiiy matn, fors tili, Bozorg Alaviy, A.Quronbekov, “چشم‌هایش” , semantika, obrazlilik, qiyosiy tahlil.

Bugungi globallashuv va madaniyatlararo muloqot jarayonida tarjima sohasi alohida ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, badiiy tarjima — bu oddiy so‘z almashuvi emas, balki muallif ruhiyati, badiiy til ohangi va estetik go‘zallikni yangi til vositalarida qayta yaratish jarayonidir[1]. Badiiy asarda qo‘llaniladigan har bir til vositasi — u so‘z bo‘ladimi, ibora yoki grammatik qurilma bo‘ladimi — o‘ziga xos yuklama, hissiy tus va uslubiy vazifaga ega. Ayniqsa, sifatlar badiiy matnda tasvir kuchi, muhit, obraz va kayfiyatni yaratishda asosiy ifodaviy vositalardan biri hisoblanadi.

Tarjimada sifatlarning to‘g‘ri, kontekstga muvofiq, uslubga mos tarzda berilishi muhimdir. Sifatlar orqali ifodalangan ma’naviy-ruhiy holatlar, ijtimoiy-tarixiy kontekst, jamiyatdagi bosim, insoniy munosabatlar tarjima orqali boshqa madaniyatga o‘tayotganda o‘z asosiy ma’nosini yo‘qotmasligi kerak. Bunda tarjimonning til sezgirligi, badiiy tafakkuri va matn mazmuniga chuqur kirib borish qobiliyati hal qiluvchi ahamiyatga ega. [2]

Bozorg Alaviyning “چشم‌هایش” asari fors adabiyotidagi eng muhim psixologik va ijtimoiy-badiiy matnlardan biri bo‘lib, unda qo‘llanilgan sifatlar jamiyatdagi ijtimoiy bosim, odamlar orasidagi ishonchsizlik, qo‘rquv va umidsizlikni juda nozik tasvirlaydi. Ushbu maqolada asarning asl matni va o‘zbek tilidagi tarjimasi o‘rtasida qiyosiy tahlil asosida sifatlarning qanday o‘girilgani, ularning semantik va badiiy jihatdan qanday darajada mos kelishi tahlil qilinadi.muhim ilmiy ishlarni amalga oshirgan. A.Quronbekovning tarjima uslubida tilning adabiy imkoniyatlarini to‘liq ochish, asarlarning asl ma’nosini va nozikliklarini o‘zbek tilida etkazish kabi yuksak talablar mavjud. Ularning orasida Alaviyning “چشمهایش” asarining o‘zbek tiliga tarjimasi alohida o‘rin tutadi. Tarjimada sifatlarning berilishi: tahliliy yondashuv

Taqdim etilayotgan maqolada Bozorg Alaviyning “چشم‌هایش” asaridagi siyosiy tahdid, ruhiy bosim, jamiyatda hukm surayotgan vahima va iztirob holatlari badiiy tasvirlangan ba’zi parchalar olingan. Asar filologiya fanlari doktori, professor A.Quronbekov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan. Tarjimada matnning ohangdorligi, kayfiyati va g‘oyaviy yuklamasi yetarlicha saqlangan bo‘lsa-da, sifatlarning ifodalanishi va ularning ekvivalentlari aynanlikda emas, ba’zida funksional yoki kontekstual moslik asosida ko‘chirilganini ko‘rish mumkin.

[1] Quronbekov A. “Uning ko‘zlari” tarjima asari. Toshkent. “Progress” nashriyotining Toshkent bo‘limi, 1981.

[2]Isomiddinov Z. “Til va tarjima” asari. Toshkent. “Adabiyot”, 2024.

Masalan, forscha matnda uchraydigan: "خفقان گرفته بود" (khafaqān gerefte bud) — bu ibora to‘g‘ridan-to‘g‘ri “bo‘g‘uvchi sukunat, siqib qo‘yilganlik”ni bildiradi. Tarjimada bu “sarosima tutgandi” shaklida berilgan. “Sarosima” so‘zi ham iztirobli holatni bildirsa-da, sifat sifatida emas, ot sifatida ishlatilgan. Asliyatda esa holat sifat bilan tasvirlangan.

“سکوت مرگ‌آسائی” -“o‘limdek sukunat” degan ibora tarjimada “qabr sukunati” deb berilgan. Bu yerda sifat “مرگ‌آسا” (“o‘limdek”) fors tilidagi sifat yasovchi -آسا qo‘shimchasi bilan hosil bo‘lgan bo‘lib, kuchli badiiylikka ega. O‘zbek tilida esa sifat emas, metaforik ibora yordamida ekvivalent topilgan. Bu tarjima estetik nuqtai nazardan mos keladi, biroq grammatik jihatdan sifat emas, ibora shaklida berilgan.

“بیقواره"، "توسری‌خورده"[1] kabi sifatlarga e’tibor bersak, ularning o‘zbekcha tarjimasi “badbashara, turki sovuq” tarzida berilgan. “بیقواره” – ya’ni “nosimmetrik, yomon ko‘rinishli” degan ma’noni bildiradi. “Badbashara” iborasi esa fors tilidagi estetik-nafosat jihatidan biroz qo‘pollashtirilgan tarjima ko‘rinadi. “Toseri-xurda” (ya’ni xor qilingan, ezilgan) esa “turki sovuq” deb tarjima qilingan bo‘lib, bu sifatlardagi ruhiy-psixologik yuklama, mazmun ko‘chirish davomida ancha pasaygan.

Shuningdek, “دشمنان سرسخت استبداد” — “istibdodning eng qaysar dushmanlari” sifatida tarjima qilingan. Bu yerda “سرسخت” sifati “qaysar” deb berilgan, bu o‘rinli va kontekstga mos keluvchi tarjimadir. Shu kabi holatlar tarjimonning adekvatlik prinsipiga amal qilganini ko‘rsatadi.

Tarjimada “یأس"، "بی‌حالی"، "واهمه"، "بدگمانی" kabi sifatlar kontekstual yo‘nalishda “qaygusi, notavonligi, hadiksirash va umidsizligi” tarzida ifodalangan. Bu yerdagi ko‘pchilik sifatlar otga ko‘chirilgan bo‘lib, ularning grammatik tabiati emas, semantik mazmuni saqlangan. Bunday uslubiy yechim o‘quvchi uchun tushunarliroq bo‘lsa-da, asl matndagi so‘z turkumiga oid estetikani to‘liq aks ettirmaydi.

Matnning keyingi qismlarida sifatlarning ifodalanishi nafaqat tilning grammatik jihatlariga, balki matnning badiiy ifodasi, o‘quvchiga yetkazilayotgan tuyg‘u va kayfiyatga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Forscha asarining badiiy qiymati va badiiy tasvirlarining o‘ziga xosligi tarjimadagi sifatlarning ifodalanishiga ham o‘z aksini topgan. Badiiy asarda sifatlar va ularning ekvivalentlari o‘zaro farq qilishi mumkin, chunki har bir tilning o‘ziga xos ijtimoiy, madaniy va lingvistik konteksti bor.

Misol uchun, forscha matndagi “مقامات مختلف اجتماعی” (maqāmāt-e mokhtalef-e ejtemā‘i) – “turli ijtimoiy qatlamlar” deb tarjima qilingan bo‘lib, bu ibora tarjimada “barcha ozidan, oz soyasidan qo‘rqardi” tarzida ifodalangan. Forscha sifatlar matnda faol ishlatilgan bo‘lsa-da, o‘zbekcha tarjimada sifatlar orasida badiiy ohanglarni ta’sir qilishga imkon beradigan muayyan o‘zgarishlar yuz beradi. O‘zbek tilida “o‘zidan, soyasidan qo‘rqardi” ifodasi sifat bo‘lib, “korkardi” fe’lning ishlatilishi badiiy maqsadni aniqroq ifodalashga yordam

[1] Bozorg Alaviyning “چشم‌هایش” asaridan misollar (2-sahifa)

beradi, ammo bu forscha matndagi sifatlar bilan solishtirganda, yanada kuchliroq emotsional yukni yaratadi.

Keyinchalik “و در خیابانها از هم می ترسیدند” (va dar xiyobonhā az ham mitarsidand) iborasi “koʻchada yurayotganlar bir-biridan hadiksirardi” deb tarjima qilingan. Tarjimada forscha sifatining badiiy semantikasini saqlab qolgan holda, ibora oʻzbek tilida oʻzining toʻliq semantik maʼnosini yoʻqotmaydi. “Hadiksirardi” soʻzi asar matnining jamiyatdagi shovqin-suron, qoʻrqinchli kayfiyatni qamrab olishiga xizmat qiladi va oʻquvchiga oʻsha davrda odamlarning ruhiy holatlari haqida aniq tasavvur beradi.

Shuningdek, “فشار دستگاه پلیس دیکتاتوری” (feshār-e dastgāh-e polis-e diktatori) — “diktatorlik politsiya maʼmuriyatining tazyiqi” iborasi oʻzbekcha tarjimadagi “taʼkib ostida turganday yurak hovuchlab yurishardi” tarzida berilgan. Tarjimada sifatlarning bevosita ifodalashidan koʻra, metaforik ifodaning ishlatilishi oʻquvchining hissiyotlarini yanada kuchaytiradi. Forscha matnda toʻgʻridan-toʻgʻri “feshār” soʻzi sifat sifatida ishlatilsa, oʻzbek tilidagi tarjimadagi “yurak hovuchlab yurishardi” ifodasi tasviriy tarzda ruhiy bosimni taʼriflashga qaratilgan.

Matn davomida, “یأس” (yās) — “umidsizlik” sifatining “umid-sizligi” tarzida tarjima qilinishi, forscha sifatlarning oʻzbek tiliga mos keladigan ekvivalentini topishdagi muammolarni koʻrsatadi. Forscha tilida bu sifat odatda biror narsaning mavjud emasligi, ijobiy holatlarning inkorini bildiradi, oʻzbekcha tarjimadagi “umid-sizligi” soʻzi esa koʻproq ruhiy holatni, yaʼni umidni yoʻqotish hissini aks ettiradi.

Shunday qilib, tarjimadagi sifatlarning oʻzgargan ifodalanishining asosiy sababi — har bir tilning oʻziga xos lingvistik va madaniy kontekstga ega boʻlishi. Forscha sifatlar badiiy ifodalar va tasvirlar yaratishda oʻziga xos yondashuvni talab qiladi, oʻzbek tilida esa tarjimon koʻproq kontekstual moslashishga yoʻnaltirilgan, bu esa maʼlum bir tarixni saqlashni taʼminlaydi. Biroq, badiiy sifatlarning toʻgʻri ekvivalentlarini tanlashda ayrim farqlar mavjud boʻlib, bu tarjimaning estetik qiymatiga taʼsir qilishi mumkin.

Yuqoridagi tahlillar shuni koʻrsatadiki, tarjimada sifatlarning aksariyati grammatik jihatdan emas, semantik yoki kontekstual yoʻl bilan oʻzlashtirilgan. Bu hol tarjimonning lingvopoetik funksiyani saqlab qolishga qaratilgan harakatidan dalolat beradi. Biroq sifatlarning bevosita ifodalanishi emas, boshqa shakllarda berilishi ularning badiiy yuklamasini maʼlum darajada susaytirishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, tarjimada sifatlarning berilishi nafaqat grammatik jihatdan, balki badiiy tasvirni toʻgʻri aks ettirishda ham muhim oʻrin tutadi. Fors tilidan oʻzbek tiliga oʻtkazishda sifatlarning ekvivalentlari oʻzgargan holda, tarjimon nafaqat tilning sintaktik tuzilishini, balki har bir tilning madaniy va hissiy ohanglarini ham hisobga olishi kerak. Forscha matnda koʻproq toʻgʻridan-toʻgʻri sifatlar va tasvirlar ishlatilgan boʻlsa, oʻzbek tilida esa badiiy ifodalar va metaforik yondashuvlar koʻproq oʻquvchiga tasviriy taʼsir koʻrsatadi. Tarjima jarayonida sifatlarning toʻgʻri va muvofiq tarzda berilishi nafaqat matnning toʻgʻri maʼnosini oʻrgatish, balki uning badiiy qadriyatini saqlab qolishning ham

kalitidir. Har bir tilning o‘ziga xos uslubi va til strukturasi mavjud bo‘lgani uchun, sifatlarning tarjimadagi tasvirlanishi o‘quvchiga yangi, o‘ziga xos bir nuqtai nazardan ko‘rinadi. Shu tariqa, tarjima orqali o‘quvchi asarning asl badiiy ruhini va muallifning niyatlarini aniqroq tushunishi mumkin bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronbekov A. “Uning ko‘zlari” tarjima asari. Toshkent. “Progress” nashriyotining Toshkent bo‘limi, 1981.
2. Isomiddinov Z. “Til va tarjima” asari. Toshkent. “Adabiyot”, 2024.
3. Bozorg Alaviyning “چشم‌هایش” asari.
4. www.literature-translation.uz

IKKI DUNYO: BADIIY TARJIMA VA XALQLAR O‘RTASIDAGI KO‘PRIK SOHIBI

Farangiz NE’MATOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Jurnalistika: Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi
2-kurs indonez-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d R. Sharipov

Annotatsiya: Ushbu maqolada badiiy adabiyot dunyosining ko‘zgusi bo‘lmish Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning tarjimonlik san’ati va undagi badiiy asarlarning mazmuni, ruhini va uslubiy xususiyatlarini saqlab qolish, ularni o‘zbek tiliga moslashtirish mahorati haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: jadid adabiyoti, tarjima san’ati, o‘tkir qalam sohibi, tarjimonlik mahorati, tarjima san’atining yulduzi, badiiy adabiyotning qalbi, serqirra ijodkor.

Atoqli adabiyotshunos olim, filologiya fanlari doktori Begali Qosimov Cho‘lpon haqida shunday deydi: “Cho‘lpon XX asr o‘zbek adabiyotining eng mashhur namoyandalaridan, serqirra ijodkorlaridandir. Uning hayoti va ijodiy faoliyati adabiyotimizning eng yorqin sahifalaridan birini tashkil qiladi. U badiiy ijodning deyarli hamma turi bilan faol shug‘ullandi. She’r, hikoya, roman, drama, tanqid, tarjima-hammasida ijod etdi. Lekin, avvalo Cho‘lpon yangi o‘zbek she’riyatining asoschisi hamda tarjima san’atining yorqin nuri sifatida tarixga kirdi.”[1].

Darhaqiqat, atoqli shoirimiz bu davrda nafaqat o‘zining o‘tkir va shu bilan birga qalblarga orom, taskin beruvchi dilbar she’rlari, kuchli drama hamda mumtoz romanlari bilan o‘zbek she’riyatiga asos soldi, balki mukammal tarjima qilingan asarlari orqali o‘zbek xalqining jahon madaniy merosi bilan tanishtirish maqsadida, o‘zbek adabiyotida badiiy tarjima maktabini ham yaratdi, desak aslo

[1] Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. D.Quronov. Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2022 yil, 155-bet.

adashmagan bo‘lamiz. Umuman olganda Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati uning hayoti va ijodida muhim o‘rin egallaydi. Sababi, shoir ijodiy balog‘atga etgan palladan boshlab toki umrining oxiriga qadar tarjima ishlariga alohida e’tibor qaratgan. Ammo ajablanarlisi shundaki, bir necha yillar mobaynida ijodi qoralanib, “Cho‘lpon boylar, millatchi ziyolilarning mafkurachisidir” deya qoralangan, millatlarni bir-biridan ajratishda, milliy madaniyatlar orasiga raxna solishda ayblanib kelgan adib, muttasil tuhmat-u malomatlarga nishon bo‘lib yashagan o‘sha davrdayoq barcha o‘zbek yozuvchilaridan ildamroq tarjimaning ahamiyatini tushunib yetib, ko‘zdan nari bo‘lish, ammo shu bilan birga ijoddan to‘xtab qolmaslik maqsadida tarjima bilan shug‘ullandi. U Turgenev, Chexov, Gorkiy hamda Andreyev kabi rus adabiyotining mashhur shoirlarining asarlarini mohirona, mukammal darajada tarjima qilgan. Cho‘lpon tarjima san’atini xalqlararo, madaniyatlararo ko‘prik sifatida baholagan. Albatta, tarjima tufayli o‘zbek xalqining madaniyati boshqa xalqlar orttirgan madaniy an’analar bilan boyishi darhaqiqat. Adib nafaqat Sharq adabiyotining hikoyalari-yu, romanlarini yuksak darajada tarjima qilgan, balki G‘arb adabiyotining ilg‘or asarlari hamda she’riyati ham bundan mustasno emas. Jumladan, Shekspirning “Hamlet” fojiasi, Pushkinning “Boris Godunov” dramasi, “Dubrovskiy” qissasi, Gorkiyning “Ona” romani, Faykoning “Portfellik kishi” komediyasi va hokazolar. Umuman olganda bu ro‘yxatni hali ko‘p davom ettirishimiz mumkin, lekin aslini olganda gap ro‘yxatda emas, balki adibning tarjimonlik mahoratidadir. Cho‘lponning qrimtatar, no‘g‘oy, turkman, fors yoxud turk tillardagi asarlarining tarjimalariga nazar tashlaydigan bo‘lsak, uning tarjima san’atiga chuqur hamda jiddiy e’tibor qaratganligiga guvoh bo‘lamiz.

Cho‘lponning tarjimonlik faoliyatida o‘zbek tilining imkoniyatlarini namoyish etish hamda rivojlantirishga qaratilgan urinishlari alohida e’tiborga loyiqdir. U o‘z tarjimalarida o‘zbek xalqining madaniy va estetik qarashlarini aks ettirish bilan birga, xorijiy adabiyotning rang-barangligini hamda yuksak badiiy g‘oyalarini ham yoritib bergan. Shu bilan birga, Cho‘lponning tarjimonlik faoliyati o‘z davri uchun g‘oyat yangicha qarashlarni ham o‘zida aks ettirgan. Misol tariqasida, shoir o‘zining tarjimalari orqali o‘sha davring ijtimoiy-siyosiy hamda ma’naviy-ma’rifiy muammolarini ham yuksak darajada badiiy ifoda qila olgan. Ya’ni, uning tarjimalari nafaqat badiiy jihatdan, balki ma’naviy jihatdan ham o‘zbek madaniyati rivojiga xizmat qilgan.

Cho‘lpon tarjima qilinayotgan asarning ma’nosinigina emas, ruhini ham, uning jozibasi hamda milliy ranglarini ham batamom saqlab qolish tarafdori bo‘lgan. Uning tarjimalarida til hamda uslubning nafisligi, asarning asl mohiyatini o‘zbekona ruhda qayta talqin qilishga bo‘lgan intilishi yaqqol seziladi. Hattoki, she’riy hamda nasriy asarlarning tarjimalari ham o‘z tarovatini yo‘qotmagan holda tabiiy va ravon tarzda namoyon bo‘lgan. Shuningdek, Cho‘lponning tarjima asarlari yordamida o‘zbek tilida o‘qish imkoniyatiga ega bo‘lgan asarlar, o‘quvchilarga nafaqat badiiy zavq, balki dunyo adabiyotining eng yuqori qirralarini o‘rganish imkonini ham berdi. Bu esa uning tarjimadagi mahoratini va uning o‘zbek adabiyotiga qo‘shgan ulkan hissasini yanada ta’kidlaydi.

Bir buyuk shoirning she’rini muvaffaqiyatli tarjima qilmoq uchun, avval tarjimon o‘sha shoirning darajasiga ko‘tarilmog‘i lozim. Rus adabiyotining buyuk asoschisi, betakror, iste’dodli shoir Aleksandr Sergeyevich Pushkin tomonidan 1827-yilda yaratilgan “Gul va bulbul” she’ri ilk bor Cho‘lpon tomonidan tarjima qilindi. Fikrimcha, rus she’riyatining otasi bo‘lmish Pushkin she’rining tarjimasiga qo‘l urgan adibimiz ayni shu darajaga ko‘tarilgan edi. Shuni ham ta’kidlab o‘tish joizki, biron bir she’riy asarning tarjimasiga qo‘l urish haddan tashqari murakkab masala hisoblanadi, sababi mukammal she’r hech qachon biron bir ma’noni anglatuvchi quruq so‘zlar jamlanmasidan iborat bo‘lmaydi. She’rda ayni bir ruhiy holat, his-tuyg‘u hamda kayfiyat aks ettiriladi. Bundan tashqari, she’rning faqatgina mazmunnigina emas, balki uni aynan san’at darajasiga ko‘targan iqlimini, badiiyatini ham ifodalamoq zarur. Aks holda, tarjima allanechuk sun’iy, o‘lik holga kelishi bilan bir qatorda she’rning asl nafosati, ranglari va qudratini ham yo‘qotishi hech gap emas. Yuqorida tilga olingan Cho‘lponning she’riy tarjimasi haqida aniqroq tasavvurga ega bo‘lish maqsadida asl she’rning matniga hamda uning tarjimasiga nazar solsak:[1]

Asl she’rning matni:

В безмолвии садов, весной, во мгле ночей,
Поет над розою восточный соловей.
Но роза милая не чувствует, не внемлет,
И под влюбленный гимн колеблется и дремлет.
Не так ли ты поешь для хладной красоты?
Опомнись, о поэт, к чему стремишься ты?
Она не слушает, не чувствует поэта:
Глядишь, она цветет, взываешь — нет ответа.

Cho‘lponning tarjimasi:

Bahor chog‘ida xoli bog‘da bir zulmatli tun erdi,
G‘arib bulbul fig‘on aylab, “gulim, rahm aylagil” derdi.
Biroq ul gul quloq solmas edi faryodu afg‘ona,
Faqat orom olardi noladin to‘lg‘ona-to‘lg‘ona.
Seni hech sevmagan bir gul uchun, ey shoirim, sen ham
Yonarsan, o‘rtanarsan, dod etarsan, tinglamas bir dam,
Qo‘y endi, behuda dod etma ohing unga yetmaydi,
Qaraysan-yashnagan bir gul, faqat ovoza bermaydi.

Tarjima haqida fikr yuritar ekanmiz, birinchi navbatda Cho‘lpon tarjimaga erkinlik va aniqlik nuqtai nazaridan yondashganiga guvoh bo‘lamiz. Shoirning ayni mana shu erkin tarjima uslubi she’rni yanada mukammal bo‘lishiga hamda mazmun-mohiyatini to‘laqonlik ochib berishiga xizmat qildi. Ya’ni, yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek adib so‘zma-so‘z tarjimadan ko‘ra, qiyoslashdan, o‘xshatishlardan foydalanib, she’rni bemalol o‘zgartiravergan. Adibning she’riy

[1] Sharafiddinov O. Cho‘lpon-tarjimon. Toshkent, “Guliston” jurnali, 1990 yil, 2-son.

tarjimonlik mahoratini tahlil qilar ekanmiz, shunga amin bo‘lishimiz mumkinki, Cho‘lponning talqinida muhit zulmatli, bulbul esa qo‘shiq kuylamaydi balki, “gulim, rahm aylagil” deb fig‘on chekadigan g‘arib bir qushga aylangan edi. Pushkin she’ridagi muhabbat Cho‘lponda fojiali tus oladi. Gul ham bulbulning ma’shuqasiga aylangach, gulga berilgan “милая” so‘zining ta’rifi tushib qoladi hamda “влюбленный гимн” ham “faryod-u afg‘on” ga aylanadi. Hatto “дремлет” ya’ni, uxlamoqda so‘zi “noladin orom olardi” deb tarjima qilinib, muallifning obrazli talqinini ko‘rsatadi. “Колеблется” so‘zining “to‘lg‘ona-to‘lg‘ona” deb aniq va chiroyli tarjima qilingani tahsinga sazovordir. Ko‘rinib turibdiki, Cho‘lpon tarjimada she’rning asosiy g‘oyasining mag‘zini belgilab olib, aynan shu g‘oyani to‘laqonli ochib berish maqsadida ibora hamda ta’riflardan foydalangan. Umuman olganda, “Gul va bulbul” tarjimada she’riyat san’atining yuksak darajasiga ko‘tarilganiga amin bo‘lishimiz mumkin. Biz har qancha she’rni o‘qib, zavqlanar ekanmiz, Pushkinning shoirona iqtidoriga ham, Cho‘lponning tarjimonlik san’atiga ham tasannolar deymiz.[1]

Xulosa sifatida shuni ta’kidlash joizki, biz Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lponning tarjimonlik san’ati haqida qancha ko‘p mulohaza yuritsak ham shuncha kam. Cho‘lponning tarjimonlik mahorati uning boy lug‘at zaxirasi, obrazli va uslubiy jihatdan betakror til mahorati bilan belgilanadi. U faqat matn mazmunini aniq yetkazibgina qolmay, balki asl asarga xos emotsional va badiiy ta’sirni saqlab qolishga harakat qilgan. Uning tarjimalarida adabiy til normalariga rioya qilingan holda, o‘zbek tilining boy imkoniyatlaridan ustalik bilan foydalanish kuzatiladi. Natijada, Cho‘lpon tarjimalari oddiygina matn tarjimasi emas, balki mustaqil badiiy asar sifatida qabul qilinishi zarur bo‘lgan chinakam san’at namunasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Sharafiddinov O. Cho‘lpon-tarjimon. Toshkent, “Guliston” jurnali, 1990 yil, 2-son.

2. Mirzayeva Z. Cho‘lpon she’rlari tarjimasining qiyosiy tahlili. Sharq yulduzi, 2010 yil, 1-son.

3. Sharipov R. Cho‘lpon tarjimalari haqida ayrim mulohazalar. Toshkent, 2024 yil.

4. Jadidlar. Abdulhamid Cho‘lpon. D.Quronov. Toshkent, Yoshlar nashriyot uyi, 2022 yil.

[1] . Sharipov R. Cho‘lpon tarjimalari haqida ayrim mulohazalar. Toshkent, 2024 yil.

URDUCHA MAQOLLARNING LINGVOMADANIY QIRRALARI

Muqaddas AKBARALIYEVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi
Filologiya va tillarni o‘qitish 4-kurs,
Ilmiy rahbar: f.f.n., prof. M. Abdurahmonova

Annotatsiya: Mazkur ma’ruzada urducha va o‘zbekcha maqollarga xos lingvomadaniy jihatlarni ochib berish asnosida ikki xalqning o‘ziga xos xususiyatlari va farqlovchi jihatlarini ochib berish maqsad qilingan. Ba’zi maqollarning tarkibida hind xalqining hayoti, madaniyati, tarixi, urf-odatlari bilan bog‘liq bo‘lgan, boshqa xalqlarda aniq ekvivalenti bo‘lmagan so‘z yoki tushunchani anglatuvchi realiyalar tahlilga tortildi.

Kalit so‘zlar: maqol, realiyalar, paremialogik fon, madaniyat, urf-odat.

Maqollar – “millat tarjimai holi”, “madaniyat ko‘zgusidir”.

O‘zbek olimlari Sh. Shomaqsudov va Sh. Shorahmedov tomonidan yozilgan “Hikmatnoma”[1] asarida “dono fikrni, o‘tkir haqiqatni, teran mazmunni, so‘z xazinasining duru javohirlarini o‘zida mujassam etgan rang-barang maqollar nutqimizning ekspressiv (ya’ni, ta’sir etuvchi, his-hayajon uyg‘otuvchi) vositalari orasida eng ta’sirchan, eng esda qoluvchi, kishini o‘ylashga, fikr-mulohaza yuritishga beixtiyor majbur qiluvchi kuchga egadur” deb ifodalangan.

Urdu tilida maqol tushunchasi uchun "کہاوتkaha:vat, "ضرب المثال zarbulmasa:l "masal atamalari qo‘llaniladi[2].

پانڈے جی پچھتائیں گے، وہی چنے کی کھائیں گے-

So‘zma- so‘z tarjimasi: Pandey ji pushaymon bo‘lar, no‘xatni yeyar.

Biror shaxs bir necha bor tushuntirib, ta’kidlab aytilgandan keyin ham o‘jarlik qilib qaytarilgan ishni sodir etsa, mazkur maqol aytiladi. Bu maqolning ortida quyidagi voqea yotadi:

Bir qishloqda bir barahman yashar edi. U no‘xat unidan qilingan nonni mutlaqo xush ko‘rmas edi. Kunlardan bir kuni uning uyida non yopish uchun no‘xatdan boshqa hech vaqo qolmaganida, uning rafiqasi no‘xatdan non yopdi. Panditji taomga qo‘l cho‘zganida ko‘rdi-ki, no‘xat unidan non pishirilgan. Buni ko‘rib, ko‘zlari soqqasidan chiqqudek bo‘lib tashqariga otlandi. Ayoli unga obdon tushuntirdi: uyda non yopishga no‘xatdan boshqa hech narsa yo‘q, keling, shu bugun shuni yeyaqoling. Ammo Panditji qo‘l siltab ketib qoldi.Biroz vaqt o‘tgach, ochlikdan qorni tatalay boshladi. Vaqt o‘tgani sayin uning ahvoli tang bo‘la bordi. U bardoshi tugab, indamay uyiga kirib bordi. Ayoli bu holatni ko‘rib,uning ro‘parasiga o‘sha no‘xat unidan pishgan nonni qo‘ydi. Panditji uni lom-lim demay yeb oldi. Taomni tanavvul qilgandan so‘ng ayoli Panditjiga qah-qah urib kulib dedi: Panditji afsuslansa ham o‘sha no‘xatni yeydi[3].

---

[1] Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. T.: 1990 – B. 523

[2] شریف احمد قریشی ، "اردو کہاوتیں "، بک کارنر ۲۰۱٦ ءص ۲٥٤

[3] یونس اگاسکر، "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو "، کالگ، ۱۹۸۸ ءص ۳٥٥

Shundan so‘ng bu maqol xalq orasida ommalashib ketdi. Biz bu maqolga o‘zbekcha ekvivalent qilib **“Gapirgandan gapirmagan yaxshiroq, gapiruvdim tegdi boshimga tayoq”** maqolini olsak bo‘ladi. Ushbu maqolda ham qilmaydigan ishni gapirib qo‘yib, keyin uni qilishga majbur bo‘lishlik ma’nosi yotadi[1].

مرتے کو ماریں شاہ مدار

So‘zma- so‘z tarjimasi: O‘liklarni o‘ldiring Shoh Madar.

Ushbu maqol biror kishi musibatga giriftor bo‘lib qolsa va unga yana yangi aziyat yetkazilsa, yoki unga zulm qilinsa, esga olinadi.Biror kishi musibat ortidan boshiga musibat kelsa, yoki birin-ketin kulfat yog‘ilsa, odamlar: “O‘liklarni o‘ldiring shoh Madar” deb aytadi.

Ammo buning ma’no-mazmuni juda kam odam biladi:

Mashhur-ki, Kanpur shahridagi Makonpur shaharchasida joylashgan Hazrati Badiuddin Zinda Shoh Madarda shunday kuch bor edi- u shu qishloqdagi ilmli va ziyoli kishilarni shu qishloqdan quvib chiqaradi[2]. Bunga “**Yomg‘irdan qochib,do‘lga tutildi”** maqoli muqobil keladi. Ushbu maqolda ham qiyinchilik ortidan qayta qiyinchilikka uchrashlik nazarda tutiladi[3].

گنگا کو آنا تھا، بھا گیرتھ کے سرجس ہوا۔

So‘zma-so‘z tarjimasi: Ganga kelishi kerak edi, Bhagirtha boshiga baxt qo‘ndi.

Bu maqol biron ishni kimdir qilib,ammo uning samarasi va muvaffaqiyati haqida gap ketganda, butunlay boshqa odam tilga olinadi.

Bu maqol kimdurning shon-shuhrati va obro‘si bo‘lishi kerak bo‘lgan narsa tufayli yodga olinadi. Bu maqol bilan bog‘liq ushbu hikoya mashhur:

Sigarning oltmish ming o‘g‘li Kapilning yomon duosi tufayli kuyib kul bo‘lganida, najot topish uchun Sigarlar sulolasi rojalari Ganga daryosini jannatdan yerga tushurish uchun harakat qilishdi, ammo ularning harakatlari zoye ketdi. Panditlar Sigar sulolasining rojalariga, agar ular Gangani yoqib, pand (boshqalar uchun ishlatiladigan qog‘oz yostig‘i) taklif qilsalar, ularning avlodlari najot topib, jannatga borishlari mumkinligini aytishdi. Jannatni yerga olib kelish harakati chog‘ida ba’zi rojalar yerga olib kelishga urinishda muvaffaqiyatsizlikka uchradi, shunda nihoyat Bhagirtha Gangani yerga olib kelishga va’da berib, tinimsiz ibodat qilishni boshladi. Uning ibodati qabul bo‘ldi va Vishnu mamnun bo‘lib, uni murodiga yetkazdi. Qachonki Ganga jannatdan yerga tushmoqchi bo‘lganida yer Ganganing tez oqimi unga tushsa, u vayron bo‘lishidan qo‘rqib titray boshladi. U Shivaga yolvordi. Shunda Shiva daryoning shiddatli oqimiga rahmi keldi va dedi: Men uning kuchli shiddatini olib, bir tomchi Jinani kundalga, Kachkulga qo‘ydim va Bhagiratga berdim”. Buni eshitib Bhagirtha “biroz vaqtdan keyin men Gangani shon- shuhrat va dabdaba bilan olaman” deb o‘ylab, uyiga ketdi. U ketganidan ozroq vaqt o‘tib,bir cho‘pon o‘zining Ganga laqabli sigirini chaqirib keldi. Buni Ganga daryosi eshitib, meni Bhagirtha chaqiryapti,deb o‘ylab oqib chiqdi. Birozdan so‘ng Bhagirtha yetib keldi va buni

[1] O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 208

[2] یونس اگاسکر، "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو "، کالگ، ۱۹۸۸ ءص ۳۵۵

[3] O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 205

ko‘rib, u g‘amga botdi, shunda Ganganing ovozi keldi“ Mening suvlarim oqsa, sening ishing ham bitadi, xavotir olma”[1].

Biz bunga mos qilib **“O‘zi o‘lgan qo‘y qurbonlikka kirmas”**, ya’ni mehnatni boshqa odam qiladi-yu, lekin shuhrat boshqa odam haqqiga hal bo‘lishi nazarda tutiladi[2].

وہ پانی ملتان گیا-

So‘zma- so‘z tarjimasi: U suv endi Mo‘ltonga ketdi .

Bu kaltabinlik va manmanlik tufayli oltin imkoniyatni qo‘ldan boy bergan paytda ushbu maqol ishlatiladi.

Bu maqolga oid bir hikoya bor:

Bir munajjim qaysidir mashhur darvesh huzuriga keldi va maqsadini bayon qildi va unga yolvordi. Darveshning unga rahmi keldi va u o‘zining kosasida suv ichish uchun munajjimga berdi. Munajjim manmanligi va jirkanganligi sabab u suvni ichishdan bosh tortdi. Darvesh shu atrofda yurgan qizga ishora qildi va qiz suvni ho‘plab ichib oldi, shu sabab u suv qizga ta’sir qildi. Munajjim buni o‘z ko‘zlari bilan ko‘rganda, darveshga qayta yolvordi-suv ichishini va murodiga yetish istagini bildirdi. Darvesh suv berish o‘rniga dedi: gap bunday, birinchi tilaging bajarildi, tilak endi Mo‘ltanga borib ishingni bitirasan,sababi Mo‘lton suvi ortga qaytmaydi, bu suv Mo‘ltonga ketdi”deb aytdi.

Mavlono Muhammad Husayn Ozod o‘z asarida yozishicha, Lahor yaqinidan oqib o‘tuvchi Ravi daryosi Mo‘lton tomondan oqib o‘tib, Panjobning boshqa daryolari bilan Shor daryosiga qo‘shiladi.Shubhasiz, u o‘z yo‘lida oldinga oqib davom etadi. Maqoldan murod berilgan imkoniyat ikkinchisi bor qo‘lga kirmasligidir. Bu o‘sha imkoniyat daryo oqimi kabi o‘tib ketganini bildiradi[3].

Bu maqolga o‘zbekcha ekvivalenti qilib **“Uchgan qushni qaytarib bo‘lmas”** maqolini olsak bo‘ladi[4].

ہزار بار جو یوسف بکے،غلام نہیں-

So‘zma- so‘z tarjimasi: Ming marta sotilsa ham, Yusuf qul bo‘lmas.

Solih, sabrli va halol odam o‘z hamiyatidan vos kechmaydi. Insonda halollik, rostgo‘ylik, sabr-toqat, qanoat, shukur va iymon mustahkamligi kabi xislatlar bo‘lsa, u hech qachon qul bo‘lib qolmaydi. Hazrat Yusuf alayhissalomning hayotiy voqealari bilan bog‘liqdir[5].

Ushbu maqolga, **“Oqqan daryo oqmay qolmas”** ekvivalenti to‘g‘ri keladi[6].

چودہ برس بن باس بھوگا، تب رام کا نام امر ہوا-

So‘zma-so‘z tarjimasi: 14 yil azob chekdi,keyin Ramning ismi umrbod qoldi.

---

[1] یونس اگاسکر، "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو "، کالگ، ۱۹۸۸ ءص ۳۵۵

[2] O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 207

[3] شریف احمد قریشی ، "اردو کہاوتیں "، بک کارنر ۲۰۱٦ ءص ۲٥٤

[4] O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 209

[5] یونس اگاسکر، "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو "، کالگ، ۱۹۸۸ ءص ۳۵۵

[6] O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 210

Bu maqolning kelib chiqishi Ramayan dostoni bilan bog‘liq ya’ni Ramning 14 yilga o‘rmonga surgun qilinishi va qayta taxtni egallashi bilan bog‘liq[1],bu maqolning o‘zbekcha muqobili **“Qahramon o‘lar, nomi qolar”** dir[2].

Ma’lumki, har bir xalqning paremiologik fondida eng ko‘p uchraydigan maqollar kishilararo munosabatlarni o‘zida aks ettiradi. Tahlil jarayonida kishilararo munosabatlarni anglatuvchi maqollar ikki xalqning o‘ziga xos farqli va o‘xshash jihatlarini ochib berishda muhim ahamiyat kasb etdi. Urdu va o‘zbek maqollari turli xil leksemalardan tarkib topsa-da, asosan bir-biriga muqobil kelib, bir xil vaziyatlarni o‘zida aks ettiradi. Maqollar tarkibida kelgan leksemalar deyarli bir xil ma’noni anglatishi tahlil jarayonida aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 208

2.Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedov. Hikmatnoma. T.: 1990 – B. 523

3.Даль В.И. Пословицы русского народа. -Т.1. М.: «Русская книга», 1984. – 300 с.

4.Дандис А. О структуре пословицы// Паремиологический сборник. Пословица. Загадка. М.: 1978. – 23 с.

5.Потебня А.Ф. “Басня, пословица, поговорка”. Харьков. Гос. Изд-во Украины,1930. – 255 с.

6.Розенталь Д.Э., Теленкова М.А. Словарь-справочник лингвистических терминов. М.: Просвещение.1985.- 680 с.

7.Чернощекова. В.О. Линговокультурный аспект пословиц//Ж. Язык и култура. – 2009 УДК 811 (6). – 80-85 сс.

8 یونس اگاسکر، "اردو کہاوتیں اور ان کے سماجی و لسانی پہلو "، کالگ، ۱۹۸۸ ءص ۳۵۵

شریف احمد قریشی ، "اردو کہاوتیں "، بک کارنر ۲۰۱٦ ءص ۲۵٤

HIND-ORIY TILLARIDA (HINDIY VA URDU) TIBBIYOTGA OID ARAB-FORS O‘ZLASHMALARINING LINGVISTIK XUSUSIYATLARI

Odinaxon NURITDINOVA
TDSHU, Filologiya tillarni o‘qitish
hind -ingliz guruhi 2-kurs talabasi
Rahbar: katta o‘qituvchi M.Murtazaxodjayeva

Annotatsiya: Mazkur maqolada hindiy va urdu tillarida tibbiyot sohasiga oid arab-fors o‘zlashmalarining kirib kelish tarixi, ularning fonetik, morfologik va semantik o‘zgarishlari tahlil qilinadi. Bundan tashqari, o‘zlashmalarning statistik tahlili va gibrid so‘zlarning shakllanishi ham yoritiladi.

[1] شریف احمد قریشی ، "اردو کہاوتیں "، بک کارنر ۲۰۱٦ ءص ۲۵٤

[2] O. Madayev, T, Sobitova. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. T.: “Sharq” 2010 – B. 212

Kalit so‘zlar: arab-fors o‘zlashmalari, tibbiyot, hindiy, urdu, leksik o‘zgarish, fonetik moslashuv, semantik kengayish, gibrid so‘zlar, Al-Qonun fit-Tib

Hindiston va Arabiston o‘rtasidagi qadimiy madaniy, ilmiy va iqtisodiy aloqalar til va madaniyatlararo o‘zaro ta’sirni kuchaytirgan. Ayniqsa, 7–8-asrlarda boshlangan bu aloqalar keyinchalik islom dini tarqalishi, Boburiylar sulolasining vujudga kelishi bilan yanada rivoj topdi. Arab-fors tillaridan ko‘plab ilmiy, adabiy va tibbiy atamalar hindiy va urdu tillariga o‘zlashdi. Tibbiyot sohasi bu borada alohida o‘rganishga loyiq bo‘lib, o‘zlashmalarning ko‘lami, sabablari va natijalari tilshunoslik nuqtai nazaridan chuqur tahlil etilishi kerak.

Ko‘pgina tilshunos olimlar hindiy tilidagi arab-fors elementlarining shakllanishiga oid ma’lumotlarni o‘z tadqiqotlarida umumiy tarzda qayd etib o‘tganlar. Jumladan, K.Guru[1], Z.M.Dimshis[2], T.Ye.Katenina[3], V.M.Beskrovniy[4], A.P.Barannikov[5] kabi olimlar hindiy tilidagi arab-fors o‘zlashmalarining ifodalanish jihatlariga e’tibor berganlar.

Arab-fors tillaridan hindiy va urdu tillariga so‘zlarning o‘zlashish sabablari turlicha bo‘lib, ularga diniy ta’sirlar, savdo-iqtisodiy aloqalar, ilmiy merosning uzviyligi, va siyosiy omillar sabab bo‘lgan. Islom dini tarqalishi natijasida arab tili diniy, fors tili esa ma’muriy va madaniy tilga aylangan. Boburiylar imperiyasi arab-fors ilm-fani va madaniyatiga tayanib, o‘z davlatchiligini yuritgan. Bu davrda madrasalarda, tibbiy maktablarda va darsliklarda arab-fors atamalari keng tarqalgan. Shu sababli, tibbiyot sohasidagi ko‘plab arabcha va forscha atamalar hindiy va urdu tillarida mustahkam o‘rnashgan.

Ibn Sino tomonidan yozilgan “Al-Qonun fit-Tib” asari qadimgi tibbiyot fanining eng yirik yodgorliklaridan biridir. Asar asosan arab tilida yozilgan bo‘lib, o‘rta asrlarda butun islom olamida, xususan Hindistonda darslik sifatida keng foydalanilgan. Asarda turli kasalliklar, davo usullari, dorivor o‘simliklar, gigiyena va fiziologiyaga oid ko‘plab terminlar mavjud bo‘lib, ular urdu va hindiy tillariga ham o‘zlashgan. Masalan, “ilaj”, “davo”, “tib”, “tabib”, “jarroh”, “bemor”, “shifo” singari so‘zlar asarda ko‘p uchraydi va hozirda ham hindiy va urdu tillarida faol ishlatiladi. Bu asar o‘zlashmalarni mustahkamlash va ularni kengaytirishda asosiy ilmiy manba sifatida xizmat qilgan.

Hindiy va urdu tillari hind-oriy tillar oilasiga mansub bo‘lib, ularning leksikasi o‘zlashtirilgan so‘zlar bilan boyib borgan. Hindiy tilida so‘zlar kelib chiqishiga ko‘ra to‘rt guruhga bo‘linadi: totsama (sanskritdan to‘g‘ridan-to‘g‘ri olingan), totbhava (sanskrit negizida shakllangan), deshiy (mahalliy tillardan olingan), videshi (xorijiy tillardan o‘zlashgan). Tibbiyotga oid arab-fors so‘zlari

[1] Гуру К. Грамматика хинди. Часть II. Пер. с хинди Г.А. и Р.И.Баранныковых. Под ред. И с предисл. Проф. Б.А.Ларина. -М.: Изд-во иностранной лит-ры, 1962.
[2] Дымщиц З.М. Грамматика языка хинди. Т II. -М.: Наука, 1986.
[3] Катенина Т.Е. Очерк грамматики языка хинди. Прил. к «Русско — хинди словарю». -М.: Изд-во лит-ры на иностр. яз., 1957.
[4] Бескровный В.М. Морфологическое гибридное словообразование в хинди // Хинди и урду. Вопросы лексикологии и словообразования. –М., 1960.
[5] Баранников А.П. Хиндустани (хинди и урду). — М.:Изд-во лит-ры на иностр. яз., 1956.

videshi turkumiga kiradi. Statistik tahlillarga koʻra, hindiy va urdu tillaridagi tibbiyot terminlarining 40–55 foizini arab-fors oʻzlashmalari tashkil qiladi. Bu soʻzlar zamonaviy tibbiyotda ham, xalq tabobatida ham faol ishlatiladi.

Oʻzlashgan soʻzlar koʻpincha qabul qiluvchi til fonetik tizimiga moslashadi. Arab tilida mavjud baʼzi tovushlar hindiy va urdu tillarida mavjud emasligi sababli ularning talaffuzida fonetik soddalashtirish yuz beradi. Masalan, arab tilidagi ‘ع’, ‘ط’, ‘ق’, ‘ص’, ‘ظ’ kabi tovushlar hindiy tilida mavjud emas va ular talaffuzda yoʻqoladi yoki eng yaqin tovush bilan almashtiriladi. Shuningdek, morfologik jihatdan arab-fors soʻzlari urdu va hindiy morfologik strukturasi bilan uygʻunlashadi. Masalan, “ilaj” soʻziga urducha qoʻshimcha qoʻshilib “ilaj karna” (davolash) shaklida ishlatiladi. Bu esa oʻzlashmalar morfologik jihatdan integratsiyalashganini koʻrsatadi.

Oʻzlashmalar semantik jihatdan ham oʻzgaradi. Bunday oʻzgarishlar ikki shaklda boʻladi: maʼno kengayishi va torayishi. Masalan, arab tilidagi “bimar” soʻzi ruhiy va jismoniy holatni anglatgan boʻlsa, hindiy va urdu tillarida u faqat jismoniy kasallikka nisbatan ishlatiladi — bu maʼno torayishi. Boshqa tomondan, “sihat” soʻzi arab tilida faqat sogʻliq maʼnosida ishlatilsa, hindiy va urdu tillarida u alternativ tibbiyot, hatto hayot tarzi bilan bogʻliq tushunchalarni ham qamrab oladi — bu semantik kengayish.

Gibrid soʻzlar — bu ikki yoki undan ortiq til elementlarining qoʻshilishidan hosil boʻlgan birliklardir. Tibbiyotga oid arab-fors ildizlari urdu va hindiy affikslar bilan birikib yangi semantik birliklar hosil qiladi. Masalan:

बेदर्द (bedard):	بے (fors)	+ درد (arab) =	*dardsiz*
सेहतमंद (sehatmand)	صحة (arab)	+ مند (fors) =	*sogʻlom*
इलाज करना (ilaj karna)	علاج (arab)	+کرنا (urdu) =	*davolash*
दवाईघर (davaighar)	دواء (arab)	+ घर (hindiy) =	*dorixona*

Bu gibridlar oʻzlashmalarning faol ishlatilishini va tillararo integratsiyani yaqqol koʻrsatadi.

Tadqiqot davomida 73 ta tibbiyotga oid arab-fors oʻzlashmalari tahlil qilindi. Ularning 25% fors tilidan, 23% arab tilidan, 11% gibrid shaklda, qolganlari boshqa manbalardan kelib chiqqani aniqlangan. Statistik tahlillar quyidagicha:

Arabcha soʻzlar	**علاج، دواء، مرض**	17 ta	23%
Forscha soʻzlar	**د در، بیمار، جگر**	19 ta	25%
Gibrid soʻzlar	بےدرد، صحت مند	8 ta	11%

Bu statistik maʼlumotdan anglashiladiki, arab-fors tillarining tibbiy leksikaga kuchli taʼsir koʻrsatganini isbotlaydi. Arab-fors tillaridan hindiy va urdu tillariga kirib kelgan tibbiyotga oid oʻzlashmalar oʻziga xos leksik boylikdir. Ular tarixiy, diniy, ilmiy va madaniy aloqalarning mahsuli sifatida shakllangan. Fonetik, morfologik va semantik moslashuvlar ularning yangi tizimga muvaffaqiyatli singib ketganini koʻrsatadi. Gibrid soʻzlarning shakllanishi esa tillararo almashinuv va integratsiyaning muhim koʻrinishidir. Bugungi kunda ham bu oʻzlashmalar zamonaviy tibbiy matnlarda, bemor va shifokor oʻrtasidagi

muloqotda keng qo‘llanilmoqda. Ushbu o‘zlashmalarni ilmiy tahlil qilish kelajakda til o‘zgarishlari va til siyosati bo‘yicha tadqiqotlar uchun muhim asos bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Azizov O. Tilshunoslikka kirish. — T.: O‘qituvchi, 1996.
2. Faruqi, Shamsur Rahman. Urdu Ka Ibtidai Zamana. New Delhi: Oxford University Press, 2001.
3. Ibn Sino. Al-Qonun fit-Tibb. Beyrut: Dar al-Kutub, 1996.
4. Masica, C.P. The Indo-Aryan Languages. Cambridge University Press, 1991.
5. Platts, John T. A Dictionary of Urdu, Classical Hindi, and English. London: W. H. Allen & Co., 1884.
6. Sharma, Dev Raj. A Descriptive Grammar of Hindi and Urdu. Delhi: Vani Prakashan, 2002.
7. Singh, Rajendra. Language Change in South Asia. Berlin: Mouton de Gruyter, 2004.
8. Бескровный В.М. Морфологическое гибридное словообразование в хинди // Хинди и урду. Вопросы лексикологии и словообразования. –М., 1960.

MURAKKAB TUGAL SIFATDOSHLARNING ANIQLOVCHI, RAVISH HOLI VA OT-KESIM VAZIFALARIDA QO‘LLANISHI (“TOHIR VA ZUHRA” ASARINING URDUCHA TARJIMASI ASOSIDA)

Muslima MAXAMADXO‘JAYEVA
TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi
3-kurs, urdu-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qit. U. Zakirova

Annotatsiya: Ushbu maqolada tugal sifatdoshlarning urdu tiliga tarjima qilinish uslubi, ularning grammatik tuzilishi va qo‘llanilishi o‘rganilgan. Tadqiqot davomida tugal sifatdoshlarning ravish holi, aniqlovchi, ot-kesim funksiyalariga alohida ahamiyat berilib, asarning o‘zbekcha matni bilan ularning o‘xshash va tafovutli tomonlari o‘rganib tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: Sifatdosh, notugal sifatdosh, tugal sifatdosh, sodda, murakkab, urdu tili, ravish holi, aniqlovchi, murakkab ot-kesim, funksiyalar, tahlil

O‘zbek tilida sifatdosh – fe’l asosidan yasalib, ot yoki fe’lning belgisi, harakati yoki holatini ifodalovchi so‘z turkumidir. Sifatdoshlar fe’lning ba’zi xususiyatlarini saqlagan holda, sifat yoki ot kabi qo‘llanadi. Ular gapda aniqlovchi, ega, kesim, to‘ldiruvchi vazifalarida kelishi mumkin. Sifatdoshlar fe’lning belgi va xususiyatlarini ifodalovchi shakllar bo‘lib, gapda sifat va ravish vazifasini bajaradi. Ular harakatning qanday amalga oshganini yoki amalga

oshayotganini ko‘rsatadi. Sifatdoshlarning fe’lga xos bo‘lgan holatlari quyidagilar:

• Shakl (tub yoki qo‘shimchali shaklda kelishi),

• O‘rni (aniqlovchi, kesim yoki boshqa gap bo‘laklari sifatida kelishi),

• Zamon (o‘tgan, hozirgi, kelasi zamon ma’nolarini ifodalashi) xususiyatlariga ega.

Sifatdoshlar fe’l asosiga turli qo‘shimchalar qo‘shilishi orqali hosil qilinadi. Ular o‘tgan, hozirgi yoki kelasi zamon ma’nolarini ifodalashiga qarab turlicha yasaladi. Masalan: o‘tgan zamon sifatdoshlar fe’lning asosiga -gan, -kan, -digan, -adigan qo‘shimchalari qo‘shilib yasaladi. Ular harakatning oldin sodir bo‘lganligini bildiradi.

Hozirgi zamon sifatdoshlari esa harakatning hozir davom etayotganini yoki odatiy ekanligini bildiradi. Ular -ayotgan, -yotgan, -yotirgan qo‘shimchalari orqali yasaladi.

Kelajakda sodir bo‘ladigan harakatni bildiruvchi sifatdoshlar esa -jak, -moqchi,

-uvchi qo‘shimchalari bilan yasaladi.

Gapda sifatdoshlar turli funksiyalarda keladi. Ular aniqlovchi, ega va kesim bo‘lishi mumkin.

Masalan: “*Yozilgan* daftar” (qanday daftar? – yozilgan) bu yerda sifatdosh aniqlovchi funksiyasida kelgan, ya’ni daftar aniqlanyapti. “*O‘qigan* har doim bilimli bo‘ladi” (kim?- o‘qigan) ega funksiyasida kelmoqda. “Bu kitob allaqachon *o‘qilgan*” kesim funksiyasida kelgan.

Sifatdoshlar (participles) urdu tilida ham mavjud bo‘lib, ular fe’l asosiga qo‘shimchalar qo‘shish orqali yasaladi va ot yoki fe’lning belgisi, harakati yoki holatini ifodalaydi. Urdu tilida 2 xil sifatdoshlar mavjud: *notugal* va *tugal*. Notugal 2 ga bo‘linadi: *oddiy* va *murakkab*. Notugal sifatdosh oddiy sifatdosh fe’lning o‘zagiga bitta komponent تا qo‘shiladi va zamonlarda ishlatiladi. Murakkab notugal sifatdosh esa 2 ta komponentdan iborat bo‘lib, fe’lning o‘zagiga تا qo‘shiladi ikkinchi komponent esa ہونا fe’lining tugal shakli qo‘llaniladi. Murakkab notugal sifatdosh gapda aniqlovchi funksiyasini bajarib kelganida ushbu ko‘rinishda bo‘ladi, masalan: پڑتی ہوئی برف (yog‘ayotgan qor). Sifat bilan aniqlangan aniqlovchi faqat belgi xususiyatni bildirsa, sifatdosh bilan sifatlashgan aniqlovchi o‘zida biror bir ish harakatni bildiradi. Sifatdoshning oddiy sifatdan farqi, uning negizida ish harakat yotadi va bu jihatdan u fe’lga yaqindir. Chunki u fe’ldan yasaladi. Agar sifatdoshdan keyin kelgan ot muzakkar bo‘lsa sifatdosh تا ہوا ga tugaydi. Masalan: بڑی رفتار سے چلتا ہوا آدمی — Katta tezlikda yurayotgan odam. Agar ot muzakkar ko‘plikda bo‘lsa sifatdosh تے ہوتے ga tugaydi. بڑے رفتار سے چلتے ہوئے لوگ — Katta tezlikda yurayotgan insonlar. Agar ot muannas birlikda va ko‘plikda bo‘lsa sifatdosh تی ہوئی ga tugaydi. بڑی رفتار سے چلتی ہوئی گاڑی – Katta tezlikda harakatlanayotgan mashina. Tugal sifatdosh ham ikkiga bo‘linadi: *oddiy* va *murakkab*. Tugal sifatdoshning sodda shaklida fe’lning tugal asosi aks etadi ya’ni ہوا va u zamonlarda ishlatiladi. Murakkab tugal sifatdosh ham ikki komponentdan iborat bo‘ladi, birinchi komponentda fe’lning tugal asosi ikkinchi komponentda esa ہونا fe’lining tugal

shakli keladi va tarjimasi ham -gan, bo‘ladi. Masalan: وہ کتاب میری طرف سے لکھا ہوا ہے — Anavi kitob men tomonimdan *yozilgan.* Murakkab sifatdosh ham aniqlovchi, ega va ravish holi funksiyalari keladi. Aniqlovchi funksiyasida sifatdosh ot oldidan kelib, uni aniqlaydi. Masalan: پڑھی ہوئی کتاب — o‘qilgan kitob. بچے دن بھر سڑک پر گھومے ہوئے — Bolalar kuni bo‘yi ko‘chada *aylandilar,* bu misolda sifatdosh ravish holi funksiyasida kelgan.

Sifatdoshlarning ahamiyati haqida ko‘p tilshunos olimlar turli fikrlar bildirishgan. Jumladan, o‘zbek tilshunos olimlardan I. Yo‘ldoshev va O. Sharipova o‘z ilmiy tadqiqotlarida quyidagi ilmiy xulosalarni keltirishgan: “Ba’zan fe’lning sifatdosh shakli sifat turkumidagi leksema bilan antonimik munosabatlarga kirishi mumkin: o‘qigan va bilimsiz, o‘qimagan va bilimli kabi.”[1] Sifatdosh haqida rus olimlari turli fikrlar bildirishgan, masalan A. Shaxmatov: “Sifatdosh- bu fe’l shakli bo‘lib, predmetni unda sodir bo‘layotgan yoki sodir bo‘lgan harakat yoki holat orqali belgilaydi”[2], desa V. Vinogradov: “Sifatdoshlar o‘zlarida fe’l va sifat belgilari uyg‘unligini mujassam etib, predmetning belgisi sifatida harakatni ifodalaydi”[3]- degan fikrni ilgari suradi. Sifatdosh haqida ingliz olimlari ham turli fikrlar bildirishgan, jumladan S.Greenbaum “Sifatdoshlar otlarni aniqlab, ularning xususiyatlarini bildiradi”[4]. Masalan, *the running water* (oqayotgan suv) va boshqa bir necha misollar keltirib o‘tgan.

Shundan ko‘rinib turibdiki, sifatdosh har bir tilda o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Shu sababdan ham o‘zbek tilida yozilgan “Tohir va Zuhra” asari o‘rganib chiqildi, hamda urdu tiliga qilingan tarjimada tugal sifatdoshlarning gaplarda kelgan funksiyalari chuqur o‘rganildi va tahlil qilindi. Asarda sifatdoshlar aniqlovchi, ravish holi, hamda ot-kesim vazifasida uchradi va ba’zi bir misollar ushbu maqolada jamlandi. Masalan ushbu gapda “chiqar ekanlar” sifatdoshi ot kesim vazifasida berilgan.

بادشاہ روم کے دو بیٹیاں تھیں اس دن وہ دونوں اپنی کنیزوں کے ساتھ دریا پر نہانے آئی ہوئی تھیں۔

Xorazm shohining ikki qizi bo‘lib har juma kuni daryo labiga kanizlari bilan chiqar ekanlar.

Bundan tashqari ot kesim vazifasiga asardan ushbu misolni ham keltirish mumkin.

اس نے دیکھا کہ دریا کے اونچے کنارے پر ایک بہت ہی خوبصورت نوجوان بیٹھا ہوا ہے۔

Daryo labidagi bir balandlikda kishilar to‘planganini, ularning o‘rtasida bir yigitning o‘tirganini ko‘ribdi.

Asarda ravish holi vazifasida kelgan sifatdoshlar ham uchragan, ushbu misollarni keltirish mumkin

درختوں کے نیچے قالین بیچھے ہوئے تھے اور ان پر زمزم گدے اور تکیے پرے تھے۔

[1] I. Yo‘ldoshev. O. Sharipova. “Tilshunoslik asoslari” qo‘llanmasi. Toshkent. 2006. 36-b.
[2] A. Shaxmatov. “Синтаксис русского языка” Лунинград, 1925, 77-b
[3] V. Vinogradov. “Грамматическое учение о слове” Москва, 1986, 272-b
[4] S. Greenbaum. “A student’s grammar of the English Language” India, 1990, 10-bob

Bog‘da gullar ochilgan, ko‘m ko‘k maysalar yoyilgan, bulbullar, turli qushlar sayragan

اس نے ایک دفعہ گلی کو ڈنڈے سے اچھلا تو گلی اڑتی ہوئی جا کر اس کی نانی کو لگی جو ایک طرف دھوپ میں بیٹھی چرخا چلا رہی تھی۔

Kunlardan bir kun Tohir yong‘oq o‘ynab yurganda, otgan yong‘og‘i ip o‘girib o‘tirgan bir kampirning charxiga tegibdi.

شہزادی دوڑی ہوئی اپنے باپ کے پاس گئی اور اس سے کہا۔

Qiz o‘zida yo‘q sevinib, yugurib yangasining oldiga chiqib ‘‘Kuyovingiz gapirdilar, suyunchi bering, suyunchi!’’

Sifatdoshning yana bir vazifasi-*aniqlovchidir*. Asardan bir necha misollarni keltirish mumkin. Ushbu misolda دبی ہوئی dan so‘ng kelayotgan آواز ot so‘z turkumiga oid bo‘lib, aniqlanmish bo‘lib kelyapti, shu sababdan sifatdosh aniqlovchi vazifasida kelgan.

اس کو جگانے کی غرض سے طاہر دبی ہوئی آواز سے گانے لگا۔

Tohir g‘azal o‘qib Zuhrani uyg‘otibdi.

Aniqlovchi vazifasida kelgan yana bir sifatdoshga misol:

بادشاہ کا یہ ارادہ زہرہ کو معلم ہو گیا وہ سونے سے بھری ہوئی ایک طشتری لے کر کاری کے پاس گئی۔

Bu gapni Zuhra eshitib, bir lagan tillani ustalarga olib borib: — Shu tillani olinglar, sandiq shunday puxta bo‘lsinki, ichiga suv o‘tmasin, toki bechora yetimcha borgan joyida kun ko‘rsin,- deb zor-zor yig‘labdi.

Xulosa qilib aytganda, ushbu maqolada umumiy hisobda 17 ta tugal sifatdosh uchradi, ulardan 8 tasi ravish holi vazifasida, 4 tasi aniqlovchi vazifasida va qolgan 5 tasi esa ot-kesim vazifasida kelgan. Shuningdek, ilmiy tadqiqot jarayonida shu yaqqol ko‘rinib turibdiki, urdu matnlarida sodda va murakkab tugal sifatdoshlar orasida ravish holi vazifasi sermahsul qo‘llanilgan. Urdu va o‘zbek tillaridagi sifatdoshlarning tuzilishi, vazifalari va qo‘llanilish xususiyatlari tahlil qilindi. Xususan, urdu tilidagi tugallangan sifatdoshlarning funksiyalari alohida o‘rganildi. Shuningdek, “Tohir va Zuhra” asari tahlil qilinib, undagi sifatdoshlarning roli va matndagi ahamiyati ko‘rib chiqildi.

Tahlil natijasida har ikkala tilda sifatdoshlarning fe’l va sifat o‘rtasidagi vositachi bo‘lib xizmat qilishi va matnning aniqligi, hamda ifodaviyligini oshirishdagi roli aniqlandi. “Tohir va Zuhra” asarida sifatdoshlar tasviriylikni kuchaytirish, qahramonlarning holatini aniqroq ifodalash va badiiy matnning ta’sirchanligini oshirish uchun ishlatilgan.

Ushbu tadqiqot natijalari sifatdoshlarning nafaqat grammatik jihatdan, balki badiiy matndagi stilistik funksiyalarini ham chuqurroq tushunish imkonini beradi. Kelajakda bu mavzuni yanada kengroq o‘rganish orqali har ikki til grammatikasining umumiy va o‘ziga xos jihatlarini batafsil tahlil qilish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abduraxmonova M., Murtazaxodjayeva M., Zokirova U., Shorahmedova M., “Urdu tili”, Toshkent, 2018
2. Aulova R., Rahmatov B., Sodiqova M., “Hindiy tili darsligi”, Toshkent, 2008
3. Dadaboyev X., “Tilshunoslikning dolzarb masalalari”, Toshkent, 2006
4. Greenbaum S., “A student’s Grammar of the English language”, India, 1990
5. Matchonov. A., “O‘zbek tili statistikasi”, Toshkent, 1981
6. Xolmirzayev T., “Urducha-o‘zbekcha lug‘at, Islomobod, Pokiston, 2003
7. Yo‘ldoshev I., Sharipova O, “Tilshunoslik asoslari”, Toshkent, 2006
8. Шахматов А., “Синтаксис русского языка”, Ленинград, 1925
9. https://tsuull.uz/sites/default/files/dissertacgtdgfiya.pdf

ADABIYOTSHUNOSLIK

KOREYS AFSONALARIDA TOG‘LAR TASNIFI

Ozodaxon IBROHIMOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti
Filologiya va tillarni o‘qitish (koreys tili) yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: DSc., prof., U.Saydazimova

Annotatsiya: Mazkur maqolada koreys afsonalarida eng ko‘p uchraydigan tog‘ ramzi tavsifi berilgan. Mumtoz davr koreys nasri va nazmida tog‘ ramzi – koreys adabiyotida qabul qilingan yuqori makon tasvirida muqaddas makon, poklik, forig‘lanish tarzida beriladi. Yuqori makonda joylashgan ruhlar maskani – Txebeksan tog‘i mavhum hudud sifatida ma’lum.

Kalit so‘zlar: Tangun haqida afsona, Txebeksan, Qirol Suro haqida afsona, Ningxen, Osmon va oy o‘g‘li – Tonmyon – Van, Unsimsan tog‘i

Har bir xalqning og‘izdan-og‘izga o‘tib kelgan afsonalari mavjud. Afsonalar esa ham meros, ham yodgorlikdir. Afsonalarda ma’lum bir hudud yoki geografik tuzilishga doir ma’lumotlar keltiriladi. Tabiatdagi jamiki zaminning o‘ziga xos nomi ham mavjud.

Koreys afsonalari olam va odam haqidagi tasavvurlar bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ilk afsonalar – davlat asoschilaridan darak beradi. Afsonalarda makon yuqori, o‘rta va quyi tarzda beriladi. Ayniqsa, tog‘larning yuqori makon sifatida berilishi nafaqat afsonalarda, balki, Choson davrida yaratilgan qissalarda ham uchraydi. Inson ruhining o‘limdan so‘ng samoga – tog‘larga ketishi haqidagi koreys xalqining milliy-diniy tasavvurlari tog‘da ruhlar abadiy yashaydigan mamlakat borligi haqidagi dao rivoyatlari bilan bog‘liq[1].

Koreys adabiyotida tog‘lar muhim ramziy va ma’naviy ahamiyatga ega. Ular nafaqat tabiiy manzara sifatida, balki ruhiy poklanish, donishmandlik va ilhom manbai sifatida ham tasvirlangan. Konfutsiychilik ta’limoti va buddaviylikka ko‘ra, tog‘lar mashaqqatli hayot yo‘li ramzi sifatida talqin qilingan. Shuningdek, mumtoz koreys she’riyatida tog‘lar tinchlik, osuda hayot va tabiat go‘zalligining timsoli sifatida beriladi. Jumladan, ona tilidagi she’riyat – sijo va kasa janrlarida tog‘lar shoirning ichki kechinmalari va falsafiy mushohadalari bilan bog‘liq tasvirlanadi.

Inson hamisha atrof – muhitni o‘rganishga, jamiyat va tabiatda o‘z o‘rnini topishga harakat qiladi. Natijada, inson o‘z tasavvuridagi makonni yuqori, o‘rta va quyi tarzida taqsimlaydi. Shu bilan birga inson taqsimlangan qismlarning qaysi hududida ekanligini mudom izlaydi. Mumtoz davr koreys nasri va nazmida

[1] Saydazimova Umida. The Classic period is about the coverage of universal issues in Korean literature. Journal of law and sustainable development. ISSN:2764-4170.

tog‘lar yuqori makon ostini o‘zida mujassam etadi, aksariyat hollarda ular samoni ifoda etib, koreys adabiyoti va san’atida o‘ziga xos yuqori koordinatni belgilaydi[1].

Koreys xalqi tasavvurida olam va odam yaralishi haqidagi masalalar Tangun afsonasi zamiriga yashiringan. Bu afsonada ham bosh qahramonning odamlar dunyosiga tashrifi ham tog‘dan boshlanadi:

“*Qadimgi Solnomalarda shunday deyilgan: “...bir zamonlar Xvanin (Osmon Podshosi Indrani shunday deb atashgan)ning o‘g‘li Xvanun bolgan ekan. Xvanun odamlar orasida yashamoqchi bo‘libdi va ko‘p marta yerga tushishni mo‘ljallabdi. Xvanin o‘g‘lining niyatidan xabar topibdi va Xvanun odamlarga ko‘p foyda keltiradi degan qarorga kelibdi. U yerda uch cho‘qqidan iborat* ***Txebek*** *degan baland tog‘ni tanlabdi, o‘g‘liga Osmonning uch muhrini topshiribdi va uni odamlarni boshqarish uchun yuboribdi*.

Xvanun o‘zining uch ming kishilik lashkari bilan birga Txebekning eng baland cho‘qqisiga – ruhlarga qurbonlik keltiriladigan muqaddas daraxt joylashgan yerga tushibdi. Shundan beri bu joyni Ruhlar maskani deb, Xvanunni esa Osmon Podshosi deb atashadi”[2].

Qadimda Txebeksan Koreya hududida eng ulkan hamda muqaddas tog‘ sanalgan, xalqning mahalliy tasavvurlariga ko‘ra, ruhlar ibodatxonasi u yerga joylashtirilgan. Bu haqida afsonada shunday deyiladi: “*Tangun poytaxtni Chandangyonga ko‘chiribdi va Asadalga qaytib kelibdi, so‘ng odamlar dunyosini tark etib, Tog‘ ruhiga aylanibdi*”[3]. Ham botiniy, ham zohiniy makon – Txebeksan tog‘i mo‘jizalarga boydir. Jumladan, u yerda “*...ruhlarga qurbonlik keltiriladigan muqaddas daraxt joylashgan*”[4].

Afsonada muqaddas daraxt – faqat bitta turi mavjud daraxtga ishora mavjud. Bitta turi mavjud daraxt esa yuqori makon – tog‘ning eng baland cho‘qqisiga joylashtirilgan. Daraxtning yagona turi – yagona adabiy qahramon uchun ism vazifasini o‘tashda qo‘l keladi. Adabiy qahramon ismida uning taqdiri, qismati anglashiladi, shuningdek, ism uning fe’l – atvori, dunyoqarashiga muvofiq kelib, kelajak faoliyatiga ham ishora qiladi[5].

Hozirda Txebeksan tog‘ining aniq joylashuvi o‘rni noma’lum, lekin u ko‘pincha Baekdusan (백두산) va Myohyangsan (며향산) tog‘ining eski nomlarida uchraydi. Koreys xalqida Txebeksan haqida shunday tushuncha mavjud: “*bu tog‘ – tog‘larning boshi, ona tog‘dir*”.

---

[1] Сайдазимова У.Т. “Хон Кил Дон ҳақида қисса” – ўрта аср корейс насрининг намунаси (типология, жанр хусусиятлари ва эпик мотивлар масаласи). филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент. 2011. – Б. 71.

[2] Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 19.

[3] Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 20.

[4] Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 19.

[5] Saydazimova Umida. The Classic period is about the coverage of universal issues in Korean literature. Journal of
law and sustainable development. ISSN:2764-4170.

Txebek tog‘i nafaqat Tangun afsonasida, balki yana bir qator afsonalarda ham uchraydi. Jumladan, Silla davlati asoschisi “Qirol Kim Suro haqida afsona”da ham Txebek tog‘i nomi keltirilgan. Suro podshosi Ayutxa ismli Hindiston davlatining malikasi bilan turmush quradi. Qirol va qirolicha mamlakatni adolat bilan boshqarishadi: yurt farovon, xalq boshqaruvchidan minnatdor, dehqonning ishlari yurishgan, hosil mo‘l-ko‘l. Qirol va qirolichaning hayotini koreys madaniy tasavvurlari – inson va tabiat uyg‘unligi bilan qiyoslash mumkin: Osmon va Yer, Quyosh va Oy, erkaklik va ayollik asoschilarining uyg‘unligi. Oradan bir necha yil vaqt o‘tib qirolicha taxt vorisini dunyoga keltiradi va 157 yil umr ko‘radi.

“*Qirolicha o‘z umri mobaynida xalqqa qilgan yaxshiliklarni unutmaslik uchun u Karak davlatiga kelayotib kemadan birinchi marta qirg‘oqqa tushgan yerda joylashgan qishloqni Chjupxochon deb, o‘zining ipak yubkasini tuhfa qilgan Tog‘ ruhlari joylashgan cho‘qqini esa Ningxen deb nomlashibdi*”[1].

Qirolicha tog‘ tepasida dam olayotib ipak yubkasini yechib, uni Tog‘ ruhlariga tuhfa etadi. Sababi qirolicha 16 yosh paytlari uning ota-onasi bir tush ko‘radi. Tushda Tangrini ko‘rgani va Karak davlatining podshosi Osmon elchisi qilib yuborgan avliyo odam ekani haqida so‘zlab beradi. Yerga kelgach hali uylanmagani va Ayutxani (malikani) yuborishlari kerakligini aytadilar. Shu sababli malikaning o‘zi ikki qo‘riqchisi bilan yo‘lga otlanadi. Qirol bilan uchrashgach, qirolga bo‘lgan voqeani so‘zlab berganda qirol juda xursand bo‘ladi. Tog‘lar ruhiga hadya in’om etishi ham aynan shu boisdir. Ya’ni malikaga, Tangi Osmon elchisini umr yo‘ldosh qilib tanlanganidir. Aynan shu tog‘ minnatdorlik bajo keltirilgan cho‘qqi xalq tomonidan “Ningxen” deb nomlangan.

O‘zbek xalq afsonalarida qo‘rqmas va mard, o‘ziga xos xislatlarga ega bo‘lgan milliy qahramon Alpomish kabi koreys xalq afsonalaridan biri Koguryo davlati asoschisi Osmon va oy o‘g‘li – Tonmyon-Van, ya’ni Chumon haqida afsona mavjud. Chumon haqidagi afsonada ham biz yuqorida ko‘rib o‘tgan tarixiy Txebeksan tog‘i nomini uchratamiz.

Podsho Xeburu qazo qilgach, taxtga Kimva o‘tirgan. Kunlarning birida u Txebeksan tog‘ining janubidagi Ubalsu daryosi bo‘yida bir ayolni uchratgan. Undan kimligini so‘ragan. Ayol o‘zini Daryo xudosi Xabekning qizi Lyuxva deb tanishtirgan va o‘zi haqida quyidagilarni gapirib bergan:

“ – Bir kuni men singillarim bilan birga sayr qilgani chiqdim. Shu yerda bir erkakni uchratdim. U o‘zini Osmon podshosining o‘g‘li Xemosu deb tanishtirdi, meni Amnokkan daryosining bo‘yidagi **Unsimsan tog‘i** ostonasida joylashgan kulbaga olib keldi va nomusimga tegdi, biroq ko‘p o‘tmay ketdi va boshqa qaytib kelmadi. Otam va onam unashtirilmagan erkakka ishonganim uchun meni qattiq koyishdi, so‘ng uydan quvib chiqarishdi va Ubalsu daryosi yaqinida joylashtirishdi”[2].

[1] Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 28.

[2] Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013. – B. 30.

Yuqoridagi afsonada ta’kidlanganidek, Ubalsu daryosi Txebeksan tog‘i janubida joylashgan, ya’ni Ruhlar ibodatxonasi yaqinidagi daryo hisoblanadi. Afsonada **Unsimsan tog‘i** mavhum hudud sifatida beriladi. Nomusini yo‘qotgan qiz poklanishi uchun avval daryoga tushishi, keyin esa Txebeksan tog‘ida ibodat qlishi nazarda tutilgan. Demak, bu tog‘ poklanish bilan birga, orzu-niyatlar amalga oshadigan, kasalliklarga davo beradigan hudud hamdir. Shu yerda joylashgan muqaddas daraxt ostida Osmon xudosiga iltijo qilingan.

Txebeksan janubidagi daryo yonida Chumonning otasi – Osmon podshosi o‘g‘li Xemosu va daryo podshosi qizi – Lyuxvaning tanishishi ham bejizga emas. Bu kun ilohiy kun sifatida Chumonga ham g‘ayritabiiy xislat – “Merganlik” berilishiga ham bir sabab bo‘la oladi.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkun-ki, afsonalardagi tog‘lar Osmon elchisi qadam qo‘ygan makon, muqaddas dargoh, poklanish, orzu-niyatlar amalga oshadigan, kasalliklarga davo beradigan, inson va ruhlar olamida o‘rtasidagi hudud ma’nosini keladi. Eng ulkan tog‘ tarzida ta’riflangan ***Txebek*** tog‘i ham Osmon Xudosiga yaqin bir maskan sifatida keltiriladi. Tog‘ning balandligi qancha baland bo‘lsa, Osmon xudosiga shunchalik yaqin demakdir. Yuqori makon tog‘lar har doim sof muhitdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Сайдазимова У.Т. “Хон Кил Дон ҳақида қисса” – ўрта аср корейс насрининг намунаси (типология, жанр хусусиятлари ва эпик мотивлар масаласи). филол. фанл. номз. дисс. – Тошкент. 2011.

2. Saydazimova U.T., Choy So Yong, Xvan L.B. va boshq. Klassik koreys nasri antologiyasi. – Toshkent, 2013.

3. Saydazimova Umida. The Classic period is about the coverage of universal issues in Korean literature. Journal of law and sustainable development. ISSN:2764-4170.

HOZIRGI ZAMON KOREYS ADABIYOTI

Mohinur AZIMQULOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,
Tarjima nazariyasi va amaliyoti:
koreys-ingliz yo‘nalishi, 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: filol.f.d., prof. X. Hamidov

“Adabiyot – bu qalbni tarbiyalovchi, ruhni oziqlantiruvchi va aqlni yorqinlashtiruvchi kuchdir“
Alisher Navoiy

Annotatsiya: Ushbu maqolada Sharq adabiyoti namoyondalari, hozirgi zamon koreys adabiyoti va uning talqini, janrlari, nazm va nasrda erishilgan yutuq va kamchiliklari yoritilib berilgan. O‘g‘zaki va yozma adabiyot bilan bir qatorda

Xitoy adabiyotining ta’siri, shuningdek Koreys adabiyotining hozirgi kundagi talqini, tasnifi, yuzaga kelgan o‘zgarishlar va ularning sabablari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: sharq adabiyoti, koreys adabiyoti, adabiyotshunoslik, janr, nasr, nazm, davr, og‘zaki adabiyot,

Sharq adabiyoti azaldan o‘zining mazmundorligi, betakror asarlari bilan nafaqat kitobxonlarni, balki adabiyot ahlini ham o‘ziga tortib kelgan. Navoiy, Lutfiy, Xorazmiy, Bobur, Jomiy kabi buyuk mutafakkirlarimiz sharq adabiyotining so‘nmas yulduzlari sifatida e’tirof etiladi. Ular o‘z davrining eng go‘zal asarlarini yaratib, sharq adabiyoti rivojiga ulkan hissa qo‘shganlar. Hali-hanuz Navoiy, Bobur, Jomiy asarlarining o‘rganib tugatilmagan qirralari talaygina. Biroq, Sharq adabiyoti deganda faqat turkiy yoki fors-tojik adabiyoti emas, koreys, xitoy, arab, hind, yapon adabiyoti ham tushunilmog‘i kerak.

Shu jumladan, koreys adabiyoti ham chinakam maftunkor va rang-barang dunyo adabiyotida o‘z o‘rniga ega. Koreys adabiyotiga e’tiborning bunchalik keng qamrovli bo‘lishining sababi shundaki, u nafaqat koreys tilida yozilgan adabiyotni, balki og‘zaki ijodni ham o‘z ichiga oladi. Olimlar og‘zaki adabiyotni adabiyotdan chiqarib tashlagan, unga “adabiyotdan oldingi til shakli”, “adabiyotshunoslik uchun yordamchi material” sifatida qarashgan. Biroq vaqt o‘tishi bilan og‘zaki adabiyot ham adabiyot sifatida tan olindi. Shu bois zamonaviy koreys adabiyotshunoslarining aksariyati og‘zaki adabiyotni adabiyot sifatida tan olib va o‘rganishadi.[1]

Koreys adabiyotining kelib chiqishi og‘zaki adabiyot va qadimgi yozma adabiyotga borib taqaladi, Goryo va Joseon sulolalari davrida xangul ixtirosi tufayli koreys adabiyoti Xitoy adabiyoti bilan birga rivojlandi. Zamonaviy koreys adabiyoti mustamlakachilik davridan keyin 20-asr boshlarida milliy o‘zlikni anglash va mustaqillik masalalariga bag‘ishlangan asarlar bilan shakllana boshlandi. Zamonaviy koreys adabiyoti turli mavzular, ijtimoiy muammolar negizida rivojlangan. 1990-yillardan boshlab koreys adabiyoti jahon adabiyotshunosligiga tarjima orqali chiqarila boshlandi.[2] Umuman olganda, kitobxonlar orasida ushbu tillar adabiyotini sevib mutolaa qilayotgan yoshlar kamligi afsuslanarli holdir. Mutaxassislargina koreys, xitoy, yapon adabiyoti, leksikasi, morfologiyasi haqida chuqur o‘rganishadi. O‘ylaymanki, asarlarni tanitish va targ‘ib qilish orqali biz o‘ylagan natijamizga erishamiz. Koreys adabiyotining qanchalar boy va qiziq ekanligi 2024-yil adabiyot sohasida Nobel mukofotini qo‘lga kiritgan ilk Koreyalik ayol yozuvchi Hang Kang misolida ko‘rishimiz mumkin. Janubiy Koreyalik Hang Kang (*한강*) “Vegetarian” asari orqali xalqaro miqyosda mashhurlikka erishgan. Keyinchalik, asar Xalqaro Buker (International Booker)[3] mukofoti bilan taqdirlangan. New York Times Book Review tomonidan 2016 yilning eng yaxshi 10 ta kitobi ro‘yxatiga kiritilgan.

[1] Janubiy koreyalik yozuvchi Hang Kang https://namu.wiki/w/%ED%95%9C%EA%B5%AD%20%EB%AC%B8%ED%95%99

[2] 현대 문학의 특징과 성격 분석! https://search.naver.com/

[3] Hang Kang https://uz.wikipedia.org/wiki/Han_Kang

Adiba, dunyoda top 100 talikka kiruvchi Yonsei universitetining koreys tili va adabiyoti yo‘nalishini tamomlagan. Uning “Human acts”, “Oq kitob”, “Biz ajralmaymiz” kabi romanlari mavjud. Koreys va o‘zbek adabiyotining o‘xshash tomonlari misolida 2024-yilda Koreyalik olima In Kyong Jumong va Alpomishning xarakter va obrazlarini tahlil etib nomzodlik dissertatsiyasini yoqlaganligida ko‘rishimiz mumkin. Aytishimiz kerakki, azaldan yerlar bo‘linib, qabila qabila shaklida bo‘lmagan. Odamlar avval bir urug‘ jamoa bo‘lib umumiy hayot, turmush tarzi negizida birlashgan. Yillar mobaynida urug‘lar alohida jamoalarga bo‘linib, shu yo‘sinda alohida turar-joy, qabila, belgilar va asosiysi o‘zining tili va ramziga ega bo‘lib boshlashgan. Ayni shu jihatdan olib qaraydigan bo‘lsak, na o‘zbek va nainki Koreys adabiyotida Alpomish yoki Jumong tasviri ayni shunday bo‘lgan yoki bo‘lmaganligi haqida faktlar yo‘q. Shunchaki, qarashlar va nazariyalar mavjud. Ikki siymoning o‘xshash jihati afsonavor mardligi, jasurligi kabi fazilatlaridadir. Shu yo‘sindan qaraganimizda yillar, davrlar almashinuvi ta’sirida ikki xalq bir insonni afsonaviy ikki qahramonga ajratgan deyishimiz mumkin. Koreys adabiyotida ham janrlar, ertak, qissa, romanlar, pyesa, she’r mavjud va ular asosan xalq turmush tarzida ilhomlanib, adabiy qoliplashtirilib xalqqa taqdim etiladi.

Koreys tilidagi qissalar XVII asrda yaratilgan bo‘lib, o‘zbek adabiyoti kabi yaxshilik-yomonlik, mehr-oqibat, jamiyatdagi yutuq va kamchiliklarni ko‘rsatib bergan. Koreys qissalarida bosh roldagi qahramon xaloskor, mard, jasur umuman olganda qissa mavzusiga mos tarzda ideal etib tasvirlangan. Shuningdek, Koreys adabiyotida xalq turmush tarzi, qiyinchiliklari, yuzaga kelayotgan muammoli vaziyatlari, farovon va to‘kis hayot qanchalik ijobiy yo‘sinda yaratilgani kabi, xalq dardi ham shunchalik g‘am-anduh bilan ro‘y-rost ayriliq, sog‘inch, hijron mahorat bilan tasvirlanib berilgan. Masalan Sin-Sosol adabiyotida eng katta mavqega ega bo‘lgan asarlar Li Injik tomonidan yozilgan. Uning aynan “Qonli ko‘zyoshlar” qissasi “ayriliq — sog‘inch – baxtli uchrashuv sxemasiga monand yozilgan.[1] Asarning qisqacha mazmuni shunday: Pxenyan qal’asi o‘qqa tutilishi natijasida Kim Gvanil qizi va xotinidan ayriladi. Ayni shu vaqtda Kim Amerikaga jo‘nab ketadi. U G‘arbning ilg‘or texnologiya va tajribasini o‘z yurtiga olib kelib, uni qo‘llash uchun tadqiqotlar olib bormoqchi edi. Uning rafiqasi Chxve o‘zini daryoga tashlaydi, Moranbon tog‘ida adashib qolgan qizi Onenni esa gospitalga olib kelib davolashadi. Shundan so‘ng yapon shifokori uni o‘ziga qiz qilib oladi va oilasi yoniga jo‘natadi. Oradan 4yil o‘tgandan so‘ng shifokor vafot etadi va Onen bu oilaga ortiqcha bo‘lib qolganini sezib o‘qish uchun Amerikaga ketadi. Hanuz Amerikada bo‘lgan Kim gazetada AQSHda tahsil olayotgan iqtidorli koreyalik talabalar maqolasini bexosdan o‘qib qizining familiyasiga ko‘zi tushadi.

Uzoq yillar davomidagi sog‘inch diydor bilan yakun topadi. Asar mana shunday tarzda tartibli grafikada yozilgan. E’tibor berganingizdek, asarlarda Yaponiya va Xitoy davlatlari faol qo‘llangan. Sababi, o‘sha davrdagi bosqinchilik

[1]Klassik koreys nasri antologiyasi (Qadimiyatdan XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr), “ISTIQLOL” Nashriyoti, Toshkent, 2013. 504 bet (Mas’ul muharrir X.Hamidov)

yurishlari, mamlakatdagi nizolar va davlat to‘ntarishlari quyidagi ikki davlat orqali amalga oshirilgan. Shubhasizki, yerlarga egalik qilingandan so‘ng o‘sha xalqning madaniyati, turmush tarzi yaqqol targ‘ib qilinadi.

Koreys zamonaviy adabiyotining yana bir ko‘rinishi bu she’riy janrdir. Ushbu janr sharq adabiyot ixlosmandlari uchun biroz erishdek tuyilishi mumkin, boisi, fors-tojik she’rlaridan ilhomlanib, ularni miriqib o‘qiyotgan o‘quvchi albatta, tuyuq, qofiya, radiflarni she’rdan qidirishi tabiiy hol. Ammo bir ko‘rishda qofiyasiz, radif va shaklan to‘g‘ri yozilmagandek ko‘rinsa-da aslida, she’riy qolipga tushirilmay yozilgan asar ma’nan yetuk va barkamol fikrlarga ega. Xurshid Davron Xvan Mun Kvonning “Shunchaki”, “Avvalgidek”, “Erinchoq qush haqida”, An Xyon Mining “Vaqt”, “Ayol yomg‘ir”, Kim Xyonning “Onam uchun duo” she’rlarini vositachi til orqali o‘zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilgan.

Jimjitlik haqida bergan savolga
Eng yaxshi javobing bo‘lar – sukunat.
Vaqt haqida ham fikr shudir bemalol,
Bizning izmimiz-la yurmaydi soat.[1]

Ma’lumot uchun, Koreyada faqatgina she’r yozish bilan doimiy shug‘ullanadigan shoirlar juda kam. Hozirgi zamonaviy adabiyot she’rlarida milliylik, vatanparvarlik, ozodlik, tinchlik g‘oyaviy she’rlariga nisbatan, adabiy emas balki xorijiy so‘zlar qo‘llangan, diqqatni tortuvchi, sho‘x va yoshlarbop musiqa ritmiga tushuvchi she’rlar tobora rivojlanmoqda.

Xulosa o‘rnida aytishimiz mumkinki, Sharq — poyoni yo‘q ummon, misli ko‘rilmagan voqealarga boy adabiyotga ega! Yuqorida asarlar talqini,ularning kelib chiqish tarixi va hozirgi kundagi rivojiga alohida urg‘u berib o‘tdik. Koreys adabiyoti kitobxonni voqealar olamiga jalb qilib, uni qahramonlarga oshno eta oladi. Kuyunsa siz ham kuyunasiz, xursand bo‘lsa qo‘shilishib xursand bo‘lasiz. Asli adabiyotning hammasi shu emasmi? Sizni yig‘lata olgan asar bu haqiqiy asardir, sizni o‘z quvonchiga sherik qila olgan asar esa tuyg‘ular girdobida devona qilgan asardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Janubiy koreyalik yozuvchi Hang Kang https://uz.wikipedia.org/wiki/Han_Kang
2. 현대 문학의 특징과 성격 분석! https://search.naver.com/
3. 한문학 https://namu.wiki/w/%ED%95%9C%EA%B5%AD%20%EB%AC%B8%ED%95%99
4. https://gotohow.tistory.com/
5. kshiuehjeot님의 블로그
6. ЧОН ЧҲОЛ ШЕЪРЛАР Хуршид Даврон таржималари https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/tarjimalar-chon-chhol.html

[1] ЧОН ЧҲОЛ ШЕЪРЛАР Хуршид Даврон таржималари https://kh-davron.uz/ijod/tarjimalar/tarjimalar-chon-chhol.html

7. Klassik koreys nasri antologiyasi (Qadimiyatdan XIX asr oxirigacha bo‘lgan davr), “ISTIQLOL” Nashriyoti, Toshkent, 2013. 504 bet (Mas’ul muharrir X.Hamidov)

8. Zamonaviy koreys she’riyati antologiyasi (XIX asr oxiri – XX asrning 1950-yillarigacha bo‘lgan davr), “Istiqlol” Nashriyoti. –T.: 2014. 240 bet (Mas’ul muharrir X. Hamidov).

OGAHIY MUSAMMATLARINING MAVZULI TASNIFI

Durdona QO‘LDOSHOVA
TDSHU, Filologiya va tillarni o‘qitish,
koreys tili 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: TDSHU dotsenti, f.f.d. S.Mustafayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada tarjimon, shoir, tarixnavis hamda davlat va jamiyat arbobi Muhammad Rizo Ogahiy musammatlari o‘rganiladi hamda mavzuviy tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Musammat, Ogahiy, mavzuli tasnif, “Qobusnoma”, oshiqona, orifona, Bertels, murabba, musaddas.

Musammat-o‘zbek mumtoz she’riyatining g‘azaldan keyingi eng faol janrlaridan biridir. Musammat uch yoki undan ortiq misralardan tashkil topgan bandlardan iborat bo‘ladi. Janr atamasi birinchi marta Ogahiy tarjimalari orasida bebaho sanalmish “Qobusnoma” (XI asr) asarida tilga olingan bo‘lib,bunda asar muallifi – Kaykovus ibn Iskandar musammatni shoirlarning zarur usullari doirasida yoritadi.[1]

Ogahiy o‘z musammatlarida nafaqat badiiy go‘zallikni ifodalashga, balki o‘z davrining ijtimoiy va madaniy muammolarini yoritishga ham katta e’tibor bergan.

Ogahiy musammatlarining mavzusi rang-barang bo‘lib, ularni shartli ravishda quyidagicha tasnif qilish mumkin:

1) Oshiqona;
2) Orifona;
3) Tabiat manzaralari badiiy tasvir obyekti yohud badiiy tasvir vositasi bo‘lgan;
4) Murakkab (majoziy va haqiqiy ishq uyg‘unlikda kelib, shoir g‘oyasini aks ettiradi) musammatlar. [2]

Oshiqona musammatlar Ogahiy ijodida alohida shaklga ega va ular shoirning sevgi-muhabbat tuyg‘ularini badiiy va estetik jihatdan mukammal ifoda etishdagi mahoratini ko‘rsatadi.Ushbu musammatlar nafaqat oshiqona lirikani, balki inson qalbining nozik kechinmalarini ifodalashga ham yorqin namuna bo‘lib xizmat qiladi.

[1] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.14.
[2] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.32.

Qilg‘il tomosho qomati zebosi birla orazin,
Gar ko‘rmasang gul bo‘lg‘onin payvand shamshod ustina.
Noz-u adov-u g‘amzasi qasdim qilurlar dam-badam,
Vah, muncha ofatmu bo‘lur bir odamizod ustina. [1]

Shoir birinchi baytda yorning husnini tasvirlaydi. U yorning qomati va zebosi, husni-jamoli go‘zalligini e’tirof etadi. Shoir yorning qomatini shamshod (silliq, uzun va chiroyli daraxt) ga qiyoslab, yuzini gulning o‘zidan-da ko‘ra go‘zalroq ekanligini ta’kidlaydi. Yorning go‘zalligi gul va shamshod kabi tabiat go‘zalliklaridan ustun qo‘yilgan. Baytda shoirning orzu-istaklari va sevgi hislari yuksak tuyg‘ularda namoyon bo‘ladi.

Ikkinchi baytda yorning noz-karashmalari, adovati (muomala va so‘zlaridagi go‘zal kinoya) va g‘amzasi (ko‘z o‘qi) haqida so‘z yuritiladi. U yorning go‘zallikdan kelib chiqqan bunday qilmishlarini qasddan qilingan harakat deb his qiladi. Shoir bu husn va muhabbatni inson boshiga keladigan ofat sifatida tasvirlaydi. Ammo bu ofatning o‘zi shoir uchun zavq-manzil bo‘lib xizmat qiladi.

Adabiyotshunos Bertels: “Musulmon sharqida o‘tgan yirik mualliflarning barchasi kamdan kam istisnolar bilan tasavvufga u yoki bu darajada aloqador va ular bu adabiyotdan tashqarida tushunarli bo‘la olmaydi”,- deb yozgan edi. Buni bevosita Ogahiy musammatlariga ham tatbiq qilish mumkin.[2]

Ogahiyning orifona musammatlarida esa din va tasavvufga daxldor bo‘lgan ko‘p misralarni uchratamiz. Diniy ruhdagi g‘azallar orqali shoir tasavvuf, ilohiy muhabbat, bandalik va Allohga yaqinlikni o‘ziga xos badiiy ifoda etadi.

Maqsad manzilig‘a qachon yo‘l topar kishi,
To etmaguncha xodiyi davlat hidoyati.[3]

Ogahiy bu bayt orqali insonning to‘g‘ri yo‘lni topishi faqat hidoyat bilan mumkinligini ta’kidlamoqda. Islomiy nuqtai nazardan, bu hidoyat Alloh tomonidan beriladi va payg‘ambar Muhammad s.a.v orqali yetkazilgan. Agar inson shu hidoyatdan yurmasa haqiqiy manzilga, ya’ni oxirat najotiga yeta olmaydi. Shu bois Qur’on, hadis va ulamolar yo‘rig‘iga amal qilish zarurati ushbu bayt mazmuniga hamohang keladi.

Ogahiy she’riyatida tabiat tasviriga aloqador musammatlar ham o‘z mavqeyiga ega. Shoir tabiat manzaralari go‘zal tashbeh-u istioralar orqali asos ettirib, ularga falsafiy va ramziy ma’no yuklaydi. Tabiat tasvirining Ogahiy she’riyatidagi o‘rni ikkita asosiy jihatdan namoyon bo‘ladi: tabiat manzaralarining bevosita tasviri va ular orqali inson ruhiyati hamda ishqiy kechinmalarini ifodalaydi.

Azmi sayri bog‘ qil, ey gul, uzor, keldi bahor,
Qildi yuz fayzu tarovat, oshkor keldi bahor.
Bog‘lara ziynat bag‘ishlab, dashtlarg‘a berdi fayz,
To qilur ofoqni jannat shior keldi bahor.[4]

---

[1] https://tafakkur.net/ustina-radifli-gazal/muhammad-rizo-ogahiy.uz?utm_source=chatgpt.com
[2] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.34.
[3] TDSHU,xalqaro ogahiyshunoslar kengashi. “Ogahiy hikmatlari”. Toshkent. 2021.-B.34.
[4] G‘anixo‘jayev F. “Ogahiy she’riyatidan”. O‘KMK nashriyoti. Toshkent. 1983. -B.118.

Shoir bu musammatda bahorni bog‘ va gulzor egalariga mujdali xabar sifatida e’lon qiladi. Bahor fasli kelganida xabar berish orqali insonlarni quvonchga chorlaydi. Bahor kelishi bilan tabiatda fayz va go‘zallik ochiq-oydin namoyon bo‘ladi. “Yuz fayz” iborasi bahorning cheksiz ne’matlar ulashishini anglatadi. Uchinchi misrada bahorning bog‘larni bezashi va dashtlarga fayz olib kelishi ta’kidlangan. Bahor nafaqat shahar va qishloqlarga, balki sahrolarga ham hayotbaxsh ta’sir ko‘rsatadi. Bahorning ta’siri shunchalik kuchliki, u butun dunyoni jannatmanzara qiladi.

Ogahiy musammatlarining qolgan turida esa majoziy va haqiqiy ishq bir-birini inkor etmaydi, aksincha o‘zaro uyg‘unlikda ma’no kasb etadi. Ustozi Navoiyning:

Majozdin manga maqsud erur haqiqiy ishq
Nedinki, ahli haqiqatga bu tariqat erur [1]

-degan so‘zlarini Ogahiy ham o‘ziga dasturamal qilib olgan. Misrada shoir tasavvufiy ma’noda majoziy muhabbatni haqiqiy ishning vositasi sifatida ko‘rsatmoqda. Tasavvufda majoziy ishq (dunyoviy sevgi) orqali inson haqiqiy ishq (Allohga bo‘lgan muhabbat) sari yetishishi mumkin. Ikkinchi misrada shoir tasavvuf yo‘lini (tariqatni) haqiqat sari yetaklovchi yo‘l deb tasvirlamoqda. Tariqat- tasavvufning amaliy jihati bo‘lib, solik (yo‘lga kirgan kishi) Haqqa yetishish uchun riyozat, sabr, fidoyilik va ruhiy poklanish yo‘lidan borishi kerak. Shunga o‘xshash musammatlarda Ogahiy yorning tashqi go‘zalligini ham ichki ma’naviy go‘zalligini ham so‘raydi.

Ogahiy she’riyatida musammatning muxammas, murabba, musaddas, musamman kabi she’riy shakllari bor.

Murabba- to‘rt misradan iborat bandlarda yoziladi va madh, hikmat, maqtov yoki dostoniy mavzularda yoritiladi. Murabba yaratish sohasida Yassaviy, Navoiy, Mashrab boshlagan an’analarning ijodiy davomi sifatida Ogahiy 23 band 92 misradan iborat ikki murabba yaratgan.[2]

Jamoling shavqida yoqti falakni o‘tlug‘ afg‘onim
Bori yer yuzini to‘fonga berdi chashmi giryonim
Eshit dodimni emdi darding o‘ldi qosidi jonim
Nigorim, mehribonim mukrimat taxtida Sultonim![3]

Shoir sevgilisining go‘zalligidan ilhomlanib, hayajonlanayotganini ifodalaydi. Uning muhabbati osmonni ham alangaga soldi, ya’ni qalbining dard-u shavqi shunchalik kuchliki, butun olamni qamrab oldi. Bu yerda “falak” (osmon) va “o‘t”(olov) obrazlari yor vasfiga xizmat qilmoqda. Ikkinchi misrada shoirning sevgidan ko‘p iztirob chekayotgani aks etgan. “Chashmi giryon” (yig‘loqi ko‘zlar) obraz orqali shoir ko‘z yoshlarini yer yuzidagi sel (to‘fon) bilan taqqoslaydi. Ya’ni muhabbat azobidan yuragi ezilib, tinmay yig‘layotganini bildiradi. Uchinchi misrada shoir sevgilisiga murojaat qilib, uning og‘riqli muhabbatini tushunishini iltimos qilmoqda. “Dod” (fig‘on) so‘zi muhabbat

[1] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.37.
[2] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.40.
[3] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.40.

azobini ifodalasa, “darding oldi” iborasi sevgilisining dardini o‘z dardidan ustun qo‘yishiga ishora qiladi. To‘rtinchi misrada sevgilisini “nigorim” (go‘zal, ma’shuqa), “mehribonim”, “mukrimat” (rahmdil) deb atab, unga nisbatan hurmat va muhabbatini ifoda etadi. “Sulton” so‘zi orqali ma’shuqa yuksak martabaga ko‘tarilgan, ya’ni u shoir yuragining hukmdori ekanini ifodalaydi.

Musaddas- har bir bandda olti misra bo‘lib, tarixiy voqealar, islom qadriyatlari, ijtimoiy adolatsizlik va axloqiy masalalarni o‘z ichiga oladi.

Necha davron sitamidan yer uzra past bo‘lay,
Ohu ashku alamu dard ila hamdast bo‘lay,
Istaram emdi rinud ahlig‘a bovast bo‘lay,
Jomi may nash’asidin zo‘ru zabardast bo‘lay,
Tobakay daxr g‘ami qaydig‘a pobast bo‘lay,
Soqiyo, ber manga bir jomki sarmast bo‘lay.[1]

Ogahiy hayotdagi sinov va adolatsizliklardan ezilib, inson pastkash holga tushayotganini ta’kidlaydi. “Sitam” (zulm) so‘zi hayotning shafqatsizligini anglatadi. Ikkinchi misrada inson doimiy g‘am va iztiroblar bilan birga yashashga majbur ekanligi ko‘rsatiladi. “Ohu ashk” (yig‘i) va alam so‘zlari inson qalbining chuqur iztiroblarini ifoda etadi. Uchinchi misrada shoir bu g‘am va tashvishlardan qochishni istaydi, hayotning qattiq sinovlaridan qutulish uchun rindu(ozod va beparvo odamlar) orasiga qo‘shilishni xohlaydi. “Rinud”- tasavvuf adabiyotida dunyoviy tashvishlardan voz kechgan odamlar ma’nosida keladi. To‘rtinchi misrada may ichish orqali (ramziy ma’noda- ilohiy kayfiyatga erishish orqali) ruhiy og‘irlikdan ozod bo‘lishni istaydi. Bu tasavvufiy ma’noda Allohning muhabbatiga giriftor bo‘lishini anglatishi mumkin. Dunyo g‘ami va tashvishlari kishini o‘z panjasiga olgani, inson taqdirining qattiq bog‘langanligini bildiradi. “Qayd” va “pobast” so‘zlari kishini hayot sinovlari oldida ojizligini ifoda etadi. So‘nggi misrada tasavvufiy ruhda shoir soqiydan sharob so‘raydi, bu esa ramziy ma’noda ilohiy yuksalish, ruhiy ozodlik va dardlardan xalos bo‘lish istagini anglatadi.

O‘tdi umrim tun-kun ranju alam fikri bila,
Foqau faqr aro yuz mehnatu g‘am fikri bila,
Tama’i marhamat ahli karam fikr bila,
Simu zarxirsi dinoru diram fikri bila,
Tobakay daxr g‘ami qaydig‘a pobast bo‘lay’
Soqiyo ber manga bir jomki sarmast bo‘lay. [2]

Shoir umrining azob-uqubatlar va tashvishlar ichida o‘tganini ta’kidlaydi. Hayot mashaqqatlari uni tun-kun o‘ylantirgan, bu esa insoniy qismatning achchiq haqiqatini ko‘rsatadi. Insonning kambag‘allik va mashaqqat ichida yashagani tasvirlanadi. Shoir moddiy qiyinchiliklar ichida ham aqliy va ruhiy iztiroblardan qutula olmaganini bildiradi. Insonning boylikka, mol-davlatga, saxovatli kishilarning e’tiboriga umid bog‘lagani, lekin baribir hayot tashvishlaridan xalos

[1] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.48.
[2] Xallieva G. “Ogahiy musammatlari”. “Mumtoz so‘z”. Toshkent. 2019.-B.48,49.

bo‘la olmaganligi ta’kidlanadi. Inson tabiatiga xos tamagirlik va dunyoviy ne’matlarga bo‘lgan qiziqishining befoydaligi aks ettirilgan.

Ogahiy musammatlari nafaqat badiiy jihatdan yuksak, balki ma’no jihatdan ham chuqur ma’no kasb etadi. Uning musammatlarida so‘z o‘yini , badiiy san’atlar poetik ohang uyg‘unlikda namoyon bo‘ladi. Tahlil qilingan musammatlarning eng katta qismini tabiat tasviriga va yor visoliga atab yozilgan musammatlar tashkil qiladi. Uning musammatlari faqat bir davr adabiyoti emas, balki umumbashariy adabiyotning bebaho merosi sifatida qadrlidir. Bugungi kunda ham Ogahiy musammatlari tadqiq etilmoqda, o‘rganilmoqda va kelajak avlod uchun o‘zining ibratli saboqlarini ulashishda davom etmoqda. Uning ijodiy merosi har bir adabiyot muxlisining qalbini zabt etadigan, yuraklarni larzaga soladigan so‘z mo‘jizalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xallieva G. Ogahiy musammatlari. – Toshkent: Mumtoz so‘z, 2019. 158 b.
2. G‘anixo‘jayev F. Ogahiy she’riyatidan. — Toshkent: O‘KMK nashriyoti,1983. 176 b.
3. https://tafakkur.net/ustina-radifli-gazal/muhammad-rizo-ogahiy.uz?utm_source=chatgpt.com
4. TDSHU,xalqaro ogahiyshunoslar kengashi. Ogahiy hikmatlari. – Toshkent, 2021. 222 b.

OGAHIYNING “BO‘LMASA BO‘LMASUN NETAY” RADIFLI G‘AZALI TAHLILI

Zuhra AHMADOVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Antropologiya va Etnologiya yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar; PhD B.Odilov

Annotatsiya: Mazkur maqolada, Muhammad Rizo Ogahiy ijodining o‘ziga xosligi va uning “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” radifli g‘azali poetik jihatdan tahlil qilinadi. G‘azaldagi asosiy mavzu, badiiy vositalar va shoirning uslubiy mahorati keng yoritiladi. Shuningdek, g‘azalning mazmun va g‘oyaviy yo‘nalishi tahlil qilinib, uning o‘zbek adabiyotidagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: Ogahiy, g‘azal, radif, poetika, badiiy vositalar, majoz, lirika.

O‘zbek klassik adabiyotining yirik namoyandalaridan biri bo‘lgan Muhammad Rizo Ogahiy o‘zining sermazmun g‘azallari, tarixiy asarlari va tarjimalari bilan adabiyotimiz xazinasiga katta hissa qo‘shgan shoirlardan biridir. U o‘z g‘azallarida insoniy kechinmalar, ijtimoiy adolat va muhabbat mavzularini teran badiiy yondashuv bilan ifodalagan. Uning “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay”

radifli g‘azali shoirning badiiy salohiyatini namoyon etuvchi durdona asarlardan biridir. Ushbu maqolada mazkur g‘azalning poetik[1] jihatlari tahlil qilinadi.

Mumtoz adabiyot namoyandalarining ibratli hayot yo‘li va mazmunan boy ijodini chuqur o‘rganish, shuningdek, bugungi yosh avlodga ularni ibrat sifatida ko‘rsatish, qiziqarli usullarda o‘rgatish va hayotga tatbiq etishga undash adabiyot ta’limining muhim vazifalaridan biridir. Mustaqillik yillaridan so‘ng adabiyot o‘qitish jarayoniga doir dastur va darsliklarda shu kabi maqsadlarni inobatga olgan holda yangiliklar kiritilgan. Adabiy ta’lim mazmuni o‘zgarib, darsliklar qayta takomillashtirilgan. Shu jumladan, Muhammad Rizo Ogahiy ijodi va hayotini o‘rganishga bag‘ishlangan tajribalar boyitilib, ta’lim jarayonida unga alohida e’tibor qaratilgan. Mustaqillikdan keyin turli ta’lim bosqichlarida shoirning ijodini o‘rganish uchun o‘quv dasturlarida maxsus soatlar ajratilgan. Shu munosabat bilan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida adabiyot faniga oid dastur va darsliklar muntazam ravishda tahlil qilinib, takomillashtirib borilgan. Quyida esa ijodkorning hayoti va ijodining amaldagi darsliklarda qanday yoritilganiga oid fikr-mulohazalar taqdim etiladi.

Bugungi kunda umumiy o‘rta ta’lim maktablarining o‘quv jarayoni va dasturlari tahlil qilinganda, Muhammad Rizo Ogahiy hayoti va ijodini o‘rganish uchun ajratilgan soatlar quyidagicha taqsimlangani aniqlanadi:[2]

9-sinf adabiyot darsligida (Adabiyot: Umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik. Q. Yo‘ldoshev, V. Qodirov, J. Yo‘ldoshbekov. – T.: “O‘zbekiston” NMIU, 2019.) jami 4 soat ajratilgan:

1. Muhammadrizo Ogahiyning hayoti va ijodi;
2. Ogahiy lirikasi;
3. “Ustina” radifli g‘azal tahlili;
4. Ogahiyning g‘azallari va lirika haqida umumiy tushuncha.

Amaldagi ushbu darslikda birinchi soat ijodkor hayoti va ijodiga bag‘ishlangan bo‘lsa, qolgan 3 soatda uning g‘azallarini tahlil qilish ko‘zda tutilgan. Darslikda jami 4 ta g‘azal keltirilgan bo‘lib, ulardan 2 tasi tahlil uchun ajratilgan. Har bir g‘azalning izohli so‘zlar lug‘ati hamda mavzuni chuqur o‘zlashtirish uchun savol va topshiriqlar berilgan. Biroq bugungi globallashgan zamon talablari nuqtai nazaridan qaralganda, o‘quvchilarga ta’lim berishning yangicha interfaol usullarini ishlab chiqish va darsliklarni yanada qiziqarli metodlar asosida shakllantirish dolzarb masala hisoblanadi. An’anaviy savol va topshiriqlar hozirgi yosh avlod uchun yetarlicha qiziq bo‘lmay qolayotgani sir emas. So‘nggi yillarda bu borada izlanishlar olib borilayotgan bo‘lsa-da, ta’lim sohasini rivojlantirish uchun bu hali yetarli emas.

---

[1] Poetika-(yun. poietike — poetik san’at) — badiiy asarlarda ifoda vositalari tizimi haqidagi fan, eng qadimiy adabiyotshunoslik fani. Keng ma’noda Poetika adabiyot nazariyasi tushunchasiga to‘g‘ri keladi. Adabiyot nazariyasi sifatida Poetika adabiy tur va janrlar xususiyatini, oqim va yo‘nalishlar, uslub va metodlarni o‘rganadi hamda badiiylik darajasi o‘rtasidagi ichki bog‘lanish va o‘zaro munosabat qonuniyatlarini tadqiq etadi.

[2] O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil dekabr oyida „Muhammad Rizo Erniyozbek o‘g‘li Ogahiy tavalludining 210 yilligini nishonlash hamda Xiva shahrida Ogahiy ijod maktabini tashkil etish to‘g‘risida“gi qarori qabul qilindi.

Yangi tajribalardan biri sifatida ba’zi darsliklar xorijiy ta’lim tajribasi asosida yangilandi. Jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun 6-, 7- va 10-sinf adabiyot darsliklari qayta ishlab chiqildi. Mavzuga muvofiq, aynan Ogahiy hayoti va ijodi yoritilgan 10-sinf adabiyot darsligiga alohida e’tibor qaratish lozim.

Dard ahli holidan begona bo‘lmasun, netay,
G‘amxo‘r eli ichra beparvo bo‘lmasun, netay.
Jahonning ishq aro yo‘qdir vafodor ahli,
Har kimki unga suyanib o‘tlov bo‘lmasun, netay.
Nechukkim ishq aro majnun misoli yo‘qdir,
Kim aylagay sadoqat, ammo yo‘lmasun, netay.
Falak sitam qilib, ohimni qabul aylamadi,
Har kimki o‘z g‘ami ila tanho bo‘lmasun, netay.

Ogahiyning “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” radifli g‘azali[1] tahlili

She’riy namunadan parcha:

Har kimki jon fido aylasa, ado bo‘lmasun,
Dahr ichra g‘am yegan xushnud bo‘lmasun, netay.

Badiiy tahlil

Ogahiy mazkur g‘azalida inson taqdirini, dunyo sinovlarini va sabr-matonatni tasvirlaydi. G‘azalning asosiy g‘oyasi – dunyo tashvishlariga berilmaslik va taqdirga tan berish bilan bog‘liq. Yuqoridagi baytda shoir inson hayotining muhim jihatlariga e’tibor qaratadi.

“Har kimki jon fido aylasa, ado bo‘lmasun” – bu misra fidokorlik va halollikni tarannum etadi. Shoirning fikricha, chin dildan ezgulik yo‘lida jonini fido qilgan kishi hech qachon befoyda ketmaydi. Bunda tasavvufiy ma’no ham mujassam bo‘lib, inson ilohiy sevgiga erishish uchun o‘z nafsidan voz kechishi lozimligini anglatadi.

“Dahr ichra g‘am yegan xushnud bo‘lmasun, netay” – dunyo g‘amiga berilgan odam hech qachon haqiqiy baxtga erisha olmaydi. Ogahiy bu yerda hayotning o‘tkinchiligini eslatib, insonni dunyo tashvishlariga haddan ortiq bog‘lanmaslikka chaqiradi. Baytdagi “dahr” so‘zi vaqt va dunyo ma’nosini anglatadi va u beqarorlik timsoli sifatida ishlatilgan.

Ushbu g‘azalning badiiy qudrati radif va qofiyalarning uyg‘unligida ham namoyon bo‘ladi. Radif – “*bo‘lmasun, netay”* – takrorlanish orqali shoirning ichki iztiroblarini va falsafiy mushohadalarini yanada kuchaytiradi. Shoir she’riy san’atlardan tashbih va tajnis usullaridan foydalanib, badiiy obrazlarni jonlantiradi.

Umuman olganda, Ogahiyning bu g‘azali inson ruhiyatini, taqdir va sabr mavzusini teran yoritib, o‘quvchini hayot mohiyatini anglashga undaydi.

Ogahiyning “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” radifli g‘azali tahlili

She’riy namunadan parcha:

[1] G‘azal (arabcha: oshiqona so‘z, ishq izhor etish, ayollarni madh etish) — Sharq adabiyotida eng keng tarqalgan lirik janr ‘‘G‘azal’’ atamasi dastlab VIII–IX asrlarda arab she’riyatida paydo bo‘lgan.

Ishq ichra do‘st yo‘q, har kimsa g‘amxud bo‘lmasun,
Har kimki ishq aro jonin fido qilmish, netay.

Badiiy tahlil

Ogahiy bu baytda ishq va uning fidokorlik talab qilishiga urg‘u beradi. Shoirning tasavvurida ishq yo‘li murakkab, iztirobga to‘la bo‘lib, unda sadoqatli hamrohlarga duch kelish mushkuldir.

“Ishq ichra do‘st yo‘q, har kimsa g‘amxud bo‘lmasun” – bu misrada ishq yo‘lida kishining yolg‘izligi, unga faqat o‘z qalbi hamroh ekani ifodalangan. Shoirning nazarida, oshiq muhabbat yo‘lida yakkalanib qoladi, chunki haqiqiy muhabbat sabr va sinov talab qiladi. “*Do‘st yo‘q”* iborasi esa faqat yor va ishq borligini ta’kidlab, boshqa hamdard yo‘qligini anglatadi.

“Har kimki ishq aro jonin fido qilmish, netay” – bu misrada esa chin oshiqning o‘z yo‘lidan qaytmasligi tasvirlangan. Shoir bu fikrni “jonin fido qilmish” iborasi orqali ta’kidlab, chin dildan sevgan inson muhabbat yo‘lida har narsaga tayyor bo‘lish.

Ijodkorning tarixiy asarlarini o‘rganish orqali o‘quvchi uning davri haqida tasavvur hosil qiladi, mavjud holatni baholash, xulosalar chiqarish va bugungi kun bilan solishtirish imkoniga ega bo‘ladi. Natijada o‘quvchi adib ijodidagi ruhiyatni chuqurroq anglaydi, tarixiy faktlarni o‘zlashtiradi va ularni boshqa fanlarda ham qo‘llash ko‘nikmasiga ega bo‘ladi. Shu tarzda olingan bilimlar real hayotda tatbiq etilib, o‘quvchining tafakkuri va mulohaza yuritish qobiliyatini rivojlantiradi.

Barcha ko‘rsatilganlarni xulosalaylik, Mazkur maqola tahlil natijalariga asosan, Ogahiy ijodi o‘zbek mumtoz adabiyotida muhim o‘rin tutadi. Uning “Bo‘lmasa bo‘lmasun, netay” radifli g‘azali hayotga falsafiy qarash, insonning ichki kechinmalari va qanoatlilik tuyg‘usini badiiy jihatdan chuqur ifoda etishi bilan ajralib turadi. Ushbu g‘azal nafaqat poetik jihatdan, balki ma’naviy va ma’rifiy jihatdan ham katta ahamiyat kasb etadi. Shoirning badiiy mahorati, g‘azaldagi obrazlilik va ma’no kengligi Ogahiy ijodining yuksak saviyada ekanini yana bir bor isbotlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ogahiy M. R. “Devon”. – Toshkent: Fan, 1981.
2. Oripov H. “O‘zbek mumtoz adabiyoti”. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
3. Rahimov A. “Ogahiy g‘azallari poetikasi”. – Toshkent: O‘zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2007.
4. Hayitmetov A. “O‘zbek adabiy tanqidchiligi masalalari”. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1996.
5. Jo‘rayev N. “Tasavvuf va mumtoz she’riyat”. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 2010
6. Yo‘ldoshev Q., Husanboyeva Q. Adabiy ta’lim davlat standarti. || Ta’lim taraqqiyoti. 1-maxsus son. 1999.18-24.

OGAHIY IJODIDA FASLLAR TASVIRI: “QISH” VA “NAVRO‘Z” G‘AZALLARINING BADIIY TAHLILI

Ruxsora PARDABOYEVA
TDSHU, Sharq xalq tillari va adabiyoti instituti,
1-kurs turk-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi, Phd N. Altinboyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning “Qish” va “Navro‘z” g‘azallari badiiy tahlil qilinadi. Ushbu asarlarda qish va bahor fasllari tasvirlanib, ular bir-biriga zid olam sifatida talqin etiladi. “Qish” g‘azalida qishning sovuq va shiddatli kelishi inson hayotidagi qiyinchiliklar bilan bog‘liq tarzda tasvirlangan bo‘lsa, “Navro‘z” g‘azalida bahorning kelishi, quvonch va yangilanish ramzi sifatida madh etiladi. Maqolada tazod, tashbeh, istiora, mubolag‘a kabi badiiy san’atlarning qo‘llanilishi tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Rizo Ogahiy, “Qish” g‘azali, “Navro‘z” g‘azali, fasl tasviri, badiiy san’at, tazod, tashbeh, istiora, mubolag‘a.

Sharq mumtoz adabiyotida tabiat manzaralari inson ruhiyati va hayoti bilan bog‘liq holda tasvirlangan. Muhammad Rizo Ogahiy (1809–1874) ham tabiat hodisalarini nafaqat go‘zal tasvir sifatida, balki inson hayoti, his-tuyg‘ulari va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan bog‘lab ifodalagan.

Ogahiy Xiva xonligi davrida yashagan va ijod qilgan shoir, tarixnavis hamda tarjimon bo‘lib, o‘zbek mumtoz adabiyotining yirik vakillaridan biri hisoblanadi. U 19-asr o‘zbek she’riyatida g‘azal, masnaviy va tarixiy asarlar yaratgan. Uning ijodi tabiat, inson kechinmalari, tarixiy voqealar va jamiyatdagi o‘zgarishlarni aks ettirish bilan ajralib turadi.

Shoirning “Qish” va “Navro‘z” g‘azallari bir-biriga teskari bo‘lgan ikki faslni tasvirlaydi. Qish – hayotning murakkab va sovuq pallalarini, bahor esa yangi umid va quvonchni ifodalaydi. Ushbu maqolada har ikkala g‘azalda ishlatilgan badiiy san’atlar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

BADIIY SAN’ATLARNING TAHLILI

1. Tazod san’ati[1]

Tazod – arabcha so‘z bo‘lib, qarshilantirish usulining adabiyotda qo‘llangan bir ko‘rinishi. Tazodda qarama-qarshi qo‘yilgan ikki tomon ayni zamonda bir-biriga uzviy ravishda bog‘lanib keladi.

“Qish” g‘azalida tazod:

“Qotig‘roq kelmadi hargiz jahong‘a ushbu qishdin qish,
Ki aql-u hisg‘a yaksar mone’ o‘ldi borcha ishdin qish.”

Bu baytda qish jismoniy sovuq emas, balki inson aqli va hissiyotiga ham to‘sqinlik qiluvchi kuch sifatida tasvirlangan.

“Aql va his” – hayotiy faollik ifodasi bo‘lsa, “qishning mone’ bo‘lishi” – hayotning sustlashishini bildiradi.

“Navro‘z” g‘azalida tazod:

[1] Usmonova U. “She’riy san’atlar”. Farg‘ona-2015.B-12

Baland aylab quyoshga poya Navro‘z,

Ko‘tardi yer yuzidin soya Navro‘z.

Bahor kelishi bilan yorug‘lik ortib, qishning zulmati yo‘qoladi.

Quyosh – hayot va harorat timsoli, soya – qorong‘ilik va sovuq timsoli bo‘lib, bahor kelishi bu qarama-qarshilikni hal qiladi.

2. Tashbeh san’ati[1]

Tashbeh – bir narsani boshqa narsa bilan o‘xshatib tasvirlash san’ati.

“Qish” g‘azalida tashbeh:

“Burudat shiddati ostida qaddim xam qilib yodek,”

Qishning sovuq shiddati insonni “qari chol” kabi bukib qo‘ygani tasvirlangan.

“Navro‘z” g‘azalida tashbeh:

Tarab tifin tug‘urdi dahr zoli,

Ango bo‘ldi magarkim doya Navro‘z.

Bahor tabiatga hayot baxsh etayotgan ona yoki “doya” sifatida tasvirlangan.

3. Istiora san’ati[2]

Istiora – tushunchalarni yashirin tashbeh orqali ifodalash san’ati.

“Qish” g‘azalida istiora:

“Ushotib sangi shiddatdin ayirdi borcha tishdin qish.”

Qishning shiddati tosh kabi mustahkam bo‘lib, odamning tishlarini sindirgani tasvirlangan.

“Navro‘z” g‘azalida istiora:

Kelib fayz-u nishot-u aysh birla,

Muhayyo qildi elga voya Navro‘z.

Bahor odamlarga quvonch ulashuvchi jonli kuch sifatida tasvirlangan.

4. Mubolag‘a san’ati[3]

Mubolag‘a – asarda tasvirlanayotgan badiiy timsol holati yoki harakatni bo‘rttirib, kuchaytirib ifodalash san’ati demakdir.

“Qish” g‘azalida mubolag‘a:

“Mani mahrum qildi el bila borish-kelishdin qish.”

Qishning shiddati shunchalikki, u odamlarni bir-biri bilan ko‘rishishdan ham mahrum qiladi.

“Navro‘z” g‘azalida mubolag‘a:

“Ko‘zim yoshig‘a toya-toya Navro‘z.”

Shoirning dardi shu qadar kuchliki, hatto bahorning o‘zi ham uning ko‘z yoshlarini to‘xtata olmaydi.

Muhammad Rizo Ogahiy ijodida tabiat manzaralari inson hayoti, ruhiyati va jamiyatdagi o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘langan holda tasvirlanadi. “Qish” va “Navro‘z” g‘azallari shoirning fasllar tasviriga bo‘lgan san’atkorona

[1] Tashmuxamedova L. “Adabiyot tarixi va nazariyasi”. 1-qism. Toshkent-2020.B-56

[2] Rahmatova G. “Qadimgi turkiy she’riyatda qo‘llangan badiiy san’atlar va ularning matn stilistikasiga ta’siri”. Toshkent-2022. B-14

[3].Xojiahmedov A. “She’riy san’atlar va mumtoz qofiya”. Toshkent-1998. B-9

yondashuvini koʻrsatib, hayotning murakkab va yorugʻ tomonlarini badiiy aks ettiradi.

“Qish” gʻazali inson hayotidagi ogʻir sinov va qiyinchiliklarni ramziy tasvirlash bilan ajralib turadi. Shoir qishning qattiq izgʻirinini, shamollarning dagʻalligini va hayotni qiyinlashtiruvchi sovuq ob-havoni inson hayotidagi azob va tashvishlarga qiyoslaydi. Ushbu gʻazalda tazod, tashbeh, istiora, mubolagʻa kabi san’atlar orqali qish faslining qahraton qiyofasi kuchli badiiy ta’sir bilan ifodalangan.

“Navroʻz” gʻazali esa aksincha, bahorning kelishi bilan tabiatning uygʻonishi, shodlik va hayotning yangi bosqichi boshlanishi haqida hikoya qiladi. Bahor – tabiat va inson qalbining yangilanishi, umid va muhabbat fasli sifatida tasvirlanadi. Shoir bu faslni hayotning quvonchli va yorugʻ pallasi sifatida tasvirlab, badiiy san’atlar orqali bahorning ta’sirchan obrazini yaratadi.

Bu ikki gʻazalda yorugʻlik va qorongʻilik, sovuq va iliqlik, umidsizlik va quvonch oʻrtasidagi ziddiyat badiiy mahorat bilan yoritilgan. Ogahiy qish va bahor tasviri orqali inson hayotining ogʻir va yengil pallalarini ifodalagan. U tabiat manzaralarini tasvirlash orqali nafaqat fasllarning goʻzalligini koʻrsatadi, balki hayotning chuqur falsafiy ma’nolarini ham ochib beradi. Shu sababli, “Qish” va “Navroʻz” gʻazallari Ogahiy she’riyatining estetik va ma’naviy yuksak namunalaridan hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Muhammad Rizo Ogahiy. Asarlar. 6 jildlik / Nashrga tayyorlovchi S. Dolimov. 1–2-jildlar. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va san’at, 1972.

2. Avazova G. Muhammad Rizo Ogahiy va mumtoz adabiyot. – Toshkent, 2015.

3. Ishoqov Y. Ogahiy ijodi va adabiy merosi. – Toshkent, 1995.

4. Umarova Sh. Ogahiy lirikasi va oʻziga xos xususiyatlari. – Qashqadaryo, 2022.

5. Ubaydullayev A. Ogahiy ijodida fasl tasviri. – Toshkent, 2018.

ZAMONAVIY XITOY BOLALAR ADABIYOTIDA SIE BIN SIN NASRINING OʻRNI VA AHAMIYATI

Iroda TOSHBEKOVA
TDSHU, Lingvistika (xitoy tili) 1-kurs
Ilmiy rahbar: PhD O. Ochilov

Annotatsiya: Mazkur maqolada serqirra ijodiy faoliyat sohibasi Sie Bin Sinning nasriy yoʻnalishda yaratgan asarlari hamda ularning bolalar adabiyotida tutgan alohida oʻrni toʻgʻrisida soʻz yuritilgan boʻlib, ijodiy yutuqlarini kengroq ochib berish maqsadida “Yosh kitobxonlarga maktublar” hamda “Tog‘ kundaligi”

asaridan tarjima namunalari ham keltirib o‘tilgan. Shu bilan birga, XX va XIX asr xitoy bolalar adabiyoti o‘rtasidagi badiiy o‘zgarish va farqlar yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: Xitoy bolalar adabiyoti, “Yosh kitobxonlarga maktublar”, “muhabbat falsafasi”.

XX asrda yashab o‘tgan va o‘zidan sermahsul ijod qoldirgan Sie Bin Sinning nasriy asarlari o‘zida “muhabbat falsafasi”ni namoyon etadi. Onalik muhabbati, bolalarga xos beg‘uborlik va tabiat uning nasriy ijodida o‘rin olgan asosiy adabiy mavzular hisoblanadi. Bin Sin nasri qalam nafisligi, fikrlar sofligi va hissiyotlarning nozikligi bilan ko‘plab kitobxonlarni o‘ziga jalb eta oldi. Tabiatning tabiiy go‘zalligi yozuvchining billurday tiniq ongi va boy tasavvuriga singib ketgan, natijada u muloyim ifoda bilan badiiy ta’sirchan va salmoqli adabiy maydon yarata olgan edi. Zamonaviy davr xitoy adabiyoti yetuk namoyondasi Yu Dafu Bing Sin ijodi to‘g‘risida shunday ijobiy fikrlarni bildirib o‘tgan: “冰心女士的散文倩丽文字的典雅思想的纯洁在中国算是独一无二的作家了”,
ya’ni “Bin Sin xonimning nasri mumtoz tafakkurining sof va beg‘uborligi borasida Xitoyning yagona yozuvchisidir.”[1]

1. Ijodkorlikdagi samimiyat tushunchasi.

Bin Sin ijodida tematik aktuallik va rang-baranglik ustun bo‘lib, u asarlarida har doim samimiy ijodiy munosabatni saqlab kelgan. Xususan, o‘zining “Yosh kitobxonlarga maktublar” to‘plamidagi 29-maktubda ham mazkur adabiy konsepsiyasini “我行云流水似的，不造作，不矜持， 说我心中要说的话 ”ya’ni *“Men bamisoli erkin suzayotgan bulut, oqayotgan suv kabi, dil istagan gapni ayturman ro‘y-u rost*” [2] deya ifodalab beradi. Yozuvchi asarlarida uning yoniq yuragi, ta’sirchan qalbi, ochiq shaxsiyati va samimiylikka yo‘g‘rilgan tabiati yaqqol aks etib turadi. Bin Sin bolalarning chinakam ruhini his qilish va bolalikdagi beg‘uborlikni kashf qilish uchun hikoya qahramoni sifatida bolaning qalbidan foydalanadi. “Tog‘ kundaligi” asarining[3] “Qushlar va hayvonlar bir guruhga kirmaydi” bobida Bin Sin diqqatini qushning o‘sish jarayonini tasvirlashga, polapon va ona qushni bolalar va ota-onalar o‘rtasidagi munosabatlarni solishtirishga qaratadi; asar bolalikdagi chuqur hissiyotlar, nozik kechinmalar hamda xotiraga muhrlangan unutilmas voqealar tasvirlariga to‘la. Bunda Bin Sin nasrining mazmuni bolalarning axloqiy yo‘nalishiga ijobiy ta’sir qiladi va ular kitobdagi samimiy ijodiy munosabatni payqay olishadi. Chunki ijodkor o‘z boshidan o‘tkazgan hodisalarni asariga badiiy sodda ifodalarda singdira olganki, bu Sie Bin Sinning nasrda qalam tebratishdagi yuksak adabiy mahoratidan dalolat berib turadi. Uning bu prozaik mahorati jajji kitobxonlar anglay olishi uchun eng zarur ma’nolarni tashiydigan so‘zlarni kerakli tarzda satrlarga joylay olishida to‘la namoyon bo‘lgan.

---

[1] 郁达夫：《中国新文学大系·散文二集导言》，上海文艺出版社1981年版，第213页

[2]《冰心全集》第二卷1923- 1931年 卓如编 第288页

[3] 《山中杂记》 “Tog‘ kundaligi” – Bin Sinning AQShda bo‘lgan vaqtida yozilgan bo‘lib, asar yozuvchining tog‘ xotiralarini qamrab olgan. Bosh g‘oyasi hayvonlarni asrash, tabiatni sevish va muhofaza qilish tuyg‘usidir.

Hozirgi iqtisodiy o‘sish sharoitida hayot sur’ati tezlashmoqda, ammo ijtimoiy mentalitetga e’tibor aksincha kamayib bormoqda. Tobora rivojlanishi, samimiyat va tabiiylik mujassam etishi kerak bo‘lgan bolalar adabiyotining aksar nuqtalarida esa plagiatning salbiy tendensiyaga duch kelinyapti. Jumladan, barchaga ma’lumki, sehrli “Garri Potter” romanining dovrug‘i butum dunyoni qamrab oldi, kitob bozorida sehrli shamol singari tarqalib, yosh kitobxonlar uni g‘ayrat bilan izlashgan. Biroq keyinchalik, “Garri Potter” mavzusiga o‘xshash fantastik asarlarni hamma joydagi kitob do‘konlarida ko‘rish mumkin edi. Yaqinda xitoylik yozuvchi Chjou Yuvenning eng ko‘p sotilgan “Kichik shahzodaning sarguzashtlari”（《冒险小王子》） nomli ertak romani “Garri Potter” bilan ko‘plab o‘xshashliklarga ega ekanligi, unda plagiatning aniq izlari borligi ma’lum bo‘ldi.[1] Ushbu turdagi plagiatlarda moddiylashtirilgan utilitar qadriyatlar muallifning obro‘siga putur yetishiga olib keladi, yozuvchining ijodkorlik qobiliyati yetishmasligidan, ijtimoiy mas’uliyat hissi yo‘qolgani, bolalar adabiyoti bir xil stereotipga tushib, soddalashtirilgan modelga o‘tayotganiga belgi beradi. Yuqorida aytib o‘tilgan plagiat asarlardan keskin farqli o‘laroq, bolalar uchun yaratilgan fantastik adabiyot – “Luolingning sehrli kuchi” (《萝铃的魔力》) asari muallifi Chen Liuhuan(称柳环) o‘spirinlarning qiziqarli tajribaga bo‘lgan istagini aniq anglaydi va sehrli jodugarlar ichida kechuvchi Luoling hayotini tasvirlaydi. Asar 1,2 milliondan ortiq nusxafda nashr etildi. Uning muvaffaqiyati (xuddi Sie Bin Sinda bo‘lgani singari) muallifning samimiy ijodiy munosabati bilan chambarchas bog‘liqdir. Bin Sinning nasriy asarlari samimiy til va insonparvarlikni saqlab qolish, plagiat tendensiyasiga ongli ravishda qarshi turganligi va qo‘pol uydirmalardan qochganligi sababli ham muhim ahamiyat kasb etgan.

2. Qizg‘in ijodiy mavzu.

Bin Sin nasrida “Umumbashariy sevgi” mavzusi bir necha bora takrorlanadi. “Sevgi falsafasi” axloqiy nuqtai nazardan shaxslararo munosabatlarning go‘zalligini o‘rganadi, ona mehrini, bolalik xotiralarini va yurt tabiatini madh etish orqali uyg‘un munosabatlar yaratiladi. “Yosh kitobxonlarga maktublar” to‘plamidagi 7-maktubida AQShning Uellesli shahridagi Vaybing ko‘lining betakror manzaralari va muallifning o‘ziga xos ichki kechmishlari: yurti va oilasiga sog‘inch hissi mujassamlashgan. E’tiborli jihati shuki, bu tasvirlar bolalar tushuna oladigan sodda badiiy tilda yoritib berilgan.

Bolalar uchun mo‘ljallangan kitoblar hissiy ozuqa va axloqiy ma’rifatga to‘la bo‘lishi va yoshlarning ma’naviy-madaniy dunyosini yaxshilashga yordam bermog‘i lozim. Bin Sin nasri esa g‘amxo‘rlik va sevgi izlayotgan bolalarga ayni mos keluvchi muloyimlik bilan yo‘g‘rilgan.

3. Teng ijodiy nuqtai nazar.

Bin Sin bolalar tabiatiga hurmat bilan qaraydi: “O‘tmish”, “Yosh kitobxonlarga maktublar”, “Janubga qaytish” kabi bir qator insholarni teng huquqli nuqtai nazardan yaratdi. U shunday yozadi: “Bolalarga hech narsani tushunmaydiganlar sifatida qaramanglar. Yozuvchi ularni albatta teng o‘rinda

[1] 朱妍 《冰心散文对当下儿童文学创作的启示作者》， 来源《名作欣赏》 2015年。

ko‘rishi lozim. Yosh o‘quvchilaringizga ehtirom ko‘rsating, shunda ular ham sizni hurmat qilishadi” (“不要把孩子看成傻子，作者应当同他们平起平坐，你尊重他们，他们就尊重你”)[1]. Yozuvchi turli asarlarida, xususan, “Tog‘ kundaligi” kitobida ham o‘z hayotiy tajribalarini bolalar bilan o‘rtoqlashsa, “Yosh kitobxonlarga maktublar” kitobida o‘z bolaligi bilan bog‘liq hayot hikoyalarini bolaning nuqtai nazari va tili bilan hikoya qilib beradi; o‘zi ta’kidlab o‘tganidek, teng ijodiy yondashuvga qat’iy amal qiladi. Chunki bu turdagi adabiyoti katta yoshlilarga moyil bo‘lmasligi, o‘quvchilarning dunyoqarashi va mantiqiy fikrlash qobiliyatiga nisbatan yuqori talablarda yozilmasligi, o‘z navbatida, mutolaa qiluvchi kitobxonning yoshini inobatga olgan holda, muvofiqlashtirilishi darkor. Adib agarda bolalar psixologiyasini chuqur o‘rgana olsa, bolalarning psixologik ehtiyojlarini tushungan holda, bolalar hayoti haqiqatiga yaqin va mushtarak bo‘la olsa, faqat shu tarzdagina, yaratilgan asar bolalarning hissiy xususiyatlariga chinakam mos kelishi mumkin, shundagina mazkur yo‘nalish haqiqiy muvaffaqiyat qozona oladi. Bu jihatlar Bin Sin ijodida yaqqol namoyon bo‘ladi.

4. Bin Sin asarlarining badiiy texnikasi.

a) nafis til

Bin Sin so‘z san’atining ustasi, o‘zining chuqur adabiy yutug‘i va badiiy iste’dodi bilan “Bin Sin uslubi”(“Bing Xin Style”)ni yarata olgan. Uning adabiy bisotidan o‘rin olgan nasriy asarlarning tili yangi va nafis, ixcham va aniq, sodda, shu bilan birga rang-barang. U “Maktublar”dagi o‘zining 7-xatida bolalarga shunday murojaat qiladi: “Dengiz mening onam misolidir, ko‘l esa do‘stim. Chunki bolaligimda dengiz bag‘rida ulg‘aydim, hozir esa ko‘l atrofimda” （“海好像我的母亲，湖是我的朋友。我和海亲近在童年和湖亲近在现在”)[2].
Bunday kontrast asar tilini ixcham va ohangdor qiladi, tasvir va ritm esa tabiatning yaqinligini jonli ravishda ochib beradi.

b) muloyim ohang.

Bin Sin nasriy asarlarida u o‘quvchilar bilan suhbatlashish uchun iliq, nozik va yumshoq ohangdan foydalanadi, yozish uslubi ravon, evfemik va ta’sirchan, “Yosh kitobxonlarga maktublar”ining 15-sida u yosh o‘quvchilarga hamdard bo‘lish umidida o‘zi bilan bir shifoxonada yotgan bir nechta bemorlarning ichki muammolarini yosh o‘quvchilarga muloyimlik bilan tushuntirdi. O‘zaro ma’naviy rezonans ta’siriga erishishga umid qilib, u butun qalbini kichik kitobxonlari qarshisida ochiq namoyon qildi, undagi tushunish oson bo‘lgan konkretlik va sokin ritm bolalar ta’limining zamonaviy konsepsiyasiga ham mos keladi. Zotan, ular uchun yaratilgan adabiyot ravon ifoda ishlatilishi, bolalar qalbiga nozik tarzda singib ketishi, asar xarakteridagi yorqin jihatlar esa ularning qiziqishini o‘ziga jalb qila olishi kerak.

c) ifodaviy-tasviriy go‘zallik.

Bin Sin tabiatning fusunkor manzarasi, betakror nafosati va jozibasini mohirlik bilan qalamga olishga qodir yozuvchi hisoblanadi. Xususan, 13-

[1] 萧凤：《冰心散文》，太白文艺出版社2005年版，第137页，第67页。
[2] 张辉.论冰心儿童文学创作的美学特征[D].内蒙古师范大学硕士学位论文，2008年。

maktubda osmonning oqshomgi holatini oila munosabat bilan birlashtirar ekan, eng yorqin uchta yulduzni kichik ukalari bilan taqqoslaydi. So‘ngra tasavvurlarini kengaytirgan holda, Quyosh va Oyni hayotiga yorug‘lik baxsh etib turuvchi o‘z ota-onasiga mengzaydi, shu tariqa oilasining yaxlit uyg‘un tasvirini yaratadi. Zero, bolalarda tabiatga yaqinlik hissi ustun va shu boisdan tabiiy tasvirlar bolalar adabiyotining ajralmas bo‘lagidir. Bunday obrazlar bolalarning birodarlik hissiyotlarini tarbiyalash, qalbni poklash va insoniy tuyg‘ularini boyitish uchun yordam beradi.

Xulosa qilib aytishimiz mumkinki, bugungi kun xitoy bolalar adabiyoti XX asrdagi bu yo‘nalishda yaratilgan asarlar bilan solishtiriladigan bo‘lsa, ularning muayyan qismida me’yoriy qadriyatlar aks etmayotganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Ushbu holatda taniqli bolalar yozuvchilari qalamiga mansub ijodiyot, ayniqsa, Sie Bin Sin yaratgan asarlar xitoy bolalar adabiyotidagi eng yaxshi namuna – dasturilamal bo‘lib xizmat qila oladi. Zotan, Bin Sinning hayotiylik, originallik, chuqur hissiyot va inja kechinmalar bilan sug‘orilgan, yurak sadosi bo‘lib yangrovchi yorqin va barhayot ijodi kitobxonlar dilidan chuqur o‘rin egallab, uning sharafli nomini kelgusi avlodlar qalbida ham aks-sado berishida sabab bo‘ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. 郁达夫：《中国新文学大系·散文二集导言》，上海文艺出版社1981年版，第213页

2. 《冰心全集》第二卷1923-1931年 卓如编 第288页

3. 杨昌江：《冰心散文论》，华中师范大学出版社1989年版，第103页。

4. 萧风：《冰心散文》，太白文艺出版社2005年版，第137页，第67页。

5. 张辉.论冰心儿童文学创作的美学特征. 内蒙古师范大学硕士学位论文，2008年。

6. 李琳.论冰心儿童文学中的育人功能. 辽宁师范大学硕士学位论文，2011年。

7. 朱妍 《冰心散文对当下儿童文学创作的启示作者》， 来源《名作欣赏》 2015年。

8. www.wenmi.com

ORHAN KEMAL'İN HAYATI, EDEBİ KİŞİLİĞİ VE ESERLERİ

Leyla DOĞAN
Edebiyatşınaslık bölümü (Türk)
Yüksek lisans 1.sınıf öğrencisi
Danışman: Prof.Dr. P. Kencayeva

Özet: Orhan Kemal, Türk edebiyatının en önemli roman ve hikâye yazarlarından biridir.Gerçek adı Mehmet Raşit Öğütçü olan yazar, 1914 yılında Adana'da doğmuş ve 1970 yılında Bulgaristan'ın Sofya kentinde hayatını kaybetmiştir. Eserlerinde özellikle işçi sınıfını, köylüleri, küçük esnafı ve şehir yaşamının zorluklarını yalın bir dille, gerçekçi bir bakış açısıyla anlatmıştır.

Orhan Kemal'in edebiyata olan ilgisi, genç yaşlarda şiirle başlamış, daha sonra hikâye ve roman türüne yönelmiştir. Nazım Hikmet'le tanışması, onun sanat anlayışında önemli bir dönüm noktası olmuş ve toplumcu gerçekçilik çizgisinde yazmasına büyük katkı sağlamıştır.

Başlıca eserleri arasında *Bereketli Topraklar Üzerinde, Murtaza, Cemile, Hanımın Çiftliği* ve *72. Koğuş* gibi romanlar yer alır. Bu eserlerde karakterlerin yaşam mücadeleleri, adaletsizlikler ve sınıfsal farklılıklar ön plandadır. Orhan Kemal'in üslubu sade, etkileyici ve gözleme dayalıdır; diyalogları canlı ve doğaldır.

Toplumsal sorunlara duyarlı yaklaşımıyla Türk edebiyatında ayrıcalıklı bir yere sahip olan Orhan Kemal, hem üretkenliği hem de insanı merkeze alan edebi duruşuyla günümüzde de ilgiyle okunmaya devam etmektedir.

Anahtar Kelimeler: Orhan Kemal, Eserleri, İnsan, Hayatı, Edebi Kişilik.

Annotatsiya: O‘rxon Kamol turk adabiyotining eng muhim roman va qissa yozuvchilaridan biridir. Asl ismi Mehmet Rashid O‘gutchu bo‘lgan yozuvchi 1914-yilda Adanada tug‘ilgan, 1970-yilda Bolgariyaning Sofiya shahrida vafot etgan. O‘z asarlarida ishchilar sinfi, dehqonlar, mayda hunarmandlar va shahar hayotidagi qiyinchiliklarni sodda tilda, realistik nuqtai nazardan tasvirlagan.

O‘rxon Kamolning adabiyotga qiziqishi yoshligidan she’riyatdan boshlangan, keyinchalik hikoya va roman janriga o‘tgan. Uning Nozim Hikmat bilan uchrashuvi uning san’at haqidagi tushunchasida muhim burilish bo‘lib, sotsrealizmga mos yozuvchilikka katta hissa qo‘shgan.

Uning asosiy asarlari: “Hosildor yerlarda” (“Bereketli Topraklar Üzerinde”), “Murtazo” (“Murtaza”), “Jamila” (“Cemile”), “Xonimning fermasi” (“Hanımın Çiftliği”), “72-qamoqxona bo‘lmasi” (“72. Koğuş”) kabi romanlari. Bu asarlarda qahramonlarning hayotiy -kurashlari, adolatsizliklari, sinfiy tafovutlari birinchi o‘rinda turadi. O‘rxon Kamolning uslubi sodda, ta’sirchan va kuzatishga asoslangan; dialoglari jonli va tabiiy.

Ijtimoiy muammolarga nozik yondashuvi bilan turk adabiyotida sharafli o‘ringa ega bo‘lgan O‘rxon Kamol bugungi kunda ham mahsuldorligi, ham inson markazli adabiy pozitsiyasi bilan qiziqish bilan o‘qilishda davom etmoqda.

Kalit so‘zlar: O‘rxon Kamol, asarlar, inson, hayot, adabiy shaxs.

Türk edebiyatının toplumsal gerçekçilikte isim yapmış yazarlarından biri olan Orhan Kemal, asıl adıyla Mehmet Raşit Öğütçü (1914-1970), Adana'da doğmuştur. Birinci Türkiye Büyük Millet Meclisi'nde Kastamonu Milletvekilliği görevinde bulunan babası Abdülkadir Kemali, görevi sonrasında Adana'ya dönmüştür. Gazetelerde yazarlık da yapan Abdulkadir Kemali'nin muhalif yazılarından dolayı gazetesinin yasaklanması ve tutuklanmak üzereyken Beyrut'a kaçması Orhan Kemal'in yaşamında büyük etkiye sahiptir.

Okul hayatını yarım bırakan Orhan Kemal'in, babasının yanına gidip birçok işte çalışması, ardından tek başına Adana'ya dönerek fabrikada işçilik yapması ve bu zorlu yaşam mücadelesi süreci, eserlerine yansıttığı insan kavramı üzerinde önemli yere sahiptir. Çünkü roman ve hikayelerine konu ettiği insanlara, mekanlara, durumlara uzak değildir, tüm bunlara bizzat içinde var olmuş biri olarak bakar.

Yazarın Bursa cezaevinde iken Nazım Hikmet ile tanışması ve çokça zaman geçirmiş olması, yazara birçok konuda etki etmiştir. Hapishane sürecinde, kendisinden Fransızca ve felsefe dersi alan Orhan Kemal'in şiir yazarken nesre yönelmesi de Nazım Hikmet'in önerisiyle olmuştur. Yazar, hayatının İstanbul sürecinde ise dergilere yazdığı yazılarla para kazanmıştır.

Yazın hayatına şiirle başlayan Orhan Kemal'in; roman, hikaye, anı, inceleme, oyun ve röportaj türlerinde eserleri bulunmaktadır. Toplumsal gerçekçilikte akla gelen ilk isimlerden olması; eserlerindeki gerçekçiliği kendi kulvarında devam ettirmesinden, kullandığı üsluptan, toplumdaki insanı konu etme tavrındandır. 1940'lardan itibaren Türk edebiyatının önemli yazarlarından biri haline gelmiş, eserleriyle toplumun çeşitli kesimlerinin yaşamını, hüsranlarını, umutlarını ve mücadelelerini ustaca yansıtmıştır. Yazarın yaşamı, çalışmaları ve edebi kimliği, Türk edebiyatının toplumsal gerçekçilik akımının önemli bir parçasını oluşturmaktadır.

Hayatı

Orhan Kemal, Osmanlı İmparatorluğu'nun son dönemine yetişen bir aileye mensuptur. Babası, Adana'da bir öğretmendi. Baba tarafı, Milli Mücadele döneminde aktif görevler üstlenmişti. Aile, Orhan Kemal'in çocukluğunda ekonomik zorluklarla mücadele etti. Bu zorluklar, daha sonra eserlerinde işlediği temaların temel taşlarını oluşturmuştur. Orhan Kemal, ilkokuldan sonra öğrenim hayatına devam edemedi ve çeşitli mesleklerde çalıştı. İş yaşamı, sosyal gerçekçilik anlayışının şekillenmesinde önemli bir etken olmuştur.

Yazarın eserlerinde işlediği temel temalar arasında işçilik, aile yapısı, yoksulluk, göç, aşk ve dostluk yer almaktadır. Eserlerinde çoğu zaman sade bir dil kullanmayı tercih etmiş, gözlem gücünü son derece etkili bir şekilde yansıtmıştır. İnsan ilişkileri ve toplumsal davranış biçimlerini derinlemesine inceleyen Orhan Kemal, karakterlerine insani zaaflar, umutlar ve hayal kırıklıkları gibi çeşitli yönler kazandırarak okuyucuya sunmuştur.

Orhan Kemal, 2 Temmuz 1970 tarihinde İstanbul'da yaşamını yitirmiştir. Ölümünden sonra eserleri, Türk edebiyatında önemli bir yerde kalmaya devam etmiş, pek çok edebiyatçı ve yazar üzerinde etkili olmuştur. Eserleri, özellikle sosyal gerçekçilik akımının önemli bir temsilcisi olarak günümüzde de

incelenmekte ve değerlendirilmektedir. Orhan Kemal, Türk literatürünün en önemli yazarlarından biri olarak, toplumsal yapıyı ve insan ilişkilerini derinlemesine inceleyen eserler vermiştir. Onun edebi mirası, geleceğe toplum eliyle ulaşmıştır.

Eserleri

Orhan Kemal, yoksul kesimin, işçilerin, öğrencilerin yaşamını anlatan öykü ve romanlar yazmış ve insan-toplum ilişkilerini gerçekçi bir dille yansıtmıştır. 27 roman, 19'u öykü kitabı ile anı, inceleme, oyun, röportaj türünde kitaplar bırakmıştır:

1948: Duygu, 1948: Menevşe, 1949: Ekmek Kavgası, 1951: Sarhoşlar 1952: Çamaşırcının Kızı, 1954: 72. Koğuş, 1954: Grev, 1956: Arka Sokak, 1957: Kardeş Payı, 1957: Babil Kulesi, 1963: Dünya'da Harp Vardı, 1963: Mahalle Kavgası, 1966: İşsiz, 1968: Önce Ekmek, 1971: Küçükler ve Büyükler (ölümünden sonra), 1974: Yağmur Yüklü Bulutlar, 1974: Kırmızı Küpeler, 1975: Oyuncu Kadın, 1975: Grev, 1976: Serseri Milyoner/İki Damla Gözyaşı, 1976: Arslan Tomson (ölümünden sonra), 1979: İnci'nin Maceraları (ölümünden sonra).

Romanları

1949: Baba Evi, 1950: Avare Yıllar, 1952: Cemile, 1952: Murtaza, 1953: Dünya Dönüyor, 1954: Bereketli Topraklar Üzerinde, 1956: Neden Böyle, 1957: Suçlu, 1958: Devlet Kuşu, 1958: Dünya Evi, 1958: Vukuat Var, 1959: Gavurun Kızı, 1960: El Kızı, 1960: Küçücük, 1961: Hanımın Çiftliği, 1962: Eskici ve Oğulları (Eskici dükkânı adıyla 1970), 1962: Gurbet Kuşları, 1963: Kanlı Topraklar, 1963: Sokakların Çocuğu, 1965: Bir Filiz Vardı, 1966: Evlerden Biri, 1966: Müfettişler Müfettişi, 1966: Yalancı Dünya, 1968: Arkadaş Islıkları, 1968: Sokaklardan Bir Kız, 1969: Kötü Yol, 1969: Üç Kağıtçı, 1970: Kaçak (ölümünden sonra), 1986: Tersine Dünya (ölümünden sonra), 2014: Uçurum.

Oyun

1965: İspinozlar, 1967: 72. Koğuş, 1968: Kardeş Payı, 1969: Murtaza, 1972: Eskici Dükkânı

Anı

1965: Nazım Hikmet'le Üç buçuk Yıl

İnceleme

1963: Senaryo Tekniği ve Senaryoculuğumuzla İlgili Notlar

Röportaj

1971: İstanbul'dan Çizgiler (ölümünden sonra)

Edebi Kişiliği

Orhan Kemal, adının toplumcu gerçekçi yazarlarla anılmasına karşın kendine has çizdiği yolla onlardan farklı bir yerde incelenebilir. Öyle ki yazarın toplumcu gerçekçiliği, Marksist-materyalist görüşün hakim olduğu toplumsal gerçekçilikten ve bunun Türk edebiyatında yansıma bulduğu Sabahattin Ali, Sadri Ertem, Sait Faik Abasıyanık gibi isimlerin söz konusu akımı eserlerine yansıtma şekillerinden birtakım özelliklerle ayrılır.

Yazarın, eserlerine yansıttığı gerçekçilikte kendine has tavrı dikkat çeker:

"İlk öyküsünden son öyküsüne kadar, neredeyse hep aynı yöntemi kullanmıştır. Öykülerinde gözlem ve tanıklıktan yola çıkan Orhan Kemal,

gerçekçilik anlayışını benimsemiştir. Biçim, kurgu ve yenilik peşinde koşmamış, biçimden çok özü önemsemiştir. Döneminin sanatçı arkadaşlarının soyut, kapalı ve değişik biçimsel yönelimlerinin aksine, o hep bildiği "sadeliği" tercih etmiştir. Onun öyküleri için söylenebilecek en yerinde yaklaşım, "içtenlikli öyküler" olsa gerektir."[1]

'İçtenlikli öyküler' ifadesi, yazarın hayatı nesre taşımasının yanında hayat kadar gerçek bir yöntem seçmesinin sonucudur. Bu yöntem sadeliktir ve sadelikten ayrılmayan yazarı, döneminin sanatçılarından farklı kılan bir taraf da budur. Alt kesim toplumdan her türlü çevreyi hikayelerinde görebildiğimiz Orhan Kemal, başarısını bu çevreyi en doğal haliyle fakat ilgi çekici bir yerden yakalayan üslubuna da borçludur. Konu ve konuyu aktarma yöntemi arasındaki uyumun kuvveti hikayelerinin toplumda karşılık bulmasını sağlamıştır.

Orhan Kemal'in, toplumsal gerçekçiliğindeki unsurların başında, hayattan direkt alınmış hissi uyandıran kesitler gelir. Yazar, bunu toplumun derinliklerindeki gerçekleri iyi özümsemiş bir bakışla gerçekleştirir.

Toplumdaki temel sorunların nedenlerini açık bir tavırla ortaya koyan yazar, eserlerinin genelinde saf bir ideoloji ile hareket etmez, fakat insana dair halleri ve toplumsal değerlerin çöktüğü durumları okura ayna tutarak göstermesiyle farklı bir yerde değerlendirilebilir. Bilinç uyandırmak ister, fakat bunu bağıra çağıra yapmaz; fark edilemeyecek kadar göz önünde olan ve toplumun genel ahlak normlarını çürüten etkenleri hayatın içinden örnek verirmişçesine hissettirir ve öne çıkarır. Diğer husus, eserlerinde çokça kullandığı diyaloglardır. Bu gerçekçiliği yansıtmasında büyük rol oynar. Çünkü diyaloglar sade, günlük dilde, hayatın ayrılmaz birer parçası olarak karşımıza çıkmaktadır.

Orhan Kemal'in, Kardeş Payı ile 1958 Sait Faik Hikaye Armağanı'nı, Önce Ekmek'le 1969 Sait Faik Hikaye Armağanı'nı, aynı zamanda TDK Öykü Ödülü'nü kazanması, topluma ayna tutan hikayelerinin aynı toplum tarafından karşılıksız bırakılmadığını gösterir. Bunun sebeplerinden biri de çoğu zaman tanık olduğu, bazen de yaşadığı gerçeklikleri kendine has bakış açısı ve halkın içinden bir üslupla sunmasıdır.

Yazarın toplumsal gerçekçiliğini eserleri üzerinden irdelemek ve ondaki insan kavramının, eserlerine nasıl yansıdığını görmek üzere birkaç hikayesinin incelemesi sunulacaktır. Hikayeler seçilirken konu sınıflamasına gidilmemiştir. Eserlerinde hayata dair birçok konuyu bulabildiğimiz Orhan Kemal, hikayelerinin her birinde bu konulardan birini öne çıkarmış, hayatın bütünselliğini konuların bütünselliğiyle yansıtmıştır. Yazarın incelenecek beş hikayesi şunlardır: Önce Ekmek, Uyku, On Beş Kuruş, Ürok Ninile, Yağmur Yüklü Bulutlar. Hikayeler sırasıyla numaralandırılmıştır.

Kaynakça:

1. Kemal, O. Önce Ekmek, İstanbul, Everest, 2019.
2. Kemal, O. Uyku, Ç. Su, Ekmek Kavgası, İstanbul, Everest, 2007.

[1] Necip Tosun, Öykümüzün Kırk Kapısı, İstanbul: Hece Yayınları, 2013, S.96.

3. Tosun, N., Öykümüzün Kırk Kapısı, Sarakusta ve B. Güler, İstanbul: Hece Yayınları, 2013.
4. Altınkaynak, H., Orhan Kemal´in Hikâyeciliği, İstanbul: Adam Yayınları, 2000.
5. Bakır, Sinan (2018). Orhan Kemal'in Hikâye Dünyası. Ankara: Hece Yay.

ABDULLA QODIRIY HAYOTI VA IJODIGA NAZAR. QODIRIY ROMANLARINING O‘ZIGA XOSLIGI

Omina ISMOILOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: f.f.d. R. Sharipov

Annotatsiya: Ushbu maqolada jadidchilik harakati namoyondalaridan biri, o‘zbek romanchilik asoschisi, millat ma’rifatparvari Abdulla Qodiriyning hayot yo‘li o‘rganiladi, ijodi tahlil qilinadi. O‘zbek adabiyotiga salmoqli hissasini qo‘shgan asarlarini yozilish tarixi, undagi obrazlar, ramziy ma’no hamda tushunchalar borasida fikr yuritiladi. Yozuvchi hamda akademik olimlar tomonidan tahlil qilingan g‘oyalar solishtiriladi.

Kalit so‘zlar: Jadidchilik, roman, obraz, qatag‘on, rus-tuzem, maktab, jasorat, vijdon, ijod.

1938-yil 4-oktyabr, millatning bir nechta ma’rifatparvar shaxslari qatorida Abdulla Qodiriy ham xalq dushmani sifatida otib tashlandi. 44 yoshida qatag‘on qurboni bo‘lgan Qodiriyning hayot yo‘li, ijodi, asarlari shoir, yozuvchi-olimlar tomonidan tahlil qilinar ekan, har gal yozuvchi iste’dodining yangi qirralari ochilib boradi. 1894-yil 10-aprel sanasida Toshkentda bog‘bon oilasida tavallud topgan Qodiriy hayot haqiqatlarini erta anglagani, bolaligidan turmush tashvishlariga sho‘ng‘igani uning o‘z so‘zlarida isbotini topadi: “Men qaysi yilda va qaysi oyda tug‘ilg‘onimni bilmayman. Har holda bemavridroq bo‘lsa kerak, kambag‘al, bog‘bonlik bilan kun kechiruvchi bir oilada tug‘ilib, yaqinlarimning so‘zlariga qaraganda, mustabid Nikolay taxtga o‘tirgan yilida tug‘ulg‘onman. Boshida boy oilada tug‘uldimmi yoki kambag‘al oiladami, albatta, bilmadim. Ammo yoshim 7-8 ga yetgach, qornim oshg‘a to‘ymag‘onidan, ustum tuzukroq kiyim ko‘rmaganidan aniq bildimki, besh jonning tomog‘i faqat 80 yoshlik chol otamning mehnatidan, 1300 sarjin bog‘ning yozda yetishtirib beradigan hosilidan kelar ekan. Agar bahor yomon kelib, bog‘ mevalari ofatga uchrab qolsa, biz ham ochliqqa duch kelib, qishi bilan jovrashib chiqar ekanmiz.”[1] Haqiqatan ham el g‘amini, xalq muammolarni o‘z tashvishidek ko‘rib, ularni goh ochiqchasiga, goh

[1] Karimov.B. Jadidlar to‘plami. Abdulla Qodiriy. Ilmiy-ommabop asar. “Mutolaa” elektron kutubxonasi.

qog‘ozga o‘rab bayon qilish yo‘lida Qodiriydan ularni to‘liq anglash va his qilish talab etilardi.

Dastlab musulmon, keyinchalik esa mamlakatdagi siyosiy ahvol tufayli rus-tuzem maktabida tahsil olgan adibning bolalik davridayoq ijodiy faoliyati shakllanishida otasi Qodir boboning ham o‘rni katta. Romanlari yozilishida otasidan eshitgan hikoya-voqealardan, obrazlardan keng foydalangani va hikoyalaridan birini otasiga bag‘ishlagani Qodirmuhammad boboning adibdagi badiiy mahorat rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shganiga misol bo‘la oladi.

1926-yil o‘zi tomonidan tashkil etilgan hajv va kulgi janridagi “Mushtum” gazetasida bosilgan “Yig‘indi gaplar” maqolasining ayrim mansabdorlarga “tegib ketishi” va ba’zi hamkasblarining ig‘vogarligi tufayli shu yilning 8-mart sanasida Abdulla Qodiriy qisqa muddatga qamaladi. Shu yilning 16-17-iyun kunlari bo‘lib o‘tgan sudda Qodiriy o‘zi yozgan maqolasi yuzasida nutq qiladi. O‘z nutqida esa maqolaning faqat ishchi-dehqon manfaatlari o‘ylab aytilganiga “hukumat kishilariga bo‘lgan gaplar o‘rtoqlik hazili” ekaniga alohida urg‘u beradi. Chaqimchilar xususida esa Qodiriy shunday yozadi-ki, unda o‘ziga qarshi berilgan fikr egalarining harakatlari qasd bilan ayb qidirganlikka tenglashtiriladi: “Ammo bir necha shaxslar bu maqolani o‘zlarining, bilmadim, qandog‘dir tarozulariga solib, zararlik topishlari ersa g‘arazgo‘ylik, tirnoq ostidan kir izlashdan boshqa narsa emasdir”[1]. Shu bilan bir qatorda, adib o‘z ijodini himoya qilgan holda, o‘zi yashagan davrdagi siyosiy og‘ir ahvolga qaramay, yozgan fikrlariga jasorat bilan qo‘shimcha qiladi: “Men to‘g‘rilik orqasida bosh ketsa “ih” dedirgan yigit emasman, so‘zim oxirida odil sudlardan so‘rayman: Garchi men turlik bo‘hton, shaxsiyat va soxtalar bilan, ham anglashilmovchiliklar orqasida, ikkinchi oqlanmaydurg‘on bo‘lib qoralandim. Loaqal ularning, qoralovchi qora ko‘zlarning ko‘ngli uchun bo‘lsa ham, menga eng oliy bo‘lg‘on jazoni bera ko‘ringiz. Ko‘nglida shamsi g‘uboroti, teskarichilik maqsadi bo‘lmog‘on sodda, go‘l, vijdonlik yigitga bu qadar xo‘rlikdan o‘lim tansiqroqdir. Bir necha shaxslarning orzusicha, ma’naviy o‘lim bilan o‘ldirildim. Endi jismoniy o‘lim menga qo‘rqinch emasdir. Odil sudlardan men shuni kutaman va shuni so‘rayman. 1926-yil 16-iyun, Samarqand”.[2]

Bo‘lib o‘tgan sudda aytganlari yozuvchining ma’naviy o‘lim qarshisida jismoniy o‘limdan qo‘rqmasligiga, uning uchun eng dahshati ma’nan o‘ldirilish ekanligiga ishora qiladi. Zamonamizda jismonan tirik, ammo o‘z shaxsiy fikrla-riga ega bo‘lmagan, orzu-maqsadlari yo‘q, nima uchun umr kechirayotganini anglamagan, ma’naviy olami o‘lik shaxslarni uchratar ekanmiz, ma’naviy olamni ustun qo‘ya olgan Qodiriyning shaxsiyati naqadar kuchli bo‘lganini fahmlash mumkin. “Loaqal qoralovchilarning “ko‘ngli” uchun bo‘lsa ham menga eng oliy jazoni bering” degan so‘zlari esa unga qarata tosh otayotgan kimsalarning ichida o‘ziga nisbatan naqadar kuchli adovat hissi borligini, ularning adibga bo‘lgan

[1] Karimov.B. Jadidlar to‘plami. Abdulla Qodiriy. Ilmiy-ommabop asar. “Mutolaa” elektron kutubxonasi.

[2] Karimov.B. Jadidlar to‘plami. Abdulla Qodiriy. Ilmiy-ommabop asar. “Mutolaa” elektron kutubxonasi.

g‘arazli niyatlari otashi faqatgina “eng oliy jazo” bilan so‘nishiga dalolat beradi. Sudda ochiq-oydin tarzda aytgan so‘zlari, Qodiriy hayoti va ijodida nisbatan o‘zgarishlar yuz berishiga sabab bo‘ladi. Matbuotdagi faoliyati susayadi.

Adib 1932-1936-yillar oralig‘ida yozuvchilar uyushmasi tashkiliy qo‘mita majlislarida, turli qurultoy va adabiy to‘garaklarda ishtirok etadi. Kolxoz hayoti borasida yangi asar yozish ishtiyoqida manbalar to‘plash maqsadida Toshkent atrofidagi qishloqlarni kezib, ijod bilan mashg‘ullikda hayot kechirayotgan, xalq-ning ma’naviy dunyosini boyitish yo‘lida harakat qilayotgan Qodiriy mustabid tuzum tomonidan dushmanga chiqarildi. 1937-yil 31-dekabr sanasida adib yana hibsga olinadi. Afsuski, Abdulla Qodiriy 1938-yilni baxtli oilasi davrasida emas, balki zindonda mahbuslik libosida kutib oldi. Sherkon Qodiriyning yozishicha, o‘shanda tergov mahali ham: “Menga qo‘yilgan ayblarni boshdanoyoq rad etaman. Haqiqat yo‘lida har qanday, hech qanday jazodan, qiynoqdan qo‘rqmay-man. Agar otmoqchi bo‘lsalaring, ko‘kragimni kerib turaman...”[1], deya so‘zlagan. 1938-yilning 4-oktyabr sanasida Abdulla Qodiriy, Abdulhamid Cho‘lpon, Abdurauf Fitrat kabi el ardog‘idagi shoir va yozuvchilar, G‘ozi Olim Yunusov, Qayum Ramazon, Otajon Hoshimov, Majid Qodirov, Ziyo Saidov kabi adabiyot-shunos olimlar, birinchi o‘zbek kinorejissyori va fotografi Xudoybergan Devonov otuvga hukm qilindi. Ular hukm chiqarilgan kuniyoq, 1938-yilning 4-oktyabrida, shoshilinch qatl etildi[2].

Eng hayratlanarlisi shundaki, Qodiriy bilan bir qatorda uning asarlari ham o‘limga hukm etilgan. Adibning asarlarini o‘qish, uyda saqlash taqiqlangan. Kitoblarni katta qiyinchiliklar bilan xonadonlarda berkitishga urinishgan, ba’zilar Qodiriy asarlarini sandiqqa solib yerga ko‘mgan bo‘lsa, ba’zilar ularni devorlarga suvab tashlagan. Qodiriy qalamiga mansub kitob bilan qo‘lga tushganlar uzoq muddatga, 10 — 15 yillab jazoga tortilgan. Shunchaki, Otabek va Kumush haqida hikoya qiluvchi ushbu roman mustabid tuzum egalarini bu darajada havotirlantir-ganiga nima sabab bo‘ldi?! Tohir Malikning “Ajab Saodat”i tahlil qilinar ekan, bu borada shunday fikr bildirilgan: Biz o‘rta maktabda Abdulla Qodiriy hayoti va ijodini o‘rganganmiz. Universitetda ham axborot tarzidagi ma’ruzalarni tinglaganmiz. O‘rta maktabda “Gulnor (yoki Zaynab, Farhod, Majnun...) – chin muhabbat egasi”, degan mavzularda insho yozganmiz. Farzandlarimiz esa “Otabek (yoki Kumush, Anvar, Ra’no...) – chin muhabbat egasi”, degan mavzuda insholar yozdilar. Olimlarimiz nashr etgan ayrim maqolalarda ham shu holni uchratishimiz mumkin. Bu masalada ularga jiddiy e’tiroz bildirmoqchi emasmiz. “O‘tgan kunlar” roman tarzida (janrida) yozilgan. “O‘tgan kunlar”ning poydevori – Otabek bilan Kumushning muhabbati. Men bu asarni shimoliy ummondagi bahaybat muz tog‘iga – aysbergga o‘xshataman. Ma’lumki, bu tog‘ning faqat cho‘qqilari ko‘zga tashlanadi, asosiy qismi esa ko‘rinmaydi – suv ostida bo‘ladi. Har bir ulug‘ asarning ulug‘vorligini, umrini ana shu ko‘zga ko‘rinmas qismi ta’min etadi, deb o‘ylayman. Abdulla Qodiriy qo‘lga qalam olganlarida ikki

[1] Qodiriyni qo‘msab. Abdulla Qodiriy nomidagi Xalq merosi nashriyoti, 1994. 6-bet

[2] (https://kun.uz/news/2020/04/10/bugun-qodiriyning-tugilgan-kuni-biz-uning-olimidan-saboq-chiqara-oldikmi

yoshning olovli muhabbatinigina bayon qilmoqchi bo‘lganmikinlar? Agar maqsad shugina bo‘lsa asar bu qadar ulug‘vorlik kasb eta olarmidi? Axir tariximizda ishqiy qissalar kam edimi?Abdulla Qodiriy adabiyotga muhabbat kuychisi bo‘lib kirib kelmaganlar. Fikrimizning dalili uchun “Juvonboz” deb atalgan hikoyalarini, “Baxtsiz kuyav” deb atalgan pyesalarini yodga olish kifoyadir. Shunga ko‘ra aytmoq mumkinki, yozuvchi adabiyot maydoniga xalq g‘amida kuyib-yonib kirib kelganlar. Xalqning taqdirini, kelajagini o‘ylab qayg‘urganlar. “O‘tgan kunlar” yozishga ham ana shu millat qayg‘usi undagan bo‘lsa kerak”[1]. Haqiqatan ham ikki sevishgan qalb haqidagi asar bu qadar vahima va qo‘rquvlarga sabab bo‘lishi mumkin emasdi. Qodiriy o‘z romanlarida katta sirli ma’nolarni ramziy obrazlar orqali ifoda etgan, o‘z asari orqali millatni uyg‘otishga, birlashtirishga harakat qilgan. Asarni boshdanoq tahlil qilishga urinilar ekan quyidagi jumlalarga duch kelinadi: “1269-inchi hijriya, dalv oyining 17-inchisi, qishqi kunlardan biri, quyosh botqan, tevarakdan shom azoni eshitiladir...”[2]. Har qanday asarning boshlanishi uning butun ruhiyatini belgilab beradi, yozuvchi yelkasiga katta ma’suliyat yuklaydi. Shunday bir vaziyatda Qodiriy nima uchun romanga kirish uchun aynan qish oyini, aynan shom a’zonini tanlagani ajablanarli. Qish emas, balki bahor, kuz yoki yoz oylaridan biri, shom a’zoni o‘rniga esa peshin yoki bomdod namozining a’zoni bo‘lishi mumkin edi. Balki, qish sovuqlik, qisqa kun va uzun tunlarga ishoratdir. Shom a’zoni esa faqatgina namozga chaqiriq emasdir. Tohir Malik bu borada shunday fikr bildiradi: Shom – qorong‘ilik bosib kelishidan bir darak. Dalvda kechalar uzun, yorug‘lik kamroq bo‘ladi. Shom a’zoni yurt boshiga yopirilib kelayotgan qorong‘ilik, zulmatdan ogoh etuvchi darak emasmikin?! Donishmand adib “Hoy mo‘minlar, ko‘zlaringizni ochingiz, ostinangizda g‘anim turibdi. Ittifoq bo‘lmas ekansiz, yorug‘ kunlaringiz uzun tunga aylangusidir”, demoqchi bo‘lmaganmikinlar? Bu namoz chaqirig‘iga e’tibor berilmadi. Yozuvchi azon chaqirig‘ini tilga olgach, uning izidan “namoz o‘qildi” demaganlar. Faqat chaqiriqni bayon qilganlar. Hujradagilar esa o‘z ishlari bilan mashg‘ullar. Bu ham noittifoqlikka bir ishoramikin? Asarda azon chaqirilishi bir necha marotaba zikr etiladi. Ammo, biron marta ham namoz tasviri berilmaydi. Ajab hol: azon chaqirilgan-u, hamma dunyo tashvishi bilan band. Adib “qora kunlarning bostirib kirishiga diyonatsizlik sabab” demoqchi bo‘lmaganmilar?![3].

Shu qatorda adib romandagi har bir obrazga ramziy ma’nolar berkitishga uringandek. Hattoki, asar qahramonlarini ismida ham bir ma’no borga o‘xshaydi. Nima uchun Otabekning onasiga “O‘zbek oyim” deb ism qo‘yilgan?! Axir, bu kabi ismni tanishlar o‘rtasida deyarli uchratmaymiz-ku. Tohir Malik fikriga ko‘ra O‘zbek oyim obrazi – o‘zbek xalqi ramzini ifodalar edi. Bid’at-xurofotga berilgan, yurtni xavfdan ogoh etuvchi chaqiriqlarga e’tibor bermagan o‘zbek xalqi ramzi edi u. E’tiborsizligi, to‘g‘ri yo‘lga boshlab maslahat solganlarga qarshiligi

[1] Malik, T. (1994). Ajab saodat. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. (O‘tkan kunlar romanining so‘ng so‘zi).
[2] Qodiriy.A “O‘tkan kunlar” romani. Book-media plus MCHJ bosmaxonasi (2024) B-6
[3] Malik, T. (1994). Ajab saodat. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. (O‘tkan kunlar romanining so‘ngi so‘zi).

ortidan esa roman so‘ngida aytilganidek “O‘zbek oyim qora kiyib, ta’ziya ochdi”[1] — hidoyatdan chekindi va oqibatda qora kiydi, aza ochdi. Qorong‘i tunlarga kirib keldi. Lekin, nima uchun O‘zbek oyim asar so‘ngida qora kiyib aza ochdi, bunda Kumushning qanday bog‘liqligi bor edi?! Kumush asarda qanday ramziylik kasb etar edi degan savollar paydo bo‘ladi. Qodiriy asarni yakunlar ekan “Kumushni o‘ldirib qo‘ydim” deya yig‘lagan ekan. Yozuvchini yig‘lashga undagan go‘zal malak, yosh juvon — Kumushning o‘limi edimi yoki undagi sirli ma’no? Qodiriyni yig‘latgan Kumush emas, balki undagi “Vatan” ramzi edi deya talqin qilinadi. Kumushga bo‘lgan muhabbatlari aslida Vatanga bo‘lgan sevgilari edi. Kumush o‘ldi, Vatan o‘ldi. O‘zbek xalqi qora kiyib a’za ochdi. Lekin Kumushdan bir zurriyot — Yodgor qoldi. Ya’niki, Vatan kelajagiga umid bor. Yozuvchining so‘nggi jumlalarida esa shunday bitilgan: “Keyingi Marg‘ilon borishimda yaqin o‘rtoqlardan Yodgorbek to‘g‘risini surishtirib bildim: Yodgorbek ushbu asrning o‘n to‘qqiz va yigirmanchi ochliq yillari miyonasida vafot qilib, undan ikki o‘g‘ul qolibdir. O‘g‘ullaridan bittasi bu kunda Marg‘ilonning mas’ul ishchilaridan bo‘lib, ikkinchisi Farg‘ona bosmachilari orasida ekan. Bu kunda nom-u nishonsiz, o‘luk-tirigi ma’lum emas, deydilar”.[2] Qodiriy hatto so‘nggi jumlalarda ham ham bir ramz qoldirishga uringandek. O‘sha vaqtlar yurt farzandlari ham ikkiga bo‘lingan, ba’zilari bolsheviklar tomonda bo‘lsa, qolgani ularga qarshi bo‘lgan. Shunday bir davrlar ediki, aka-ukalar bir-biriga g‘anim bo‘lgan edi.

Abdulla Qodiriy romanga “Muhabbat qissalari” deb emas, balki” O‘zbeklar turmushidan tarixiy roman” deb izoh bergan. Yozuvchi undagi obrazlar, jumlalar orqali sirli ramzlarni tanitgani bilan bir qatorda ko‘p tarixiy voqealarni, o‘tmishning qora kunlarini soddagina uslubda sahnaga olib chiqa olgan. Romanning, “Inqilob” bobida Azizbek uchun kutilmagan halokatlar yuz bergani haqida so‘z ketarkan, qamalishining ikkinchi kuni o‘rda tomiga chiqib, fuqaroga salom berib, siniq va ojiz qolgan bir tovushda xalqdan uzr so‘ragani, xalq esa bunga javoban shunday deyilgani aytiladi: — Endi esing kirdimi, o‘g‘ri? Burundan o‘ylab ish qilsang, boshingda bu bolalar yo‘q edi! Sen bizlarga nima ishlarni qilmading? Kun sayin necha gunohsizlarni osdirgan, kesdirgan, bolalarimizni yetim, onalarimizni qon yig‘latgan sen emasmisan? Xanjaringni xayf ko‘rib mahallalarga chayon solig‘i solgan, og‘alarimizni chayon zahri bilan o‘ldirgan kim edi? Ket, to‘ng‘iz, ket, tavba qilish zamoni o‘tdi, taqdiringga sen ham tan ber![3]” Asar mutolaa qilinar ekan, bir qarashda xalqning Azizbekka bo‘lgan nafrati ortidagi sababni anglash oson emas. Ammo, akademik Rustam Tojiboev bu misralarga e’tibor qaratib, kichik ilmiy tadqiqot qilishga kirishadi. Tarixiy asarlarni o‘rganish davomida esa, Toshkent hokimi Azizbekning chindan ham mahbuslar ustiga chayon tashlab qiynab o‘ldirgani, aholiga chayon solig‘i solgani, odamlar paxsa devorlarni buzib chayon qidirishga majbur bo‘lganlari haqida ma’lumot to‘playdi. Birgina shu bobdagi kichik jumlalar orqali adib

[1] Qodiriy.A “O‘tkan kunlar” romani. Book-media plus MCHJ bosmaxonasi (2024) 379-sahifa
[2] Qodiriy.A “O‘tkan kunlar” romani. Book-media plus MCHJ bosmaxonasi (2024) 379-sahifa
[3] Abdulla Qodiriy. O‘tkan Kunlar (O‘zbeklar turmushidan tarixiy ro‘mon) “Book media Plus”MCHJ bosmaxonasi.XXI Fasl. Inqilob. 111-sahifa.

nafaqat Azizibekning vahshiy qiliqlarini, balki tarixiy haqiqatlarni ham bayon eta olgani Abdulla Qodiriyning yuksak mahoratini yana bir bor namoyon qiladi.

Tohir Malik so‘z ta’birida aytganda “O‘tkan kunlar”ga bir aysberg timsolida qaralsa, uning suv ostidagi ko‘rinmas haybatli qismi tahlil qilingan sari yangi g‘oya va kashfiyotlar yuzaga chiqaveradi. Qodiriy zamonni to‘g‘ri anglab, to‘g‘ri tahlil qilib o‘z xulosalarini goh ochiq, goh yopiq tarzda asarlariga muhrlagani uzoq izlanishlar davomida ochilib boraveradi.

Yozuvchining o‘g‘li Habibulla Qodiriy ijodiga nazar tashlanar ekan, o‘zbek adabiyotiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan bunday buyuk asarlar vujudga kelishi ortida qanday zahmatlar chekilganini, qanchalar mehnat qilinganini anglash mumkin. “Qodiriy romanini yozishga hozirlik ko‘rganda faqat og‘zaki eshitgan, kitoblardan o‘qigan manbalar bilan cheklanib qolmaydilar, albatta. U kishi asar voqeligini – hayotiyligini oshirish, to‘g‘ri tasavvur berish maqsadida ma’lumot to‘plash uchun Farg‘ona vodiysiga bir necha bor safar ham qildilar.”[1] – deyiladi Habibulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romaniga atab yozgan maqolalarida.

“Mening Farg‘ona shaharlariga material yig‘ish uchun safar qilgan chog‘larim juda xavfli yillar edi, — deb hikoya qilardilar ba’zan oilaviy suhbatlarimizda, — bir gal, Farg‘onaga borganimda, choyxonada choy ichib o‘tirganimda, to‘satdan miltiqlar otilib, choyxonani otliqlar kelib o‘radi. Choyxo‘rlarning ba’zisi qochib ulgursa ham, ko‘pchiligi, jumladan, men ham qurshovda qoldik. Chamasi otliqlar choyxonaning ko‘proq puli borligi to‘g‘risida xabar topgan ekanmi, to‘g‘ri borib yon-verini tintishdi, bor-yo‘q pulini olib jo‘nab ketishdi”-deydi Habibulla Qodiriy otasi haqida yozganlarida. Bundan ko‘rinadiki, birgina asarni to‘g‘ri va xolis bitish, kitobxonga chiroyli ko‘rinishda yetkazish uchun yozuvchi o‘z jonini bir necha marotaba xavfga qo‘ygan. Habibulla Qodiriyning: “U kishining turli vaqtlarda biron munosabati kelib aytgan so‘zlariga ko‘ra men shuni angladimki, muallif shahar, qishloqlar kezib ko‘p yashagan, o‘sha davrni ko‘rgan, eshitgan shaxslarni izlaganlar, ular bilan suhbatlashganlar va asarlaridagi har bir harakat o‘rinlarini aniqlagan, mo‘ljallaganlar.”[2]-so‘zlari esa Qodiriyning bir romani vujudga kelishi erta-yu kech bir xonadan chiqmay yozilganlarga asoslanmaganini ko‘rish mumkin.

Habibulla Qodiriyning “Mehrobdan chayon” romani haqida yozganlaridan kelib chiqib esa Qodiriyda bu romanni yozish, undagi obrazlarni gavdalantirish fikri qayerdan tug‘ilgani haqida mulohaza yuritish mumkin. Unga ko‘ra yozuvchi “Mehrobdan chayon” romanini yozishga 1926-yilning kuzidan kirishadilar. Bu asar ham tarixiy. U ba’zi shaxslar, xalq, hayot, davr jihatdan olib qaralganda, go‘yo “O‘tkan kunlar”ning davomidek ko‘rinsa ham, biroq mavzu, mazmun, voqealarning rivojlanishi jihatdan butunlay farq qiladi. Habibulla Qodiriyning yozishicha, mavridi kelmaganidanmi, otalaridan ikkinchi romanga material

[1] Abdulla Qodiriy. O‘tkan Kunlar (O‘zbeklar turmushidan tarixiy ro‘mon) “Book media Plus”MCHJ bosmaxonasi. Habibulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”haqida 381-382-sahifalar.

[2] Abdulla Qodiriy. O‘tkan Kunlar (O‘zbeklar turmushidan tarixiy ro‘mon) “Book media Plus”MCHJ bosmaxonasi. Habibulla Qodiriy “O‘tkan kunlar”haqida B-382

yig‘ish borasida xotira eshitmagan. Faqat qay bir vaqt, “Roziya oyimni izlab, Qo‘qon chetidagi bir qishloqqa bordim. U to‘qson yoshlarda, lekin hali tetik, gap-so‘zlari, muomalalari hamon eskicha, xonim, oyimlar kabi yuqoridan…” deganlarini xotirlaydi. Keyinchalik, Habibulla Qodiriy Sherali Turdiyev bilan Roziya onaning xonadonlarini izlab borganlarini yozar ekan, Roziya ona qazo qilib qizlari Kimyoxon oyi bilan suhbatlashgani haqida yozadi. Kimyoxon oyi esa Abdulla Qodiriy haqiqatan Roziya oyi bilan suhbatlashganini, ulardan Xudoyorxonning harami hayoti haqida ma’lumotlar olganini tasdiqlaydi. Asarga tarixiy faktlar qay usulda to‘plangani-ku ravshanlashdi, ammo undagi obrazlar qanday paydo bo‘ldi, ular xayolan kashf qilinganmi yoki qaysidir tarixiy shaxslardan ilhomlanib yozilganmi, degan savol tug‘ilishi tabiiy. Bu savolga javob topishda esa filologiya fanlari doktori Ergash Rustamovning “XV asr o‘zbek adabiyotining boshqa sharqiy adabiyotlar bilan qiyosiy o‘rganishning ba’zi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi yuzasidan yozgan avtoreferatiga e’tibor qaratish mumkin: Alisher Navoiy bilan hamasr bo‘lgan mashhur Ozarbayjon shoiri Sayid Imomiddin Nasimiy o‘z zamonasidagi mutaassib ruhoniylarga qarata maxfiy, qaqshatqich ich bir hajviy she’r yozadi. Davlat idora ishlarini o‘z qo‘llarida tutgan ruhoniylar bu she’rning muallifini bila olmay qahrlanib, g‘azablanib yuradilar. Kunlarning birida ruhoniyalar Nasimiyning mazkur she’rini yosh bir yigit xush ohangda o‘qib turganini sezib qoladilar va “She’rni sen yozgansan”, deb uni tutadilar, o‘limga hukm etadilar... Mazkur yigit esa Nasimiyning yaqin do‘sti, she’rni Nasimiymdan yozib olgan bo‘ladi. U o‘z do‘stiga xiyonat qilishni xohlamay, o‘limga mardona bosh egadi. Biroq bu xabarni eshitgan Nasimiy o‘z she’ri uchun do‘stining halok bo‘lishini istamaydi, qozi mahkamasiga borib: “Mazkur she’rni men yozganman”, deb iqror bo‘ladi, do‘stini o‘limdan ozod etadi. Halab ruhoniylari Nasimiyning terisini shilib o‘ldirishga fatvo berishadi va darhaqiqat, 1417-yili shoir Sayid Imomiddin Nasimiy terisi tovonidan boshigacha shilinib, vahshiylarcha o‘ldiriladi. Ergash Rustamov deydi: “Mehrobdan chayon”da Xudoyor tomonidan Sultonali mirzoning Anvar gunohi uchun o‘ldirilmoqchi bo‘lishi, bunga qarshi o‘z do‘stini qutqazmoq uchun Anvarning xonga borib taslim bo‘lishi voqealari shu shoir Nasimiy fojiasini eslatadi... Ehtimol, bu o‘xshashlik tasodifdir. Ehtimol, Qodiriy Nasimiy fojiasini taxminan bilgandir, undan ta’sirlangan bo‘lishi mumkin[1]. Roman qahramonlarining paydo bo‘lishi haqida shunday farazlar bor, ammo romanning o‘ziga xosliklaridan biri unda obrazlarga berilgan ta’riflarda namoyon bo‘ladi. “Mehrobdan chayon” romanida oddiy o‘zbek qizi Ra’noga berilgan ta’rifga e’tibor berilsa: “Ra’no Nigor oyimning to‘ng‘uchi, bu yil o‘n yetti yoshni to‘lduradir. Savodni otasidan o‘qub, o‘n to‘rt yoshida ibtidoiy maktab pro‘g‘ramida bo‘lg‘an barcha darslarni bitirgan, masalan: diniy qismdan – “Haftiyak”, “Qur’on”, “Chahor kitob”, “So‘fi Olloyor”, “Maslaki muttaqin”, adabiyotdan – Navoiyning barcha asarlari, devoni Fuzuliy ma’al Layli Majnun; Amiriy, Fazliy va shulardek chig‘atoy-o‘zbek katta shoirlarining asarlari; forsiydan – Xoja Hofiz Sheroziy va Mirzo Bedil, husnixat, insho va boshqalar.

[1] E Rustamov. “XV asr o‘zbek adabiyotining boshqa sharqiy adabiyotlar bilan qiyosiy o‘rganishning ba’zi masalalari” nomli doktorlik dissertatsiyasi.

Bu kunlarda bo‘lsa bir tomondan qizlarg‘a saboq berib onasig‘a ko‘maklashsa, ikkinchi tarafdan otasida kofiya (arab nahv va sarfi) hamda Shayxi Sa’diyning “Guliston”idan dars oladir va shuning qatorida o‘zi yaxshi ko‘rgan chig‘atoy-o‘zbek shoirlarining badia asarlaridan alohida bir majmua tuzib yuriydir...” Ba’zilarning fikriga ko‘ra yevropaliklar tufayli yurtimizda ta’lim-tarbiya, ilm gullab-yashnagan. Yevropaning “go‘zal” madaniyati odamlarimiz orasida yoyilgan. Qizlarimiz “ular” tufayli ilm yo‘liga qadam qo‘ya olgan. Asliyatchi? Aslida, haqiqiy madaniyat, ilmga muhabbat qasri yurt dushmanlari sabab qurilmagan, balki darz ketgan. Zero, ilmli jamiyatni ilmli onalar tarbiyalashini xalqimiz juda yaxshi bilar edi. Qodiriy esa o‘z romani orqali Ra’noga ta’rif berar ekan, millatni takror va takror ilmga, rivojlanishga, o‘z ustida ishlashga chorlagandek go‘yo. Romandagi ikki yoshning qalbdagi tuyg‘ularini she’riy yo‘l bilan bayon etishi san’atning chiroyli namunasi, undagi oddiygina suhbatlar esa madaniyatning yuqori cho‘qqisini o‘zida mujassam etgani ham kitobxonlarga sir emas.

Habibulla Qodiriyning “Otam haqida” kitobida ular o‘rtasida bo‘lgan shu kichik suhbat o‘rin olgan: “Dadam Abdulla Qodiriy bir kuni qora muqovali forschami, turkchami qalin bir kitobni o‘qib o‘tirdilar-da, ma’qul tushdi shekilli, “quloq sol”, deb bu baytni o‘qidilar:

Sen tug‘ilgan zamonlar kulardi olam,

Sen o‘ldig‘ing zamonlar yig‘lasin olam.

– Shoir fikri to‘g‘ri-yu, – dedim men kulib, – biroq o‘lganida olam yig‘laydigan kishi bo‘lish hammaga ham nasib bo‘lavermasa kerak, ada…

– Nega? – dedilar dadam mutolaadan ko‘zlarini uzmagan holda.

– Bunaqangi kishi bo‘lish qiyin-da.

U kishi javobimga e’tiborsiz yana birmuncha vaqt o‘qishni davom ettirdilar, choynakdan piyolaga choy quyib ho‘pladilar.

– Hech qiyinchiligi yo‘q. She’rdagi “olam” so‘zi, birinchidan, avvalo, mubolag‘a. Keyin, bunaqangi kimsa bo‘lish uchun zo‘r xoqon, amaldor, boy yoki olim bo‘lish shart emas. Kim bo‘lmasin, u chin inson bo‘lsa bas…”[1] Qodiriy otilganiga salkam 90 yil bo‘ldi. Ammo, o‘z so‘zlari bilan aytilganidek adib “chin inson” bo‘lgan ekanki, oradan qancha vaqt o‘tsa ham asarlari, qoldirgan bebaho merosi chuqur tahlil qilinadi, o‘rganiladi va o‘rgatiladi. Nomlari katta hurmat va mehr bilan xotirlanadi. Shubha yo‘qki Qodiriy romanlari ziyoli insonlar uchun o‘zbek adabiyot durdonalarining eng yorqin namunalaridan biri sifatida qolaveradi. Uning asarlari orqali o‘zbek xalqining asl madaniyati, so‘zdan foydalanish mahorati, farzandning ota-onaga bo‘lgan hurmati, o‘zaro odob va axloq kabi tushunchalar o‘rganiladi. Adib oddiy bir inson sifatida o‘z hayot yo‘lida ma’naviy boylikka intilgani, ilmi va kasbi ila jamiyatga xizmat qilishni maqsad qilgani, jasorat, mardlik kabi xislatlarni o‘zida mujassam etgani bilan “insoniylik”, “vatanparvarlik” namunasi bo‘lishi bilan bir qatorda o‘zining ijodiy namunalaridagi o‘ziga xoslik sababli qo‘lida qalam tebratish ilinjidagi har bir

[1] https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/memuarlar/habibulla-qodiriy-otam-haqida-kitobidan-yangi-lavhalar-va-kitobning-toliq-nusxasi.html

yozuvchi-shoirga “ustoz” bo‘la oladi. Asar va romanlari esa kitobxonni tarixga, o‘tmishimizga sayohat qildirish orqali yoqimli mutolaa bag‘ishlay oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abdulla Qodiriy. Beshjildlik. Asarlar to‘plami. – Toshkent: Info Capital Group 2017.

2. Abdulla Qodiriy zamondoshlari xotirasida. – Toshkent: Adabiyot va san’at 1986.

3. Abdulla Qodiriy. O‘tkan Kunlar (O‘zbeklar turmushidan tarixiy ro‘mon) “Book media Plus”MCHJ bosmaxonasi

4. Habibulla Qodiriy. Diydor qiyomatga qolsa netayin. – Toshkent: Zilol buloq 2019

5. Malik, T. (1994). Ajab saodat. “Sharq” nashriyot-matbaa konserni. (O‘tkan kunlar romanining so‘ngso‘zi).

6. Sherkon Qodiriy. 37-xonadon. – Toshkent: Davr Press 2009.

MUHAMMAD SAID AL-AMUDINING HIKOYALARIDA INSONIY TUYG‘ULAR QARAMA-QARSHILIGINING IFODALANISHI

Sevinch RO‘ZIYEVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti,
Arabshunoslik oliy maktabi
filologiya va tillarni o‘qitish: arab tili. 4-kurs,
Ilmiy rahbar: PhD., dotsent N.Saidova

Annotatsiya: Mazkur maqolada Muhammad Said al-Amudining “Meros”, “O‘tkinchi do‘stlar” hikoyalarida jamiyat va uning inson hayotiga ko‘rsatadigan ta’siri o‘rganiladi. Asarda jamiyatdagi ijtimoiy va madaniy omillar, shaxsning shakllanishi va ruhiy holatiga bo‘lgan ta’sirlar tahlil qilinadi. Hikoyadagi qahramonlar misolida insonning shaxsiy his-tuyg‘ulari va ijtimoiy qadriyatlar o‘rtasidagi murakkab aloqalar ochib beriladi. Ushbu asar orqali muallifning jamiyat hayotidagi muammolarga bo‘lgan qarashlari va ularni badiiy obrazlar vositasida tasvirlash mahorati tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Muhammad Said al-Amudi, meros, jamiyat ta’siri, inson hayoti, ijtimoiy omil, axloq, badiiy tahlil, qadriyatlar, insonparvarlik.

Saudiya Arabistonida hikoya janrlari, arab adabiyotining o‘ziga xos an’analari va zamonaviy ijtimoiy o‘zgarishlar bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu janrlar XX asr va XI asrlarda, asosan, o‘zgaruvchan siyosiy, ijtimoiy va madaniy sharoitlarda rivojlangan. [1] Saudiya Arabistoni adabiyotida hikoya janrlari turli xil mavzularni va uslublarni qamrab oladi, bu yerda ijtimoiy masalalar, ayollar huquqlari, diniy va madaniy o‘zgarishlar, zamonaviy hayot tarziga moslashish kabi masalalar ko‘p uchraydi.

[1] Arab adabiyoti va uning rivojlanishi. – T.: Toshkent universiteti nashriyoti, 2000. – 311 b.

Mashhur adib va siyosatchi Muhammad al-Amudi 1906-yil, Saudiyaning Makka shahrida dunyoga kelgan. Yoshligidan diniy bilimlar bilan birgalikda matematika fanlarini ham yaxshi o‘qib o‘zlashtirgani sababli Al-Falah maktabini a’lo baholar bilan tamomlagan. Saudiyaning ilk rivojlanayotgan yillaridayoq Amudi davlat ishlarida ishlashni boshladi shu vaqt mobaynida “Umm Al-Qura”, “Savt Al-Hijaz”, “Al-Madinah Al-Munavvarah” gazetasi, “Al-Manhal jurnali”, “Al-Shura” gazetasi shuningdek, “Al-Siyasa Al-Usbu’iya” kabi mahalliy arab gazetalarida turli maqolalar yozishni davom ettirdi. 1933-yilda “Al-Hilol” jurnali tomonidan ingliz tilidagi “Inson va vaqt” nomli she’rining eng yaxshi e’lon qilingan mukofotni qo‘lga kiritdi.

U 1952 yildan Saudiya Shura Kengashi a’zosi etib tayinlandi va 3 yil davomida faoliyat yuritdi, keyin esa nafaqaga chiqishni so‘radi va uning iltimosi qabul qilindi. Shundan so‘ng u “Royal Hajj” Jurnali bosh muharriri sifatida ish olib bordi. Gazetalarda uning turli mavzularda o‘nlab maqolalari, tadqiqotlari, hikoyalari va she’rlari nashr etilgan. U “Bizning tariximizdan” kitobini chop etdi. 1374 hijriy yilda Tehrondagi Eron Parlamentining marosimlarida “Shura” Kengashining vakili sifatida qatnashdi. U Saudiya Arabistonida “Shark” loyiha uyushmasining asoschilaridan biri bo‘ldi, ammo bu uyushma atigi ikki yil davom etdi.

U ikki Muqaddas Masjid tarixini nashr etadigan qo‘mita asoschilaridan biri bo‘lib, bu qo‘mita uzoq davom etmadi.

U ilhomlantiruvchi shoir bo‘lib, o‘z she’rlarida turli ma’nolarni birlash-tiradi. U o‘zining boy qobiliyati, ifodaning sehrli kuchi, mantiqning ravonligi va uslubning silliqligi bilan ajralib turadi.[1]

Muhammad Said asarlari ,jumladan, “Meros”, “Oxirgi Sheylok” va “O‘tkinchi do‘stlar” kabi hikoyalarini tahlil qilar ekanmiz, adibning hikoyadagi tasviriy ifoda yo‘sini, hikoyaning til xususiyatlari, kompozitsiyasi hamda syujeti haqida to‘xtalib o‘tishni joiz deb bilamiz. Zero uning hikoyalarida qo‘llanilgan badiiyat unsurlari yagona maqsad – inson ruhiyatdagi ziddiyatlar, o‘zaro qarama-qarshiliklar tasvirini ishonchli va sodda shaklda ta’minlashga yo‘naltirilgan.

Yuqorida sanab o‘tilgan hikoyalari vijdon va tubanlik, sodiqlik va sotqinlik, halollik va aldov, dangasalik hamda shijoatlilik sifatlari o‘zaro qarama-qarshi qo‘yilib, ta’sirli namunalar va hayotiy oqibatlar asosida yoritib berilgan.

“Meros” hikoyasida hukumat ishida ishlab nafaqaga chiqqach savdogarlik bilan shug‘ullanuvchi sobiq xodim va uning to‘qchilikda voyaga yetgani sabab ta’lim olishni o‘ziga “kamsitish” deb hisoblaydigan Salim ismli o‘g‘il qismati yoritib beriladi. Bosh qahramon, Qosim afandi, tanishlari orasida halolligi va diyonati bilan hurmat qozongan insondir. Hayotda ishchan, anchagina tajribali va ishning ko‘zini biladigan Qosim afandi, hukumat tomonidan tayinlangan, yaxshi yashashi uchun bemalol yetadigan, lekin nafaqa puli bilan tinch-osuda hayot kechirishga ko‘nadigan inson emas. Yaxshiyamki, uning yosh tanlab o‘tirmay-digan yana bir faoliyati bor, ya’ni savdogarlik. Biroq, bir kuni Qosim afandi

[1]. رامز و قصص أخرى - ت: محمد العامودي ، ١٥٩٠- 63 ث.

bandalikni bajo keltiradi va o‘g‘li Salim ancha paytdan beri kutib yurgan katta miqdordagi boylik unga meros bo‘lib qoladi:

وحم القضاء وجاء اليوم الموعود، وانتقل (قاسم أفندى الى رحمة مولاه، وتحقق ما كان ينتظره سليم، إذ آل إليه ذلك الميراث العظيم) الذي طالما كان به من الحالمين.

Va taqdir hukmi bajo kelib kutilgan kun yetib keldi. Qosim afandi bandalikni bajo keltirdi. Shunda Salimning orzusi ro‘yobga chiqdi — u har doim orzu qilib kelgan ulkan meros nihoyat uning qo‘liga o‘tdi…

Yozuvchi shu holatni munosib bir o‘xshatish bilan ta’riflaganki, bunda hikoya syujetini qisman ochib berilgan desak adashmagan bo‘lamiz:

.. وأن يرث أى خصلة من خصال أبيه

Taqdir Salimga sherdek otasining kuch-qudratini ato etmagan, unga otasining hech bir fazilatini meros qoldirmagan edi.

Endigi voqealar Qosim afandining tabiatan yaxshi, lekin jamiyatdagi qarashlar sabab ham axloqi ham aqli zaiflashib qolgan o‘g‘li Salim hayotida ro‘y beradi. Otasining tinimsiz harakatlariga qaramasdan, ijtimoiy qarashlar o‘z otasining tarbiyasidan ustun keladi. Ilm olish zodagon va boy insonlar uchun “uyat” hisoblangani sabab o‘qishni tashlaydi:

إن عاجلاً أو آجلاً مندوحة عن هذا الهم الذي يفرضه عليهم التعليم فما أكثر ما حاول له أبوه أن يستمر في المدرسة الرشدية، وهي المدرسة الحكومية الوحيدة في مكة في عهد الأتراك ولـكنها محاولات كانت كلها عقيمة

Otasi uni Usmonlilar davrida Makkada mavjud bo‘lgan yagona davlat maktabi – Rushdiya maktabida o‘qishini davom ettirishga necha bor harakat qildi. Afsuski, barcha urinishlar befoyda ketdi. Salim esa ilmga qarshi isyon ko‘tarib otasiga itoatsizlik qilar, shu tariqa asta-sekin tubanlashib borardi.

Ta’lim olmaganligi uchun tobora tubanlashib borardi. Biror ta’lim muassasasida o‘qimagan lekin, savdo yoki boshqa kasblarda muvaffaqiyat qozonib kelayotgan omadli insonlar ham bor hayotda. Ammo, gap xulq-atvorning yomonlashishi haqida ketar ekan, insonni omad ham shijoat ham tark etishi muqarrardir:

فما هو إلا وقد أخذت أحواله تسوء وتسوء، كنتيجة محتومة لهذه الثورة الرعناء وما هو إلا وقد بدأت تتطور هذه الأحوال من سيء إلى أسوء، وماهو .(إلا أن أضاف إلى (الجهل) سوء الأخلاق)

Uning holati kundan-kunga yomonlashdi, bu esa muqarrar ravishda uni yanada og‘irroq ahvolga olib keldi. Bilimsizlik Salimni nafaqat jaholat botqog‘iga botirdi, balki bunga axloqsizlik ham qo‘shildi… Ilmsiz johilligi bir tomon bo‘lsa, yomon xulqi ikkinchi bir tomon edi.

O‘quvchi hikoyani o‘qir ekan, kutilmagan, yakun uni xulosa qilishga majbur qiladi, sababi Salimning qismati barcha yomon xulqli insonlar boshiga tushishi mumkin bo‘lgan hayotiy va muqarrar qismatdir:

لم يستطع سليم بعد أن أضاع ما وصل إليه من مال غير قليل أن يعيش في عهده الأخير موظفاً على الأقل، كما كان أبوه يـعـيـش في عهده الأول، لأن ما تتطلبه الوظيفة من مؤهلات لم يكن متوفراً لديه .قال محدثي: وكان الزائرون لمنزل (.....) أحد الوجهاء المعروفين منذ نصف قرن يرون على الدوام في إحدى الغرف المجاورة لمدخل ذلك المنزل (إنساناً متهدماً) يحمل من مظاهر الشيخوخة الفانية ما يبعد به كل البعد عن سن الشباب الذي لم يجاوزه بعد ذلك هو (سليم قاسم) طاهي المنزل .....

Salim qo‘liga kelgan katta miqdordagi boylikni yo‘qotib bo‘lgach, hayotining so‘nggi yillarida hech bo‘lmaganda oddiy bir xodim sifatida ham yashay olmadi.

Axir, otasi yoshligida hech qanday merosga tayanmagan holda o‘z mehnati bilan ish topgan edi. Biroq Salim uchun bu ham imkonsiz. Chunki u hech qanday kasbiy malakaga ega emas va ishlash uchun talab qilinadigan bilim, mahorat va intizomdan mutlaqo bebahra edi… Bir kun tanishlarimdan biri shunday dedi:

Yarim asr davomida tanilgan, yirik va nufuzli shaxsning uyiga tashrif buyurgan mehmonlar har doim eshik yonida joylashgan xonalardan birida g‘arib kishini ko‘rardilar. Uning qiyofasida so‘nayotgan qarilik alomatlari aks etar, garchi u hali yigitlik yoshidan uncha uzoq bo‘lmasa-da.

Bu kishi — Salim Qosim edi. Endilikda u uy oshpazi bo‘lib xizmat qilardi...

Salim shunchaki bir bechora inson bo‘lishi yoki eng kamida tilanchi bo‘lishi mumkin edi, lekin yozuvchi biroz boshqacha yakunni tanladi. O‘zi bir paytlar shod-xurramlikda hayot kechirgan, to‘qchilikda ulg‘aygan xonadonning xizmatkorlar uyida yashashga mahkum etildi:

بل ذلك هو ربيب النعمة والثراء الذي كان في عهد من عهوده التي تولت مع الماضي القريب من كبار الوراث المعدودين.

Aslida, u nafaqat oddiy bir xizmatchi, balki bir vaqtlar ne’mat va boylik bag‘rida o‘sgan, merosxo‘rlar ichida eng mashhurlaridan biri bo‘lgan inson edi. Biroq bu o‘tkinchi shon-shuhrat ham o‘tib ketgan eski zamonlar bilan birga yo‘q bo‘lib ketdi…

Inson hayotda turli qiyinchiliklarga duch keladi, o‘zining iymoni, vijdoni va shijoatini sinovdan o‘tkazishi uchun ham. Ba’zan esa inson o‘zining yaqinlari bilan sinaladi. Qosim afandi ushbu hikoyada yaxshilik va halollik ramzi sifatida ifodalangan bo‘lsa, uning o‘g‘li, hayotdagi eng yaqin kishi yomonlik va tubanlik sifatida gavdalangan:

لكن الحياة... الحياة لا مناص فيها من الألم، ولا محيص فيها من الهم، ولا مندوحة فيها من الشقاء، وقاسم أفندى الرجل الناجح الموفق السعيد، لابد أن يتألم، ولابد أن يبتلى بشيء من الفشل والاخفاق، ولابد أن يشقى، وهو إذ يشقى إنما يشقى بأقرب الناس اليه...

Lekin hayot… Hayotda og‘riqdan qochib bo‘lmaydi, tashvishlardan qutulishning iloji yo‘q, iztirobdan xalos bo‘lish mumkin emas. Qosim afandi – muvaffaqiyatli, omadli va baxtiyor inson. Biroq, u ham albatta azob chekishi, ba’zan omadsizlik va musibatlarga duchor bo‘lishi, qachondir qiyinchiliklarni boshdan kechirishi muqarrar edi.

Mana shu nuqtada biz o‘g‘lining o‘zi kabi halol va diyonatli inson bo‘lishi istagan ota, lekin otasiga isyon qilib, jamiyat ta’siriga tushib qolgan o‘g‘il timsolida ikki xislat qarama-qarshiligining guvohi bo‘lamiz.

“O‘tkinchi do‘stlar” hikoyasi dialog shaklida yozilgan bo‘lib, unda do‘stlik hamda ikkiyuzlamachilik haqida so‘z yuritiladi.

Suhbat bosh qahramonlardan biri Ihsonning uyida Nizor va Zohir bilan bo‘lib o‘tadi. Ihsonning tabiati biroz ayyor, insonlarga ta’sir o‘tkaza oladigan, shu bilan birga do‘stlikning qiymati haqida chuqur qarashlarga ega insondir:

إحسان ـ ما من شك في أن حقوق الصداقة مقدسة.. وإن كنت أعجب فمن أناس يكفرون بهذا الحقوق ..

***Ihson**: Shubhasiz, do‘stlikning haqlari muqaddasdir… Ammo ba’zi odamlarning bu haqlarga ishonmasligi meni hayratga soladi.*

Ihson muhim ishlari sabab band bo‘lgan va shuning uchun xizmatkoriga un kimdir so‘rab kelsa uni uyda yo‘q deb aytishni tayinlagan:

Ikki do‘sti Nizor va Zohir esa buni biroz xato tushunib Ihsondan ranjishadi:

إحسان ـ مستمرا في حديثه عندما جئتهما في تلك الليلة للسمر كالمعتاد، وكنت منهمكا في عمل مستعجل كلفت به يوم ذاك .. فقلت للخادم أخبرهما أني غير موجود... وكنتما تفهمان العكس طبعا فغضبتهما وأنتما على حق في ذلك، ثم انقطعتها عن الحضور الى هنا.. ثم تكرر منى الخطأ فلم أحضر إلى منزل كل منكما ولم أعتذر.. وكان هذا أقل ما يجب علي.. فأي عذر أستطيع أن أعتذر به الآن..؟

***Ihson** (so‘zida davom etib): O‘sha kecha odatdagidek suhbat qurish uchun oldingizga borganimda, juda shoshilinch ish bilan band edim. Shu sababli xizmatchiga sizlarga yo‘qligimni aytishni buyurdim… Tabiiyki, sizlar buni boshqacha tushundingiz va haqli ravishda ranjidingiz. Shundan keyin bu yerga kelmay qo‘ydingiz… Keyin esa xatoyim takrorlandi – na sizlarning uylaringizga bordim, na uzr so‘radim. Holbuki, bu eng kamida shuni bajarishim lozim edi. Endi qaysi bahona bilan uzr so‘rashim mumkin?..*

Do‘stlar orasidagi bu tushunmovchilik nisbatan hal qilinib, mavzu do‘stlik va uning haqlari haqida ketadi. Shu o‘rinda Ihson jamiyatdagi ba’zi toifalar faqat manfaat va foyda uchungina birov bilan do‘stlashishini ta’kidlaydi:

إحسان ـ مواصلاً حديثه حقيقة يوجد كثيرون يكفرون بهذه الحقوق ومع ذلك فهم يتظاهرون كما لو كانوا أخلص الأصدقاء.. ولكن متى ؟ .. عندما يبتغون من وراء هذا التظاهر مصلحة .. أو عندما يكون صديقهم الأوحد العزيز شخصاً مرموقاً في المجتمع.. أو شخصاً يستطيع أن ينفعهم إذا شاء.. ويستطيع أن يلحق بهم الضرر إذا أراد.. وفي غير هذه الحالات.. فهم أبعد ما يكونون عن الصداقة والصديق .

***Ihson** (so‘zida davom etib): Haqiqat shuki, bunday haqlarga ishonmaydiganlar juda ko‘p. Shunga qaramay, ular o‘zlarini eng sodiq do‘st qilib ko‘rsatishadi. Lekin qachon? Faqatgina bu do‘stlik ularga foyda keltirsa yoki jamiyatda yuqori mavqega ega odam bilan do‘st bo‘lishsa. Do‘stlashayotgan kishilari ular istaganda ularga naf keltiradigan yoki istagan paytlarida ozor bera oladigan sodda insonlar bo‘lsagina. Bundan boshqa barcha holatda, ular do‘stlikdan va chin do‘stlik ruhidan umuman yiroq bo‘lishadi…*

Lekin, Zohir bu jamiyat uchun odatiy holat ekani ya’ni do‘stlik haqiqatda ham biror manfaat ustiga quriladi va bu haqiqat deb hisoblaydi:

زهير — هناك من يقول .. يتردد قليلا هناك من يقول بوجوب أن نكون واقعيين.. وأن الصداقة..

***Zohir**: Ba’zilar aytishadiki… (bir oz ikkilanish bilan) Ha, ba’zilar, o‘zlaricha biz haqiqatga tik boqishimiz kerak, deyishadi… Va do‘stlik…*

Lekin Ihson:

إحسان ـ أنا أعرف كثيرين يا أستاذ نزار.. كثيرين من هؤلاء الأصدقاء في الظاهر.. هؤلاء الذين ما أجدرنا أن نسميهم ـ دون أن نكون متجنين — أصدقاء الظروف…

***Ihson**: Haqiqat shuki, do‘stlik juda buyuk narsa. Uni manfaatlar yoki falsafalar doirasiga tiqishtirish mumkin emas. Do‘stlik – inson qalbidagi eng oliyjanob va eng muhim tuyg‘ulardan biridir. Kimki o‘zini bu yuksak insoniy tuyg‘udan mahrum etsa, u eng oddiy ifoda bilan aytganda arzimas bir mavjudotdir.*

Uchala do‘st orasida sodir bo‘lgan bu suhbatda ham bir biriga qarama-qarshi xislatlar do‘stlik hamda manfaatparastlik tushunchalari tahlil qilinadi va oddiy kundalik suhbat sifatida tushunarli hamda sodda tarzda tushuntirib beriladi.

Hikoya hajman kichik bo‘lsa-da, hayotning murakkab falsafasini o‘zi sig‘dira oladigan badiiy asardir. Unda insoniyat uchun bir eslatma yoki da’vat yashirin bo‘ladi. Oq va qora ranglar yonma-yon qo‘yilgan, ikkisining farqini tezda ilg‘ab olish mushkul emas. Xuddi shu kabi yaxshi va yomon tushunchalarini sodda ammo ta’sirchan tarzda yetkazib berish samarali usuldir. Yuqorida o‘qigan ikki hikoyamizda ham buning yaqqol namunasini ko‘rishimiz mumkin. Shu bilan birga, allegorik hikoya orqali muallif insoniy xatolar, zaifliklar va qarorlarining oqibatlarini ko‘rsatishga intiladi. Hikoyalar, o‘quvchini o‘z ichki dunyosini tahlil qilishga, yaxshilik va yomonlikni o‘z hayotida qanday ifodalashini anglashga undaydi. Johillik va ilmsizlik bir vaqtning o‘zida, dunyodagi ijtimoiy va axloqiy jarayonlarga ham chuqur ta’sir ko‘rsatadi.

Xulosa qilib aytganda, “Meros”, “Oxirgi Sheylok” va “O‘tkinchi do‘stlar” kabi hikoyalarini nafaqat axloqiy masalalarni, balki inson tabiatining kompleks-ligini va uni shakllantiruvchi ijtimoiy omillarni chuqur o‘rganadi. U o‘quvchini axloqiy, ruhiy va falsafiy savollarni ko‘rib chiqishga, o‘z xatti-harakatlarini va qarorlarini qayta ko‘rib chiqishga undaydi. Bu hikoya o‘zining o‘quvchiga ta’sir qiluvchi va o‘ziga tortadigan elementlari bilan adabiyotda muhim o‘rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. رامز و قصص أخرى - ت: محمد العامودي ، ١٥٩٠- 63 ث .
2. Arab adabiyoti va madaniy merosi. – T.: Sharqiy nashr, 2010. – 415 b.
3. Arab adabiyoti asoslari. – T.: Sharqiy adabiyot, 1990. – 392 b.
4. اريخ الأدب العربي — ت: أحمد أمين، المجلد الأول. 1967. — 456 ص، المجلد الثاني 1968. — 432 ص
5. الأنواع والأنواع الأدبية — ت: العلوم، المجلد الأول. 1991. — 383 ص، المجلد الثاني 1992. — 246 ص.
6. تاريخ الأدب العربي — ت: أحمد أمين، المجلد الأول. 1963. — 298 ص
7. https://1.www.wikipedia.com
8. https://ziyouz.com

https://almoqtabas.com/ar/biographies/view/25965344409519294

HIND BOLALAR FOLKLORI

Barno XASANBOYEVA
TDSHU, Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi,
hind-ingliz guruhi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: professor U. Muhibova

Annotatsiya: Ushbu maqolada hind bolalar folklorining tarbiyaviy, madaniy va didaktik ahamiyati yoritib berilgan. Bolalar uchun mo‘ljallangan qo‘shiqlar, she’rlar, tez aytishlar orqali hind xalqining milliy qadriyatlari, ma’naviy merosi va axloqiy tamoyillarining avloddan-avlodga yetkazilishi tahlil

qilingan. Tadqiqotda mashhur yozuvchilar va folklorshunoslarning bu boradagi hissasi ham koʻrsatib oʻtilgan. Shuningdek, hind bolalar folklorining til oʻrganish, tafakkur va ijodiy salohiyatni rivojlantirishdagi roli, zamonaviy media vositalaridagi aks ettirilishi misollar orqali ochib berilgan.

Kalit soʻzlar: hind bolalar folklori, tarbiya, axloqiy qadriyatlar, xalq ogʻzaki ijodi, qoʻshiqlar, she'rlar, tez aytishlar, madaniy meros, til oʻrganish, ijodiy fikrlash.

Har bir xalqning milliy madaniyati va ma'naviy qadriyatlari folklorida oʻz aksini topadi. Folklor , ayniqsa, bolalar tarbiyasida nafaqat koʻngilochar, balki ta'limiy va axloqiy rolni ham bajaradi. Hind bolalar folklori oʻzining boy mazmuni va turli xilligi bilan ajralib turadi. Axloqiy fazilatlarni bolalarda shakllantirishda samarali vosita hisoblanadi va xilma-xil janrlari – qoʻshiqlar, ertaklar, she'rlar, topishmoqlar, tez aytishlar va boshqa turlari bilan xalqning boy madaniyatini milliy qadriyatlari bilan bolalarga singdirishda katta oʻrin tutadi. Ushbu folklor elementlari bilan nafaqat axloqiy saboqlar balki bolalarga ijodiy fikrlash, tahlil qilish va ijtimoiy moslashuvchanlikni shakllantiriladi. Koʻplab olimlar hind madaniy merosini saqlash va oʻrganishda oʻz hissalarini qoʻshishmoqdalar. Masalan, Divik Ramesh, Usha Yadav, Suryakumar Pandey, Bano Sartaj, Ramesh Tailang va boshqalardir. Bu olimlar oʻz tadqiqot va ijodlari orqali hind bolalar folklorining rang-barangligini, tarbiyaviy ahamiyatini va xalq ogʻzaki ijodiyotida tutgan oʻrnini oʻrganish borasida muhim ishlarni amalga oshirmoqdalar. Masalan, Divik Ramesh oʻz tadqiqotlarida hind bolalar she'riyatining tarbiyaviy roliga e'tibor qaratgan boʻlsa, Usha Yadav xalq dostonlari va bolalar orasida mashhur boʻlgan qahramonlik hikoyalarini tahlil qilib, ularning axloqiy qadriyatlarni shakllantirishdagi ahamiyatini yoritadi. Suryakumar Pandey esa bolalar orasida ommalashgan ertaklar va ogʻzaki hikoyalar orqali hind jamiyatining tarixiy va madaniy xotirasini saqlashga hissa qoʻshmoqda. Bano Sartaj hind bolalar folkloridagi musiqiy elementlar va ularning rivojlanishdagi oʻrnini chuqur oʻrgansa, Ramesh Tailang bolalar folklorining til tarbiyasiga ta'sirini yoritishga katta e'tibor qaratgan. Hind bolalar folklori nafaqat madaniy merosning bir qismi, balki bolalarning tafakkurini, axloqiy qadriyatlarini va ijodiy qobiliyatlarini shakllantiruvchi muhim vositadir. Shu sababli, ushbu merosni oʻrganish va kelgusi avlodlarga yetkazish bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega boʻlib qolmoqda.

Folklorning ildizlari ming yillik tarixga ega. Xalq ogʻzaki ijodi orqali asrlar davomida avloddan-avlodga yetib kelgan. Xususan, she'rlar bolalarga ritmik his-tuygʻularni rivojlantirish bilan birga, ularning xotira va nutq qobiliyatlarini shakllantirishda muhim rol kasb etadi. Qoʻshiqlar esa bolalarga mehr-muhabbat, osoyishtalik, yaxshilik va koʻplab yaxshi xislatlarni, oilaviy qadriyatlarni singdirishda muhim vosita hisoblanadi. Tez aytishlar, bir tomondan, til oʻrganish va talaffuzni rivojlantirsa, ikkinchi tomondan, bolalarda e'tibor, tezkorlik va diqqatni oshirishda xizmat qiladi. Turli tillarga tarjima qilingan "पञ्चतन्त्र" hikoyalari, shuningdek, animatsion filmlar va raqamli platformalardagi kontentlar orqali bu madaniy meros butun dunyo bolalariga taqdim qilinmoqda. Qoʻshiqlar,

she’rlar va tez aytishlar esa til va nutq rivojlanishiga hissa qo‘shib, dunyo miqyosida bolalar ta’limining bir qismiga aylangan.

Qo‘shiqlar (बाल गीत) hind bolalar folklorida alohida o‘rin tutadi. Odatda qo‘shiqlar bolalarning xotira va tafakkurini rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Asosan, “बाल गीत” janrida bolalar uchun ko‘plab qiziqarli va mazmunli mavzular , jumladan, tabiat, do‘stlik, hayotiy saboqlar va ko‘plab boshqa mavzular aks ettiriladi. Har bir qo‘shiq o‘zining musiqiy ohangi, ritmi va mazmuni orqali bolalar ongiga ta’sir qiladi. Bolalarga nafaqat axloqiy, balki intellektual rivojlanishni ham qo‘llab quvvatlaydi. Masalan, tabiat mavzusidagi qo‘shiqlar bolalarga tabiatni sevish, asrash va uni himoya qilish zarurligini ko‘rsatadi. “मछली जल की रानी है” (Baliq suv malikasi) kabi qo‘shiqlar bolalarda ekologiyaga qiziqishni uyg‘otadi va ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo‘lishni tushuntiradi.

Qo‘shiq:	Tarjimasi:
मछली जल की रानी है,	Baliq suvning malikasi,
जीवन उसका पानी है।	Hayot uning manbai.
हाथ लगाओ तो डर जाएगी,	Uni ushlasang, qo‘rqib qochadi,
बाहर निकालो तो मर जाएगी।	Suvsiz qolsa, halok bo‘ladi.

Bundan tashqari, oilaga bag‘ishlangan qo‘shiqlar bolalarda oila a’zolariga hurmat va mehr-muhabbatni kuchaytiradi. Masalan, “चंदा मामा दूर के” (oy tog‘a uzoqda) qo‘shig‘i oilaviy qadriyatlarni bolalarga qiziqarli va bolalarcha uslubda o‘rgatadi. Ushbu qo‘shiq bolalar fantaziyasini rivojlantiradi va oilani qadrlashga undaydi:

Qo‘shiq:	Tarjimasi:
चंदा मामा दूर के,	Oy tog‘ajon uzoqda,
पुए पकाए पूर के।	Pua pishirar yog‘da.
आप खाए थाली में,	O‘zi yeydi likopda,
मुन्ने को दे प्याली में।	Bolaga tutar piyolada.

Shuningdek, mehr-oqibat mavzusidagi qo‘shiqlar bolalarni boshqalarga nisbatan mehribon va hamdard bo‘lishga o‘rgatadi. “लोरी” (beshik qo‘shiqlari) bu borada yorqin misoldir.

Qo‘shiq:	Tarjimasi:
धीरे से आ जा री निंदिया,	Sekin-sekin kelgin, shirin uyqu,
बिटिया के नैना में।	Qizalog‘imning ko‘zlariga.
चंदा भी सो जाए,	Oy ham uxlasin,
तारे भी सो जाए।	Yulduzlar ham.

She’rlar (कविता / शिशु गान) hind bolalar folklorining yana bir muhim tarkibiy qismi bo‘lib, bolalarning til o‘rganishi va nutq qobiliyatini oshirishga qaratilgan. S She’rlar, asosan, bolalarda insoniylik, mehr-muhabbat va rostgo‘ylik kabi fazilatlarni shakllantiradi. She’rlarni yodlash nafaqat xotira va diqqatni rivojlantiradi, balki ularning fikrlash jarayoniga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. She’rlarning mazmuni oddiy va bolalar uchun tushunarli bo‘lib, ular hayotiy

saboqlarni qiziqarli shaklda taqdim eta oladi. Do‘stlik mavzusidagi she’rlar bolalarga sodiqlik va o‘zaro yordam tuyg‘ularini o‘rgatadi. Masalan, “दोस्ती का रंग” she’rida do‘stlikning chuqur ma’nosi yoritib berilgan.

दोस्ती का रंग है गहरा	Do‘stlikning rangi mustahkam,
दिल से दिल को जोड़े।	U bog‘laydi qalblarni jam.
साथ निभाए हर मुश्किल में,	Qiyinchiliklarda qo‘llaydi birga,
दुनिया से न डरने वाले।	Dunyodan qo‘rqmaslar aslo.

Vatanparvarlik mavzusidagi she’rlar bolalarda o‘z vataniga bo‘lgan muhabbat va faxr tuyg‘usini uyg‘otadi. Ushbu she’rlar bolalarni vatanini sevishga va uni himoya qilishga chorlaydi. Misol uchun, “मेरा भारत महान” she’ri bolalarga Hindistonning ulug‘vorligini his etishga yordam beradi.

सच की राह पर चलो	Haq yo‘ldan yur,
झूठ से कभी मत डरो।	Yolg‘ondan qo‘rqma aslo.
सच्चाई में है शक्ति,	Haqlikda bordir kuch,
झूठ से नहीं है बंधती।	Yolg‘ondan bo‘lmas foyda.

Tez aytishlar (जुबानी कसौटी / जुबानी कसरत) folklorning eng qiziqarli va o‘yinomuz sifatlari bilan ajralib turadi. Tez aytishlarning talaffuzni yaxshilashda va bolalarda tezkor fikrlash qobiliyatini shakllantirishda roli katta. Tez aytishlar orqali talaffuz aniqligi 25% ga yaxshilanar ekan. Ushbu janr o‘ziga xos qiyinchilik darajasi bilan bolalarni qiziqtiradi va bolalar o‘rtasida o‘ziga xos raqobat muhitini yaratib beradi. Masalan, mashhur tez aytishlaridan biri “चंदू के चाचा” bolalar uchun juda zavqli mashqdir.

Misol: चंदू के चाचा ने चंदू की चाची को, चाँदनी रात में चाँदनी चूड़ियाँ पहनाई।

Tarjimasi: Chandu ning amakisi, Chandu ning xolasiga,

Oy nurli tunda, oy nurli bilakuzuklar taqdi.

Til o‘stirishda tez aytishlarning roli juda muhimdir. Tez aytishlar talaffuzni yaxshilashga va so‘z boyligini oshirishga ham xizmat qiladi. Ritmik shakldagi tez aytishlar bolalarga talaffuzni takrorlash orqali o‘z nutqini mustahkamlash imkoniyatini beradi. Masalan, “कच्चा पापड़, पक्का पापड़” kabi tez aytishlar bolalar o‘rtasida keng tarqalgan.

Misol: कच्चा पापड़, पक्का पापड़

Tarjimasi: Xom padad, pishgan padad

Ushbu mashqlar bolalarga nutq jarayonida so‘zlarni to‘g‘ri va aniq aytish ko‘nikmasini shakllantiradi. Tez aytishlar odatda murakkab tovushlar yoki so‘z birikmalariga ega bo‘lganligi sababli, bolalar ularni aytish orqali murakkab so‘zlarni talaffuz qilishni o‘rganadilar. Masalan, “खड़क सिंह के खड़कने से” kabi tez aytishlar bolalarni so‘zlar o‘rtasidagi farqlarni tushunishga o‘rgatadi.

Misol: खड़कती हैं खड़क सिंह के खड़कने से खिड़कियाँ,
खिड़कियों के खड़कने से खड़कता है खड़क सिंह।

Tarjimasi: Kharak Singning taqillashi bilan derazalar taqillaydi, Derazalarning taqillashi bilan Kharak Sing taqillaydi.

Hind bolalar folklori nafaqat qiziqarli oʻyin-kulgi vositasi, balki jamiyatning madaniy va ijtimoiy qadriyatlarini avloddan-avlodga yetkazuvchi muhim manbalardan biridir. Folklor orqali bolalar milliy qadriyatlarni oʻzlashtiradi, oʻz xalqining anʼanalarini chuqurroq anglaydi. Bu jarayon milliy oʻzlikni saqlash va rivojlantirish uchun asosiy vositalardan biridir. Hind bolalar folklori milliy madaniyatning asosi hisoblanib, xalqning boy tarixiy merosi va anʼanaviy qadriyatlarini saqlashga yordam beradi. Har bir qoʻshiq, sheʼr yoki tez aytish oʻzida xalqning tarixini, qadriyatlarini va maʼnaviy boyligini aks ettiradi. Folklor xalqning oʻziga xosligini va madaniy xilma-xilligini saqlash uchun ham zarurdir. Hindiston kabi koʻp millatli mamlakatda folklor milliy birlikni saqlashda hal qiluvchi rol oʻynaydi. Folklor orqali bolalar oʻz xalqining anʼanaviy bilimlari va qadriyatlarini oʻzlashtirib, milliy oʻzlikni anglay boshlaydi. Folklor bolalarga oʻz xalqining boy madaniyatini anglash va uni qadrlash imkonini yaratib beradi. Vatanparvarlik mavzusidagi qoʻshiqlar va sheʼrlar bolalarga vatanni sevish, uni himoya qilish va uning rivojiga hissa qoʻshishga daʼvat etadi. Shuningdek, folklor elementlari bolalarda madaniy farqlarga hurmatni oshiradi va turli madaniyatlar oʻrtasida muvozanatni shakllantiradi. Jamiyatda birlik, hamjihatlik va madaniy birdamlikni mustahkamlashda muhim vosita hisoblanadi. Hind bolalar folklori turli millat va elatlar oʻrtasida birlikni rivojlantirishga xizmat qiladi. Folklor nafaqat bolalarni, balki kattalarni ham jamiyatning umumiy qadriyatlari asosida birlashtiradi. Hind bolalar folklori orqali nafaqat milliy qadriyatlar va anʼanalar saqlanib qoladi, balki ular rivojlantirilib, kelgusi avlodlarga oʻrgatiladi. Ushbu jarayon Hindiston kabi koʻp millatli va madaniyatli jamiyatda madaniy xilma-xillikni asrash va ahil muhitni taʼminlashda asosiy vositalardan biri boʻlib xizmat qiladi. Hind bolalar folklorini zamonaviy taʼlim tizimida qoʻllash taʼlim jarayonini boyitish va bolalarga axloqiy qadriyatlarni singdirish uchun samarali vosita hamdir. Folklor orqali bolalar nafaqat milliy madaniyat bilan tanishadilar, balki ularning ijodiy va lingvistik rivojlanishiga ham yordam beriladi. Zamonaviy taʼlim tizimida folklorni qoʻllashning bir qancha usullari mavjud boʻlib, ular oʻquvchilarning qiziqishini oshirish va oʻzlashtirish koʻrsatkichlarini yaxshilashga xizmat qiladi. Folklorni zamonaviy taʼlimda qoʻllashning samarali usullaridan biri uni oʻquv dasturlariga integratsiya qilishdir. Masalan, bolalar uchun qoʻshiqlar, tez aytishlar va sheʼrlarni oʻyin tarzda dars jarayoniga kiritish orqali oʻquvchilarni faol ishtirok etishga undash mumkin. Folklor oʻzining qiziqarli tuzilishi bilan bolalarni taʼlim jarayoniga jalb qiladi. Shu bilan birga, bolalarga axloqiy qadriyatlar – halollik, mehribonlik, rostgoʻylik va birlik singari fazilatlarni oʻrgatish imkoniyatini beradi. Axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlarni oʻrgatishda folklor qimmatli resurs hisoblanadi. Masalan, doʻstlik, tabiatni sevish va vatanparvarlik kabi mavzularni aks ettiruvchi folklor elementlari bolalarda ijobiy xulq-atvor shakllantiradi. Oʻquv jarayonida bolalarga milliy sheʼrlarni oʻrgatish, ularni tez aytishlar orqali soʻz boyligini oshirish va qoʻshiqlar orqali ijtimoiy qadriyatlarni tushuntirish taʼlim jarayonini yanada boyitib beradi. Bundan tashqari, bolalarga oʻz milliy madaniyatini tushunish va qadrlashni oʻrgatish orqali ularning oʻzlikni anglashiga koʻmaklashadi. Folklorni bolalar hayotiga kiritish boʻyicha bir qancha amaliy fikrlar va tavsiyalar mavjud.

Birinchidan, folklor asosida ijodiy mashg‘ulotlar va musobaqalar tashkil qilish orqali bolalar o‘rtasida qiziqishni oshirish mumkin. Masalan, bolalar folklori asosida o‘yinlar va jamoaviy musobaqalar o‘tkazish nafaqat ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi, balki jamoaviy ish ko‘nikmalarini ham oshiradi. Ikkinchidan, zamonaviy texnologiyalar yordamida folklor elementlarini raqamlashtirish va bolalar uchun interaktiv o‘quv materiallarini yaratish ta’lim jarayonini yangi bosqichga olib chiqadi. Masalan, mobil ilovalar va animatsion videoroliklar orqali taqdim etish bolalarning qiziqishini oshiradi va ularni faol o‘rganishga chorlaydi.

Barchasini umumlashtirsak, Hind bolalar folklori zamonaviy ta’limda boy resurs sifatida xizmat qiladi. U bolalarda nafaqat axloqiy va tarbiyaviy qadriyatlarni shakllantirishda, balki ularning madaniy ongini rivojlantirishda ham beqiyos ahamiyatga ega. Ta’lim jarayoniga folklorni kiritish orqali o‘quvchilarning faolligi va o‘zlashtirish darajasini oshirish mumkin. Shu sababli, folklorni zamonaviy ta’lim tizimida faol qo‘llash va uni bolalarning kundalik hayotiga integratsiya qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Hind bolalar folklori bolalarning tarbiyasi va ma’naviy rivojlanishida o‘ta muhim rol o‘ynaydi. Bolalarning ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirish va milliy o‘zlikni anglashlariga yordam beradigan kuchli ta’limiy manbadir. Folklor o‘zining samimiy va qiziqarli ifoda shakllari bilan bolalarning dunyoqarashini kengaytirib, ularning mantiqiy tafakkurini rivojlantirishda xizmat qiladi. Mazkur mavzu zamonaviy ta’lim tizimida ham dolzarb hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar rivojlanayotgan bir davrda, folklor elementlarini saqlash va ularni yangi avlodga yetkazish vazifamizdir. Hind bolalar folklorini o‘quv dasturlariga integratsiya qilish orqali bolalarga milliy madaniyatni anglash va qadrlash hissini kuchaytirish mumkin. Folklor nafaqat madaniy boylikni saqlash vositasi, balki bolalarni hayotiy qadriyatlar bilan tanishtiruvchi samarali ta’limiy resursdir. Shuningdek, folklor bolalarda turli madaniyatlarga nisbatan hurmatni shakllantirish va jamiyatdagi birlik va birdamlikni mustahkamlashga chorlaydi. Hind bolalar folklori bolalarning ma’naviy rivojlanishiga beqiyos hissa qo‘shadi. Uning boy mazmuni va turli shakllari orqali bolalar hayotning muhim tamoyillarini o‘rganadilar va ijtimoiy jihatdan faol bo‘lishga tayyorlanadilar. Folklor bolalar xotirasini mustahkamlash, nutq boyligini oshirish, ijodiy fikrlashni rivojlantirish va ularni jamiyatga moslashuvchan qilib tarbiyalashda muhim vosita hisoblanadi. Kelajakda Hind bolalar folklorining ta’limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini yanada chuqurroq o‘rganish, uni zamonaviy texnologiyalar orqali yangi avlodga yetkazish va xalqaro maydonda targ‘ib qilish tadqiqotchilar oldida turgan muhim vazifalardan biridir. Bu nafaqat Hindiston madaniy merosini saqlashga, balki dunyo miqyosida bolalar tarbiyasida yangi yondashuvlarni shakllantirishga yordam beradi.

Xulosa qilib aytganda, Hind bolalar folklori nafaqat xalqning madaniy boyligini aks ettiradi, balki uning tarbiyaviy imkoniyatlari orqali bolalarning axloqiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Shu sababli, folklorni zamonaviy ta’lim tizimida faol qo‘llash va kelajak avlodlarga yetkazish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Dinçel, B. K. (2017). Analysis of Children’s Songs in Terms of Values.
2. Jumaboyev, M. (2004). Bolalar adabiyoti
3. Safarov, O., Jamilova, B., & Safarova, N. (2016). Bolalar adabiyoti va folklor
4. Jalilova Sh “Qadimgi Hind Xristomaniyasi”T.;2018
5. Muxibova U “Hind Folklori”T.;2023
6. https://uz.wikipedia.org/wiki/Bolalar_folklori
7. https://timesofindia.indiatimes.com/lifestyle/12-indian-tongue-twisters-thatll-twist-your-brain/articleshow/45079926.cms
8. https://ivypanda.com/tongue-twisters-hindi
9. https://www.rekhta.org/
10. https://youtu.be/UZm70FWF5TQ?si=8nUtCIAHLo1vRbUf
11. https://youtu.be/1922Yonyf5g?si=lMjOgwgp6GVOLw7W
12. https://youtu.be/caZ8_Xo55UQ?si=GYYBwHfjp6fzIPLo
13. https://uz.wikipedia.org/wiki/Panchatantra

TARIX, TARIXSHUNOSLIK, SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI

UMAVIYLAR DAVRIDA ARAB XALIFALIGIDA MONARXIYA BOSHQARUVINING O‘RNATILISHI: SABABLARI VA OQIBATLARI

Azamat FAYZULLAYEV
TDSHU, Tarix (yo‘nalishlar va faoliyat turlari bo‘yicha) mutaxassisligi 2-kurs magistranti
Ilmiy rahbar: t.f.n., dotsent Sh. Ikromov

Annotatsiya: Ushbu maqolada umaviylar sulolasi davrida Arab xalifaligida hukmdorni saylash prinsipidan voz kechib, Vizantiya namunasidek monarxiya boshqaruv usuliga o‘tish sabablari hamda uning xalifalik uchun nechog‘lik ahamiyat kasb etganligi yoritilgan. Maqolani yozishda B.Lyuis, T.Yu. Irmiyayeva, F.Donner, X.Kennedi, G.Houting kabi umaviylar davrini tadqiq etgan olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlaridan keng foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: xalifa, siyosiy boshqaruv, monarxiya, qo‘shin, dengiz floti, urug‘-qabilachilik tizimi.

Muoviya ibn Abu Sufyon xalifalik taxtiga kelganida juda og‘ir vaziyat yuzaga keldi. Imperiya boshqaruvi markazlashtirilmagan, unda tartibsizlik, ko‘chmanchilar anarxiyasining tiklanishi yuz berib, umumiy barqarorlikka keskin putur yetdi. Qadimgi davrlarda boshqaruvning tayanchi vazifasini o‘tagan umumiy diniy missiya hissi xalifa Usmonning o‘ldirilishi bilan tanazzulga yuz tutdi. 656-661-yillarda yuz bergan fuqarolar urushi, poytaxtning Madinadan Kufaga, so‘ngra Damashqqa ko‘chirilishi xalifalik boshqaruvidagi muammolarni kuchaytirib yubordi. Xalifa Muoviyaning bosh maqsadi mamlakat birligi uchun yangi asos topish edi. Shu maqsadda u xalifalikdagi umumiy nazariyani o‘zgartirishni boshladi. Hukmronlik davrida xalifa islom teokratiyasining arab monarxiyasiga asoslangan shaklini ishlab chiqdi va uni o‘ziga qarindosh yoki ittifoqchi bo‘lgan arab qabilalarining moddiy va harbiy yordami bilan mustahkamladi. Qo‘shin orasidagi tartib-intizomni tiklash va uning harbiy salohiyatini oshirish maqsadida Vizantiyaga qarshi yangi urushda xalifa o‘zini islomning yangi himoyachisi va uni yanada keng sarhadlarga yoyuvchi hukmdor sifatida namoyish qildi. Bu omil Muoviyani xalq va boshqaruv sohasidagi amaldorlar orasida obro‘-e’tibor qozonishiga, keyinchalik xalifa qabul qilgan muhim siyosiy qarorlarda uni qo‘llab-quvvatlashiga olib keldi. Qolaversa, markaziy hukumatga qarshi doimiy ichki separat guruhlarni bostirish uchun ham qo‘shinda ichki birlik zarur edi. Umaviylarning “Xulafoi roshidin” davridagi xalifaning saylanish tartibi hamda uning huquqlari cheklanganligini bekor qilishi davlatning asta-sekin monarxiya boshqaruv shakliga o‘tayotganidan dalolat bergan. Umaviylar poytaxtni Suriya mintaqasiga ko‘chirishdan asosiy maqsad, hali to‘liq tugatilmagan, biroq ancha zaiflashgan Vizantiya imperiyasiga qarshi harbiy yurishlarni osonroq tashkil etish, imperiyaga qarshi yuboriladigan qo‘shin yuradigan masofani qisqartirish edi. Vizantiya bilan chegara hududlarda harbiy

qal’alar va istehkomlar qurilishi esa arablarga xos bo‘lmay, balki bu yerlarda islom kelmasidan hukmron bo‘lgan yunonlar va g‘assoniylar (arab xristianlari sulolasi) an’anasini davom ettirish edi. Xalifa Muoviya qarorgohining Damashqda joylashuvi unga yangi madaniy va ma’muriy an’analar yaratish imkonini berdi. Xalifa chekka viloyatlarni nazorat qilishga qodir hukumatni va devon tizimini shakllantira boshladi. Muoviyaning oliy hokimiyati mohiyatan diniy bo‘lsa-da, amalda siyosiy-ma’muriy va dunyoviy ahamiyatga molik edi.[1]

Muoviya poytaxtni Damashqqa ko‘chirish orqali Afrika va Osiyoning qolgan qismlariga amalga oshiriladigan harbiy yurishlarni bevosita boshqarmoqchi ham bo‘lgan. Muoviya xalifa Abu Bakr davrida akasi Yazid ibn Abu Sufyon bilan birgalikda arablarning Shom fathida qatnashgan edi. 639-yilda Amvosda tarqalgan vabo oqibatida Yazid vafot etgach, Muoviya Shom voliysi etib tayinlangan. Muoviya voliylik davrida o‘zining ishonchi sarkardasi Abdulloh ibn Amir bilan Xuroson va Amudaryoning narigi tomonida yerlarga uyushtirilgan bosqinlarda ham qatnashgan. Jumladan, 651-652-yillarda arablarning Xurosonga harbiy yurishi mobaynida Sosoniylar Eronining sharqiy qismlari xalifalikka qo‘shib olingan, sosoniylar sulolasining oxirgi shohi Yazdigard ham taxtdan qulatilgan.[2]

Boshqaruvga kelsak, Umaviylar xalifaligi butunligicha Sosoniylar Eroni yoki Vizantiya davlatining vorisi emas edi. Garchi Muoviya davrida oldingi ma’muriy mexanizmlar va ularning ish tartibi buzilmagan bo‘lsa-da, dastlabki boshqaruv uslubi sodda tuzilishga ega edi. Bu narsa Banu Umayya hokimiyatining o‘tish davrida xalifalikdagi siyosiy jarayonlarni barqarorlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Muoviyaning keyingi maqsadi xalifalikni merosiy tarzda otadan bolaga o‘tkazishni amalga oshirish bo‘lgan. U bu maqsadiga harbiy kuch bilan emas, siyosiy muzokaralar va qarindosh-urug‘chilik vositasida erishdi. Xalifaning bundan ko‘zlagan maqsadi faqatgina Banu Umayyaning nufuzini oshirish va xalifalikda uning to‘liq hukmronligini o‘rnatish emas edi, balki xalifa Usmon vafotidan keyin taxtga da’vogar bo‘lgan Zubayr ibn Avvom va Tolha ibn Ubaydullohdek raqiblarning yana bo‘y ko‘rsatishiga imkon bermaslik bo‘lgan. Biroq xalifa Muoviya vafotidan so‘ng, marhum xalifa Alining tarafdorlari uning o‘g‘li imom Husaynni umaviylardan hokimiyatni tortib olishga undaganlar. Bu voqealar mamlakatda ikkinchi fitna yoxud fuqarolar urushining yangi to‘lqiniga olib kelgan.

Muoviya hukmronligi davrida imperiya barqaror ravishda kengayib bordi. Arablar Markaziy Osiyoda Hirot, Kobul va Buxoroni egallab oldilar. Shimoliy Afrikadan asta-sekin Atlantika okeani tomonga siljidilar. Vizantiya bilan urush tinimsiz davom etdi. Imperiyaning yarimorol va orollardan iborat ekanligi arablarga ilk marta flot tuzish va dengiz jangida g‘alaba qozonish imkoniyatini berdi (655-yilda Machtalar jangida vizantiyaliklar ustidan katta dengiz g‘alabasi).

---

[1] Льюис Б. Арабы в мировой истории. С доисламских времен до распада колониальной системы. – М: 2017. (Перевод на русский язык, ЗАО «Центрполиграф»). – С. 66-67.

[2] Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира. От Халифата до Блистательной Порты. – Пермь, 2000 г. С. 37.

Uning hukmronligi davridagi eng yirik harbiy voqea 670-yillarda Konstantinopolning qamalga olinishi boʻldi.[1] Garchi arablar shaharning janubidagi bir nuqtada turgʻun qolishga muvaffaq boʻlishsa-da, kampaniya muvaffaqiyatsizlikka uchradi va Muoviya vafotidan keyin toʻxtab qoldi. Vizantiyaliklar bilan urush Muoviya uchun ikkita maqsadga xizmat qildi: 1) xalifaning xristianlar bilan kurashda diniy obroʻ-eʼtiborini kuchaytirish; 2) Suriyadagi arab armiyasining jangovar shayligini oshirish va uni intizomli tuzilmaga aylantirish.

683-yilda uch yillik hukmronlikdan soʻng, Muoviyaning vorisi xalifa Yazid vafot etdi. Xalifalik oʻzining siyosiy tushkunlik va parokandalik bosqichiga kirdi. Arabiston yarimorolida Zubayr ibn Avvomning oʻgʻli Abdulloh ibn Zubayr xalifalikka daʼvo qila boshladi, lekin mumkin boʻlgan barcha imkoniyatlarni qoʻldan boy berdi. Umaviylar unga Makkani tark etishni va boshqa hudud joylashishni taklif qildilar, ammo u buni rad etishi bilan Arabistondagi Ibn Zubayr tarafdorlari va Suriyadagi umaviylarga sodiq kuchlar orasida urush boshlandi. 684-yilda Marj-Roxit muhorabasida gʻalaba qozongan Marvon ibn Hakam yangi xalifaga aylandi, biroq uning hukmronligi bir yilga ham choʻzilmay vafot etdi. Vafotidan oldin oʻgʻli Abdulmalikni taxt vorisi etib belgiladi. Abdulmalik ibn Marvon davrida (685-705) imperiyaning birligini va umaviylarning real hokimiyatini tiklash, Muoviyaning qulayotgan rejimi oʻrniga yangi davlat organlari tashkil etish ustuvor vazifalar etib belgilandi.[2]

Umaviylar boshqaruv tartibining asosiy ichki zaifligi arab qabilalarining orasida doimiy ichki ziddiyatlarning saqlanib qolganligi edi. Arab qabilalari ikkita asosiy guruhga: shimoliy va janubiy. Azaldan ularning yashash tarzi, urf-odatlari, madaniyati, eʼtiqodiy qarashlari oʻrtasida katta farq mavjud boʻlgan. Islomdan oldin ham turli qabilalar oʻrtasida urushlar boʻlib turgan, biroq ular siyosiy ahamiyatga molik boʻlmay, balki ijtimoiy masalalar (jumladan, xun olish) yoki yer-suvga egalik qilish uchun boʻlardi. Biroq xalifalik hududlari kengaya borgach, xalifalikda yashayotgan turli arab qabilalari ittifoqi oʻrtasidagi kurashlar siyosiy maydonga koʻchdi. Endilikda qabila yetakchilari oʻzlariga maʼqul boʻlgan shaxslarni qoʻllab-quvvatlab unga moddiy yordam bera boshladilar. Jumladan, Suriya sahrosida koʻchmanchi tarzda hayot kechiradigan va harbiy jihatdan qudratli boʻlgan Banu Kalb qabilasi umaviylarni qoʻllab-quvvatlagan. Abdulloh ibn Zubayr hokimiyatini istaganlar esa Banu Qays, Banu Sulaym va Banu Amir kabi qabilalar boʻlgan. Umaviylarning urushda koʻplab raqiblarini osonlikcha tormor keltirishiga asosiy sabablar quyidagilar edi:

1. Xalifa Umar davridayoq Suriyaga voliy etib tayinlangan Muoviya doimiy ravishda quruqlikdagi qoʻshin va dengiz flotini mustahkamlash choralarini koʻrgan. Bu asosiy omil Banu Umayyaning Suriyada butunlay

[1] Льюис Б. Арабы в мировой истории. С доисламских времен до распада колониальной системы. – М: 2017 (Перевод на русский язык, ЗАО «Центрполиграф»). – С. 68.
[2] Льюис Б. Арабы в мировой истории. С доисламских времен до распада колониальной системы. – М: 2017 (Перевод на русский язык, ЗАО «Центрполиграф»). – С. 70.

mustahkamlanishiga va uning Vizantiyadek xavfli raqibga qarshi tura olishiga imkon bergan;[1]

2. Umaviylar qo‘shiniga, asosan, urushlarda chiniqqan va katta tajriba orttirgan harbiy lashkaboshilar qo‘mondonlik qilgan (Marvon ibn Hakam, Amr ibn Os, Ubaydulloh ibn Ziyod va boshqalar);[2]

3. Umaviylar dushman qabilalar ichidagi ziddiyatlardan ustalik bilan foydalanishgan. Masalan, janubdagi yamanlik qabilalarning shimoldagi Banu Qays qabilasi bilan kelisha olmasligi umaviylarga jangda ularni tor-mor etishiga imkon bergan.[3]

Xulosa qilib aytganda, umaviylar davrida shakllangan monarxiya absolyutizm elementlarini o‘zida jamlagan bo‘lsa-da, biroq urug‘-qabilachilikka tayangan monarxiya edi. Xalifa mamlakatda diniy rahnamo sifatida ko‘rilsa-da, amalda uning hokimiyati siyosiy-ma’muriy ahamiyat kasb etardi. Umaviylar Vizantiya namunasida tashkil etgan devon tizimi, xalifalikdagi rasmiy yozishmalarda arab tilidan ko‘ra yunon tilining yetakchilik qilishi xalifa Abdulmalik ibn Marvon davrigacha davom etdi. Umaviylarning monarxiyani har jihatdan mustahkamlashiga 683-692-yillarda Arabiston yarimorolining Hijoz hududida yuz bergan Abdulloh ibn Zubayrning separatistik harakatlari, 685-687-yillarda Iroqning Kufa shahrida bo‘lib o‘tgan Muxtor Saqofiy harakati hamda Najdda yuz bergan xavorijlar isyoni ham sabab bo‘ldi.[4][5] Mamlakat ichidagi boshboshdoqlikka barham beradigan kuchli qo‘shinni tashkil etish ishlari Muoviya voliyligi davridayoq izchil tashkil etila boshlangan edi. Muoviyaning xalifalik davrida esa qo‘shin ichki dushmanlar isyonini bostirish va tashqi dushmanlarga qarshi kurashning asosiy vositasiga aylandi. Qolaversa, Damashq yaqinidagi sohilbo‘yi hududlarda bunyod etilgan ulkan dengiz floti ham Vizantiyadek azaliy raqibga dengiz hujumlari uyushtirish imkonini berdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Льюис Б. Арабы в мировой истории. С доисламских времен до распада колониальной системы. – М: 2017. (Перевод на русский язык, ЗАО «Центрполиграф»).

2. Ирмияева Т.Ю. История мусульманского мира. От Халифата до Блистательной Порты. – Пермь, 2000 г.

3. Очерки истории исламской цивилизации в 2-х тт. Под общ. ред. Ю. М. Кобищанова. — М.: РОССПЭН, 2008. Том 1. 538 с.

[1] Hawting, Gerald R. (2000). The First Dynasty of Islam: The Umayyad Caliphate AD 661–750 (Second ed.). London and New York: Routledge. P. 48-49.

[2] Kennedy, Hugh (2004). The Prophet and the Age of the Caliphates: The Islamic Near East from the 6th to the 11th Century (Second ed.). Harlow: Longman. P. 54.

[3] Kennedy, Hugh (2001). The Armies of the Caliphs: Military and Society in the Early Islamic State. London and New York: Routledge. P. 31.

[4] Очерки истории исламской цивилизации в 2-х тт. Под общ. ред. Ю. М. Кобищанова. — М.: РОССПЭН, 2008. Том 1. 538 с.

[5] Donner, Fred M. Muhammad and the Believers, at the Origins of Islam (англ.). — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2010. P. 185.

4. Hawting, Gerald R. (2000). The First Dynasty of Islam: The Umayyad Caliphate AD 661–750 (Second ed.). London and New York: Routledge.
5. Kennedy, Hugh (2004). The Prophet and the Age of the Caliphates: The Islamic Near East from the 6th to the 11th Century (Second ed.). Harlow: Longman.
6. Kennedy, Hugh (2001). The Armies of the Caliphs: Military and Society in the Early Islamic State. London and New York: Routledge. P. 31.
7. Donner, Fred M. Muhammad and the Believers, at the Origins of Islam (англ.). — Cambridge, MA: Harvard University Press, 2010. P. 185.

ISLOMGACHA BO‘LGAN DAVRDA TURKIYLARNING IJTIMOIY-SIYOSIY HAYOTIDA AYOLLARNING TUTGAN O‘RNI

Samira TO‘LAGANOVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
MOXT yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar:PhD B. Zokirov

Annotatsiya: Ushbu maqolada turkiy xalqlarda ayollarning jamiyat va davlat boshqaruvidagi o‘rni tahlil qilinadi. Muallif qadimgi turkiylarda ayollarga nisbatan hurmat, huquqiy va ijtimoiy erkinliklar yuqori bo‘lganini tarixiy manbalar asosida yoritadi. Xususan, Tangrichilik dini va turkiy e’tiqodlarda ayol olamning yaratilishiga turtki bo‘lgan muqaddas timsol sifatida qaralgan. Maqolada Turk xoqonligi davrida xotunlar davlat boshqaruvida muhim rol o‘ynaganlari misollar orqali isbotlanadi. Muallif ayollarning nafaqat hukmdor sulolalarida, balki jamiyatning boshqa qatlamlarida ham yuqori mavqega ega bo‘lganini ko‘rsatib, turkiy an’analarning bu boradagi adolatparvarlik tamoyillarini yoritadi.

Kalit so‘zlar: Oq ona Umay, Bilga xoqon, Kultegin, xotun, xunlar, Mete xoqon, Atilla, Prikos, Xotunkent, Ibn Battuta.

Insoniyat tarixining barcha davrlarida erkaklar bilan bir qatorda ayollarning ham o‘ziga xos vazifalari va jamiyatda roli mavjud edi. Ammo, ma’lum davrlarda shakllangan din, madaniyat hamda qadriyatlarga bog‘liq holda turfa kishilik jamoalarida bu masalaga turlicha munosabatda bo‘lishgan. Ba’zi hududlarda uzoq yillar davomida ayol jamiyat uchun arzimas deb qaralgan bir paytda turkiylarda ayollar har zamon ham ijtimoiy, ham siyosiy hayotda muhim rol o‘ynaganlar. Bu holat o‘sha davr turkiylarining diniy, madaniy va davlat boshqaruviga doir barcha manbalarida o‘z aksini topgan.

Islomgacha bo‘lgan davrlarda mintaqamizda hukmron bo‘lgan Turk xoqonligi davlat boshqaruvida va aholi orasida ayollarning ajralmas o‘rni mavjud edi. Ya’ni xoqonlikda xotin-qizlarga nisbatan o‘ziga xos hurmat saqlangan,ularga turli jabhalarda erkinliklar berilgan. Shuningdek, ayollar uchun alohida huquqiy tartib-qoidalar, to‘relar belgilangan. Bunday munosabat shakllanishiga bir qator sabablar mavjud bo‘lib,shulardan eng avvalo bu ommaning diniy e’tiqodi bilan

bog‘liq. Gap shundaki,tangrichilik dinida dunyoning yaratilishiga doir o‘ziga xos afsona mavjud. Unga ko‘ra,dunyo avval boshda faqat suvdan iborat edi. Kunlardan bir kuni Ko‘k Tangri bu holatdan zerikdi. Shu payt suv ostidan unga “Oq ona”[1] ko‘rindi. Ko‘k Tangri undan ilhom olgan holda dunyoni yaratdi.[2] Bu afsonadan ko‘rinib turibdiki, turklarning diniy qarshiga ko‘ra, ayol butun olamning yaratilishiga turtki bo‘lgan. Qolaversa, turkiylarda ayol butun jamiyatning birligi ramzi va baraka timsoli hisoblangan. Fikrimizni tangrichilikdagi Umay obrazi bilan dalillashimiz mumkin. Ba’zi manbalarda “Umay ona” deb ataluvchi ushbu iloha turkiylar dinida barcha narsalarga jon ato etuvchi, naslga, rizqqa qut beruvchi, ayollarning hamda go‘daklarning homiysi o‘laroq ko‘rilgan va uni ayol ko‘rinishida tasvirlashgan.[3] Quyida Bilga xoqon tilidan aytilgan bitiktoshning 31-satrida, hukmdor o‘z onasini Umayga o‘xshatgan va onasining otasidan so‘ng davlat ishlariga qarashganiga,xoqonlikning birligini saqlab qolganiga ishora qilib o‘tgan:

“Otam xoqon uchib ketgan(vafot etgan)ida kenja ukam Kul Tegin yetti yoshda qoldi… Umaydek bo‘lgan onam xotunning davlatiga (qutiga) ukam er nomini oldi”[4]

Turkiylarda ayollarga butun jamiyatning birligi, barakasining ramzi sifatida qarashganini, shu sabab, ular siyosiy hayotda ham o‘z o‘rinlariga ega bo‘lganliklarini yuqoridagi parchadan ham qisman anglashimiz mumkin. Qolaversa, e’tiborga molik yana bir jihat borki, bitiktoshda xoqon o‘z onasini “xotun” deb atamoqda. Demak, xoqonlikda sulola vakilalari bo‘lgan ayollar uchun alohida nom mavjud bo‘lgan ekan. ”Xotun” terminiga to‘xtaladigan bo‘lsak,u ba’zi manbalarga ko‘ra, so‘g‘dcha “xwatav” so‘zidan olingan bo‘lib, ”xwa”-o‘zi, “tav” esa kuch, quvvatli” degan ma’nolarni bildiradi[5]. Boshqa qarashga ko‘ra esa, bu so‘z eski turkiychadagi “katun” yoki “xatuna” kalimalarining biroz o‘zgargan shakli bo‘lib, har ikki holatda ham bu so‘z “qirolicha,malika” kabi ma’nolarini anglatadi. Xoqon bilan bir qatorda malikalar uchun ham maxsus unvon mavjudligining o‘zi xoqonlikda ayollarning o‘rni naqadar yuqori bo‘lganini ko‘rsata oladi. 734-yilda vafot etgan Bilga xoqon nomiga atab, 735-yilda uning o‘g‘li tarafidan qo‘yilgan O‘rxun bitiktoshlaridagi quyidagi jumlada ham xotunning davlat uchun muhim o‘rin tutganini ko‘rishimiz mumkin:

“Yuqorida Turk Tangrisi turk millati yo‘q bo‘lmasin deb, millat bo‘lsin deb otam Eltarish xoqonni, onam El Bilga Xotunni yuqoriga ko‘tardi”.[6]

---

[1] Oq ona-ba’zi adabiyotlarda Akina nomi bilan ham uchraydi.

[2] Okan Açil. İlk türk devletlerinde kadın algısı ve kadın hakları, Recep Tayyip Erdoğan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi (RTEÜ Journal of Social Sciences).-S.65

[3] Telliöğlu I. Islam öncesi türk toplumunda kadının konumu üzerine, A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi-Erzurum, 2016.-S.214

[4] Telliöğlu I. Islam öncesi türk toplumunda kadının konumu üzerine, A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi-Erzurum, 2016.-S.213

[5] https://www.etimolojiturkce.com/kelime/hatun

[6] Okan Açil. İlk türk devletlerinde kadın algısı ve kadın hakları, Recep Tayyip Erdoğan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi (RTEÜ Journal of Social Sciences).-S.69

Bu yerda Xotun xoqon bilan bir jumlada kelyapti va ikkisi ham Tangrining in'omini birgalikda olgani ishoralanyapti. Aslida ham,turkiylarning qarashlariga ko‘ra, xoqon va xotun Tangrining avlodi bo‘lib, ular ko‘kning yettinchi qavatidan joy oladilar. Shuningdek, xotunning xoqon bilan bir o‘rinda tilga olingani uning davlat masalalarida xoqon bilan bir xil huquqlarga ega bo‘lganini ham bildirishi mumkin. Masalan, Chochdan topilgan tangalarda biri o‘ng tomonga, boshqasi to‘g‘riga qarab turgan xoqon va xotunning tasvirlari uchraydi. Samarqand yaqinidagi taxminan VII asrga tegishli Kofirqal'adan topilgan tangalarning old tarafida xoqon va malikaning tasviri, orqa tarafida so‘g‘d yozuvida yozilgan "xotun" unvonini ko‘rishimiz mumkin. Bu kabi topilmalar Buxoro hamda Toxariston hududlaridan ham topilgan. Ushbu holat butun mamlakat miqyosida turkiy malikalarning o‘rni yuqori bo‘lganini tasdiqlaydi. Ayollarning davlat masalalarini hal qilishda qatnashish odatlarining ham tarixiy ildizlari mavjud. Xitoy manbalarida qayd etilishicha, mil. avv 201-yilda Xan imperatori shimoldagi raqibini yo‘q qilish maqsadida 320 minglik qo‘shin bilan Xun davlatiga yurish qiladi. Hukmdor Metexon soxta chekinish uyushtirib, chinlarni Pai-teng tog‘ida qurshovga oladi. Qamalda noiloj qolgan imperator xunlar bilan sulh tuzishga majbur bo‘ladi. Vositachilik qilish uchun esa Mete xoqonning ayoliga yashirincha hadyalar jo‘natadi. Xotun Mete xoqon bilan gaplashib: "Ikki hukmdor bir-biriga muammo chiqarmasligi kerak. Bugun Xan davlati yerlarini qo‘lga kiritsangiz ham, shanyular (xunlar) bu yerda abadiy hukmronlik qilolmaydilar"-, deydi va xoqonni sulhga ko‘ndiradi.[1] Yana bir misol o‘laroq, Turk xoqonligining yaqin tarixdagi qardoshlari bo‘lmish Atilla davlatini keltirishimiz mumkin. Vizantiyalik elchi Prikos Atillaning huzuriga borganida uni qirolicha Rekka qabul qilganini yozadi. Turkiylarning o‘ziga qaytadigan bo‘lsak,chin solnomalariga ko‘ra, xotun har qanday tadbirlarda xoqonning chap tarafidan joy olgan hamda unga davlat masalalarida yordam bergan. Xitoy manbalarida uyg‘ur xoqoni Pen-guanning onasi haqida shunday deyiladi:

"Onasi Vuloxun xotun maslahatchi edi. U da'volarga qarar, qonunni buzganlarga qattiq jazolar tayinlar, haqqoniylik yo‘li bilan adolatni ro‘yobga chiqarar edi"[2].

Bundan tashqari, Turk xoqonligida xotun rozi bo‘lmagan taqdirda ba'zi bir davlat masalalari ijrosiz qolgan. Xitoy manbasida qayd etilishicha, 623-yilda Turk xoqoni Il xoqon Xitoy imperatoriga elchi jo‘natib, o‘zini chin malikasi bilan nikohlashini so‘raydi. Chin hukmdori esa Mai shahrining qamalini to‘xtatish evaziga bunday sulhga rozi bo‘lishini bildiradi. Ammo, Il xoqonning ayoli Ichang xotun bunday sulhni ma'qullamaydi va Xitoy bilan kelishuv bekor qilinadi[3]. Turkiylar tarixida bunday misollarni juda ko‘p uchratishimiz mumkin. Qolaversa,

---

[1] Telliöğlu I.Islam öncesi türk toplumunda kadının konumu üzerine, A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi-Erzurum, 2016.-S.218

[2]Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк ҳоқонлигининг давлат тузуми / Ғ. Бобоёров; масъул муҳаррир М. Исҳоқов; ЎзРФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Тошкент: Yangi nashr, 2018. Б.327

[3] Okan Açil. İlk türk devletlerinde kadın algısı ve kadın hakları, Recep Tayyip Erdoğan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi (RTEÜ Journal of Social Sciences).-S.68

bir muddat G‘arbiy Turk Xoqonligi poytaxti vazifasini o‘tagan Jabg‘ukent yaqinida Xotunkent va Turk xoqonligi tasarrufida bo‘lgan boshqa hududlarda Xotun-baliq, Xotun-art, Xotun-sini, Xotun-suv kabi toponimlarning uchrashi ham ayollarning davlat uchun qanchalik yuqori mavqega ega bo‘lganini ko‘rsata oladi.

Yuqoridagi misollarga tayanib, bunday yuksak huquqlar faqatgina xoqon xonadoni vakilalarida bo‘lgan degan xulosaga kelish xato bo‘ladi. Turkiylarda har bir ayol-qizning o‘z huquqi mavjud edi. Bilga xoqonning o‘z xalqiga murojaatida shunday jumla bor:

“Sizlar mening onam, xolam, ammam, xotinim va qizlarim”[1].

Ya’ni jamiyatning har yoshdagi tabaqasi uchun turkiy odatlarga amal qilingan. Turklarda qizlar ot minish, qurol ishlatish, janglarda qatnashish imkoniyatiga ega edilar. To‘rega ko‘ra, har bir qiz faqat o‘zi xohlagan insoni bilan turmush qurishi mumkin va o‘z xohishi bilan ajralishi mumkin. Bunday holatda ularga hech kim qarshilik qila olmaydi. Ayollarning nomusiga tegish holati kuzatilganda, jinoyatchi yo o‘n baravar tovon to‘lagan yoki shu ayol bilan oila qurgan. Agarda tomonlar kelisholmasa, jinoyatchi o‘ldirilgan. Turkiy ayollarining huquqlarida boshqalarda bo‘lmagan merosga egalik qilish imkoniyati mavjud edi.Bu haqida xitoylik elchi Van Yen Tu o‘z asarida uyg‘ur ayollarining shaxsiy ot suruvlariga ega bo‘lganlarini yozadi.[2] Binobarin, turk ayollari turmush o‘rtog‘i vafot etgan taqdirda uning molidan 1/4 ba’zi hollarda 1/5 ulushga ega chiqqanlar. Marhumning qizlari bo‘lsa, ular otalarining mollaridan 1/10 qismini olishlari mumkin bo‘lgan. Agarda naslda erkak avlod bo‘lmasa, butun boshli mulkka qizlar egalik qilishi to‘relarda belgilab qo‘yilgan. Turkiy ayollarga bu qadar huquqlarning berilishi ularda hech qanday salbiy jihatlarni uyg‘otmagan Islom kelgandan so‘ng ham jamiyatda ayollarning huquqi cheklanmagan. Gardiziy turk ayollarini tariflar ekan: “Ma’lumki turk xotunlari juda iffatlidirlar”-, deydi. XIV asrda mintaqamizga tashrif buyurgan arab sayyohi Ibn Battuta o‘z xotiralarida turkiylar ayollarni juda qattiq e’zozlashlarini, ayollarning bozorlarda erkin yurganlarini hayrat bilan tasvirlaydi.[3]

Xulosa qilib aytganda, turkiylar o‘z davrida yuksak madaniyatga ega edilar. Ular jamiyatning har bir tabaqasi uchun adolatli tartib-qoidalar o‘rnatishgan. Bu masalada xoh boshqaruvda bo‘lsin, xoh kundalik turmush tarzida bo‘lsin barcha uchun bir xil munosabatda bo‘lishgan. Keyingi davrlarda turkiy ayollarning davlat hamda jamiyat masalasida faol ishtirok etishlari aynan qadimgi turkiy ajdodlaridan meros bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ahmet Gündüz-İbn Battuta Seyahatnamesi’nde Türk Kadını. International Social Sciences Studies Journal.

[1] Okan Açil. İlk türk devletlerinde kadın algısı ve kadın hakları, Recep Tayyip Erdoğan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi (RTEÜ Journal of Social Sciences).-S.69

[2]Acar H. Türk Kültür Ve Devlet Geleneğinde Kadın. İnsan ve İnsan 6/21 (Ağustos 2019).-S.399

[3] Ahmet Gündüz-İbn Battuta Seyahatnamesi’nde Türk Kadını. International Social Sciences Studies Journal.

https://sssjournal.com/files/sssjournal/0344a221-5175-497f-86e2-25a3e42cdd21.pdf

2. Acar H. Türk Kültür Ve Devlet Geleneğinde Kadın. İnsan ve İnsan 6/21 (Ağustos 2019), 395-411 https://dergipark. org. tr/tr/download/article-file/776180

3. Telliöğlu I. Islam öncesi türk toplumunda kadının konumu üzerine, A. Ü. Türkiyat Araştırmaları Enstitüsü Dergisi-Erzurum, 2016-B. 209-224 https://-dergipark. org. tr/tr/download/article-file/712902

4. Okan Açil. İlk türk devletlerinde kadın algısı ve kadın hakları, Recep Tayyip Erdoğan Üniversitesi Sosyal Bilimler Dergisi (RTEÜ Journal of Social Sciences) 3: 63-72 https://dergipark. org. tr/tr/download/article-file/606430

5. Бобоёров Ғ. Ғарбий Турк ҳоқонлигининг давлат тузуми / Ғ. Бобоёров; масъул муҳаррир М. Исҳоқов; ЎзРФА, Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик ин-ти. — Тошкент: Yangi nashr, 2018. — 356 б.

6. Ўрта Осиё битиклари – I. Суғдий ёзма ёдгорликлар / Ғ. Бобоёров, Б. Ғойибов, А. Кубатин; масъул муҳаррир А. Анарбоев. – Тошкент: 2020. – 168 б.

O‘RTA OSIYO XONLIKLARI VA USMONIYLAR O‘RTASIDAGI MUNOSABATLARNING TARIXIY AHAMIYATI

Mushtariybegim XOLMIRZAYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti,
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: (PhD) A.Fayzullayev

Annotatsiya: Usmonli imperiyasi va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar tarixiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo‘lib, bu aloqalarning o‘rganilishi mintaqa tarixini tushunishda muhim o‘rin tutadi. Biroq, ushbu aloqalar yetarlicha o‘rganilmagan va ko‘plab savollar ochiq qolmoqda. Ushbu maqola, Usmonli imperiyasi va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi munosabatlarning turli jihatlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, bu aloqalarning shakllanishi, rivojlanishi va oqibatlarini tahlil qilishni maqsad qiladi. Shuningdek, Usmonli imperiyasi va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarning tarixiy rivojlanishini tahlil qilish, asosiy bosqichlarini aniqlash va bu aloqalarning mintaqaviy ta’sirini o‘rganish ko‘zda tutiladi.

Kalit so‘zlar: Usmonlilar, Turkiston, Kuchukqaynarji, Vena qamali, Anqara jangi, Mahmud IV, O‘rta Osiyo, Ubaydullaxonning II, Dyun-u Ummiy, Ivan IV.

Usmonlilar davlati va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi munosabatlar, asosan Buxoro, Xiva va Qo‘qon xonliklari bilan bog‘liq bo‘lib, bu aloqalar yovuz sulton Salim davridan boshlangan. Diplomatik aloqalarning kech rivojlanishiga doir bir nechta omillar mavjud. O‘z navbatida bu omillar tarixiy va geografik faktorlarga tayanadi. Amir Temur 1402-yilda Anqara jangida Boyazid yildirimni mag‘lubiyatga uchratganidan so‘ng, Usmonli imperiyasida katta tartibsizliklar

boshlangan. Ushbu jangdan so‘ng, Anadolu turklari sharqdagi qarindoshlari ustidan hukmronlik qilishdan voz kechib, g‘arbga yo‘naldilar[1]. Kuruning ta’kidlashicha, bu jarayon usmonli hukmdorlarining Yevropaga qaratilgan harakatlariga psixologik va ijtimoiy jihatdan ta’sir qilgan bo‘lish ehtimoli mavjud. XVI asrgacha O‘rta Osiyodagi turk xalqlari usmonlilarni “chekka” va O‘rta Osiyoni esa “markaz” deb bilishardi. Shuning uchun ikki tomon bir-biriga nisbatan qiziqish va diplomatik munosabatlar o‘rnatmagan. Safaviylar davlatining (1501-1736) usmonli imperiyasi bilan 1514-yilda chaldiran jangida to‘qnashuvi, O‘rta Osiyodagi xonliklar bilan Usmonlilar o‘rtasida diplomatik yozishmalar boshlanishiga olib keldi. Safaviylar davlatining (1501-1736) Usmonli imperiyasi bilan 1514-yilda chaldiran jangida to‘qnashuvi, Orta Osiyodagi xonliklar bilan Usmonlilar o‘rtasida diplomatik yozishmalar boshlanishiga olib keldi. Bu voqealar, Usmonli davlatining sharqidagi shi’a e’tiqodining siyosiy kuchga aylanishi va yovuz sulton Salimning bu tahdidni bartaraf etish istagi bilan bog‘liq edi. Ushbu jangda Usmonli imperiyasining g‘alaba qozonishi, Safaviylar tomonidan tahdid qilingan Orta Osiyoda quvonch bilan kutib olindi. Yovuz sulton Salim 1517-yilda Misrni zabt etib, “xalifalik” maqomini qo‘lga kiritganidan so‘ng, Usmonli va O‘rta Osiyo xonliklari o‘rtasidagi aloqalar diniy nuqtai nazar jihatidan ancha yaxshilangan. Bu maqom orqali ikki tomon o‘rtasidagi aloqalar yanada mustahkamlandi. O‘rta Osiyo xonliklari, xususan, Ubaydullaxonning II 1707-yilda Ahmadga III ga yo‘llagan xatida xalifaga bo‘lgan diniy sadoqatini bildirganini ko‘rishimiz mumkin. Turkiston xonliklari, Usmonli taxtiga yangi podshoh chiqqan vaqtlarda Istanbulga sovg‘alar yuborgan va elchilar jo‘natgan bo‘lishiga qaramay Usmonli davlati Turkiston hududida aniq va barqaror siyosat olib borganini aytish qiyin.

Turkiston xonliklari o‘z madrasalarida sifatli ta’lim berish uchun Usmonli hukumatidan tez-tez darsliklar yuborishni so‘rashardi. Usmonli imperiyasi, odatda, bu so‘rovlarni qondirardi. Rossiya ekspansiyasi boshlanganidan so‘ng, Turkiston xonliklari Usmonli imperiyasidan Usmonli uslubidagi islohotlarni amalga oshirishda yordam berishni qat’iy talab qila boshladilar. Ular boshlang‘ich ta’lim, o‘rta ta’lim, huquq, artilleriya va muhandislik kabi yo‘nalishlarda maktablar ochish uchun o‘qituvchi va ma’murlarga muhtoj edilar. Biroq, Usmonli imperiyasi va Qo‘qon xonligi o‘rtasidagi ta’lim sohasidagi aloqalar boshqa sohalardagi kabi intensiv bo‘lmagan. Buni XIX asrda Turkistondagi umumiy vaziyat hamda Qo‘qon xonligining bu masalaga yetarli e’tibor bermaganligi bilan izohlash mumkin. Tomonlar o‘rtasidagi yozishmalar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Qo‘qon xonligi diniy ilmlarga qaraganda harbiy-texnik bilimlarga ko‘proq qiziqish bildirgan va tegishli bosma nashrlarni so‘ragan[2]. O‘quv materiallari va o‘qituvchilar yuborish so‘rovlaridan tashqari, Qo‘qon xonligi usmonli madrasalarida ta’lim olishni istagan qo‘qonlik talabalarning so‘rovlari bilan ham

[1] Necati İyikan.Orta Asya Güney Kafkasya siyasi gelişmeler: 1991-2010. Hiperlink Yayınları. 2011.s-264.

[2]Celalettin Yavuz, Cemalettin Taşkıran, Esma Özdaşlı, Fahri Türk, Mehmet Yüce, Muzaffer Ercan Yılmaz, Süleyman Kızıltoprak, Yelda Ongun. Geçmişten Günümüze Türkiye — Orta Asya İlişkileri.

Usmonli imperiyasiga murojaat qilgan. Shuningdek, usmonli madrasalarida o‘qituvchi yoki ma’mur sifatida ishlayotgan qo‘qonlik bitiruvchilarning tayinlanishi, ko‘tarilishi yoki vafot etishi sababli ularning o‘rniga boshqalarning tayinlanishi holatlari ham bo‘lgan. Biroq, “Ittihod va Taraqqiyot” partiyasining hokimiyatga kelishi bilan, davlatning Turkiston bilan bog‘liq siyosati o‘zgarishlarni boshdan kechirdi[1]. Shu davrda, Tal’at posho 1914-yil 16-fevralda Ahmad Kamol Ilkulni Qoshg‘arga yuborgan, Anvar posho esa Salim Shomiy Qushchiboshi boshchiligida bir guruhni g‘arbiy Turkistonga jo‘natgan. Biroq, Birinchi jahon urushidagi mag‘lubiyat Usmonli davlati va Turkiston o‘rtasidagi diplomatik aloqalarga salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Shunga qaramay, Turkiya va Turkiston o‘rtasidagi aloqalar, Turkiya mustaqillik kurashi davomida ham davom etdi. Ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik aloqalarga ta’sir ko‘rsatgan omillardan yana biri Rossiya imperiyasi edi. Rossiyaning Pyotr I davridan boshlab olib borgan kengayish siyosati natijasida, Birinchi Jahon urushini qo‘shib hisoblaganda, to‘qqizta katta jang bo‘lib o‘tdi. Bu holat, ayniqsa xavfsizlik masalasida, bu davlatning ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘n to‘qqizinchi asrda yuz bergan muhim voqealardan biri Qrim urushi, Usmonli davlatining qarzlarga botishiga olib kelib katta zararlarga sabab bo‘ldi. Bu esa oxir-oqibat 1881-yilda Dyun-u Ummiy (Umumiy boshqaruv Idorasining) tashkil etilishigacha borib, mamlakatni tashqi aralashuvlarga ochiq qoldirdi. Rossiyaning mavzuyimiz bilan aloqasi jihatidan, Ivan IV 1547-yilda “Podshoh” unvonini olishi bilan Rossiyaning davlat sifatida sahnaga chiqishi, O‘rta Osiyodagi siyosiy muvozanatni ham o‘zgartirdi. Tez orada kuchayib Qozon (1552) va Astraxonni (1556) egallab Turkistonga yaqinlashgan ruslarga, Usmonli imperiyasining eng qudratli hukmdorlaridan biri Qonuniy sulton Sulaymonning (1520-1566) to‘sqinlik qila olmasligi, Usmonli davlatining mintaqa siyosatiga aralasha olmasligiga yaqqol dalil bo‘ladi. Kuru fikriga ko‘ra, Usmonli davlatining Rossiyani “g‘arbiy xavf” sifatida ko‘rmasligi bu vaziyatda rol o‘ynashi mumkinligi aytiladi. Shuningdek, Qonuniy sulton Sulaymon davridan boshlab Usmonli davlatining geografik joylashuvi va tashqi siyosati nuqtai nazaridan Yevropaga yo‘nalishi, g‘arb bilan markazli siyosat olib borishi va bosqin harakatlarining ham shu tomonga qarab ketishiga sabab bo‘ldi. 1529 – yil sulton Sulaymon davridagi Birinchi Vena qamali va Mahmud IV davridagi Ikkinchi Vena qamali (1683) bu holatga yorqin misoldir. Buning tabiiy natijasi sifatida Kavkaz va O‘rta Osiyodagi turk-musulmon unsurlariga ustunlik berilmasligi va O‘rta Osiyo turklarining kutilgan rivojlanishga erisha olmasligidir. Bu o‘z navbatida Turkistonda ruslarning oldinga siljishini osonlashtirdi va “Imperatorlikning eng uzun asri” iborasi, Usmonli — O‘rta Osiyo va Usmonli — Rossiya munosabatlarida muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi. Usmonli davlatida e’lon qilingan “rasmiy dastur” e’lon qildi. Dastur g‘arbga taqlid qilishni rasman kuchaytirdi. Ammo, bu davrda ham Turkiston va uning aholisi Usmonli davlatining diqqat markazida bo‘lmadi. Rossiya bilan bo‘lib o‘tgan va Usmonli

[1] Abdulkadir MACİT. "Osmanlı Devleti ile Hokand Hanlığı Münasebetleri". ILEM Yıllık Yıl 4 Sayı. 2009.

uchun salbiy oqibatlarga olib kelgan urushlar ham mintaqada Usmonli ta’sirini susaytirdi. Bunga misol sifatida 1768-1774-yillarda bo‘lib o‘tgan Usmonli-Rossiya urushini keltirish mumkin[1]. Urushdan so‘ng “Inqirozlarning boshlanishi” deb baholangan 1774-yilgi Kuchukqaynarji shartnomasi bilan Rossiya Janubiy Kavkazgacha kirib keldi. Usmonli davlati nafaqat aholisi musulmonlar bo‘lgan Qrimni yo‘qotdi, balki Rossiyaga Qora dengizda harbiy va savdo kemalarini yuborish huquqini berib, muhim strategik imkoniyatdan ham mahrum bo‘ldi. Shartnomadan keyin Qrimning Rossiya tomonidan bosib olinishi Usmonli uchun rus xavfini yanada kuchaytirdi. Rossiyaning Turkistondagi kengayish siyosati davom etdi. Turkistondagi uchta xonlik (Qo‘qon, Buxoro, Xiva) o‘rtasidagi siyosiy raqobatning avvalgi asrlarga nisbatan kuchayishi Rossiyaga bu xonliklarni 1865, 1868 va 1873-yillarda ketma-ket bosib olishni osonlashtirdi.

Usmonli imperiyasi va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi diplomatik aloqalar mintaqadagi siyosiy vaziyatga sezilarli ta’sir ko‘rsatgan. Bu aloqalar nafaqat siyosiy, balki madaniy va diniy jihatdan ham muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Ushbu tadqiqot, Usmonli imperiyasi va Turkiston xonliklari o‘rtasidagi diplomatik aloqalarning turli jihatlarini tahlil qilishga qaratilgan bo‘lib, kelajakdagi tadqiqotlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Mintaqa tarixini yanada chuqur o‘rganish uchun ushbu aloqalarning siyosiy, iqtisodiy, madaniy va diniy jihatlarini batafsil tahlil qilish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Necati İyikan.Orta Asya Güney Kafkasya siyasi gelişmeler: 1991-2010. Hiperlink Yayınları. 2011.s-264.

2. Celalettin Yavuz, Cemalettin Taşkıran, Esma Özdaşlı, Fahri Türk, Mehmet Yüce, Muzaffer Ercan Yılmaz, Süleyman Kızıltoprak, Yelda Ongun. Geçmişten Günümüze Türkiye — Orta Asya İlişkileri.

3. Abdulkadir MACİT. “Osmanlı Devleti ile Hokand Hanlığı Münasebetleri”. ILEM Yıllık Yıl 4 Sayı. 2009.

4. Doç. Dr. Ali Merthan Dündar. “Japonya’nın Bilinmeyen Asya Politikası (1868-1939)”. Hacettepe Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 2010 Bahar (12).

[1] Doç. Dr. Ali Merthan Dündar. “Japonya’nın Bilinmeyen Asya Politikası (1868-1939)”. Hacettepe Üniversitesi Türkiyat Araştırmaları Dergisi, 2010 Bahar (12).

TOSHKENT SHAHRI DARVOZALARI

Marjona O‘RALOVA
TDSHU, Tarix (Sharq mamlakatlari va mintaqalari bo‘yicha)
yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchisi, PhD B. Zokirov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Toshkent shahar darvozalarining shakllanish tarixi, nomlanishi hamda shaharning ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tutgan o‘rni yoritilgan. Bizga ma’lumki, o‘rta asr shaharlarining darvozalari ijtimoiy hayotda muhim ahamiyat kasb etib, faqatgina shaharga kirish va chiqish funksiyasini bajarmay, savdo-iqtisodiy va siyosiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etgan. Shuning uchun shahar darvozalarining xavfsizligi, uning atrofidagi hududni nazorat qilish davlat miqyosidagi muhim faoliyatlardan biri edi. Maqola, tegishli davrga oid ilmiy adabiyotlar va manbalar tahlili orqali, shahar darvozalarining ijtimoiy-siyosiy nufuzini turli davrlari kesimidagi o‘ziga xosligini ochib berishni ham nazarda tutadi.

Kalit so‘zlari: shahriston, rabod, darvoza, A. K. Geyns, “Tarixi jadidayi Toshkand”, Xofiz Tanish Buxoriy, 12 ta darvoza, Istaxriy, Peterburg.

Toshkent qulay geografik joyda – Tyan-Shan tog‘lari tomonidan Buyuk Ipak Yo‘li bo‘ylab keladigan savdo karvonlari yo‘lida joylashgan.Ko‘pchilik o‘rta asr shaharlaridagidek, Toshkent shahri devorining ham turli tomonlariga darvozalar o‘rnatilgan.Shahar hududining kengayishi bilan shahar devori ham, u bo‘ylab o‘rnatilgan darvozalarning o‘rni va nomlari ham o‘zgarib turgan.Darvozalar shaharlarni tashqi dushman hujumidan himoya qilgan va ularga to‘g‘ridan-to‘g‘ri hujum qilishni ancha qiyinlashtiradigan mexanizmlariga ega edi. An’anaga ko‘ra, shahar darvozalari devor bilan o‘ralgan. Bundan tashqari shahar darvozalari bir qator funksiyalarni; mudofaa xavfsizlik, savdo yo‘llari va boshqa vazifalarni bajargan.

Shahar ilk bora IX asrda yagona mudofaa devori bilan o‘rab olinib, mustahkam istehkomga aylangan.Xususan, X asr arab muarrixi Istaxriyning yozishicha, shahar shahristoni (qal’asi)ni 3 ta darvozasi (Abul Abbos, Qasr, Gunbaz), ichki rabotning 10 ta darvozasi (*Xamdon, Oxanin, Mir, Farqon, Qad, Karmanj, Quyi Sahl, Rashidijak, Quyi Xoqon, Qashqi dehqon*) va tashqi rabotning 7 ta darvozasi (*Fargad, Xashkad, Sandijak, Oxanin, Bakridijak Sakrak, Bafaryad*) borligi haqida yozgan[1].

Muhammad Solihning XIV asr oxiri-XV asr boshlarida Toshkent shahri darvozalari haqida keltirgan ma’lumotlarida, Istaxriy ko‘rsatgan darvozalarning birortasi ham qayd etilmagan. Xususan, “Tarixi jadidayi Toshkand” asarida qayd etilishicha, XIV asr oxiri — XV asr boshlarida Toshkentning 12 ta darvozasi

[1]Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг “Тарихи жадидайи Тошканд” асари. – Тошкент: O‘zbekiston, 2009. – Б. 56.



mavjud edi. Ushbu darvozalarning har biri ma’lum bir qabila vakillariga topshirilganligi uchun shu qabilalar nomlari bilan atalgan[1].Ushbu darvozalarning nomlari: *1. Qiyot darvozasi-qiyot qabilasi nomidan, qadimda Parkent darvozasi, keyinchalik Qo‘qon darvozasi deb atalgan; 2. Turklar darvozasi-turk qabilasi nomidan.; 3. O‘zbek darvozasi-o‘zbek qabilasi nomidan.; 4. Taxtapul darvozasi.; 5. Qorasaroy [2]darvozasi-qorasaroy qabilasi nomidan.; 6.Chig‘atoy darvozasi-Chingizxon avlodidan bo‘lmish Chig‘atoy ulusi nomidan.; 7. Suboniyon (Sag‘bon) darvozasi; 8. Ko‘kcha darvozasi- bu ham qabila nomidan; 9. Kamondoron darvozasi-kamondoronlar buzuq qabilasidan bir toifaga mansub; 10. Qang‘li darvozasi-bir qabilaning nomidan; 11. Beshog‘och darvozasi-bu ham qabila nomidan.; 12. Qatag‘an darvozasi-qatag‘on* qabilasi nomidan olingan edi.

Darvozalarning ko‘proq urug‘-qabila nomlari bilan atalishi shahardagi etno-ijtimoiy jarayonlarga bog‘liq bo‘lib, hukmdorlar tomonidan shahar darvozlarini muhofaza qilish ma’lum bir qabilalarga topshirilganligi bilan izohlash mumki. Xususan, Amir Temur va shayboniy Abdullaxon II[3] davrida Toshkent shahar darvozalarni muhofaza qilish urug‘-qabilalarga topshirilgan[4]. Jumladan, Beshyog‘och shayxim toifasiga, Ko‘kcha qo‘ng‘irot va o‘rta yuz jamoasiga, Sebzor chinish bo‘limiga, Shayxontohur sergili, eli va uchoqli toifasiga berilgan.

XVIII asr oxirida Toshkentni o‘z qo‘l ostida birlashtirgan Yunusxo‘ja ham dastlab raqiblariga qarshi kurashda sanchiqli (yoki sanjiqli), qirq, qiyot, turk, qang‘li urug‘lari bilan bitim tuzib, ularning yordamidan foydalangan va Toshkentni birlashtirgach, ularga shahar tevaragidan yerlar bergan. Yunusxo‘ja bilan bitim tuzgan urug‘larning aksariyati uning muridiga aylanib, to‘p-to‘p bo‘lib

[1] Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг... – Б. 58.
[2] Султонов Ў. “Тарихи жадидайи Тошканд” асарида Тошкент дарвозалари ҳақида маълумотлар., Тошкент, 2006. Б. 70-77
[3] Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. 2-жилд. Т.: Шарқ, 2000.., 59-бет.
[4] Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг... – Б. 59

shahar ichiga koʻchib oʻta boshlagan[1]. Shahar darvozalari har doim ham 12 ta boʻlavermagan. Vaqti vaqti bilan u yoki bu darvoza zarur deb, topilmaganda vaqtincha berkitilib tashlangan. Shu sababdan boʻlsa kerak shahar darvozalarining soni turli davrlarda yozilgan manbalarda turlicha koʻrsatilgan. Xususan, XVIII asrda shaharga tashrif buyurgan rus sayyohi K.Miller asarida 8 ta, M. Pospelovda 6 ta, F.Nazarovning asarida esa da 12 ta darvoza nomi qayd etilgan[2]. K.Miller yuqoridagilarga qoʻshimcha ravishda, darvozalarning nomini va ular shaharning qaysi tomonida joylashganini aytib oʻtadi. Unga koʻra, Samarqand darvoza -janubi-gʻarbda, Beshogʻoch va Tersariq darvozalari — janubda, Shayxontahur darvozasi-sharqda, Tarsaxon darvozasi — shimoliy-gʻarbda, Kapkan (Qopqa) darvozasi — shimolda, Tochki (Koʻkcha) darvozasi-gʻarbda, Taxtakus (Taxtapul) darvozasi – shaharning shimoliy qismida joylashgan.

Shahar devori oxirgi bor XIX asr birinchi choragida Lashkar beklarbegi hokimligi davrida qayta tiklanganida unga 12 ta darvoza qurilgan. Bu darvozalardan toʻrttasi — Labzak, Oqqoʻrgʻon, Qoʻqon, Qoʻymas sharq tomondan shaharga keyinchalik qoʻshib olingan qismdagi devorda qurilgan edi. Muhammad Solih oʻz davri uchun darvozalar roʻyxatini bermagan. Lekin kitobning XIX asr ikkinchi yarmi voqealari bayon etilgan qismida har joyda quyidagi darvoza nomlari uchraydi: *Beshogʻoch (Qangʻli), Xiyobon, Samarqand, Koʻkcha, Chigʻatoy, Sagʻbon, Qorasaroy, Teshik — qofqa (Darvishak — qofqa), Taxtapul, Oʻzbek (Labzak), Oqqoʻrgʻon (Turk, Xitoy), Qoʻqon (Parkent, Qiyot), Qoʻymas (Qirilmos),* Eski Sherdor darvozasi[3]. (bu nomlar orasida bir darvozaning har xil atalishi yoki ma’lum bir davrdagina mavjud boʻlib, sinf oʻzgarib ketgan). Xuddi ana shu davr uchun A.K. Geyns (A.K Geyns (1834-1892) Estoniya zodagonlaridan Rossiya general-leytinanti Turkistonga yurishda qatnashgan), shahar darvozalarining toʻla roʻyxatini toʻrt daha boʻyicha ajratib yozgan: 1. Labzak, Taxtapul, Qorasaroy; 2. Sagʻbon, Chigʻatoy, Koʻkcha; 3. Samarqand, Kamolon, Beshogʻoch; 4. Qoʻymas, Qoʻqon, Qashqar. N. A. Maev (1876) ham A. K. Geyns[4] roʻyxatidagi darvozalardan 11 tasini sanab oʻtgan, faqat Chigʻatoy darvozasini aytmagan, xolos. Lekin bitta darvozani “Koʻchi – mazar” deb atagan. Bu Koʻkcha darvozasi boʻlishi kerak. A.K.Geyns sanab oʻtgan darvozalardan Taxtapul, Qorasaroy, Sagʻbon, Chigʻatoy, Koʻkcha, Samarqand, Beshogʻoch, Qoʻqon darvozalari Muhammad Solih tomonidan ham qayd etilgan. Ma’lumki shahar maydoni ilgari ancha kichkina boʻlgan. Keyinchalik shahar kengaya borib, uning devorlariga yangi darvozalar oʻrnatilganda, ulardan ba’zi birlariga eski darvozalarning nomlari qoʻyilgan degan xulosa chiqadi.

“Tarixi jadidayi Toshkand”da Rossiya imperiyasi istilosi voqealari bayoni chogʻida Qoʻqon, Xiyobon, Qirilmos, Beshogʻoch va Koʻkcha darvozalari eng koʻp tilga olingan. Muhammad Solih yozishicha, Xiyobon va Qirilmos

[1]Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Мухаммад Солиҳ...- Б. 20.
[2] Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг... – Б. 59
[3] Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Мухаммад Солиҳ...- Б. 21.
[4] Гейнс А. К. Собрание литературных трудов, т. II, СП 1898; б 42.

darvozasidan istilochilarning piyoda askarlari, Ko‘kcha darvozasidan esa otliq askarlari bostirib kirgan. XIX asrning ikkinchi yarmida shahar devori va darvozalari birin-ketin buzila borib, tez orada ularning izlarini ham topish mushkul bo‘lib qolgan. Sababi bir tomondan shahar hududining kengayib borishida bo‘lsa, ikkinchidan bu devor va darvozalarni saqlashga ham ehtiyoj qolmaganligida, hamda Rossiya imperiyasining Turkistonga bostirib kirishi, butun Turkistonning qo‘lga olinishi edi. Natijada, ular o‘z holicha tashlab qo‘yildi. Masalan, XX asr boshlaridagi shahar devori va darvozalari haqida rus tarixchisi[1] A.I Dobrosmislov shunday yozadi: “Eski Toshkentning devor va darvozalarining ko‘p qismi nurab bo‘lgan, qolganlari ham buzilib tamom bo‘lmoqda”. Biroq darvozalar tamom bo‘lgani bilan ularning nomlari shaharning shu darvozalar joylashgan qismlari nomiga aylanib, uzoq vaqt saqlanib qolmoqda. Bunga Beshog‘och, Kamolon, Samarqand darvoza, Ko‘kcha, Chig‘atoy darvoza, Sag‘bon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak kabi nomlarni ko‘rsatish mumkin.

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, XIX asrning 70-90-yillarida shahar hududining kengayishi va Toshkent darvozalariga ehtiyoj bo‘lmagani sababli ular buzib tashlangan. Hozirda Toshkent darvozalari joylashgan yerlarni aniqlash va ramziy darvozalar o‘rnatish bo‘yicha muayyan ishlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda bironta darvoza saqlanib qolmagan. Lekin Samarqand, Qo‘qon kabi darvoza nomlari saqlanib qolgan. Prezident qarori bilan 2021-yilgi davlat dasturiga fuqarolar taklifi bilan Toshkentning qadimiy 12 ta darvozasi qayta tiklash va turizm maskaniga aylantirish bo‘yicha alohida band kiritildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Муҳаммад Юсуф мунший. Тарихи Муқимхоний. ЎзР ФА ШИ қўлёзмаси, № 3784.

2. Султонов Ў. Муҳаммад Солиҳхўжа ва унинг «Тарихи жадидайи Тошканд» асари. –Тошкент: O‘zbekiston, 2009. – 270 б.

3. Ўринбоев А., Бўриев О. Тошкент Мухаммад Солиҳ тавсифида. – Тошкент: Фан, 1983. –55 б.

4. Муҳаммад Солиҳхўжа. Тарихи Жадидайи Тошканд. ЎзРФАШИ, №7791-1040 варақ.

5. Ҳофиз Таниш Бухорий. Абдулланома. 2-жилд. –Тошкент: Шарқ, 2000. – 416 б.

6. Маллицкия Н.Г. Протоколь засъданий и сообщения членовъ туркестанскаго кружка любителей археологии. – Ташкентъ, 1897-1898. – 165 с.

7. Назаров Ф. Записки о некоторых народах и землях средней части Азии. //под ред. В.А. Рамодин и В.А. Уралова. –М.: Наука, 1968. –С. 79..

8. Гейнсъ А.К. Собраніе литературныхъ трудовъ. –Санкт-Петербургъ, 1898 –525 с.

[1] Добросмыслов А. И. Ташкент в прошлом..., с. 21; Соколов Ю. А. Ташкент, ташкентцы...с. 20

ESKI TERMIZ BUDDAVIYLIK MANZILGOHLARI: FAYOZTEPA VA QORATEPA

Parvina KAZAKBOYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Katta oʻqituvchi I.Xudaynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Surxondaryo viloyatining qadimiy buddaviylik manzilgohlari Fayoztepa va Qoratepa manzilgohlari xususida toʻxtalib oʻtilgan. Shuningdek maqolada, bu qadamjolarning kelib chiqishi, uni tadqiq etgan olimlar, tarixiy yodgorlikka aylanishi, keyingi rivojida oʻsha davr tarixiy jarayonlari aks etgan. Mazkur buddaviylik manzilgohlari oʻtmish toʻgʻrisida ilmiy qarashlarni yanada boyitishga xizmat qiladi. Bu manzilgohlarni oʻrganish oʻtmishimiz uchun qanchalik muhim ahamiyat kasb etishi toʻgʻrisida ham toʻxtalib oʻtilgan.

Kalit soʻzlar: Surxon vohasi, Eski Termiz, Fayoztepa, Qoratepa, buddaviylik, ibodatxona, vixara, Asad Beknayev, Albaum, Kanishka, Vasudeva, triada.

Oʻzbekistonning janubiy hududi hisoblangan Surxondaryo viloyati nafaqat Markaziy Osiyo, balki Sharqning qadimgi madaniyat markazlaridan biri hisoblanadi. Qadimgi Buyuk Ipak yoʻlida joylashgan Surxon vohasi zardushtiylik, buddaviylik, xristianlik va moniylik kabi turli dinlarning shakllanishi, taraqqiy etishiga asos solgan. Surxon vohasidagi muqaddas ziyoratgohlarni oʻrganish va ularni ilmiy tahlil etishda uni yuzaga keltirgan ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy voqeliklar alohida ahamiyat kasb etadi. Sopollitepa, Jarqoʻton, Ayritom, Termiz, Dalvarzintepa, Xolchayon, Fayoztepa va Qoratepa kabi qadimiy arxeologik yodgorlik hududi oʻziga xos muqaddas diniy obidalar, ziyoratgohlar kabi tarixiy-arxeologik kompleksni tashkil etadi[1]. Shu oʻrinda Fayoztepa va Qoratepa nafaqat Surxon vohasi Markaziy Osiyoning ham buddaviylik dinining eng qadimgi manzilgohlaridan hisoblanadi.

Fayoztepa – Termiz shahri yaqinidagi Eski Termiz shahar xarobalarining shimoli-gʻarbida, Qoratepa buddaviylik inshootlari majmuidan 1 km shimoli-sharqda, Termiz tumanining Muhammad Hakim Termiziy mahallasida joylashgan. Milodiy I-III asrlarga oid budda monastir ibodatxona majmuasi (vixara) topilgan. Fayoztepaning ochilishi 1968-yil bahorida Asad Beknayev tomonidan mergeliy ohak toshidan ishlangan budda sanamining koʻchma qum ustida topib, Termiz oʻlkashunoslik muzeyiga topshirishidan boshlangan. Yodgorlik1968-1976-yillarda arxeolog L.I. Albaum tomonidan oʻrganildi[2].

[1] Массон В.М. Культурогенез Древней Центральной Азии. – СПб. Изд-во СПбГУ. 2006. – С. 184.
[2] Альбаум Л.И. Раскопки буддийского комплекса Фаязтепа// Древняя Бактрия. – Л. 1974. – С. 34.

Fayoztepa maydoni ko‘chma qumlar uyumidan tozalangach, uning me’moriy tarixi ochilib, yuz qismdan iborat monumental inshoot, ya’ni markaziy qismida – ibodatxona, uning shimoliy-g‘arbida monastir, janubi-sharqida esa xo‘jalik qurilish inshootlaridan iboratligi aniqlangan.

Majmuaning umumiy maydoni 1,5 ming kv. m ga yaqin. Ibodatxona tarkibining asosiy qismlaridan biri – stupa bo‘lib, u boshqa ibodatxonalardan farqli o‘laroq, ibodatxona hovlisining markazida emas, balki uning tashqarisida, muqaddas sajdagoh bilan bir parallel chiziqda joylashgan. Ular o‘zaro hovli maydonini kesib o‘tgan g‘isht va mergeliy toshi to‘shalgan yo‘lakcha bilan bog‘langan. Ibodatxonaning muqaddas sajdagohida Budda haykali Bodxisatva joylashgan, sajdagoh devorlari rang-barang devoriy sur’atlar bilan bezatilgan. Devorlar osti bo‘ylab o‘z vaqtida balandligi 4 metr bo‘lgan budda haykallari qo‘yilgan. Ko‘pchilik haykallar qizil rang bilan bo‘yalgan, so‘ng ustidan oltin suvi yurgizilgan. Sajdagoh janubiy devorida qizil kiyimda Budda tasviri saqlangan. Uning 2 tomonidan yelkalariga yelkapo‘sh tashlagan uzun kiyimdagi 2 odam rasmi tushirilgan. Ulardan biri Buddaga qarab sajda qilmoqda. Sajdagohning sharqiy devorida ham qandaydir devoriy rasmlar izi ko‘rinadi. Xonadagi suvoq parchalarida har xil odamlarning rasmlari uchraydi. 60x80 smli bir suvoq parchasida Buddaga yuzlangan 2 ta erkakning rasmi topilgan.[1]

Har 2 shakl qiyofasiga ko‘ra, baqtriyalik Budda ixlosmandlari bo‘lib, ularning Buddaga sajda qilish holati tasvirlangan. Ushbu xonada ganchkori haykal bo‘laklari ko‘plab uchraydi. Hatto xonaning sharqiy devori ostida haykallar uchun pishiq g‘ishtdan maxsus tagkursi qurilgan, uning usti esa mergeliy tosh parchalari bilan silliq qilib qoplangan. Haykallarning ko‘pchiligi esa somon qo‘shilgan loydan yasalib, ularning sirtiga ganch qoplama berilgan.

Haykallarning boshi maxsus qolipda quyilgan. Qo‘l va oyoqlari alohida yasalib, so‘ng ular haykal tanasiga yopishtirilgan. Fayoztepa haykallari orasida ganchdan ishlangan Buddaning bosh qismi diqqatni o‘ziga tortadi. Uning tutamlangan qopqora sochlari, fusunkor chehrasi unga go‘zallik bag‘ishlaydi. Buddani bunday ishlanishi kushonlar davri yodgorligida birinchi bor uchrashi edi. Ushbu muqaddas sajdagoh eshigi qarshisida yaxlit mergeliy toshidan yasalgan noyob san’at asari – triada topilgan. Triada markazida ipak mantiyaga o‘ralgan Budda arka va muqaddas bodxa daraxti shoxlari ostida o‘tiribdi, 2 yonida tik turgan rohiblar esa unga iltijo qilib turgan holatda tasvirlangan. Sajdagohdan 2 ta Kanishka va bitta Vasudeva tangalari topilgan[2].

Ibodatxona hovlisining shimoliy-g‘arbiy qismida, mergeliy tosh parchalaridan trapetsiya shaklida qurilgan hovuzcha bo‘lib, uning tomonini pastki qismida suv oqizishga mo‘ljallanib, teshikcha yasalgan. Teshikcha jag‘lari keng ochilgan sher boshi qiyofasida ishlangan. Bunday hovuzlarda toza suv saqlangan. Sher kushonlar davri san’atida Buddaning kuch va qudrat timsoli sifatida o‘z aksini topgan. Diniy majmuaning 2 qismi – monastir bo‘lib, u ibodatxona bilan

[1] Альбаум Л.И. Исследование Фаязтепа в 1973 г. // Бактрийские древности. – Л. 1976. – С.17.

[2] Аскаров А. История материалной культуры Узбекистана. – Т. Фан. 1969. – С.62.

hovli g‘arbiy devoridan ochilgan eshik orqali bog‘langan. Monastir maydonida joylashgan xonalarda rohiblar va monastir talabalari istiqomat qilishgan, monastirda o‘quv xonalari va zallari, ziyoratchilar to‘xtab o‘tadigan yotoqxonalar joylashgan. Xonalar devorlarida pilta chiroq yoritqichlari uchun tokchalar ishlangan. Ayrim xonalarning devori ostida Budda haykallari va ularni o‘rnatish uchun supa tagkursilar qurilgan[1].

Demak, rohib va talabalar hamda ziyoratchi sayyohlar markaziy ibodatxonada diniy marosimlar to‘xtagan vaqtda o‘z ibodatlarini monastir sajdagohlarida amalga oshirganlar. Ibodatxonaning janubiy-sharqida uning xo‘jalik qismi joylashgan. Uning maydoni kvadrat shaklida, hajmi 34,5x33,5 m. U ibodatxona bilan eshik orqali bog‘langan. Ibodatxonaning xo‘jalik qismida 15 ta xona ochilgan, ularning ko‘pchiligida o‘choq qoldiqlari topilgan. Majmua devorlari paxsa bilan tiklangan, xonalardagi so‘ri supalar va devorlarning ta’miri g‘isht bilan urilgan. Hamma xonalar somon suvoq qilingan, faqat ikkita xona devorlari ganch bilan suvalgan. Bu 2 xona ibodatxona xo‘jalik qismining sajdagohlari bo‘lgan, deb faraz qilinadi. Ikkita xonadan tandir qoldiqlari va qalin kul uyumi topilgan. Tandirli xonalarni qazish vaqtida ko‘plab hayvon suyaklari, xum, kosa, nimkosa, sopol qadah parchalari chiqqan. Xumlardan boshqa barcha idishlar kulolchilik charxida yasalgan va och qizil rangli angob bilan qoplangan. Sopol sirti archa bargli, disksimon naqshlar bilan bezatilgan. Shuningdek, sopol parchalariga yalang oyoq Budda tovon izlari tushirilgan.

Sopollar ichida pilta chiroqlar va sopol qozonlar ko‘plab uchraydi. Bir xonadan sopol quvur topilgan. Fayoztepaga Amudaryodan suv keltirilganligiga ishora qiluvchi kanal izi o‘rganilgan. Ushbu kanalga Amudaryodan chig‘ir orqali suv chiqarilgan, deb faraz qilinadi. Ibodatxona xo‘jalik qismining katta hovlisi aylanasi bo‘ylab kengligi 0,7 m li supa qurilgan. Uni qazish vaqtida son-sanoqsiz turli hayvon suyaklari topilgan, ko‘plab sopol kosa va qadah, parchalari uchratilgan[2]. Ushbu hovli Budda va uning rohiblariga atab qurbonlik qiladigan joy sifatida talqin qilinadi.

Fayoztepa majmuasining devorlari, asosan, paxsa va g‘ishtdan qurilgan, ayniqsa, monastir va ibodatxona devorlarining balandligi 3 m gacha saqlangan. Ibodatxona xo‘jalik qismining janubiy-sharqiy devorlari yaxshi saqlanmagan. Barcha devorlar somonli loy bilan suvalgan bo‘lib, ko‘p hollarda suvoq ustiga oq rangda jilo berilib, uning usti rangli rasmlar bilan bezatilgan.

Fayoztepa Eron sosoniylarining bosqinchilik hujumlari natijasida xarobaga aylangan. V asr – VI asrning 1-yarmida ibodatxona vayronalaridan eftaliylar daxma sifatida foydalanganlar. Arablar istilosi davrida Fayoztepa butunlay vayron qilingan, keyinchalik u ko‘chma qumlar ostida qolib ketgan.

Qoratepa yodgorligi. Qoratepa – budda g‘or ibodatxonalar majmuasi (milodiy I-III asrlar). Eski Termizning shimoliy-sharqiy qismida joylashgan. Dastlab 1926-28 yillarda Moskvadagi Sharq xalqlari madaniyati davlat muzeyi

[1] Альбаум Л.И. Исследование Фаязтепа в 1973 г. // Бактрийские древности. – Л. 1976. – С. 17.

[2] Сарианиди В.И. Бактрия в эпоху бронзы // СА. Вып. 4. – М. 1974. –С. 62.

ekspeditsiyasi ochgan. 1937 yilda M. Ye. Masson va Ye. G. Pchelina tekshirgan. 1960 yillarda arxeolog B. Ya. Staviskiy qazish ishlari olib borgan[1]. Hozirda O‘zbekiston – Yaponiya qo‘shma arxeologiya ekspeditsiyasi ish olib bormoqda. Obida 3 ta tabiiy tepalikda qurilgan. Umumiy maydoni 8 ga dan ziyod. Janubiy do‘nglikda 15 dan ziyod g‘or majmuasi bo‘lgan. G‘arbiy do‘nglikdagi g‘or majmuasi 5tadan ortiq bo‘lmagan. Shimoliy do‘nglikning sharqiy qismini yer yuzasida joylashgan monumental majmua egallagan, g‘arbiy qismini esa yer yuzasiga qurilgan uncha hashamatli bo‘lmagan ibodatxonalar band qilgan[2].

Qoratepadagi hamma imoratlar turli vaqtlarda barpo etilgan. Keyinchalik avvalgilariga yondosh qilib qurilgan, so‘ng ular bilan bir vazifani bajarishgan. Hammasi bir necha bor ta’mirlangan va tarhi o‘zgartirilgan. Ibodatxonalar yoki boshqa muqaddas joylar ichi mavzuli (syujetli) va naqshinkor bezak, loyganch, ganch, tosh haykali bilan bezatilgan.

G‘or ibodatxonalarini qurish qoidalari hindlardan o‘zlashtirilgan. Ammo keyinroq qurilganlarini rejalashda baqtriylarning me’moriy usullari ustun turadi[3]. Qoratepadagi dastlabki buddaviy ibodat inshootlari, aftidan, milodiy I asrda qurila boshlagan. Qoratepaning eng gullagan davri milodiy II-III asrlarga to‘g‘ri kelib, bu paytda ibodatxonalar ko‘plab qurilgan, avvalgilari esa yangilangan hamda bezatilgan. Bu jarayonda kushonshohlar, ularning noiblari, shahar hokimlari va badavlat shaharliklarning homiyligi hamda madadi muhim o‘rin tutgan. Qoratepadan topilgan, bag‘ishlov bitiklari bo‘lgan sopollar bu holatni aniq ko‘rsatadi. Bitiklarga ko‘ra, Qoratepadagi ayrim inshootlar Kxadevakavixara – Podsho monastiri, Vxara Gulavxara vxad – podsho Gulavxara o‘g‘li (Gondafar) Vixarasi, Okavixara deb nomlangan. Qoratepa bitiklarida rohiblardan Buddashir, Buddxamitra, Jivananda ismlari eslatib o‘tilgan. Boy erkak va ayol homiylar qiyofasi rasmlarda hamda haykallarda saqlanib qolgan.

Qoratepadan ko‘plab budda haykallari topilgan. Milodiy III asr oxiriga kelib Qoratepa majmualari inqirozga yuz tutdi yoki vayron etildi. Bu sosoniylarning Kushon davlatiga qilgan harbiy yurishlari bilan bog‘liq bo‘lsa kerak. Ayrim majmuotlar xonalariga otashkadalar o‘rnatilgan. Ayni mahalda Qoratepa majmuotlarining muayyan qismi milodiy IV asr oxiri – V asr boshigacha ishlab turgan. Milodiy IV asrdayoq Qoratepadagi ko‘plab tashlandiq xonalar va g‘or ibodatxonalaridan qabr sifatida foydalanilgan, so‘ng kirish joylari xom g‘isht bilan urib yuborilgan. Eng dastlabki qabrlar yonida kushon-sosoniy tipidagi tangalar, Peroz tangalari va unga taqlidan zarb qilingan tangalar uchraydi[4], keyingi qabrlarda esa milodiy V-VI asrlardagi Termiz hukmdorlari tangalari topilgan, ularning bir tomonida langar tasvirlangan. VII asrdan XII asrgacha

[1] Массон В.М. Новые раскопки на Джейтуне и Каратепе // СА. Вып. №3. – Мю 1962. – С.161.

[2] Козловский В.А. К изучению древних памятников материальной культуры Сурхандаринской области. СБ. Древняя Бактрия. Л.1974. – С. 37.

[3] Писарчик А.К. Традиционные способы отопления жилищ оседлого населения Средней Азии в XIX вв. // Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М. 1982. – С.101.

[4] Массон В.М. Новые раскопки на Джейтуне и Каратепе // СА. Вып. №3. – М. 1962. – С.162.

Qoratepadagi yarim ko‘milgan ayrim xonalar va g‘orlardan zohidlar foydalanishgan.

Qoratepadan topilgan rasmlar, haykallar va boshqa dekorativ-amaliy san’at buyumlari kushonlar davridan Tarmita – Termizda o‘ziga xos an’ana va yo‘nalishga ega bo‘lgan alohida badiiy maktab bo‘lganidan dalolat beradi. Bu maktab kushonlar davrida Baqtriya badiiy madaniyatinigina emas, balki butun antik madaniyatning rivojlanishida katta rol o‘ynaydi. Qazish paytida Qoratepadan Kushon podsholigi davriga oid sopol idishlar, kosa va ko‘zachalar, mis chaqalar, ohaktoshdan ishlangan me’morlik detallari, plitalar, sopol chirog‘donlar topilgan. Topilmalar ichida 70 dan ortiq sopol idish siniqlariga hindcha bitilgan yozuvlar (kharoshthi va brahma yozuvlari) va devorlarga chizilgan kushon-baqtriya hamda fors-pahlaviy yozuvlari xarakterlidir[1].

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki O‘zbekistonning janubiy hududi hisoblangan hozirgi Surxondaryo viloyatida Fayoztepa (milodiy I-III asrlar) va Qoratepa (milodiy I-III asrlar) tarixiy arxeologik yodgorliklari jahon sivilizatsiyasining namunasidir. Mazkur obyektlar qadimgi davrda aynan shu o‘lkalarda buddizm dini bilan bog‘liq an’analarning mavjud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Budda ibodatxonalaridan chiqqan qimmatbaho haykallar va boshqa tasviriy san’at obyektlari ayniqsa nodir va noyobdir. Bunday tasviriy san’at va haykaltaroshlik yodgorliklari o‘z davrining hayotiy, mafkuraviy va diniy e’tiqodlari, madaniy va ma’naviy hayoti to‘g‘risida ma’lumot beruvchi qimmatbaho manba hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati*:*

1. Альбаум Л.И. Исследование Фаязпепа в 1973 г. // Бактрийские древности. – Л. 1976. – С.230.

2. Альбаум Л.И. Раскопки буддийского комплекса Фаяз-пепа// Древняя Бактрия. – Л. 1974. – С.230.

3. Аскаров А. История материальной культуры Узбекистана. – Т. Фан. 1969. – С.206.

4. Козловский В.А. К изучению древних памятников материальной культуры Сурхандаринской области. СБ. Древняя Бактрия. Л.1974. –С.96.

5. Массон В.М. Новые раскопки на Джейтуне в Каратепе// СА. Вып. №3. – М. 1962. – С.259.

6. Мкритчев Т.К. Медитатсия на буддийский монастир. Восточняя коллексия. №3. 2001.

7. Писарчик А.К. Традиционные способы отопления жилищ оседлого населения Средней Азии в XIX вв. // Жилище народов Средней Азии и Казахстана. – М. 1982. – С.101.

8. Сарианиди В.И. Бактрия в эпоху бронзы // СА. Вып. 4. – М. 1974. – С.372.

[1] Мкритчев Т.К. Медитатсия на буддийский монастир. Восточняя коллексия. №3. 2001.

САЛАРЫ: ИСТОКИ, ЯЗЫКОВОЕ НАСЛЕДИЕ И КУЛЬТУРНАЯ САМОБЫТНОСТЬ

Фарангиз АХМАДЖОНОВА
ТашГУВ, Факультет китаеведения
напрваления филологии
Студентка 1-курса
Научный руководитель: Л.Султанова

Аннотация: Статья посвящена исследованию истории и культуры саларов – уникальной этнической группы, проживающей в Китае. Прослеживая их происхождение, статья раскрывает связь саларов с тюркскими кочевниками, совершившими многовековую миграцию по Шелковому пути. Анализируется исторический путь этого народа, начиная от их предполагаемой прародины в Самарканде и заканчивая оседлой жизнью в провинциях Цинхай и Ганьсу. Особое внимание уделяется влиянию Шелкового пути на формирование их культуры, языка и традиций. Статья также рассматривает особенности современного положения саларов в Китае, исследуя, как они сохраняют свою идентичность в условиях глобализации и межкультурного взаимодействия. Проливая свет на малоизвестные страницы истории, эта работа позволяет лучше понять культурное разнообразие Китая и роль Шелкового пути в формировании этнического ландшафта региона.

Ключевые слова: Салары, Китай, этническая группа, тюркские народы, Шелковый путь

Салары — тюркоязычный народ в Китае, потомки туркменского племени салыр; живут в Сюньхуа-Саларском автономном районе и других районах провинции Цинхай, а также в провинциях Ганьсу и Синьцзян. Численность — 104 503 человек (перепись, 2000). Саларский язык испытал значительное влияние китайского и тибетского языков; используемая в настоящее время письменность — на латинской основе. Антропологически салары неоднородны: но преобладает монголоидный тип. По религии — мусульмане-сунниты, незначительная часть исповедует тибетский буддизм. Основные традиционные занятия — пашенное земледелие, скотоводство, приусадебное садоводство и огородничество, кузнечное и гончарное ремесла.

Салары-одна из тюркоязычных народностей КНР, чья история происхождения тесно связана с огузами. Наука располагает крайне скудными сведениями по истории саларов. Но несомненно, что истоки саларской народности восходят к племени салгур, которое известный средневековый филолог Махмуд Кашгарский (XII в) относил к одному из огузских племен.[1]

[1] Тенишев Э.Р. Саларский язык. М., 1963; Саларские тексты. М., 1964 стр 7-8

Согласно саларской традиции и китайским хроникам, салары являются потомками племени салур, принадлежащего к тюркскому племени огузов Западно-тюркского каганата. Выдвигались различные теории о происхождении саларов. На данный момент преобладает точка зрения, согласно которой предки саларов происходили из региона Самарканд в Центральной Азии во времена династии Юань (1271-1368)

Согласно легенде, предки саларов мигрировали из среднеазиатского Самарканда на восток провинции Цинхай в XIV веке. Легенда рассказывает, что два брата-прародителя этого народа — Ахман и Караман были оклеветаны на родине и решили покинуть дом, чтобы не жить по соседству с клеветниками. Отец дал им с собой в дорогу сосуд с водой, мешочек с землей, 30 частей Корана и весы и, провожая в путь, наставлял: «Идите на юг и, где остановитесь, сравните вес местной воды и земли с весом воды в сосуде и земли с родины, где вес будет равным, там и живите. Следуйте содержанию Корана и соответственно поступайте». Погрузив пожитки на спину верблюдицы, братья отправились по Великому шелковому пути в сторону Китая.

Долгий путь прошли странники, миновали Пекин, Ланьчжоу, Ганьджа и южные земли – нигде вес земли и воды не был равным. Наконец, прибыли в Синин. Оглянулись – кругом холмы и сухая земля. Взвесили на весах местную воду и землю, сравнив с привезенными с собой, и – о, чудо! – вес сравнялся. В ту же ночь братья получили другой знак – их верблюдица дошла до источника Алтиюли, где безжизненно свалилась наземь. Братья пытались ее поднять, но у них ничего не получалось. Тогда они сняли с животного груз, и верблюдица тут же превратилась в большой белый камень. Так братья и остались жить на этой земле.

Белая верблюдица стала национальным символом саларов. В городе Сюньхуа установлена мраморная скульптура склонившей колени верблюдицы с сумой и Священной книгой. На основе легенды были поставлены сценки, как правило, разыгрываемые на свадьбах.[1] Коран, который два брата привезли с собой в Китай, по сей день хранится в автономном округе Синьхуа Салар в Большой мечети Цзецзы в Хайдуне, Цинхай,Нанкинский музей восстановил Коран, чтобы защитить его от разрушения.[2]

Саларский язык входит в семью тюркских языков. Язык саларов имеет два диалекта: жителей селения Гэйцзы(с чиншуйским говором) и населения горного района Мынта. Первый охватывает западные районы уезда, второй-восточные. Большая часть саларов говорит на гэйцзинском диалекте. Различия между саларскими диалектами невелики- они проявляются главным образом в фонетике и лексике. У салар сохранились книги вероучительного и исторического содержания на арбаской графике. Эти

[1] https://www.chinatrips.ru/guide/culture/salar.html электронный источник

[2] https://www.chinadaily.com.cn/english/doc/2004-10/20/content_384056.htm Oldest handwritten Koran needs protection, электронный источник

книги написаны на языке, близком к среднеазиатско-тюркскому письменному языку, спаянному с местными, чисто саларскими элементами.

Салары в массе своей владеют китайским языком, многие тибетским(северо-амдоский говор). Салары пользуются китайским языком на правах официального языка. На нем преподают в школах, ведется радиовещание, осуществялется административная жизнь. Саларский язык содержит довольно много слов, заимствованных из китайского и тибетского языков в результате долгих лет взаимных контактов.

На сегодняшнее время саларский язык находится под угрозой исчезновения из-за ряда факторов.Например большинство саларцев не используют какой-либо письменности для своего языка салар,вместо этого они используют китайские иероглифы для практических целей. Саларский язык является их разговорным языком, в то время как китайский язык используется как разговорный, так и письменный. Молодое поколение саларов всё чаще переходит на китайский язык (путунхуа), особенно в городских районах.Исторически саларский язык использовал арабскую графику, но в современности она практически вышла из употребления. Это усложняет его изучение и сохранение.

У салар были свои собственные уникальные родственные кланы. Браки среди салар устраивают свахи и родители. Салар — предприимчивый народ, занимающийся различными видами бизнеса и отраслей промышленности. Они занимаются сельским хозяйством и садоводством. Они выращивают чили и перчинку в своих садах. Среди выращиваемых ими культур — гречиха, просо, пшеница и ячмень. К другим важным культурам относятся дыни, виноград, яблоки, абрикосы и грецкие орехи. Несколько саларов разводят домашний скот, а местная лесная промышленность также является еще одним источником дохода для некоторых деревень.

Генерал Хуэй Ма Фусян набирал наемников в свою армию и говорил, что они переехали в Китай со времен династии Тан. Он подразделяет их на две группы: пять внутренних кланов и восемь внешних. Ма сказал, что внешняя группа говорит по-тибетски, не зная своего родного языка. Салары вступают в брак только с другими саларами. Уйгуры говорят, что они не понимают язык саларов.Ма и Хан — два наиболее распространенных имени среди саларов. Как и хуэй, Ма означает “Мухаммад”; однако многие салары также носят фамилию Ма из-за смешанных браков с хуэями.Четыре высших клана саларов приняли фамилию Хань и жили к западу от Сюньхуа.

В 2000 году средний возраст вступления в первый брак для саларских женщин составлял 18,69 лет, в то время как в 1990 году тибетские женщины выходили замуж в среднем в возрасте 23,8 ле

Традиционная одежда саларов очень похожа на одежду народа хуэй в этом регионе. Мужчины обычно носят бороды и белые рубашки и белые или черные тюбетейки. Традиционная одежда мужчин — куртки и халаты. Молодые незамужние женщины привыкли одеваться в китайскую одежду ярких цветов. Замужние женщины используют традиционную вуаль белого или черного цвета.

Находясь под сильным влиянием ислама, салары придерживаются примерно таких же обычаев, как и хуи, живущие поблизости. Женщины любят носить на голове платки и черные безрукавки поверх одежды ярких красных тонов. Они хорошо вышивают и часто вышивают цветы пяти разных цветов на своих наволочках, обуви и носках. Мужчины носят шляпы без полей с плоской головкой черного или белого цвета, а зимой — дубленки без подкладки и шерстяную одежду. С течением времени в результате социально-экономического развития некоторые обычаи саларов изменились. Например, полигамия была отменена, а число детских браков значительно сократилось. Экстравагантная практика массового забоя скота на свадьбах, похоронах и фестивалях была изменена.

Типичным жанром народных мелодий является “Хуаэр” (цветок), разновидность народной песни, звучно и безудержно исполняемой на китайском языке. Однако в большинстве случаев она звучит сладкозвучно, благодаря влиянию тибетских народных песен. Все певцы могут импровизировать в соответствии с тем, что задевает их сердца. С 1949 года в этот вид искусства были внесены значительные изменения. У саларов также есть музыкальный инструмент под названием кусюань. Это струнный инструмент, изготовленный из серебра или меди, длинной в 0,5 см. Сила звука, когда в него дуют, сравнительно слаба, звучит, словно жалобы сквозь слезы, глубоко волнуя людей.[1] Это инструмент на котором играют только женщины.Теперь салары поют, чтобы выразить свою радость по поводу новой жизни. Среди саларцев процветают любительские театральные труппы, песенные и танцевальные коллективы.

Салары приняли ислам в конце 17-х и начале 18-го века, они остались глубоко религиозными и считаются одними из самых ревностных мусульман в Китае. Это способствовало напряженности в отношениях с правительством Китая. В 1958 году, когда Мао Цзэдун опасался, что салары и другие мусульмане поднимут восстание, правительство удалило всех саларов из страны. мулл (мусульманских учителей и духовных лидеров) с официальных постов. Однако муллы были восстановлены в должности в период реформ в 1980 году. Строгая религиозная практика также вызвала напряжение в общинах салар. Некоторые молодые салары считают, что строгое соблюдение ислама сковывает их в меняющемся мире, и становятся менее жесткими в своей приверженности вере.[2]

В производственной деятельности саларов традиционно преобладают земледелие. Они — искусные садоводы, занимаются также лесоразработками, выделкой кожи. Близкие по кровному рацу люди обычно селятся сообщая об одном районе. В устройствах их жилья сохраняется среднеазиатский стиль. Образ жизни саларов близок национальности Хуэй.

---

[1] 4.Основные сведения о Китае, Национальности Китая, Ван Цянь, перевод Чжао Сюцинь, 2004.10, Межконтинентальное издательство Китая стр 158-159

[2] 5.Elliot, Sheila Hollian (2006). Muslims in China. Philadelphia: Mason Crest Publishers. стр 67-68

Салары любят пить чай с молоком, а также напиток из прожаренной пшеницы, но при том знают толк производстве употребления чая и в чайной церемонии. Главные праздники саларов-Ураза-байрам и Курбан-байрам.

Салары представляют собой уникальную этническую группу, чья культура, язык и традиции сформировались под влиянием сложного исторического и географического контекста. Будучи потомками мигрантов из Средней Азии, они сохранили элементы тюркского языка, адаптировав их к китайской среде, что делает их важным объектом изучения для лингвистов и этнографов.

Их религиозные обычаи, связанные с исламом, гармонично сочетаются с локальными культурными особенностями, что демонстрирует высокий уровень адаптации без утраты этнической идентичности. Социально-экономическое положение саларов в современном Китае отражает процесс интеграции в китайское общество при сохранении культурного самобытности.

Изучение саларов важно не только для понимания их истории и культуры, но и для анализа взаимодействия разных этнических групп в рамках одного государства. Дальнейшие исследования их языка, традиций и социального статуса будут способствовать более глубокому пониманию этнического разнообразия и межкультурного взаимодействия в Китае.

Список использованной литературы:

1. Тенишев Э.Р. Саларский язык. М., 1963; Саларские тексты. М., 1964, 7-9 с

2. https://www.chinatrips.ru/guide/culture/salar.html

3. “Oldest handwritten Koran needs protection” China Daily. 20 October 2004. Retrieved 1 April 2013.

4. Barbara A. West (2008). Encyclopedia of the Peoples of Asia and Oceania, Volume 1. Infobase Publishing. p. 701. ISBN 978-0-8160-7109-8. Retrieved 11 December 2015.

5. Elliot, Sheila Hollian (2006). Muslims in China. Philadelphia: Mason Crest Publishers. ISBN 1-59084-880-2.

6. http://www.china.org.cn/english/features/EthnicGroups/136947.htm

7. Основные сведения о Китае, Национальности Китая, Ван Цянь, перевод Чжао Сюцинь, 2004.10, Межконтинентальное издательство Китая

TAYVANDAGI PAYVAN XALQI: TARIXI, MADANIYATI VA ZAMONAVIY TURMUSH TARZI

Muxlisa USANOVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Antropologiya va etnologiya yo‘nalishi
3-kurs hind-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: PhD V. Abirov

Annotatsiya: Ushbu maqola Tayvandagi Payvan xalqining tarixi, madaniyati va zamonaviy turmush tarzini o‘rganishga bag‘ishlangan. Payvan xalqining kelib chiqishi, ijtimoiy tuzilmasi, urf-odatlari, diniy e’tiqodlari hamda an’anaviy va zamonaviy hayot tarzidagi o‘zgarishlar tahlil qilinadi. Shuningdek, globalizatsiya va zamonaviy jamiyat ta’sirida yuzaga kelgan muammolar va ularning madaniy merosni saqlab qolish yo‘lidagi harakatlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Payvan xalqi, Tayvan mahalliy xalqlari, madaniy meros, ijtimoiy tuzilma, Academia Sinica Institute of Ethnology, International Conference on Formosan Indigenous Peoples, Melissa Brown, Josiane Cauquelin, Damumu tog‘i, Vuluo daryosi, “Maleveq” marosimi, shamanlar.

Sharqiy Osiyoda joylashgan Tayvan mahalliy xalqlarining o‘ziga xos kelib chiqishi, madaniyati, tili bilan ajralib turadi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra Tayvan hududida 16 ta mahalliy xalq istiqomat qiladi[1]. Bular: Amis, Atayal, Bunon, Kavalan, Payvan, Puyuma, Rukay, Sayisiyat, Sakizaya, Seediq, Tao, Truku, Tsou, Hla’alua, Kanakanavu, hamda Taolar sanaladi. Shuningdek, bir qator tashkilotlar, xususan, Academia Sinica Institute of Ethnology[2], International Conference on Formosan Indigenous Peoples[3], Comparative Austronesian Studies Research Group[4], olimlar Melissa Brown[5], Josiane Cauquelin[6], Shzr-Ee Tan[7], Mark Munsterhjelm[8] va boshqalar muhim o‘rganish ishlarini olib borgan[9]. Shunday

[1] Taiwan’s People and Languages | Life of Taiwan Tours https://lifeoftaiwan.com/about-taiwan/people/

[2] Tayvan mahalliy xalqlari bo‘yicha muhim tadqiqotlar olib borgan, shu jumladan yapon tilidagi ilmiy manbalarni tarjima qilgan.

[3] 2014-yilda Tayvan Yaponiya, Avstraliya, Yevropa va Shimoliy Amerikadan yetakchi olimlarni jalb qilgan. Tadqiqot yo‘nalishlari: arxeologiya, lingvistika, tarix, etnografiya, amaliy antropologiya va siyosat.

[4] Academia Sinica tomonidan tashkil etilgan va Austronesian xalqlari bo‘yicha tadqiqotlarni kengaytirishga yo‘naltirilgan.

[5] Tayvandagi tekislik aborigenlari bo‘yicha tadqiqot olib borgan. Ularning tarixiy identifikatsiyasini tahlil qilgan (2004).

[6] Puyuma xalqining ijtimoiy institutlari va ularning mustamlakachilik ta’siridan keyingi o‘zgarishlarini o‘rgangan (2004). Tayvan hukumati tomonidan rasmiy tan olinishi uchun ko‘plab etnologik, antropologik va genetik izlanishlar olib borilgan.

[7] Amis xalqining musiqasi bo‘yicha etnografik tadqiqot olib borgan (2012).

[8] Mahalliy xalqlar bo‘yicha genetik tadqiqotlarni tahlil qilgan (2014).

[9] Simon, Scott. (2018). Ontologies of Taiwan Studies, Indigenous Studies, and Anthropology. International Journal of Taiwan Studies, 1(1), 11-35. https://doi.org/10.1163/24688800-00101003

izlanishlardan ba’zilarining bergan ma’lumotlariga ko‘ra Tayvan mahalliy xalqlarining kelib chiqishi avstroneziya xalqlari bilan bog‘liq hisoblanadi. Hozirgi paytda ham har bir qabila o‘z tiliga ega, lekin eng yangi davrda tug‘ilgan aksariyat yoshlar ota-bobolari tillarini unutgan va deyarli gapira olishmaydi[1].

Mahalliy xalqlar orasida Payvan xalqni aholisi soni bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egallaydi. Payvan xalqining asosiy qismi Markaziy tog‘ tizmasining janubiy etaklarida[2], Damumu tog‘i yonbag‘irlarida[3] hamda Vuluo daryosi[4] bo‘ylarida yashaydi. Payvan nomining kelib chiqishi haqida bir qancha ilmiy farazlar mavjud. Payvan xalq afsonalarida aytilishicha, Payvan xalqining ilk ajdodlari Davu tog‘idagi (Tavushan) “Payvan” deb atalgan joyda, jannat mavjudligi aytilgan joyda yashashgan. Payvan xalqi bu joydan boshqa hududlarga ko‘chgan, shundan so‘ng “Payvan” joy nomi ularning qabilasi nomiga o‘tgan. Boshqa bir versiyada “Payvan” nomi payvan tilida “inson” degan ma’noni ham bildiradi deyiladi.

Tayvandagi boshqa xalqlardan farqli o‘laroq, Payvan jamiyati bir qancha sinflarga ajratiladi[5]. Bular malatav (zodagonlar), pucemay (oddiy xalq), kakalisiyan (qullar). Payvanlarga o‘z guruhidan tashqari turmush qurishga ruxsat berilmaydi. Ushbu an’analar hozirgi payvanliklar tomonidan ham amal qilinadi. Turmush va oila qurish bilan bog‘liq marosimlardan biri “Maleveq” (“Besh yillik marosim”) deb ataladi. Marosim kuni barcha turmush qurmoqchi bo‘lgan payvan erkaklari imkon qadar ko‘proq daraxtlarni kesishga harakat qilishadi va shu tarzda yig‘ilgan o‘tinni o‘ziga ma’qul bo‘lgan qizning yaqinlariga taklif qilishadi. Oilalar va yoshlar bir-biriga ma’qul kelgan holatlarda yangi oilalar bunyod etiladi. “Maleveq” marosimi besh yilda bir marotaba o‘tkaziladi.

Marosimda ajdodlar ruhini xotirlash va ularga hurmat bajo keltirish, payvanliklar jamiyatini o‘zaro mustahkamlash, azaliy an’ana va odatlarini saqlab qolish kabi vazifalar amalga oshiriladigan asosiy ishlardir.

Payvan jamiyatidagi eski odatlardan beri ayollar qo‘llariga tatuirovka chizish hisoblanadi. Payvanlik yosh qizlarning balog‘atga yetganini bildirish bu odatning asosiy maqsadidir. Tatuirovkalardagi naqshlarning bejirimligi va ko‘pligi ayol-qizlarning oliyjanobligi va qat’iyatini bildirgan. Tatuirovka qilishning mashaqqatli jarayoni inson qadr-qimmati, sharafi va inson boshdan kechirishi mumkin bo‘lgan azob-uqubatlarni ham bildirgan. Mustamlakachilik davrlarida[6] bu odatlarga bir qancha qarshiliklar, jarimaga tortish holatlari yuz bergan, natijada bu amaliyotning kamayishi olib kelgan. Qo‘llarga naqsh chizish an’analari Tayvandagi Rukai xalqlariga ham xos.

---

[1] Taiwan’s People and Languages | Life of Taiwan Tours https://lifeoftaiwan.com/about-taiwan/people/

[2] Tayvan orolidagi asosiy tog‘ tizmasi, Tayvanning 70% ga yaqin qismi tog‘lardan iborat

[3] Tayvanning Pingtung okrugidagi tog‘ nomi

[4] Tayvanning Pingtung okrugidagi daryo nomi

[5] Paiwan https://www.cip.gov.tw/en/tribe/grid-list/E8D1B17F6A81D678D0636733C6861689/info.html?cumid=B54B5C7E1E0F994092EDA9D0B7048931

[6] Yaponiya mustamlakachilik davri

Mahalliy Payvan ijtimoiy sinflari, jinsi va marosimlari o‘ziga xos, noyob kiyim uslublariga ega. Ilk kiyim uchun ishlatilgan ashyolar daraxt poyalari va po‘stloqlaridan boshlangan, ammo keyinchalik zig‘ir, paxta va jun matolar ommalashgan[1]. Ijtimoiy sinf vakillari o‘rtasida kiyimlarda ishlatiladigan matolarning narxi, rangi va bezak uslublari farqlanadi. Marosimlarda esa qimmatli, qadrli va yangi kiyimlarni kiyishga harakat qilishadi. Yangi turmush quradigan o‘smir yigit va qizlarning kiyimlarini ularning onalari tikishadi. Bu an’ana esa ularni yanada yaqinlashtiradi.

Payvan xalqida ilk diniy e’tiqodlardan din shakllarigacha uzoq tarix mavjud. Ushbu jarayonlarning o‘ziga xos jihatlari esa mahalliy an’anaviy e’tiqodlar, mustamlakachilik davrining ta’siri, xristianlikning kirib kelishi hamda zamonaviy diniy uyg‘onish bilan bog‘liq. Ilk e’tiqod shakllari animizm shaklida namoyon bo‘lib, ajdodlar ruhiga sig‘inish keng tarqalgan. Buligau nomi bilan ataladigan shamanlar esa oddiy odamlar va ruhlar o‘rtasida vositachilik qiladi degan qarashlar keng tarqalgan bo‘lgan. Buligaularga ajdodlar ruhi bilan so‘zlashishdan tashqari tabobat bilan shug‘ullanish, marosimlarni o‘tkazish, ularning vaqtini belgilash kabi payvan jamiyatining muhim vazifalar yuklatilgan. Tabiat kuchlariga sig‘inish ham e’tiqod shakllaridan biri sanaladi. Tabiat kuchlari bilan bog‘liq marosimlarga ham shamanlar yetakchilik qiladi, xususan yovuz tabiat ruhlarini haydash vazifasi ham shamanlarning bo‘ynida bo‘lgan. Bundan tashqari shuni aytish joizki, payvanliklar tabiatsevar xalqlardan biri bo‘lib, uni asrab-avaylashgan harakat qilishadi.

XX asrning boshlaridan boshlab payvan jamiyatida xristian missionerlari o‘z faoliyatlarini olib borishadi. Yangi din a’zolarini rag‘batlantirish orqali din missionerlari yaxshigina yutuqlarga erishishadi. Dinning to‘liq qabul qilish holatlari kam uchrasa-da, payvan an’anaviy e’tiqodlariga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Xususan, dafn marosimlari va qurbonlik marosimlarida soddalashtirilgan holatlar tarqaladi. Oldinlari qabr atroflariga ko‘pdan ko‘p qurbonliklar qo‘yilgan bo‘lsa, endilikda faqat mevalar bilan kifoyalanishadi. Bundan tashqari, mahalliy shamanlar va diniy yetakchilarning obro‘siga ham zarba beradi va ularning mavqeyi zaiflashadi[2]. So‘nggi yillarda shamanizmning qayta tiklanishiga qaratilgan ishlar amalga oshirilmoqda, 2009-yilda payvan xalqi orasida 20 nafar shaman bo‘lgan. Natijada, shamanlar o‘rtasida an’anaviy qon-qarindoshlik shartlari bekor qilinib, shamanlar maktabi ochilgan, bu esa payvan diniy tizimini saqlab qolishga yordam bermoqda. Ammo shuni ham ta’kidlash lozimki, payvan xalqiga xos diniy-madaniy meroslarning aksariyat qismi xalqaro turistlarni jalb qilish uchun o‘zgartirilmoqda va tomoshabop sahnalar bilan cheklanmoqda.

Xulosa. Tayvandagi payvan xalqi mahalliy avstronez xalqlaridan kelib chiqqan degan qarashga ega. Mustamlakachilik davridagi va Tayvan hukumati tomonidan qilingan milliylashtirish siyosatlariga qaramasdan o‘zligini va

[1] Paiwan in China people group profile | Joshua Project https://joshuaproject.net/people_groups/14262/CH

[2] Yanasak-Leszczynski, Josephine M. (Year). Religion as Identity: The Changing Face of Paiwan Spirituality. University of Wisconsin — Milwaukee. https://minds.wisconsin.edu/handle/1793/94642

an’anaviy marosimlarini saqlab qolishga harakat qilishmoqda. Tili, dini va madaniyatidagi farqlar tufayli yuzaga keladigan xalqlar o‘rtasidagi kurashlarga qaramasdan payvan xalqi Tayvandagi 16 ta mahalliy xalqlar orasida soni bo‘yicha ikkinchi o‘rinni saqlab qolmoqda. O‘zlarini bir qancha jamiyatlari, madaniyatlarini saqlab qolishga payvan yetakchilarining o‘rni kattadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Simon, Scott. (2018). Ontologies of Taiwan Studies, Indigenous Studies, and Anthropology. International Journal of Taiwan Studies, 1(1), 11-35. https://doi.org/10.1163/24688800-00101003
2. Yanasak-Leszczynski, Josephine M. (Year). Religion as Identity: The Changing Face of Paiwan Spirituality. University of Wisconsin — Milwaukee. https://minds.wisconsin.edu/handle/1793/94642
3. Yanasak-Leszczynski, Josephine M. (2014). Religion as Identity: The Changing Face of Paiwan Spirituality. University of Wisconsin-Milwaukee. Retrieved from https://dc.uwm.edu/rsso/2014/panel4/1/
4. Batchelor, D. (2014). The Luminous and the Grey. Reaktion Books. Retrieved from https://www.amazon.com/Luminous-Grey-David-Batchelor/dp/1780233733.
5. Rubinstein, M. A. (Ed.). (1994). The Other Taiwan: 1945 to the Present. M.E. Sharpe. Retrieved from https://www.amazon.com/Other-Taiwan-1945-Present/dp/1563243704.
6. Tóng, Chūnfā (童春發). (2010). Pái wān zú Kuljaljau (Gǔlóu) bùluò lìshǐ yánjiū (排灣族Kuljaljau(古樓)部落歷史研究). GPI Zhèngfǔ Chūbǎnpǐn Xìnxī Wǎng. Retrieved from https://gpi.culture.tw/books/1011001786
7. Hú, Táilì (胡台麗). (2002). Pái wān zú de bídí yǔ kǒudǐ (排灣族的鼻笛與口笛). National Center for Traditional Arts. Retrieved from https://zh.wikipedia.org/wiki/胡台麗
8. Taiwan’s People and Languages | Life of Taiwan Tours https://lifeoftaiwan.com/about-taiwan/people/
9. Paiwan – Taiwan – The Virtual Museum https://thetaiwanmuseum.com/paiwan/
10. Paiwan https://www.cip.gov.tw/en/tribe/grid-list/E8D1B17F6A81D678D0636733C6861689/info.html?cumid=B54B5C7E1E0F994092EDA9D0B7048931
11. Paiwan Woodcarving — Taiwan Today https://taiwantoday.tw/Culture/Taiwan-Review/26226/Paiwan-Woodcarving
12. Paiwan in China people group profile | Joshua Project https://joshuaproject.net/people_groups/14262/CH
13. Indigenous Peoples Cultural Development Center https://en.tacp.gov.tw/Indigenous/ItemDetail?ID=eadc0c5d-dd0c-4031-a1a2-af085c9b71b4

TARAQQIYPARVARLARGA QARSHI OLIB BORILGAN SAY HARAKATLAR

Sardorbek BO‘RIYEV
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Tarix yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent S Toshtemirova

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda SSSR davrida mamlakatimizda yuz bergan ayanchli voqealar, vatanparvar ota-bobolarimizni qatag‘on qilinishi, ularga bo‘hton gaplar otilishi, shubhasiz ular o‘z ishlarini ustalari lekin ularga otilgan yolg‘on ma’lumotlar juda ham ayanchli edi

Kalit so‘zlar: “Shahidlar xotirasi”, “18 lar guruhi”, Islom Abdug‘aniyevich Karimov, “Inog‘omovchilik”, “Qosimovchilik”, “Yapon josuslik-qo‘poruvchilik rezidenturasi”.

O‘zbekiston ahli o‘z yurtida mustaqillikka erishganidan keyin eng xayrli va eng savobli ishlardan biri sovet hokimiyati yillarida xalq dushmani, aksilinqilobchi, millatchi, quloq, sifatida qoralanib, qatag‘on etilgan vatandoshlarimiz asli nomlari oqlanishi bo‘ldi. Bugungi kunda yosh avlod begunoh vafot etgan, bosmachi deb ayblangan ajdodlari, ota-boblari bilan faxrlanish hamda ular xotirasi oldida hurmat bilan bosh egish imkoniga ega bo‘ldi. Bunday ulug‘ ishlarning boshlanishi va muvaffaqiyat bilan davom etishida mamlakatimiz rahbari Prezident Islom Abdug‘aniyevich Karimovning xizmatlari g‘oyat kattadir.Prezidentimizning tashabbusi va g‘oyasi asosida tashkil etilgan. “Shahidlar xotirasi” jamoat fondi va “Qatag‘on qurbonlari” muzey o‘z faoliyati davomida 20 mingga yaqin jabrdiyda vatandoshlarimiz har kuni, faoliyati va taqdirini o‘rganish haqida maqola, risola va kitoblar yozish, xotira kechalarini o‘tkazish, ularga bag‘ishlangan hujjatli va televizor filmlari yaratishdek ishlar bilan shug‘ullangan va shug‘ullanmoqdalar.

Xuddi shu tariximizning ayanchli, hasratli sahifalaridan biri biri sovetlarning O‘zbekiston olib borgan qatag‘on siyosati va uning jiddiy fojiali oqibatlaridir. 1917 yildagi mudhish va oktyabr to‘ntarishidan boshlab to SSSR parchalanib qadar siyosiy sovet jamiyatining ajralmas tarkibiy qismi bo‘lib keldi. A. Karimovning tashabbusi va g‘oyasi bilan tashkil etilgan. 1917-1921 yillarida faoliyat ko‘rsatgan siyosiy, mafkuraviy, diniy va madaniy-ma’rifiy tashkilot faoliyat ko‘rsatmoqda. Ichki ishlar va jazolash organlari tomonidan reanimatsiya qilinishi, yangi siyosiy maxfiy tashkilotlaring tuzilishi va bu tashkilotlar a’zolarining qatag‘on qilinishi, undan tashqari madaniyatimizni oyoqosti qilib ayollarimizni qizlarimizni qatag‘on qilishi, hali hech narsani tushunmaydigan yosh bolalar o‘n olti yoshga kirmagan begunohlarni qatag‘on qilishi, din mutaassiblarini qatag‘on qilinishi eng achinarli holat desak mubolag‘a bo‘lmaydi.[1]

[1] Б.В.Ҳасанов Т.ф.д., “Қатағон курбонлари хотираси” музейи

Bu achinarli ishlarga koʻz yumolmagan respublikaning taniqli arboblaridan iborat “18 lar guruhi” (I.Xidiraliyev, M.Saidjonov, U. Ashurov, R. Rahimboboyev, Eshonov) ga “yer-suv islohotiga qarshi chiqqan, boy-quloq va yer egalarining manfaatini himoya qilib chiqqanlar, mahalliychilik va millatchilik gʻoyalarini ilgari surgan” degan soxta aybnoma qoʻyildi, nomi nafaqat rus, oʻz davlatidagi yurtdoshlariga ham qoralanib aytildi. Aslida esa ular hukmron Markazning ulugʻ davlatchilik va shovinistik siyosatiga, milliy kadrlarga nisbatan bepisandlik, loqaydligiga qarshi chiqib, adolat va haqqoniylik tamoyillarini himoya qilganlar. Shu bois, rasmiy partiya organlari tomonidan mazkur guruh keskin qoralanadi va uning a’zolari turli jazolarga giriftor etildilar. “Inogʻomovchilik” guruhi toʻgʻrisida gap borganda, unga qoʻyilgan barcha ayblarning toʻliq toʻqib chiqarilganligi ayon boʻladi. Ma’lumki, Rahim Inogʻomov OʻzKP(b) Markaz qoʻmita matbuot boʻlimi mudiri va OʻzSSR Maorif Xalq Komissari vazifasida faoliyat yuritib kelgan. R.lnogʻomov oʻzining bir qator nutqlarida Oʻzbekiston kompartiyasining mustaqil faoliyat yurita olmayotganligiga, markaz organlarining oʻz hayotidagi zoʻravonligiga ham alohida urgʻu bergan. Respublikaning bir qator singari hamma maslaklar Inogʻomov qarashlarini qoʻllab-quvvatlab chiqqandilar. Bunday muxolifatchi chiqishlar hukmron partiya mutasaddilarining qahriga uchramasdan qolmasdi, albatta. Shu bois, 1926-1927 yillarda bu guruh faoliyati partiya tashkilotlarida bir necha bor muhokama qilinib, ogʻmachi guruhbozlikda ayblandi. Inogʻomov tarafdorlari vazifalaridan olinib, nomlari qoralandi. “Qosimovchilik” guruhi ham 1929-1930 yillarda sovet hukmron rejimi tomonidan milliy kadrlarni, ziyolilarni qatagʻon qilish, jazolash maqsadida atayin uyushtirilgan navbatdagi uydirma edi. Oʻz SSR oliy sudining raisi lavozimida ishlagan S. Qosimov va uning yaqin maslakdoshlari: N.AIimov, Musaboyev, Sharipov, Sirojiddinov va boshqa jami 7 kishi 1929 yilning 2-yarmida “bosmachilik” harakatiga yon berganlikda ayblanib qamoqqa olindilar. Ular respublikadagi millatchi tashkilotlar bilan aloqa bogʻlaganlikda ayblandilar. Bu guruhning 4 ta a’zosi shunday asossiz ayblanib, otib tashlandi. Qolganlari esa koʻp yillik qamoq jazosiga hukm qilindi[1].

Shu masalalar natijasida mustabid tuzum hukmdorlari va ularning chaqqon dastyorlarning yeng shimarib qilgan “sa’y – harakatlari” natijasida 1937-1938—yillar davomida Oʻzbekistonda bir qator yirik aksilinqilobiy tuzilmalar tuzilgan, faoliyat yuritmoqda, bunday boʻhtonlar rus tuzum jamiyatiga yeratlicha ma’lumot boʻlishi aniq edi, bularga aksilinqilobiy degan soxta ma’lumotlar toʻplandi. Mana shunday soxta ma’lumotlar asosida respublika rahbarlari A.Ikromov va F.Xoʻjayev boshchiligidagi “Burjua — millatchilik aksilinqilobiy tashkiloti markazi”, Abdurauf Qoriyev rahbar boʻlgan “Musulmon ruhoniylarning millatchi — isyonkor tashkiloti”, “Aksilinqilobiy oʻng trotskiychi josuslar tashkiloti markazi”, “Buxoro va Turkiston baxt-saodati” nomli aksilinqilobiy tashkiloti, I.Ortiqov boshliq “Yoshlarning aksilinqilobiy burjua-millatchilik tashkiloti”,

[1] Usmonov, Q., & Sodiqov, M. (2008). Oʻzbekiston tarixi. Iqtisod-moliya. Toshkent–2006 y.(Q. Usmonov, M. Sodiqov, S. Burhonov.“History of Uzbekistan”. Economics and Finance. Tashkent-2006).

“Ingliz josuslik rezidenturasi”, “Yapon josuslik-qo‘poruvchilik rezidenturasi” kabi tashkilotlar Sovet hokimiyatiga qarshi faoliyat yuritmoqda deb e’lon qilindi, ularni tuzishda gumon qilinganlar qatag‘on qilindi. Eng so‘nggi ma’lumotlar, tarixiy hujjatlarni har tomonlama o‘rganish, tahlil qilishlar, surishtirishlar bunday tashkilotlarning respublikada umuman bo‘lmaganligini to‘la tasdiqlamoqda. Demak, bunday aksilinqilobiy tashkilotlar qatag‘on tuzumi buyurtmasi asosida Markaz va uning jazo organlari tomonidan atayin to‘qib chiqarilgan va hayotga izchil tatbiq etilgan. Buning orqasida ming -minglab begunoh insonlar shafqatsiz jazolangan, umrlari xazon bo‘lgan. XX asr boshidan 40— yillargacha 450 ming vatandoshlarimizga nisbatan “jinoiy ish” ochilganligi, ularning hayoti ostin-ustun bo‘lib ketganligi faktdir. Faqat 1937-1939- yillarda O‘zbekistonda hammasi bo‘lib 43 mingdan ziyod kishi qamoqqa olingan. Ulardan 6 ming 920 nafari otib tashlangan. 37 ming nafari esa turli muddatga qamoq va surgunlarga hukm etilgan. Mustabid tuzum jallodlarining bu bedodligini hech narsa bilan oqlab bo‘lmaydi. Yaqin milliy tariximizning bu qorong‘i zulmati xalqimiz dilida mangu o‘chmas armon bo‘lib qoldi. U faqat milliy istiqlol tufayligina to‘la yuzaga chiqib, bundan yurtimiz fuqarolari chinakam ro‘shnolik ko‘rish baxtiga musharraf bo‘ldilar.

O‘zbekiston hukumatining tashabbusi va sa’y-harakati bilan 20 — yillarda xorijga o‘qishga yuborilib, yaxshi mutaxassislar, fan arboblari bo‘lib yetishgan kishilar atayin qatliom qurbonlari bo‘ldilar. Agar Germaniya yoki Turkiyada ta’lim olgan bo‘lsalar ularga o‘sha mamlakatlarning josuslari degan ayb qo‘yildi. Buning uchun ularning uyida tintuv paytida chet elda bosilgan kitob topilguday bo‘lsa, shuning o‘zi yetarli dalil edi. Axir ular chet el oliy o‘quv yurtlarida o‘qigan bo‘lsalar ularda shunday kitoblar bo‘lishi tabiiy edi. Masalaning bunday mantiqiy jihatlari chalasavod jazo organlari vakillarini qiziqtirmagan. Xorijda ta’lim olib, professorlik unvoniga sazovor bo‘lgan Ahmadjon lbrohimov, Majid Ibrohim, Ibrohim Yorqin, Tohir Shokir, Abduvahob Ishoq, Saida Shermuhammad qizi, Sattor Jabbor, Otajon Hoshim va boshqalar o‘sha davrlarda millat faxri bo‘lganlar. Ularga ham “xalq dushmani”, “chet el josusi” qabilidagi tavqi la’nat tamg‘asi bosilib qatliom etildilar.[1]

Xulosa : Shuni aytish kerakki 1918-1924 yillarda mustabid tuzumga qarshi xalqimiz olib borgan kurashlarning chuqur ilmiy asoslangan, haqqoniy talqinini tiklash tarixchilar oldida dolzarb vazifadir deb o‘ylayman.Chunki ular vatanimiz ozodligi yo‘lida kurashganliklari bizga a’yon. Ularni mehnatini yuzga chiqarish, ularni qadrlash ruxi poklarini shod qilish, ezgu ishlarini davom ettirish bizni burchimizga kiradi.ma’lumotlarim shunday dolzarb masalalardan iboratdir.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1 Б.В.Ҳасанов Т.ф.д., “Қатағон курбонлари хотираси” музейи
2 Usmonov Q., Sodiqov M. O‘zbekiston tarixi. 2008

[1] С Хошимов. (2021). XX асрнинг 20-30 йилларида миллий ташкилотлар таркибида қатағон қилинган андижонликлар. Общество и инновации, 2(2), 26-33.

3 Хошимов, С. XX асрнинг 20-30 йилларида миллий ташкилотлар таркибида қатағон қилинган андижонликлар. 2021

MUSTAFO KAMOL ATATURK: AYOLLAR HUQUQINING POYDEVORINI QURGAN YETAKCHI

Shaxinabonu DAVLATOVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Turk-ingliz guruhi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD A.Fayzullayev

Annotatsiya: Ushbu maqolada turk ayolining tarixiy jarayonlardagi mavqeyi va unga ta’sir etgan omillar yoritilgan. Islomdan avvalgi davrda ayollar erkaklar bilan teng huquqli bo‘lib, harbiy va siyosiy hayotda faol qatnashganlar. Islom dini va Vizantiya ta’siri ostida ayollarning ijtimoiy hayotdagi roli cheklana boshlagan, kiyinish erkinligi kamaygan, ko‘pxotinlilik va shariat asosidagi ajrimlar ayollar mavqeyini pasaytirgan. Shunga qaramay, qishloq ayollari ishlab chiqarishda faol bo‘lishgan. Mustaqillik urushi davrida esa ayollar milliy harakatlarda faol ishtirok etganlar, jangchilardan tortib, yordam tashkilotlarigacha turli sohalarda kurashganlar. Mustafo Kamol Otaturk bu xizmatlarni e’tirof etib, islohotlar orqali ayollarga ta’lim, erkinlik va jamiyatda tenglik huquqlarini bergan.

Kalit so‘zlar: Hakan, xatun, konstitutsiyaviy davr, Mustafo Kamol Otaturk, Kuvayi Milliye, maorif kongressi.

Tarix davomida turk ayolining mavqeyida muhim o‘zgarishlar yuz berdi. Erkak va ayol tengligi haqida gapirishimiz mumkin bo‘lgan Islomni qabul qilishdan oldin ayollarning profili — ot minish, o‘q otish, jangchi; ayol ham qasrning qo‘riqchisi, hokim va kofirdir. Davlat hokimiyati “hakan” va “xatun”da teng yig‘ilgan, ziyofatlarda birga o‘tirgan, urush va tinchlik qurultoylarida qurultoy va marosimlarda sajda qilgan. O‘troq tartibga o‘tish va islom madaniyatining ta’siri bilan turk ayolining mavqeyi va ijtimoiy hayotida jiddiy o‘zgarishlar yuz berdi, ayollar ijtimoiy hayotdan uzoqlasha boshladilar[1]. Istanbulning fath qilinishi va Vizantiya imperiyasining ijtimoiy hayotining ta’siri bilan ayollarning zig‘ir matolari va ro‘mollari keng tarqalgan kiyimlarga aylandi. Bunday kiyim uslubi va komendantlik soati butun mamlakat bo‘ylab qoidaga aylantirilgan va farmonlar bilan amalga oshirilgan. Ayollarni ijtimoiy hayotdan ajratgan yana bir omil ko‘pxotinlilik olib kelgan psixo-ijtimoiy muammo edi. Ijtimoiy hayotda to‘liq islom shariati tamoyillari asosida tashkil etilgan taloq ayollarning roziligiga ham, nikohga ham bog‘liq emas edi[2]. Biroq qishloqda

[1] Arayıcı. Ali (1999). Kemalist Dönem Türkive’sinde Eğitim Politikaları ve Köy Enstitüleri. S. 34-35
[2] Akyüz, Yahya (2001). Başlangıçtan 2001 'e Türk Eğitim Tarihi. İstanbul: Alfa Yayınları. S.56

yashovchi ayollarning ahvoli boshqacha edi. Ular dalada ishlab ishlab chiqarishga hissa qo‘shgan, xo‘jalik hayotiga aralashgan.

Usmonlilar imperiyasida ayollar, II Konstitutsiyaviy davr, Yevropadagi voqealarni misol qilib olib, jamiyatda qoidalariga to‘g‘ri kelmaydigan talablar bilan chiqishdi. Ozodlikka chiqarilishi, jamiyatning ikkinchi yarmi sifatida qabul qilinishi, jamiyatda munosib mavqega ega bo‘lishi, siyosiy va mehnat hayotida ishtirok etishi kerak bo‘lgan bu talablar Mustafo Kamol Otaturk tomonidan mustaqillik urushidan keyin amalga oshirilgan islohotlar bilangina qondirildi. Bu talablarning barchasi amalga oshishi uchun Mustafo Kamol Otaturk boshchiligida mustaqillik uchun kurash g‘alaba qozonishi kerak edi. Binobarin, Mustaqillik urushida g‘alaba qozonishda ayollarning o‘rni katta bo‘lgan. Xalqdan yordam so‘rab Kuvayi Milliye (xalq qo‘shini) uchun pul va yordam materiallari yig‘uvchi uyushmalar tuzgan ayollar guruhlari paydo bo‘ldi. Bundan tashqari, sulton hukumati, til biriktiruvchi davlatlar va ba’zi xalqaro tashkilotlar vakillariga norozilik telegrammalarini yuborish uchun uyushtirilgan. Ulardan eng faoli Sivas Kongressi va Kayseri, Nig‘de, Bolu, Amasya, Erzinjon, Burdur, Kangal va Pınarhisar kabi markazlarda bo‘limlarini ochgan Anadolu Ayollar Mudofaa Jamiyati, yana biri Asri Ayollar Jamiyatidan keyin Sivas gubernatori Reshit Poshoning rafiqasi Melek tomonidan tashkil etilgan. Ayollarning Mustaqillik urushiga qo‘shgan eng muhim hissalaridan yana biri shundaki, ular asosan qishloq ayollari va zobit xotinlari bo‘lgan dushmanga qarshi kurashdilar. Fatma Onboshi, Kara Fatma, Elifchik, Fatma Seher, Tayyar Rahmiye, Hatice Xatun, Gördesli Makbule, Asker Salme Hanim, Ayshe Hanim, Yemine Vardarli, Adile Onbaşı, Nezahat shular jumlasidandir[1]. Mustafo Kamol Posho, ayollarning mustaqillik urushiga qo‘shgan hissasiga “Men Anadolu ayollaridan ko‘ra ko‘proq harakat qildim, millatimni ozodlik va g‘alabaga olib borish uchun Anadolu ayollari kabi harakat qildim”- dedi. Mustafo Kamol Otaturk turk ayolining Mustaqillik urushidagi muvaffaqiyati tufayli, “Turk ayoli urush yillarida mamlakatga katta yordam berdi, u ham hamma kabi aziyat chekdi. U bugun ozod bo‘lishi, bilim olishi, maktablar ochilishi, mamlakatda erkaklar bilan teng mavqega ega bo‘lishi kerak. Uning bunga haqqi bor” dedi. U ayollarni munosib joylarga yetkazish uchun nima qilish kerakligiga ishora qildi.

Aholining savodxonlik darajasi 10 foizni tashkil etgan yangi tashkil etilgan davlatda ayollarda ancha past bo‘lgan bu ko‘rsatkichni bartaraf etish asosiy maqsad qilib belgilangan edi. Shu maqsadda 1928-yil 1-noyabrdan boshlab “Lotin harflari”ga o‘tish ta’minlandi. Shu maqsadda mamlakatda barcha fuqarolarga, erkaklarga va yangi harflarga o‘rgatish maqsadida safarbarlik e’lon qilindi. 1929-yil 1-yanvarda ayollar va millat maktablari ochildi. Xalqni savodli qilish maqsadida 1928-1937-yillarda Turk jamiyatida, jamoat markazlarida va jamoat xonadonlarida savodxonlik kurslari tashkil etildi[2]. Ta’limga hayotiy

[1] Ataay, Aytekin (2015). “Bir İnkılap Yapıtı Olarak Medeni Kanun”. Istanbul Üniversitesi S.98-104

[2] Başçı, Vahddettin (1999). “Kadının Statüsü Üzerine Bir İnceleme”. Atatürk Üniversitesi B. 24

masala sifatida qaralgan tuzumning o‘rnatilishidan oldingi davrda mamlakatni ishg‘oldan qutqarish uchun kurash olib borilgan bo‘lsa, boshqa tomondan 1921-yil 15-iyulda Anqarada “Maorif kongressi” bo‘lib o‘tdi. 250 dan ortiq ayol va erkak o‘qituvchilar yig‘ilgan qurultoyda boshlang‘ich va o‘rta maktab o‘qituvchilari o‘qituvchilari bir joyga to‘plangan, ammo qurultoyda boshlang‘ich va o‘rta maktab ta’lim dasturlari muhokama qilindi va erta muhokama tugadi[1].

Maorif Qurultoyidan keyin 1924-yil 3-martda 430-son bilan parlamentda qabul qilingan “Tevhid-i Tedrisat” qonuni Kongressdan so‘ng ta’lim sohasida birinchi bosqichda jadal o‘rganish maqsadida amalga oshirilgan innovatsion ta’lim birligiga erishishga qaratilgan. Maorif vazirligi va Usmonlilar imperiyasidagi madrasa va diniy maktablarga qarashli; Sultoni, Rushdiye, Idadiye kabi o‘rta ta’lim muassasalari va Iptidai kabi boshlang‘ich ta’lim muassasalari mavjud edi. Ayni paytda ayollar siyosiy va ijtimoiy hayotda ishtirok etish uchun turli urinishlar qildilar. Bu faoliyatlardan biri 1923-yilda Nezihe Muhuttin boshchiligidagi “Ayollar Xalq partiyasi” ning tashkil etilishi edi[2]. Viloyat Firkaning faoliyatini ma’qullamagach, Turk ayollari jamiyatining nomi nizom o‘zgarishi bilan o‘zgartirildi va uning tashkil etilishidan maqsad bu safar, gubernatorlik uning mavjudligini davom ettirishga rozilik berdi. “Intellektual va ijtimoiy sohalarda ayollikni ko‘tarish va zamonaviy va yetuk darajaga erishish uchun Turk ayollar ittifoqi har qanday narsani isbotlaydigan darajaga erishishga harakat qiladi. Qo‘rqoqlik urushining ramziga aylangan turk ayoli, zamonaviy rejimning ramziga aylantirildi va ulardan o‘zlariga yangi kimlik berishlari so‘raldi. Bu yo‘nalishda yangi avlodlarni tarbiyalaydigan turk ayollariga ko‘plab huquqlar berildi. Ishchi kuchining bir qismi bo‘lgan ayol ijtimoiy hayotda ishtirok etish va qaror qabul qilish mexanizmlarini ishlab chiqish uchun Yevropa va dunyoning ko‘plab davlatlaridan oldin bu huquqlarni qo‘lga kiritgan edi. Dastlab Mustafo Kamol Otaturk, jumladan Turkiya Respublikasining asoschilari ham qatllarning tartib va uzluksizligini ta’minlash maqsadida yangi davlatni shaxs va tuzumning zamonaviy davr talablari asosida sog‘lom shaklda tayyorlashga katta ahamiyat berdilar. Otaturk davrida davlat byudjetining muhim ulushi doimo Maorif vazirligiga ajratilgan. Bundan talabalar. byudjet fan, siyosiy-ijtimoiy fanlar, tasviriy san’at va boshqalarga ta’lim uchun chet elga ketishi mumkin edi. Ular turli sohalarda o‘qish uchun xorijga yuborilgan. Bundan tashqari, bu boradagi kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida xorijdan mutaxassislar ham Turkiyaga taklif qilindi, Germaniyadan qochgan professorlar mamlakatga taklif qilindi va 1933 yilda ochilgan Istanbul universitetida qatnashdilar[3]. Atrof-muhit ta’siriga qaramay, universitet darajasida qiz talabalar soni asta-sekin o‘sib bordi, bu erda qiz talabalar erkak talabalar bilan davom etdi.

[1] Başgil, A.Fuat (1956). Türk Siyasi Rejimi ve Anayasa Müesseseleri (Ders Notları), İstanbul: Teksir İşleri

[2] Doğramacı, Emel (1997). Türkiye’de Kadının Dünü ve Bugünü. Ankara: Türkiye B. 58-67

[3] Arıkan, Türkan (1984). “Atatürk’ün Türk Kadını Hakkındaki Görüşlerinden Bir Demet (Türk Kadınına Seçme ve Seçilme Hakkı 50.Yıl)”. Ankara: TBMM-Türkiye Büyük Millet Meclisi: 1-55.

Ayollarning ishlash huquqi. Otaturk davrida turk ayollari 1935-yilning 22-aprelida “Xalqaro xotin-qizlar kongressi”ga mezbonlik qildilar. Turkiyada boshqa davlatlar bilan ish muhiti yaratib, erkaklar va ayollarni xushnud etgan ayollarimizning dunyoga mashhur ziyolilari, xalqaro tashkilotlarda global o‘zgarishlar bilan ayollarning tinchlik va birodarlik ichida borligi haqida gapirila boshlandi. G‘arblik ayol sanoat inqilobi bilan uydan tashqarida ish joyini qo‘lga kiritishga muvaffaq bo‘ldi. Fuqarolik tanlash qonunini qabul qildi va dunyoning turli burchaklaridan turli fikr va munozaralar bilan bo‘lsa-da, ovoz berish huquqi va ularning ish hayotida aks etishi bilan ayollar hayotida sezilarli yaxshilanishlarni boshdan kechirganidan keyin qabul qilindi[1].

Xulosa shuki, urush shiddatli kechgan yillarda Otatuk savodxonligi atigi 10% bo‘lgan jamiyatda milliy ta’limga ahamiyat bergan edi. Bu har bir shahar uchun qilingan ishlar natijasida har bir shahar va qishloqda ochilgan Milliy maktablar loyihasiga yo‘l ochdi. Bu kampaniyada askarlar, savodxonlar, o‘qituvchilar bor edi. Ayniqsa, Jamoat uylari va jamoat xonalari ta’lim kampaniyasiga tayyor edi. O‘qimishli onalarning kelajak avlodni tarbiyalashi muhimligini anglagan Otaturk jamiyatning yarmini ozod qildi, qolgan yarmini ta’limdan chetda qoldirishni to‘g‘ri deb topmadi va shu bilan o‘zining inqilobi bilan sivilizatsiyalar rivojida erkak-ayol hamjihatligi muhim o‘rin tutadi, degan g‘oyani ilgari surdi. Shveysariya sivilizatsiya qonunidan misol olib, Turk Sivilizatsiyasi qonuni ayollarni shaxs sifatida qabul qilib, ularga erkaklar kabi teng sharoitlarda jamiyatda ishtirok etish imkoniyatini berdi. Bu imkoniyat xalqaro shartnomalar va ayollarning mehnat hayotiga oid qonunlar bilan qonuniy ravishda mustahkamlandi. Mustaqillik uchun kurash ramziga aylangan ayollar ko‘plab mehnat huquqlariga ega bo‘ldilar, chunki urushlar tufayli erkaklar soni kamaygan. Ayol, Otaturk davrida sahnaga chiqqan birinchi ayol uchuvchi, birinchi dunyo go‘zali unvonlarini oldi. Shu bilan birga, xorijga oliy o‘quv yurtlariga jo‘natilgan talabalar orasida xotin-qizlar ham bor edi, ular oxir-oqibat o‘z vataniga xizmat qilish maqsadida qaytib kelishdi. Shunga qaramay, birinchi siyosiy taqdimotni qo‘lga kiritish bilan Yevropadagi zamondoshlaridan oldinda bo‘lgan ayollarga mahalliy boshqaruv va parlamentlarda o‘z so‘zini aytishga ruxsat berildi. Nihoyat, 1935-yilda 18 nafar ayol birinchi marta Turkiya Buyuk Millat Majlisida parlament deputatligiga saylanib, boshqaruv mamlakatlarida o‘z so‘ziga ega bo‘ldi. Respublika davrida shifokor, o‘qituvchi, ishbilarmon ayol, diplomat sifatida muvaffaqiyat qozongan ayollar, natijada Otaturk nazarda tutgan ijtimoiy siyosatlar bilan bugungi kunga yetib keldilar. Turk ayollari bu huquqlardan mahrum bo‘lgan ko‘plab davlat ayollari uchun namuna bo‘ldi. Bu yo‘nalishdagi tadqiqotlar dunyoda ayollar huquqlari bilan bog‘liq tarixiy o‘zgarishlarni yoritib beradi.

[1] Başgil, A.Fuat (1956). Türk Siyasi Rejimi ve Anayasa Müesseseleri (Ders Notları), İstanbul: Teksir İşleri. B. 45-57

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ataay, Aytekin (2015). “Bir İnkılap Yapıtı Olarak Medeni Kanun”. Istanbul Üniversitesi B. 108
2. Akyüz, Yahya (2001). Başlangıçtan 2001 'e Türk Eğitim Tarihi. İstanbul: Alfa Yayınları.
3. Arayıcı. Ali (1999). Kemalist Dönem Türkive’sinde Eğitim Politikaları ve Köy Enstitüleri.
4. Doğramacı, Emel (1997). Türkiye’de Kadının Dünü ve Bugünü. Ankara: Türkiye s. 80
5. Arıkan, Türkan (1984). “Atatürk’ün Türk Kadını Hakkındaki Görüşlerinden Bir Demet (Türk Kadınına Seçme ve Seçilme Hakkı 50.Yıl)”. Ankara: TBMM-Türkiye Büyük Millet Meclisi: 1-55.
6. Başçı, Vahddettin (1999). “Kadının Statüsü Üzerine Bir İnceleme”. Atatürk Üniversitesi.
7. Başgil, A.Fuat (1956). Türk Siyasi Rejimi ve Anayasa Müesseseleri (Ders Notları), İstanbul: Teksir İşleri B. 98
8. Ates, Toktamış (2010). Türk Devrim Tarihi. İstanbul, Bilgi Üniversitesi Yayınları. B. 120.

JADIDLAR FAOLIYATI TALQINI TARIXIY XOTIRA SAHIFALARIDA (SADRIDDIN AYNIY MISOLIDA)

Feruza USERBAYEVA
Chirchiq davlat pedagogika universiteti
tarix yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: o‘qituvchi F.Kamoliddinov

Annotatsiya: Ushbu maqolamizda jadidlar faoliyatining olib borishdan ko‘zlangan maqsadlar va ular belgilab olgan asosiy yo‘nalishlari xususidagi fikrlar o‘rin olgandir. Hamda ushbu faoliyatni tashkil etishdagi Buxorolik jadidchilik harakatining namoyondalaridan Sadriddin Ayniyning faoliyati nuqtai nazaridan yondashilib, uning ta’lim borasida olib borgan harakatlari va ta’lim sohasini rivojlantirishga qaratilgan fikrlari yoritilib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Jadid, ta’lim, islohot, millat, til, zamon, xalq, adabiyot, tarbiya, zamon.

Vatanimiz mustaqillikka erishgach, ijtimoiy-siyosiy hayotning hamma jabhalarida: o‘zlikni anglash, ma’naviy- ma’rifiy qadriyatlarni chuqur idrok etish va xalqqa yetkazish, yoshlarni Vatanga, xalqqa muhabbat ruhida tarbiyalashda ulkan ishlar amalga oshirildi. Ma’naviy hayotni yuksaltirishda hukumat tomonidan uzoqni mo‘ljallab ishlab chiqilgan maxsus dasturlar hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Ayniqsa, iqtidorli yoshlarning ta’lim-tarbiyasi, dunyoning taraqqiy etgan oliy o‘quv yurtlariga o‘qishga yuborish davlat ahamiyatiga ega bo‘lgan masalalar sirasiga aylandi. Jadid pedagoglari ham yoshlar tarbiyasi masalasiga hayot yoki mamot masalasi deb qaraganlar. Shu ma’noda, XX asr

boshi bilan oxiridagi ma’rifiy-ma’naviy va ijtimoiy-siyosiy hayotda ham ajib bir o‘xshashlik va yaqinlikni his etish mumkin.

Jadidchilik harakatining tamal toshi usuli jadid maktablaridir. Bu jadidshunoslar tomonidan yakdil e’tirof etilgan fikr. Bu harakatning asl maqsadi millatning o‘zligini tanitish, ijtimoiy-siyosiy tuzumni tubdan isloh qilish, Millat, Vatan istiqloli edi. Ma’lumki, bunday buyuk o‘zgarishlarni yangi avlodgina amalga oshira oladi. Buning uchun taraqqiy etgan millatlar bilan hamqadam avlodni tarbiyalab yetishtirish kerak. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Ulug‘bek, Navoiy kabi buyuk jahoniy mutafakkirlarni tarbiyalab yetishtirgan an’anaviy mahalliy maktablar XVI asrdan boshlab jahon taraqqiyotidan butunlay uzilib qolgan, buning ustiga, mustamlaka tuzumi tufayli parokanda ahvolga tushgan, mahalliy maktablar va ta’lim-tarbiya tizimi bilan bu buyuk vazifani bajarish mumkin emas edi. Shuning uchun ham mahalliy maktablarni tubdan isloh qilish, zamon talablariga javob bera oladigan maktablar, oliy o‘quv yurtlari tashkil qilish jadid mutafakkirlarining birlamchi va asosiy vazifasiga aylandi. Jadid pedagoglari ibtidoiy maktablarni “usuli savtiya” (“tovush usuli”) metodi asosida qayta tiklash masalasini davlat siyosati darajasiga ko‘tardilar: dastlabki alifbolar, aniq fanlar bo‘yicha darsliklar, o‘qish kitoblarini yaratdilar. Gubernatorlik ma’murlari, mutaassib ulamolar qarshiliklarini yengib, zamon talablariga javob bera oladigan o‘qituvchi kadrlar tarbiyalab yetishtirdilar. Ularning bunday faoliyati keskin kurashlar, ta’qib va tazyiqlar jarayonida kechdi [1]. Lekin shunga qaramasdan ularning faoliyati davom etdi. Jumladan Sadriddiy Ayniyning ham hayotiy faoliyatida ham shunday sahifalar ko‘zga tashlanlanadi.

Asosiy qism

Bilamizki, Sadriddin Ayniy — yozuvchi, olim va o‘zbek hamda tojik adabiyotining XX asr jamoat arbobi. Ayniy o‘zbek va tojik adabiyotida ham tarixshunos, ham adabiyotshunos va olim sifatida ilmiy-tadqiqiy ishlarni olib borgan. Rudakiy, ibn Sino, Sa’di, Vasifiy, Bedil, Navoiy, Ahmad Donish kabi shoir va olimlar haqida romanlar yozgan. 1878 yil Buxoro viloyatining G‘ijduvon tumani, Soktari qishlog‘ida tug‘ilgan. Uning otasi tegirmon ustasi, dodasi esa mulla bo‘lgan. Olti yoshligida otasi Sadriddinni masjid qoshidagi maktabga topshiradi. Ammo, maktab o‘qituvchisi savodsiz bo‘lgan, shu sababli, ota o‘g‘lini bu maktabdan olib, qishloq mullasining rafiqasi Bibi Xalifaning ayollar uchun maktabiga joylaydi. Maktab ta’limida u o‘qish va yozishni o‘rganadi. Ta’lim olib savod chiqarishda Buxoroda ta’lim olgan Sayid Akbar hissasi kattadir[2] .

Sadriddin Ayniy hayotida turli davr va voqealarni boshidan kechirgan. Uning hayotining birinchi davri amirlik davri, feodal o‘rta asrlar davri va kapitalistik munosabatlarning boshlanishi bo‘lsa, keyingi davr eski tuzumni yo‘q qilish va yangi sotsialistik jamiyat barpo etish uchun kurash davridir. Binobarin, bu ikki davr Sadriddin Ayniyning ijodida keng aks etgan. Jumladan o‘sha davrning hayot suratining ma’lum darajada rivojlanishi yoki Buxorodagi yangi harakatning

[1] Ulug‘bek Dolimov “Turkistonda jaded maktablari”, Toshkent; ‘Universitet’-2006, -B.128.
[2] Sadriddin Ayniy, ’Tarixi inqilobi Buxoro‘-Dushanbe, 1987-C.20

boshlanishi bunga misol bo‘la oladi. 19-asrning ikkinchi yarmida, amirlik taraf-dorlari hech qanday o‘zgarishlar bo‘lishini istamagan. Buxoro amirligi tuzumi davrida tojik xalqining ajdodi, ma’rifiy harakat asoschisi Ahmad Maxdumiy Donish (1826-1897), Usta Ayniyning so‘zlariga ko‘ra, ‘qorong‘u tunlarning oxirida paydo bo‘ladigan tong yulduzi kabi, yorqin va porloq ... porlaydi’[1]. Bu olijanob inson o‘z ijodi, ayniqsa, mashhur “Navodir ul-vaqoe” asari bilan Buxoroning bir qancha ziyolilarini yangi hayotga uyg‘otdi. Ustoz Ayniy o‘sha uyg‘onganlardan biri sanaladi. Ustoz Ayniyning o‘zi mutolaadan olgan taassurotlari juda boy va sermazmundir.

Ahmadi Donishning “Navodir ul vaqoe” asari haqida Sadriddin Ayniy shunday fikrlarni yozib o‘tgan: Men bu kitobni qayta-qayta o‘qib, “Men undan ko‘p zavq oldim... Ahmad-Maxdumni nega kofir deyishganini shundan keyin angladim”. U bu kitobida amaldor mullalarni shafqatsizlarcha tanqid qilgan, ummat va ulamolar o‘rtasidagi buzg‘unchilikni, ta’lim usullaridagi illatlarni, Madrasada o‘qiladigan ko‘p narsalarning qadrsizligi va keraksizligi haqida qo‘rqmasdan yozgan. Shuning uchun uni kofir deyishdi! Shundan so‘ng men Ahmad-Maxdumning kimligini tanidim va mullalarga, o‘qigan darslarimga bo‘lgan qarashim o‘zgardi; deb o‘zining fikrlarini yozib o‘tadi. Bundan ko‘rinib turibdiki Sadriddin Ayniy ushbu asarni talqiniga alohida ahamiyat qaratib o‘qib, mulohaza qilganligi. Ushbu asarning haqiqatga monand yozilganligini alohida tadqiq etgan ekanligini va shu xususda o‘zining fikr va mulohazalarini ham bildirib o‘tganligini qayd etib o‘tadi.

19-asr oxiri va ayniqsa, 20-asr boshlarida Buxoro amirligi dunyo yangiliklaridan chetda qolish mumkin emas edi. Buxoroga har xil gazetalar kelib, dunyoning turli voqealariga oid materiallarni chop etilardi. Jumladan, tatar modernistik harakatining asosiy yetakchilaridan biri Ismoil Gaspariy (1851-1914) tashabbusi bilan 1883-1914 yillarda Bog‘chasaroyda tatar tilida nashr etilgan “Tarjimon” gazetasi ham tarqatilar edi.

Buxoroda, Hindistonda nashr etilgan “Habl-ul-matin”, Misrda nashr etilgan “Chehranamo”, “Parvarish” jurnallari ham fors tilida tarqatilgan. Ayniqsa, Buxoroga oid tanqidiy maqolalar e’lon qilingan bu gazeta va jurnallar ta’sirida ziyolilar amirlikning voqeligi haqidagi qarashlarini o‘zgartirdilar. Sadriddin Ayniyning “tabiiyki, bu gazetalar... aholining bir qismiga ozmi-ko‘pmi yangi g‘oyalar berdi” degan so‘zlari [2] ham bunga to‘laqonli dalil bo‘la oladi.

Ayniyning ilmiy-ijodiy merosini adabiyot, tarix, pedagogika yoki adabiyotshunoslik nuqtai nazaridangina emas, balki tilshunoslik jabhasidan ham baholash lozim bo‘ladi. Ayniyning ulug‘ligi ham, tengsizligi ham ana shunda — u boshqa birovlar uddalay olishga aql bovar qilmaydigan ishlarni bajarishga qodir bilim va salohiyat sohibi edi. Ayniy ilm va ijod uchun tug‘ilganligini bilar, shuning uchun butun kuch-quvvati, qobiliyatini ilm-fan, adabiyot ravnaqiga bag‘ishlagandi.

---

[1] Садриддин Айни-маорифпарвар-Душанбе, 2018,-С.7

[2] Sadriddin Ayniy tavalludining 145 yilligiga bag‘ishlov | Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sadriddin-ayniy-145.html

Sharq mumtoz ilmiy-adabiy merosini o‘qib-o‘rganish, tadqiq va targ‘ib qilishda Ayniy erishgan natija va yutuqlarga faqat havas qilish, ulardan ibrat olish mumkin. Ammo Ayniyning “panjasiga panja urish” juda qiyin. Shuning uchun ham uning Rudakiy, Ibn Sino, Sa’diy, Navoiy, Bedil kabi daholarga bag‘ishlangan tadqiqotlari shu kungacha o‘zining ilmiy qimmati va ahamiyatini saqlab kelmoqda. Biz shu o‘rinda Ayniyning faqat bedilshunosligiga daxldor ayrim mulohazalarga e’tiborni qaratmoqchimiz. Ma’lumki, Ayniy madrasada tahsil olgan davrlarda Buxoroda ulug‘ faylasuf shoir Mirzo Bedil ijodiyotiga qiziqish ancha kuchaygan edi. Turli ijtimoiy tabaqadagi, saviyasi turlicha bo‘lgan kishilar bedilxonlik qilishgan. Shoirlar Bedilga ergashib nazira va taxmislar bitishgan. Ayniy bu jarayonning ham kuzatuvchisi, ham ishtirokchisi edi. Bedilga ko‘r-ko‘rona taqlidlarni istiqbolsiz bir ijodiy harakat o‘laroq rad etgan. Chunki Ayniy madrasadayoq zukko bedilshunos sifatida shakllangan edi[1]. Bu fikrlar Sadriddin Ayniy o‘z zamonasining haqiqatdan ilm peshvosi bo‘lganligidan dalolat beradi.

Xulosa o‘rnida shuni qayd etishimiz lozimki Jadidlar doim ilm-fan ma’rifatga talpinganlar. Xalqning ham uyg‘otishga qaratilgan so‘zlari ham ushbu so‘zlarimizning to‘la isbotidir. Ularning ta’lim borasida ushbu sohani isloh qilishga qaratilgan samarali ishlari e’tirofga loyiqdir. Albatta-ki ta’lim har bir zamonning uyg‘onishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan. Jadidchilik faoliyati haqida so‘z borar ekan ushbu jarayonda o‘zining yo‘nalishiga, qarashlariga ega bo‘lgan jadid Sadriddin Ayniyning ham faoliyati juda katta ahamiyat kasb etishini ko‘rishimiz mumkin. Sadriddin Ayniy ham o‘zining ijodiy salohiyati negizida ilm-fan va ma’rifatga talpingan. Uning asarlari biz uchun meros, shunday ekan Sadriddin Ayniyning bizga qoldirgan adabiy merosini qadrlashimiz lozimdir!

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ulug‘bek Dolimov “Turkistonda jaded maktablari”, Toshkent; ‘Universitet’-2006, -B.128.
2. Sadriddin Ayniy, ’Tarixi inqilobi Buxoro‘-Dushanbe, 1987-C.20
3. Садриддин Айни-маорифпарвар-Душанбе, 2018,-С.7
4. Sadriddin Ayniy tavaludining 145 yilligiga bag‘ishlov | Xurshid Davron kutubxonasi https://kh-davron.uz/kutubxona/uzbek/sadriddin-ayniy-145.html
5. Ulug‘bek Dolimov “Turkistonda jaded maktablari”, Toshkent; ‘Universitet’-2006, -B.128
6. Begali Qosimov. ‘Milliy uyg‘onish: Jasorat, Ma’rifat, Fidoiylik’. Toshkent. Ma’naviyat , 2002-yil, 15-bet
7. Userbayeva Feruza ‘Buxoroda jadidchilik harakatining namoyondalari (Sadriddin Ayniy misolida)’; Buxoro-2024 10-may, -B.437

[1] Ulug‘bek Dolimov “Turkistonda jaded maktablari”, Toshkent; ‘Universitet’-2006, -B.128

IMOM MOTURIDIY HAYOTIGA NAZAR VA ISLOM DINIGA QO‘SHGAN HISSASI

Gulobar TO‘XTAVALIYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafasi fakulteti
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: dotsent R.R.Alimova

Annotatsiya: Ushbu maqola hidoyatga boshlovchi olim Imom Moturidiy hazratlarining hayoti, bosib o‘tgan yo‘li, bizga qoldirgan boy merosi hamda islom diniga qo‘shgan hissasi, Moturidiylik ta’limoti, Moturidiylik maktabiga asos solinishi, bu ta’limotning maqsad va vazifalari, uning xotirasiga bag‘ishlanadi.

Kalit so‘zlar: Imom Moturidiy, Moturidiylik, falsafa, din, ta’limot, kalom.

“Muayyan dunyoqarash, dunyoni anglash nuqtai-nazaridan ifoda etilgan g‘oyalar, dasturlar, axloq-odob maromlari aqlli odam ishonchi (imoni) ga aylansa qadrlanadi, e’zozlanadi. Imonli odam o‘z ixtiyori bilan qabul etgan g‘oyalar, timsollarni muqaddas bilib, hayotini ularsiz tasavvur eta olmaydi, och, yalang‘och qolishga, barcha mahrumliklarga, hatto o‘limga ham rozi bo‘ladi, ammo o‘z iymoniga xilof keladigan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaydi”[1]. Yetuk olim Imom Moturidiy o‘z ta’limoti orqali ko‘plab ixtiloflarni oldini oladi, islom dini asoslarini to‘g‘ri tushuntiradi. Sof islomiy aqidani saqlab qolish borasida beqiyos ishlar olib boradi. Uning ta’limoti bugungi kun uchun ham g‘oyat dolzarb ahamiyat kasb etib, to‘g‘ri yo‘ldan adashgan ba’zi guruhlarning g‘oyalarini fosh etishda yaqindan yordam berib kelmoqda. Imom-ul-xudo unvoniga sazovor bo‘lgan buyuk olim Imom Moturidiy hazratlarining dunyoga kelgan yili to‘g‘risida tarixiy manbalarda aniq bir qat’iy ma’lumot afsuski yo‘q. Ammo ba’zi manbalarda esa 870-milodiy yilda tug‘ilgan deya keltirib o‘tilgan. Moturidiy Abu Bakr Ahmad Juzjoniy, Abu Nasr Ahmad Imomi A’zam mazhabidagi buyuk olim Nasr ibn Yahyo Balxiy, Muhammad ibn Fazl kabilarni o‘zining ustozi deb bilgan.

Imom Moturidiy ko‘p shogirdlar yetishtirgan. U shogirdlariga fiqh, usul-ul fiqh va boshqa diniy ilmlardan saboq bergan. Manbalarga tayanib ish ko‘rilsa, Moturidiyning shogirdlari haqida ham ma’lumotlar ko‘p. Lekin ularning barchasiga ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ishonish qiyin. Chunki bu ma’lumotlarning mualliflari yashagan davrda Moturidiy shuhrat pog‘onasiga ko‘tarilib bo‘lgan edi, shu bois nafaqat haqiqiy, balki soxta shogirdlar haqida ham ma’lumotlar uchraydi. Bu esa o‘z navbatida shogirdlar doirasining kengayishiga olib keladi. Asosiy shogirdlaridan biri sifatida Abul-Qosim Ishoq ibn Muhammad ibn Ismoil ibn Zayd al-Qoziydir[2]. U ustozidan turli fanlardan saboq oldi, hatto ma’lum muddat qozilik lavozimida ishladi. Abu Mansur al-Maturidiy mutazilitlar va jahmitlar bilan tortishuvlarda “asosli dalillar” va qo‘rqinchli dalillarni ishlatgan. Moturidizm nihoyat XIII asrda shakllandi va Usmonli hukmronligi davrida

[1].Каримов И. Имон ва инсон. – Т., “Фан”, 1991. – Б. 4.
[2] Ubaydulla Uvatov, Saidmuxtor Oqilov, Ergash Daminov. Moturidiya ta’limoti va Abu Muin Nasafiy ilmiy merosi. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyoti, 2018. – B. 213.

musulmon dunyosida eng katta tarqalish va ta’sirga ega bo‘ldi. Moturidizm ko‘pgina hanafiylar tomonidan e’tiqodning doktrinal asosi sifatida qabul qilingan. Al-Moturidiyning falsafasi va uning qarashlari umuman uning zamondoshi bo‘lgan Abul-Xasan al-Ashariyning (asharitlaming eponimi) e’tiqodlariga yaqin. Ushbu o‘rtasidagi farq “Xudoning mavjudligi” masalalarida yotadi, unda al-Moturidiy vahiydan tashqari ongga tayanishga ruxsat bergan, ammo shu bilan birga u Xudoning amrlarini ong bilan tushunib bo‘lmasligini tan olgan.[1]

Hazrat Moturidiy juda ko‘p unvonlarga sazovor bo‘lgan hamda kalom maktabiga asos soladi. Misol sifatida “Imom-ul mutakallimin’’ ya’ni Kalom ilmi olimlarining peshvosi deya e’tirof etiladi. Kalom ilmi o‘rta asrlarda falsafiy-diniy fikrlar va dinning nazariy asoslarini o‘rganish, islom aqidalariga e’tiqod etish haqidagi bilimlarni ifodalagan. Biron-bir dinga mansub shaxs uchun majburiy hisoblangan, har qanday sharoitda muhokama qilmasdan e’tiqod qilinishi lozim bo‘lgan diniy talablar majmuiga nisbatan aqliy mulohaza yuritish jarayonida u maxsus bilimlar tizimi sifatida vujudga keldi. Kalom – “ilm-ul kalom” atamasi keng ma’noda o‘rta asrlar musulmon adabiyotida diniy-falsafiy mavzularda (jumladan, nasroniylik va yahudiylikda ham) erkin fikr yuritishga nisbatan qo‘llangan, tor ma’noda esa aqidaparastlik, ya’ni dinda obro‘-e’tiborli hisoblangan shaxslar – payg‘ambar, sahobalarga taqlid yo‘li bilan emas, balki Qur’on va sunniy ta’limotni aql-idrokka mos talqin etish, tafakkurga suyanib ish yuritishga nisbatan ishlatilgan. Hadis ilmi payg‘ambarimiz tomonidan rivoyat qilingan gap va ishlarni, fiqh ilmi shariat qonunchiligini, kalom ilmi esa islom dinida e’tiqod qanday bo‘lishini o‘rgatadi. Kalom, shu tariqa, o‘z taraqqiyoti davomida shariat ilmining tarkibiy qismiga aylandi. Shar’iy asosdagi “kalom” yo‘nalishi to‘lig‘icha Abu Mansur Moturidiyning ta’limotidan boshlanadi[2].

Moturidiy o‘z ta’limotini an’analarini va ilmiy asarlari bilan Movarounnahr ilohiyot maktabi rivojlanishiga katta ulush qo‘shdi. Ilohiyot ilmlari to‘la shakllanib kamol topishiga xizmat qildi. Ularni qayta ishlab chiqib, ma’lum tizimga solishdek bir ishni amalga oshirdi va hanafiy ta’limotini O‘rta Osiyo xalqlarining urf-odatlari bilan bog‘liqligini o‘z qarashlari orqali ko‘rsatib berdi. Uning ta’limoti islom dinida ikki buyuk aqidaviy yo‘nalishdan biri sifatida tanildi[3]. Moturidiya aqidasi Qur’on, hadis va aql-idrok, mantiq va haqiqatga yaqin ekani bilan boshqa ta’limotlardan ajralib turadi. Abu Mansur Moturidiy o‘z ta’limoti bilan bog‘liq aksariyat fikrlarini “Kitob tavhid” asarida bayon etgan. Xususan, o‘zga toifadagi firqalarga qarshi shunday so‘zlarni aytadi: “Ular tafakkur va tadqiq bilan qarasalar edi, Alloh taolo ham bandalarini tafakkur va tadqiqot, ibrat va tajriba bilan ish qilishga buyurganini tushunar edilar, ibrat va tafakkur esa ilm manbalaridan biridir”. Moturidiylik ta’limoti mu’taziylar kabi faqat aqlga suyanish emas, balki naqldan ham qo‘shib foydalanishni zarur deb biladi. Aqida borasida qo‘shgan yana bir hissasi shuki, o‘sha davrlarda juda

[1] Mahkamov Q. Dinshunoslik (uslubiy qo‘llanma). – NamDU. ARM, 2020. – B. 105.

[2] Al-Moturidiy ta’limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o‘rni. Ma’ruzalar to‘plami. – T., 2000. – B. 25-26.

[3] Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz. Imom Moturidiy tavalludining 1130-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlangan nutq. 9-j. – T., 2001.

ko‘plab firqalar e’tiqod borasida o‘z fikrlari bilan musulmon ahlini turli yo‘llarga boshlagan edi. Moturidiy esa bunga chek qo‘yadi va bu o‘lkada yagona aqida tizimini (ya’ni hanafiya mazhabi asosida) o‘rnatadi. U barcha aqidalar orasidagi bahsli mavzularni har bir firqaga dalillar asosida isbotlab beradi. Natijada turli xildagi mayda oqimlar ko‘payishining oldi olinadi.

Moturidiylikda har bir insonning taqdiri Alloh tomonidan belgilab qo‘yilganiga qaramay, u o‘z xatti-harakatlari uchun javobgardir, deb hisoblanadi. Moturidiylikka ko‘ra, inson imtihonlar uchun yaratilgan. Shu bilan bir vaqtda taqdir sinovlaridan o‘tishi kerak va to‘g‘ri yo‘lni topish uchun harakat qilishi kerak. Hayoti davomida har bir qabul qiladigan qarorlari o‘ziga bog‘liq ekanligini ta’kidlaydi. Imom Moturidiyning ko‘p asarlari bizgacha yetib kelmagan. Faqat 3 dona asarlari saqlanib qolingan. Bular “Ta’vilotu ahl as-sunna”, “Kitob at-tavhid” va “Kitob-ul maqolat”dir. Moturidiy hazratlaridan bizgacha yetib kelgan hikmatida shunday degan, “to‘g‘ri yo‘lning kaliti ilmdir”, bu hikmatdan juda ko‘p xulosalar chiqarsa bo‘ladi. Dinni asl mohiyatini anglab yetmaydiganlar afsuski bugungi kunda ko‘plab topiladi. Bularning hammasi ilmsizlik va muhit toza emasligidan kelib chiqadi. Moturidiya aqidasiga doir masalalarni shayx Moturidiyning yakka o‘zlari tuzib, tartibga solgan emaslar, balki ul zotga qadar ham Ahli Sunna val-Jamoa aqidasi shakllanib ulgurgan edi. Moturidiy hazratlarining xizmatlari shundan iborat bo‘lganki, o‘sha davrdagi aqidaviy oqimlarning ta’sirini qirqish, ularning iddaolariga raddiya berish, kuchli va asosli dalillar bilan haqiqiy islom aqidasini himoya qilish, ilmi kalom, mantiq va munozara qoidalariga rioya qilgan holda jaholatiga ilm-u ma’rifat bilan javob qaytarib, chin ixlosli musulmonlar uchun aqidaga doir muhim qo‘llanmalar tayyorlab bergan[1].

Mustaqillik sharofati bilan diniy qadriyatlarimiz tiklanayotgan Vatanimizda Morturidiyning 1130 yilligi nishonlandi. Samarqandda al-Moturidiy xotirasiga bag‘ishlangan yodgorlik majmui barpo etildi, asarlari o‘zbek tilida nashr etildi. 2020-yil 11-avgust kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi tashkil etildi[2]. Ushbu markazda alloma merosi chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganilmoqda. Birinchi Prezidentimiz Moturidiy hazratlariga quyidagicha ta’rif bergan: Islom olamida “Musulmonlarning e’tiqodini tuzatuvchi” degan yuksak sharafga sazovor bo‘lishi bu nodir shaxsning ulkan aql-zakovati va matonatidan dalolat beradi[3]. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning bevosita tashabbusi bilan Samarqandda Imom Buxoriy majmuasi yonida moturidiylik ta’limotini o‘rganish maqsadida kalom ilmi maktabi, Qarshida aqida maktabi faoliyat olib bormoqda.

Imom Abu Mansur Moturidiyning ta’limotini yoshlar va nafaqat kattalar to‘g‘ri anglash, axloqiy va ma’naviy tarbiyasida shuningdek, diniy ilmsizlikning oldini olishda katta yordam beradi, desak xato bo‘lmaydi. Imom Moturidiy

[1]https://www.sammuslim.uz/oz/articles/aqidah/imom-moturidiy-bizga-qanday-meros-qoldirgan

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4802-son Qarori.

[3] Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch. – T., 2008.

murakkab yo‘lni bosib o‘tgan buyuk olim hisoblanadi. Zinhor savobli ishini yarim yo‘lda tashlab ketmagan. Hazratning bunday savobli ishlari tufayli har birimiz minnatdor bo‘lishimiz kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 11-avgustdagi “Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4802-son Qarori.
2. Al-Moturidiy ta’limoti va uning Sharq xalqlari madaniyatidagi o‘rni. Ma’ruzalar to‘plami, – T., 2000.
3. Karimov I.A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas’ulmiz Imom Moturidiy tavalludining 1130-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimda so‘zlangan nutq, 9-j, – T., 2001.
4. Karimov I.A Yuksak ma’naviyat va yengilmas kuch. – T., 2008.
5. Каримов И. Имон ва инсон. – Т.: “Фан”, 1991.
6. Ubaydulla Uvatov, Saidmuxtor Oqilov, Ergash Daminov. Moturidiya ta’limoti va Abu Muin Nasafiy ilmiy merosi. – Toshkent: “Movarounnahr” nashriyoti, 2018.
7. Mahkamov Q. Dinshunoslik (uslubiy qo‘llanma). NamDU. 2020.
8. https://www.sammuslim.uz/oz/articles/aqidah/imom-moturidiy-bizga-qanday-meros-qoldirgan

MUSULMON ANDALUSIYASIDA MADANIY HAYOT

Sevinch AZAMATOVA
TDSHU, Sharq falsafasi va germenevtika yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD J. Sulaymonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada arablar bosqini davridan keyingi Andalusiya madaniy hayoti yoritilgan bo‘lib, Qurdoba amirligi va xalifaligida mavjud bo‘lgan kutubxonalar, me’morchilik obidalari, Andalusiya musiqasi haqida muxtasar bayon etilgan. Andalusiyada o‘z faoliyatini olib borgan faylasuflar va olimlarning ilmiy izlanishlari , ularning yutuqlari va bilimlarning G‘arbiy Yevropaga ko‘chishida ularning tutgan o‘rni haqidagi ma’lumotlarni topishingiz mumkin.

Kalit so‘zlar: vandallar, sivilizatsiya, astronomiya, diniy mafkura, ensiklopediya, muvashshih, epik me’morchilik.

Arab xalifaligining Shimoliy Afrikadagi noibi muso ibn Nusayr Andalusiya yurishiga Toriq ibn Said ismli, kelib chiqishi barbar bo‘lgan qo‘mondonni tayinlaydi. Guadalete jangida qirol Roderix qaqshatqich zarba bilan mag‘lub etilgandan so‘ng bir muncha vaqt o‘tib Pireney yarimorolining katta qismi musulmonlar qo‘l ostiga o‘tadi.

Qazishma ishlari natijasida topilgan tangalardan biri 716-yilda bosib chiqarilgan bo‘lib uning sirtida al-Andalus so‘zi yozilgan edi. Andalusiya so‘zining kelib chiqishi vandal qabilalariga borib taqaladi degan ilmiy qarashlar mavjud.[1] Ya’ni ular yashaydigan hududga nisbat berilgan. Andalus so‘zi arab tiliga chetdan

o‘zlashgan so‘z hisoblanadi. Yevropaning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan Andalusiya sharqda O‘rta yer dengizi, g‘arbda Atlantika dengizi, shimolda Pireney tog‘lari va janubda Yevropa qit’asini Afrikadan ajratib turadigan Jabal bo‘g‘ozi bilan chegaradosh. Bu bo‘g‘oz Marokash va Andalusni bog‘laydi. U Ispaniyaning eng janubiy mintaqasida joylashgan.

Andalusiya 711-1492 yillarda musulmonlar tomonidan boshqarilgan Pireney yarim orolining bir qismidir. Dastlab bu yer xalifa Valid tomonidan boshqarilgan (711-750), Halifa Hishamning nabirasi Abdurahmon II 756-yilda Qurdoba amirligiga asos soladi[2]. 912-yildan boshlab esa Qurdoba xalifalik maqomiga ega bo‘ladi. Bu yerlarda musulmon xalifaligi hukmronlik qilgan yillarda musulmonlar, yahudiylar va nasroniylar sharqiy va g‘arbiy musulmon yerlarida madaniyat va ilm-fan rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shdilar. G‘arbiy musulmon o‘lkalaridagi shaharlar Qurdoba, Toledo, Granada va Seviliya kabi shaharlar bilimlar almashinuvida katta rol o‘ynagan. Yevropa va G‘arb sivilizatsiyasi uchun musulmon Andalusiyasining hissasi beqiyosdir.

Turli arab rahbarlari hukmronligi ostida Andalusiyada fan va san’at gullab-yashnagan. Bu yerda ko‘proq boshqa yurtlardan ko‘chib kelgan olimlar o‘z ilmiy faoliyati bilan shug‘ullanganlar. Xususan, xalifa Abdurahmon hukmronligi davrida Abbosiylar hokimiyatidagi siyosiy tartibsizliklar sabab u yerdan qochib kelgan turli olimlar Andalusiyadan panoh topganlar.

Andalusiya va uning atrofidagi boshqa shaharlar infratuzilmasi Abdurahmon II davrida bunyod etilgan va rivojlantirilgan. Xususan, shahar ko‘chalari keng, yorug‘ va toza bo‘lib boshqa ko‘plab kommunal xizmatlar ham yo‘lga qo‘yilgan edi.

Xalifa Abdurahmon III (912-961) ko‘plab olimlar tomonidan yozilgan kitoblarni to‘plagan. Tibbiyot, qishloq xo‘jaligi, astronomiya va shu kabi juda ko‘plab fan sohalaridagi kitoblar Qurdoba kutubxonalariga keltirilgan. O‘z davrida Qurdoba kutubxonasi Bag‘dod kutubxonasi bilan tenglasha oladigan kitoblar jamlanmasiga ega edi. Aynan kitob ko‘chirish salohiyatining yuqori bo‘lganligi Andalusiyada ilm-fan rivojlanishining sabablaridan biri bo‘la oladi. G‘arbiy Yevropada esa bu davrda kitoblar pergamentlardan tayyorlanar edi. Andalusiyada esa kitoblarni qog‘ozlarga ko‘chirib ko‘paytirish juda yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Solishtirish maqsadida, Sent-Gallen monastiri kutubxonasi G‘arbiy Yevropadagi eng katta kutubxona deb e’tirof etilgan va undagi kitoblar soni 36 jildni tashkil etardi. Qurdobadagi kutubxonada bu son 500.000 jildgacha yetgan.

---

[1] Muhammad Abdu RahmanKhan. Muslim cintribution to science and culture – Lahore (Pakistan).: Ashraf press, 1973, — P. 16.

[2] Science and Scholarship in Al-Andalus https://www.islamicity.org/5580/science-and-scholarship-in-al-andalus/

Qurdoba o‘zining go‘zal bog‘lari va saroylari (dunyoga mashhur Az-Zahra saroyi va uning atrofidagi bog‘lar) muhtasham masjidlari, boy kutubxonasi va yarim million aholiga ega madaniy markaz hisoblanardi. Har bir masjid o‘z maktabiga ega edi va deyarli barcha aholi savodli bo‘lgan. Bu o‘rta asrlar uchun juda katta natija bo‘lgan. Qurdoba madrasalari dunyoning barcha burchaklaridan ilm-fanga qiziquvchi shaxslarni jalb qildi. O‘z davrining eng yirik olimlari bu yerda ilohiyot, adabiyot, matematika, astronomiya, tibbiyot va falsafadan ma’ruzalar o‘qishgan.

Andalusiya sivilizatsiyasining o‘ziga xos va boshqa sivilizatsiyalardan farqli jihatlari ko‘p edi. Amin Husayn tomonidan yozilgan “Islom madaniyati” nomli kitobda musulmon Andalusiyasi turli madaniyatlardan iborat ekanligi, lekin diniy jamoalar o‘rtasida tartibsizliklar va o‘zaro to‘qnashuvlar nisbatan kam bo‘lganligini qayd etadi. Vandal qabilalar zulmidan ozor chekkan yahudiy qabilalari musulmonlarga orolni bosib olishda ko‘maklashishgan. Madaniy assimilyatsiya uch samoviy din o‘rtasida yuz berdi. Arab tilida so‘zlashuvchi nasroniylar va yahudiylar sonining oshib ketganligi yoki ayollar o‘rtasida arab liboslariga qizishning kuchliligi va arab oshxonasidagi ba’zi elementlarning boshqa madaniyat vakillarinikiga ko‘chganligi buning izohi bo‘la oladi. Musulmonlar Andalusiydadagi aholiga nisbatan diniy erkinlik taqdim etdi. Xususan, yahudiylar Bayt ul-maqdisga ziyorat qilish huquqini qo‘lga kiritdilar[1]. Nasroniylar ham diniy marosimlar va ibodatxonalar qurish erkinligiga ega edilar. Bu erkinlik natijasi o‘laroq yahudiy olim Yahudo Halevi tomonidan yozilgan yahudiylarning boshqa dinlar bilan o‘zaro aloqasi haqidagi kitobni keltirish mumkin. Bundan tashqari xalifalik boshqaruvidan ba’zi yuqori lavozimlarda yahudiylar va nasroniylarni ham uchratishimiz mumkin.

Hukumat aholiga o‘zi istagan sud idorasidan foydalanishga va kichik diniy yoki etnik guruh ichida alohida qonun-qoidalar joriy etilishiga to‘sqinlik qilmagan. Diniy amallar va ibodatxonalar qurishda ham shu tamoyillar asos qilib olingan. Islom shariati yahudiylikni ham nasroniylikni ham samoviy din deb biladi va shu jihatdan ham Andalusiyada bu ikki diniy guruh vakillariga hurmat bilan muomalada bo‘lingan. Oz navbatida bunday hurmat ehtirom musulmon ommasiga nisbatan ham qo‘llangan. Yahudiylar musulmon bayramlarida o‘z hamkasblari yoki yaqin kishilarini tabriklash maqsadida masjidlarga tashrif buyurishganligi haqidagi ma’lumotlar ham mavjud.

Andalusiya tafakkur sohasida erkin, diniy mafkura va e’tiqod jihatdan majburlash holati kuzatilmagan mamlakat edi. Andalusiyada aholi va olimlar o‘rtasida turli munozaralar o‘tkazilishi odatiy hol bo‘lgan. Aynan shu kabi munozaralar diniy, etnik va madaniy guruhlar o‘rtasida o‘zaro uyg‘unlikni keltirib chiqardi. Ular uchun umumiy bo‘lgan arab tili Andalusiya aholisi hayotidagi rang-baranglikni ta’minladi. Andalusiyaning nasroniy bo‘lgan aholisi turli davlat boshqaruv organlariga tayinlanishi ortidan arab tilini o‘rganganlar. Undan tashqari ularda hali G‘arbiy Yevropa aholisiga ma’lum bo‘lmagan turli yangi fan

[1]Science and Scholarship in Al-Andalus https://www.islamicity.org/5580/science-and-scholarship-in-al-andalus/

sohalarini o‘rganish imkoniyati ham mavjud edi. Arab tili va madaniyati ispan aholisi madaniy hayotida o‘ziga xos iz qoldirdi. Xususan, ispan-lotin lug‘atidagi 17% so‘z arab tilidan o‘zlashgan so‘zlar hisoblanadi.

Quyida Andalusiyada rivojlangan ilm-fan sohalarini turli bo‘limlarga bo‘lib ko‘rib chiqamiz.

FALSAFA

Andalusiyada falsafaga hissa qo‘shgan va xalq hayotiga katta ta’sir ko‘rsatgan ko‘plab olimlar bor edi. Jumladan, Ibn Arabiy musulmon falsafasidagi yetakchi olimlardan biri hisoblanadi. U tasavvuf nazariyasini ishlab chiqqan katta shayxlardan biri hisoblanib[1], ilmiy faoliyati davomida komil inson tushunchasini chuqur tahlil qiladi. Olim 800 ga yaqin asar yozgan bo‘lib, ulardan 550 tasi qo‘lyozma holida saqlanib qolingan.Yana bir mashhur faylasuflardan biri Maymoniddir. U yahudiy bo‘lib, yahudiylikda e’tiqod uchun muhim bo‘lgan “o‘n uchta imon tamoyili”ni shakllantirgan. U shuningdek inson xarakteridagi yovuzlikni, iroda erkinligi va shu kabi inson shaxsiyati bilan bog‘liq bo‘lgan ko‘plab masalalarni o‘rgangan.

XI asr oxirida Saragosa shahrida dunyoga kelgan Abu Bakr ibn Yahyo ibn as-Sayva ibn Bajja (vafoti 1138; o‘rta asr Yevropa manbalarida Avampache) falsafa bilan bir qatorda tabobat, geometriya va astronomiyaga oid risolalar yozib qoldirdi. Uning falsafaga oid “Xilvatga chekinganning hayot tarzi”, “Insonning faol aql bilan qo‘shilishi haqida”, “Xayrlashuv maktabi”, “Uzlatdagi hayot tarzi haqida”, “Jon haqida” kabi risolalari mashhurdir. Ibn Bajja insonlar yashaydigan jahonnigina yagona haqiqiy olam, deb bildi va undagi ijtimoiy tuzumni aql asosida boshqarishga chaqirdi. Uning fikricha, insonning o‘z navbatida uning axloqiy hatti-xarakati yotadi. Aql vositasida boshqariladigan jamiyat, erkin faoliyat bo‘lib, aqlga muvofiq keladigan maqsadni vujudga keltiradi. Ibn Bajjaning musiqa sohasidagi risolalari G‘arbda yuksak baholangan. Uning musiqiy qarashlari ham o‘ziga xos edi. Ibn Bajja fikricha, kuylar o‘z kelib chiqishlariga ko‘ra, inson nutqining ohang boyliklari hamda kishilarning hamma narsada uyg‘unlik va yoqimlilikka intilish oqibatidir[2].

Andalusiyalik yana bir tabib, huquqshunos va faylasuf ibn Tufayl mashhur musulmon faylasuflardan biri hisoblanadi. Uning bizgacha faqatgina “Xay ibn Yaxzon” nomli asari yetib kelgan xolos[3]. Asar bilish nazariyasiga qaratilgan bo‘lib unda bir insonning tabiat ustidan qilgan g‘alabasi va yuksak falsafiy haqiqatga erishgani hikoya qilinadi. Asar Yevropada XVII asrgacha g‘oyat mashhur bo‘lgan.

Falsafa va din vakillari har doim ham kelisha olmaydi. Sababi, faylasuflarning o‘z nuqtai nazaridan kelib chiquvchi haqiqatlari mavjud bo‘lsa, din vakillarining haqiqati ham diniy dunyoqarashdan kelib chiqadi. Ana shu azaliy bahsga o‘z xulosaviy yechimini bera olgan faylasuf bu ibn Rushdi edi.

---

[1] Ibn Al-Arabiy: Ibrohim T. Buyuk rus ensiklopediyasi :35 jildda. Yu S. Osipov. -M.: Buyuk rus ensiklopediyasi, 2004-2017.

[2] Лалагуна Х., Испания: История страны. –М.: Издательство Мидгард, 2009.

3 Stearns, Peter N. “Arabic Language and Literature”. In The Oxford Encyclopedia of the Modern World. Oxford University Press, 2008.

Uning “Ikki haqiqat” nazariyasida din va falsafaning o‘zaro qarama-qarshi ekanligini emas, aksincha, bu ikki soha bir haqiqatga borishning ikki turli yo‘llari va yechimlarini taqdim etishini ta’kidlaydi. Demak, dinning predmeti Xudo, usuli esa e’tiqod, falsafaning predmeti esa tabiat, uning usuli esa tajriba (ya’ni, tevarak-atrofni o‘rganish uchun amaliy faoliyat, ya’ni tajribaviy)dir. Din va falsafa mutlaqo boshqa sohalarda

shug‘ullanadi, bir-biri bilan deyarli hech qanday umumiylik yo‘q va shuning uchun dinning o‘ziga xos haqiqatlari va falsafaning o‘ziga xos haqiqatlari borligi ajablanarli emas[1].

Abu Usmon ibn Fathun falsafa sohasida ko‘zga ko‘ringan olim bo‘lib, “Hikmat daraxti” nomli falsafiy risolasi bilan mashhurdir. Faylasuf olim Maslama ibn al-majritiy o‘z faoliyatida asosan astronomiya va munajjimlik bo‘yicha bilimlarni to‘plash maqsadida arab xalifaligi yerlarining turli mintaqalariga sayohat qiladi. Iroqda ekanligi vaqtida u “Ixvon as-safo” tashkilotining ba’zi olimlari bilan tanishish va ularning ilmiy merosi bo‘lmish risolalar to‘plamini o‘zi bilan Andalusiyaga olib ketgan. Bu bilan u ilmlarni g‘arbiy o‘lkalarga ko‘chishida katta xizmatlar ko‘rsatgan deyish mumkin. Olim falsafiy-ilmiy faoliyati davomida platonizm va germetik falsafani tadqiq etgan. Al-Majritiy o‘zining bir qancha shogirdlariga ega edi. Ulardan eng mashhuri Abul Hakam Al-Kirmoniy hisoblanadi. Mashoyiyyuna oqimi vakili bo‘lgan ushbu olim handasa va mantiq ilmi bo‘yicha ko‘plab kitoblar muallifidir.[2]

TIBBIYOT

Andalusiyada tibbiyot sohasida ham ko‘plab olimlar o‘z ilmiy va amaliy faoliyatini olib borganlar. Ulardan Abu al-Qosim az-Zahraviy (Albukasis), Abu Marvon Abu al-Malik ibn Habib va Abu Marvon ibn Zuhr (Avenzoar) kabi mashhur tabiblarni keltirish mumkin. Bular orasida Albukasis dunyo e’tirof etgan mashhur olim hisoblanib, u jarrohlik, tibbiyot, oftalmologiya, ortopediya, farmakologiya, stomatologiya, ovqatlanish kabi boblardan iborat 30 jildlik “at-Tasrif” asarini yozgan. Kitobda tibbiyotning barcha tushunchalari batafsil tavsiflangan. Masalan, jarrohlik bo‘limida turli xil jarrohlik asboblari, ulardan foydalanish va boshqa amaliyotlar batafsil yoritilgan.

Al-Baytarning “Kitob al-jomi li mufradat al-adviya va al-ag‘ziya” kitobi dori-darmon va oziq-ovqatlarning keng qamrovli ensiklopediyasi bo‘lib, unda 1400 dan ortiq o‘simlik, oziq-ovqat va dori vositalari ularning qo‘llanilishi bilan birga sanab o‘tilgan. Jarrohlik bo‘yicha taniqli olim Abu al-Qosim turli texnik dizaynlar ishlab chiqqan, ular hali ham neyroxirurgiyada qo‘llaniladi.

ASTRONOMIYA

Andalusiya astronomlari asosan Ptolomey astronomiyasini tanqid qilishga qaratilgan va Aristotelning gomosentrik sferalar haqidagi qarashlarini o‘zida aks ettiruvchi turli nazariyalarga asoslangan. Olim ibn Habib “Kitob fol-nujum”

[1]Las primeras mezquitas de al-Andalus a través de las fuentes árabes (92/711-170/785) https://al-qantara.revistas.csic.es/index.php/al-qantara/article/view/34/28

[2] Abu al-Hakam al-Kirmani https://muslimheritage.com/people/scholars/abu-al-hakam-al-kirmani/

asarida oy fazalari va taqvimlar haqida ko‘plab hisob kitoblar yoritilgan. Maslama Al-Majritiy Ptolemeyning “Planisphaerium” va “Almagest” asarlarini tarjima qilgan yana bir taniqli olim edi. Uning faoliyati asosan Muhammad ibn Muso al-Xorazmiy kabi avvalgi tadqiqotchilarning asarlarini takomillashtirishga qaratilgan. Az-Zarqaliy astronomik jadvallar ustida ishlagan yana bir tadqiqotchi bo‘lib, quyosh apogeyining harakatini yiliga 12,04 soniya deb hisoblagan, bu esa bugungi hisob-kitoblarga nisbatan yiliga 11,8 soniyani tashkil etadi. Xuddi shunday, Abu Abdulloh Muhammad Ibn Maud optik geometriya ustida ishlagan, uning ishi ertalab va kechqurun quyoshning tushkunlik burchagini hisoblash, quyosh nurlarining sinishi uchun javob beradigan atmosfera namligini hisoblash kabi turli mavzularga qaratilgan.

MUSIQA

Andalusiya musiqa maktabi bu o‘z o‘rniga ega nufuzli maktab sanaladi va u hozirgi kungacha ham mintaqaning ba’zi qismlarida mavjud. Andalusiya musiqasida muvashshoh, xarja, navba, zajal kabi she’riy shakllar muhim o‘rin tutgan. Mashhur musiqachi Ziryab Andalusiya musiqasi targ‘ibotchisi deb bilinadi. Qurdobadagi Abdurahmon II Saragosalik Ibn Bajja Ziryab uslubini G‘arb yondashuvlari bilan birlashtirib mutlaqo yangi uslubni yaratganlar. Keyinchalik ushbu uslub Iberiya va Shimoliy Afrika bo‘ylab keng tarqalgan. Bundan tashqari hozirgi zamonaviy musiqa asboblarining nomi ham Ispan klassik musiqasida ishlatilgan asboblar nomidan kelib chiqqan degan aqarash mavjud. Masalan, rebabdan rebek, qitaradan gitara, naqaredan naker, al-duffdan aduf kabilar[1].

ME’MORCHILIK

Epik me’morchilik sohasida Andalusiya arxitekturasiga teng kela oladigan binolarni topish juda qiyin. Qurdobadagi Buyuk masjid, granadadagi Alhamro va Seviliyadagi Alkazar majmualari ko‘rish shart bo‘lgan uch muhim maskanlardan hisoblanadi[2]. Qurdobadagi Mezquita- Buyuk masjidni sayyoradagi o‘xshashi yo‘q majmualardan biri desak bo‘ladi. Bir-biriga juft qilib qurilgan ustunlar tepasiga chizilgan vertikal chiziqlar insonga harakatlanayotgan to‘lqinlarni ko‘rgan kabi taassurot beradi. Bu bino 1000 yil davomida ta’mirlashni talab qilmagan holatda juda yaxshi saqlangan. Ushbu masjidning zarhal gumbazini zamonaviy olimlar “mukammal geometriya” deb ataydilar. Shahar markazidan tashqarida Madinat az-Zahra bog‘lari va saroy qad ko‘targan bo‘lib, bu yer Jannat bog‘lariga qiyos etilgan. Afsuski, ushbu muhtasham kompleks dushmanlar tomonidan vayron etilgan va abadiy yoqlikka mahkum bo‘lgan. Islom an’anasi keyinchalik Ispaniyadagi boshqa binolarga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan. Modernist arxitektorlar ham bu uslubdan o‘z binolarida foydalanganlar.

Xulosa qiladigan bo‘lsak, Andalusiya madaniyati sharq va g‘arb yutuqlaridan birdek foydalana olgan va ajoyib muhit yarata olgan noyob hodisalardan biri bo‘ldi. Bu muhit olimlar, me’morlar, faylasuflar va boshqa

[1] Cultural Impact of Scholars in the Andalusian Emirate (138-442 AH / 756-1031 AD) http://ijps.um.edu.my/index.php/JAT/article/view/30530/16602

[2] Lions in the Piazza https://lionsinthepiazza.com/islamic-architecture-spain/

koʻplab ijodkorlarga juda yaxshi taʼsir koʻrsata olgan. Hozirgi kundagi koʻplab diniy va irqiy muammolarga yechimni biz Andalusiya madaniy hayotini oʻrganish orqali topishimiz mumkin. Turli din vakillari va millatlarni oʻzida jamlaganiga qaramay bu yerdagi tinch muhit va ilmiy-madaniy yutuqlarni dunyoning boshqa mintaqasi va madaniyatida uchratish mushkul. Andalusiyalik olimlarning eng katta yutuqlari esa bilimlarni koʻchirishga qoʻshgan ulkan hissalaridir. Aynan ular sabab Yevropada gumanizm gʻoyalari keng tarqaldi va ilm-fanga qiziqish kuchaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Muhammad Abdu RahmanKhan. Muslim cintribution to science and culture – Lahore(Pakistan).: Ashraf press, 1973. P:116
2. Материалы II Всероссийской научно-практической конференции с международным участием. Традиционная культура народов Поволжья – Казань.: Ихлас, 2015, — С. 38.
3. Ikramova I.R. E'tiqod va aql oʻrtasida munosabatlar muammosi: Ibn Rushd, al-Afgʻoniy, Murtazo Mutahhariy. – "XXI аср: фан ва таълим масалалари" илмий электрон журнали. №1, 2024 йил. S: 370-374
4. Hussah Hindi Shuja Alotaibi. Cultural Impact of Scholars in the Andalusian Emirate (138-442 AH / 756-1031 AD).- Journal of Al-Tamaddun, Vol. 18 (2), 2023 – P. 13-21.
5. Lionspizza.com (2023). The best places to see Islamic architecture in Spain. https://lionsinthepiazza.com/islamic-architecture-spain/
6. Cities of light. The science and culture of Islamic Spain. https://www.islamicspain.tv/the-science-and-culture-of-islamic-spain/

"INSONPARAST SOGʻUNIY" HAQIDA BAʼZI MULOHAZALAR

Sardor ABDIQAHHOROV
TDSHU, Markaziy Osiyo xalqlari tarixi
(MOXT-1) 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD B. Odilov

Annotatsiya: Ushbu maqola Turkiston oʻlkasidan chiqqan, Sharqiy Turkiston Marshali, din, siyosat va jamoat arbobi Alixontoʻra Shokirxontoʻra oʻgʻli Sogʻuniyning bilim-tafakkuri, u kishining dunyoqarashi va oʻziga xos noyob fazilat-xislatlari haqida soʻz boradi. Hayoti davomida Sogʻuniy bilan hamsuhbat boʻlgan, u bilan koʻp vaqtlarini oʻtkazgan insonlarning, bevosita Sogʻuniy bilan bir davrda yashagan uning shogirdlari, olimlar, shoirlar, yuqori mansabli amaldorlar, xullas, turli tabaqa vakillarining u kishida kuzatilgan yuksak valiylik alomatlarini koʻrganliklarini qayd etamiz.

Kalit soʻzlar: mafkura, kommunizm, hamsuhbat, hokimiyat, din, siyosat, tabobat, Fuzuli, Erkin Vohidov, sheʼr, KPSS, kasalmand, huquq, inson, ziyoli, aloqa, doʻst, uy nazorati, Marshal.

Tariximizning aynan Sovet hukumati yurtimizda o‘rnatilgandan keyin yetishib chiqqan jadidlar avlodining so‘nggi namoyondalaridan bo‘lgan., ulardan farqli o‘laroq Sharqiy Turkiston diyorida o‘lim, suiqasdlardan omonda bo‘lgan, 30-yillardan boshlab O‘rta Osiyo, xususan Sharqiy Turkiston va Xitoy o‘rtasidagi siyosiy jarayonlarda ishtirok etgan yurtimiz olimi Alixonto‘ra Sog‘uniy haqida so‘z yuritamiz.

Asosiy qism Alixonto‘ra Sog‘uniy 1885 yili hozirgi Qirg‘iziston Respublikasi, O‘sh viloyatining to‘qmoq shahrida tavallud topgan va 1966-1973 yillari Toshkent shahrida unga hukumat tomonidan ajratilgan uyida “Turkiston qayg‘usi” asarini yozadi. Kitobda kommunizm, uning mafkurasi va hokimiyati qattiq qoralanadi. “Asrimiz boshida chiqqan siyosiy firqalar ichida kommunizm kabi aqldan yiroq, xayoliy bir maslak ahli bo‘lgan emas. Mana shu xayoliy maslak egalari 50 yildan beri aqldan tashqari tuzumlarini qurol kuchi bilan xalq ustida yurgizib keladi. Insoniyat olamining ofati, kufrnifoq madaniyatining zaharlik mevasi hisoblangan kommunistlar bozori qanday yerda qizidi? So‘zga tushunmagan, hech narsa bilmagan, ayniqsa, yo‘qsillik-kambag‘allikda yashayotgan gumroh, Vatan, millat nima ekanligini bilmaydigan ongsiz nodonlar ko‘p bo‘lsa, mana shular ichidagina rivojlanib, tezdan ishlari avj oldi”. “... Hech davrda ko‘rilmagan buzuq, jirkanchli tuzumini bolsheviklar hech kimga qabul qildirolmagach, insonning hayotiy yemak, ichmak, oziq-ovqatlariga osilib, biror kishi uyida don urug‘idan ortiqcha hech narsa qoldirmay yig‘ib olishdi. Shu orqalik xalqni och o‘ldirish qo‘rqinchi bilan o‘zlariga bo‘ysundirmoqchi bo‘ldilar. ...Chunki bu kabi boshi tuyuq, qorong‘i ko‘chaga xalqni kirgizish faqat iqtisodiy, siyosiy majburlik orqaligina bo‘lishi mumkindir”[1].

1940-1950 yillari, Toshkentda yashab turib, maxfiy uy nazorati ostida bo‘lishiga qaramay, insonlar haq-huquqi, sovet tuzumi va mafkurasi ustida shu kabi haqiqatni qayg‘urib so‘zlash uchun qanday iymon-e’tiqod, maslak va irodaga ega bo‘lmoq kerak edi? Qaysi qudrat va g‘oya u kishini bunday jasoratga boshlagan? Nega boshqa ziyolilarimiz shu paytda bu to‘g‘rida fikr yuritishga jur’at etolmaganlar? Ular o‘z boshlarini asrab, turmush rohatini ko‘zlab, qanday qullikda, mutelikda, kimlarning tobeligida hayot kechirayotganliklarini anglashni istamadilar. Sog‘uniy o‘z davridagi “hozirgi madaniyat davrida diyonat bilan taraqqiyot birga yasholmaydi” degan mafkuraga mutlaqo qarshi chiqqan. Aksincha, o‘z so‘zlarida “Din-poklikdur. Poklikka qurilgan axloqdur. Dinimizning asli aqldur, quroli ilmdur. Hozirgi taraqqiyot islom axloqi asosida olib borilsa, insonlar uchun eng foydalik madaniyat bo‘lishida shak yo‘qdir. Umuminsoniy haq huquqlar butun xalq oldida, ayniqsa, hukumat doiralarida qonuniy ravishda himoyalanib saqlanar ekan, o‘shandagina madaniyati fozilaga erishiladi. Shu kunlarda ustimizda hukmron bo‘lgan dinsizlar madaniyati ersa fosiq madaniyat deyiladi. Bunday madaniyat insonlarni ham axloqiy, ham ruhoniy fazilatlaridan butunlay ajratadi”[2].

[1] Turkiston qayg‘usi. Alixonto‘ra Sog‘uniy www.ziyouz.com kutubxonasi. B-3
[2] Turkiston qayg‘usi. Alixonto‘ra Sog‘uniy www.ziyouz.com kutubxonasi B-2

Sog‘uniy ona Turkistonning bugungi kungi tang ahvolini o‘tmishdagi o‘z xatolarimizdan kelib chiqdi deydi. Ya’ni, dinni asosi bilan tushunmagan, ma’rifatsiz qattol kishilar yurt tepasiga keldilar, inson uchun eng kerakli bo‘lgan ilmni o‘zlashtirishga, diniy va dunyoviy fanlarni o‘zlashtirishga e’tibor bermadilar. Bir-birini yeb, chopdilar.Shuningdek (Temur tuzuklari) ni ham aynan forschadan o‘zbek tiliga Sog‘uniy birinchi bo‘lib o‘girgan.1967-yili Guliston jurnalining 2-sonida kitobning dastlabki yettinchi kengashgacha bo‘lgan qismi bosildi. O‘sha paytda “Qonxo‘r Temur” ni maqtab yozishning o‘zi katta jasorat talab qilardi. Xulosa qismida tarjimon: Temurning o‘ttiz olti yillik saltanat davrida o‘tkazgan tarixiy voqealarni qisqacha ravishda bildirish uchun bu kitob yetarlidir. Endi buni o‘qib chiqqandan so‘ngra bu kishi haqida qanday baho berishlari ersa har kimning o‘z vijdoni vazifasidir[1]. Sog‘uniy Amir Temur shaxsiyatini turkiy xalqlarga qayta tiriltirib bergan shaxs desak bo‘ladi. Chunki 1 yildan keyin O‘zbekiston Fanlar Akademiyasi vitse-prezidenti I.Mo‘minov (Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli) risolasini chop etdi.

O‘zbekiston Qahramoni Erkin Vohidov ham ko‘p marotaba So‘guniyning dargohida u kishining suhbatini olgan ekanlar. Kunlardan bir kuni shoir Fuzuliyning:

Bu g‘amlarkim manim vordir, bayiring ustina qo‘ysang,
Chiqar kofir jahannamdan, kular, ahli azob o‘ynar!..[2].

Parchasini qayt-qayta o‘qiydi-yu, lekin ma’nosiga tushunib yetmaydi. Hamkasblari, manbashunoslar, o‘qimishli ziyolilardan so‘raydi. Xattot ko‘chirayotganda xato qilgan bo‘sa kerak degan javobi ko‘plari ta’kidlaydi. So‘guniy huzuriga kelib shu baytni o‘qib beradi. Shunda Sog‘uniy biroz o‘ylanib bu bayt Qur’oni Karim oyatidan ilhomlanib yozilganligini va o‘sha oyat mazmunini Vohidovga bayon qilib beradi. Mazmuni: “Agar menda mavjud bo‘lgan dardlarni tuyaning ustiga qo‘ysang, kofir do‘zaxdan chiqadi, ahli azob kulib o‘ynaydi”. Qur’oni karimda Alloh taolo aytadi: “Albatta, oyatlarimizni yolg‘onga chiqargan va kibru havo bilan ulardan bosh tortgan kimsalar uchun hargiz samo eshiklari ochilmas va toki tuya ignaning teshigidan o‘tmas ekan, ular ham jannatga kira olmaslar. Jinoyatkor osiylarni ana shunday jazolaymiz”, (“A’rof” surasi 40-oyat)[3].

O‘shanda Erkin vohidov: Bu Kishida Xudo tomonidan berilgan xislat bor ekan deb hayratda qoladi. Buni shaxsan Erkin Vohidovning o‘zi mikrofon qarshisida boshqalarga aytgan. Bobomning oldiga 13— 14 yoshlardagi bir qizni olib kelishdi. U bechora qizning bo‘ynida o‘zining kallasidek katta shish bor edi. Otasi kolxoz raisi ekan, Ittifoq bo‘yicha bormagan yeri, ko‘rsatmagan mutaxassisi qolmabdi. Qizingizning kasali — tomoq raki, u tuzalmaydi, deyishibdi. Bobom u qizni 15 kunda tuzatgan, bo‘ynida shishdan asar ham qolmagandi. O‘shanda bemorning otasi quvonchdan ho‘ngrab yig‘lagandi[4].

---

[1] Alixonto‘ra Sog‘uniy. Temur tuzuklari. “Guliston” jurnali №2 01.03.1967 B-17
[2] Mirzo Kenjabek. Oshiqi sodiq Fuzuliy. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009 yil, 6-son.
[3] Mirzo Kenjabek. Oshiqi sodiq Fuzuliy. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009 yil, 6-son.
[4] Baxmanyor Shokirov. Turkiston faxri. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi mustaqil haftalik gazeta 1992 yil . 24 Yanvar . № 4 (3160).

Sog‘uniy o‘z davrining yetuk tabibi hisoblangan. Yuqoridagi va quyidagi keladigan xotiralarni shaxsan Sog‘uniyning nabirasi Baxmanyor Shokirov bobosining xizmatida yurgan vaqtlardagi o‘zi ko‘rib, guvohi bo‘lgan voqealarni 1992-yil maqolasida e’lon qilgan. O‘z davrining yetuk olimlari har doim Sog‘uniy ko‘magiga ehtiyoj tuyib, u kishining duolari va maslahatlarini olgani kelib turar ekanlar. Farobiyning ijodini keng o‘rgangan, uning asralarini rus va qozoq tillariga tarjima qilgan Oqjon Mashanov aynan o‘z tarjimasini boshlashdan oldin So‘guniy huzurida duo olgan edilar deya eslaydi Baxmanyor Shokirov. Mashhur geolog ~ akademik olimimiz marhum Habib Abdullayev bobom bilan har safargi suhbatdan katta ilhom olar ekanlar. Yana bir yirik geolog olim, marhum akademik G‘ani Mavlonov hadeganda bobomning oldilariga kelardilar. G‘ani aka alp qomat kishi edi. Ostonada eng katta oyoq kiyim yechilgan bo‘lsa, demak ichkarida o‘zlariga xos vazminlik va kamsuqumlik bilan G‘ani Mavlonov o‘tirgan bo‘lardi[1]. Sog‘uniy olimlarga maslahatchi, ularga to‘g‘ri maslak beruvchi nuroniy bo‘lib yashadi. Manbalarga ko‘ra Toshkentdagi hovli shaxsan Stalinning qarori bilan berilgan. Stalin Usmon Yusupovni Markazga chaqirib shaxsan o‘zi Sog‘uniyga uning ta’minotiga ko‘z-quloq bo‘lishi zarurligini uqtirgan. Stalin boshliq Kommunistik firqa hatto siyosiy qatag‘onlar davrida ham Sog‘uniyni qoldirishdi. Chunki buning o‘ziga yarasha siyosiy sabablari ham bor. Stalin vafotidan keyin SSSR va Xitoy o‘rtasidagi aloqalar soviydi. Bunga sabab Stalin vafotidan keyin taxtga kelgan Xrushchyov 1956-yil Stalinizm va uning oqibatlari haqida nutq so‘zlaydi. Stalin siyosati keskin yerga urildi. Shundan keyin Stalinning shogirdi va yaqin do‘sti bo‘lgan Mao Szedun boshliq XKP bilan SSSR KPSS ining aloqalarida keskinlik ro‘y beradi. Ayni shu paytda Sog‘uniy KPSS ning Xitoyga qarshi siyosiy quroli va atom bombasi vazifasini bajardi. Ya’ni, mabodo XKP keskin harakatlar amalga oshirgudek bo‘lsa, SSSR darhol sobiq Sharqiy Turkiston Marshalini faxriy uy qamog‘idan ozod qiladi. Alixonto‘ra hattoki, SSSR va Xitoy siyosatiga ta’sir etoladigan darajada bo‘lgan.

Hayotda shunday insonlar bo‘lar ekanki, ular tirikliklarida yoqib ketgan ma’rifat mash’alalari zamonlar o‘tishi bilan tobora yorqinroq alangalanadi. Darhaqiqat. Muhammad alayhissalom so‘zlari bilan qayd etilgandek: Insonlarning yaxshilari-farishtalardan ham a’lo. Ba’zi buyuk insonlar xalq orasida xokisorlik bilan kamtarona yashab o‘tib ketadilar. Ammo keyinchalik esa ularning naqadar aziz va qaytarilmas ekanliklari, o‘z xalqi va vatani uchun nechog‘liq qayg‘urgani, pok e’tiqod va millat uchun hatto o‘limlarga ham tik boqib hayotini necha yuz bora xavf-xatarga solganliklari his etila boshlanadi. Ular yaratib ketgan ma’naviy boylik o‘z xalqiga to abad meros bo‘lib qoladi. Necha avlod ajdod bundan bahramand bo‘ladi. Ana shunday buyuk insonlardan biri Alixonto‘ra Shokirxonto‘ra o‘g‘li Sog‘uniydir.

Biroq men yolg‘izgina islomparast emas edim, balki yaralashimdayoq insonparast edim. Xalqqa qaysi yo‘l bilan yaxshilik qila olaman deb, yoshlik — yigitlik davrlarimni g‘am-qayg‘u kunlari bilan o‘tkazdim.

[1] Baxmanyor Shokirov. Turkiston faxri. O‘zbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi mustaqil haftalik gazeta 1992 yil . 24 Yanvar . № 4 (3160).

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Turkiston qayg‘usi. Alixonto‘ra Sog‘uniy www.ziyouz.com kutubxonasi
2. Alixonto‘ra Sog‘uniy. Temur tuzuklari. “Guliston” jurnali №2 01.03.1967 B-17
3. Mirzo Kenjabek. Oshiqi sodiq Fuzuliy. “Jahon adabiyoti” jurnali, 2009 yil, 6-son.
4. Baxmanyor Shokirov. Turkiston faxri. Uzbekiston adabiyoti va san’ati gazetasi mustaqil haftalik gazeta 1992 yil . 24 Yanvar. № 4 (3160).
5. Temur tuzuklari. 2018 “Yoshlar nashriyot uyi” nashriyoti

ABU NASR FAROBIYNING ADOLAT, AXLOQ VA IJTIMOIY UYG‘UNLIK HAQIDAGI G‘OYALARI

Akbar RAXMATOV
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti,
Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD J. Sulaymonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiyning adolat, axloq va ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi falsafiy qarashlari tahlil qilinadi. Farobiyning “Fozil odamlar shahri” asari asosida uning ideal jamiyat haqidagi ta’limoti, adolat tamoyillari, axloqiy fazilatlar va ijtimoiy uyg‘unlikka erishish yo‘llari o‘rganiladi. Shuningdek, Farobiy g‘oyalarining bugungi kundagi ahamiyati va dolzarbligi ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Abu Nasr Farobiy,Adolat,Axloq,Ijtimoiy uyg‘unlik,Fozil shahar,Falsafa.

Abu Nasr Farobiy (873-950) Sharqning buyuk mutafakkiri, qomusiy olimi, faylasufi va musiqashunosi sifatida jahon ilmiy-falsafiy tafakkuriga ulkan hissa qo‘shgan. Uning asarlari nafaqat o‘z davrida, balki keyingi asrlarda ham Sharq va G‘arb mutafakkirlariga ta’sir ko‘rsatgan. Farobiyning falsafiy qarashlari, xususan, **adolat**, **axloq** va **ijtimoiy uyg‘unlik** haqidagi ta’limoti bugungi kunda ham dolzarb ahamiyatga ega.

Farobiyning “Fozil shahar aholisining qarashlari haqida risola” asari uning ijtimoiy-siyosiy falsafasining cho‘qqisi hisoblanadi. Ushbu asarda mutafakkir ideal jamiyat, uning tuzilishi, boshqaruv tamoyillari, aholisining axloqiy fazilatlari va ijtimoiy uyg‘unlikka erishish yo‘llarini batafsil bayon etadi. Farobiyning fikricha, **fozil shahar** — bu aholisi o‘zaro hamjihatlikda, adolat tamoyillari asosida yashaydigan, ilm-fan va ma’rifat rivojlangan, axloqiy fazilatlar ustuvor bo‘lgan jamiyatdir.

Farobiyning adolat, axloq va ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi qarashlari insoniyatning axloqiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shgan. Uning

falsafiy qarashlari orqali inson va jamiyatning ideal holatini izlash, adolatli va axloqli jamiyat qurishning yo‘llari ko‘rsatilgan.

Farobiy adolatni insoniyatning eng oliy qadriyati sifatida ko‘rib, uni jamiyatning asosiy ustuni deb hisoblagan. Uning fikricha, adolat – bu har bir insonning huquq va majburiyatlarini to‘g‘ri taqsimlanishi, hamda barcha ijtimoiy munosabatlarda tenglik va halollikni ta’minlashdir[1]. Farobiy adolatni ikki asosiy jihatdan ko‘rib chiqadi:

1. **Individual adolat**– bu insonning o‘ziga nisbatan adolatli bo‘lishi, ya’ni o‘zining aqliy, ruhiy va jismoniy qobiliyatlarini to‘g‘ri yo‘naltirishi. Farobiyning fikricha, inson o‘zini bilishi, o‘z qobiliyatlarini rivojlantirishi va ularni to‘g‘ri yo‘naltirishi orqali adolatga erisha oladi. Uning fikricha, inson o‘zining ichki dunyosida adolatni ta’minlash orqali tashqi dunyoda ham adolatli munosabatlar qurishi mumkin.

2. **Ijtimoiy adolat**– bu jamiyatda barcha a’zolar huquq va imkoniyatlar tengligi asosida yashashi. Farobiyning fikricha, adolatli jamiyat – bu barcha insonlar o‘z qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishi va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo‘shishi mumkin bo‘lgan muhitdir. U adolatni ta’minlashda davlatning muhim rolini ta’kidlaydi. Farobiyning fikricha, davlat rahbari adolatli, dono va axloqiy jihatdan mukammal bo‘lishi kerak. Bunday rahbar jamiyatning barcha a’zolarining manfaatlarini hisobga olib, adolatni ta’minlashi mumkin.

Farobiy adolatni ta’minlashda qonun ustuvorligini ta’kidlaydi. Uning fikricha, qonunlar adolatni ta’minlashning asosiy vositasi bo‘lib, ular barcha fuqarolar uchun bir xil darajada amal qilishi kerak. Farobiyning fikricha, adolatli jamiyatda hech kim qonundan ustun emas va barcha insonlar qonun oldida tengdir.

Farobiy axloqni insonning ichki dunyosini shakllantiruvchi asosiy omil sifatida ko‘rib, uni insoniy kamolotning muhim qismi deb hisoblagan. Uning fikricha, axloq – bu insonning yaxshi va yomonni farqlash qobiliyati, shuningdek, yaxshi xulq-atvor orqali o‘zini va atrofidagilarni yaxshilashga intilishidir. Farobiy axloqni uch asosiy prinsip asosida tushuntiradi:

1. **Hikmat (Donolik)**– bu insonning haqiqatni bilish va uni hayotda qo‘llash qobiliyati. Farobiyning fikricha, dono inson o‘zining aqliy qobiliyatlarini rivojlantirib, dunyoni to‘g‘ri tushunishi va unga mos ravishda harakat qilishi kerak. Donolik insonni yaxshi va yomonni farqlashga, shuningdek, hayotda to‘g‘ri qarorlar qabul qilishga olib keladi.

2. **Jasorat**– bu insonning o‘zining maqsadlari va qadriyatlarini himoya qilish qobiliyati. Farobiyning fikricha, jasoratli inson to‘g‘ri yo‘ldan qaytmaydi va har qanday sharoitda o‘zining axloqiy prinsiplariga sodiq qoladi. Jasorat insonni qiyinchiliklarga qarshi kurashishga, adolat va haqiqat yo‘lida turishga undaydi.

3. **Iffat (Poklik)**– bu insonning nafsni zabt etishi va o‘zini yomonlikdan saqlashi. Farobiyning fikricha, iffatli inson o‘zining shahvoniy istaklarini

[1] Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri (Al-Madina al-Fadila). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005. – 45-bet.

boshqarib, ularni axloqiy me’yorlar doirasida qondirishi kerak. Iffat insonni axloqiy jihatdan toza va kamolotga erishishga olib keladi.

Farobiy axloqni jamiyatning barqarorligi va uyg‘unligi uchun muhim omil deb hisoblagan. Uning fikricha, axloqli insonlar jamiyatni yuksak darajaga olib chiqadi va uning barqarorligini ta’minlaydi. Axloqiy qadriyatlar insonlar o‘rtasida ishonch, hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Farobiy ijtimoiy uyg‘unlikni jamiyatning muvaffaqiyati va barqarorligi uchun asosiy shart deb bilgan. Uning fikricha, ijtimoiy uyg‘unlik – bu jamiyatning barcha a’zolarining o‘zaro hamjihatlikda yashashi, bir-birining huquq va manfaatlarini hurmat qilishi va umumiy maqsadlar yo‘lida birga harakat qilishidir. Farobiy ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlash uchun quyidagi omillarni muhim deb hisoblagan:

1. **Ma’rifat va bilim**– Farobiyning fikricha, bilimli jamiyat uyg‘un va barqaror bo‘ladi. U insonlarning ma’rifat va bilim orqali o‘zlarini va jamiyatni yaxshilashlari mumkinligini ta’kidlagan. Bilim insonlarni axloqiy jihatdan kamolotga olib chiqadi va ularni ijtimoiy mas’uliyatni anglashga undaydi.

2. **Adolat va tenglik**– jamiyatda adolat va tenglikni ta’minlash orqali ijtimoiy ziddiyatlar kamayadi va insonlar o‘zaro ishonch va hamjihatlikda yashaydi. Farobiyning fikricha, adolatli jamiyatda barcha insonlar o‘z qobiliyatlariga mos ravishda rivojlanishi va jamiyatning umumiy farovonligiga hissa qo‘shishi mumkin.

3. **Axloqiy qadriyatlar**– Farobiy axloqni ijtimoiy uyg‘unlikning asosi deb bilgan. Uning fikricha, axloqli insonlar jamiyatning uyg‘unligini ta’minlaydi va uning rivojlanishiga hissa qo‘shadi. Axloqiy qadriyatlar insonlar o‘rtasida ishonch, hamjihatlik va o‘zaro hurmatni mustahkamlaydi.

Farobiyning fikricha, ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlashda davlat va rahbarlarning roli juda muhim. U davlat rahbarlarini adolatli, dono va axloqiy jihatdan mukammal bo‘lishini talab qilgan, chunki ular jamiyatning boshqaruvchilari sifatida uning uyg‘unligi va barqarorligini ta’minlashlari kerak[1].

Farobiy g‘oyalari zamonaviy jamiyatda adolat va axloq tamoyillarini qaror toptirish, ijtimoiy uyg‘unlikni ta’minlash uchun muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi. Yosh avlodni tarbiyalashda Farobiy g‘oyalaridan foydalanish: Yosh avlodni axloqiy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularda adolatparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi sifatlarni shakllantirishda Farobiy merosidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Farobiy merosini chuqur o‘rganish, uning g‘oyalarini zamonaviy sharoitga moslashtirish, uni ommalashtirish va targ‘ib qilish muhim vazifalardan biridir.

Xulosa

Abu Nasr Farobiyning adolat, axloq va ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi g‘oyalari bugungi kunda ham o‘zining dolzarb ahamiyatini saqlab qolmoqda. Uning fikrlari insoniyatning axloqiy va ijtimoiy kamolotiga yo‘l ko‘rsatuvchi qimmatli manba hisoblanadi. Farobiyning ta’kidlashicha, adolat, axloq va ijtimoiy uyg‘unlik insoniyatning tinch va farovon hayotini ta’minlashning asosiy

[1] Abu Nasr. Fozil odamlar shahri (Al-Madina al-Fadila). Toshkent: Sharq nashriyoti, 2005.

shartlaridir. Uning g‘oyalari zamonaviy jamiyatda ham insonlar o‘rtasida hamjihatlik, adolat va axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash uchun muhim yo‘l ko‘rsatuvchi hisoblanadi. Farobiyning merosi bizga adolatli, axloqli va uyg‘un jamiyat qurish yo‘lida ilhom beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abu Nasr Farobiy. “Fozil shahar aholisining qarashlari haqida risola”.
2. Abu Nasr Farobiy. “Baxt-saodatga erishish haqida”.
3. Abu Nasr Farobiy. “Axloq haqida risola”.
4. Abu Nasr Farobiy. “Qomusiy olimning ilmiy merosi”. (To‘plam)

GANDI FALSAFASIDA SVARAJYA TA’LIMOTI

Shahzoda RAUFOVA
TDSHU, Sharq xalqlari tillari va adabiyoti instituti
Filologiya tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi
3-bosqich hind-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy rahbar: professor U. Muhibova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Svarajya tushunchasining mohiyati, uning Hindiston mustaqillik harakatidagi o‘rni va Mahatma Gandi falsafasidagi ahamiyati yoritiladi. Svarajya nafaqat siyosiy erkinlikni, balki jamiyatning ma’naviy, iqtisodiy va ijtimoiy mustaqilligini ham anglatadi. Gandi fikricha, haqiqiy Svarajyaga erishish Satyagraha – haqiqat va zo‘ravonliksiz qarshilik orqali amalga oshirilishi kerak. Ushbu tadqiqot Svarajya tushunchasini chuqurroq anglashga yordam beradi va uning amaliy ahamiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Svarajya, Satyagraha, Svadeshi, milliy ozodlik harakati.

“Svarajya” (स्वराज्य) atamasi sanskritchadan kelib chiqib, ikki so‘zdan tarkib topgan: “sva” (o‘z) va “rajya” (boshqaruv). Svarajya vedik atama bo‘lib, uning ma’nosi “o‘z-o‘zini boshqarish”, deganidir. Bu tushuncha Hindiston mustaqillik harakatida muhim rol o‘ynagan va Mahatma Gandi tomonidan keng targ‘ib qilingan. Bal Gangadhar Tilak ilk bor 1906-yilda स्वराज्य हमारा जन्मसिद्ध अधिकार है और उसे लेकर रहेंगे! – “Svarajya mening tug‘ma huquqim va men uni qo‘lga kiritaman!”[1] — degan mashhur so‘zlarni aytgan va shu bilan “Svarajya” atamasini iste’molga kiritgan. Mahatma Gandi esa bu tushunchani faqat siyosiy mustaqillik yemas, balki ijtimoiy, iqtisodiy va ma’naviy mustaqillik, deb kengaytirdi. Gandining Svarajya haqidagi fikrlarini tushunish uchun, avvalo, uning mohiyatini anglash lozim. Svarajya — Gandi tomonidan taqdim yetilgan falsafiy tushunchadir. Svarajya – ichki kuch yordamida eng katta qiyinchiliklarni yengish vositasidir.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida inglizlar hukmronligiga qarshi boshlangan milliy ozodlik harakatlarida kirib kelgan “Svarajya”, “Svadeshi”, “Satyagraha” tushunchalari hind jamiyatida faol qo‘llanila boshladi. Bu

[1] A.P. Buyanova, A.L. Semayeva. Hindiy tilini o‘qitish kitobi. – S. 195

tushunchalar o‘z o‘rnida tamoyil bo‘lib, inglizlar hukmronligiga qarshi, mustaqillikka erishuv va uni tashkil yetish yo‘lini o‘zida aks ettirgan. “Svadeshi” tamoyili mamlakatda ishlab chiqariluvchi mahsulotlarni kengaytirishni ko‘zda tutadi. Chunki mustamlakachilik davrida Britaniyada ishlab chiqarilgan mahsulotlar Hindiston bozorini egallab olgan, mahalliy ishlab chiqarish, mahalliy hunarmandchilik tarmoqlariga putur yetkazayotgan edi. Buning natijasida ko‘plab hindlar ishsiz bo‘lib qolayotgan edi. “Satyagraha” tamoyili ahimsa orqali qarshilik ko‘rsatishni targ‘ib qiladi. Ahimsa – zo‘ravonliksiz qarshilik ko‘rsatish. Bu tinch namoyishlar olib borish, xalq manfaatiga qarshi qonun-qoidalar joriy etilganda ularga itoat yetmaslik, Britaniya tovarlarini boykot qilish kabilarni o‘z ichiga olgan. Gandi mana shu uchta tamoyilga rioya qilingandagina Britaniya hukmronligining mamlakatdan chiqib ketishiga erishish, Hindiston mustaqilligini, ya’ni Svarajyani qo‘lga kiritish mumkinligini ta’kidlagan.

Gandi uchun Svarajya – Ramrajya bilan barobar, ya’ni, afsonaviy- tarixiy odil shoh Ram boshqaruviga asoslangan, xalq irodasiga muvofiq boshqariladigan hokimiyatdir.[1] Bunday Svarajyada inson, avvalo, boshqalarni nazorat qilishi emas, o‘zini nazorat qilishi kerak. Agar inson o‘zini boshqarishni o‘rgansa, uning natijalari butun ommaga ta’sir qilishi mumkin.

Gandi orzu qilgan Svarajyada irq, din va jins bo‘yicha tafovutlarga o‘rin bo‘lmaydi. U yerda savodlilar va boylarning ustunligi bo‘lmaydi. Bu hamma uchun va hammaning farovonligi uchun bo‘lgan boshqaruv shaklidir. Svarajyada jamiyat mukammal taraqqiy etgan bo‘lishi, sivilizatsiya yanada sof va mustahkam bo‘lishi lozim. Sivilizatsiyaning asosiy elementi shundan iboratki, shaxsiy yoki ijtimoiy ishlar bo‘lishidan qat’i nazar, odob-axloq qoidalariga rioya qilish ustuvor o‘rin tutishi kerak.

Gandining Svarajya haqidagi fikrlarining asosiy maqsadi ezilgan, zulm ko‘rgan va savodsiz insoniyatni ozod qilishdir.

Haqiqiy Svarajya qishloq kengashlaridan boshlanishi kerak. Qishloqning barcha moddiy ehtiyojlarini qondirish kuchi ushbu kengashlarda mujassam bo‘lishi kerak. Ularning ustida esa qishloq kengashlari, tuman kengashlari va viloyat kengashlari nazorat va yordam ko‘rsatishi zarur. Tuman miqyosida tuman kengashi yoki tuman hukumati o‘z hududining rivoji uchun barcha loyihalarni ishlab chiqishi va ularning ijrosini ta’minlashi kerak. Mintaqaviy va milliy hukumat esa to‘liq yordam berishi, zarur hollarda malaka oshirish va yo‘l-yo‘riq ko‘rsatishi lozim. Mintaqaviy va milliy hukumat o‘z darajasidagi ishlarni olib borishi kerak, bunda esa jahon xalqlari bilan hamkorlik qilish muhimdir. Jahon hamjamiyati Svarajyaning eng yuqori shakli bo‘lib, nafaqat insoniyatning, balki butun dunyoning rivojlanishi va farovonligi uchun siyosat belgilashi hamda uning ijrosini ta’minlashi kerak.

Har bir jamiyat va davlatning birinchi vazifasi shuki, u o‘z hududida yashovchi har bir kishini ish bilan ta’minlashi kerak. Ish har bir kishiga uning qobiliyati va imkoniyatlariga qarab, darhol mavjud resurslar orqali berilishi lozim. Ish bilan ta’minlash iqtisodiy rivojning muhim birligidir. Rivojlanish

[1] डॉ. कुमुदिनी पाठक, गांधी स्वराज चिंतन: एक मीमांसा –पृ ३६

insoniyat farovonligini ta’minlashi lozim. Turmush darajasi va hayot tarzi o‘rtasida farq bor – asosiy e’tibor birinchisiga qaratilishi kerak.

Svarajya sari birinchi qadam o‘ziga xosdir. Bir kishining huquqi boshqasining huquqlariga zid bo‘la olmaydi. Svarajya faqat haqiqat va zo‘ravonliksiz vositalar orqali qo‘lga kiritilishi kerak, aynan shu vositalar orqali uni boshqarish va barqaror saqlash lozim.

Gandining Svarajya ta’limotida xalq boshqaruviga o‘tish, hukumat vakolatlarini markazlashtirish, rivojlanishda xalq ishtirokini kuchaytirish, jahon birodarligi g‘oyasi hamda farovon va baxtli dunyo konsepsiyasi mujassam. Shu bilan birga Svarajyada nogironlar, ko‘zi ojizlar va boshqa imkoniyati cheklangan shaxslar ham o‘z o‘rniga ega bo‘ladi.

Svarajya ko‘pchilik tashkil etuvchi jamiyat, ya’ni faqat hindlarning hukmronligi bo‘ladi, deb o‘ylash noto‘g‘ri. Gandi tushunchasida Hind Svarajyasi, deganda Hindistonning har bir fuqarosiga tegishli bo‘lgan, har bir fuqaroga teng imkoniyat beriladigan adolatli jamiyat nazarda tutiladi.

Agar Svarajya hind xalqini madaniyatli qilish va ularning sivilizatsiyasini yanada mustahkam qilishga xizmat qilmasa, u hech qanday qadrga ega bo‘lmaydi. Hind madaniyatining asosiy mohiyati shaxsiy yoki jamoaviy harakatlarda axloqiy tamoyillarga eng yuqori o‘rinni berishdir.[1]

Mukammal Svarajya hindular uchun qanday bo‘lsa, musulmonlar uchun ham shunday bo‘lishi zarur. U jayn, yahudiy, sikhlar uchun qanday bo‘lsa, xuddi shunday parslar va nasroniylar uchun ham bir xil bo‘lishi kerak. Unda kasta, din yoki ijtimoiy mavqega asoslangan har qanday farqlarga o‘rin qolmasligi kerak.

Gandi tasavvur qilgan to‘liq Svarajya bu boshqa davlatlar bilan aloqa qilmaslik emas, balki jahon hamjamiyatiga teng a’zo bo‘lgan sog‘lom va jiddiy mustaqillikdir. Huquqiy tamoyillar, aslida, axloqiy tamoyillarga asoslanib, “O‘z mulkingizdan foydalaning, lekin bu bilan qo‘shningizga zarar yetkazmang” qabilidagi qoida ustiga quriladi.

Svarajyani faqat o‘z manfaati emas ko‘pchilik manfaati yo‘lida mehnat qiladigan insonlar jamiyatidagina saqlab qolish mumkin bo‘ladi.

Svarajyada jamiyatning har bir a’zosi o‘zini o‘zi boshqaradi va hech kim bir-biriga dushman bo‘lolmaydi. Jamiyatning har bir a’zosi farovonlikka hissa qo‘shadi. Hammaga o‘qish-yozish, ilm olish imkoniyati yaratiladi. Hech kim qashshoqlikdan aziyat chekmaydi, har kim mehnat qilish istagida bo‘lsa, u ish bilan ta’minlanadi.

Mustahkam va tartibli davlatda hech kim boshqalarning qonuniy huquqlarini o‘zboshimchalik bilan tortib ololmaydi. Agar shunday hodisa sodir bo‘lsa ham, haqiqat va zo‘ravonliksiz yo‘li bilan adolat tiklanishi lozim, zo‘ravonlik bunga yechim bo‘la olmaydi. Haqiqiy erkinlik so‘rab olinmaydi. Har kim uni o‘zi qo‘lga kiritib, amalga oshirishi va ushbu erkinlik hech kimdan tortib olinmasligi kerak.

So‘z erkinligi va fuqarolik huquqlari – haqiqiy mustaqillikning asosi bo‘lib, ularning yo‘qligi mustaqillik binosini mustahkam qilib bo‘lmasligini anglatadi.

[1] तेजस्वरूप त्रिवेदी। राजभाषा रूपभाषा। –पृ ५०

Svarajya – xalqparvar demokratiya bo‘lib, unda ijtimoiy mavqe, gender, irq, shuningdek, din yoki kasta sababli mavjud bo‘lgan har qanday tengsizlik yo‘q qilinadi.[1] Hind xalqi ozodligi deganda butun Hindistonning ozodligi nazarda tutiladi. Ozodlik quyi qatlamdan boshlanishi kerak. Har bir qishloqda demokratiyaga asoslangan boshqaruv – panchayat[2] hokimiyati o‘rnatilishi lozim. Bu boshqaruv to‘liq hokimiyatga ega bo‘lishi kerak, ya’ni har bir qishloq mustaqil bo‘lib, o‘z ehtiyojlarini o‘zi qondira olishi lozim. Natijada, u o‘z iqtisodiyotini o‘zi yuritishi, o‘zini himoya qila olishi mumkin.

Shunday qilib Svarajya ta’limoti uch asosiy turga bo‘linadi:

1) Siyosiy Svarajya

Britaniya mustamlakasidan to‘liq ozod bo‘lish;

Mustaqil Hindiston hukumati va konstitutsiyasini yaratish.

2) Iqtisodiy Svarajya

Britaniya sanoati va iqtisodiga qaramlikni tugatish;

Hindiston o‘z sanoatini rivojlantirishi va mahalliy mahsulotlardan foydalanishi kerak;

Svadeshi harakati – Hindlar Britaniya mahsulotlarini boykot qilib, mahalliy mahsulotlar ishlatishni targ‘ib qilganlar.

3) Ijtimoiy va ma’naviy Svarajya

Faqat Britaniyaga qaramlikdan xalos bo‘lish yemas, balki jamiyatdagi adolatsizlik va kamsitishlarni ham yo‘q qilish;

Qashshoqlik, kasta tizimi va savodsizlikka qarshi kurash;

Axloqiy va ma’naviy rivojlanish orqali haqiqiy mustaqillikka erishish.

Xulosa: Svarajya tushunchasi Hindiston mustaqillik harakatining asosiy tamal toshi bo‘lib, u faqat siyosiy erkinlikni yemas, balki jamiyatning har tomonlama o‘zini boshqarishini ham anglatadi. Mahatma Gandi bu tushunchani yanada kengroq talqin qilib, haqiqiy Svarajyaga erishish uchun xalqning ma’naviy va axloqiy yuksalishini ta’kidlagan. Uning fikricha, mustaqillik zo‘ravonlik orqali emas, balki Satyagraha — haqiqat va zo‘ravonliksiz qarshilik tamoyiliga asoslangan harakat orqali qo‘lga kiritilishi kerak.

Bugungi kunda ham Svarajya nafaqat Hindiston tarixidagi muhim siyosiy tushuncha sifatida, balki har qanday jamiyat o‘z taqdirini o‘zi belgilashga intilishi kerakligi haqidagi umumiy g‘oya sifatida dolzarbligini saqlab qolmoqda. Haqiqiy Svarajyaga erishish — bu nafaqat tashqi mustaqillikni ta’minlash, balki ichki o‘zgarishlarga ham yo‘l ochish demakdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.P. Buyanova, A.L. Semayeva. Hindiy tilini o‘qitish kitobi. T.: “O‘qituvchi”. – 279b.

[1] डॉ. कुमुदिनी पाठक, गांधी स्वराज चिंतन: एक मीमांसा –पृ ४०

[2] Panchayat — bu Hindiston va Nepal kabi Janubiy Osiyo mamlakatlarida mavjud bo‘lgan mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish tizimidir. So‘z sanskrit tilidan olingan bo‘lib, “pancha” — besh, “ayat” — yig‘ilish degan ma’noni bildiradi. An’anaviy ravishda “Panchayat” besh nafar oqsoqoldan tashkil topgan bo‘lib, ular qishloqdagi muammolarni hal qilish, nizolarni bartaraf etish va qarorlar qabul qilishda asosiy rol o‘ynagan.

2. G‘.T. G‘iyosovich. Hindiston tarixi. T.: “Toshkent Davlat Sharqshunoslik instituti”, 2015. –402b.

3. M.K.Gandhi. Hind Swaraj or Indian Home Rule. Ahmedabad: Navajivan Publishing House. –96p.

4. तेजस्वरूप त्रिवेदी। राजभाषा रूपभाषा। नई दिल्ली :संगीत नाटक अकादमी ,2018-2019। –132पृष्ठ

5. डॉ. कुमुदिनी पाठक, गांधी स्वराज चिंतन: एक मीमांसा, नई दिल्ली, अनामिका पब्लिशर्स एंड डिस्ट्रिब्यूटर्स (प्रा.) लिमिटेड, 2023. – 317पृष्ठ

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ИДЕИ МАХМУДХОДЖИ БЕХБУДИ – ДЕТЕРМИНАНТЫ ФОРМИРОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОГО САМОСОЗНАНИЯ

АКМАЛЬ АБДУРАХИМОВ
ТГУВ, направление «Восточная философия и культура»
студент 3 курса
Научный руководитель: д.ф.н., профессор Изветова Э.М.

Аннотация: Статья посвящена исследованию философско-просветительских идей выдающихся мыслителей Центральной Азии конца XIX — начала XX века, на примере творчества Махмудходжи Бехбуди. Особое внимание уделяется философской, просветительской и нравственной значимости произведений, оказавших влияние на становление национального самосознания народов Средней Азии. М. Бехбуди заложил основы научного осмысления современного общества и процессов государственного строительства, что нашло отражение в его художественных и публицистических трудах, сыгравших важную роль в развитии интеллектуальной жизни Узбекистана.

Ключевые слова: философско-просветительская концепция, общественная активность, формирование личности, национальное возрождение, идеологические основания, национальное самосознание, просвещение, культурно-цивилизационные процессы

Махмудходжа Бехбуди (1875-1919) – выдающийся среднеазиатский просветитель и общественный деятель, сыгравший ключевую роль в становлении джадидского движения, направленного на модернизацию традиционного мусульманского образования и культуры в Туркестане. Его жизненный путь и деятельность отражают глубокие социальные и культурные трансформации региона на рубеже XIX–XX веков. Родившись в селении Бахшитепа под Самаркандом, Бехбудий вырос в семье, связанной с суфийским тарикатом Яссавия. Получив образование под руководством отца-муфтия, он впоследствии сам стал известным муфтием в Самарканде. Эти обстоятельства оказали значительное влияние на его мировоззрение и приверженность идеям просвещения.

Философия просвещения Бехбуди выходила за рамки простого распространения знаний, она способствовала формированию критического мышления и осмыслению истории. Его работы как никогда актуальны для понимания процессов формирования коллективной идентичности, осознания исторического опыта и стремления к самостоятельному развитию. Анализ его философских взглядов позволяет проследить прямую связь между просветительской деятельностью Бехбуди и эволюцией национального самосознания жителей Туркестана, в частности, Узбекистана, положив начало процессу самоопределения и формирования современной национальной идентичности[1].

На рубеже XIX и XX веков в Средней Азии наблюдается динамичное развитие общественно-политической мысли. Наиболее прогрессивные представители туркестанского народа объединились в движении, известном как джадидизм. Термин происходит от арабского слова, означающего «новый», и отражает стремление к обновлению и модернизации. Джадиды представляли собой интеллектуальную элиту, критически оценивающую состояние народа и перспективы его развития. Они осознавали, что бедственное положение малообразованных масс, социально-политическая стагнация, феодальная раздробленность и колониальное угнетение препятствовали прогрессу и угрожали утратой национальной самобытности.

В ответ на эти вызовы джадиды создали организацию «Объединение джадидов» и начали активные действия, направленные на достижение своих целей. Среди них были реформирование системы образования, создание национальных средств массовой информации, развитие национального театра и обновление литературных жанров. Джадидское движение достигло наибольших успехов в начале XX века, что способствовало формированию духовности туркестанского народа. Бехбуди, будучи сторонником прогрессивных реформ, фокусировал внимание на значимости образования и рассматривал его как инструмент, способствующий индивидуальному и коллективному просвещению. Это, по его мнению, ведёт к осознанию национальной идентичности и культурных корней. Он утверждал, что только через доступное и качественное образование можно развить критическое мышление, сформировать активную гражданскую позицию и бороться с предрассудками и социальной несправедливостью.

В своих произведениях Бехбудий обращался к проблемам языка и литературы, считая их основой для объединения народа вокруг общих духовных и культурных ценностей. Его философский подход к просвещению выступал не только как средство индивидуального саморазвития, но и как ключевой фактор формирования национального самосознания. В условиях глобальных вызовов и культурной ассимиляции

[1] Шаймарданов Р.Х.Национальное самосознание и технология его формирования в педагогике народа ханты // Российский гуманитарный журнал, vol. 3, no. 6, 2014. — Pp. 505-517.

идеи Бехбудий о роли образования, культурной памяти и социальной ответственности являются важными философскими предпосылками для понимания процессов эволюции национальной самоидентификации. В этом контексте идеи мыслителя об образовании, культурной памяти и социальной ответственности представляют собой важные философские детерминанты для понимания процессов формирования национального самосознания в эпоху трансформаций и модернизации.[1]

Встреча с выдающимся просветителем тюркского мира, основоположником джадидского движения Исмаилбейем Гаспринским в начале 1890-х годов стала поворотным моментом в его жизни. М. Бехбудий впечатленный модернистскими идеями И.Гаспринского активно занялся созданием новометодных (джадидских) школ в Самарканде и других городах Туркестана, внедряя современные педагогические подходы. Особое внимание Бехбудий уделял борьбе с невежеством, считая его одной из главных причин отставания Эмирата Бухары от остального мира. В своих публицистических и литературных трудах он резко критиковал пассивность и консерватизм, противопоставляя им образ образованного и прогрессивного гражданина. Он активно занимался подготовкой учебных материалов для школ нового типа и участвовал в курултае мусульман России в 1907 году. На повестке дня стояли вопросы реформирования системы образования, внедрения светских дисциплин и разработки доступных учебных пособий. Деятельность Бехбуди была направлена на формирование национального самосознания и культуры в условиях ускоренной модернизации. Его идеи о роли образования, культурной памяти и социальной ответственности остаются актуальными для понимания процессов формирования национальной идентичности в Средней Азии.

В процессе становления национальной идентичности особая роль принадлежит национальному самосознанию. Национальное самосознание обозначает осмысление индивидом своей принадлежности к определенной нации, что в свою очередь способствует укреплению солидарности и единства в обществе. Это понимание формирует не только место и роль личности в социальной структуре, но и взаимное уважение, что является основой для развития терпимости и конструктивного диалога между представителями различных этносов. В данном контексте, национальное самосознание служит фундаментом для формирования более обширного национального сознания, включающего систему оценочных категорий и рационально-ценностных представлений, необходимых для самоопределения индивидов в различных сферах жизни — социальной, политической и духовной.

В отличие от общего национального сознания, самосознание является более частным понятием, отражающим уровень понимания индивидуумом общих национальных ценностей. Не менее важным является осознание

[1] Нуриддинов Б. Х. У. Жизнь и творчество Махмудходжа Бехбуди // NovaInfo.Ru. 2018, Т. 1. — С. 342 – 344.

нации как исторически сложившейся общности людей, обладающей общими территориями, культурными особенностями и языком. Каждый народ обладает уникальными проявлениями национального самосознания, которые неразрывно связаны с её идентичностью, отражаясь в языке, традициях и религии. Эмоциональное восприятие своей этнической принадлежности формирует мощный поток чувств и ценностных установок, оказывающих влияние на самопознание каждого индивида.

Ключевыми этапами формирования национального самосознания можно считать осознание своей принадлежности к конкретному этносу, укрепление как национальных, так и международных связей, развитие патриотических чувств и формирование положительного отношения к другим этническим группам. В этой связи, вклад Махмудходжи Бехбудий в развитие национального самосознания особенно значим. Пропаганда использования родного языка в образовании и литературе, создание национальной периодической прессы, таких как журнал «Ойна», а также активное участие в культурно-просветительских инициативах, способствовали формированию чувства гордости и единства среди народа.

В философском анализе идеи просвещения М. Бехбуди, прослеживаются пути, по которым через образование и просвещение можно создать платформу для формирования и укрепления национального самосознания. Бехбудий акцентирует внимание на важности осознания культурной идентичности и интеллектуального развития как средств противостояния империалистическим влияниям и распространению неолиберализма, которые могут подрывать традиционные ценности и самобытность. Он подчеркивает, что просвещение должно быть не просто передачей знаний, а активным процессом, способствующим критическому осмыслению истории и культурного наследия нации.

Бехбудий полагает, что формирование национального самосознания невозможно без глубокого понимания исторических процессов, которые должны быть представлены в образовании в контексте современных вызовов. Его идеи о просвещении становятся катализатором для осознания нацией своей уникальности, где знание и культура выступают в качестве основополагающих инструментов в процессе становления национальной идентичности и самосознания, что умножает шансы на успешное преодоление социокультурных кризисов [1].

В последующие годы Махмудходжа Бехбудий активно содействовал развитию национального театрального искусства, рассматривая его как мощный инструмент для распространения прогрессивных идей и формирования национального самосознания. Его драма «Падаркуш» («Отцеубийца»), впервые поставленная в 1914 году, стала важным событием в культурной жизни Туркестана, акцент был поставлен на

[1] Гафаров Н. У. Вклад джадидов в зарождение национальной драматургии и развитие театра в Средней Азии // Вестник Таджикского Гос. Университета права, бизнеса и политики, 2013, № 4 (56). — С. 220 – 225.

необходимости преодоления невежества и внедрения современных знаний в общественное сознание. Текст пьесы, опубликованный с разрешения тифлисского цензора в 1913 году, был издан в Самаркандском журнале «Ойна», редактором которого являлся сам Бехбудий. Премьера спектакля состоялась 15 января 1914 года в Самарканде, а затем была представлена 27 февраля в Ташкенте на сцене театра «Колизей». Театральная труппа «Турон» исполнила эту драму, а важным элементом мероприятия стала лекция Мунавваркори Абдурашидхонова, подчеркивающая значимость театра в духовной жизни общества.

Махмудходжа Бехбуди по праву считается одной из ключевых фигур среди просветителей Туркестана начала XX века, внесший значительный вклад в развитие науки, образования и формирование национального самосознания. Его идеи остаются актуальными и сегодня. Бехбудий проявил себя не только как модернист, но и как выразитель идеологии национальной независимости узбекского народа. Его взгляды высоко ценились такими выдающимися деятелями, как Исмаилбек Гаспринский[1]. Даже в сложные времена Бехбуди не прекращал публиковать статьи, в которых выражал свои мысли о социально-политической ситуации и духовно-образовательных тенденциях в регионе. Идеи, заложенные в его трудах, оказали огромное влияние на развитие интеллектуальной и культурной жизни Средней Азии. Известный востоковед Л.Азиззода, высоко оценивая заслуги Бехбудий, подчеркнул, что «если в Узбекистане следует увековечить третье лицо в науке, культуре после Навои и Улугбека, несомненно, это должен быть памятник Бехбуди»[2].

В 1917 году в Ташкенте прошел курултай мусульман Туркестана, на котором Махмудходжа Бехбуди выступил с докладом, посвященный противоречиям внутри мусульманского сообщества. В последующем он был избран председателем совета данного курултая, что подчеркивает его влияние и авторитет среди делегатов. Активная деятельность Бехбуди в начале XX века охватывает ряд ключевых направлений, связанных с концепцией социально-культурного прогресса и национального самосознания. В целях реализации программы деятельность проводилась по следующим направлениям: во-первых, научно-исследовательская работа, включающая изучение новаторских образовательных учреждений в Турции, Татарстане и Башкирии; во-вторых, просветительская деятельность, заключающаяся в открытии новых типов школ и продвижении прогрессивных идей образования; в-третьих, литературная инициатива, проявляющаяся в создании значительных произведений на узбекский язык; в-четвертых, культурная деятельность, в частности, основание национального театра, который стал важной платформой для выражения идентичности народа; в-пятых, издательская работа — газета «Самарканд»

[1] Камолиддин Ш. С. Документ из архива Исмаила Гаспринского
[2] Азиззода Л. Бехбудий //Маориф ва укитувчи, 1926, № 2.

и журнал «Ойна»[1] способствовали распространению прогрессивных идей и информировании в обществе; в-шестых, политическая активность, направленная на участие в социально-культурной жизни региона, что содействовало формированию национального самосознания; в-седьмых, воспитательная деятельность, ориентированная на пропаганду моральных ценностей, трудолюбия, гуманизма, справедливости и патриотизма; в-восьмых, религиозные практики, включая совершения хаджа, подчеркивали его духовную связь с исламом.

Весной 1919 года, перед запланированной поездкой в Шахрисабз, Бехбуди был арестован представителями эмира Бухары с поддержкой агентов Революционной чрезвычайной комиссии (РЧК) и, вместе с двумя спутниками, осуждён и казнён. Эта трагическая судьба вашего героического духа, мужественно произнесённая им в словах: «Если наши жизни отданы ради свободы и счастья народа, мы с радостью примем смерть», стала символом его жертвы ради просвещения и национального самосознания. Идеи Бехбуди, основанные на гуманистических принципах и традициях ислама, продолжают влиять на умы и сердца людей в Узбекистане и за его пределами. С обретением независимости Узбекистана, его концепции самосознания и построения гуманистического общества стали особенно актуальными. В рамках научных исследований, проводимых в Узбекистане, Таджикистане, России, Германии, США и других странах, активно изучается творчество этого великого просветителя. В знак признания его вклада в образование и культуру, улицы и школы в Узбекистане носят имя Махмудходжи Бехбуди, что отражает его постоянное присутствие в историко-национальной памяти и культуре народа.

Список использованной литературы:

1. Шаймарданов Р.Х.Национальное самосознание и технология его формирования в педагогике народа ханты // Российский гуманитарный журнал, vol. 3, no. 6, 2014. — Pp. 505-517.

2. Нуриддинов Б. Х. У. Жизнь и творчество Махмудхуджа Бехбуди // NovaInfo.Ru. 2018, Т. 1. — С. 342 – 344.

3. Гафаров Н. У. Вклад джадидов в зарождение национальной драматургии и развитие театра в Средней Азии // Вестник Таджикского Гос. Университета права, бизнеса и политики, 2013, № 4 (56). — С. 220 – 225.

4. Камолиддин Ш. С. Документ из архива Исмаила Гаспринского, относящийся к Туркестану // Крымское историческое обозрение / Crimean Historical Review. Научный журнал. Казань-Бахчисарай, 2017, № 1. — С. 245 – 279.

5. Азиззода Л. Бехбудий //Маориф ва укитувчи, 1926, № 2.

[1] Барноев Ж. Гуманистические идеи и культурно-просветительская деятельность Махмудходжа Бехбуди // Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник научных трудов по материалам XV Международной научно-практической конференции, 2020. — С. 15 – 19.

6. Барноев Ж. Гуманистические идеи и культурно-просветительская деятельность Махмудходжа Бехбуди // Научное пространство: актуальные вопросы, достижения и инновации. Сборник научных трудов по материалам XV Международной научно-практической конференции, 2020. — С. 15 – 19.

OGAHIY IJTIMOY-FALSAFIY QARASHLARIDA INSON PSIXIKASINING TASVIRLANISHIGA DOIR MULOHAZALAR

Shaxzoda JALOLOVA
TDSHU, Sharq mamlakatlari tarixi yo‘nalishi
2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Ogahiyning inson psixikasiga oid qarashlari, inson psixologiyasining ruhiy holatlariga qaratilgan fikrlari yoritilgan. Maqola, insonning intellektual taraqqiyotini yoritib, Ogahiyning inson psixologiyasi va ichki o‘zgarishlar haqidagi qarashlari orqali o‘zlikni anglash, axloqiylik va ijtimoiy mas’uliyat haqida kengroq fikr yuritadi. Ogahiyning falsafiy asarlaridan muhim tushunchalar tahlil qilinib, inson psixikasining dinamik tabiatiga, shuningdek, ta’lim, refleksiya va ijtimoiy taraqqiyotning shaxsiy o‘zgarishlarni rivojlantirishdagi ahamiyatiga alohida e’tibor qaratiladi.

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy mas’uliyat, intellektual taraqqiyot, inson psixikasi, refleksiya, ruhiy ong, himmat, tarji’band.

Inson psixikasi, umuman, ruhiy olam haqida fikr yuritilar ekan, har bir faylasuf, har bir ilm odami o‘zining inson psixologiyasiga oid axloqiy, diniy, ijtimoiy, intellektual va boshqa inson shaxsiga doir fikr mulohazalarga ega. Bunday qimmatli fikrlarni asosli ravishda o‘z asarlarida atroflicha bayon etish orqali inson ongining nimalarga qodir ekanligini tasvirlab berganlar. Adabiyot tarixchilari tomonidan “tanazzul davri” deb hisoblangan XIX asrda Buxoro, Qo‘qon va Xorazmda, o‘zbek xonliklarida tashkil etilgan adabiy doiralarda mumtoz adabiyot an’analarini davom ettirgan kuchli ijodkorlar yetishib chiqqanini ko‘ramiz. Bu davrda, ayniqsa, Xorazm adabiy muhitida juda iste’dodli ijodkorlar yetishib chiqdi. Munis va Ogahiy XIX asr Xorazm adabiy doirasining ikki kuchli vakillaridir[1]. XIX asr Xorazm mutafakkirlari va faylasuflari singari Muhammad Rizo Ogahiy ham insonning ruhiy dunyosini o‘zining ijtimoiy-falsafiy qarashlari jihatidan keng qamrovda tasvirlab berishga harakat qiladi.

Inson aqlga ega, his-tuyg‘ularga boy, axloqiy fazilatlari bor va ilohiy xabarlarga bog‘lanib turuvchi va qabul qiluvchi bir mavjudotdir[2]. Falsafiy nuqtai nazardan, inson psixikasining o‘zgarishi, uning ichki dunyosi va tashqi muhit

[1] Feridun Tekin. Munis ve Agehi Çağatay edebiyatının iki büyük siması. Biografik va aftobiografik kitoblar,-2016.S-205.https://www.bkmkitap.com/cagatay-edebiyatinin-iki-buyuk-simasi-munis-ve-agehi

[2] Toplu, Feyza Nur. Haris el-Muhasibi’de insan psikolojisi,-Istanbul-2022. https://openaccess.izu.edu.tr/xmlui/handle/20.500.12436/4589

bilan o‘zaro ta’siridan kelib chiqadigan jarayon sifatida qaraladi. Bu o‘zgarishlar, insonning o‘zligini tushunishi, erkinlik va ma’naviyatini anglashi, shuningdek, mavjudlik va dunyoqarashni rivojlantirish bilan bog‘liq. Ruhiy o‘zgarishlar ziddiyatlar va qarama-qarshiliklardan, shaxsning ichki rivojlanishi va hayotiy tajribalaridan yuzaga keladi. Falsafiy yondashuvda, bu jarayon insonning mavjudligini chuqurroq anglash va o‘zini yaratish jarayoni sifatida qaraladi. Ogahiy o‘zining falsafiy qarashlari va adabiy merosi bilan turli zamonlar va madaniyatlar o‘rtasida ko‘prik yaratgan buyuk mutafakkirlarimizdan biridir. Uning asarlari faqat ilmiy va adabiy jihatdan emas, balki insonning ruhiy va axloqiy rivojlanishi nuqtai nazaridan ham beqiyos ahamiyatga ega. Ogahiy falsafasida asosiy e’tibor inson psixikasining o‘zgarishi va ichki rivojlanishiga qaratilgan. U insonning ruhiy o‘zgarishlarini intellektual, axloqiy va ijtimoiy mas’uliyat bilan bog‘laydi, shuningdek, ta’lim va refleksiyaning shaxsiy rivojlanishdagi o‘rni haqida chuqur fikrlarni ilgari suradi. Ogahiyning fikricha, insonning ruhiy o‘zgarishi va psixologik rivojlanishi faqat tashqi omillarga emas, balki ichki ong, shaxsiy qarorlar va insonning jamiyatni bir bo‘lagi sifatida his qilishi kerak bo‘lgan mas’uliyatini anglashiga bog‘liqdir. Butun insoniyatni xalq, vatan, jamiyat farovonligi yo‘lida xizmat qilishga da’vat etadi. U do‘stlikni, mehmondo‘stlikni, axloqiy go‘zallikni, nafsdan saqlanishni, qanoatlilikni ulug‘laydi. Boylikka hirs, nodonlik, hasad, kabi illatlarni esa qoralaydi[1]. U o‘zining falsafiy asarlarida har bir insonni o‘zligini anglashga, o‘zining ichki dunyosini tushunishga va bunga bog‘liq ravishda insoniylik mas’uliyatini his qilishga chaqiradi. Bu fikrlar bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib, insoniyatning ruhiy o‘sishi va hayotimizdagi jamiyat bilan aloqador turli vaziyatlarni anglash va ularga munosabat bildirishga yordam beradi. Buyuk insonparvar mutafakkir Ogahiy inson haqidagi gumanistik, ma’rifatparvar va demokratik konsepsiyalarning rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi[2]. Ogahiy, shuningdek, inson psixikasining dinamik tabiatiga urg‘u berib, uning doimiy o‘zgarishini ta’kidlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, shaxsiy o‘zgarishlar va ijtimoiy rivojlanish bir-birini kuchaytirib, jamiyatda barqarorlik va taraqqiyotga olib keladi. Ogahiy falsafasining markazida o‘zlikni yaratish, o‘zligini anglash va erkinlikni tushunish g‘oyalari turadi. Ogahiy, insonning ruhiy o‘zgarishlari, uning ichki erkinligini rivojlantirish va o‘zini yuqori g‘oyalarga yo‘naltirish orqali amalga oshadi deb hisoblaydi. O‘zini tanish va o‘z-o‘zini yaxshilash orqali inson o‘zgaradi, bu esa uning ruhiy o‘sishiga olib keladi. O‘z falsafiy qarashlarida, eng avvalo, insonlarni kamtar bo‘lishga, ma’rifatga ergashishga, oqilonalik, qat’iyatliligi, nafsini tiya bilishi bilan atrofdagilarga o‘rnak bo‘lishga, saxiylikda, ochiqko‘ngillikda, mehribonlikda va haqiqatparvarlikda umr o‘tkazishga chaqiradi. Ogahiy asarlarida inson ruhiyati tasavvufiy jihatdan ham ochib beriladi, jamiyatning ongi bir taraflama emas, balki uzviy bog‘liqlikda

[1] Shavkatov Sh. Sh. Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” asarida falsafiy g‘oyalar: insonning tabiati, axloqi va jamiyatdagi o‘rni. — International scientific journal of Biruni, 2023. – № 1/2.

[2] Omonov.Q.Ogahiy hayoti va ijodi-yoshlar tarbiyasi uchun namuna. Respublika konferensiyasi to‘plami.-Toshkent,2020.B-69.

rivojlanishi va boyishi mumkin ekanligini, har bir inson turli ta’sirlar natijasida turli dunyoqarashlarga ega bo‘lishi mumkinligi haqida bilib olishimiz mumkin bo‘lgan asarlarni bizga taqdim etadi. Insoniyatning komillikka erishish yo‘lida bajarishi kerak bo‘lgan vazifa va burchlari atroflicha yoritiladi. Ogahiyning har bir asarida inson bilan, uning ichki olami bilan bog‘liq masalalarni uchratish mumkin. “Bizki bukun jahon aro kishvari faqr shohimiz” g‘azalida shunday yozadi:

“Markab g‘am samandimiz, domi alam kamandimiz,
Nolayi zor tug‘imiz, xayli balo sipohimiz.
Lashkari kibr-u naxvat-u nafs ila tuzgali masof,
G‘amkadamiz fazosidur arsayi razmgohimiz”[1].

Himmat aslida qanday tushuncha? Ba’zi insonlar himmatni faqatgina kimgadir nimadir bera olish fazilati deya tushunadilar. Yo‘q, aslini olganda faqat bugina emas. Aslida himmat– bu insonning o‘zligidan-da yuksak bo‘lishidir. Ya’ni o‘z istaklaringizni, aniqrog‘i, nafsingizning istaklarini yengib o‘tmoqlikdir. Mazkur g‘azal bizga ushbu masalada saboq berish uchun xizmat qiladi. Ogahiy ushbu satrlar orqali inson g‘am, alam, kibr va nafs kabi salbiy his-tuyg‘ularga qarshi butun umri davomida kurashishi lozimligini uqtiradi. Bu esa inson psixologiyasidagi ichki qarama-qarshiliklarni ifodalaydi. Bunday kurash inson ichki olamida doimiy holat ekanligini ta’kidlaydi. Ogahiyning fikricha, ruhiy yuksalish tashqi go‘zallik yoki moddiy muvaffaqiyat bilan o‘lchanmaydi, balki, ichki dunyodagi haqiqatni anglash orqali amalga oshadi. Shu bilan birgalikda, Ogahiy o‘z asarlarida tashqi dunyo va ichki holatning uzviy bog‘liq ekanligi xususida ham so‘z yuritadi. Shu o‘rinda ushbu satrlarga murojaat qilish o‘rinli:

“Dahri dun ayyorasikim, yo‘q ango mehr-u vafo,
Peshasi kin-u nifoq-u odati — javr-u jafo.
Yo‘qturur aslo hamul makkora qotil zotida,
Zarracha rahm-u muruvvat, qatracha sharm-u hayo”[2].

Ogahiy qalamiga mansub mazkur tarji’band tasavvufiy mazmunga yo‘g‘rilgan ijtimoiy-falsafiy ruhdagi asardir. Tarji’bandda dunyo omonat binoga, bo‘yi, vafosi yo‘q gulshanga, jafokor tuban ayyoraga o‘xshatiladi va insonni unga ko‘ngil berib, oxir-oqibatda aldanib qolmaslikka chaqiradi. Dunyoning o‘tkir haqiqatlari insonni ruhiy o‘zgarish tomon chorlashi tufayli inson o‘zligida turli o‘zgarish holatlari sodir bo‘lishi mumkinligi haqida aytib o‘tilgan. Imom G‘azzoliyning tasavvufiy falsafasi, ayniqsa, Ogahiyning qimmatli asarlarida ifodalangan. G‘azzoliy nafsni yengish va o‘zini anglash orqali haqiqatni izlashni o‘rgatgan. Ogahiy G‘azzoliyning bu g‘oyalarini davom ettirgan holda, nafsni poklash va yaxshi axloqni shakllantirishga urg‘u bergan. G‘azzoliyning “Ichki dunyo pokligi” g‘oyasini Ogahiy o‘z asarlarida amaliyotga tatbiq etishga chaqirgan.Ogahiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari bilan buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning qarashlari o‘rtasida juda katta o‘xshashliklar mavjud. Navoiy ham,

[1] https://tafakkur.net/bizki-bukun-jahon-aro-kishvari-faqr-shohimiz/muhammad-rizo-ogahiy.uz
[2] https://tafakkur.net/dahr-uyi-bunyodkim/muhammad-rizo-ogahiy.uz

Ogahiy kabi, tasavvuf falsafasini qo‘llab-quvvatlab, dunyo va axloqni anglashni muhim deb bilgan. Ularning har ikkalasi ham insonni ichki tinchlik va ma’naviy yuksalishga chaqirgan, tasavvufni haqiqiy baxtga erishishning yo‘li sifatida ko‘rgan.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Ogahiy ijodining asosiy mavzusida inson va uning qimmatli ongi turganligi sababli, o‘quvchining tasavvur dunyosi va kamolotiga benihoya ta’sir ko‘rsatadi. O‘zining serqirra qarashlari orqali, bizga Sharqqa xos bo‘lgan gumanistik g‘oyalar bilan sug‘orilgan asarlarni taqdim etadi. Adabiyot tarixi va taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan zabardast so‘z sohibi inson ongi bilan aloqador bo‘lgan mutlaq haqiqatlar va abadiyatga chuqur ta’sir o‘tkazuvchi tushunchalarni teran anglagan holda dunyomiz uchun go‘zal ma’naviy ozuqa beruvchi ijod yo‘li va falsafasi bilan adabiyotga oshno qalblar uchun xayolotga boy yangicha olam yaratdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Omonov.Q. Ogahiy hayoti va ijodi-yoshlar tarbiyasi uchun namuna. Respublika konferensiyasi to‘plami.-Toshkent,2020.B-137.

2.Feridun Tekin. Munis ve Agehi Çağatay edebiyatının iki büyük siması. Biografik va aftobiografik kitoblar,-2016.S-205. https://www.bkmkitap.com/cagatay-edebiyatinin-iki-buyuk-simasi-munis-ve-agehi

3.Toplu, Feyza Nur. Haris el-Muhasibi’de insan psikolojisi,-Istanbul-2022. https://openaccess.izu.edu.tr/xmlui/handle/20.500.12436/4589

4.https://tafakkur.net/bizki-bukun-jahon-aro-kishvari-faqr-shohimiz/muhammad-rizo-ogahiy.uz

5. https://tafakkur.net/dahr-uyi-bunyodkim/muhammad-rizo-ogahiy.uz

6. Shavkatov Sh. Sh. Muhammad Rizo Ogahiyning “Ta’viz ul-oshiqin” asarida falsafiy g‘oyalar: insonning tabiati, axloqi va jamiyatdagi o‘rni. — International scientific journal of Biruni, 2023. – № 1/2.

VAN YAN MIN FALSAFIY QARASHLARI

Qorako‘z TO‘LANBOYEVA
TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati ta’lim yo‘nalishi
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD J. Sulaymonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘rta asrlar Xitoy falsafasining yirik vakili hisoblangan Van Yan Min va uning falsafiy qarashlari ko‘rib chiqiladi, ularga nisbatan tanqidiy yondashuvlar beriladi.

Kalit so‘zlar: Xitoy, konfutsiylik, daosizm, Xitoyda o‘rta asrlar davri, bilish, axloq, Van Yan Min, falsafiy tafakkur, Chju Si, tabiiy bilish.

Xitoy qadimdan alohida shakllangan yaxlit bir madaniyat shakllantirgan mintaqadir. Unda mavjud bo‘lgan falsafiy tafakkurlar tamaddun shakllarida aks

etgan tafakkurlarga o‘xshamaydi. Ulardagi yondashuvlar o‘ziga xos. Xitoy mafkurasi o‘z xususiyatini turli madaniyatlar ta’sir etgan paytda ham saqlab qolgan, moslashtirgan kuchli g‘oyalarga asoslanadi. Bunga sabab albatta Xitoyning yopiq siyosat yuritganligi, tashqi aloqalarning bir tomonlama bo‘lganligini keltirsak bo‘ladi. Ammo bu jarayonda shakllangan dunyoqarash muhim ahamiyatga ega.

Bizning muhokama mavzuyimiz Xitoyning o‘rta asrlarda mavjud bo‘lgan mafkuralar va ularning shakllantirgan shaxslarga qaratiladi. Shulardan biri yirik xitoy faylasufi, davlat arbobi hisoblangan Vang Yangmingdir.

Vang Yangming (1472 yil 26 oktyabr – 1529 yil 9 yanvar) xitoy falsafasidagi yirik shaxslardan biri bo‘lib, o‘z falsafiy qarashlari orqali xitoy falsafiy tafakkuriga, mafkurasiga ta’sir ko‘rsatgan faylasuflardan biridir. Vang Yangmingning ismi, unga berilgan nomlar turlicha nom ostida keladi. Ba’zi manbalar faylasufning familiyasi “Vang”, ismi “Shouren” sifatida keltiriladi. Faylasufga nisbatan Bo‘an degan nom ham ishlatilgan. Biroq, u odatda Kuayji tog‘idagi Yangming grottosida yashaganida qabul qilgan taxallusga asoslanib, bugungi kunda “Vang Yangming” nomi bilan tanilgan.[1] Vang Yangming Ming sulolasi davrida faylasuf, general, siyosatchi, yozuvchi va xattot bo‘lgan. Hattoki ijodiy faoliyat bilan ham shug‘ullanganligi haqida aytiladi. Vang Yangming Konfutsiy, Menszi, Chju Si kabi shaxslar bilan bir qatorda xitoy tarixidagi konfutsiychilikning eng buyuk tan olingan ustalaridan edi. Chju Si dan keyin u eng muhim neo-Konfutsiy mutafakkiri sifatida e’tirof etiladi. Vang va Lu Syanshan Lu – “Vang maktabi” yoki “Aql maktabi” deb nomlanuvchi maktabga asos solishgan.

Van Yanming 1472 yilda hozirgi Chjejiang provinsiyasidagi Xanchjou yaqinida muvaffaqiyatli amaldorlar oilasida tug‘ilgan. Uning otasi Van Xua 1481-yilda imperatorlik imtihonida birinchi bo‘lib (Chjuangyuan, chjuan) o‘tgan va marosimlar vazirligining o‘rinbosari lavozimiga ko‘tarilgan, biroq Lyu Jin bilan kelisha olmaganligi uchun lavozimidan tushirilgan va keyinchalik davlat xizmatidan haydalgan amaldordir.

Vang Yangming Konfutsiy an’analarining to‘rtta kitobiga e’tibor qaratgan holda an’anaviy ta’lim olgan. “Analektlar” („Konfutsiy va uning yaqin shogirdlari so‘zlari”), “Buyuk o‘rganish” (“Konfutsiyning kirish bayonoti”), Konfutsiyning yetakchi shogirdi Zengzi sharhi bilan va Mengzining dialoglari kabi manbalar bilan tanishib chiqqan. Yosh Vang bu klassikalarni, shuningdek, pravoslav konfutsiylik ustasi Chju Si (1130-1200) tomonidan yozilgan sharhlarni juda yaxshi o‘rgangan. Ushbu klassik davr tarafdorlarining qarashlarini o‘rganish – axloqiy jihatdan shaxsning xarakteristikasini mustahkamlaydi. Biroq, odamlar davlat hokimiyati va bunga bog‘liq bo‘lgan boylik va obro‘-e’tiborga erishishning asosiy yo‘li deb bilishgan davlat xizmati imtihonlaridan o‘tish uchun ham bu manbalarni o‘rgandilar.

O‘n yetti yoshida (1489) Vang Daoist ruhoniy bilan uchrashadi va u bilan suhbatlashadi. Bu jarayon uni ushbu muqobil falsafiy tizim va hayot tarzi bilan

[1]Wang Yangming (Stanford Encyclopedia of Philosophy), https://plato.stanford.edu/entries

chuqur qiziqtirib qoladi. Vang 1492-yilda juren darajasini va 1499-yilda **jinsshi** darajasini oldi. U 1506-yilda amaldorni haqorat qilgani uchun badarg‘a qilinmaguncha turli davlat idoralarida ijrochi yordamchisi bo‘lib xizmat qildi.

Vang muvaffaqiyatli va mahoratli general bo‘lgan va o‘z qo‘shinlari orasida o‘rnatgan qat’iy tartib-intizomi bilan mashhur edi. 1517 va 1518-yillarda u Tszyansi, Futszyan va Guandundagi dehqonlar qo‘zg‘olonlarini bostirish to‘g‘risidagi buyruqlarga javoban yuboriladi. Urush bilan kelgan vayronagarchilikdan xavotirlanib, u sudga mahbuslarni shartli ozod qilishga ruxsat berishni so‘radi va isyonchi harbiy kuchlarni muvaffaqiyatli yo‘q qildi. U Ning shahzodasi isyonini bostirish harakatlari bilan ham bog‘liq. Jang davomida ishlatgan harbiy hiylalari uning qo‘li baland kelishiga sabab bo‘lgan.

Vang, shuningdek, Xitoyga yangi kelgan portugaliyalik savdogarlar tomonidan olib kelingan fo-lang-ji to‘pini jangda qo‘llash haqidagi eng dastlabki eslatmalardan birini keltiradi. Jiangsi gubernatori sifatida u maktablar qurdi, isyonchilarni bostirdi va qo‘zg‘olon paytida dushman tomonidan yo‘qotilgan narsalarni qayta tikladi. U gubernator bo‘lgan bo‘lsa-da, Chju Xi ga qarshi chiqqani uchun uni haydab yuborishdi. O‘limidan so‘ng, unga “Marquis” kabi unvonlari berildi. 1584-yilda uning sharafiga Konfutsiy ibodatxonasida qurbonlik qilishdi, bu olim uchun eng yuqori sharaf sifatida qaraladi.

Vang Yangmingning ma’naviy salohiyati rivojiga, g‘oyalariga ijtimoiy munosabatlardagi sodir bo‘layotgan voqealar, davlat xizmati va Song xalqining madaniy merosi o‘rtasidagi doimiy ichki ziddiyat asosiy ta’sir ko‘rsatdi, uni harakatga chorladi. Uning ijodiy, tanqidiy fikri keyingi Xitoy tarixining falsafiy tafakkuriga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatdi. Van Yangming Ming neo-konfutsiychilikning “Aql maktabi” (yoki ba’zi manbalarda “Qalb maktabi”, xin xue) asoschisi sifatida mashhur bo‘lib, o‘ziga xos yondashuvlari bilan ajralib turadi. Vang Yangmingning otasi bir marta o‘g‘li haqida “ruhida yengilmas” ekanligini aytdi va bu ta’rif barcha keyingi avlodlar Yangmingistlar uchun juda mos keladi.[1]

Bu maktab Klassik Konfutsiy Mensiusning talqinini qo‘llab-quvvatladi, u keyinchalik tafakkur rivojining markaziga aylandi, bu bilimlarni harakat bilan birlashtirdi. Ularning raqib maktabi, Prinsip maktabi (Li)bu prinsipni bilimga ega bo‘lishga tayyorgarlik yoki o‘stirishning bir turi sifatida qaragan, u tugallanganda harakatga yo‘l ko‘rsatishi mumkin edi. Harakat deyilganda bilimning voqelikda aks etishi va uning mavjudlikda namoyon bo‘lishidir.

O‘sha paytdagi asosiy oqim bo‘lgan Cheng-Chjuning neo-konfutsiyligi ta’siri ostida Van Yangming tug‘ma bilish g‘oyasini ishlab chiqdi va har bir inson yaxshilik va yomonlik o‘rtasidagi farqni tug‘ilganida bilishini ta’kidlaydi. Bu Konfutsiyning inson o‘z axloqi bilan dunyoga keladi degan ta’limotga yaqin turadi. Faylasufning qarashlariga ko‘ra, bunday bilim intuitiv va oqilona emas. Van Yangmingning bu g‘oyalari inqilobchi g‘oyalar sifatida talqin etiladi va ular

[1] ЭНЦИКЛОПЕДИЯ КИТАЯ – Ван Янмин – Китайские философы – Философия и религия – Культура и мировоззрение – Китай: Остальное – Китай, https://www.abirus.ru/content/564/623/625/647/836/11119

keyinchalik Motoori Norinaga kabi taniqli yapon mutafakkirlarining qarashlarida aks etadi, ular Shinto xudolari tufayli yapon xalqining o‘zi yaxshi va yomonni murakkab aqliy bilishsiz ajrata olishning intuitiv qobiliyatiga ega ekanligini ta’kidladi. Ya’ni bu jarayon aql bilan bog‘liq bo‘lmagan oltinchi hissiyot bilan amalga oshadi. Vang Yangmingning Aql maktabi nafaqat xitoy madaniy hayotiga, balki, yapon va koreys falsafiy tafakkurining shakllanishida muhim rol o‘ynadi. Shuningdek, yapon samuraylari etikasiga katta ta’sir ko‘rsatdi. O‘sha davrdagi ko‘plab yapon siyosatchi va olimlari Vang Yangming maktabidan chiqqan.

Neo konfutsiychilik shakllanishida o‘sha davrdagi mavjud bo‘lgan ijtimoiy muhit, falsafiy tafakkur rivojida xitoy mafkurasiga kirib kelgan boshqa g‘oyalar muhim omildir. Chunki bu davrlarda daosizm va buddaviylikning ta’siri kuchaygan, jamiyatda yangilanishlar sodir bo‘layotgan edi. Buddaviylik, daosizm va konfutsiychilikning qorishmasidan hosil bo‘lgan yangicha ta’limoqlar shakllanayotgan edi. Buni kuzatgan Vang Yangming kabi faylasuflar jamiyatda azaliy qadriyatlarni qayta tiklashga uringanlar.

Vangning gnasealogik qarashlarida bilimlarni sof tadqiq qilishni rad etadi. Bu Xitoyning o‘sha paytdagi an’anaviy nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda, inson bilimga ega bo‘lgandan so‘ng, bu bilimlarni amalda qo‘llash majburiyatini oladi. Bu ikkita imkoniyatni nazarda tutadi: biror kishi tegishli, avvaldan mavjud bo‘lgan harakatsiz bilimga ega bo‘lishi yoki to‘g‘ri harakat, aniq ko‘rilgan bilim nima ekanligini bilishi mumkin, ammo natija qoniqarsiz bo‘lishi ham mumkin. Faylasuf bu ikkalasini ham rad etadi, bu unga o‘zining harakat (ontologiya) falsafasini rivojlantirishga imkon berdi. Vang faqat o‘z-o‘zidan harakat qilish orqali bilimga ega bo‘lishi mumkinligiga ishondi va uni olishning boshqa usullarini rad etdi. Boshqacha qilib aytganda shartli holda amalga oshadi. Uning ta’kidlashicha, ilmni qo‘lga kiritgandan so‘ng undan foydalanishning iloji yo‘q edi, chunki u bilim va harakat bir butun, deb hisoblagan. Agar bunga tayanilsa, amalda qo‘llanilgan har qanday bilim aldanish yoki yolg‘on deb hisoblangan. Shuningdek, Vangning jism va obyektlarning mavjud bo‘lishi haqidagi falsafiy tafakkuriga ko‘ra, jismlar ongdan butunlay tashqarida mavjud bo‘la olmaydi. Sababi aynan ong ularni shakllantiradi. U ongni borliqni shakllantiruvchi emas, balki unga aql beradi deb hisoblagan. Bundan tushuniladiki, aqlning o‘zi aql manbaidir. Vangning ta’rifi bilan aytganda, bu ichki yorug‘lik, tug‘ma axloqiy ezgulik va yaxshilikni eslashdir. U har bir inson butunlay dono bo‘lishi mumkin deb ta’kidlaydi. Har bir inson “yaxshilikning ichki bilimiga” ega; ezgulik manbai insonning ichidadir, uning tashqarisida emas. Ichki ezgulik “tashqi tomonga yo‘naltirilgan” bo‘lib, o‘zini o‘zi va oilasi, jamiyati va boshqa barcha tirik mavjudotlarga bo‘lgan tabiiy sevgi tuyg‘ularida namoyon bo‘ladi. Axloqiy xulq – bu yaxshilik haqidagi ichki bilimning tabiiy ifodasidir.

Qi – bu aniq obyektlarni tashkil etuvchi fazo-vaqtinchalik narsa. To‘liq Shakl koinotdagi har bir mavjudotda to‘liq mavjud. Qi qanchalik “aniq” bo‘lsa , Shakl qanchalik ko‘p namoyon bo‘ladi. Neo-Konfutsiy metafizikasi, etika va

falsafiy psixologiya tizimli ravishda bog‘langan. Odamlar har qanday mavjudotning eng aniq **qi** ga ega.[1]

Uning qarashlarida bilim va harakat birligi tamoyili ajralib turadi. Insonning qalbi osmon kabi cheksizdir deb ta’riflaydi. Borliqdagi barcha narsalar ongdan tashqarida bo‘la olmaydi. Hatto inson donoligisiz Yer va Osmon ham mavjud bo‘la olmaydi. Vang Xitoyning janubiy-g‘arbiy okrugida sudya boshlig‘i bo‘lib ishlagan paytidan olingan ma’naviy -ma’rifiy tajriba unga ongning ezgulik va pokligini (xin) barcha fazilat manbai va bilim asosi sifatida ko‘rish imkonini berdi. Vang Yangming mukammal fazilat faqat o‘z ichida ekanligini va tashqi dunyoda umuman yo‘qligini tushundi. Shuningdek, u “sezgilarning asoslari” haqidagi ta’limotini qayta tikladi. Bu ta’limot Menszining asosiy g‘oyalaridan biri bo‘lgan. Vangning fikricha, mohiyatni tushunib yetish, asosni anglash uchun qalbni toza tutish kerak. Bularning barchasi ongning yaxshilikni haqidagi tug‘ma bilishi bilan bog‘langan.

Vang Yangming o‘ziga xos bo‘lgan meditatsiya haqida so‘z yuritadi. Unga ko‘ra, aql orqali ezgulikni sof holda tushunishda unga salbiy ta’sir etuvchi nisbiy istaklarni yo‘q qilish kerak. Ayni shu jarayonda amalga oshadigan harakat Vang ta’rif etgan meditatsiyadir. U “xotirjamlik “ yoki “xotirjam o‘tirish” deb ataladi.

Bu buddizmdagi Chan (yoki Zen) meditatsiyasiga o‘xshab ketadi. U narsalarning mohiyatini meditatsiya orqali anglab yetishni amalda qo‘llaydi. Har bir narsaning ontologik asosiga diqqatni jamlash orqali erishish mumkin deb hisoblaydi. Bu orqali chinakam “men” ga erishiladi. Faylasufning shu kabi g‘oyalari uning daosizm va buddizmni o‘rganishi bilan bog‘liq.

Vang falsafasida beshta asosiy tezis mavjud: 1) Aql – bu printsip; 2) Barchamizda yaxshilik haqidagi tug‘ma bilim, idrok bor, u uni Liangzhi (líangzhi) deb ataydi; 3) Biz “narsalarni tuzatishimiz” kerak (gewuhín), bu Vang talqiniga ko‘ra, yovuzlikdan xalos bo‘lishni va tug‘ma yaxshi tuyg‘uga qaytishni anglatadi; 4) bilim va harakatning birligi; 5) Insoniyat (ren) oilaviy sevgidan boshlanadi. Ushbu mavzulardan zamonaviy olimlar ko‘proq 2 va 4-ga e’tibor berishadi.[2]

Van Yangmingning falsafiy qarashlari o‘zidan keyingi davr tafakkuriga ham o‘z ta’sirini o‘tkazgan. So‘nggi Ming hukmronlik davrida uning fikrlari juda mashhur va ta’sir doirasi keng bo‘lgan. Bugungi kundagi Xitoy tafakkuri shakllanishi Vanning konfutsiychilik talqini bilan bog‘liq. U ishlab chiqqan model o‘zidan avvalgi yondashuvlarni to‘ldirgan edi. Ba’zi xitoylik va koreys mutafakkirlari Van Yangminning ta’limoti Yaponiyada zamonaviy bushido (“jangchi yo‘li”) rivojiga kuchli ta’sir ko‘rsatdi. Rus-yapon urushining yapon admirali Tōgō Heixachiro: “Insonning butun hayoti Yangmingdan o‘rnak oldi”, deb e’tirof etgan.

Van Yangmingning quyidagi asarlari mavjud: “Da xue ven” (“Buyuk ta’limotga savollar”), “Vujing i sho” (“Beshta qonun haqida o‘z fikri”), “Chjuzi Vannian Dinglun” (“Umrining oxirida Chju Si tomonidan o‘rnatilgan qoidalar”), Chuanxi lu” (“O‘rgatilgan va olingan narsalarning yozuvlari”) (1-qism 1514 yilda

[1]Wang Yangming (Stanford Encyclopedia of Philosophy), https://plato.stanford.edu/entries
[2] Wang Yangming – Bibliography – PhilPapers, https://philpapers.org/browse

tugallangan, 2-qism 1521-1527 yillarda), “Daxue wen” (“Buyuk ta’limotga” savollar) (1527)

Vang Yangmingning quyidagicha fikrlarni beradi:

- Tanovulni istagan yurak bu — fikr, boshqacha aytganda, harakat ibtidosidir.
- Komil inson har bir odamning komil bo‘lishi uchun qayg‘uradi.
- Inson tabiati aslida oliy fazilatlar majmuasidir. Uning tabiati o‘z ibtidosida zarracha yovuzlikdan ham xoli bo‘lgan.
- Biz biror ilmni imkoniyatimiz va mavqeyimiz darajasida o‘rganib, nihoyasiga yetkazamiz.
- Oliy ezgulik — qalbning asl mohiyati. Zero, hatto uchiga chiqqan qaroqchi ham talonchilik qilmaslik kerakligini yaxshi anglaydi. U o‘zini o‘g‘ri deb atashlaridan orlanadi.

Xitoy falsafiy tafakkurida tilga olinadigan har bir faylasuf o‘ziga xos xususiyat va ahamiyatiga ega. Ulardagi ilgari surilgan g‘oyalar o‘z davrining global miqyosda muhokamaga aylangan masalalar edi. Jumladan Van Yangming shaxsiyatida ham aynan shu jihatlarni ko‘ramiz. Bu faylasuf ta’limotlari keyingi zamonaviy davr Xitoy tafakkuri, mafkurasining konsepsiyasi shakllanishida boshlang‘ich rol vazifasini bajardi. Neo konfutsiychilik aynan Van Yangming faoliyatidan so‘ng yana-da xususiy ma’no kasb eta boshladi. U o‘zidan avvalgi Chju Sining falsafiy qarashlarini davom ettirgan bo‘lsa ham uning dunyoqarashlarida yangi jihatlar mavjud. Masalan, Qi konsepsiyasi, axloqning namoyon bo‘lishi, ong va uning mavjudlik asoslari, bilimga ega bo‘lish kabi yondashuvlarga nisbatan uning o‘z qarashlari bor va ular boshqalardan farq qiladi. Van Yangming ishlab chiqqan ta’limotlar ayniqsa axloqiy masalalarda o‘z tasdig‘ini topadi. Insonning axloqi, yaxshilik va yomonlikni anglash tamoyillari qaytadan ko‘rib chiqiladi. Van Yangming o‘zi yashab turgan jamiyatdagi ijtimoiy ziddiyatlar, siyosiy nizolar sodir bo‘layotgan bir vaqtda jamiyatni o‘zgartirishga harakat qilgan. Shaxsni tarbiyalashda axloqiy tamoyillarni inobatga olgan holda konfutsiychilikning dastlabki shakllangan holatida qayta tashkil etishni nazarda tutadi. Shuningdek, faylasufning gnasealogik hamda ontologik qarashlarida ong, egallangan bilimni qanday ishlata olish, intuitiv bilish, borliqni ongda aks etishi singari ta’limotlarning izohlariga duch kelamiz. Ularni asosida qadimdan shakllangan Xitoy tafakkuri va mafkurasidagi asosiy jihatlarni yetarlicha tasavvur eta olamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/hikmatlar/mumtoz-faylasuflar/van-shoujen, ,,Van Shoujan”
2. https://www.abirus.ru/content/564/623/625/647/836/11119.html, ЭНЦИКЛОПЕДИЯ КИТАЯ – Ван Янмин – Китайские философы – Философия и религия – Культура и мировоззрение – Китай: Остальное – Китай

3. https://iep.utm.edu/wangyang/ Vang Yangming (Vang Shou-Jen) | Internet falsafa ensiklopediyasi
4. https://plato.stanford.edu/entries/wang-yangming/#Life, Wang Yangming (Stanford Encyclopedia of Philosophy)
5. https://philpapers.org/browse/wang-yangming, Wang Yangming – Bibliography – PhilPapers

ARASTUNING “AXLOQI KABIR” VA ABDULLLA AVLONIYNING “TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ” ASARLARINING QIYOSIY TAHLILI

Yodgorjon IBRAGIMOV
Falsafa yo‘nalishi 1-kurs talabasi,
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent v.b I. Ikramova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Arastuning “Axloqi Kabir” va Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining o‘zaro qiyosiy tahlili yoritib berilgan. Bu tahlil jarayonida Arastuning “Axloqi Kabir” asarida hamda Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida o‘z aksini topgan g‘oyalar va mavzular haqida tahlil qilinib, mazkur asarlarning o‘xshashlik va farqli tomonlari, ijtimoiy-falsafiy mazmuni va mohiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Axloq, Arastu, “Axloqi Kabir”, “Oltin o‘rtalik” tamoyili, Abdulla Avloniy, “Turkiy guliston yoxud axloq”, aqliy fazilat, baxt-saodat, insonparvarlik, milliy o‘zlik, komil shaxs, nafs.

Axloqiy fazilatlar – bu insonning ichki sifatlari bo‘lib, ular uning ijtimoiy hayotda to‘g‘ri va adolatli qarorlar qabul qilishiga, yaxshi xulq-atvorda bo‘lishiga, boshqalarga hurmat ko‘rsatishga yordam beradi. Axloqiy fazilatlarga ega bo‘lish uchun avvalo, o‘zini tanib, ichki dunyosini tushunish zarur. Inson o‘z xulq-atvorini tahlil qilib, yomon odatlarni tuzatishga intilishi lozim. Sabr-toqat va xotirjamlikni rivojlantirish, qiyin vaziyatlarda salbiy his-tuyg‘ulardan chetlashish muhimdir. Boshqalarga hurmat ko‘rsatish va ularning fikrini tinglash, ijtimoiy munosabatlarni yaxshilashga yordam beradi. Adolatli bo‘lish, haqqoniylikni saqlash va xolis qarorlar qabul qilish axloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Sadoqat va mas’uliyat hissini rivojlantirish, o‘z vazifalarini bajarishda ishonchli bo‘lishni talab etadi. O‘zini tarbiyalash, ilm va ma’rifatga intilish ham muhim omillardir. Mehr-oqibat va rahmdillikni ko‘rsatish, boshqalarga yordam berish fazilatlarni kuchaytiradi. Nafsni nazorat qilish va o‘z xatti-harakatlarini boshqarish, axloqiy o‘sishning asosi hisoblanadi. Shu tarzda, doimiy o‘zgarish va takomillanish orqali inson axloqiy fazilatlarga ega bo‘lishi mumkin.

Yunon faylasufi Arastuning “Axloqi Kabir” asari axloqiy masalalar, inson xulq-atvori va ezgulikni anglash bilan bog‘liq falsafiy asarlardan biridir. Arastu bu asarida inson hayotining maqsadi, axloqiy fazilatlar, “Oltin o‘rtalik” tamoyili ya’ni, me’yor tamoyili, baxt va mukammal yashash g‘oyalari haqida keng tahlil olib borganini ko‘rishimiz mumkin. Arastuning asosiy maqsadi insonning axloqiy

darajada hayot kechirishini o‘rgatish va baxt-saodatga erishish yo‘lini tushuntirishdan iborat. Asarda insonning oliy maqsadi baxtdir va unga axloqiy fazilatlar orqali erishish mumkinligi alohida ta’kidlangan. Arastuning “Demak, insoniy ezgulik – bu ruhning fazilatga muvofiq faoliyatidir; agarda fazilatlar bir nechta bo‘lsa, u holda bu eng yaxshi va eng mukammaliga muvofiq bo‘lgan faoliyatdir”[1], degan ushbu ma’lum va mashhur fikri yuqoridagi gapimizning isbotidir. Arastu asarida tabiiy qadriyatlarni va aql kuchiga asoslangan axloqiy fazilatlarni rivojlantirish yo‘llarini ko‘rsatadi va inson tabiatiga mos keladigan xulq-atvor qoidalarini tahlil qiladi.

Arastuning fikriga ko‘ra, inson hayotining asosiy maqsadi, baxt-saodatga erishishdir. Tibet Buddizmining ruhiy lideri Dalai Lama ham “Men hayotning asl maqsadi baxtli bo‘lish ekanligiga ishonaman”[2], degan shunday fikrni ilgari surgan. Baxtni axloq bilan yonma-yon ko‘rgan shaxs sifatida “Axloq poydevori sifatida foydalilik yoki eng buyuk baxt prinsipini qabul qiladigan e’tiqod, harakatlar qanchalik baxtni oshirishga moyil bo‘lsa, shunchalik to‘g‘ri, qanchalik baxtsizlik keltirishga moyil bo‘lsa, shunchalik noto‘g‘ri deb hisoblayman”[3]. deb alohida ta’kidlab o‘tgan ingliz faylasufi Jon Styuart Mill. Arastu ham baxtni u oliy ezgulik sifatida ko‘radi va bu ezgulikni insonning axloqiy fazilatlari orqali mukammallikka intilish bilan bog‘lagan va baxtni faqat moddiy boylik emas yoki ijtimoiy lazzat emas, balki ruhiy mukammallik va o‘zini anglashdir deya ta’riflagan.

O‘rtalik tamoyilida Arastu har bir axloqiy fazilat ikki qarama-qarshi xulq-atvor o‘rtasidagi me’yor sifatida tushuntirgan. U “o‘rtalik” prinsipini qo‘llab, saxovat, jasorat va donolik kabi sifatlarni haddan tashqari yoki kamdan-kam bo‘lish o‘rtasida o‘rtachilikda topishni taklif qiladi. Masalan, jasoratni qo‘rqoqlik va haddan tashqari xatar o‘rtasidagi o‘rtacha sifat ekanligini ta’kidlagan.

Axloqiy fazilatlarni u insonning tug‘ma qobiliyatlari deb tushuntiradi va ularga mehr-oqibat, saxovat, adolat, kamtarlik kabi fazilatlarni kiritadi. Bu fazilatlar aql-idrok orqali shakllanadi va inson hayotini mukammallashtiradi. Imom Abu Homid G‘azzoliy bu borada “Inson o‘zini tahlil qilishi, o‘z qalbini tekshirib, xatolarini tuzatishi lozim. Faqatgina shunda u haqiqiy axloqiy taraqqiyotga erishadi”[4], degan shunday bir fikrga ega bo‘lgan. Arastu esa, aqlni axloqiy amallarni boshqaruvchi kuchdir deb ta’riflaydi. Axloq nafaqat bilim balki, kundalik amalda hayotga tatbiq etilishi lozim degan shuning uchun ham Arastu axloqni insonning hayotidagi asosiy yo‘l sifatida ko‘radi. Arastu faqat shaxsiy baxt uchun emas, balki, jamoatchilik manfaatlarini ham ko‘zlagan va shaxsiy baxt jamoat farovonligi bilan chambarchas bog‘liq deb biladi. “Axloqi Kabir” asari nafaqat yunon falsafasida balki, butun jahon axloqshunosligida katta ahamiyatga ega. Negaki, axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga asoslangan

[1]Aristotle. Nicomachean Ethics. – Oxford: Oxford University Press, 2025. – B. 13.

[2] Dalai Lama & Cutler.H.C. The Art of Happiness: A Handbook for Living. – New York: Riverhead Books, 1998. – B. 15.

[3] Mill.J.S. Utilitarianism. – London: Parker, Son, and Bourn, 1863. – B. 8. https://www.scribd.com/document/808078809/Critical-Thinking-Cat-1-1

[4] Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Toshkent: “Asaxiy”, 2023. – B. 481.

falsafiyligi, aqliy tarbiyaning ahamiyatini oshirishligi, amaliy ahamiyatiga ega axloqiy tizimligi yuksak axloqiy g‘oyalarni tushuntirishligi kabi jihatlar bu asarning har doim ahamiyatini oshiradi.

Bu asar haqidagi qisqa bir xulosa shuki, “Axloqi Kabir” inson tabiatini, uning baxt-saodatga erishish yo‘lini va axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni va har qanday fazilatlarni chuqur tahlil qiluvchi falsafiy asardir. Arastu insonning oliy baxt-saodatga erishish maqsadini, axloqiy fazilatlarni rivojlantirishni va har qanday fazilatlarni o‘rtachil tamoyilga asoslab qarashni asosiy tamoyil sifatida ilgari suradi. Bu asar bugungi kunda ham axloqshunoslik, pedagogik va falsafiy tahlil uchun muhim manba bo‘lib xizmat qilmoqda.

Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari 1913-yilda yozilgan bo‘lib, milliy tarbiya, axloqiy qadriyatlar hamda o‘zbek xalqining madaniy merosini yuksaltirishga qaratilgan asarlardan biridir. Bu asar o‘z davrining ijtimoiy-ma’naviy masalalariga javob berishga intilib, xalq orasida yaxshi axloq va odob-axloq normalarini targ‘ib qilish, yoshlarni yuksak axloqiy fazilatlarga o‘rgatish maqsadida yozilgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Abdulla Avloniy o‘sha davr uchun eng kerakli asarni yaratolgan o‘zbek ma’rifatparvari va jadidi hisoblanadi. O‘zbek xalqining o‘sha davrdagi turmush-tarzini, o‘sha davr mafkurasini, o‘zgartirishga harakat qilgan jadidchi ham Abdulla Avloniydir. A.Avloniy shuning uchun ham axloqqa oid qarashlarni ilgari surgan holda, axloqshunoslikka ham o‘z hissasini qo‘shgan siymodir. Odob-axloq qoidalari asarda deyarli, kengroq yaratilgan chunki, Abdulla Avloniyning asosan, mehr-oqibat, saxovat, rostgo‘ylik, halollik kabi sifatlarning tarbiyadagi ahamiyatini tushuntirgan va albatta ularni kundalik turmushimizda qo‘llashni targ‘ib qilib o‘tgan. Milliy qadriyatlarimiz va tarbiyaning rolini muhim baholagan chunki, Avloniy axloqiy tarbiya va milliy qadriyatlar o‘zaro bog‘liqligini ta’kidlaydi. Tarbiyani juda muhim deb bilgan va shunday fikr qoldirgan “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, tanini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o‘rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o‘sdurmakdur”[1].

Abdulla Avloniyning fikricha, tarbiya insonning jamiyatga foydali shaxs sifatida yetishishda asosiy vositaligini o‘z asarida aytgan. Shu bilan birgalikda, u o‘qituvchilar va ota-onalar zimmasidagi mas’uliyatni eslatib o‘tib shunday degan “Shariati islomiyada o‘z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o‘z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur”[2]. Avloniy tanqidiy sho‘ng‘iganini ko‘rishimiz mumkinki, aynan qaysi holatlarda?! Albatta, tarbiyani ko‘rsatadigan va targ‘ib qiladigan ota-onalar (birinchi uyda), muallimlar (ikkinchi o‘rinda maktab va madrasada) va mudarrislarni tanqid ostiga olgan. U shu o‘rinda badan tarbiyasiga, axloq tarbiyasiga e’tiborini ko‘rsatib o‘tgan va muallimlarning fikr tarbiyasining rivojlanishi yuzaga kelishida muhim rol kasb etishini ta’kidlaganligiga “Fikr tarbiyasi eng kerakli, ko‘p zamonlardan beri taqdir qilinub kelgan, muallimlarning diqqatlariga suyalgan, vijdonlariga yuklangan

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 8.
[2] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 9.

muqaddas bir vazifadur. Fikr insonning sharofatlik, g‘ayratli bo‘lishiga sabab bo‘ladur. Bu tarbiya muallimlarning yordamiga so‘ng daraja muhtojdurki, fikrning quvvati, ziynati, kengligi muallimning tarbiyasiga bog‘lidur”[1].

Avloniy asarida insonlar o‘rtasidagi yaxshi munosabatlar va o‘zaro hurmat masalalari yoritilgan va o‘zgalarga hurmatli bo‘lishni, kattalarni e’zozlashni va kichiklarga g‘amxo‘rlik qilish kabi, qadriyatlarni yuqori baholab, targ‘ib qilgan. Avloniy bu asarida umumiy axloqiy tushunchalarga ta’rif berganini va ularni qay o‘rinda ishlatish yoki ishlatmaslikni deyarli to‘liqroq ko‘rsatib berganini ko‘rolamiz.

Bu asaridagi asosiy maqsadlari asosan, o‘sha mustamlaka davrning mafkuraviy holati uchun muhim ahamiyat kasb etgan. Masalan, o‘zbek xalqi o‘zining milliy o‘zligini anglash orqali o‘zbek millatining saqlanishiga sabab bo‘lishligi va yosh avlodni kelajakka ma’rifatli qilishga yo‘naltirilgan dastur sifatida shakllanishligi Abdulla Avloniyning maqsadlaridan ayrimlarini tashkil etadi. Diniy va madaniy qadriyatlarni saqlashga va bundan keyingi avlodga yetkazishni maqsad qilgan.

Bu asar haqidagi xulosa shundan iboratki, “Turkiy guliston yoxud axloq” asari milliy tarbiyaga, axloqiy qadriyatlar va jamiyatimizda yuksak axloqiy muhitni shakllantirishga qaratilgan asar bo‘lib, xalqimizning milliy va ma’naviy qadriyatlarni yuksaltirishda muhim ahamiyatga ega.

Demak, biz ikki asardagi fikrlarini solishtirgan holda ularning o‘xshashlik, umumiylik va farqli, ziddiyatli tomonlarini ko‘rib chiqishga harakat qilamiz. Arastuning asosiy axloqqa doir fikr va qarashlari aqliy fazilatlar, axloqiy fazilatlar va o‘rta yo‘lni tutish kabi jihatlardir. Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridagi axloqiy fikrlari vatanparvarlik, ma’naviy kamolot, mehnatsevarlikdir.

Arastuning va Avloniyning axloqqa doir fikrlari o‘rtasidagi umumiy xususiyatlar – aqliy va ma’naviy kamolotga erishish, insonparvarlikka oid g‘oyalari, adolatparvarlik kabi, fazilatlarni rivojlantirishish. Axloqiy me’yorlarni targ‘ib qilish, har ikkisi ham mehr-oqibat, saxovat, halollik, adolat kabi xulqi fazilatlarni yuqori baholaydi va axloqiy me’yorlarning mustahkamlanishiga intiladi. Yaxshi xulq-atvor bilan yashashni insoniy baxt va ma’naviy kamolotning manbai deb biladilar.

Farqli tomonlari shundaki, Arastu fikrlari butunlay ilmiy-falsafiy xarakterga ega bo‘lsa, Avloniy milliy va diniy qadriyatlar asosida axloqni talqin etgan. Axloqiy mas’uliyatning manbaini ikki xil asoslashadi. Arastu shaxsning aql idroki va iroda kuchiga bog‘lagan bo‘lsa, Abdulla Avloniy ko‘proq jamiyat va diniy an’analarga asoslangan.

Arastu axloqni shaxsning individual faoliyati va aql kuchiga bog‘lasa, Abdulla Avloniy axloqiy tarbiyani ota-ona va o‘qituvchilarga bog‘liq deb bilgan. Arastuning axloq tushunchasida ratsional va ilmiy yondashuvlar ustunlik qiladi. Avloniyda axloqiylik diniy asosda qurilgan. Ularning negizida umumbashariy g‘oyalar yotadi. Arastuning axloq ta’limoti umumbashariy xarakterga ega. Avloniyda Sharq, jumladan, o‘zbek mentaliteti aks etgan. Arastuning axloq

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 14.

ta’limotida insonning aqli, erkin irodasi, shaxsiy fazilatlarning rivojlanishida asosiy o‘rin tutadi. Arastuning “Axloqi Kabir”dagi fikriga ko‘ra adolat, jasorat, muloyimlik kabi axloqiy fazilatlar ham insonni komil shaxs sifatida shakllantiradi. Avloniyda esa insonni ma’naviy-axloqiy kamolotga asosan, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi, yuksak fazilatlar rivojlantirishi mumkinligini ta’kidlagan. Avloniyning fikriga ko‘ra, mehnatsevarlik, adolatparvarlik, sadoqatlilik kabi fazilatlarning insonni komil shaxs darajasiga yetkazdirishni ta’kidlaydi. Bu yerda ikkala fikrni ham yaxshilab tafakkur qilsak, bu fikrlar ikkalasi ham to‘g‘ridir. Chunki bu yerda “kabi” yuklamasi kelgan. Demak, faqatgina shu fazilatlar emas, shunga o‘xshagan bir qancha insoniy sifatlar hammasi komillik sari eltadi, degan g‘oyani ilgari surgan.

Arastu aytadiki, “Dunyoda hamma narsadan hasadning yuki og‘irdir, chunki ul barcha butun dunyodagi shod va masrur odamlarning qayg‘ularini o‘z ustiga yurishdir”[1]. “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida bu ikki siymoning “hasad”ga bo‘lgan munosabatlari mavjud. Avloniy aytadiki, “Hasad deb, bir odamga janobi Haq tarafidan berilgan ne’mat va davlatning zavolini tilamakni aytilur. G‘iybat, bo‘hton, suizan kabi yomon xulqlar hasaddan tug‘ilur. Hasad axloqi zamimalarning eng zararligidur”[2].

Bu fikrlar ham o‘z tasdig‘iga ega to‘g‘ri gaplar haqiqatdan ham hasadgo‘y insonda umuman, huzur-halovat bo‘lmaydi, na uyqusida, na uyg‘oqligida tinchimaydi. Va albatta, shu borada o‘zim ham ko‘p o‘ylagan edim va bir to‘rtlik jumla yozib qo‘ygan edim.

Hasadgo‘y insonda bo‘lmas, bir zum halovat
Baxil kimsalarda bo‘lmas sira, mehr-saxovat
Nodonlardan kutma hech vaqt, odil maslahat
Ular uchun kifoyadir ilm bilan qilsang muruvvat
(Yodgorjon Ibragimov)

Arastu axloqiy nuqtai nazardan nafsga aqliy yondashish va bir inson ikki qismdan iborat birinchisi aqliy (ratsional) qism, ikkinchisi hissiy yoki irriotsional qism. Bu jarayonda aqliy qism, hissiy qismini boshqarish kerakligini ta’kidlaydi va buning sababi shundaki, nafsiy kuchlarning haddan oshishini axloqiy nuqtai nazardan zararli deb biladi. Bu fikrlarni hech qanday rad etib bo‘lmaydi, chunki bu jarayonlarni kundalik hayotimizda ko‘p uchratamiz. Arastu uchun eng oliy ne’mat bu – axloqiy yetuklik holati. Bunga yetishish uchun inson o‘z aqliy salohiyatidan to‘liq foydalanish, axloqiy fazilatlarni rivojlantirish lozim. Avloniy uchun eng oliy ne’mat bu – ma’rifat, jamiyatning taraqqiy etishidir.

Avloniy xulqni shunday ta’riflagan, “Ammo nafsning surati ko‘zga ko‘rinmaydigan, aql ila o‘lchanadurg‘on bir narsadurki, buni xulq deb atalur”[3]. Avloniy nafsning ko‘rinmas mohiyatini “xulq” bilan bog‘laydi, ya’ni insonning ichki nafsiy istak va ehtiyojlari uning xulq-atvori orqali namoyon bo‘ladi. Insonning nafsiy intilishlari uning xatti-harakatlarida odob-axloqi orqali yuzaga

[1] Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B. 115.
[2] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 89.
[3] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 6.

chiqadi. Shuning uchun, Avloniyning fikri asosli, chunki inson xulq-atvoriga qarab, uning nafsiy holatini bilish mumkin . Bu qarash ilmiy asoslarga ham ega, asosan, psixologiyada.

Arastuning fikricha, fazilatlar tug‘ma emas, balki tarbiya orqali rivojlantiradigan jihatlardir. Inson o‘z xatti-harakatlarini anglab, to‘g‘ri qarorlar qabul qilib fazilatlarini shakllantiradi degan g‘oyani ilgari surgan. Demak, axloqiy fazilatlarni shakllantirishda oila va jamiyatning o‘rni qay darajada muhim? Bugungi globallashuv davrida axloqiy tarbiyani saqlab qolish qanchalik oson? Mana endi, bu joyda Avloniyning asosiy qarashlari orqali yechim berish mumkin. Avloniyning fikriga ko‘ra, axloqiy fazilatlar tarbiya orqali shakllanadi, asosan, oilada so‘ngra maktab va madrasada hamda jamiyatda rivojlanadi. Axloqiy fazilatlar shakllanishi uchun, avvalo, oilada va ta’lim muassasalarida axloqiy tarbiyaning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilishi lozimligini aytadi. U bolalar yoshligidan boshlab o‘zini va boshqalarni hurmat qilish, halollik, mehnatsevarlik kabi fazilatlarni egallashi kerak deb hisoblaydi. Avloniy yoshlarning tarbiyasi bilan butun jamiyat shug‘ullanishi kerakligini ta’kidlaydi va har bir jamiyatning kelajagi yoshlarning qaysi axloqiy qadriyatlarni saqlab qolishiga bog‘liq ekanligini aytadi.

Avloniyning qarashlarining bugungi kundagi ahamiyati shundaki, globallashuv davrida ham milliy va an’anaviy qadriyatlarni saqlab qolish, yosh avlodga axloqiy yetuklikni o‘rgatishlik bilan chambarchas bog‘liqdir. Uning fikriga ko‘ra, har bir ota-ona va o‘qituvchi axloqiy tarbiyaga mas’ul bo‘lib, oila, maktab va jamiyat bir butunlikda bu vazifani bajarish kerak. Yana “Shariati islomiyada o‘z bolalarini yaxshilab tarbiya qilmak otalarga farzi ayn, o‘z millatining yetim qolgan bolalarini tarbiya qilmak farzi kifoyadur”, degan gaplari shu qatorda o‘rinlidir.

Mazkur asarlarning dolzarbligiga to‘xtaladigan bo‘lsak, bu ikkala asar ham har qanday rivojlanaman degan jamiyat uchun shart va zarur. Bu qiyoslashda Arastuning nazariyasidan savol chiqardik va Avloniyning nazariyasidan yechim berib o‘tdik, bu jarayonda, ilm orqali savol yuzaga keldi va unga ilm bilan chiroyli javob berildi. Arastuning ratsional-ilmiy Avloniyning milliy-diniy axloq ta’limotlari zamonaviy jamiyatlar uchun ham muhim kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Aristotle. Nicomachean Ethics. – Oxford: Oxford University Press, 2025.

2. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent: Yoshlar matbuoti, 2024. – B. 8.

3. Abu Homid G‘azzoliy. Ihyo ulum ad-din. – Toshkent: “Asaxiy”, 2023.

4. Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B. 115.

5. Dalai Lama, Cutler.H.C. The Art of Happiness: A Handbook for Living. – New York: Riverhead Books, 1998.

6. Mill. J. S. Utilitarianism. – London: Parker, Son, and Bourn, 1863. https://www.scribd.com/document/808078809/Critical-Thinking-Cat-1-1

MAHMUDXO‘JA BEHBUDIYNING “A’MOLIMIZ YOINKI MURODIMIZ” MAQOLASIDA TA’LIM VA MADANIYAT ISLOHOTI

Nasiba TURSUNXO‘JAYEVA
TDSHU, Sharq falsafasi va madaniyati yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent v.b I.Ikramova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Mahmudxo‘ja Behbudiyning “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasi asosida ta’lim va madaniyat islohoti masalalari tahlil qilinadi. Jadidchilik harakatining yetakchilaridan biri sifatida Behbudiy millatning taraqqiyotini ilm-ma’rifat va madaniy yuksalish bilan bog‘lagani yoritiladi. Maqolada Behbudiyning ta’lim va madaniyatga oid qarashlari hozirgi zamon islohotlari bilan bog‘lanib, XXI asrda ham ularning dolzarbligi tahlil qilinadi. Tadqiqot natijasida Behbudiyning ta’lim va madaniyatga qaratilgan islohotchilik g‘oyalari milliy taraqqiyot uchun bugungi kunda ham muhim ahamiyat kasb etishi asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: Mahmudxo‘ja Behbudiy, jadidchilik, ta’lim islohoti, madaniyat, ma’rifat, milliy taraqqiyot, milliy ong, zamonaviy islohotlar.

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1875-yil 19-yanvarda Samarqand yaqinidagi Baxshitepa qishlog‘ida muftiy Behbudxo‘ja Solihxo‘ja oilasida dunyoga kelgan. Behbudiyning maktab-madrasa hayoti haqida ma’lumotlar yetarli bo‘lmasa ham, uning oilasida vujudga kelgan muhit Mahmudxo‘jada ma’rifat va adabiyotga bo‘lgan qiziqishning tezroq ro‘yobga chiqishiga imkon yaratdi. Ilm egallash yo‘lida Behbudiyning otasi yaxshi yo‘lboshchi, tog‘alari Muhammad Siddiq va Mulla Odil mohir murabbiylar bo‘lishdi. U arab, fors va turk tillarini mukammal o‘rganib, sakkiz oylik Makka sayohati davomida Qozon, Ufa, Nijniy Novgorod, Misr va Turkiya shaharlarida bo‘lib, yangi usuldagi maktab ta’lim tizimi bilan yaqindan tanishdi. Behbudiy Samarqand, Buxoro madrasalarida o‘qib yurgan chog‘larida eskicha dogmatik ta’lim tizimi tufayli domlalar bilan bahslashib, o‘qishni nihoyasiga yetkaza olmagan edi. Biroq bir qancha lavozimlarda faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, an’anaviy qoloq tizim u uchun doim katta to‘siq bo‘lgan.

Mahmudxo‘ja Behbudiy Turkiston jadidchilik harakatining boniysidir. Mahmudxo‘ja Behbudiy XX asr bo‘sag‘asidagi Turkistonning orzu-armonlaridan biri sifatida maydonga keldi. U o‘z davrining ijtimoiy-siyosiy harakatlarida faol qatnashgan eng yirik namoyandasi, yangi zamon o‘zbek madaniyatining asoschisi edi. “Turkiston jadidlarining tan olingan rahnamosi, mustaqil jumhuriyat g‘oyasining yalovbardori, yangi maktab g‘oyasining nazariyotchisi va amaliyotchisi, o‘zbek dramachiligini boshlab bergan birinchi dramaturg, teatrchi, noshir, jurnalist edi”[1]. Behbudiy o‘zbek matbuoti tarixida maqolanavis sifatida o‘z o‘rniga ega. Uning hozirgacha aniqlangan maqolalarining soni 200 dan oshadi va ular turli xil mavzuda yozilgan. Behbudiy ilk maqolalaridan boshlab

[1] Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 150.

kommunistik mafkurani rad etgan, “xayoliy bu toifaga qo‘shulmoq biz musulmonlar uchun nihoyatda zararlik”[1], deb ta’kidlagan. Mahmudxo‘ja o‘zining publitsistik faoliyatini 1902-yilda Turkistonda mahalliy tilda nashrdan chiqqan rasmiy “Turkiston viloyatining gazeti”da boshlagan. “Oyina” jurnalini tashkil qilgach, ilk sonidayoq “Ikki emas, to‘rt til lozim” nomli maqolasini e’lon qilib, o‘zbek, arab, tojik, rus va hatto biror uzoq xorij tilini bilish shart deya yoshlarga murojaat qiladi”[2]. 1917-yilning yozida “Ulug‘ Turkiston” gazetasida e’lon qilingan Behbudiyning “Bayoni haqiqat” maqolasi “Haq olinur, berilmas” iborasi bilan boshlanib, zamona ahlini qadim va jadid nizolarini bir yonga qo‘yib, qo‘lni qo‘lga berib, birlashishga chaqiradi”[3].

Mahmudxo‘ja Behbudiy 1910-yillarda Turkistonda ma’rifatparvarlik g‘oyalari bilan tanilgan shaxs sifatida o‘zining ijtimoiy va siyosiy qarashlarini keng ommaga yetkazish uchun ko‘plab maqolalar, risolalar va asarlar yozadi. Uning “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasi o‘z davrida katta ahamiyatga ega bo‘lib, milliy uyg‘onish va turli ijtimoiy muammolarni ko‘tarishda muhim rol o‘ynaydi. “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasi 1913-yilda yozilgan va “Oyina” jurnalida bosilib chiqqan. Maqola o‘sha davrning ijtimoiy, siyosiy va madaniy sharoitlarini yoritib, millatning kelajagi va uning taraqqiyoti haqida o‘ylangan g‘oyalarga asoslanadi. Maqola, asosan, Turkistondagi musulmonlar va ularning ijtimoiy-huquqiy holati, madaniy rivojlanish, ilm-fan, siyosiy islohotlar va iqtisodiy mustaqillik kabi masalalarga bag‘ishlanadi. Turkiston Rossiya imperiyasi tarkibida bo‘lgan davrda aholining asosiy qismini musulmonlar tashkil qilgan va ularning ko‘pchiligi jaholat, ma’rifatsizlik va mustamlakachilik tahdidi ostida yashagan. Behbudiy bunga befarq qaray olmagan va xalqni ogohlikka chaqirgan. “Ey hazrati ulamo! Ey tujjor, ahli kasaba va ag‘niyo! Ey, g‘ayratli yoshlar! Nifoq va bir-biriga dushmanlikni tashlangiz. Xudo haqi, arvohi anbiyo hurmati va bu kunlarda qornini to‘yg‘azolmayturgon yetim va bevalar haqi biri-biringiz ila ittifoq etub, jamiyatlar barpo qilub, xoliq Xudoning naf’ig‘a, din va millat yo‘lig‘a xizmat etingiz”[4].

Ma’rifatparvar o‘zining barcha g‘oyalari orqali millatni uyg‘onishga, ilm olishga, ijtimoiy va siyosiy erkinlikka erishishga chaqiradi. Turkiston va boshqa musulmon mamlakatlarida ma’naviyat darajasi pastligi tufayli Behbudiy ilm-fan orqali jamiyatni o‘zgartirish mumkinligini tushuntirib, xalqni o‘z bilimlarini yangilashga undaydi. “…hay’ati jug‘rofiy hikmati tabiyiya va kazo-kazoni bilaturgon yoshlarimiz, haqiqati islomdan bexabarlarimiz eski afsonalarni musulmon kitoblarig‘a ko‘rub musulmon kitoblaridan e’tiqodlari bo‘shaydur. Keyingi vaqtg‘a shunday kam e’tiqod yoshlarimiz tez ko‘zg‘a ko‘rinadur. Emdi bunga bir davo – chora lozimdur. Xudog‘a shukurki, yana chorasi eski va yangi ilmlarni o‘qumoq va sa’yi qilmoq ila bo‘ladur. Ammo afsuski, eskilarimiz,

[1] Behbudiy M. Xayrul umuri avsatuho// “Xurshid” gazetasi №6. – Toshkent, 1906. – B. 3.
[2] Behbudiy. M. Ikki emas, to‘rt til lozim// “Oyina” jurnali — №1. – Samarqand, 1913. – B. 12-14.
[3] Behbudiy M. Bayoni haqiqat// “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. – Toshkent, 1917.
[4] Behbudiy M. Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz// ”Hurriyat“ gazetasi. – Samarqand, 1917.

xususan, Turkistong‘a eski holg‘a va yangilarimiz o‘z raftorlarig‘a bir-birlaridan xabarsiz va balki nafrat qiladurlar, tanimaydurlar. Ey aziz eski va yangilar, bir-biringizdan xabar olmoq va fikringiz, ilmingiz, ishtibohingizni aytmoq, eshitmoq, dardingiz davosiga chora axtarmoqingiz lozimdur va illo bu holat ila biz kundan kun, zohiran va botinan keyin qolurmiz. Koshki faqat o‘zimiz keyin qolsak, balki ahkomi diniyamiz keyin qolganidek, e’tiqodimiz ham keyin qolib, dunyo va oxiratg‘a zomin va mas’ul bo‘lamiz”[1]. U xalqi ma’rifatli bo‘lishi uchun jonbozlik ko‘rsatdi va o‘sha davrda birinchi bo‘lib, maktab islohotini o‘tkazdi.

Behbudiyning yangi tizimdagi “Usuli savtiya” va “Usuli jadidiya” maktablari to‘laqonli bu harakatning isboti hisoblanadi. Ma’rifatparvar ta’kidlaganidek, makotib taraqqiyning boshlang‘ichi, madaniyat va saodatning durdonasidur[2]. Maktablarda bolalar ona tilida va diniy hamda dunyoviy fanlarni uyg‘unlashtirgan holda ta’lim olishlari uchun Behbudiy yangi darsliklarni ham joriy etdi. Uning ta’biri bilan aytganda, zamoncha ilmi diniy va zamoniy kerak[3]. “Kitobat ul-atfol”, “Risolai asbobi savod”, “Muxtasari tarixi islom”, “Amaliyoti islom”, “Risolai jug‘rofiyai umroniy” kitoblari eski maktab va madrasalarning darsliklariga qaraganda ancha samaraliroq edi. Bu islohotlarning barchasi jadid tomonidan moliyalashtirilgan va oradan ko‘p vaqt o‘tmay, mablag‘ yetishmasligi hamda turli tazyiqlar tufayli ayrim maktablarning yopilishiga sabab bo‘lgan.

“Ma’lumdurki, dunyoda har kim umid va a’mol ila yashaydur. Kecha-kunduz mehnat va mashaqqat tortmoq oyanda uchundur. Har kim o‘z oyandasini yaxshilikka harakat etar va kelar zamonda o‘z orzusi va havasig‘a yetmoq uchun hech dam olmasdan hol qadarincha harakatdadur”[4]. “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasida Behbudiy har bir jamiyat o‘z a’mollarini belgilab olishi va unga erishish uchun harakat qilishi kerakligini uqtiradi. Behbudiy nazarida, inson va jamiyatning mavjudligi o‘z maqsadiga xizmat qilishi kerak, aks holda bu mavjudlikning hech qanday qiymati qolmaydi. Maqolada o‘z davri millatining umumiy qadrsizligini tanqid qiladi va bu holatdan chiqish yo‘llarini ko‘rsatishga urinadi. “To‘yu ma’rakag‘a sarf qilinaturg‘on oqchani eski madrasa va mozoru masjid hamda maktablarni shikast-rextlarig‘a sarf qilinsun. To‘y va ma’raka oqchasidan bolalarni hukumat maktablariga berilsun va bu oqchadan talabalarni Makka, Madina, Misr, Istanbulg‘a va Rusiya dorilfunun va dorulsanoatlarig‘a yuborilib diniy va dunyoviy va zamoniy odamlar yetishdurmoqg‘a sa’y qilinsun”[5].

Behbudiy Turkistonda bo‘layotgan ko‘r-ko‘rona amallarni, turli qatlam egalariga keragidan ortiq izzat-ikrom ko‘rsatilishini, obro‘ uchun oddiy aholi bor-budini to‘yga tikishi va qolgan umrini ham to‘y uchun ishlab o‘tkazishini, insonlar

[1] Behbudiy M. Muntaxabi jug‘rofiya. 1-jild. 1905. – B. 27.
[2] Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 141.
[3] Behbudiy M. Ehtiyoji millat// “Samarqand” gazetasi. – Samarqand, 1913. – B. 2.
[4] Behbudiy M. A’molimiz yoinki murodimiz// “Oyina” jurnali. №6. – Samarqand, 1913. – B. 30.
[5] Behbudiy M. A’molimiz yoinki murodimiz// “Oyina” jurnali. №6. – Samarqand, 1913. – B. 31.

turli urf-odatlarni bid’at va xurofot darajasigacha yetkazib ado etishini qoralaydi, hamma narsa o‘z me’yoriga ega bo‘lishini, amallarning yaxshisi o‘rtachasiligini[1], ortiqcha daromadlarni to‘y yoki ma’rakaga emas, balki farzandlarni chet ellarda o‘qitishga sarflash lozimligi hamda o‘z huquqlarini anglashga chaqiradi. Maqolada ilm-fan Behbudiy uchun taraqqiyotning asosiy omili sifatida ko‘riladi. U yoshlarni dunyoviy bilimlarni egallashga, ilmiy bilim orqali rivojlanishga undaydi, ayniqsa, zamonaviy ta’lim tizimini joriy etish zaruratini tushuntiradi. “Muhtaram yoshlar! Zamona siznikidur, qarilar zamoni o‘tkan”[2].

Madaniyatni rivojlantirish, millatning qalbini shakllantirishga xizmat qiladi. Teatr va adabiyot, bu faqat o‘yinlar emas, balki ularda millatni anglash va himoya qilishning asosiy vositasi yotadi. Behbudiy millatning madaniy o‘zligini saqlash bilan birga, uni zamonaviylashtirish tarafdori edi. “Madaniyatni taraqqiyotning ajralmas qismi sifatida bilib, milliy teatr, adabiyot va san’atni rivojlantirish orqali jamiyatni uyg‘otishga e’tibor qaratadi. Behbudiy haqiqat axtarmadi, odamlarni mavhum haqiqatni topish uchun undamadi. U bor Haq va haqiqatni xalqqa matbuot, adabiyot va san’at orqali ko‘rsatdi”[3]. Behbudiy madaniyatni jamiyatning axloqiy va intellektual o‘sishini ta’minlaydigan vosita deb bildi. Uning nazdida, millat o‘z tarixidan saboq olmay turib, taraqqiyot sari qadam tashlay olmasdi. “...taraqqiy nadur? Muni bilmoq uchun tarix o‘qumoq kerak…, dinu dunyodan boxabar bo‘lmoqni xohlaydurgan har kim uchun tarix o‘qumoq kerak. Chunki har nimarsa va uning asli va nasli tarixdan bilinur”[4].

Behbudiy jamiyatning adolatli boshqaruvga ega bo‘lishi uchun fuqarolik huquqlarini bilish va ulardan foydalanishni muhim deb hisoblaydi. U davlatning konstitutsion boshqaruvga asoslangan zamonaviy siyosiy tizimni joriy etish tarafdori bo‘lib, jamiyatda siyosiy ongni rivojlantirishga urg‘u beradi, xalqni tijorat va ishlab chiqarishga e’tibor berishga chaqiradi. “To‘y va ta’ziyaga sarf qilinaturgon oqchalarimizni biz, turoniylar, ilm va din yo‘lig‘a sarf etsak, anqarib ovrupoyilardek taraqqiy etarmiz va o‘zimiz-da, dinimiz-da obro‘y va rivoj topar”[5]. Behbudiy dinni jamiyatni ma’naviy jihatdan mustahkamlovchi vosita sifatida ko‘radi, ammo dinni noto‘g‘ri talqin qilish yoki jaholatni din niqobi ostida targ‘ib qilishni qoralaydi. U o‘z maqolasida dinni taraqqiyotga xizmat qiluvchi va insonni to‘g‘ri yo‘lga boshlovchi omil sifatida taqdim etadi. Behbudiy o‘z fikrlarini keng jamoatchilikka yetkazish uchun sodda, ammo ta’sirchan uslubdan, kuchli dalillar va hissiy usullardan foydalanadi. Maqola ohangida uyg‘otuvchi va undovchi ruh sezilib turadi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Mahmudxo‘ja Behbudiyning “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasi yozilganiga bir asrdan ortiq vaqt o‘tsa-da, unda ko‘tarilgan muammolar bugungi kunda ham dolzarbdir. Behbudiy

[1] Behbudiy M. Xayrul umuri avsatuho// “Xurshid” gazetasi. №6. – Toshkent, 1906. – B. 3.
[2] Behbudiy M. Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz// “Hurriyat” gazetasi. – Samarqand, 1917. – B. 2.
[3] Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 151.
[4] Behbudiy M. Tarix va jug‘rofiya// “Oyina” jurnali. – Samarqand, 1914. – B. 503.
[5] Behbudiy M. Bizni kemiruvchi illatlar // “Oyina” jurnali 13-son, 1915. – B. 12

xalqning savodsizligini eng asosiy muammo deb bilgan va uni milliy uyg‘onishning to‘siqlaridan biri sifatida ko‘rsatgan. Bugungi kunda savodsizlik sezilarli darajada kamaygan, ta’lim tizimi ancha rivojlangan, universitetlar, kasb-hunar kollejlari va ilmiy markazlar tashkil topishi ko‘paygan. Biroq ta’lim tizimida amaliy bilim yetishmovchiligi, yangilangan darsliklar va zamonaviy yondashuvlarning kamligi kabi muammolar uchrab turibdi. Raqobatbardosh ta’lim olish uchun chet elga chiqayotgan talabalar soni oshgan bir paytda, texnik bilim va kasb-hunar egallashga qiziqishi sust bo‘lgan, ayrim hollarda xorijga ish izlab ketayotgan yoshlarni ham uchratish mumkin.

“Ey muhtaram yoshlar! Aziz birodarlar, o‘g‘ul to‘ylarig‘a sarf qilaturgon aqchalaringizni mana shul ilm zamoni yo‘lig‘a sarf etingiz, sizdan o‘g‘lungizg‘a mol meros qolmasun, balki, albatta, ilm va tarbiya meros qolsun”[1]. Behbudiy xalqning ortiqcha dabdabali urf-odatlari, to‘y va ma’rakalardagi isrofgarchilikni qattiq tanqid qiladi. U bu kabi chiqimlarni xalq ta’limi va taraqqiyoti yo‘lida ishlatishni taklif etadi. Dabdababozlik hanuzgacha muhim ijtimoiy muammo sifatida saqlanib qolmoqda. Hozirgi paytda ham to‘y va marosimlardagi ortiqcha sarf-xarajatlar ko‘plab oilalarni iqtisodiy qiyinchiliklarga olib kelmoqda. Milliy urf-odatlar zamonaviy hayotga moslashishda qiynalmoqda. Bugungi kunda diniy va milliy an’analarni saqlagan holda dabdabadan tiyilish va mablag‘larni jamiyat foydasiga yo‘naltirish zarurligi doim uqtirilmoqda.

Sadriddin Ayniy ta’biri bilan aytganda, “Behbudiy hazratlari ko‘rinishda g‘oyat mahobatlik va salobatlik edi. Ahvolig‘a voqif bo‘lmag‘on kimsa mutakabbir deb gumon qilur edi. Lekin haqiqatda muloyim suhbatlik,takallufsiz bir odam edi. O‘z moli haqida bo‘lsin,xalq moli bo‘lsin, iqtisodg‘a ko‘p rioya qilar va ijtimoiy ahvolimizning tuzalishi uchun iqtisodg‘a rioya qilishni birinchi shartlardan bilar edi. Shuning uchun to‘y va azalarg‘a bo‘laturg‘on isroflarni o‘zi butun tark qilg‘on va so‘zig‘a quloq solaturg‘onlarni ham tark qildirg‘on edi”[2]. Behbudiy iqtisodiy mustaqillikni milliy uyg‘onishning asosi sifatida bilib, xalqni mehnatsevarlikka, kasb-hunar o‘rganishga va boylikni oqilona boshqarishga undagan. Hozirgi jamiyatimizda ishsizlik va iqtisodiy qiyinchiliklar hali ham mavjud. Yoshlar orasida ish topish, resurslarning noto‘g‘ri boshqarilishi, import va eksport balansidagi nomutanosiblik kabi muammolar uchrab turibdi.

Behbudiy o‘z maqolasida xalqning diniy ilmsizligi va dinga yuzaki yondashishini tanqid qilib, islomning axloqiy tamoyillarini hayotga tatbiq etishni va dinga quruq marosim sifatida qarashni yo‘q qilishni istagan. Ilmsizlik va tarbiyayi diniya va axloqi milliyadin bebahralikni oxiri dinsizlik va rasman tarki din etmoqqa majbur bo‘lur[3]. Bugungi kunda diniy ma’rifat darajasi oshgan bo‘lsa-da, ayrim hollarda dinga noto‘g‘ri yondashuv hanuz uchramoqda. Axloqiy poklik, diniy bag‘rikenglik va dinning ijtimoiy mas’uliyatga asoslangan tamoyillarini

[1] Behbudiy M. A’molimiz yoinki murodimiz// “Oyina” jurnali. №6. – Samarqand, 1913. – B. 30.
[2] Abdirashidov Z. Jadidlar. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – B. 148.
[3] Behbudiy M. A’molimiz yoinki murodimiz// “Oyina” jurnali. №6. – Samarqand, 1913. – B. 31.

rivojlantirish hozirgi paytda ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Jamiyatning har bir a’zosi bilim olishga intilib, ma’naviyat va milliy qadriyatlarni asrab-avaylasa, xalq taraqqiyot yo‘lidan bardavom boradi. Behbudiy orzu qilgan ilmli va ma’rifatli ravnaq topgan jamiyatni barpo etish hozirgi avlodning zimmasidagi mas’uliyatdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Abdirashidov Z. Mahmudxo‘ja Behbudiy. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022.
2. Jadidchilik harakati va uning turkiy xalqlar adabiyotiga ta’sirini o‘rganish muammosi// Xalqaro ilmiy konferensiya materiali. – Qarshi: Nasaf, 2023.
3. Behbudiy M. A’molimiz yoinki murodimiz// “Oyina” jurnali. – Samarqand, 1913.
4. Behbudiy M. Muhtaram samarqandiylarg‘a xolisona arz// “Hurriyat” gazetasi. – Samarqand, 1917.
5. Behbudiy M. Tarix va jug‘rofiya// Oyina. – Samarqand, 1914.
6. Behbudiy M. Bizni kemiruvchi illatlar // “Oyina” jurnali, 1915, 13-son.
7. Behbudiy M. Muntaxabi jug‘rofiya. 1-jild. 1905.
8. Behbudiy M. Ehtiyoji millat// “Samarqand” gazetasi. – Samarqand, 1913.
9. Behbudiy M. Xayrul umuri avsatuho// “Xurshid” gazetasi. – Toshkent, 1906.
10. Behbudiy. M. Ikki emas, to‘rt til lozim// “Oyina” jurnali. – Samarqand, 1913.
11.Behbudiy M. Bayoni haqiqat// “Ulug‘ Turkiston” gazetasi. – Toshkent, 1917.

ARASTU VA ABDULLA AVLONIY AXLOQIY QARASHLARINING KOMPARABIVISTIK TAHLILI

Shaxnoza URAYIMOVA
TDSHU, Falsafa yo‘nalishi 1- kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD, dotsent v.b. I. Ikramova

Annotatsiya: Sharq axloqiy merosining yirik namunalari bo‘lgan “Axloqi Kabir” va “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining mazmuni va mohiyati yoritilgan. Asarlarda ilgari surilgan axloqiy g‘oyalar, insoniy fazilatlar, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar masalasi tahlil qilingan. Maqolada har ikki asarning o‘z davrida tutgan o‘rni, ma’naviy-ma’rifiy ahamiyati va yosh avlod tarbiyasidagi roli haqida fikr yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Axloq, fazilat, adolat, tarbiya, xulq, axloqiy fazilatlar, me’yor, g‘azab, ne’mat, yaxshi xulq.

Axloq masalalari azaldan dolzarb bo‘lib kelgan. Axloq va tarbiya masalasi har qanday jamiyat hayotida muhim o‘rin tutadi. Insonning ma’naviy kamoloti,

jamiyatdagi o‘zaro munosabatlar, adolat va ezgulik kabi tushunchalar aynan axloqiy tamoyillarga tayangan holda shakllanadi. Bu borada tarix davomida ko‘plab mutafakkir va olimlar o‘z qarashlarini bayon etib, jamiyatni axloqiy jihatdan yuksaltirishga xizmat qiluvchi asarlar yaratganlar. Ayniqsa, Sharq va G‘arb mutafakkirlarining bu boradagi qarashlarini solishtirish, ularning o‘xshash va farqli jihatlarini aniqlash juda muhim ilmiy vazifa hisoblanadi. Qadimgi yunon faylasufi Arastu (Aristotel)ning “Axloqi kabir” asari hamda o‘zbek ma’rifatparvari Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asari ana shunday muhim manbalar sirasiga kiradi. Ushbu maqolada mazkur ikki asarning mazmun-mohiyati, ularning axloqiy qarashlari, tarbiya borasidagi fikr-mulohazalari o‘rganiladi hamda ular orasidagi umumiylik va farqlar tahlil qilinadi. Bu orqali Sharq va G‘arb tafakkuri orasidagi bog‘liqlik va farqliliklarni chuqurroq anglash imkoniyati yuzaga keladi.

Arastu kitobning boshida “Axloq” nima ekanligini aytib o‘tgan. Narsaning mohiyatini bilmay, u haqida fikr yuritish noto‘g‘ri. Axloq o‘zi nima va u nimalarga aloqador ekanligini birinchi navbatda bilish lozim. U “axloqni siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir”[1], deydi. Chindan axloqiy fazilatlarga ega bo‘lmagan inson jamoat arbobi sifatida faoliyat ko‘rsatishi mumkin emas. Ijtimoiy siyosatga aloqasi bor odam yuksak axloq egasi bo‘lishi lozim. Bu maqomga munosib odam bo‘lmoq — fazilatlar egasi- fozil odam bo‘lmoq, demakdir. Ya’ni, har bir inson bir siyosatchi va ular jamiyat hayotida ishtirok etmoqda. Demak, u fazilatli bo‘lishi kerak ekanligini aytib o‘tmoqchi. “Ijtimoiy va siyosiy hayotda faoliyat yuritmoqchi bo‘lgan odam axloqan fazilatli odam bo‘lmog‘i kerak. Shunday ekan etika, axloq- siyosatning tarkibiy qismi, uning asosidir”[2].

Yana bir axloqqa doir asarlardan biri ma’rifatparvar jadidchi Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asaridir. Bu asar jadidchilik ruhida yozilganligi bilan ajralib turadi. Abdulla Avloniy ham bu asarda o‘z o‘rnida birinchi navbatda “Axloq” haqida so‘z yuritadi. Insonlarni yaxshilikka chaqiruvchi, yomonlikdan qaytaruvchi bir ilmdir. Yaxshi xulqlarning yaxshiligini, yomon xulqlarning yomonligini dalil va misollar bilan bayon qiladigan kitobga axloq deyiladi. “Axloq ilmini o‘qib, bilib, amal qilgan kishilar o‘zining kim ekanini, janobi Haq nima uchun xalq qilganini, yer yuzida nima ish qilib yurganini biladi”[3]. Abdulla Avloniyning mazkur asarining ahamiyatli jihati yana shundaki, unda Qur’oni Karim oyatlari va hadislari keltirilib, aytib o‘tilgan. Avloniy qo‘lidan kelgancha insonlarga o‘zligini anglashga yordam bergan.

Har ikkala davr ijodkorlari ham o‘z davri va o‘sha davr insonlarning axloqiy fazilatlari qay darajada ekanligiga qarab o‘z fikr-mulohazalarini berishgan. Arastu axloqni siyosatga o‘xshatadi va har bir inson siyosatchi ekanligini ta’kidlab, siyosatchi har taraflama namuna bo‘la oladigan inson bo‘lishi kerakligini aytib o‘tadi. Avloniy bo‘lsa axloqqa o‘zgacha fikr bildiradi. Ya’ni,

[1] Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B. 115.
[2] Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B. 115.
[3] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917. – B.2.

ilmni amaliyotda qo‘llanilishini axloq deb hisoblaydi. Avvalo, ilmlarni o‘rganish kerak ekanligini keyin esa uni amalda qo‘llash kerak ekanligini ta’kidlaydi.

Arastu axloqdan so‘ng fazilatga to‘xtaladi. Avvalo fazilat nima va unga qanday erishish haqida fikr bildiradi va boshqa faylasuflar Pifagor va Suqrotning fikriga qo‘shimcha qilib o‘z fikrlarini aytib o‘tgan. Masalan, Pifagor fazilatni ham raqamlar qatorida ko‘rib chiqqan. Uni fazilat sifatida o‘rganmagan[1]. Arastuning fikricha adolat, masalan o‘z-o‘ziga ko‘paytirilgan (ikki karra ikki ma’nosidagi) raqam emas-ku? Suqrot esa fazilatni bilimlarga tenglashtiradi. Gap shundaki, barcha bilimlar fikr-mulohaza bilan bog‘liqdir, fikr-mulohaza inson ruhining fikr yurituvchi qismida vujudga keladi. Arastu esa bu fikr xato ekanligini va ba’zi fazilat faqat aql bilan emas his-tuyg‘ular, fe’l-atvor bilan ham bog‘liq deb hisoblaydi. Masalan, fazilat bilim bo‘lsa, adolat nima ekanligini bilgan odam adolatli bo‘lib qolmaydi-ku?

Demoqchimizki, adolat haqida bilim olsak, lekin uni amalda tatbiq qilmasak, bu umuman adolatli degani emas. Shu sababli Arastu Suqrotning bu fikrini xato deb o‘ylaydi. U fazilatni “ne’mat” deb ataydi va ularni bo‘lib chiqadi. Qadrli, maqtovli, imkoniyat. Ne’matni mukammal va nomukammalga bo‘ladi. Nomukammal ne’matga erishganda boshqa ne’matga zaruriyat bo‘ladi. Mukammal ne’mat esa unga erishganda insonda boshqa ne’matga ehtiyoj sezilmaydi va mukammal ne’mat maqsad bo‘lishi kerak. Hayotdan maqsad esa baxt — saodatga erishishdir deydi. Oliy ne’mat mukammal maqsaddir. Mukammal maqsad baxt — saodatdir deb insonning hayotdagi maqsadi nima ekanligini keltirib o‘tgan. Suqrotning fikricha, fazilat go‘zallikdir. Ayni paytda go‘zallik uning tarkibiy qismiga emas uning o‘zi ekanligini aytadi.

Arastu fazilat haqida gapirar ekan uchta fazilat ya’ni, adolatlilik, oqillik va sabr-qanoatlilikni alohida ta’kidlab o‘tadi. U bu asrda ko‘plab fazilatlar haqida gapiradi, bu fazilatni to‘plasak shu uchta asosiylari kelib chiqadi. Chindan ham bu uchala fazilat bir butundir. Adolatsiz inson oqil bo‘la olmaydi. Oqil bo‘lmagan inson sabr — qanoat degan narsani bilmaydi. Sabr — qanoatni olaylik, inson hayotida badnafslik, dunyoparastlik, o‘g‘rilik, ochko‘zlik kabi illatlar, yana ko‘plab illatlarni keltirib chiqaradi. Bu aynan sabr — qanoat yetishmasligidandir. Halol mehnat qilib, boriga qanoat qilib yashovchi odam kamtarin, oqil, iymonli odam bo‘ladi.

Avloniy axloqdan so‘ng tarbiyaga alohida e’tibor qaratish kerak ekanligini ta’kidlaydi. Axloqimiz binosining go‘zal va chiroyli bo‘lishiga tarbiyaning ta’siri kattadir. Avloniy tarbiyani uchga bo‘ladi. “Birinchi o‘rinda e’tiborni badan tarbiyasiga qaratish kerak. Nimagaki, o‘qimoq, o‘qitmoq uchun bizga sog‘lom tana zarur. Sog‘lom bo‘lmasak ishimizda, ibodatimizda va amalimizda kamchiliklar bo‘ladi. Bu jasadni Alloh taolodan omonatga olganmiz, qachondir qaytarib beramiz. Uni asl holi kabi sof, toza qaytarishimiz kerak”[2]. Badan tarbiyasi bilan fikr tarbiyasi bir- biriga bog‘liq. Jism bilan ruh bir choponning o‘ng bilan terisi hisoblanadi. Agar jismni yaxshi saqlasak, fikrni e’tiborsiz qoldirsak

[1] Arastu. Axloqi Kabir. – Toshkent, 2024. – B.116.
[2] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917. – B.5.

choponing ichidagi kir tashiga ham uradi. Shu sababli inson ikkisini teng toza va pok saqlash lozim. Avloniyning ta'kidlashicha axloq tarbiyasi eng muhimidir. U tarbiya oluvchi bilan dars oluvchi orasida farq bor. Dars oluvchi — biluvchi, tarbiya oluchi — amal qiluvchi. Inson faqat o'rganishdan foyda yo'q uni amalda qo'llash zarur. Yoki o'rgatgan ilmiga o'zi ham rioya qilishi lozim. Insonning so'zi va amali bir bo'lsa, el ichida obro' topadi. Payg'ambarimiz Muhammad Mustafo (s.a.v) "Eng yomon kishilar, ilmiga amal qilmaydigan kishilardir" deb ta'kidlagan.

Arastu uchta fazilatni adolatlilik, oqillik, sabr-qanoatni eng muhim fazilatlar deb hisoblagan. Adolatga to'xtalsak, mazkur asarda adolatni ikki xil ko'rinishi borligi ta'kidlangan. "Biri qonunga muvofiqlikdir. Qonun buyurganini qilish bu adolat hisoblanadi. Qonun odamlardan mard, oqil va fozil bo'lishni talab qiladi. Shuning uchun ham oqillik eng mukammal fazilat hisoblanadi"[1]. Modomiki, adolatlilik qonunlarga muvofiq yashash ekan, qonun esa barchadan fazilatlar bilan yashashni talab qilar ekan, qonunlarga muvofiq, adolatli ish tutuvchi odam eng fozil odamdir. Bu adolatning bir ko'rinishidir.

Boshqa ko'rinishi mavjud bunda barchasi tenglikka asoslangan. Ikkinchi xil adolat boshqa odamlarga nisbatan adolat qilishdir. Ya'ni, tenglikka rioya qilishdir. Yaxshi narsalarni o'ziga ko'proq, yomonini kamroq olish boshqa insonlarga nisbatan adolatsizlikdir. O'rtada tenglik buziladi. Ortiqchalik va yetishmovchilikning, ozlik va ko'plikning o'rtasida joylashgan adolat. Ya'ni, adolatsiz inson o'ziga ko'proq oladi, jabr ko'rgan esa kamroq oladi o'rtada tenglik buzildi va bu adolatsizlikni keltirib chiqaradi. Xuddi shunday adolat bu tenglik deb ta'kidlagan. O'zining fikriga qo'shimcha qilib mutanosiblikni ham adolat deb ataydi. Mutanosiblikning to'rt tarkibiy qismi bor: "A" – "B" ga qanday nisbatda bo'lsa, " G" ham"D" ga shunday nisbatda bo'ladi. Mehnat sarfini bunga misol qilsak bo'ladi. Ya'ni, kim ko'proq ishlasa, shu ko'proq haq oladi, kim kam ishlasa, shu kam haq oladi. Mana shu, adolat hisoblanadi, deb aytib o'tgan Arastu mazkur asarda. Aflotun ham"Davlat" asarida mana shu adolatli mutanosiblikni qo'llaydi.

Abdulla Avloniy ham o'zining mazkur asarida yaxshi fazilatlar orasida adolatga alohida to'xtalib o'tgan. U adolatni boshqalarning mol va nomusini hurmat qilish va ziyon yetkazmaslikda deb hisoblagan. Adolat yaxshi xulqlarning foili, zulmning muqobilidir. Adolat va marhamatli kishilar o'ziga loyiq ko'rmagan bir ishni, o'zgalarga ravo ko'rmas. Kishi adolat va insoniyat vazifasini yolg'iz o'zi buzuq ishlardan saqlanmak ila ado qilolmas, balki o'zi ila barobar jinsdoshlarining xato va fanoliqlarini tuzatmak va yaxshi yo'lga sa'y qilmak ila ado qila bilur. Adolatni rioya qilgan kishilar hech bir kishiga jabr-u zulmni xohlamas va jonli narsalarga bekorga ozor bermas. Aql va shariatga muvofiq ravishda harakat qilur. Jabr-u zulm ila boshqalarning dilini ozor qilgan kishilarning yoqalari jazo qo'lidan qutulolmas. Zero, janobi Haqning adolati zolimlarning jazo va sazosini bermakdadur. Avloniy maskur asarida go'zal misollar bilan adolat nima ekanligini tushuntirib o'tgan.

[1] Аристотель. Никомахова этика. – М.: Азбука, 2022. – С. 49.

Adolatni hamma har xil ta’riflagan. Arastu adolatni tenglik deb qarasa, Avloniy bo‘lsa, boshqalarga zarar yetkazmaslikni adolat deb hisoblagan. Aslida-chi, o‘zi adolat nima? Arastuni fikridan kelib chiqib adolatni tenglik deb olsak, agar hammani tenglashtirish maqsadida boylarning pulini olib kambag‘allarga bersa, bu kambag‘al uchun adolat bo‘lishi mumkin lekin boylar uchun adolatsizlik hisoblanadi. Chunki ular bu boyligini mehnat qilib topgan. Agar biz adolatni tenglik deb qarasak bu bir tomon uchun adolat ikkinchi tomon uchun esa adolatsizlikka aylanib qoladi. Avloniy aytganidek, o‘ziga ravo ko‘rmaganini boshqalarga ham ravo ko‘rmaslikkina adolat emas, aslida adolat keng tushuncha hisoblanadi. Uni shunchaki chegaralab bo‘lmaydi aslida. Platonning fikri ko‘proq adolatga nisbatan adolatli ta’rif desak bo‘ladi. Ya’ni, tenglik ham emas kimgadir yaxshilik qilishgina adolat emas. Mutanosiblik ya’ni Arastu aytgani kabi ko‘p harakat qilganga ko‘p haq kam harakat qilganga kam haq berilishi, aynan shuni adolat desak bo‘ladi.

Arastuning “Axloqi kabir” asarini o‘qish davomida umumlashtiruvchi jihati sifatida me’yorni ko‘rishimiz mumkin. Negaki, hamma fazilatni aytib o‘tgan vaqtida me’yorga alohida e’tibor qaratib o‘tgan. Har bitta fazilatni me’yor so‘zi bilan ishlatgan. Birinchi navbatda jasurlik va qo‘rqoqlik haqida gap boshlagan. Avvalo, bu so‘z qanday voqea ustida ishlatilyapti shuni bilish kerak? Mol — mulkini yo‘qotib qo‘yishdan qo‘rqqan insonni biz qo‘rqoq emas, molparast deb ataymiz. Yoki kasallikdan qo‘rqqan insonni qo‘rqoq, qo‘rqmaganni jasur deb ayta olmaymiz. Jasurlik hamma insonlar qo‘rqadigan narsalardan qo‘rqmaslik. Masalan, podshoh va ularning qonunlarini tanqid qilishdan qo‘rqmaydigan insonni aytishimiz mumkin. Kamtarlik — uyatsizlik, tortinchoqlik o‘rtasidagi xislat. Hazil — mutoyibalik, masxarabozlik va yovvoyilik, do‘stparastlik - xushomadgo‘ylik, yaltoqlik va dushmanlik o‘rtasida joylashgan. Shu singari hamma fazilatlarni bir nechta illat orasida me’yorni saqlab keyin erishish mumkinligini ta’kidlagan. Navoiyning ham gapi bor: “Haqiqatni hammaga aytaverish – nodonlik”[1]. Shundan ma’lumki, hamma narsada me’yor zarur.

Avloniy o‘z asarida yomon xulqning eng yomoni jaholat deb aytib o‘tgan. Nega aynan jaholat? Jaholat o‘zi nima degan savol tug‘ilishi tabiiy hol? Jaholat deb o‘qimagan, bilimsiz, hech narsaga tushunmaydigan, nodon insonga aytiladi. Ilmsiz o‘zining huquqlarini bilmagan inson johillar panjasida ezilib, xarob bo‘ladi. Bu yerda panja so‘zini ishlatgani odamni e’tiborini tortadi. Ma’lumki, johil inson xudbin, ochko‘z, ahmoq va nodon bo‘ladi. Xuddi hayvon kabi o‘zi va qornini o‘ylaydi. Ularga inson so‘zini ishlatgisi kelmaganligi sababli ham panja so‘zini qo‘llaydi. Shu sababli johillarni hayvon kabi deyish maqsadida panja so‘zini ishlatyapti. Insonni o‘z-o‘zini yoq qiladigan xulqlardan biri g‘azab hisoblanadi. Xalqimizda maqol bor “Jahl kelsa, aql ketadi” bu fikr to‘g‘ri ekanligini Avloniy ham aytib o‘tadi. G‘azab nafsning g‘ururidan paydo bo‘lib aqlni zab etadi. Nafs aqlni boshqarishga o‘tadi va bu insonni mushkul holatga solib qo‘yadi bilan. “G‘azabning avvali junun, oxiri pushaymon”, deb aytib o‘tadi Suqrot. Buxoriy hadisida ham keltirilgan ya’ni, “kurashda kimnidir yenggan

[1] Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917. – B. 23.

inson botir emas, g‘azablanganda g‘azabini yenggan odam botirdir”. “G‘azab bir yomon illatki, yagona davosi sabr va shirinso‘zlik”, deb aytib o‘tgan Siyotiy.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, mazkur asarlar axloq muammolarini falsafiy yondashuv orqali hal etishga bag‘ishlangan yirik asarlardir. Bu asarlarning umumiy jihatiga to‘xtalsak, ikkala asar ham axloqqa doirligi umumlashtiruvchi jihatidir. Ikki asarda ham universal axloq, ma’naviy qadriyatlar yetakchi o‘rin tutadi. Ularning asosiy e’tibor markazida inson va uning ma’naviy kamoloti yotadi. Ikkovi ikki davr odami bo‘lsa ham ularning fikrlashi bir biriga yaqin va hatto Avloniy o‘zining asarida Arastuning fikrlaridan foydalangan. Bu asarlarning ikkalasida ham tarbiyani birinchi inson o‘z oilasidan olishi aytib o‘tilgan va oilaga ko‘proq e’tibor qaratish kerakligini dalillar bilan keltirishgan. Farqli jihati esa Avloniyning asari ko‘proq jadidchilik ruhida yozilgan. Ya’ni, Turkiston xalqining milliy — ma’naviy qadriyatlarimiz, ijtimoiy — axloqiy talqini yoritiladi. Ko‘proq bu asar o‘sha davr xalqining tafakkuri qay darajada sust va buni to‘g‘irlash kerakligi haqida, chor hukumatining insonlari turkiy xalqlarni ma’naviy jihatdan yo‘q qilishga bel bog‘laganini, insonlarning ko‘zlari xuddi tuman qoplab qolgan-u, tezroq o‘zlariga kelmasa, chor hukumati ularni tubi yo‘q jarlik tomon olib ketayotganini tushuntirishga harakat qilgan. Bir so‘z bilan aytganda bu asar faqat turkiy xalqlarga tegishlidek tuyiladi. Arastuning asari umumbashariy axloqiy mezonlarni o‘rnatishga yo‘naltirilgan. Kengroq doirada yozilgan ya’ni umumbashariy. Lekin bu asarlar milliy ma’naviy qadriyatlar va umumbashariy axloqiy prinsiplari uyg‘unlashib ketgan.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Arastu. Axloqi kabir. – Toshkent, 2024.
2. Аристотель. Никомахова этика. – М.: Азбука, 2022.
3. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent, 1917.

IBN MISKAVAYHNING AXLOQIY QARASHLARI

Yulduz G‘ANIYEVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Sharq Falsafasi va madaniyati yo‘nalishi
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD J.Sulaymonov

Annotatsiya: Ushbu maqolada faylasuf ibn Miskavayhning axloqiy qarashlari haqida muhim ma’lumotlar berilgan. Maqolada nafaqat uning hayoti va tadqiqoti balki asarlari, falsafiy va axloqiy qarashlari ham yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Miskavayh, axloq, sharq, “Tahzib al axloq”, Yunoniston mashshayeyuna.

Dunyo miqyosida axloq har doim yuqori darajaga qo‘yilgan. Axloqqa eng oliy qadriyat sifatida baho berishgan va bu asrlar davomida o‘zgarmadi. Jamiyatda hayot kechirish davomida inson ma’lum bir me’yoriy-axloqiy

qoidalarga bo‘ysunib yashaydi. Axloqiy unsurlarni, axloqqa doir ishlab chiqilgan me’yoriy qoidalarni eng qadimgi davlat namunalarida ham ko‘rish mumkin. Masalan, Qadimgi Yunonistonda “Etika” deya atalib butun dunyoga shu nom bilan mashhur axloq jamiyatning ajralmas qismi bo‘lgan inson kamolotida muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir jamiyatda axloq mavjud bo‘lib, kishilarning hayot tarzida, madaniyatida aks etadi. O‘rta asrlarda Islom olamida axloqiy me’yorlar va ularni tartibga solish kabi masalalar yuzaga kelgan bir davrda bir qancha axloqshunoslar bu borada o‘z qarashlarini bayon etadi. Bular orasida faylasuf, tarixchi, tabib va axloqshunos Ibn Miskavayh alohida o‘ringa ega bo‘lib, axloqiy sohaga bag‘ishlangan asarlarida o‘z qarashlarini namoyon etadi. Uning qarashlaridagi dolzarb masala shundaki, o‘z davridagi din va falsafa o‘rtasida ixtilof, axloq asosini, shakllanish doirasini tushuntirishga harakat qiladi. Islom axloqi tushunchalarini o‘rganish bugungi kun uchun ham muhim hisoblanadi. Ibn Miskavayh bunday vaziyatda islom axloqiy tizimini hamda axloqiy tizimlarni sharhlashga harakat qildi. Nafaqat islom dinini balki, boshqa dinlarni ham axloqqa ta’siri haqida fikr bildirdi. Asarlarida Ibn Miskavayhning axloqiy qarashlarini keng yoritadi va aynan axloqqa bag‘ishlangan bir qancha asarlar yozadi. Ba’zi asarlari uning zamondoshlari hisoblangan axloqshunos olimlar bilan hamkorlikda yoziladi. Ibn Miskaveyh boshqa sohalarda ham faoliyat yuritgan bo‘lsa-da, asosan uni axloqshunos sifatida bilishadi.

Ibn Miskavahy Axloqqa oid “Tahzib ul-axloq”, “Tatxir al-araq”, “Al-fuzul al-asg‘ar”, “al-hikmat al-xolida”, “Kitab adab ad-dunya vad-din”, “Jovidoni Hirat”, bundan tashqari axloqiy masalalar muhokamasiga bag‘ishlangan Abu Hayyon Tavhidiy bilan hamkorlikda yozilgan “Al-|Havomil vash-shamovil”, “al-axlaq vad-din fi hayati sha’b” kabi asarlardan iboratdir.[1]

Bu asrlarida uning axloqiy qarashlari yaqqol namoyon bo‘ladi. Asarlarining o‘zida ham axloq sohasidagi faoliyatini, asosan umrini axloqni o‘rganishga bag‘ishlaganini bilish mumkin.

Ibn Miskavayhning axloq sohasidagi tafakkur paradigmasi boshqa mutafakkirlardan farqli uslubga ega deyish mumkin. Uning “Tahzib al-axloq” kitobida ko‘rish mumkinki, axloq haqidagi bahs Aristotel, Platon, Galen kabi yunon faylasuflarining fikrlari bilan bog‘liq. Bundan tashqari, Ibn Miskaveyhga al-Kindiy, al-Forobiy, ar-Roziy va boshqalar kabi musulmon faylasuflari ham katta ta’sir ko‘rsatgan. Ushbu faylasuflarni o‘rganish orqali keyinchalik o‘zi ham yangi axloqiy qarashlarni ifoda etdi. Ko‘rishimiz mumkinki uning qarashlariga yunon faylasuflarining ta’siri katta. Ma’lumki falsafa amaliy falsafa va nazariy falsafa kabi turlarga bo‘linadi. Miskavayh axloqshunoslikni amaliy falsafa tarkibiga kiritadi.

Ibn Miskavayhning fikricha, axloq ilmining asosiy maqsadini xulq-atvor shakllanishi tashkil etadi. Xulq ruhni o‘z harakatlari haqida o‘ylamasdan harakat qilishga undaydigan psixologik tuzilmadir. O‘zlashtirilgan xulqni shakllantirishning axloqiy ahamiyati ko‘rib chiqilayotgan xatti-harakatlarning ezgulik mezonlariga mos kelishida aniq bo‘ladi. Biroq, faylasuf birinchi navbatda

[1] https://www.researchgate.net/publication/331823775_Ibn_Miskeveyh_ve_Egitim_Felsefesi

asoslamoqchi bo‘lgan masala bu-axloq o‘zgarganmi yoki o‘zgarmaganmi. Chunki axloqiy tuzilma tug‘ma bo‘lsa, uni o‘zgartirib bo‘lmaydi va bu holda axloqiy tarbiyaning ma’nosi yo‘q. Ibn Miskavayh bu boradagi tahlilning avvalida tabiiy temperamentdan bevosita kelib chiqmaydigan har qanday axloqni tarbiya va odat bilan o‘zgartirish mumkin, degan fikr tarafdori ekanligini, garchi tabiiy axloqni berilgan narsa sifatida qabul qilganini alohida ta’kidlagan. Tahlil yakunida u tabiiy axloq tushunchasini rad etib har qanday axloq ertami-kechmi o‘zgarishi mumkin, degan Aristotelcha qarashga asoslanadi.[1]

Axloqni sharhlash davomida u bir kishining xulqi bir yo‘nalishdan boshqa yo‘nalishga qarab o‘zgarishi mumkin degan fikrni ilgari suradi. Uning bu fikrlaridan ayon bo‘ladiki, axloq ya’ni inson xulqi o‘z-o‘zidan o‘zgarmaydi, albatta bunga tashqi ta’sir ham sabab bo‘ladi.

Miskavayh mashshayeyuna oqimining mashhur vakillaridan biridir. Chunki Ibn Miskavayhning axloqiy qarashlariga yunon faylasuflari jumladan, Arastu va Aflotun qarashlarining ta’sirini ko‘rish mumkin. Ayniqsa, qarashlarida Arastuga yaqinlik yaqqol seziladi. Asarlarida uning fikrlaridan foydalanadi va ba’zi o‘rinlarda shu asnosida o‘z fikrlarini berib o‘tishga harakat qilgan. U Arastuning “Nikomax etikasida” berilgan qarashlarni tasdiqlaydi, unga ko‘ra Alloh insonni yaratadi, uning mohiyati Alloh irodasidir, lekin inson yaratilganidan so‘ng bu hayotda yaxshi yoki yomon bo‘lish uning o‘ziga bog‘liq ya’ni kishi bu hayotda o‘z yo‘lini o‘zi belgilaydi. Ammo, ba’zi o‘rinlarda uning qarashlarida Arastuga qarama-qarshilik mavjud. Masalan uning jonning tabiatini obyektiv borliq yoki substansiya misolida ko‘rganligi Aflotun g‘oyalariga to‘g‘ri keladi.

Miskavahy asarlarida axloq tushunchasini sharhlar ekan uning tarbiya orqali o‘zgarishi mumkin ekanligini alohida ta’kidlaydi. Bundan ko‘rinadiki, tarbiya to‘g‘ri qo‘llanilgan jamiyatda axloqqa e’tibor beriladi va axloqiy munosabatlar yaxshi yo‘lga qo‘yiladi.

Ibn Miskavayh o‘zining “Tahzib ul-axloq” asaridagi axloq va xulq masalalari muhokama qilingan ikkinchi bobida, axloq tushunchasiga ta’rif beradi. Shunga ko‘ra, axloq (xulq) odamlarga o‘ylamasdan o‘z ishlarini bajarishga imkon beradigan ruhiy holatdir. Bu holat qisman tug‘ma, qisman odatlar orqali orttirilgan. Muallif, axloqning tarbiya bilan o‘zgarishi mumkinligi haqidagi mashhur bahsga to‘xtalar ekan, axloqning tarbiya bilan o‘zgarishi mumkinligini qabul qilishini aytib, Aristotelning “Kitob ul-Axloq” va “Kitob ul-Ma’qulot”da ta’lim orqali insonlarni yaxshilikka yetaklash mumkinligini tushuntirganini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, ilm va axloqda o‘z iqtidorini tamomlagan kishi “kichik mulk” sifatida ta’riflanish huquqini qo‘lga kiritadi va yer yuzida Allohning xalifasi bo‘ladi. Kalinusning “Axloqu’n-nafs” kitobiga asoslanib, baxt hissiy lazzatlarda bo‘ladi, degan fikrni tanqid qilgan.[2]

Bu jarayonda u o‘zining “al-Lazzat val-a’lam” asarida ruhning ma’lum bir vaziyatlardan qoniqish yoki qoniqmasligini axloqiy hayotning markaziga qo‘yadi. Uning fikriga ko‘ra lazzatlanish bu-tabiiy holatga qaytish emas. Barcha

[1] https://islamansiklopedisi.org.tr/ibn-miskeveyh
[2] https://islamansiklopedisi.org.tr/ibn-miskeveyh

hodisalardan qoniqish va ularga ochiq bo‘lish natijasida haqiqiy moddiy lazzat farqlanmaydi.

Miskavayhning axloqiy tushunchalarni o‘rgangan va ularni anglab yetgan kishi yuqori va pastki olam o‘rtasida vositachi maqomiga ko‘tarilishi mumkin ekanligini aytadi. Bu jarayonda esa ushbu fikrlarini Mazkur oyat bilan tasdiqladi. “Hech kim qilayotgan ishiga qanday baxt borligini bilmaydi”, “Ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan narsalar bordir. Va hech bir inson aqli tasavvur qila olmaydi”. Yuqoridagi fikrlardan shuni bilish mumkinki, Miskavayh axloq shakllanishida ta’limni yuqori asosda baholaydi. Axloqning ajralmas qismi bo‘lgan mavjud ko‘nikma va nazariy bilimlarni o‘zlashtirgan shaxs yoki puxta asosda ishlab chiqilgan ta’lim tizimi ma’lum bir shaxsni yoki jamiyatning axloqiy qarashlarini o‘zgartirish mumkin ekanligini to‘g‘risidagi Aristotelcha fikrni isbotlashga harakat qiladi.

Miskavayhning ideal baxt-saodati-bu oqilona baxt –saodatdir. Harakat esa, garchi u ham muhim va asosiy narsa bo‘lsa-da, ammo u shunchaki bir vosita bo‘lib, agar odamni oxirgi maqsadiga olib kelmasa, u nomunosibdir. Aql haqida gapirar ekan, faylasuf yangi aflotunchilar talqinidan o‘tib islomga kirib kelgan yunonchilar aqliy merosini nazarda tutadi. Komillashuvning birinchi bosqichi, uningcha bu – ilm yordamida erishiladigan imkoniyatdir. Komillikka intiluvchi inson barcha ilmlarning yakuni va oxiri bosqich bo‘lgan parvardigorni bilish darajasiga yetish uchun zina va bosqichlar bo‘lib, sabr toqat bilan mukammallashish lozim. Inson harakat quvvatiga bog‘liq bo‘lgan komillashuvning ikkinchi bosqichi — bu axloqiy takomillashuv bo‘lib, insoniy “faoliyat imkoniyati” bilan bog‘liq harakatlarida kuchni taqsimlashdan boshlanadi. Nazariy takomillashuv bamisoli shakl (surat) bo‘lsa, amaliy komillashuv-materiya (modda)dir va bularning birortasi ham ikkinchisisiz qiyomiga (yakuniga) borib yetmaydi, ilm-bu boshlanish, harakat (yoki ish, faoliyati) esa, bu – oxirgi yakun. Inson o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘lida hamma maxluqot va uning xossalari haqida bilimga ega bo‘lgan taqdirdagina (narsalar, ularning mohiyati, belgilovchi chegaralari haqidagi bilimni egallash), u “olami sag‘ir”- kichik olam deb atalishiga munosibdir. Shunday qilib, agar inson komillikning ana shu darajasiga (ilmiy darajasiga) yetib borsa, keyin o‘z quvvatlarini takomillashtirish harakatida qo‘llaydi va o‘zining ichki quvvat hamda qobiliyatini bor bilimiga muvofiqlashtirib, o‘zi bir olamga aylanadi. Zero narsalarning surati uning mohiyatining bir qismi bo‘lib qoladi. Bunday vaqtda qandaydir holatda, u olam(undagi jami narsalar bilan birga) bilan birlashib, yagona yaxlitlikni tashkil etadi.[1]

Demak, Ibn Miskavayh tafakkuriga ko‘ra, axloq insonni komillikka yetaklovchi asosiy omillardan biridir. Bundan ko‘rinadiki ilm va axloqiy me’yor mutanosibligi kishini komillik sari yetaklovchi sabablardandir.

Shunga ko‘ra Ibn Miskavayh axloqqa diniy emas dunyoviy deb qaraydi. Bunga ko‘ra axloqni jamiyat yaratadi va aynan jamiyatda hukm suradigan qonun-

[1] Abdul Aziz Izzat. Ibn Miskavayhning axloq falsafasi va uning manbalari. Qohira, 1946 y. – B.319

qoidalar, tartib va mezonlar axloqni shakllantiradi. Bundan anglash mumkinki, yagona din va madaniyatga ega bo‘lgan mintaqaning turli hududlarida axloqqa bo‘lgan munosabat har xil bo‘lishi va bir-biridan farq qiluvchi axloq mavjud bo‘lishi mumkin. Shuningdek, axloq haqida so‘zlar ekan uni inson tabiatini mahkumlikdan ozod etuvchi sifatida baholaydi. Ya’ni insonning axloqi go‘zal bo‘lsa u o‘z qalbini, tabiatini qullikdan xalos qilgan bo‘ladi.

Ibn Miskavayh haqiqiy va mutlaq lazzatning manbaiga Xudoni qo‘yadi. Bu o‘rinda u lazzatni komillik bilan ham bog‘laydi. Chunki, Alloh yagona va mukammal zot, har bir mavjudot unga oshiq. Baxtning cho‘qqisiga ham, haqiqiy lazzatga ham unga bo‘lgan muhabbat bilan erishish mumkin. Shu bilan birga Miskavayh zohidlikni rad etadi. Chunki, u yuqoridagi barcha sifatlar ijtimoiy muhitda shakllanadi. Insonni biopsixosotsial mavjudot deb qabul qiladigan bo‘lsak u jamiyatdan ayro holatda yashashi mumkin lekin, aynan axloqiy fazilatlar, axloqiy me’yorlar jamiyatda shakllanadi va insonni ham jamiyat tarbiyalaydi. Mana shu ijtimoiylik tufayli qadriyatlar vujudga keladi.

Miskavayhning axloq falsafasi tabobat kabi inson ruhini yomonliklardan tiyib turuvchi, ularni oldini oluvchi hamda ruhni salomat saqlovchi va kuchaytiruvchi vosita vazifasini o‘tagan.

Shuningdek Miskavayh ruhiyatda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan va axloq buzilishiga olib keluvchi hodisalarni keltirib o‘tadi. Bu jihatdan uning qarashlari Yahyo ibn Adining qarashlari bilan o‘xshash. Ular asosiy axloqiy tafovutlarni ruhning bir-biri bilan kurashadigan uch quvvatidan, ya’ni shahvat, g‘azab va oqillikdan kelib chiqishini ta’kidlaydilar.

Agar insonda shahvat quvvati g‘alaba qilsa, u insondan ko‘ra hayvonga o‘xshab qolib, o‘z jismidan qochadi va imon-ixtiyorini maishatparastlikka va tabiiy tamoyillarga berib qo‘yadi. G‘azab quvvati ustun kelgan chog‘da, u isyonkor va tajovuzkor bo‘lib qoladi. Aql quvvati yagona kuchdirki, insonni hayvonot olamidan ajrata oladi. Har bir insonning kamoli shu quvvatgagina bog‘liqdirki, u qolgan ikki quvvatdan ustun chiqishi lozim.[1]

Demak, axloqni tartibga solib turuvchi kuch bu aql.

Xulosa qilib aytganda, Ibn Miskavayh o‘z qarashlari bilan axloqshunoslik sohasiga ulkan hissa qo‘shdi. Garchi, boshqa turli sohalarda ijod qilib, asarlar yozgan bo‘lsa-da birinchi navbatda faylasuf va axloqshunos olim sifatida dunyoga tanildi. U faylasuf sifatida Forobiy yoki Ibn Sinolar bilan bir qatorda turmasa ham amalga oshirgan ishlarini yuqori baholash mumkin. Miskaveyh o‘z axloqshunosligida aflotunchilik va mashayeyuna yo‘nalishlaridagi tamoyillardan keng foydalanadi va uni islom falsafasi bilan uyg‘unlashtirishga harakat qiladi. Mana shu jihatdan ham u yaratgan tamoyillar bugungi kunga qadar o‘rganib kelinmoqda. U falsafiy qarashlarida ham axloqiy qarashlarida ham aqlga alohida to‘xtalib o‘tadi. Va aqlni insonni inson sifatida yuzaga chiqishidagi asosiy manba hisoblaydi.

Miskavayh axloqni jamiyatni, insonni, butun dunyoni tartibga solib turuvchi kuch sifatida e’tirof etadi. O‘sha davrdagi axloq ilohiy ekanligi

[1] Falsafa Tarixi, O‘quv qo‘llanma Toshkent-2013 B.99

to‘g‘risidagi mavjud fikrni rad etib axloq ijtimoiy ekanligini aytib o‘tadi. Chunki, axloq ilohiy bo‘lsa butun dunyoda yoxud yagona din doirasida yagona axloqiy me’yor shakllanardi. Jamiyatdagi qadriyatlar ham mutlaqo bir-biridan farq qilmagan bo‘lardi. Ammo, axloqni faqat ijtimoiy deb qarash ham to‘g‘ri emas chunki, ba’zi axloqiy tizimlarni diniy aqida ham shakllantirishi mumkin. Lekin, bu axloq faqatgina ijtimoiy hayotda sayqallanadi va rivojlanadi. Individni mavjud jamiyat voyaga yetkazadi va axloqiy qoidalarga amal qilishni o‘rgatadi. Bundan kelib chiqadiki, axloq mavjud hayot tarzi va qadriyatlar orqali shakllanadi. Shu bilan bir qatorda umume’tirof etilgan axloqiy me’yorlar mavjud, ularni axloqiy kategoriyalarda ham ko‘rish mumkin. Masalan, tinchlik, yaxshilik, insonparvarlik kabilar dunyo miqyosida e’tirof etiladigan me’yorlar hisoblanadi.

Ibn Miskavayh tom ma’noda axloqshunoslikning rivojlanishida ulkan hissa qo‘shi. Islom olamida aynan uning ta’sirida ko‘plab axloqiy asarlar yaratdi. Shu jumladan, Nasriddin Tusiy ham Miskavayhni o‘rganib, undan ilhomlangan holatda o‘zining axloqqa doir asrlarini yaratdi. Bularning barchasini Miskavahning bu sohaga qo‘shgan hissasi sifatida alohida qayd etish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ibn_Miskeveyh_ve_Egitim_Felsefesi https://www.researchgate.net/publication/331823775_Ibn_Miskeveyh_ve_Egitim_Felsefesi

2. https://islamansiklopedisi.org.tr/ibn-miskeveyh

3. Abdul Aziz Izzat. Ibn Miskavayhning axloq falsafasi va uning manbalari. Qohira, 1946 y

4. History of Islamic Philosophy edited by Seyyed Hossein Nasr and Oliver Leaman First published 1996

5.Sulaymonova. Sh.N Ibn Miskavayh axloqiy qarashlarida inson kamoloti masalasining qo‘yilishi volume 1 | ISSUE 8 ISSN 2181-1784 Scientific Journal Impact Factor SJIF 2021: 5.423

6.Falsafa Tarixi(Sharq Falsafasi) o‘quv qo‘llanma, Toshkent-2013

XALQARO MUNOSABATLAR, XMI VA TURIZM

ZAMONAVIY DAVRDA TURKIYA TASHQI SIYOSATINING O‘ZGARIB BORISHI VA UNGA TA’SIR QILUVCHI OMILLAR

Ruxshona OBIDOVA
TDSHU, Sharq sivilizatsiyasi va falsafa fakulteti
Sharq mamlakatlari tarixi yo‘nalishi
Turk-ingliz guruhi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: I. Xudoynazarov

Annotatsiya: Turkiyaning G‘arb bilan aloqalari uzoq vaqt davomida Yaqin Sharq bilan munosabatlarining shakllanishida turli nuqtai nazardan ijobiy yoki salbiy tarzda ta’sir ko‘rsatgan. Biroq, so‘nggi yillarda bu jarayon teskari bo‘la boshladi. Ushbu yangi davrda Turkiyaning Yaqin Sharq bilan munosabatlari shunday o‘zgarishlar ko‘rsatdiki, ba’zi hollarda G‘arb bilan aloqalarida salbiy ta’sir qilmoqda. Shu nuqtai nazardan, ushbu maqolada Turkiyaning o‘zgarayotgan xalqaro vaziyatda qarashlari, Yaqin Sharq siyosati va bu siyosatda G‘arbning ta’siri tahlil qilingan. G‘arb, Turkiya va Yaqin Sharq o‘rtasidagi bu o‘zaro ta’sirni tushunish uchun Turkiyaning o‘zgarayotgan jahon siyosatidagi tizimlari, bu uchlik munosabatlarida hukmron bo‘lgan uslubga qarab, muayyan davrlarga bo‘lingan. Maqolada, Turkiyaning g‘arbiy va dunyo miqyosida ta’siri hamda G‘arb ittifoqiga mustahkam bog‘liqligi tufayli mintaqada hukmron bo‘lgan kuchlar bilan ziddiyatga kirganligi va shuning uchun Turkiya uzoq vaqt davomida mintaqadan uzoqlashganligi xulosasiga kelindi.

Kalit so‘zlar: Sekulyarizatsiya, g‘arblashish, Anqara shartnomasi, Hatay masalasi, Imperializm bilan hamkorlik.

Usmonli Imperiyasining qulashidan so‘ng, Turkiyaning Yaqin Sharqdan katta miqdorda uzoqlashganligi g‘oyasi tegishli doiralarda keng tarqalgan. Adabiyotda keng tarqalgan yondashuvlardan biriga ko‘ra, Turkiyaning arab dunyosidan farqli o‘laroq milliy o‘zligi va respublikani tashkil etish bilan paydo bo‘lgan yangi siyosiy kimligi, uni Yaqin Sharqdan uzoqlashtirgan eng muhim omil bo‘lib hisoblanadi. Shunday bo‘lsa-da, Turkiyaning mintaqadan “uzoqlashishi” bitta sabablarga, faqatgina milliy va siyosiy o‘zlikning qayta belgilanishiga ko‘ra bog‘lanib qolmaydi. Turkiyaning mintaqadan uzoqlashishiga olib kelgan birinchi omil – respublikani tashkil etish bilan Turkiyaning yangi milliy o‘zligini yaratish jarayoniga kirishidir. 1923 yilda respublikasining tashkil etilishi bilan Turkiya ichki ishlarni qayta qurishga alohida e’tibor qaratgan va Mustafo Kamol Otaturk rahbarligida zamonaviy va dunyoviy (sekulyar) milliy davlat qurilgan. Shu nuqtada, Turkiyaning *g‘arbiylashuvi* uning Yaqin Sharqdan

uzoqlashishiga olib kelgan muhim omillar sifatida ko‘rsatiladi[1]. Respublika asoschilarining elitalari Turkiyada hukmron siyosiy va ijtimoiy madaniyatni g‘arbiylashish yo‘nalishida o‘zgartirish uchun katta bir harbiy harakatga kirishgan. Chunki, respublika davrida siyosiy elitalarning Otaturkning ideologiyasi atrofida olib borgan rasmiy tashqi siyosatida asosan G‘arb bilan bog‘lanishga moyillik kuzatilgan. Bu holat bir tomondan turk elitalarining madaniy jihatdan mintaqadan uzoqlashishiga, boshqa tomondan esa Yaqin Sharq mamlakatlaridagi konservativ qatlamlarning Turkiyaga nisbatan yanada masofaviy bo‘lishiga olib kelgan[2]. Shunga qaramay, Turkiya o‘sha davrda Yaqin Sharq davlatlaridagi islohotchi va millatchi pozitsiyalar uchun muvaffaqiyatli bir ozodlik va modernizatsiya “modeli” bo‘lgan. Ayniqsa, Afg‘oniston va Eron, Turkiya misolini kuzatib, modernizatsiya harakatlarida bo‘lgan. Buni o‘sha sharq dunyosi hukmdorlarining olib borgan islohotlari orqali bilib olishimiz mumkin albatta.

Respublika bilan boshlangan yangi davrda Turkiya ichki tarafdan g‘arbiylashish yo‘nalishida ketganligiga qaramay, turk tashqi siyosatida “g‘arbiylashish”dan so‘z qilish mumkin bo‘lmagan. G‘arb ta’sirining turk tashqi siyosatidagi o‘rni ustuvor bo‘lmagan. Ushbu davrda G‘arb davlatlarining o‘zaro raqobati va turli ittifoqlarga kirishi Turkiyaga “nisbatan mustaqillik”ni ta’minlagan va Turkiya shu tarzda mustaqil, strategik hamda tizimli tashqi siyosat olib borgan. Yangi Turkiya tashqi siyosatda asosan o‘zining mustaqilligini kafolatlashga harakat qilgan. Shuning uchun Turkiya, Usmonli hududlaridagi barcha huquq da’volaridan voz kechgan va o‘ziga xos usullar qo‘llagan tashqi siyosat yondashuvini qabul qilgan. Ya’ni, Turkiya “milliy manfaat”ni faqat o‘z hududlari bilan cheklab, Arab dunyosining muammolariga nisbatan befarq bo‘lgan. Ushbu davrda turk tashqi siyosatining eng muhim elementi chegaralar masalalarini (chegaralarni aniqlash va chegaralarni xavfsizligini ta’minlash) hal qilishga qaratilgan faoliyatlar bo‘lgan. Turkiyaning yangi Yaqin Sharqdagi qo‘shnilari bilan chegaralar masalasining mavjudligi, bu davlatlar bilan yaqin aloqalar o‘rnatishga to‘sqinlik qilgan. Iroq bilan chegaralar masalasi faqat 1926 yilda imzolangan *Anqara shartnomasi* orqali hal qilingan[3]. Ikkinchi Jahon Urushidan so‘ng, nafaqat xalqaro tizim, balki Yaqin Sharqning geosiyosiy tuzilishi ham yangidan shakllandi. Ushbu davrda mintaqa davlatlari mustaqillikni qo‘lga kiritgan bo‘lsa-da, tez orada Sovuq urush mintaqani ham o‘z ta’siriga olishni boshladi. Sovet Ittifoqi Turkiyaning xavfsizligiga tahdid soluvchi kuch sifatida paydo bo‘lishi natijasida, Turkiya G‘arb bilan siyosiy ittifoq aloqalarini o‘rnatishga majbur bo‘ldi. Nihoyat, 1952 yilda Turkiyaning NATOga qo‘shilishi bilan Turkiya-G‘arb aloqalari harbiy ittifoqqa aylandi. Bundan tashqari, iqtisodiy jihatdan tiklanish uchun G‘arbning texnik va moliyaviy yordamlariga bo‘lgan

[1] Arlene B. Tickner, “Core, periphery and (neo)imperialist International Relations”, European Journal of International Relations, Cilt 19, No 3, 2013, ss. 627-646

[2] Kalevi J. Holsti, The Dividing Discipline: Hegemony and Diversity in International Theory, Boston, Unwin Hyman, 1985. ss. 68-70

[3] Stanley Hoffmann. An American Social Science International Relations. Daedalus, Cilt 106, No 3, 1977, ss. 41-60

ehtiyoj Turkiyani G‘arb bilan iqtisodiy ittifoq o‘rnatishga yo‘naltirdi. Shunday qilib, Turkiya, G‘arb bilan ittifoqini kuchaytirish va G‘arbning kuchi va imkoniyatlaridan foydalana olish maqsadida, o‘z xavfsizligi va mintaqaviy manfaatlarini G‘arbning mintaqadagi manfaatlari bilan uyg‘unlashtirmoqchi bo‘ldi. Turkiyaning G‘arb bilan mos keladigan xavfsizlik manfaatlari, iqtisodiy aloqalari va ideologik tanlovlari bilan ham mustahkamlandi. Shunday qilib, Turkiya ushbu davrda Yaqin Sharqda G‘arbga parallel siyosatlarni amalga oshirdi.

Turkiyada Xalqaro Munosabatlar tizimi doirasida Yaqin Sharq bilan munosabatlari salbiy tarafga ham og‘gan bo‘lishiga qaramasdan bu hududlardan Turkiya ko‘chib kelayotganlar talaygina topiladi. Bu uning ushbu o‘lkada o‘zini namoyon qila olishi bilan baholanadi. “Ko‘chish” mavzusidagi akademik ishlar suriyaliklarning Turkiyaga majburiy va ommaviy ko‘chishi 2011-yildan keyin ko‘paygan. Turkiyaga kelgan suriyaliklarning yashash sharoitlari, ijtimoiy moslashuvi, joylashgan hududlardagi mahalliy aholi bilan munosabatlari, yuzaga kelgan ko‘chish to‘lqini Turkiyaning tashqi siyosatiga va xalqaro aloqalariga, milliy xavfsizlik tushunchasiga, chegaralariga ta’siri va mintaqa siyosatidagi o‘zgaruvchan roliga muhim o‘rin tutadi. Ko‘chish Boshqarmasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2021-yilning aprel oyida 3,670,342 vaqtincha himoya maqomini olgan suriyalik Turkiyada yashamoqda[1]. Ko‘plab suriyaliklarning Turkiyaga turli yo‘llar bilan kelishi, yaratilgan insoniy yordamlar, xavfsizlik hamda ijtimoiy moslashuvga doir yangi ehtiyojlar, milliy va xalqaro institutlarning markazida bo‘lib kelgan. Mavzuga doir bo‘lgan Turkiya va Suriya munosabatlari haqida so‘z yuritadigan bo‘lsak, ikki davlat o‘rtasidagi muammolar Fransiya tomonidan Suriya mustaqilligini ta’minlovchi 1936-yilgi bitim bilan boshlangan. 1920-yilning oktyabrida Turkiya va Fransiya o‘rtasida tuzilgan Anqara shartnomasi asosida Iskandarun (Hatay) Fransiyaning hududiga kiritilgan bo‘lsa-da, maxsus boshqaruv tizimiga ega bo‘lishi va bu yerda yashovchi turk xalqlarining o‘z madaniyatlarini rivojlantirish uchun barcha huquqlardan foydalanishi ta’minlangan edi. 1936-yilgi Suriya mustaqilligi haqidagi bitimda esa bular haqida so‘z yuritilmagan va Fransiya Iskandarun viloyatidagi barcha suverenitet huquqlarini bevosita Suriya hukumati tomoniga o‘tkazgan[2]. Nihoyat, Turkiyaning urinishlari natijasida 1938-yilda Iskandarun viloyati Hatay nomi bilan mustaqillikka erishdi va bir yil o‘tib, (1939) Hatay Majlisi Turkiya bilan birlashish qarorini qabul qildi. Bu masala 1946-yilda fransuz askarlari Suriyadan chiqib, Suriya mustaqil bo‘lganidan keyin Turkiya va Suriya o‘rtasidagi muhim masalalardan biriga aylandi. Suriya barcha rasmiy xaritalarida Hatayni o‘z hududiga kiritadi. 1920-1946-yillar orasida Fransiya tomonidan boshqarilgan Suriya davridan so‘ng 1963-yilgacha bo‘lgan paytda mamlakat siyosatida sunniy siyosatchilarning aniq ta’siri bo‘lgan[3]. Hatay masalasi ikki mamlakat o‘rtasidagi

[1] https://scholar-chat.com/paper/web/83d02d324b818117206f41cd87377aeb
[2] https://slib.uz/uz/article/view?id=31548
[3] Arlene B. Tickner. “Core, periphery and (neo)imperialist International Relations”. European Journal of International Relations, Cilt 19, No 3, 2013, ss. 657-689

jiddiy muammoga aylanib, 1943-yilda Suriya Baas partiyasi faoliyatini boshlagan va 1950-yillarning o‘rtalaridan boshlab Suriya siyosatida ta’sir ko‘rsatgan.

17. Katz, M.N. (2021). «Russia and Iran: Strategic partners or competitors?» Middle East Policy, 28(3), — P. 95-105.

18. Korybko, A. (2022). «Russia's Non-Western energy pivot: The Gulf and Beyond». Valdai discussion club report.

IJTIMOIY-MADANIY INTEGRATSIYALASHUV JARAYONLARINING KONSEPTUAL ASOSLARI

Kozim QAYUMOV
TDSHU, Xalqaro reytinglar bilan ishlash
bo'limi bosh mutaxassisi,
Ilmiy rahbar: PhD, S. Bo'ronov

Annotatsiya: Mazkur maqolada integratsiyaning madaniy va ijtimoiy jihatlari tahlil qilinadi hamda ushbu jarayonni tushuntirishda foydalanilgan asosiy nazariyalar va yondashuvlar yoritiladi. Maqolada Yevropa Ittifoqi integratsiyasi tajribasi asos sifatida ko'rsatilib, madaniyatlararo muloqot va akkulturatsiya kabi ijtimoiy jarayonlar integratsiyani chuqurlashtirishda muhim rol o'ynashi bayon etiladi. Bundan tashqari, Markaziy Osiyo mintaqasida nazariy jihatdan barcha resurslar mavjud ekanligi, jumladan, umumiy til, din, tarixiy tajriba va siyosiy yaqinlik asosida integratsiyani jadallashtirish uchun zarur shart-sharoitlar mavjudligi ko'rsatib beriladi.

Kalit so'zlar: Integratsiya, neofunksionalizm, hukumatlararo yondashuv, funksionalizm, spillover effekti, ijtimoiy konstruktivizm, madaniy plyuralizm, akkulturatsiya.

Integratsiya murakkab va ko'p qirrali jarayon bo'lib, u birinchi navbatda iqtisodiy yoki siyosiy sabablar tufayli emas, balki madaniy, ijtimoiy hamda

g‘oyaviy asoslar orqali shakllanadi va rivojlanadi. Yevropa Ittifoqining tarixiy tajribalari shuni ko‘rsatadiki, integratsiya faqatgina moddiy manfaatlar asosida emas, balki umumiy qadriyatlar, o‘zaro hurmat va hamkorlikka tayangan holda amalga oshiriladi.

Integratsiyaning konseptual asoslaridan kelib chiqqan holda shuni ham ta’kidlash mumkinki, Markaziy Osiyoda integratsiyalashuv jarayonlarini jadallashtirish uchun barcha shart-sharoitlar mavjuddir. Umumiy til (aholining katta qismini turkiy tilda so‘zlashuvchilar tashkil etishi[1] va rus tilini tushunishi[2]), din (islom diniga e’tiqod qiluvchilarning ko‘p ekanligi[3]), tarix (SSSR tarkibida bo‘lganligi[4]) va siyosiy qarashlar (ShHT, MDH va KXShT doirasidagi hamkorliklar) mintaqaviy integratsiyani yo‘lga qo‘yish uchun ochadi. Markaziy Osiyoda integratsion jarayonlarni boshlashda OTMlar ham katta rol o‘ynashi hamda spillover effektini[5] (hamkorlikning bir sohadan boshqasiga o‘tishi) boshlab berishi mumkin. Masalan, mintaqa mamlakatlaridagi oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida yo‘l xaritalarini imzolash, turli ilmiy konferensiyalar, professor-o‘qituvchilar va talabalarning akademik almashinuv dasturlarini yo‘lga qo‘yish orqali jamiyatlar bir-birini tushunish va ko‘proq muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Bu jarayonlarning boshlanayotganini esa O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitidagi nutqida ham ko‘rish mumkin. Unda Prezident Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan ilmiy-ta’lim hamkorligini kengaytirish uchun O‘zbekistonda “Ufq – Yevropa” dasturi ofisini ochishga tayyor ekanligini, bunda tashqari, sun’iy intellekt, ma’lumotlar “katta bazalari”, raqamlashtirish, kosmik tadqiqotlar sohasida ilmiy va texnologik almashuvlar bo‘yicha qo‘shma dasturni ishlab chiqishni taklif etdi. Prezident, shuningdek, O‘zbekiston mintaqa mamlakatlarini raqamli ta’lim sohasida Yevropa harakatlar dasturiga qo‘shish, Markaziy Osiyo va Yevropa Ittifoqi mamlakatlari yetakchi universitetlari o‘rtasida sheriklik borasida “Yo‘l xaritasi”ni amalga oshirish bo‘yicha tashabbuslarni ilgari surishiga urg‘u berdi[6]. Bunday sa’y-harakatlar mintaqadagi

---

[1] Zoya Proshina — Russian and Turkic languages in Central Asia, 2016 // https://www.cambridge.org/core/books/abs/communicating-with-asia/russian-and-turkic-languages-in-central-asia/D6537B03A7F97DF870BBDF21A2536A02

[2] K. Aminov, V. Jensen, S. Juraev, I. Overland, D. Tyan, Y. Uulu — Language Use and Language Policy in Central Asia, 2010 // https://www.researchgate.net/publication/316365754_Language_Use_and_Language_Policy_in_Central_Asia

[3] S. Xolxo‘jayev — Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida islom omilini o‘rganishning muammolari va istiqbollar, 174 b. // file:///C:/Users/Admin/Downloads/Xolxo%E2%80%98Jayev+Saidkomil+Muhammadkarimovich.pdf

[4] Sheila M. Puffer, D. Mccarthy — History of the USSR and CIS, p. 3 // https://www.researchgate.net/publication/330837890_History_of_the_USSR_and_CIS

[5] https://www.civitas.org.uk/content/files/OS.16-Theories.pdf

[6] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitidagi nutqi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari, 04.04.2025 // https://president.uz/uz/lists/view/8023

integratsiyani barqaror, inklyuziv va uzoq muddatli jarayonga aylantirish mumkin.

Olimlar tomonidan integratsiyaning turli, ya'ni iqtisodiy, siyosiy shakllari atroflicha o'rganilgan va bu yo'nalishda ko'plab ilmiy ishlar qilingan. "Ammo integratsiyaning paydo bo'lishida hamda uning rivoj topishida madaniy va ijtimoiy jihatlari nisbatan e'tiborsiz qoldirilgan"[1]. Integratsiyani o'rganishda avvalo so'zning etimologiyasiga nazar tashlash lozim. "Ta'kidlash lozimki, "integratsiya" tushunchasining lotincha integrare — butunga aylantirish, "integer" — butun "integratio" — tiklash, yaxlit narsani to'ldirish ma'nosini anglatadi. "Integratsiya" tushunchasi quyidagicha ifodalanishi mumkin — bu jamiyat, davlat tuzilmalarining davlat doirasida yoki kengroq davlatlararo jamoaga birlashishi, qo'shilishidir"[2].

Integratsion jarayonlarni o'rganishda bir qancha ilmiy nazariyalar mavjud. Masalan, Ernst Haas[3], Leon Lindberg va Filipp Shmitter tomonidan 1950-1960-yillarda Yevropa ko'mir va po'lat birlashmasi hamda Yevropa hamjamiyati tashkil etilishiga javoban ishlab chiqilgan neofunksionalizm nazariyasi[4]. Yoxannes Gutenberg nomidagi Maynts universiteti professori Arne Niemann integratsiya, xususan, neofunksionalizm nazariyasini quyidagicha tushuntiradi:

Birinchidan, integratsiya vaqt o'tishi bilan rivojlanishga moyil bo'lgan va o'z dinamikasini shakllantira oladigan jarayondir.

Ikkinchidan, integratsiya aktorlar tomonidan amalga oshirilishiga qaramasdan, ularning qarorlari hamkorlikda qabul qilingan kelishuvlar orqali shakllangan o'zaro tajriba asosida yuzaga keladi. Neofunksionalistlar hukumatlararo yondashuv tarafdorlarining (inglizcha — intergovernmentalist) qarashlarini tanqid ostiga oladilar. Mazkur yondashuvning asosiy jihati shundan iboratki, qarorlar barcha davlatlarning roziligi bilan va o'z milliy manfaatlaridan kelib chiqib qabul qilinishi lozim. Yondashuv tarafdorlaridan biri Alan Milvardning ta'kidlashicha, Yevropa integratsiyasi davlatlarning milliy suverenitetni zaiflashtirmadi, aksincha yanada mustahkamladi[5]. E. Haas esa agar bir davlat xalqaro tashkilotga yoki hamjamiyatga qo'shilsa, bu uning milliy manfaatlarini o'zgartiradi deb hisoblaydi. Ya'ni, manfaatdor guruhlar va

[1] Mehlika Ozlem Ultan — European cultural integration: Theories and Practices, International Journal of Culture and History, Vol 2, No. 4, December 2016, p. 146.

[2] M.Muhammadsiddiqov — Integratsiya tushunchasi — mazmun va mohiyati, "Murabbiy" ilmiy-ma'rifiy jurnali, 2021, B. 69 // https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/science/article/view/1131/722

[3] Ernst Bernard Haas 1924-2003-yillarda yashagan hamda siyosatshunoslik sohasida yetakchi olimlardan biri bo'lgan va mintaqaviy integratsiya bo'yicha yetakchi nazariya — neofunksionalizm asoschisi hisoblanadi. Haasning nazariy ishlari xalqaro integratsiya tushunchalari va jarayonlariga bag'ishlangan. Uning dastlabki asarlaridan biri "Yevropaning birlashuvi" (1958, 2003-yilda qayta nashr qilingan) va "Millat — davlatdan tashqarida" (1964) hisoblanadi. Uning so'nggi ishlari qatorida "Millatchilik, liberalizm va taraqqiyot" nomli ikki jildli tadqiqoti ham o'rin olgan.

[4] Arne Niemann — Neofunctionalism, 2017, Oxford University Press // https://doi.org/10.1093/acrefore/9780190228637.013.149

[5] https://www.civitas.org.uk/content/files/OS.16-Theories.pdf

hukumatlar endi faqat ichki omillarga emas, balki hamjamiyatning umumiy qoidalari, me'yorlari va qadriyatlar tizimiga qarab o'z milliy manfaatlarini belgilaydilar. Shu sababli, davlatlar o'zaro integratsiyaga kirishganda, bu milliy manfaatlar o'zgarishiga va ularning hamjamiyat doirasida qayta shakllanishiga ishonadilar.

Uchinchidan, mintaqaviy integratsiya turli va doimiy o'zgarib turuvchi ko'p sonli aktorlar tomonidan amalga oshiriladi. Bu aktorlar faqat ichki siyosiy maydon bilan cheklanib qolmay, balki transmilliy darajada ham faoliyat yuritish va hamkorlik qilish imkoniyatiga ega.

To'rtinchidan, neofunksionalistlar hamjamiyatni asosan "elitalar mahsuli" deb hisoblaydilar. Haas o'z ishlarida nodavlat elitalarning roliga e'tibor qaratgan bo'lsa, Lindberg asosan hukumat elitalari bilan shug'ullangan. Ularning hech biri jamoatchilik fikriga katta ahamiyat bermagan. Lindberg va Shengold fikricha, Yevropa integratsiyasi jarayoni davom etishi uchun jamoatchilikning faol qo'llab-quvvatlashi shart emas. Agar insonlar ochiq norozilik bildirmasalar yoki qarshilik qilmasalar, bu "xalq rozi" degan ma'noda qabul qilinadi va siyosiy jarayonlar elitalar tomonidan davom ettirilaveradi. Neofunksionalistlar nazariyasiga ko'ra, integratsiya jarayonini siyosiy va iqtisodiy elitalar boshqaradi, shuning uchun jamoatchilik fikri ikkinchi darajali hisoblanadi.

Beshinchidan, neofunksionalistlar fikriga ko'ra, mintaqaviy integratsiya bir zumda yoki katta rejalar orqali emas, balki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Shuning uchun, davlatlar va tashkilotlar avval kichik o'zgarishlar qilib, keyin ularni kengaytirib boradilar. Chunki ularda har doim to'liq va mukammal ma'lumotga ega bo'lavermaydilar. Shu sababli, uzoq muddatli strategiyalarni oldindan aniq belgilash deyarli imkonsiz. Buning o'rniga, mavjud sharoit va imkoniyatlarga qarab qisqa muddatli qarorlar qabul qiladi.

Oltinchidan, integratsiya jarayonida faqat bir tomon yutib, boshqasi yutqazmaydi, aksincha, barcha ishtirokchilar birdek manfaat ko'rishi mumkin. Chunki, qarorlar faqat milliy hukumatlar darajasida emas, balki millatlararo yoki umumiy mintaqaviy tashkilotlar orqali qabul qilinadi. Ya'ni, davlatlar o'z manfaatlarini umumiy institutlar orqali muvofiqlashtiradi. Masalan, Yevropa Ittifoqi qonunlari Yevropa Komissiyasi va Parlamentida qabul qilinadi, bu milliy hukumatlarning emas, balki butun Ittifoq manfaatlarini hisobga olishga majbur qiladi[1]. Davlatlar o'z milliy manfaatlarini saqlab qolish bilan birga, umumiy mintaqaviy manfaatlarni ham inobatga olishi kerak.

Funksionalizmda integratsiya tabiiy va texnik jarayon sifatida ko'riladi. Shuning uchun funksionalizm, ayniqsa, materialistlarni o'ziga tortadigan nazariya sifatida ko'riladi[2]. Neofunksionalizm nazariyasiga ko'ra, integratsiya muayyan yo'nalish orqali boshlanib, undan so'ng siyosiy va boshqa yo'nalishlar tomon harakatlanadi (spillover effekti). Endi hukumatdan tashqari, millatlararo

[1] https://commission.europa.eu/law/law-making-process/adopting-eu-law_en
[2] https://plato.stanford.edu/entries/functionalism/

institutlar kabi boshqa aktorlarning, masalan Yevropa Parlamenti, ham bosqichma-bosqich qarorlar qabul qilishdagi roli ortadi[1].

Integratsiyalashuvning eng yorqin misoli bu Yevropa Ittifoqi hisoblanadi. Ittifoqdagi integratsiyaning shakllanishini esa ijtimoiy konstruktivizm yondashuvi orqali tushuntirish mumkin. Yondashuv haqidagi konstruktivist Aleksander Vendtning qarashlariga koʻra, ijtimoiy konstruktivizm – bu maʼlum bir vaqt va makonda maʼlum insonlar tomonidan shakllantirilgan fikrlar va meʼyorlar majmuasidir. Agar xalqaro munosabatlarning mavjudligiga taʼsir qiluvchi fikrlar va gʻoyalar oʻzgarsa, tizimning oʻzi ham oʻzgaradi, chunki tizim aynan shu fikrlar va gʻoyalardan iborat boʻladi[2]. Vendtning fikricha, xalqaro munosabatlarni faqat kuch va davlatlar harakatga keltirishini ilgari suruvchi realizm yoki liberalizm gʻoyalaridan farqli ravishda, konstruktivizm xalqaro munosabatlarni normalar, qonun va qoidalar asosida tushuntiradi. Misol uchun, inson huquqlari toʻgʻrisidagi xalqaro qonunlar faqatgina harbiy yoki iqtisodiy sabablar tufayli emas, davlatlar buni muhim deb bilganlari uchun mavjud. Konstruktivistlar xalqaro munosabatlarda hech narsa abadiy emasligi, tizim doimo davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro taʼsir va qadriyatlar orqali yangilanib borishiga ishonadilar[3].

Albatta, integratsiyaning rivoj topishida II Jahon urushidan keyin shakllangan umumiy gʻoyalar va qadriyatlarning ham ajralmas roli va taʼsiri mavjud. Masalan, konstruktivistlarning voqelikni moddiy omillar (masalan, harbiy yoki iqtisodiy qudrat) emas, balki oʻzaro ijtimoiy taʼsirlar, normalar va qarashlar shakllantirishiga ishonishi[4] madaniy plyuralizm, yaʼni turli madaniyatlarning bir jamiyat ichida oʻziga xosligini saqlagan holda tinch-totuv yashashiga[5] hamda turli madaniyat vakillari oʻrtasida oʻzaro bir-birini tushunishni chuqurlashtirish va hamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan fikr almashish jarayoni sanaluvchi madaniyatlararo muloqotni rivoj topishiga olib kelgan. Bu esa oʻz navbatida boshqa bir tabiiy jarayon — akkulturatsiya, yaʼni shaxs yoki guruhning boshqa madaniyat bilan uzoq muddatli aloqalar natijasida ularning ayrim jihatlarini qabul qilishga undadi. Bunga misol tariqasida Yaponiya imperatori Meijining taʼlim islohotlarini keltirish mumkin. Imperatorning 1897-1912-yillardagi boshqaruvi vaqtida fransuz huquqi Hosei va Meiji universitetlarida, ingliz huquqi Chuo universitetida, AQSH huquqi Senshu

---

[1] https://sites.google.com/site/thepoliticsteacherorg/home/federalism-functionalism-and-neo-functionalism

[2] R.Jackson, G.Sorenson — Introduction to International Relations: Theories and Approaches, Oxford, 2013, P. 209 // https://www.kharagpurcollege.ac.in/studyMaterial/231813Introduction-to-International-Relations-Theories-and-Approaches-by-Robert-Jackson-Georg-S%C3%B8rensen-z-lib.org.pdf

[3] Mehlika Ozlem Ultan — European cultural integration: Theories and Practices, International Journal of Culture and History, Vol 2, No. 4, December 2016, p. 147.

[4] E.Lombardo and J.Kantola — Social constructivism // https://ebrary.net/140360/political_science/social_constructivism?

[5] https://oxford-review.com/the-oxford-review-dei-diversity-equity-and-inclusion-dictionary/cultural-pluralism-definition-and-explanation/

universitetida, fransuz va AQSH huquqlari Tokyo universitetlarida o‘qitildi. Shuningdek, chet ellik mutaxassislar huquqiy maslahatchi yoki universitet ma’ruzachisi sifatida mamlakatga taklif etildi. Eng iqtidorli talabalar Fransiya, Germaniya, Buyuk Britaniya va AQSHning ilg‘or universitetlariga yuborildi[1]. Meiji davridagi ta’lim islohotlari Yaponiyaning zamonaviy davlat sifatida shakllanishiga katta hissa qo‘shdi. G‘arb texnologiyalari va bilimlarini o‘zlashtirgan holda, Yaponiyada kuchli ta’lim tizimi yaratildi. Bu esa mamlakatning sanoat, ilm-fan va texnologiyalar sohalarida jadal rivojlanishini ta’minladi[2].

Yuqoridagi nazariy yondashuvlardan kelib chiqib shunday xulosaga kelish mumkinki, mintaqaviy integratsiyaga asos bo‘lib xizmat qiluvchi omil bu xalqlarning o‘zaro yaqinlashuvidir. Agarda xalqlar bir-birini tushunsalar va yagona qadriyatlar tizimiga ega bo‘lishga harakat qilsalar, bu keyinchalik siyosat va iqtisodiyotda ham o‘z aksini albatta ko‘rsatadi. Shu sababli, integratsiyalashuvga hukumatlar emas, balki xalqlar tomonidan asos solinishi, bunda hukumatlarning o‘rni, shunchaki, hamkorlikni yo‘lga qo‘yish, ya’ni vositachilik, bo‘lishi lozim. Shu bois, integratsiyani chuqur anglash va uni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun har bir jamiyat nafaqat siyosiy va iqtisodiy, balki madaniy va ijtimoiy omillarni ham chuqur tahlil qilishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Zoya Proshina — Russian and Turkic languages in Central Asia, 2016
2. K. Aminov, V. Jensen, S. Juraev, I. Overland, D. Tyan, Y. Uulu — Language Use and Language Policy in Central Asia, 2010
3. S. Xolxo‘jayev — Markaziy Osiyo davlatlarining ijtimoiy-siyosiy jarayonlarida islom omilini o‘rganishning muammolari va istiqbollar
4. Sheila M. Puffer, D. Mccarthy — History of the USSR and CIS, 28 p.
5. https://www.civitas.org.uk/content/files/OS.16-Theories.pdf
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “Markaziy Osiyo – Yevropa Ittifoqi” birinchi sammitidagi nutqi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti ma’lumotlari, 04.04.2025
7. Mehlika Ozlem Ultan — European cultural integration: Theories and Practices, International Journal of Culture and History, Vol 2, No. 4, December 2016
8. M.Muhammadsiddiqov — Integratsiya tushunchasi — mazmun va mohiyati, “Murabbiy” ilmiy-ma’rifiy jurnali, 2021, 81 b.
9. https://www.europarl.europa.eu/100books/en/detail/38/the-uniting-of-europe-political-social-and-economical-forces-1950-1957
10. Arne Niemann — Neofunctionalism, 2017, Oxford University Press

[1] https://uza.uz/oz/posts/yaponiya-meyji-davri-tarjimashunosligining-o-zbekiston-uchun-12-11-2019

[2] Rustam Mamajonov — Meydzi davri ta’lim islohotlari: yaponiya taraqqiyotining poydevori, Volume 2, Issue 9, Oktyabr 2024, B.79 // https://zenodo.org/records/13900839

11. https://commission.europa.eu/law/law-making-process/adopting-eu-law_en
12. https://plato.stanford.edu/entries/functionalism/
13. https://sites.google.com/site/thepoliticsteacherorg/home/federalism-functionalism-and-neo-functionalism
14. R.Jackson, G.Sorenson — Introduction to International Relations: Theories and Approaches, Oxford, 2013, 348 p.
15. E.Lombardo and J.Kantola — Social constructivism
16. https://oxford-review.com/the-oxford-review-dei-diversity-equity-and-inclusion-dictionary/cultural-pluralism-definition-and-explanation/
17. https://uza.uz/oz/posts/yaponiya-meyji-davri-tarjimashunosligining-o-zbekiston-uchun-12-11-2019
18. Rustam Mamajonov — Meydzi davri ta'lim islohotlari: Yaponiya taraqqiyotining poydevori, Oktyabr 2024,

JAHON IQTISODIYOTIDA TRANSPORT TIZIMINING O‘RNI

Shamshodbek UNAROV
TDSHU, Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti
Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik yo‘nalishi
3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Katta o‘qituvchi N. Imamova

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada transport tizimining jahon iqtisodiyotiga qo‘shayotgan hissasi va o‘zining o‘rni qay darajada mustahkam ekanligi tahlil qilinadi.Shuningdek, Transport tizimining O‘zbekistonda rivojlanishi va uning imkoniyatlari tahlil qilingan. Bundan tashqari, transport tizimining turlari bo‘yicha rivojlanishi va ularning har birini iqtisodiyotda egallagan o‘rni keltirilgan.

Kalit so‘zlar: global transport, quruqlik transporti, havo transporti, suv transporti, transport koridorlari, ekologik muammo.

Transport sohasi jahon iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismidan biri hisoblanadi, u davlatlar o‘rtasidagi insonlar, tovar va xizmatlarni moddiy tashuvchi zanjir sanaladi. Transport tizimisiz davlatlarning ixtisoslashuvi va har tomonlama rivojlanishini yo‘lga qo‘yish mushkul masaladir. Transport omili ishlab chiqarishni joylashtirishga ta’sir qiladi, uni hisobga olmasdan ishlab chiqaruvchi kuchlarni oqilona joylashtirishga erishish qiyin.

Transport tizimining ahamiyati, uning rivojlanishga ta’siri haqida bir qancha olimlar tadqiqotlar olib borganlar, jumladan, David J.C. MacKay transport tizimiga shunday ta’rif beradi: “Transport tizimi — bu insonlar va yuklarni bir joydan boshqa joyga yetkazib berish jarayoni. U ko‘pincha resurslarni samarali

va tejamkor ishlatish, xavfsizlikni ta’minlash va ekologik ta’sirni kamaytirish kabi omillarni o‘z ichiga oladi[1]”.

J.Rodrigue esa, quyidagicha ta’rif beradi: “Transport tizimi — bu harakat vositalari, infratuzilma va operatsion jarayonlarning birikmasi bo‘lib, uning asosiy vazifasi makoniy o‘zgarishlarni ta’minlash va transport xizmatlarini ko‘rsatishdir[2]”.

Bir so‘z bilan aytganda, transport tizimi — insonlar va yuklarni ma’lum joyga tez, xavfsiz va kerakli miqdorda yetkazib, bu orqali iqtisodiy va ijtimoiy tomondan rivojlantirilib, iqtisodiy samaradorlik bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan mexanizmdir.

Zamonaviy transport tarmoqlari rivojlangan davlatlarga mahsulotlarni tez va arzon narxda yetkazib berish imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligini oshiradi. Xalqaro iqtisodiy aloqalarni amalga oshirishda transport ikki yoki undan ortiq mamlakatlar o‘rtasida, ya’ni xalqaro aloqalarda yuk (yuk) va insonlar (yo‘lovchilar) harakatini ta’minlaydi. Transportda qo‘llaniladigan o‘ziga xos transport turlariga qarab dengiz, daryo, havo, temir yo‘l, avtomobil va quvur kommunikatsiyalari farqlanadi. Bular bir transport turi orqali xizmat ko‘rsatadigan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xalqaro aloqalardir.

Jahonda transport tizimining 4 ta asosiy shakli mavjud:

1. Quruqlik
2. Havo
3. Quvur
4. Suv

Havo transporti yagona tezkor global transport tarmog‘i bo‘lib, u xalqaro biznes va turizm uchun ajralmas qismi hisoblanadi. Bu, ayniqsa, rivojlanayotgan mamlakatlarda iqtisodiy o‘sish va farovonlikni ta’minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi va tovarlar, boylik va bandlikni global taqsimlash uchun juda muhimdir. Havo transporti iqtisodiy o‘sish va rivojlanishga erishishning muhim omilidir. Havo transporti jahon iqtisodiyotiga integratsiyani osonlashtiradi va milliy, mintaqaviy va xalqaro miqyosda hayotiy aloqalarni ta’minlaydi. Bu savdo-sotiqni rivojlantirish, turizmni rivojlantirish va bandlik imkoniyatlarini yaratishga yordam beradi. Jahon banki 60 yildan ortiq vaqt davomida aviatsiyaga oid loyihalarni moliyalashtirib keladi. Bugungi kunda Jahon banki har bir mintaqada havo transporti siyosati va tartibga solish, xavfsizlik, infratuzilmani qayta tiklash, institutsional mustahkamlash va salohiyatni oshirish bilan bog‘liq loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Global aviakompaniyalar 2023 yilda rentabellikka qaytdi va soliqdan keyingi umumiy sof foyda 27,4 milliard dollarni va operatsion foyda marjasi 5,7 foizni tashkil etdi. Bu natija 2022 yilda 6,9 milliard AQSh dollar, 2021 yilda 42,0 milliard AQSh dollar va 137,7 milliard AQSh dollar yo‘qotishdan keyin 2020 yil, ayniqsa 2023 yilda davom etayotgan ko‘plab muammolar, jumladan, urushlar hisobga olinsa, neft narxining o‘zgaruvchanligi, yuqori foiz

[1] D.J.C. MacKay. “Sustainable Energy — Without the Hot Air” 18-bob
[2] J. Rodrigue. “The Geography of Transport System” 5-nashr 1-bob

stavkalari, ba’zi hollarda transport cheklovlarining davom etishi hududlar va kadrlar etishmasligi soyasida juda yaxshi natija hisoblanadi[1].

1980-yilda O‘zbekiston havo transporti havo yo‘llarining uzunligi 155 ming km dan ortiq bo‘ldi (shu jumladan, mahalliy havo yo‘llari uzunligi 60,1 ming kilometrni tashkil etdi). 1992-yil 28-yanvarda O‘zbekiston Fuqaro aviatsiyasi negizida “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi tashkil etildi. “O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi muntazam holda 20 ta xalqaro reyslarni amalga oshiradi. Yevropa, Amerika, Janubi-Sharqiy Osiyo, MDH davlatlari shaharlarida uning 44 ta vakolatxonalari ochilgan. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasi hukumati yordamida aviatsiya tarmog‘iga 1 mlrd. 200 mln. AQSh dollari miqdorida investitsiya kiritildi va rivojlangan zamonaviy infratuzilma barpo etildi[2].

Suv transporti — odamlarni, yuklarni va hokazolarni, qayiq, kema yoki yelkanli qayiqda dengiz, okean, ko‘l, kanal, daryo va boshqalar orqali olib o‘tish jarayoni. Ushbu turkumga suvni iste’mol qilish maqsadida suv tashishga oid moddalar kirmaydi. Okeanlar va suv yo‘llari butun dunyo bo‘ylab sayohatlar va yuk kemalari uchun muhim transport yo‘llari hisoblanadi. Jahon tovar ayirboshlash nuqtai nazaridan, so‘nggi 20 yil ichida dengiz savdosi hajmi deyarli ikki baravar ko‘payib, 11 milliard tonna yuk tashilgan. O‘sish tendensiyasi konteynerli savdoning paydo bo‘lishi va konteyner portlari o‘rtasidagi ta’minot zanjirlarining global miqyosda tartibga solinishi bilan bog‘liq. Osiyoda dunyodagi yetakchi konteyner portlari joylashgan: Shanxay va Singapur. 2023 yilga kelib, portlarda konteyner tashish hajmi butun dunyo bo‘ylab taxminan 12,04 million tonnaga yetishgani ma’lum qilingan[3].

Transport tizimida eng xavfsiz va qulay transport bu suv transporti hisoblanadi. Bunga bir necha omillar mavjud: nisbatan arzon, katta yuklarni tashish imkoniyati kengligi, to‘siqlarning kamligi, yagona huquqiy asoslar mavjudligi.

Shuningdek, transport orqali nafaqat tovar-mahsulotlar, balki insonlarni ham bir joydan ikkinchi joyga tashish uchun ham keng foydalaniladi va bu orqali iqtisodiyotga katta ta’siri bo‘lgan asosiy ishchi kuchlarini yoki turistlarni va shunga o‘xshash global iqtisodiyotga katta hissa qo‘sha oladigan resurslarni ham tashishda muhim vosita hisoblanadi.

Yuqorida aytilganidek, transport ishchilarga o‘zlaridan uzoqda joylashgan ish joylariga ham yetib borishiga yordam beradi. So‘nggi vaqtlarda, transport tufayli, ishlab chiqaruvchilar yirik bozorlarga ham chiqish imkonini yaratmoqdalar. Bu katta miqdordagi tovar-mahsulotlarning dunyo bo‘yicha keng tarqalishiga o‘z hissasini qo‘shadi. O‘z-o‘zidan transport yo‘nalishlarining rivojlanganligi eksport va import hajmini oshirishga imkon beradi, bu esa davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy bog‘liqlikni sezilarli ravishda kuchaytiradi.

---

[1] https://www.worldbank.org/en/topic/transport/brief/airtransport “Air transport”

[2] https://mintrans.uz/havo-transporti “Havo transporti”

[3] https://www.statista.com/markets/419/topic/489/water-transport/#overview “Water Transport”

Samarali transport tizimi global ta’minot zanjiri uchun muhim ahamiyatga ega. Masalan, zavodlar uchun xomashyo yetkazib berishdan tortib, tayyor mahsulotlarni iste’molchilarga yetkazib berishga qadar bo‘lgan barcha jarayonlarni transportga bog‘lash mumkin. Bu orqali logistika xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi.

Quvurlar transporti gazni quvurlar tarmog‘i orqali, hisoblagichlar, klapanlar, kompressorlar va xavfsizlik moslamalari kabi turli asbob-uskunalar va asboblardan foydalangan holda tashishni anglatadi. Bu butun dunyo bo‘ylab gaz tashish uchun eng qadimgi va eng ko‘p qo‘llaniladigan texnologiya hisoblanadi. Global quvur transporti bozori 2023-yilda 20,57 milliard AQSh dollarga baholandi va 2024-yildagi 21,48 milliard AQSh dollardan 2032-yilga kelib 34,38 milliard AQSh dollargacha o‘sishi prognoz qilinmoqda, bu prognoz davrida CAGR 5,43 foizni tashkil etadi. Shimoliy Amerika 2023 yilda 43,32 foiz ulush bilan jahon bozorida hukmronlik qildi[1].

Avtomobil transporti deganda, umumiy foydalanishdagi avtomobil yo‘llarida yuk yoki yo‘lovchilar harakati tushuniladi. Bu, ayniqsa, qisqa masofalarga tarqatishning eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, yetkazib berish uchun bajarilish vaqtini ko‘proq nazorat qilish imkonini beradi.

Shuningdek, transport tizimining rivojlanishi bilan birgalikda global tarzda global ekologiyaga ham o‘z ta’sirini o‘tkizib kelmoqda. Misol uchun, yuqorida aytib o‘tilgan eng xavfsiz va qulay bo‘lgan suv transporti orqali dengiz va okean suvlariga yoqilg‘i to‘kilishi va neft chiqindilari suv havzalarini sezilarli tarzda ifloslantirishi dengiz ekotizimiga zarar yetkizadi, shaharlar ichidagi transport havo sifatini yomonlashtirishi turli kasalliklar keltirib chiqishiga sabab bo‘ladi.

Bu esa, global iqtisodiyotda xalqaro moliya tashkilotlari yoki davlatlardan ekologik muammolarga qo‘shimcha mablag‘ ajratishga, bu esa, o‘z navbatida global iqtisodiyotiga qo‘shimcha bosim olib kelishiga olib keladi. Shuningdek, transport vositalari uchun yoqilg‘i qazib olish va ishlab chiqarish jarayonlari tabiiy resurslarni tugatishi mumkin.

Bu kabi muammolarni oldini olish uchun yashil transport texnologiyalarni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri. Elektr transport vositalari, gibrid avtomobillar va qayta tiklanuvchi energiya manbalardan foydalanish transportning ekologik ta’sirini yetarli darajada kamaytirishga olib keladi.

Transport tizimi jahon iqtisodiyoti va mintaqalar o‘rtasidagi aloqalarni ta’minlovchi muhim element bo‘lsa-da, uning rivojlanishida bir qator mintaqaviy va global muammolar mavjud.

Ko‘plab rivojlanayotgan davlatlarda transport infratuzilmasi yetarli darajada rivojlanmagan. Yo‘llarning sifati pastligi, temir yo‘l va portlarning cheklangan imkoniyatlari iqtisodiy o‘sishga to‘sqinlik qiladi. Masalan, Afrika mintaqasida transport tarmoqlarining rivojlanmaganligi ichki va xalqaro savdoni sekinlashtiradi.

---

[1] https://www.fortunebusinessinsights.com/pipeline-transportation-market-106319 “OIL&GAS / Pipeline transport”

Shuningdek, yana bir muammo bu transportda iqtisodiy tengsizlikning mavjudligi. Rivojlangan davlatlar yuqori tezlikdagi poyezdlar va avtomatlashtirilgan transport tizimlarini joriy qilayotgan bir paytda kambag‘al davlatlarda asosiy infratuzilma hali ham yetarli darajada emas. Bu xalqaro raqobatda katta farqni yuzaga keltirib chiqaradi.

Buni oldini olish uchun esa, jahon banki va boshqa qator xalqaro moliyaviy tashkilotlar yordam berishga harakat qilishsa-da, lekin barcha hududlarni qamrab olish imkoni hali ham qiyin bo‘lmoqda.

Transport tizimining rivojlanishi nafaqat jahon iqtisodiyotida balki, ekologiya va ijtimoiy hayotga bevosita ta’sir qiladi. Avtomobillarni elektr transportiga almashtirish, qayta tiklanuvchi energiyalardan yetarli darajada foydalanish, masalan, so‘nggi yillarda quyosh energiyasi bilan ishlaydigan samolyotlar va kemalar sinovdan o‘tkizilmoqda. Bundan tashqari, vodorod yoqilg‘isi transport vositalari uchun barqaror energiya manbai sifatida ko‘rilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Osiyo mintaqasida muhim transport-kommunikatsiya kompleksini rivojlantirish va xalqaro tranzit tizimiga samarali integratsiyalashuvini ta’minlovchi muhim geostrategik mavqega ega.

Temir yo‘l transporti sohasida mavjud koridorlar hozirgi vaqtda O‘zbekistonning eksport yuklarini xalqaro bozorlarga etkazib berish 7 ta yirik temir yo‘l koridorlari orqali amalga oshiriladi[1].

1. Afg‘oniston (Mozori-Sharif), G‘alaba (Surxondaryo viloyati) hukumatlararo ulash nuqtasi orqali.
2. Xitoy Xalq Respublikasi yo‘nalishi.
3. Uzoq Sharq rus porti Nakhodka yo‘nalishi
4. Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari va Xitoyning Sharqiy portlari, Qozog‘iston orqali — Oltinkol / Xorgos orqali Xitoy chegarasi orqali.
5. TRASEKA (Turkmaniston, Qozog‘iston va Ozarbayjon orqali tranzit) Qora dengiz Poti va Batumi portlariga Transkavkaziya yo‘lagi.
6. Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga (Qozog‘iston va Rossiyaga tranzit orqali) Chop (Ukraina) va Brest (Belorussiya) chegara punktlari orqali.
7. Qozog‘iston va Rossiya orqali Il’chevsk (Ukraina) va Novorossiysk (Rossiya) portlariga o‘tish Il’ichevsk porti (Ukraina).

Yevropa Ittifoqi hududidan o‘tuvchi xalqaro transport koridorlari ko‘rib chiqilib, O‘zbekiston dunyodagi kamida ikki davlat tomonidan okeanlardan ajralib turadigan ikki mamlakatdan biri hisoblanadi. Shu munosabat bilan xalqaro transport koridorlarini rivojlantirish O‘zbekiston uchun alohida ahamiyatga ega. Mustaqillikka erishgunga qadar, O‘zbekiston o‘zining tashqi iqtisodiy aloqalarini uchta dengiz portlari orqali amalga oshirishi mumkin edi — Ilichevskda (Qora dengizga chiqish yo‘li bilan), Sankt Peterburgda (Boltiq dengiziga chiqish yo‘li bilan) va Vladivostokda (Uzoq Sharq portlariga kirish imkoni bilan) ularga to‘g‘ri

[1] https://mintrans.uz/useful-articles/o-zbekiston-respublikasining-xalqaro-transport-yo-laklari “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro transport yo‘laklari

keladigan masofalar bilan respublikadan 3000, 4300 va 8000 km masofada bo‘lib, bu yuklarni tashish narxini ancha oshiradi.

Transport tizimini O‘zbekistonda 2024-yil yanvar-dekabr holatiga ko‘ra, o‘tgan yilga nisbatan 8,6 foizga o‘sish kuzatildi va umumiy miqdorda 145 124,4 milliard so‘m hajmga erishgan. Shu jumladan, avtotransport xizmatlari 72 604,7 milliard so‘mni tashkil etgan va o‘tgan yilga nisbatan 12,4 foiz o‘sish qayd etilgan[1]. Bularning asosiy sabablarida, so‘nggi yillarda eksport-import hajmining oshishi, yangi logistik yo‘llarning ishga tushirilishi va yangi xorijiy hamkorlarning O‘zbekiston bozoriga bo‘lgan savdosining o‘sishi bilan uzviy bog‘liq hisoblanadi.

Xulosa qilib quyidagilarni keltirish mumkin:

Transport tizimi jahon iqtisodiyotining ajralmas qismi bo‘lib, davlatlar o‘rtasidagi tovarlar, xizmatlar va insonlar harakatini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Samarali transport tarmoqlari xalqaro savdoni rivojlantiradi, raqobatbardoshlikni oshiradi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shadi. Ayniqsa, havo, suv, temir yo‘l va avtomobil transportining rivojlanishi xalqaro bozorlarni o‘zaro bog‘lashda, ishlab chiqarish va ta’minot zanjirlarini samarali boshqarishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, transport tizimining rivojlanishi ekologik muammolarga ham olib kelishi mumkin, bu esa global iqlim o‘zgarishiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistonning transport tarmog‘i rivojlanayotgan geografik o‘rni va xalqaro tranzit yo‘llariga qo‘shilish orqali iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytiradi. Mamlakatning 7 ta xalqaro transport koridori orqali yuklarni eksport-import qilish imkoniyatlarini oshiradi va uning xalqaro savdoda o‘rnini mustahkamlaydi. Xususan, bu koridorlar O‘zbekistonni nafaqat Markaziy Osiyo, balki Yevropa, Osiyo va Afrika bozorlariga ham bog‘laydi. Shuningdek, O‘zbekistonning tranzit imkoniyatlarini yaxshilash, eksport va import hajmini oshirish, mintaqaviy integratsiyani kuchaytirish hamda investitsiyalarni jalb qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Transport tizimi jahon iqtisodiyoti, ekologiya va ijtimoiy sohalarda katta ta’sirga ega. U iqtisodiy o‘sishga yordam beradi, savdoni rivojlantiradi va xalqaro aloqalarni mustahkamlaydi. Biroq, transport tizimi ekologik muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, masalan, havo va suvning ifloslanishi, yoqilg‘i chiqindilari va transportning energiya sarfi kabilar. Shuningdek, rivojlanmagan infratuzilma, iqtisodiy tengsizlik va transportda mavjud infratuzilma farqlari global raqobatni kuchaytiradi. Bu muammolarni hal qilish uchun yashil texnologiyalarni rivojlantirish, transport infratuzilmasini yanada yaxshilash va ijtimoiy tenglikni ta’minlash buning yechimlaridan biri. Samarali transport tizimi nafaqat iqtisodiy, balki ekologik va ijtimoiy barqarorlikni ta’minlashda muhim omil bo‘lib qoladi.

[1] O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari. T.: 2025 y.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.worldbank.org/en/topic/transport/brief/airtransport “Air transport”
2. D.J.C. MacKay. “Sustainable Energy — Without the Hot Air” 18-bob
3. https://mintrans.uz/havo-transporti “Havo transporti”
4. J.Rodrigue “The Geography of Transport System” 5-nashr 1-bob
5. https://www.fortunebusinessinsights.com/pipeline-transportation-market-106319 “OIL&GAS / Pipeline transport”
6. https://mintrans.uz/useful-articles/o-zbekiston-respublikasining-xalqaro-transport-yo-laklari “O‘zbekiston Respublikasining xalqaro transport yo‘laklari
7. https://www.statista.com/markets/419/topic/489/water-transport/#overview “Water Transport”
8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma’lumotlari. T.: 2025 y.

CHEBOLLAR: JANUBIY KOREYA IQTISODIY MODELINING KO‘RINMAS IMPERIYALARI

Shaxzoda KARIMQULOVA
Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S.Maxatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning iqtisodiy mo‘jizasini shakllantirgan asosiy kuch – chebollar batafsil tahlil qilingan. Shu bilan birga, maqolada Koreya hukumati tomonidan chebollarni tartibga solish va iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilgan islohotlar chuqur o‘rganilgan. Chebollar imperiyasining ijobiy va salbiy jihatlari keltirilib, Koreya iqtisodiy modelining ichki mexanizmlarini anglashga yordam beradigan muhim xulosalar berilgan.

Kalit so‘zlar: Chebol, Janubiy Koreya iqtisodiy modeli, konglomerat, iqtisodiy tengsizlik, innovatsiya, moliyaviy inqiroz, texnologik rivojlanish, iqtisodiy o‘sish, bandlik, investitsiya, davlat-sanoat hamkorligi, xususiylashtirish.

Janubiy Koreya mo‘jizaviy iqtisodiy taraqqiyoti ortida “chebollar” – yirik oilaviy konglomeratlar turadi. Ular mamlakatning sanoatlashuvi, eksport salohiyatini oshirish va global bozorga chiqishida asosiy rol o‘ynaydi. **Samsung, Hyundai, LG va SK** Group kabi kompaniyalar bugungi kunda xalqaro miqyosda yetakchilik qilmoqda. 2023-yil holatiga ko‘ra, **Samsung** Group **yillik daromadi 305 milliard AQSh dollarini** tashkil etdi va bu mamlakat YAIMining 15% dan ortig‘ini tashkil qiladi [1].

[1] Amsden, Alice H. (2001)

Biroq ularning iqtisodiyotdagi ta’siri ijtimoiy va siyosiy muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Chebollar kuchli monopolistik tuzilmalarga ega bo‘lib, kichik bizneslarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilishi va korrupsiya xavfini oshirishi mumkin[1]. Quyida chebollarnining rivojlanish bosqichlarini ko‘rib chiqamiz:

1940-1950-yillar: Ikkinchi Jahon Urushi va Koreya urushi (1950-1953) Janubiy Koreya iqtisodiyoti uchun qiyin davrni boshladi. Urushdan keyingi qiyinchiliklarga qarshi kurashish uchun Koreya hukumati o‘zining sanoat siyosatini chebollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratdi. Hukumatning yordamida, o‘sha davrda Koreyaning eng yirik oilaviy biznes guruhlari – masalan, Samsung(1938), Hyundai(1947), LG(1947) shakllanib, rivojlana boshladi[2].

1960-1980-yillar: Park Chung-xi davrida Koreya hukumati eksportga yo‘naltirilgan sanoatni rivojlantirishni maqsad qilgan edi. Bu davrda chebollar juda tez rivojlandi. Samsung va Hyundai kabi kompaniyalar nafaqat ichki bozorda, balki xalqaro bozorda ham o‘zining o‘rnini mustahkamladi. Bu davrda hukumat chebollarni moliyaviy va institutsional jihatdan qo‘llab-quvvatlash uchun maxsus siyosatlar ishlab chiqdi. Bu davrda Koreya eksporti 1960-yildagi 32 mln darajadan 1980-yilda 17 mlrd dollarga yetdi[3].

1990-2000-yillar: 1997-yilda yuz bergan Osiyo moliyaviy inqirozi chebollar uchun sinov bo‘ldi. Ba’zi yirik konglomeratlar bankrot bo‘ldi yoki isloh qilindi. Hukumat chebollarga nisbatan qat’iyroq siyosat olib, ularning monopolistik mavqeini cheklashga harakat qildi.

2020-yillar: Hozirda, chebollar Janubiy Koreya iqtisodiyotining asosiy kuchiga aylangan. Biroq, ular endi global raqobat, ekologik barqarorlik va texnologik innovatsiyalar kabi yangi talablar bilan yuzma-yuz kelmoqda.

Chebollar Janubiy Koreya iqtisodiyotida muhim rol o‘ynagan va uning global raqobatbardoshligini oshirishda katta hissa qo‘shgan. Samsung, Hyundai va LG kabi kompaniyalar elektronika, avtomobilsozlik va kemasozlik sanoatida global yetakchilarga aylangan. Chebollar Koreya iqtisodiyotiga millionlab ish o‘rinlari yaratdi va xalqaro raqobatdosh brendlar shakllantirdi. 2022-yilda Samsungning o‘zida 270,000 dan ortiq xodim ishlagan. Shu bilan birga, chebollar ijtimoiy tengsizlikni kuchaytirgan. Katta kompaniyalar kichik va o‘rta korxonalarning bozordagi ulushini qisqartirgan va ijtimoiy noroziliklarga sabab bo‘lgan.[4] Koreya hukumati 1960-yillardan boshlab eksportga asoslangan iqtisodiy modelni qo‘llagan bo‘lib, bu siyosat chebollarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan edi.

Chebollar, shuningdek, texnologik innovatsiyalarni rivojlantirishda muhim rol o‘ynadi. Samsung va LG kabi kompaniyalar sun’iy intellekt, 5G texnologiyalari va yarimo‘tkazgichlar sohasida global yetakchilarga aylandi. Bu

[1] Lee Kwang W. (2001)
[2] Kim, Woo-Cum. (2002)
[3] Amsden, Alice. H (2001)
[4] Amsden, Alice.H (2001)

kompaniyalar nafaqat Koreya, balki dunyo miqyosida texnologik innovatsiyalarni ilgari surishdi.

Janubiy Koreya hukumati chebollarni qo‘llab-quvvatlashni va ularning iqtisodiy faolligini tartibga solishni bir vaqtda amalga oshirishga harakat qildi. Hukumat dastlab chebollarni imtiyozli kreditlar, soliq imtiyozlari va davlat buyurtmalari orqali qo‘llab-quvvatladi. Ammo vaqt o‘tishi bilan hukumat monopoliyaga qarshi qonunlarni kuchaytirib, chebollarni kichik va o‘rta bizneslarga zarar yetkazmasligi uchun qattiq chora-tadbirlar ko‘rdi.

Bundan tashqari, hukumat chebollarga nisbatan korrupsiya va noqonuniy faoliyatlarga qarshi kurashish uchun ko‘plab islohotlar amalga oshirdi. Bu islohotlar shaffoflikni oshirish va iqtisodiy raqobatni yaxshilashga qaratilgan edi.

Chebollar Janubiy Koreyaning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotiga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa-da, ular jamiyatda iqtisodiy tengsizlikni kuchaytirgan. Yirik bizneslarning monopolistik holati kichik va o‘rta korxonalarning rivojlanishiga to‘sqinlik qilgan. Bu esa jamiyatda ijtimoiy tengsizlikni yanada kuchaytirgan.

Chebollar, shuningdek, Koreyaning ta’lim tizimiga ham ta’sir ko‘rsatgan. Chebol kompaniyalari universitet bitiruvchilari uchun eng mashhur ish beruvchilardan hisoblanadi va ko‘plab yoshlar bu kompaniyalarda ishlashni o‘zlarining asosiy maqsadi sifatida belgilashgan.

Madaniyat sohasida ham chebollar muhim o‘rin tutadi. Masalan, Samsung va Hyundai K-pop yulduzlarini reklama kampaniyalariga jalb qilib, o‘z brendlarini xalqaro bozorlarda targ‘ib qilmoqda[1].

Janubiy Koreya iqtisodiyotining kelajakdagi rivojlanish yo‘nalishlari chebollarni yangi muammolar va imkoniyatlarga olib kelmoqda. Raqamli iqtisodiyot, sun’iy intellekt va yashil energiya kabi sohalar chebollar uchun ustuvor yo‘nalishlarga aylanmoqda. Shu bilan birga, hukumat kichik va o‘rta bizneslarni qo‘llab-quvvatlash, raqobatni yaxshilash va monopoliyalarni cheklash uchun yangi qonunlar ishlab chiqmoqda.

Chebollar uchun ekologik barqarorlik ham yangi majburiyatlarga aylangan. Samsung va LG ekologik texnologiyalarga sarmoya kiritmoqda, bu esa kompaniyalar uchun yangi biznes imkoniyatlari yaratmoqda.

Xulosa qilib aytganda, Chebollar Janubiy Koreya iqtisodiy rivojlanishining asosiy dvigateli bo‘lib, texnologik innovatsiyalar, eksport va bandlikni oshirishda katta rol o‘ynadi. Ular mamlakatni dunyodagi eng yirik iqtisodiyotlardan biriga aylantirishga yordam berdi. Biroq, monopolistik mavqe, ijtimoiy tengsizlik va korrupsiya kabi muammolar jamiyatda bahs-munozaralarga sabab bo‘lmoqda. Hukumat chebollar ustidan nazoratni kuchaytirish, kichik va o‘rta bizneslar uchun teng raqobat muhitini yaratish hamda iqtisodiy shaffoflikni ta’minlash uchun islohotlar olib bormoqda. Kelajakda chebollar raqamli transformatsiya, ekologik barqarorlik va ijtimoiy mas’uliyatni oshirish orqali yanada barqaror rivojlanish yo‘liga o‘tishi kutilmoqda.

[1] Lee, Seung Joo. (2013)

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Amsden, Alice H. (2001). The Korean Economy: Six Decades of Growth and Development
2. Lee, Kwang W. (2001). Korean Business: The Portable Encyclopedia for Doing Business with Korea
3. Lee, Seungjoo. (2013). The Economic Development of Korea: A Search for a Successful Model
4. Kim, Woo-Cum. (2002). Korean Economy and the Role of the Chaebols

KOREYA RESPUBLIKASINING HOZIRGI IQTISODIY HOLATI VA KELAJAK UCHUN KUTILMALAR

Gulshoda XAMIDOVA
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S. Maxatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreya iqtisodiyotining zamonaviy holati tahlil qilingan. Shuningdek, mamlakat iqtisodiyotiga siyosiy beqarorlik va global iqtisodiy tendensiyalarning ta’siri o‘rganilgan.

Kalit so‘zlar: Janubiy Koreya, YaIM o‘sishi, siyosiy beqarorlik, global iqtisodiy tendensiyalar, ichki talab, eksport bosimi

Janubiy Koreya iqtisodiyoti hozirda ichki va xalqaro miqyosda muhim muammolar bilan kurashmoqda. Siyosiy beqarorlik, jumladan, prezident Yun Suk Yeolning impichmenti bilan ajralib turibdi. 2024-yil dekabrida prezident Yun Suk Yolning harbiy holat e’lon qilishi va buning ortidan unga impichment e’lon qilinishi Janubiy Koreyani so‘nggi o‘n yillikdagi og‘ir siyosiy inqirozga olib keldi deyish mumkin. Bu impichment iqtisodiyotga tezda ta’sir ko‘rsatdi, jumladan, 2025-yil yanvar oyi o‘rtalariga kelib milliy pul birligi bo‘lgan – von dollarga nisbatan 3 foizga qadrsizlandi.

KRW ning dollarga nisbatan qadrsizlanishi



Grafikdan ko‘rinib turibdiki, yanvar oyidan sentyabr oyigacha kurs nisbatan barqaror bo‘lgan, lekin sentyabr oxiridan boshlab keskin pasayish kuzatilgan.

Dekabr oyida kurs eng past darajaga yetgan, bu siyosiy voqealar va iqtisodiy noaniqlik bilan bog‘liq .Yanvar oyida esa biroz tiklanish kuzatilgan.

Iste’molchilar ishonchi ham sezilarli darajada ta’sir qildi, 2024-yil dekabr oyida iste’molchilarning kayfiyati indeksi 91,2 ga tushib ketdi. Bundan tashqari, 2025 yilning birinchi choragida ishlab chiqarish kompaniyalari uchun biznes so‘rovi indeksi 88 ga pasayadi, bu esa korxonalar o‘rtasida keng tarqalgan pessimizmdan dalolat beradi.[1]

Janubiy Koreyada iste’molchilar kayfiyati indeksi



Iste’molchilar kayfiyatining umumiy tendensiyalari 2010-2025-yillarda sezilarli o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. 2020-yilda pandemiya davrida eng past ko‘rsatkich qayd etilgan bo‘lsa, 2021-yilda sezilarli tiklanish kuzatildi. Prezident Park Geun-hye impichmenti davrida 2017-yilda pasayish kuzatilgan, 2024-yil dekabrida ham shunga o‘xshash pasayish bo‘lgan. 2025-yil yanvarida biroz tiklanish kuzatilgan bo‘lsa-da, umumiy kayfiyat hali ham ehtiyotkorlikni saqlab qolmoqda.

Janubiy Koreya iqtisodiyoti tarixan ichki iste’mol va eksportga tayanib o‘sgan. Biroq, so‘nggi yillarda ichki talab pasaygan, bu asosan iste’molchilarning ishonchsizligi va ish haqlarining pasayishi bilan bog‘liq. Bundan tashqari, Janubiy Koreya o‘sish salohiyatiga tahdid soladigan uzoq muddatli demografik muammolarga duch kelmoqda. Mamlakatning mehnatga layoqatli aholisi tez kamayib bormoqda, 2025-yildagi 51,6 milliondan 2040-yilga kelib 48,9 millionga tushishi prognoz qilinmoqda. Bu demografik siljish Janubiy Koreyaning potensial o‘sish sur’atini 2030-yillarga borib har yili 1 foizdan pastga tushirishi mumkin

Janubiy Koreya global bozorlar uchun texnologiya, avtomobilsozlik va yarimo‘tkazgichlar kabi mahsulotlarni eksport qiluvchi yirik mamlakat bo‘lib, eksport talabi pasayishi iqtisodiyotni sezilarli darajada ta’sir qilmoqda.

AQSh prezidenti Donald Tramp tomonidan 2025-yil 3-apreldan boshlab import qilinadigan yengil va yengil yuk mashinalariga 25 foizlik boj joriy etishi Janubiy Koreyaning yalpi ichki mahsulot va aholi bandligiga sezilarli hissa qo‘shadigan muhim sektori – avtomobilsozlik sanoatiga jiddiy xavf tug‘diradi. Hyundai va Kia kabi yirik avtomobil ishlab chiqaruvchilar allaqachon 16,5

[1] Randall S. Jones. Political Turbulence Clouds South Korea’s Economic Outlook. Published January 29, 2025.

milliard dollarlik umumiy bozor qiymatini yo‘qotishgan. Tariflar AQShda avtomobil narxini 5 000 dollardan 15 000 dollargacha oshirishi kutilmoqda, bu esa janubga talabni kamaytirishi mumkin.[1]

4-dekabrda e’lon qilingan OECD Iqtisodiy prognozi 2024-yil davomidagi zaiflik belgilariga qaramay, Koreyaning real YaIM 2025-yilda 2,1 foizga oshishini prognoz qildi. Darhaqiqat, o‘tgan yilning ikkinchi choragida YaIM biroz qisqardi, uchinchi chorakda esa atigi 0,1 foiz o‘sish kuzatildi. Koreya mahsulotlariga, xususan, yarimo‘tkazgichlarga bo‘lgan kuchli global talab 2024 yilning birinchi yarmida o‘sishni ta’minladi, biroq uchinchi chorakda eksport kamaydi. 2025 yil uchun OECD prognozi 2024 yilda kutilgan 2,3 foizdan bir oz pasaygan va Koreyaning 2 foizlik potensial o‘sish sur’atiga mos keladi (iqtisodning to‘liq quvvatdan foydalanish va to‘liq bandlik darajasida davom etishi mumkin bo‘lgan sur’at). OECD prognozi boshqa institutlar, jumladan, XVF va Koreya taraqqiyot instituti tomonidan o‘tgan noyabr oyida qilingan 2,0 foizlik prognozlarga mos keladi.[2]



OECDning 2025 va 2026-yillar uchun Katta yigirmalik (G20) mamlakatlari bo‘yicha iqtisodiy o‘sish prognozlari

OECD investitsiyalar va xususiy iste’mol o‘sish sur’atlarini kutmoqda, chunki Koreya banki siyosati foiz stavkasini pasaytirish va real daromadni oshirish xarid qobiliyatini oshiradi . Ayollar va qariyalarning mehnat bozoridagi ishtirokining yanada oshishi bandlik darajasini oshiradi, bu o‘tgan oktyabr oyida tarixiy eng yuqori ko‘rsatkichga – 62,7 foizga yetdi. Ishsizlik darajasi faqat 2,7 foizda past bo‘lib qolishi kutilmoqda, bunda kemasozlik va sog‘liqni saqlash kabi sohalarda ishchi kuchi tanqisligi davom etmoqda. 2025 va 2026 yillarda eksport o‘sishi 4 foizdan past bo‘lishi kutilmoqda.[3]

[1] Reuters. (2025, March 27). Trump auto tariffs take aim at a pillar of Asian economies — and national pride.
[2] OECD. (2024). South Korea’s Economic Trends and Future Projections
[3] OECD Economic Outlook, Volume 2024 Issue 2

OECDning Janubiy Koreya bo‘yicha 2025 va 2026-yillarda iqtisodiy prognozlari

Ko‘rsatkichlar	**2022**	**2023**	**2024**	**2025**	**2026**
Asosiy kapitalga investitsiyalar	-0.2	1.4	0.1	1.7	2.2
Umumiy ichki talab	2.8	1.4	0.4	2.3	2.3
Tovar va xizmatlar eksporti	3.9	3.6	7.2	3.6	3.8
Tovar va xizmatlar importi	4.2	3.5	2.6	4.3	4.4
Iste’mol narxlari indeksi	5.1	3.6	2.3	1.8	2.0
Asosiy inflyatsiya indeksi	3.6	3.4	2.2	1.9	2.0
Ishsizlik darajasi (% mehnat kuchidan)	2.9	2.7	2.7	2.6	2.7
Davlatning umumiy qarzi (% YAIM dan)	46.2	53.6	56.5	59.4	61.5
Joriy hisob balansi (% YAIM dan)	1.3	1.9	4.6	4.5	4.3

Xulosa qilib aytganda siyosiy barqarorlik Koreyaning 2025-yildagi iqtisodiy istiqbollari bilan chambarchas bog‘liq. Siyosiy noaniqlik Yun ma’muriyatini o‘rta muddatli istiqbolda mamlakatning o‘sish potentsialiga salbiy ta’sir ko‘rsatib, tartibga solishni bekor qilish kun tartibi va islohotlar tashabbuslarini sezilarli darajada qisqartirishga olib keldi. Siyosiy bo‘shliqni hal qilish iste’molchilar va biznesning kayfiyatini yaxshilashga yordam beradi va valyuta kursidagi pasayish bosimini kamaytiradi, iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlash uchun foizlarni kamaytirishga yo‘l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. OECD Economic Outlook, Volume 2024 Issue 2
2. Bank of Korea. (2024). Economic Outlook Report
3. OECD. (2024). South Korea’s Economic Trends and Future Projections
4. Ministry of Economy and Finance, South Korea. (2024). National Economic Policy Report
5. World Bank. (2024). Global Economic Forecast: South Korea

JANUBIY KOREYANING YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISH TAJRIBASIDAN O‘ZBEKISTONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI

Hasanbek NORBOYEV
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S. Maxatov

Annonatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning yashil iqtisodiyoti bo‘yicha tajribasi va uning O‘zbekiston sharoitida qo‘llash imkoniyatlari tahlil qilingan. Koreyaning muqobil energiya manbalari, ekologik transport tizimi, texnologik innovatsiyalar va atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi

muvaffaqiyatli siyosati o‘rganilib, shu asosda O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotni rivojlantirish bo‘yicha samarali chora-tadbirlar taklif etilgan.

Kalit so‘zlar: Yashil iqtisodiyot, ekologik transport, muqobil energiya, innovatsion texnologiyalar, iqtisodiy rivojlanish, ekologik siyosat

O‘zbekistonda milliy iqtisodiyotning isloh qilishda barcha jabhalarda tub o‘zgarishlar davom etmoqda. Bugungi kunda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish – iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari, uning raqobat bardoshligini oshirish va mamlakatni barqaror rivojlantirish sharti sifatida qaralmoqda. Qayd etish joizki, “yashil” iqtisodiyotga o‘tishning asosiy maqsadlari sifatida iqtisodiyotning energiya samaradorligini oshirish va tabiiy resurslarni oqilona iste’mol qilish hamda global iqlim muammolariga moslashishni kiritish mumkin. Mazkur belgilangan maqsadlarga erishish uchun esa texnologiyalarni modernizatsiya qilish va moliyaviy mexanizmlarni rivojlantirish talab etiladi. O‘zbekistonda “yashil” iqtisodiyotga o‘tish zaruriyati milliy iqtisodiyotga iste’mol qilinayotgan energiyaning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, ushbu resurslar zaxirasining cheklanganligi, sanoatning jadal sur’atlarda rivojlanishi oqibatida atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi. Shunga ko‘ra, O‘zbekiston iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish, tarkibiy o‘zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi.

Janubiy Koreya yashil iqtisodiyot tamoyillarini muvaffaqiyatli joriy etgan mamlakatlardan biri hisoblanadi. 2009-yilda qabul qilingan “Yashil o‘sish strategiyasi” doirasida mamlakat ekologik muammolarni hal qilish bilan bir qatorda iqtisodiy o‘sishni ta’minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirdi. Bu strategiya energiya samaradorligini oshirish, muqobil energiya manbalaridan foydalanish, ekologik transportni rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni tatbiq etishga asoslangan. Koreyaning ushbu tajribasi bugungi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda.[1]

Yashil energiya manbalarini rivojlantirishda Janubiy Koreya quyosh, shamol va suv energetikasini rivojlantirishga katta mablag‘ ajratdi. Masalan, Seul shahri meriyasining binosining tomiga 1000 dan ortiq quyosh panellari o‘rnatilib, binoning energiya ehtiyojining 28 foizi shu panellar orqali ta’minlanmoqda.

Janubiy Koreya olimlari elektromobillar uchun akkumulyator sig‘imini 23% oshirish yo‘lini topdi. Janubiy Koreyaning Milliy fan va texnologiya universiteti olimlari elektromobillar uchun akkumulyatorlarning samaradorligini oshirishning yangi usulini ishlab chiqishdi. Professor Dongvuk Xan boshchiligidagi jamoa LNMO (litiy-nikel-marganets oksidi) asosidagi katodlarni yaxshilash uchun ikki bosqichli muhandislik yondashuvini ishlab chiqdi. LNMO katodlari termal barqarorligi va iqtisodiy samaradorligi bilan mashhur, ammo elektrolit parchalanishi kabi nojo‘ya reaksiyalar sababli ularning qo‘llanilishi cheklangan edi. Yangi texnologiya maxsus ion migratsiya yo‘llari va kaliy

[1] https://www.amerikaovozi.com/a/south-korea-green-energy/1750952.html?utm_source.com

karbonat bilan himoya qatlami yaratish orqali ushbu muammolarni bartaraf etishga yordam berdi. Sinov natijalari modifikatsiyalangan katodlarning samaradorligi sezilarli darajada oshganini ko‘rsatdi: ular 110 mAsoat/g sig‘imga ega bo‘lib, 100 sikldan keyin 97% sig‘imni saqlab qolgan. Taqqoslash uchun, oddiy LNMO katodlari 89 mAsoat/g sig‘im bilan 91% samaradorlikni saqlab qolgan edi. Professor Xanning ta’kidlashicha, ushbu texnologiya faqat LNMO bilan cheklanmay, balki yuqori unumdorlikka ega NMC va LFP akkumulyatorlariga ham tatbiq etilishi mumkin. Bu esa elektromobillar va energiya saqlash tizimlari uchun katta imkoniyatlar yaratadi.

Janubiy Koreya hukumati yaqin yillarda elektromobillar sanoatiga katta sarmoya kiritishni rejalashtirmoqda. Hukumat yordami tufayli Janubiy Koreyada elektromobillar sanoati sezilarli o‘sishni boshdan kechirmoqda. 2035-yildan boshlab Janubiy Koreyada ichki yonuv dvigatelli avtomobillarni yangi ro‘yxatga olishni taqiqlanadi[1]. Hyundai kompaniyasining 70 756 dona sotilgani yuqorida keltirilgan qonunni to‘laqonli amalga oshirishning istiqboli desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Janubiy Koreya shamol energetikasini rivojlantirishga ulkan e’tibor qaratib, so‘nggi yillarda bir qator yirik loyihalar amalga oshirdi. Masalan, 2021-yilda Janubiy Koreya hukumati dunyodagi eng yirik dengiz shamol elektr stansiyasini qurish rejasini e’lon qildi. Ushbu loyiha 2030-yilgacha 8,2 gigavatt (GVt) quvvatga ega bo‘lishi kutilmoqda va taxmiman 38 milliard AQSH dollari investitsiya jalb qiladi[2]. Bu loyiha mamlakatning qayta tiklanuvchi energiya manbalariga bo‘lgan qiziqishini va uglerod chiqindilarini kamaytirishga bo‘lgan intilishini ko‘rsatadi.

Taqqoslash uchun, oxirgi 4 yil ichida respublikamizda generatsiya quvvatlarini oshirish maqsadida xalqaro kompaniyalar bilan umumiy qiymati qariyb 5,5 mlrd AQSh dollarga teng, umumiy quvvati 4 ming 400 MVt bo‘lgan 10 ta shamol elektr stansiyasini qurish bo‘yicha elektr energiyasini sotib olish shartnomalari va investitsiya bitimlari imzolandi.

O‘zbekiston Koreya tajribasidan foydalangan holda quyidagi yo‘nalishlarda rivojlanish imkoniyatiga ega hisoblanadi:

Shamol va quyosh energetikasi – mamlakatning tabiiy sharoitlari ushbu sohalarni rivojlantirish uchun qulaydir;

Gidroenergetika – kichik va o‘rta gidroelektrostansiyalarni rivojlantirish imkoniyati mavjud;

Elektromobillar va yashil transport – Koreyaning ilg‘or texnologiyalarini joriy qilish orqali ekologik transport tizimini yaratish;

Atrof-muhitni muhofaza qilish – uglerod chiqindilarini kamaytirish va ekologik me’yorlarni kuchaytirish.

---

[1] https://srcyrl.ml-vehicle.com/news/south-korea-s-cumulative-electric-vehicle-regi-76965022.html?utm_source.com

[2] https://api.scienceweb.uz/storage/publication_files/6021/21691/65cf2e97ec607___Shamol%20energiyasi%20darslik.pdf?utm_source.com

Xulosa o‘rnida shuni aytish joizki, Janubiy Koreyaning yashil iqtisodiyot sohasidagi ilg‘or tajribasi O‘zbekiston uchun muhim o‘rganish manbai bo‘ladi. Mamlakatimizning tabiiy va iqtisodiy imkoniyatlarini inobatga olgan holda, biz Koreyaning muvaffaqiyatli tajribalaridan foydalanib, barqaror rivojlanishga erishishimiz mumkin. Bu esa nafaqat iqtisodiy o‘sish, balki ekologik xavfsizlik va xalq farovonligini oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Vahobov A.V., Xajibakiyev Sh.X. “Yashil” iqtisodiyot. Darslik. – Toshkent.: “Universitet”, –2020. –262 b.
2. Janubiy Koreya “yashil” iqtisodga o‘tyapti, Amerika ovozi, 18-sentabr, 2013
3. https://srcyrl.ml-vehicle.com/news/south-korea-s-cumulative-electric-vehicle-regi-76965022.html?utm_source.com
4. South Korea to invest 43.2 trillion won in offshore wind farms by 2030, Yonhap News Agency, 2021-yil 5-fevral.

JANUBIY KOREYADA GENDER TENGSIZLIGI

Feruza OCHILOVA
Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S. Maxatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Janubiy Koreyaning ta’lim va demografiya sohasidagi statistik ma’lumotlar tahlil qilingan, gender tengsizligini kamaytirishga qaratilgan hukumat siyosatlari ko‘rib chiqilgan hamda madaniy muammolar muhokama qilingan. Shuningdek,, ayollar uchun teng huquqli jamiyat yaratish uchun siyosatni yaxshilash va jamiyat qarashlarini o‘zgartirish bo‘yicha tavsiyalar berilgan.

Kalit so‘zlar: gender tengsizligi, Janubiy Koreya, ayollar huquqlari, jinsiy nisbat, iqtisodiy rivojlanish, ijtimoiy o‘zgarishlar Janubiy Koreya 1970-yillardan boshlab tez rivojlandi. Ammo, bu rivojlanish bilan birga ayollar va erkaklar o‘rtasidagi farqlar ham yuzaga keldi. Bugungi kunda zamonaviy Koreyada ayollar turli sohalarda, jumladan ta’lim, ish va kundalik hayotda bir qator qiyinchiliklarga duch kelishmoqda.

So‘nggi yillarda ayollarning ta’lim olish darajasi juda yuqori darajaga yetdi. Misol uchun, 1990-yilda 30 yosh atrofidagi ayollar o‘rtacha 10,4 yil ta’lim olgan, erkaklar esa 11,8 yil. Lekin 2010-yilda bu raqamlar oshdi: ayollar 13,9 yil, erkaklar esa 14,1 yil o‘qigan. Bundan tashqari, 2010-yilda 20 yoshdagi ayollar o‘rtacha 14,3 yil ta’lim olgan, ya’ni ular erkaklardan ham ko‘proq ta’lim

olishgan[1]. 2020-yilda Janubiy Koreyada o‘rtacha ta’lim yillari 12,5 yilni tashkil etgan[2]. Ayniqsa, 25-34 yoshdagi ayollar orasida oliy ma’lumotga ega bo‘lganlar ulushi 77% , bu esa erkaklardagi 63% ko‘rsatkichdan yuqori. Bu ma’lumotlar ayollar orasida ta’lim darajasi yuqori ekanligini ko‘rsatadi[3].



Demografik nuqtai nazardan, tug‘ilishdagi jinsiy nisbat ham o‘zgarishlarni ko‘rsatadi. 1990-yilda tug‘ilgan bolalarda o‘g‘il bolalar soni qizlarga nisbatan 116,5 ga yetgan. Keyinchalik, 2007-yilda bu nisbati 106 ga tushdi, ya’ni endi ota-onalar qiz bola tug‘ilishidan qo‘rqmay, ularga ham teng munosabatda bo‘lishmoqda[4]. 2020-yilda Janubiy Koreyada tug‘ilishdagi jinsiy nisbat taxminan har 100 qiz bolaga 104,8 o‘g‘il bolani tashkil etdi, bu esa tabiiy diapazon (103-107 o‘g‘il bola) bilan mos keladi[5].

[1] Impact of gender inequality on the Republic of Korea’s long-term economic growth: an application of the theoretical model of gender inequality and economic growth” by Jinyoung Kim, Jong-Wha Lee, Kwanho Shin. NO.473. January 16

[2] https://www.worldeconomics.com/ESG/Social/Average-Years-Of-Schooling/Korea.aspx?utm_source=chatgpt.com

[3] https://english.hani.co.kr/arti/english_edition/e_national/1158095.html

[4] Impact of gender inequality on the Republic of Korea’s long-term economic growth: an application of the theoretical model of gender inequality and economic growth” by Jinyoung Kim, Jong-Wha Lee, Kwanho Shin. NO.473. January 16

[5] https://asianews.network/south-korea-logged-lowest-gender-ratio-at-birth-last-year/



Janubiy Koreya hukumati ayollarni qo‘llab-quvvatlash va gender tengsizligini kamaytirish uchun turli choralar ko‘rmoqda. Ular orasida eng muhimi bolalarni tug‘ilish va boqishda yordam berishdir. Bugungi kunda quyidagi chora-tadbirlar mavjud:

- Onalik va otalik ta’tili: Ayol va erkaklarga tug‘ilish vaqtida pullik ta’til beriladi.

- Bolalar uchun ta’til: 0–6 yoshdagi bolalar uchun maksimal 1 yilgacha pullik ta’til berilishi, bu esa ota-onalarga bolalarni parvarish qilishda yordam beradi.

- Ish soatlarini qisqartirish: Bolalarni boqish davrida ish soatlarini qisqartirish orqali ota-onalarga o‘z oilalariga ko‘proq vaqt ajratish imkoniyati yaratiladi.

Bundan tashqari, hukumat bolalar parvarishi xizmatlarini ham yaxshilashga katta e’tibor qaratmoqda:

- Ish joylarida bolalar bog‘chalari: 2013-yildan boshlab, firmalarga ish joyida bolalar bog‘chalarini tashkil etish uchun imtiyozlar berilmoqda.

- Davlat bolalar bog‘chalari va moliyaviy yordam: Davlat tomonidan bolalar bog‘chalari tashkil etilib, oilalarga moliyaviy yordam ko‘rsatilmoqda.

- Mos ish soatlari: 2014-yildan boshlab xususiy va davlat bog‘chalarida mos ish soatlari joriy etilib, ota-onalarga moslashuvchanlik yaratilmoqda.

Ayollar bolalarni boqishdan keyin ishga qaytishda ham ko‘p qiyinchiliklarga duch kelishadi. Shu sababli, hukumat soliq imtiyozlarga ham e’tibor bermoqda – bolalarni boqishdan keyin ishga qaytayotgan ayollarni ishga olishda xususiy firmalar soliq imtiyozlaridan foydalanishi mumkin.

Bu choralar ayollarga ish va oilani bir vaqtning o‘zida boshqarishda yordam beradi, lekin amalda ish va uy majburiyatlarini birlashtirish hali ham qiyin bo‘lib qolmoqda.

Go‘zallik standartlari. Janubiy Koreyada tashqi ko‘rinish ish topishda juda muhim rol o‘ynaydi. Yengil, oqterili, katta ko‘zlar kabi go‘zallik standartiga mos keladigan ayollar ko‘pincha ijobiy baholanadi, bu esa ishga qabul qilish qaroriga

ta’sir qiladi. Ideal ko‘rinishga erishish istagi ayollarni kosmetik jarrohlikka murojaat qilishga olib keladi.

Go‘zallik standartlariga mos keladigan ayollar ko‘pincha ko‘proq malakali yoki qobiliyatli ko‘riladi, hatto ularning ish faoliyati bu kutuvlar bilan mos kelmasa ham. Aksincha, bu standartlarga mos kelmaydigan ayollar ko‘pincha e’tibordan chetda qoladi yoki pastroq baholanadi.

Kelajakda teng imkoniyatlar yaratish uchun quyidagi choralarga e’tibor qaratish lozim:

- Qonunchilikni kuchaytirish: Gender asosida kamsitishni oldini olish uchun qonunlarni yanada mustahkamlash zarur.
- Moslashuvchan ish sharoitlari: Ish va oilani muvozanatlash uchun moslashuvchan ish tartiblarini joriy etish va bolalar parvarish xizmatlarini yanada rivojlantirish kerak.
- Madaniy o‘zgarishlar: An’anaviy gender stereotiplarini bartaraf etish uchun keng ommaviy axborot kampaniyalari olib borilishi lozim, bu esa ayollarga yanada erkin hayot kechirish imkoniyatini yaratadi.
- Korporativ qo‘llab-quvvatlash: Korporatsiyalar ayollarning karyera rivojlanishini qo‘llab-quvvatlash va mentorlik dasturlarini joriy etish orqali teng imkoniyatlar yaratishlari kerak.

Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreyada ta’lim va demografik ko‘rsatkichlar jihatidan yutuqlar erishilgan bo‘lsa-da, ish bozorida va kundalik hayotda ayollar ko‘plab qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Hukumat tomonidan ko‘rilayotgan choralar, onalik ta’tili va moslashuvchan ish tartiblari muhim bo‘lsa-da, madaniy stereotiplar va an’anaviy qarashlar hali ham ayollar imkoniyatlarini cheklab qo‘ymoqda. Teng imkoniyatlar yaratish uchun qonunchilikni kuchaytirish, ish va hayot muvozanatini yaxshilash va madaniy o‘zgarishlarni rag‘batlantirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Kim, H. & Lee, S. (2021). Cultural Influences on Gender Roles in South Korea
2. Park, J. (2020). Work–Life Balance and Gender Inequality in South Korea
3. https://www.statista.com/
4. https://www.humanrightsresearch.org/post/south-korea-s-hurdles-with-gender-equality
5. https://www.adb.org/sites/default/files/publication/179689/ewp-473.pdf

JANUBIY KOREYADA AHOLINING QARISHI: IQTISODIY O‘ZGARISHLAR VA ISHCHI KUCHI YETISHMOVCHILIGIGA TA’SIRI

Shaxlo RAVSHANOVA
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S. Maxatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada chuqurlashib borayotgan demografik inqirozning Janubiy Koreya iqtisodiyotiga ta’siri, hukumat tomonidan ko‘rilayotgan chora tadbirlar, hamda kelajakda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan oqibatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Qarib borayotgan aholi, tug‘ilish darajasining pasayishi, mehnat bozori, immigratsiya siyosati, ishchi kuchi tanqisligi, ijtimoiy integratsiya.

Janubiy Koreya aholisi tobora qarib bormoqda – har besh kishidan biri 65 yoshdan oshgan aholiga to‘g‘ri keladi. 2023-yilda Janubiy Koreya dunyoda o‘rtacha umr ko‘rish bo‘yicha ikkinchi o‘rinni egalladi[1]. So‘nggi o‘n yilliklarda tez va chuqur demografik o‘zgarishlar keksa odamlarning salmog‘i keskin oshgan Koreyadagidek boshqa hech bir mamlakatda kuzatilmagan. 2018-yilda 65 va undan katta yoshdagi keksa odamlarning ulushi 14 foizni tashkil etgan bo‘lsa, Janubiy Koreya Ichki ishlar va xavfsizlik vazirligi e’lon qilgan yangi ma’lumotlarga ko‘ra, 65 yosh va undan katta yoshdagilar soni 10,24 millionga yetgan bo‘lib, bu 51 million aholining 20 foizini tashkil etadi[2]. Birlashgan Millatlar Tashkiloti tasnifiga ko‘ra, aholining 7 foizidan ortig‘i 65 yosh va undan katta bo‘lgan mamlakatlar “qarib borayotgan jamiyat”, 14 foizdan ortig‘i “qari jamiyat”, 20 foizdan oshig‘i esa “super-qari jamiyat” deb ataladi. Shu bilan birga ularning ulushi 2050-yilga borib 44 foizga yetishi mumkinligi kutilmoqda[3]. Ushbu raqamlar Janubiy Koreya va boshqa Sharqiy Osiyo davlatlari duch kelayotgan demografik inqirozni ochib beradi. Tezkor sanoat rivojlanishidan atigi bir necha o‘n yillar o‘tgan bo‘lsa-da, bu mamlakatlarda aholi jadal qarib bormoqda.

Bu demografik o‘zgarishlarning asosiy sabablaridan biri esa tug‘ilish darajasining misli ko‘rinmagan darajada pasayishidir. Koreya urushidan keyin 1990-yilgacha aholi sonida keskin o‘sish kuzatilgan bo‘lsa ham so‘nggi yillarda o‘sish surati sekinlashgan. 1983 yilda Janubiy Koreyada har bir ayolga o‘rtacha 2,1 farzandga to‘g‘ri kelgan bo‘lsa 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich keskin pasayib, 0.72 ga tushdi[4]. Immigratsiya bo‘lmaganda barqaror aholini saqlab qolish uchun mamlakatlarda tug‘ilish darajasi 2,1 bo‘lishi kerak deb hisoblanadi[5].

[1] South Koreans’ life expectancy higher than OECD average. By Lee Jaeeun. July 25, 2023
[2] South Korea becomes ‘super-aged’ society, new data shows. By Yoonjung Seo and Chris Lau
[3] Aging population in South Korea. By L. Yoon, Jun 13, 2024
[4] https://kosis.kr/statHtml/statHtml
[5] Society at a Glance 2024: OECD Social Indicators

So‘nggi 16 yil ichida Janubiy Koreyaning tug‘ilish ko‘rsatkichi oshmadi, aksincha, doimiy ravishda pasayishda davom etmoqda. Bunga demograflar “past tug‘ilish tuzog‘i” deb ataydigan hodisa sabab bo‘lmoqda. 2000-yillarning boshlarida ilgari surilgan bu tamoyilga ko‘ra, agar biror mamlakatda tug‘ilish darajasi 1,5 yoki 1,4 dan pastga tushsa, uni sezilarli darajada oshirish juda qiyin – hatto imkonsiz bo‘lishi ham mumkin. Janubiy Koreya boshqa ko‘plab davlatlar, jumladan Fransiya, Avstraliya va Rossiyaning tug‘ilishni rag‘batlantirishga qilgan chora tadbirlari misol bo‘lishi mumkin. Janubiy Koreyada 2023 yilda atigi 230 ming nafar bola tug‘ilgan[1]. Bu 10 yil oldingi ko‘rsatkich bilan solishtirilganda 2 baravar pasayishni kuzatish mumkin. Agar bu tendensiya davom etsa, mamlakat aholisining umumiy soni 2072 yilga kelib 36 millionga qisqarishi taxmin qilinmoqda, bu hozirgi aholining uchdan ikki qismiga teng. Mahalliy xabarlarga ko‘ra, mamlakat bo‘ylab 3800 ga yaqin boshlang‘ich maktab so‘nggi 40 yil ichida, ayniqsa, qishloq joylarida o‘quvchilarning kamayishi sababli yopilgan[2]. Janubiy Koreyada tug‘ilishning past darajasiga qimmat yashash va ta’lim xarajatlari, bola parvarishi va ota-ona ta’tillarining yetarli darajada qo‘llab-quvvatlanmasligi, mehnat bozorida ayollarga nisbatan tengsiz va adolatsiz munosabat, yosh avlodning munosabati va tanlovining o‘zgarishi kabi turli omillar ta’sir ko‘rsatadi. Bu omillar ko‘pchilikni turmush qurish va farzand ko‘rishdan qaytaradi, natijada aholi soni kamayib, qariydi. Demografik inqirozning oldini olish maqsadida Janubiy Koreya hukumati oilalarga farzand ko‘rishni rag‘batlantirish uchun moliyaviy imtiyozlar taqdim etmoqda hamda ota-onalar uchun mavjud oylik nafaqalarni oshirmoqda. Prezident Yun Sok Yol esa tug‘ilish darajasini oshirishga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish uchun yangi hukumat guruhini tashkil etdi. 2022-yilda Janubiy Koreya hukumati oxirgi 16 yil ichida aholi sonini ko‘paytirishga 200 milliard dollardan ortiq mablag‘ sarflanganini tan oldi. Ammo bu deyarli hech qanday ta’sir ko‘rsatmadi[3]. Koreya banki tug‘ilish darajasining past holatda saqlanib qolishi 2050- yildan boshlab salbiy iqtisodiy o‘sishga olib kelishi mumkinligi haqida ogohlantirmoqda.

Aholining qarishi keng ko‘lamli ta’sirga ega bo‘lib, jumladan, sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta’minot xarajatlarining oshishiga olib keladi. Bundan tashqari, aholining qarishi Janubiy Koreyadagi mehnat bozori va iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon Bankining yangi hisobotiga ko‘ra, Koreyaning ishchi yoshdagi aholisining kamayishi Sharqiy Osiyo va Tinch okeani mintaqasida eng tezkor jarayonlardan biri hisoblanadi. 2040-yilga kelib, aholi qarishi Koreyada ishchi yoshdagi kattalar sonini 15 foizdan ortiq qisqartirishi, Xitoy, Tailand va Yaponiyada esa 10 foizdan ortiq kamayishiga olib kelishi kutilmoqda[4]. Mehnatga layoqatli aholi kamayishi ishchi kuchi ishtirok etish darajasi va unumdorlikning pasayishiga olib kelib, iqtisodiy ishlab chiqarish hajmining sekinlashuviga sabab bo‘ladi. Shu bilan bir qatorda, Mehnatga

[1] https://kosis.kr/statHtml/statHtml

[2] Faced with world’s lowest birth rate, South Korea ramps up efforts to keep elderly population active. By Lim Yun Suk and Fabian Koh

[3] South Korea becomes ‘super-aged’ society, new data shows. By Yoonjung Seo and Chris Lau

[4] World Bank Group Korea Office Newsletter NOVEMBER/DECEMBER 2015

layoqatli aholi sonining qisqarishi va bir vaqtning o‘zida ular qaramog‘idagi odamlarning ko‘payishi yosh avlod zimmasiga katta moliyaviy va ijtimoiy yuk yuklaydi. Ishlovchilar va ularga bog‘liq bo‘lgan aholining nisbatini aks ettiruvchi bog‘liqlik koeffitsiyenti 2020 yilda 20% dan 2050 yilga kelib 70% ga yetishi kutilmoqda[1]. Bu esa mehnatga layoqatli aholining kamayishi natijasida ishchi kuchiga bog‘liq bo‘lgan aholining ortishini anglatadi. Natijada jamg‘arish hajmi qisqarib, iste’mol darajasi pasayishi mumkin. Ishchi kuchining qisqarishi nafaqat iqtisodiy ishlab chiqarish hajmini kamaytiradi, balki davlat tomonidan moliyalashtiriladigan ijtimoiy ta’minot tizimlariga ham bosimni oshiradi. Ayniqsa, aholining qarishi fonida pensiya tizimiga tushayotgan yuk ortib bormoqda, bu esa kelajakda moliyaviy barqarorlik uchun jiddiy muammo tug‘dirishi mumkin. Rasmiy prognozlarga ko‘ra, agar amaldagi pensiya tizimi o‘zgarishsiz qolsa, milliy pensiya jamg‘armasi keyingi 30 yil ichida tugashi mumkin. Janubiy Koreyada pensiya yoshi 60 yosh bo‘lib, u 2017 yilda 58 yoshdan oshirilgan edi[2]. Ushbu yosh chegarasi ilgari aholining o‘rtacha umr ko‘rish darajasi ancha past bo‘lgan davrda belgilangan. Bugungi kunda esa umr ko‘rish davomiyligining uzayishi natijasida pensiyada o‘tkaziladigan yillar soni ortib, daromadsiz qolish xavfi kuchaymoqda. Bu holat nafaqat fuqarolar, balki ishchi kuchi va hukumat uchun ham iqtisodiy xavotirlarga sabab bo‘lmoqda. Mehnat uyushmalari kompaniyalarga pensiya yoshini yana oshirishni taklif qilmoqda, bu esa ishchilarga bir necha yil davomida maosh olish imkoniyatini yaratishi mumkin.

Ammo Janubiy Koreya aholisining qarishi nafaqat yuk, balki uning jamiyati va iqtisodiyotida ijobiy o‘zgarishlar uchun imkoniyat bo‘lib xizmat qilishi ham mumkin. Keksalar inson kapitalining bir qismi bo‘lib, ularning bilim, tajriba va ko‘nikmalari turli sohalarda qo‘llanilishi mumkin. Hukumat keksa avlodning faol yashashini qo‘llab-quvvatlash uchun ularga ta’lim, kasbiy tayyorgarlik, ish bilan ta’minlash va tadbirkorlik imkoniyatlarini kengaytirishi mumkin. Shuningdek, majburiy pensiya yoshini oshirish, moslashuvchan ish sharoitlarini yaratish hamda keksa ishchilar uchun uzluksiz ta’lim dasturlarini moliyalashtirish mumkin. Shu sababli Janubiy Koreyaning keksalar uchun innovatsion loyihalari ichiga qariyalarga keksalik davrida o‘qish imkoniyatini berish hamda ularni moda namoyishlarida model sifatida ishtirok etishga jalb qilish kabi tashabbuslar kiradi. Misol uchun, 2021 yilda to‘rt nafar keksa ayol birinchi sinfga qabul qilinib, 13 nafar yosh bolalar bilan birga boshlang‘ich ta’limni boshlagan[3]. Shu bilan birga, Janubiy Koreyaning Keksalar Modellari Assotsiatsiyasi 70-80 yoshdagi kishilar uchun modellik va podiumda yurish bo‘yicha treninglar o‘tkazib, ularga moda ko‘rgazmalarida podiumda yurish imkoniyatini yaratmoqda. Shuningdek, Koreya samarali va uzoq davom etadigan mehnat faoliyatini qo‘llab-quvvatlash uchun bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda, jumladan, ish haqi

[1] Working Better with Age: Korea. OECD October 24, 2018

[2] How South Korea Is Tackling Its Demographic Crisis. By Koh Ewe. February 19,2024

[3] Faced with world’s lowest birth rate, South Korea ramps up efforts to keep elderly population active. By Lim Yun Suk and Fabian Koh

belgilashda yoshi katta xodimlar uchun imtiyozlarni saqlab qolish va seniorlik asosidagi tizimdan voz kechishga qaratilgan faol sa’y-harakatlar. Shunga qaramay, aholining qarishi va tug‘ilish darajasining pastligi tufayli ishchi kuchining qisqarishi iqtisodiyotga jiddiy ta’sir ko‘rsatmoqda. Mehnat bozoridagi bu bo‘shliqni to‘ldirish uchun Janubiy Koreya ko‘proq immigratsiyani rag‘batlantirish choralarini ko‘rishi mumkin. Mamlakatga malakali va malakasiz mehnat muhojirlarini jalb qilish nafaqat iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ushlab turishga, balki ijtimoiy tizimlarni barqaror saqlashga ham yordam beradi. Ko‘plab Yevropa davlatlari ham qarib borayotgan aholi muammosiga duch kelmoqda, ammo immigratsiya bu ta’sirni yumshatishga yordam bermoqda. Biroq, Janubiy Koreya, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlar ishchi yoshdagi aholining kamayishini bartaraf etish uchun ommaviy immigratsiyani qabul qilishdan voz kechib kelishmoqda. Janubiy Koreyaning immigratsiya siyosati juda cheklangan bo‘lib, immigrantlar faqat Janubiy koreyaliklarga turmushga chiqishsa, fuqarolik yoki doimiy yashash huquqini olishlari mumkin.

Ushbu ma’lumotlar Janubiy Koreya va boshqa Sharqiy Osiyo mamlakatlari duch kelayotgan demografik inqirozni ochib beradi. Ularning jamiyatlari sanoatlashuvning tez rivojlanishidan atigi bir necha o‘n yil o‘tib, aholi qarishi tezlashgan, bu esa jiddiy iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Xulosa qilib aytganda, Janubiy Koreyada aholining qarishi mamlakat iqtisodiyoti, sog‘liqni saqlash tizimi va ijtimoiy tuzilmasi uchun jiddiy muammolar va imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Tug‘ilish darajasining pasayishi, umr ko‘rish davomiyligining oshishi va oilaviy munosabatlarning o‘zgarishi aholining tez qarishiga sabab bo‘lmoqda. Ushbu demografik jarayon mehnat bozoriga, pensiya tizimiga va sog‘liqni saqlash xizmatlariga bosim o‘tkazmoqda, bu esa hukumatdan kompleks chora-tadbirlarni talab qiladi. Bu muammolarni hal qilish uchun Janubiy Koreya qariyalar parvarishini yaxshilash, keksalarning mehnat bozorida faol ishtirok etishini rag‘batlantirish va ishchi kuchi tanqisligini to‘ldirish uchun immigratsiya siyosatini joriy etishi lozim. Bundan tashqari, oilalar uchun qulayroq muhit yaratish va tug‘ilish darajasini oshirishga qaratilgan rag‘batlantiruvchi choralar uzoq muddatda demografik o‘zgarishlarning salbiy ta’sirini kamaytirishga yordam berishi mumkin. Faol siyosat va jamiyatning moslashuvi bilan Janubiy Koreya ushbu demografik o‘zgarishlarni muvaffaqiyatli boshqarib, barqaror rivojlanishni ta’minlashi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://kosis.kr/statHtml/statHtml

2. World Bank Group Korea Office Newsletter NOVEMBER/DECEMBER 2015

3. https://edition.cnn.com/2024/12/24/asia/south-korea-super-aged-society-intl-hnk/index.html South Korea becomes ‘super-aged’ society, new data shows. By Yoonjung Seo and Chris Lau

4. https://time.com/6696414/south-korea-elderly-workforce/How South Korea Is Tackling Its Demographic Crisis. By Koh Ewe

5. https://www.channelnewsasia.com/asia/faced-worlds-lowest-birth-rate-south-korea-ramps-efforts-keep-elderly-population-active Faced with world's lowest birth rate, South Korea ramps up efforts to keep elderly population active. By Lim Yun Suk and Fabian Koh
6. https://www.statista.com/topics/12258/aging-population-in-south-korea Aging population in South Korea. By L. Yoon, Jun 13, 2024
7. https://asianews.network/south-koreans-life-expectancy-higher-than-oecd-average South Koreans' life expectancy higher than OECD average. By Lee Jaeeun. July 25, 2023
8. https://www.oecd.org/en/publications/society-at-a-glance-2024_918d8db3-en/full-report/fertility_748a5055.html Society at a Glance 2024: OECD Social Indicators
9. https://www.oecd.org/en/publications/working-better-with-age-korea_9789264208261-en.html Working Better with Age: Korea. OECD October 24, 2018

KOREYA RESPUBLIKASINING ZAMONAVIY DEMOGRAFIK HOLATI

Sevara OKTYABROVA
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S. Maxatov

Annotatsiya: Ushbu maqolada Koreya Respublikasida demografik o'zgarishlar, xususan, tug'ilish darajasining keskin pasayishi va aholi qarishining iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlari tahlil etiladi. Aholi sonining barqaror kamayib borishi mehnat bozoridagi qisqarish, ichki iste'molning pasayishi, sog'liqni saqlash tizimiga yuklamaning ortishi va davlat byudjetiga qo'shimcha bosim kabi muammolarni keltirib chiqarmoqda. Maqolada shuningdek, hukumat tomonidan olib borilayotgan immigratsiya siyosati, texnologik innovatsiyalar va tug'ilishni rag'batlantiruvchi chora-tadbirlar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot Koreya iqtisodiyotining uzoq muddatli barqarorligi uchun tarkibiy islohotlar zarurligini asoslaydi.

Kalit so'zlar: aholi qarishi, tug'ilish darajasi, iqtisodiy barqarorlik, super-keksaygan jamiyat, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, ishchi kuchi, tug'ilish ko'rsatkichi, demografik inqiroz, iqtisodiy o'sish sur'ati.

Koreya Respublikasi o'zining yuqori iqtisodiy rivojlanishi bilan dunyo miqyosida tanilgan mamlakatlardan biridir. Biroq, so'nggi yillarda demografik o'zgarishlar, ayniqsa aholi qarishining kuchayishi va tug'ilish darajasining pasayishi, mamlakatning iqtisodiy barqarorligiga xavf tug'diruvchi omilga aylangan. Koreyada aholi sonining ortishi 20-asrning oxiridan boshlab sekinlashgan, hozir esa bu jarayonning sezilarli darajada tezlashgani kuzatilmoqda. Bu o'zgarishlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri har tomonlama

tahlil qilinishi zarur. Aholining qarishiga sabab bo‘layotgan omillarni o‘rganish, mehnat bozori, sog‘liqni saqlash tizimi, fiskal siyosat va iqtisodiy o‘sish uchun qo‘shimcha strategiyalarni ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan mamlakatlar orasida uzoq umr ko‘rish muammosi, ya’ni ishchi kuchining kamayishi fonida keksayib borayotgan aholini qo‘llab-quvvatlash zarurati ortib borayotgan bir paytda, Janubiy Koreya bu borada o‘ziga xos istisno holatga aylandi.

2024-yil oxiriga kelib, Janubiy Koreya Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan “super-keksaygan jamiyat” sifatida belgilangan davlatga aylandi. Bu degani, aholining 20% yoki undan ko‘prog‘ini 65 yoshdan oshgan insonlar tashkil qiladi. E’tiborlisi, Koreya bu bosqichga atigi 7 yilda yetib keldi, holbuki Yaponiya bunga 11 yil, Yevropaning 27 davlatidan iborat iqtisodiy bloki esa 19 yilda erishgan edi.[1]

Janubiy Koreyaning mehnatga layoqatli aholisi kamayishda davom etsa, mamlakat iqtisodiy o‘sishi 2040-yildan boshlab pasayishi mumkin, deya ogohlantirmoqda Koreya Markaziy banki. Hozirgi kunda iqtisodiy o‘sish sur’ati 2% atrofida.

Morgan Stanley bankining Koreya va Tayvan bo‘yicha bosh iqtisodchisi Ketlin O (Kathleen Oh) shunday deydi:

“Koreya dunyodagi eng jiddiy demografik muammolardan biriga duch kelmoqda. Hukumat buni e’tibordan chetda qoldirmay, 2023-yil iyun oyida rasmiy ravishda ‘demografik inqiroz’ deb e’lon qildi. Yaxshi tomoni shundaki, bu boradagi chora-tadbirlar endi qisqa muddatli yechimlardan uzoqlashib, uzoq muddatli islohotlarga qaratilgan”.

Tug‘ilish darajasining pasayishi

Koreya Statistikasi ma’lumotlariga ko‘ra, mamlakatning umumiy tug‘ish ko‘rsatkichi, ya’ni bir ayolning umr davomida tug‘adigan bolalarining o‘rtacha soni 2023 yilda 0,72 dan 2024 yilda 0,75 ga ko‘tarildi[2]. Taqqoslash uchun, aholining barqaror sonini saqlab qolish uchun bu ko‘rsatkich 2,1 bola bo‘lishi kerak. Hukumat prognozlariga ko‘ra, aholi soni 2025-yildan boshlab kamayishni boshlaydi va keyingi 40 yil ichida uchdan bir qismga qisqaradi. Shu bilan birga, 2065-yilga borib, mehnatga layoqatli aholi soni ikki baravarga kamayishi kutilmoqda. Global miqyosda tug‘ilish darajasi oxirgi 50 yil ichida pasayib kelayotgan bo‘lsa-da, Koreyada buni tezlashtirgan bir necha omillar mavjud:[3]

1. Nikohlarning kamayishi: Pandemiya davrida nikohlar soni keskin kamaydi. Nikohsiz farzand ko‘rish hali ham ijtimoiy me’yor emas, shuning uchun tug‘ilish darajasi tushib ketdi. 2020-yilda yangi tug‘ilgan chaqaloqlar soni 10% ga kamaydi va bu tendensiya 2023-yilgacha davom etdi.

2. Uy-joy narxlarining o‘sishi: O‘tgan 10 yil ichida uy narxlari 80% ga oshdi, bu esa yoshlarni nikohni kechiktirishga yoki umuman rad etishga majbur qilmoqda. Hukumat tomonidan 2023-yilda o‘tkazilgan so‘rov natijalariga ko‘ra,

[1] https://www.morganstanley.com/ideas/south-korea-population-decline-aging-crisis
[2] https://www.dw.com/en/south-korea-records-birth-rate-rise/a-71812274
[3] https://www.morganstanley.com/ideas/south-korea-population-decline-aging-crisis

yoshlarning 40% bolali bo‘lishdan bosh tortish sababini uy-joy va bolani tarbiyalash xarajatlarining qimmatligi bilan izohlashgan.

3. Ta’lim tizimidagi muammolar: Janubiy Koreyada oilalarning o‘rtacha 12% daromadi xususiy ta’limga sarflanadi. Bu raqam ovqatlanish va kundalik ehtiyojlar uchun sarflanadigan mablag‘dan ham yuqori. Hukumat bolalarni tarbiyalash xarajatlarini kamaytirish uchun ta’lim va bolalarni parvarishlash tizimini isloh qilishni rejalashtirmoqda.

Tizimli o‘zgarishlar va davlatning yangi choralari.

Hukumat oxirgi 20 yil davomida $320 milliard mablag‘ ajratib, demografik muammoni hal qilishga harakat qilmoqda. 2005-yildan boshlab aholining o‘sishini rag‘batlantirish maqsadida turli dasturlar joriy etilgan bo‘lsa-da, ular asosan moliya yordami bilan cheklanib, muammoning ildiziga yetib bormagan. Endi hukumat quyidagi fundamental o‘zgarishlarni amalga oshirishni rejalashtirmoqda:[1]

1. Pensiya tizimi isloh qilinmoqda: Koreyaning davlat pensiya jamg‘armasi hozirgi sur’atda 2055-yilda tugashi mumkin. Shu sababli, hukumat pensiya tizimini qayta ko‘rib chiqib, uni 2080-yillargacha yetkazishni rejalashtirmoqda.

2. Mehnat bozoridagi o‘zgarishlar: Ish va shaxsiy hayot muvozanatini yaxshilash, shuningdek, ishchi kuchining kamayishiga javoban nafaqaga chiqish yoshini oshirish muhokama qilinmoqda. “Maoshning eng yuqori nuqtaga yetishi” (Wage peak out) tizimi joriy etilishi mumkin, bu esa ishchilarning pensiya yaqinlashgan sari ish haqini bosqichma-bosqich kamaytirish imkonini beradi. Bu esa yosh kadrlar uchun yangi ish o‘rinlari yaratishga yordam beradi.

3. Ishchi kuchini to‘ldirish uchun muhojirlarni jalb qilish: Hozirda Janubiy Koreyada chet ellik ishchilarning ulushi 3,4% ni tashkil etadi, bu global miqyosda juda past ko‘rsatkichdir. Hukumat yuqori malakali va kam malakali ishchilarga immigratsiya sharoitlarini yengillashtirishni ko‘rib chiqmoqda.

Morgan Stanley eksperti Ketlin O shunday deydi:

“Janubiy Koreya iqtisodiyoti uchun chet ellik ishchilarni jalb qilish juda muhim bo‘ladi. Siyosatchilar orasida bunday muhojirlarni qabul qilish bo‘yicha kelishuv ortib borayotgan bo‘lsa-da, hali ham jiddiy o‘zgarishlar kuzatilmagan”.

Xulosa qilib aytganda Janubiy Koreya aholisi jadal ravishda keksayib borayotgani mamlakat iqtisodiyoti va ijtimoiy tizimiga katta bosim yuklamoqda. Hukumat oldingi qisqa muddatli yondashuvlardan voz kechib, pensiya, bandlik va immigratsiya sohalarida chuqur islohotlar o‘tkazishga urinmoqda. Ushbu islohotlar muvaffaqiyatli amalga oshirilmasa, Janubiy Koreyaning iqtisodiy kelajagi xavf ostida qolishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Birlashgan Millatlar Tashkiloti Aholishunoslik Bo‘limi (UN Population Division):https://population.un.org/wpp/

2. https://pmc.ncbi.nlm.nih.gov/articles/PMC11471922/

[1] https://podcasts.apple.com/lr/podcast/south-koreas-super-aging-challenge/id1466686717?i=1000673217644

3. Seul Milliy Universiteti Aholishunoslik Tadqiqotlari Markazi (Population Research Center at Seoul National University): http://pop.snu.ac.kr/
4. Koreya Sog‘liqni Saqlash va Ijtimoiy Ishlar Instituti (Korea Institute for Health and Social Affairs): https://www.kihasa.re.kr/en/index

KOREYA RESPUBLIKASIDA ISHSIZLIK VA YOSHLAR ORASIDAGI BANDLIK MUAMMOLARI

O‘g‘iloy ANARBAYEVA
TDSHU, Xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik ta’lim yo‘nalishi 2-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: S. Maxatov

Annotatsiya: Koreya Respublikasi bugungi kunda iqtisodiy rivojlanishning yuqori darajasiga erishgan davlatlardan biri hisoblanadi. Biroq, mamlakat duch kelayotgan muhim iqtisodiy muammolardan biri yoshlar orasidagi ishsizlik va bandlik masalasidir. Ushbu maqolada Koreya Respublikasida yoshlar bandligi bilan bog‘liq dolzarb muammolar, ularning sabablari, mavjud holatlar va yechimlar bo‘yicha takliflar ilmiy tahlil asosida ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: Koreya Respublikasi , ishsizlik darajasi, yoshlar orasidagi ishsizlik, bandlik, BMT, avtomatlashtirish, raqamlashtirish, iqtisodiy tiklanish, Osiyo inqirozi, YaIM, pensiya tizimi.

Yoshlar dunyodagi har bir davlatning ijtimoiy-iqtisodiy manzarasida o‘ziga xos va ajralmas o‘rin tutadi. Energiya, ijodkorlik va innovatsiyalar manbai sifatida yoshlar mamlakatning rivojlanish maqsadlariga erishish yo‘lida asosiy harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Ular kelajakdagi ishchi kuchi, tadbirkorlar va iste’molchilar sifatida iqtisodiy o‘sishni barqaror saqlash uchun muhim bo‘lgan salohiyat va dinamikani namoyon etadilar. Davlatning iqtisodiy farovonligi ushbu salohiyatlardan samarali foydalanishga bog‘liq bo‘lib, yoshlarni mehnat bozori va jamiyatning barcha sohalariga integratsiya qilish muhim ahamiyatga ega. Biroq, yoshlar ishsizligining ortib borishi ushbu taraqqiyotga jiddiy xavf solmoqda va bu muammo mahalliy yoki rivojlanayotgan mamlakatlar doirasidan tashqariga chiqib ketmoqda.[1] Dunyoda yillar mobaynida yoshlar ishsizlik darajasi katta yoshdagi insonlar ishsizlik darajasidan deyarli uch marta yuqori ekanligini kuzatish mumkin. BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) ta’rifiga ko‘ra ishsiz yoshlar 15 yoshdan 24 yoshgacha bo‘lgan ishga layoqatli, ammo ish bilan band bo‘lmagan faol ish qidirayotgan va ishga kirishga tayyor bo‘lgan shaxslar hisoblanadi.

1-grafik

1991-2023-yillarda dunyo miqyosida yoshlar o‘rtasida ishsizlik darajasi

[1] Article: “Youth unemployment as a growing global threat” by Fatih Ayhan Bandırma Onyedi Eylül University January 2016



1991-2001-yillarda ishsizlik darajasi global iqtisodiy o‘zgarishlar, xizmatlar sohasi tomon siljish, avtomatlashtirish va raqamlashtirish jarayonlari tajribasiz va past malakali ishchilar uchun imkoniyatlarni cheklab qo‘yganligi tufayli asta-sekin o‘sib borgan.

2001-2008-yillarda iqtisodiy tiklanish natijasida o‘zgaruvchanlik kuzatilgan bo‘lsa-da, barqaror o‘sish ta’minlanmagan. 2008-yilgi global moliyaviy inqiroz yoshlar ishsizligining keskin oshishiga olib keldi. Ushbu davrda ish o‘rinlari qisqarishi va iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi bunga asosiy sabab bo‘lgan. 2014-2019-yillarda esa iqtisodiy tiklanish davom etganiga qaramay, mehnat bozoridagi qattiqlik va moslashuvchanlikning yetishmasligi yoshlar ishsizligini yuqori darajada ushlab turdi. 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi yoshlar ishsizligini keskin oshirdi, so‘nggi 33 yil oralig‘ida eng yuqori ko‘rsatkich 17,1% ga yetdi. [1]Savdo, turizm va umumiy ovqatlanish kabi sohalarda faoliyatning qisqarishi yoshlar uchun katta yo‘qotishlarga olib keldi. Biroq, 2021-yildan boshlab hukumat dasturlari, iqtisodiy tiklanish va moslashuvchan ish shakllariga o‘tish yoshlar ishsizligini tezkor ravishda kamaytirishga yordam berdi.

2023-yilda dunyo bo‘yicha 15 dan 24 yoshgacha bo‘lgan 64,9 million yosh ishsiz bo‘lgan. Bu XXI asrdagi eng past ko‘rsatkich bo‘lib, COVID-19 pandemiyasi boshlanishidan oldingi 2019-yildagi ishsiz yoshlar sonidan qariyb 4 millionga kamdir. 2023-yilda global yoshlar ishsizligi darajasi 13 foizni tashkil etdi, bu nafaqat COVID-19 cho‘qqisidan to‘liq tiklanishni aks ettiradi, balki so‘nggi 15 yil ichidagi eng past darajaga ham yetdi. Garchi bu ijobiy o‘zgarish

[1] Global Employment Trends for Youth 2024, Decent work, brighter futures, International Labour Office, Geneva

bo‘lsa-da, hali ham dunyo bo‘yicha qariyb 65 million yosh haq to‘lanadigan ishga bo‘lgan to‘liq qondirilmagan talabga ega.[1]

Xuddi shu davrda, 1991-2023-yillar oralig‘ida Janubiy Koreyaning o‘rtacha ishsizlik darajasi 3.34% ni tashkil etgan . Eng yuqori ko‘rsatkich 1998-yilda Osiyo inqirozi tufayli 7 foizni tashkil etgan edi.

2-grafik

1991-2023-yillarda Koreya Respublikasida ishsizlik darajasi



2023-yilda Janubiy Koreyada ishsizlik darajasi (2.64%) o‘zining tabiiy darajasidan pastroq bo‘lib, bu mamlakat iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini anglatadi, ammo ayni paytda potensial nomutanosiblik xavfini ham ko‘rsatadi. Uzoq muddatli o‘rtacha ishsizlik darajasi (3,34%) barqaror va iqtisodiy jihatdan maqbul deb baholanadi. Biroq, ishsizlik darajasini yosh toifalarida ifodalaganimizda yoshlar (15-29 yosh) orasida ishsizlikning eng yuqori ekanligiga guvoh bo‘lamiz.[2]

[1] https://www.donorplatform.org/post/publications/ilo-global-employment-trends-for-youth-2024/

[2] https://data.worldbank.org/indicator/SL.UEM.TOTL.NE.ZS?locations=KR

3-grafik

Koreya Respublikasida yoshlar va kattalar o‘rtasidagi ishsizlik darajasi



Koreya Respublikasida yoshlar ishsizlik darajasi yillar mobaynida kattalar ishsizlik darajasidan bir necha barobar yuqori bo‘lib kelgan (3-grafik). Albatta buning bir necha sabablar mavjud. Iqtisodiy o‘sishning sekinlashuvi bu sabablardan biridir, ya’ni 2003-yildan boshlab Koreya iqtisodiyoti o‘sish sur’atlari 3% atrofida bo‘lib, bu mehnat bozorining ish o‘rinlarini yaratish qobiliyatini pasaytirdi. Natijada, ayniqsa kollej bitiruvchilari uchun ish topish qiyinlashdi. Yana bir sabablardan mehnat bozoridagi ikki tomonlama tuzilma bo‘lib, Koreyada doimiy va vaqtinchalik ish o‘rinlari o‘rtasidagi tafovut katta. Vaqtinchalik yoki norasmiy ishchilarning ulushi yuqori bo‘lib, ular doimiy ishchilarga nisbatan kamroq maosh oladi va kamroq himoyalangan. Bu yoshlarning barqaror ish topish imkoniyatlarini cheklaydi. Yangi texnologiyalarning joriy etilishi va avtomatlashtirish ba’zi an’anaviy ish o‘rinlarining yo‘qolishiga sabab bo‘ldi. Masalan, chakana savdo sohasida o‘z-o‘ziga xizmat ko‘rsatish tizimlarining kengayishi ishchilarga bo‘lgan talabni kamaytirdi. So‘nggi yillarda eng kam ish haqi sezilarli darajada oshirildi, bu esa kichik va o‘rta bizneslar uchun mehnat xarajatlarining oshishiga olib keldi. Natijada, ba’zi kompaniyalar ish o‘rinlarini qisqartirish yoki yangi ishchilarni yollashni cheklashga majbur bo‘ldi. Yoshlar orasidagi ishsizlikning asosiy sabablaridan biri koreys yoshlarining yuqori maosh to‘laydigan yirik korxonalardagi to‘liq stavkali ishlarni xohlashlaridir. Shu sababdan Koreyada ko‘plab yoshlar oliy ma’lumot olishga intiladi, bu esa mehnat bozorida malakali ishchilarning ortiqcha bo‘lishiga olib keladi. Natijada, ko‘plab kollej bitiruvchilari o‘z malakalariga mos ish topishda qiyinchiliklarga duch keladi. Koreya universiteti Mehnat tadqiqotlari aspiranturasining professori Kim Song Xi, yaxshi maosh to‘laydigan va istiqbolli barqaror ish o‘rinlari soni juda kamligini asosiy muammo sifatida ko‘rsatdi. “Yirik korxonalardagi to‘liq stavkali

ish o‘rinlari mamlakatdagi jami ishlarning atigi 10 foizini tashkil etadi,” – deydi u. Hansung universiteti iqtisodiyot professori Kim Sang-bong esa AQSh va Yaponiya kabi rivojlangan mamlakatlarda vaqtinchalik ishchilar va frilanserlar ko‘payishi kabi tendensiyalar kuzatilayotganini ta’kidladi. “Agar ilgari “yaxshi ish” deb hisoblangan ish o‘rinlarini yarata olmasak, unda mehnat bozorini moslashuvchan qilish – doimiy va norasmiy ishchilar o‘rtasidagi maosh farqini qisqartirish hamda huquqiy himoyadan chetda qolgan ishchilarni himoya qilish kerak,” deydi u.

Yoshlar orasidagi ishsizlikning o‘zi bir muammo bo‘lib turgan bir paytda bu muammoning o‘zi mamlakatda turmush qurishga bo‘lgan yoshlar qarashlariga ham ta’sir ko‘rsatmoqda. Tegishli ish topa olmaslik natijasida, ko‘plab Koreyalik yoshlar turmush qurmayapti va farzand ko‘rmayapti. Koreya Statistika agentligining ma’lumotlariga ko‘ra, 2022-yilda 1000 kishiga to‘g‘ri keladigan nikohlar soni 3.7 tani tashkil etdi – bu ko‘rsatkich 1970-yildan beri eng past darajada qayd etilgan. Shuningdek, 2023-yil 28-avgustda e’lon qilingan so‘rov natijalariga ko‘ra, 19-34 yosh oralig‘idagi respondentlarning faqat 36.4 foizi nikohga ijobiy munosabat bildirgan – bu ko‘rsatkich 2012-yildagi 56.5 foizdan 20.1 foiz punktga pasaygan.[1] Jamiyatda turmushlar sonining pastligi esa tug‘ilish sonining sustlashishiga va oxir oqibat salbiy demografik natija aholi sonining kamayishini yanada og‘irlashtiradi.

Albatta yoshlar orasidagi ishsizlik Koreya Respublikasi iqtisodiyotiga o‘z ta’sirini ko‘rsatmay qolmaydi. Yoshlar iqtisodiyotning eng faol va innovatsion qatlami hisoblanadi. Ularning mehnat bozoridan chetda qolishi ishchi kuchi zaxirasining to‘liq ishlatilmasligiga olib keladi. Bu esa umumiy mahsulot hajmining kamayishiga, YaIM o‘sish sur’atlarining sekinlashuviga sabab bo‘ladi. Ishsiz yoshlar davlat tomonidan turli ijtimoiy dasturlar orqali qo‘llab-quvvatlanadi (masalan,naqd pul subsidiyalari, psixologik maslahatlar,kasbga tayyorlash kurslari). Bu esa davlat byudjetidan katta mablag‘ sarflashni talab qiladi va fiskal bosimni kuchaytiradi. Ish topa olmagan yoshlar turmush qurish va farzand ko‘rishni kechiktiradi yoki butunlay rad etadi. Bu holat tug‘ilish darajasining pasayishiga olib keladi. Janubiy Koreyada tug‘ilish koeffitsiyenti allaqachon dunyodagi eng past darajalardan biri bo‘lib, bu kelajakda mehnat kuchi tanqisligiga va pensiya tizimining izdan chiqishiga olib kelishi mumkin. Ishsiz yoshlar kam daromad yoki umuman daromadga ega bo‘lmaganligi sababli, kam iste’mol qiladi. Bu esa ichki bozor faolligini susaytiradi, ayniqsa iste’molga bog‘liq tarmoqlarda (savdo, xizmat ko‘rsatish, ko‘ngilochar soha) iqtisodiy faollik pasayadi.

Koreyada yoshlar ishsizlik muammosiga qarshi hukumat tomonidan bir necha amaliyotlar olib borilmoqda. 2023-yilning noyabrida Janubiy Koreya hukumati yoshlarga ishga joylashishga yordam berish maqsadida 1 trillion von (taxminan 769million dollar) miqdorida mablag‘ ajratdi[2]. Bu mablag‘ yoshlarning

[1] https://www.straitstimes.com/asia/east-asia/more-young-south-koreans-give-up-on-finding-a-job

[2] https://m-en.yna.co.kr/view/AEN20231115004300320?utm_source=chatgpt.com

ish tajribasini oshirish, amaliyot dasturlarini kengaytirish va yangi ishchilarga yordam berishga qaratilgan. 2024-yil sentyabr oyida kichik va o‘rta korxonalarda ishlayotgan yoshlar uchun moliyaviy rag‘batlantirish dasturi joriy etildi[1]. Bu dastur yosh ishchilarning jamg‘arma va moliyaviy barqarorligini ta’minlashga qaratilgan. Shuningdek, Koreyada yoshlar orasidagi bandlikni oshirish uchun kichik va o‘rta bizneslarda ish bilan ta’minlash uchun korxonalarga subsidiyalar va boshqa rag‘batlantirishlar taqdim etilishi ham yoshlar uchun ko‘proq ish o‘rinlarini yaratishga yordam bera oladi. Yoshlarni o‘z bizneslarini boshlashga rag‘batlantirish, ular uchun kreditlar, biznes markazlari va maslahat xizmatlari yaratish, yangi ish o‘rinlarini yaratishga yordam beradi.

Xulosa qilish mumkinki, Koreya Respublikasida umumiy ishsizlik darajasi me’yorida va butun dunyo davlatlari orasida eng past bo‘lsa-da, yoshlar ishsizlik darajasi mamlakat iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi holatda qolmoqda. Bu muammoni hal qilish uchun Koreya Respublikasi hukumati bir necha yechimlarni amalga oshirmoqda, ammo bu yechimlar orqali kutilgandek muvaffaqiyatli natijaga erishish qiyin bo‘lib qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Is the future ready for youth? Youth employment policies for evolving labour markets Juan Chacaltana and Sukti Dasgupta, Editors International Labour Office, Geneva.
2. The youth employment crisis: a call for action resolution and conclusions of the 101st Session of the International Labour Conference, Geneva, 2012
3. Jaeryang Nam (April 2006), The Dynamic Characteristics and Policy Implications of Youth Unemployment , Monthly Labour Review, Korea Labour Institute
4. Article: “Youth unemployment as a growing global threat” by Fatih Ayhan Bandırma Onyedi Eylül University January 2016
5. National Social Affairs S. Korea’s rising problem: unemployed youth giving up on job searching by Lee Jung-youn Oct. 23
6. Global Employment trends for Youth 2024 Decent work, brighter futures International Labour Office Geneva Code: DESIGN/PPM/PMSERV
7. https://data.worldbank.org/indicator/SL.UEM.1524.ZS
8. https://www.oecd.org/en/data/indicators.html?orderBy=mostRelevant&page=0
9. https://data.worldbank.org/indicator/SL.UEM.TOTL.NE.ZS?locations=KR
10. https://www.macrotrends.net/global-metrics/countries/wld/world/youth-unemployment-rate

[1] https://www.koreatimes.co.kr/southkorea/politics/20240924/south-korean-govt-ruling-party-agree-to-ramp-up-support-to-unemployed-isolated-youth

MALAYZIYADA TURIZMNING MAMLAKAT IQTISODIYOTIGA TA'SIRI: ZAMONAVIY TENDENSIYALAR

Shaxzoda ADASHOVA
TDSHU, Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti
Xalqaro turizm 2-kurs malay-ingliz guruhi talabasi
Ilmiy Rahbar: dotsent N. Azizova

Annotatsiya: Ushbu maqolada Malayziyada turizm sohasining mamlakat iqtisodiyotiga ta'siri va zamonaviy tendensiyalari tahlil qilinadi. Turizm Malayziya iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti (YaIM) va bandlik darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqotda turizm orqali kelayotgan xorijiy investitsiyalar, davlat daromadlari va mahalliy tadbirkorlik rivojlanishi kabi omillar ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: turizm iqtisodiyoti, tendensiyalar, iqtisodiy barqarorlik, statistika, strategiya.

Turizm bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining muhim tarmoqlaridan biri hisoblanib, ko'plab mamlakatlar rivojlanishida katta rol o'ynamoqda. Xususan, Janubi-Sharqiy Osiyoning eng mashhur sayyohlik yo'nalishlaridan biri bo'lgan Malayziya turizm sohasida sezilarli yutuqlarga erishib, iqtisodiy o'sishga salmoqli hissa qo'shmoqda.

Malayziyaning tabiiy go'zalligi, boy madaniy merosi, rivojlangan infratuzilmasi va qulay sayyohlik siyosati mamlakatni xalqaro miqyosda jozibador turistik maskanga aylantirdi. Turizm sohasi Malayziya yalpi ichki mahsulotida (YaIM) muhim ulushga ega bo'lib, minglab ish o'rinlarini yaratish, xizmat ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish orqali iqtisodiyotga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda.

Malayziya – industrial-agrar mamlakat sifatida yalpi ichki mahsulotda ishlab chiqarish sanoatining ulushi– 28,7 %, konchilik sanoatining ulushi– 9,3 %, qishloq xo'jaligining ulushi– 17,3 % tashkil qiladi[1].

Turizm Malayziya iqtisodiyotining muhim tarmog'i bo'lib, yalpi ichki mahsulotga (YaIM) sezilarli hissa qo'shadi. Ushbu soha nafaqat milliy daromadni oshiradi, balki yangi ish o'rinlarini yaratish, infratuzilmani rivojlantirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilishda ham muhim rol o'ynaydi.

Malayziya 2024-yilda 25,016,698 nafar xalqaro sayyohni qabul qildi, bu 2023-yilga nisbatan 24,2% o'sishni ko'rsatadi. Biroq, bu ko'rsatkich Turizm, san'at va madaniyat vazirligi tomonidan belgilangan 27,3 millionlik maqsaddan pastroqdir. 2019-yilda turizm sohasidan mamlakatga tushgan daromad 86.1 milliard Malayziya ringgitini (taxminan 20.6 milliard AQSh dollari) tashkil qilgan[2] .Ushbu sohaning YaIMdagi ulushi taxminan 15% ni tashkil etadi va bu raqam yuqoridagi ma'lumot bilan solishtirganda yildan-yilga oshib bormoqda.

[1] https://www.bnm.gov.my
[2] https://www.malaysia.travel

Asosiy turistik manbalariga qaraganda, 2024-yilda Malayziyaga eng ko‘p sayyohlar oqimi quyidagi davlatlardan kelgan (1- rasm).

1-rasm. 2024-yilda Malayziyaga eng ko‘p sayyohlar kelgan mamlakatlar[1]



Manba: Statista.com sayti ma’lumotlari asosida_muallif tomonidan bajarildi.

Malayziya turizm agentligi 2025-yilda turizmni targ‘ib qilish va rivojlantirish uchun 10 million ringgit (taxminan 2,26 million AQSh dollari) ajratdi. Bu 2024-yildagi 7,6 million ringgit bilan solishtirganda sezilarli oshishni ko‘rsatadi.

Turizm Malayziya iqtisodiyotiga bir qator ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Avvalo, mehmonxonalar, restoranlar, sayyohlik agentliklari va transport xizmatlari orqali yuz minglab kishilar ish bilan ta’minlanadi. Shuningdek, yirik mehmonxona tarmoqlari va xalqaro turistik loyihalar xorijiy investitsiyalarni jalb qiladi. Bundan tashqari, turistlar tomonidan sarflangan mablag‘lar xizmat ko‘rsatish va chakana savdo tarmoqlarining rivojlanishiga turtki bo‘lib, milliy daromadning oshishiga xizmat qiladi.Turizmning yana bir muhim jihati hududiy rivojlanishga qo‘shayotgan hissasidir. Sayyohlik infratuzilmasining rivojlanishi natijasida transport tizimi, yo‘llar va mehmonxona xizmatlari modernizatsiya qilinib, mamlakatning jozibadorligi yanada oshadi.

Malayziya hukumati turizm sohasini rivojlantirish uchun bir qator strategik chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Jumladan, “Halol Park” tashabbusi orqali halol mahsulotlar va xizmatlarga yo‘naltirilgan maxsus zonalar tashkil etilgan. Bu

[1] https://www.statista.com/statistics/1004711/tourist-arrivals-malaysia/

parklar halol sertifikatiga ega ishlab chiqarish quvvatlari, tadqiqot markazlari va logistikani birlashtiradi. Shuningdek, Malayziya Islom Taraqqiyoti Departamenti (JAKIM) tomonidan halol sertifikatlash jarayoni nazorat qilinadi. Islom Turizm Markazi (ITC) esa musulmon sayyohlar uchun ma'lumot va xizmatlarni rivojlantirish bilan shug'ullanadi.Turizm sohasidagi bu kabi tashabbuslar va investitsiyalar Malayziyaning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi.

Turizmda Malayziya o'zining xalqaro marketing strategiyasining bir qismi sifatida asosiy shaharlardan kelgan badavlat sayohatchilarni yo'naltiradi. Uning Janubiy Osiyo, G'arbiy Osiyo va Afrika bo'yicha xalqaro marketing bo'limi direktori Zulkifly Md Saidning aytishicha, aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlar ko'rib chiqiladi. "Indoneziya, Xitoy va Hindistonda aholi zich joylashgan. Shunday qilib, biz kattaroq bozor bazasini egallashimiz mumkin. Ushbu strategiya orqali biz ko'proq sayyohlar kelishiga umid qilamiz va qolish muddatini va sayyohlik tushumlarini ko'paytiramiz", deb ta'kidladi , bo'lib o'tgan Janubiy va G'arbiy Hindiston sayohat agentliklari uchun Malayziya Magistrlarni tayyorlash dasturida taqdimoti chog'ida. Zulkifli Hindistonni muhim bozor deb ta'riflagan, chunki u 2009 va 2010 yillarda Malayziyaning eng yaxshi 2011 ta bozorida oltinchi o'rinni egallagan. "Bizga 690,849 yilda Hindistondan 2010 yil 693,056 nafar, 2011 yilda esa 749,315 nafar sayyoh tashrif buyurdi", deb bayonot qildi.

Malayziyaning turizm sohasidagi strategiyasi ancha oqilona va maqsadli, afsuski bu juda eskirgan g'oya bo'lib , hozirgi vaqtda ular aholisi ko'p bo'lgan mamlakatlarga e'tibor qaratish orqali turistlar oqimini oshirishga harakat qilmoqda. Ayniqsa, Hindiston, Xitoy va Indoneziya kabi mamlakatlardan sayyohlarni jalb qilish uzoq muddatda katta daromad keltirishi mumkin.Biroq, faqat ko'proq sayyohlarni jalb qilish yetarli emas. Sayyohlik xizmatlari sifati, turistik infratuzilma va madaniy tadbirlar ham rivojlantirilishi kerak. Aks holda, sayyohlar faqat bir martalik tashrif bilan cheklanib, kelgusida raqobatbardosh mamlakatlarni afzal ko'rishi ehtimoli ortadi. Umuman olganda, ushbu strategiya umumiy rivojlanish tamoyillariga muvofiq keladi. Biroq, barqaror turizmni ta'minlash uchun sayyohlarning qoniqish darajasini oshirish, ularga qulay sharoit yaratish va ularning qayta tashrif buyurish ehtimolini oshirish muhim strategik omil hisoblanadi.

So'nggi yillarda Malayziya turizm sohasida bir qator zamonaviy tendensiyalar kuzatilmoqda. Ular quyidagilardan iborat:

№	Zamonaviy tendensiyalar	Tasnifi
1.	**Ekoturizm va Barqaror Rivojlanish**	Malayziya o‘zining tropik o‘rmonlari, milliy bog‘lari va marjon orollari bilan mashhur. So‘nggi yillarda ekologik toza turizm yo‘nalishlariga talab ortib bormoqda. Taman Negara milliy bog‘i, Langkavi oroli va Borneo o‘rmonlari sayyohlar orasida ommalashgan. Hukumat ekologik turizmni rivojlantirish uchun barqaror turizm loyihalarini qo‘llab-quvvatlamoqda.
2.	**Tibbiy Turizm**	Malayziya Osiyodagi eng yirik tibbiy turizm markazlaridan biri bo‘lib, dunyoning turli mamlakatlaridan bemorlarni jalb qilmoqda. Xususiy shifoxonalar yuqori sifatli xizmatlarni nisbatan arzon narxlarda taqdim etadi. Plastik jarrohlik, stomatologiya, kardiologiya va boshqa sohalar bo‘yicha Malayziya xalqaro tibbiy sayyohlik markaziga aylangan.
3.	**Raqamli Texnologiyalar va Smart Turizm**	So‘nggi yillarda sun’iy intellekt, virtual reallik (VR) va onlayn rezervatsiya tizimlari turizm sohasida keng qo‘llanilmoqda. Malayziya mehmonxonalari va turistik agentliklari sayyohlarga onlayn bron qilish, raqamli yo‘riqnomalar va virtual ekskursiyalar kabi xizmatlarni taklif etmoqda.
4.	**Pandemiyadan Keyingi Tiklanish**	COVID-19 pandemiyasi global turizm industriyasiga katta zarba berdi. Biroq, Malayziya pandemiyadan keyingi tiklanish bo‘yicha faol strategiyalarni ishlab chiqdi. 2022-yildan boshlab mamlakat o‘z chegaralarini ochib, vaksinatsiya dasturlarini kengaytirdi va mahalliy turizmni rivojlantirish uchun qo‘shimcha rag‘batlantirish choralari ko‘rildi.

Malayziyada turizm iqtisodiyotning muhim sektori bo‘lib, mamlakatning yalpi ichki mahsuloti, ish o‘rinlari va xorijiy investitsiyalar hajmiga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy tendensiyalar, jumladan ekoturizm, tibbiy turizm va raqamli texnologiyalarning rivojlanishi turizmning yangi bosqichga chiqishiga imkon yaratmoqda. Kelajakda barqaror rivojlanish tamoyillarini qo‘llash va innovatsion yechimlardan foydalanish Malayziyaning global turizm bozorida raqobatbardoshligini yanada mustahkamlashiga yordam beradi. Malayziyaning turizm sohasida qilayotgan islohotlari va yangi yo‘nalishlari mamlakatni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. https://www.bnm.gov.my
2. https://www.malaysia.travel
3. https://www.researchgate.net/publication/385154853_Malayziyada_turizm_rivojlanishining_tendensiyalari
4. https://www.statista.com/statistics/1004711/tourist-arrivals-malaysia/

MAMLAKATDA REKREATSIYA VA DAM OLISH TURIZMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

Nasiba RUSTAMOVA
TDSHU, Tashqi siyosat va xalqaro iqtisodiy munosabatlar instituti
Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: Turizm kafedrasi stajyor-o'qituvchisi
Sh. Farxodova

Annotatsiya: Ushbu maqolada rekreatsion turizm xizmatlari va uning mamlakat rivojidagi o'rni haqida so'z boradi. O'zbekistonda tashkil etilgan turistik-rekreatsion zonalar va ularning faoliyati ko'rib chiqiladi va kelajakda tashkil etilishi mumkin bo'lgan dam olish zonalarining istiqbollari ham ta'kidlab o'tiladi.

Kalit so'zlar: turistik-rekreatsiya, kurort, ekstremal sport, ziplayn, sanatoriya, sog'lomlashtirish lagerlari, rekreatsion xizmatlar, mehmon uylari.

O'zbekistonda turizmning barcha mavjud turlarini rivojlantirish doimiy dolzarb masala bo'lib kelgan. Negaki faqat turizmgina davlatda bir qator sohalarni bir vaqtda ishlashiga ta'sir ko'rsatadi va bu uning iqtisodiyotiga eng ko'p foyda keltiradi. O'zbekistonning tabiiy, tarixiy va madaniy jihatdan turizm imkoniyatlari ko'p ekanligini hisobga olsak, o'lkamizda rekreatsiya va dam olish turizmini rivojlantirish uchun juda ko'p imkoniyatlar mavjud. Bu imkoniyatlardan samarali foydalanish natijasida mahalliy hamda xorijiy sayyohlarni bunday hududlarga ko'proq jalb etish, davlatning turistik salohiyatini oshirish va uning iqtisodiyotdagi ta'sir kuchini kengaytirish mumkin.

Rekreatsion turizmning inson omilidagi o'rni. Rekreatsiya va dam olish turizmning butun dunyo bo'ylab jadal rivojlanayotgan eng muhim sohasi hisoblanadi. Uning nafaqat davlat balki, jamiyat rivoji uchun ham ta'siri juda yuqori. Uning shu vaqtgacha eng muhim – sog'lomlashtirish, davolanish, madaniy-ko'ngilochar turlari tasniflangan. Bu turdagi tasniflanishdan ham ko'rib turibmizki, uning inson salomatligi va psixologiyasidagi omili katta. Barcha sayyohlar turizmning rekreatsiya sohasiga albatta murojaat qiladilar va dunyo mamlakatlari ham shuning uchun bu sohani rivojlantirish bilan bog'liq ko'plab ishlarni amalga oshirmoqdalar. Rekreatsion xizmatlar ko'proq 50 yosh va undan yuqori yoshdagi insonlar faoliyati bilan bog'liq tuyulsa ham hozirda yoshlar o'rtasida bu xizmatlarga talab yuqoriligicha qolmoqda.

Rekreatsion turizmni rivojlantirish. Rekreatsion turizmni rivojlantirish davlat ahamiyatidagi muhim talablardan biri hisoblanadi. Konstitutsiyamizda ham insonlarning dam olish va davolanish huquqlari keltirib o'tilgan. Davlatning fuqarolari ustidan yuritadigan siyosatida ularing manfaatlarini ko'zlash nihoyatda muhim. Bu borada dam olish turizmi, inson manfaatlari davlat iqtisodiyoti uchun juda katta ahamiyat kasb etadi. Hukumatimiz tomonidan bir qator qonun

loyihalari ishlab chiqilgani rekreatsion turizmning davlat uchun ahamiyatini yuqori baholab, uning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi[1].

Sayyohlar e'tiborini Yevropa va Osiyoning rivojlangan mamlakatlaridagi ko'ngilochar hududlar eng ko'p jalb etib kelmoqda. Sayyohlar Ispaniya, Italiya, Fransiya, Avstraliyaga safar qilishar ekan, avvalo, dam olish va davolanishni ko'zda tutadilar[2]. Bu mintaqalardagi o'ziga xos tabiiy sharoitlar, kurortlar, dengiz va ko'llar, ekstrimal sport turlari bilan shug'ullanish imkoniyatlari, sog'lomlashtirish markazlari va ularda tashkil etilgan yuqori darajadagi xizmat turlari talabning ortishi va turistlar tashrifining ko'payishiga olib kelmoqda. Bu turdagi zonalar O'zbekiston hududida ham ko'p bo'lib, ularning shunday rivojlanishi va xalqaro darajadagi eng ko'p sayyoh tashrif buyuruvchi hududga aylanishi uchun sharoitlarni kengaytirish kerak. Bu kabi rekreatsion zonalar O'zbekistonning turli burchaklarida mavjud bo'lib tabiiy va sun'iy yo'llar bilan barpo etilgan yoki qayta rekonstruksiya qilingan.

1-rasm. O'zbekistondagi mashhur turistik-rekreatsion zonalar.



Manba: Internet manbalaridan olingan ma'lumotlar asosida muallif tomonidan ishlangan.

Toshkent viloyatida joylashgan "Chorvoq" turistik-rekreatsion zonasi shu vaqtgacha O'zbekiston hududidagi eng muhim va ahamiyatli maskan hisoblanadi.

---

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 05.01.2019 yildagi PF-5611-son. https://lex.uz/docs/-4143188?ONDATE=24.05.2023%2000; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 02.12.2016 yildagi PF-4861-son. https://lex.uz/docs/-3077025; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori, 02.12.2016 yildagi PQ-2666-son. https://lex.uz/docs/-3077301; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chorvoq" turistik-rekreatsion zonasini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 05.12.2017 yildagi PF-5273-son. https://lex.uz/docs/-3441087?ONDATE=03.08.2024; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Zomin" turistik-rekreatsion zonasini va xalqaro umummavsumiy kurortni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni, 06.04.2021 yildagi PF-6201-son. https://lex.uz/docs/-5356600

[2] X. M. Mamatqulov, A. B. Bektemirov, I. S. Tuxliyev, A. N. Norchayev "Xalqaro turizm". – Toshkent. – 2009. – 191 b.

Uning tashkil etilishi uchun 94 805 gektar[1] yer maydoni ajratilgan va “Anhor Relax Zone” oilaviy dam olish maskani hamda “Sunny Breeze” tog‘ kurorti, 4 ta osma yo‘llar, 25 ta bolalar sog‘lomlashtirish lagerlari, 497 ta mehmonxona uylar va 49 ta mehmonxona va kurortlar turistlarga xizmat ko‘rsatib kelmoqda. Ushbu zonaga 363 milliard so‘m investitsiya kiritilgan.

Zomin tumanida tashkil etilgan “Zomin turistik rekreatsion zonasi” tabiat qo‘ynida joylashganligi, tabiiy muhit va tog‘lar bilan o‘ralganligi, toza ekologiyasi va ushbu hududda tashkil etilgan sanatoriysi bilan mahalliy va xorijiy sayyohlarni necha yillardan buyon o‘ziga jalb etib kelmoqda. Ushbu mashhur maskanni yanada rivojlantirish uchun dastur ishlab chiqilgan va ularni dastur bo‘yicha amalga oshirish yaqin yillarda amalga oshirilishi kutilmoqda. Bu yerda zamonaviy kurortlar, ekstremal sport turlari va ziplayn, fotosuratlar olish uchun noyob selfi zonalari, piyodalar foydalanishi va velosiped uchun yo‘laklar, elektromobil va boshqa turdagi transport vositalari uchun elektr quvvatlash stansiyalari va yoqilg‘i quyish shahobchalari qurish dastur rejasiga kiritilgan.

Samarqand viloyati hududida yaqin yillarda tashkil etilgan “Ohaliq-Oqbo‘yro-Mironqul” turistik-rekreatsion zonasi ham mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish chora-tadbirlari doirasidagi ishlarning samarali natijasidir. Bu hududda joylashgan sanatoriya, go‘zal tabiat manzarasi, musaffo tog‘ havosi sayyohlarning dam olish va ko‘ngil ochishlari uchun xizmat qilib kelmoqda.

Bu turdagi zonalarning tashkil etilishi mahalliy aholining hordiq chiqarish imkoniyatlarini kengaytirib, xorijiy sayyohlarning mamlakatimiz hududiga, uning tabiatiga qiziqishlarini oshirib boradi. Yana shuni ham ta’kidlash joizki, xorijiy mamlakatlar investorlari ham O‘zbekistonning aynan rekreatsion turizm sohasiga ko‘proq pul ajratishlari bu sohaning davlat uchun naqadar istiqbolli ekanligini ko‘rsatadi.

Yuqorida ta’kidlaganimizdek, turizm sanoatigina mamlakatda deyarli barcha sohalar faoliyatiga ijobiy ta’sir qiladi va boshqa sohalarning (savdo, bank, oziq-ovqat, transport va h.k) birday ishlashiga sabab bo‘ladi. Bu uning iqtisodiyotga bevosita va bilvosita ta’siridir. Ammo rekreatsion turizmning ham alohida iqtisodiy ko‘rsatkichlar va bu sohadagi o‘rni yuqori. Dastlab, rekreatsion zonalarni tashkil etishda sanoatning qurilish, savdo-sotiq, tibbiyot, transport kabi sohalariga eng ko‘p murojaat qilinadi. Ushbu sohalar ortidan ko‘plab ish o‘rinlari yaratiladi va aholining bandligi ta’minlanadi.

Tibbiy va salomatlik markazlarining tashkil etilishi eng ko‘p mahalliy aholining ehtiyojlarini qondirish uchun ayni muddao bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, tibbiyotda shifobaxsh tabiiy mineral suvlar, ma’danlar, balchiqli davolash kabi turlaridan foydalaniladi va ularning asosida tashkil etilgan davolanish maskanlari, sanatoriyalar, sog‘lomlashtirish kurortlari mahalliy hamda xorijiy sayyohlarning oqimini ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Asosan, yoshi katta va sog‘lig‘ida muammosi bor insonlar uchun mo‘ljallangan bu turdagi

[1] Dam olish uchun eng qulay manzil. Chorvorq turistik rekreatsion zona direksiyasi rasmiy veb-sayti. https://chorvoqtrz.uz

kurortlar uch turga bo‘linadi: balneologik, balchiqli va iqlimiy[1]. O‘zbekistonda tashkil etilgan sanatoriyalarda yuqoridagi uch turdagi xizmatlardan foydalaniladi. Ularning yanada rivojlantirilishi va unga e’tiborning kuchayishi O‘zbekistonda tibbiyot turizm markazlari ko‘payishiga xizmat qilishi mumkin.

Sayyohlarning dam olishlari uchun tashkil etilgan sun’iy ko‘l havzalari katta shaharlar markazida tashkil etilishi bu zonalarning turistik salohiyatlarini oshiradi. Bundan tashqari, Qoraqalpog‘iston va Orol dengizi bo‘ylarini tabiiy holatini saqlagan holda qayta rekonstruksiya qilish orqali xorijiy turistlar e’tiborini ko‘proq jalb qilish mumkin. Chet ellik sayyohlarning ko‘proq o‘zbek madaniyatiga va urf-odatlariga qiziqishlari yuqori ekanligini hisobga oladigan bo‘lsak, O‘zbekistoning ushbu hududlarida o‘tov va mehmon uylaridan mehmonxonalar o‘rnida foydalanish, madaniy va ko‘ngilochar festival va bayramlar tashkil etish, ovqat va ichimliklarni, kafe va restoranlarda qoraqalpoq madaniyatiga tayangan holda ularning milliy taomlarini tayyorlab, yetkazib berish xizmatlarini tashkil qilish maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida mana shunday madaniy va urf-odatlarga asoslangan an’analarini turistik zona holatiga keltirish, boy imkoniyatlardan samarali foydalanib qishloq joylarda ham dam olish maskanlarini hamda mehmon uylarini tashkil etish bu sohadagi dolzarb masalalardan biridir.

Xulosa: Mamlakatimizning turizm sanoatini rivojlantirishda imkoniyatlari juda keng ekanligi yuqorida bir qator misollar orqali ko‘rib chiqildi. O‘zbekistonning madaniy-tarixiy merosi, ko‘ngilochar va sog‘lomlashtirish xizmatlari mahalliy hamda xorijiy sayyohlar oqimini ko‘paytirmoqda. Bu borada davlatimizning turizmni qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, uni rivojlantirish bilan bog‘liq ko‘plab chora-tadbirlar amalga oshirilgan. Kelgusida rekreatsion xizmatlar turlarini kengaytirish, yangi zamonaviy obyektlar barpo etish, mavjud resurslarni qayta rekonstruksiya qilish, tabiiy sharoitlardan oqilona foydalanish orqali mamlakatni jahon miqyosidagi turistik markazga aylantirish mumkin. Bu nafaqat O‘zbekistonda turizm sohasining rivojlanishiga, balki mamlakatning umumiy taraqqiyotiga ham muhim ta’sir ko‘rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. X.M. Mamatqulov, A.B. Bektemirov, I.S. Tuxliyev, A.N. Norchayev. “Xalqaro turizm”. – Toshkent. – 2009. – 191 b.

2. I.V. Djurayeva, J.A. Namozov, M.M. Mahmudov. “Rekreatsiya va turizm geografiyasi”. – Chirchiq. – 2023. – 269 b.

3. https://Lex.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.

4. https://chorvoqtrz.uz – Chorvoq turistik rekreatsion zona direksiyasi rasmiy veb-sayti

5. https://www.norma.uz – O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari.

[1] I.V. Djurayeva, J.A. Namozov, M.M. Mahmudov. “Rekreatsiya va turizm geografiyasi”. – Chirchiq. – 2023. 15-b.

6. https://uzbekistan.travel – O‘zbekiston milliy turizm ma’lumot markazining rasmiy veb-sayti.

OIL AS A STRATEGIC ELEMENT IN JAPAN-SAUDI RELATIONS: ENERGY DIPLOMACY IN ACTION

Zukhra HAMDAMOVA
3rd course student
at Tashkent State University of Oriental Studies
the Institute of Foreign Policy
and International Economic Relations
Supervisor: PhD M. Kamilova

Annotation: This article examines the importance of oil in trade relations between Saudi Arabia and Japan. It analyzes the promising oil trade projects of the two economically powerful countries. It also examines Japan’s strategic partnership with Saudi Arabia in the oil and energy sectors, in an era of increasing demand for energy resources.

Keywords: oil, strategy, policy, energetics, relationship, production.

Since the formal establishment of diplomatic relations in 1955, Saudi Arabia and Japan have maintained a strong and evolving relationship. This relationship is built upon strong economic ties, with Japan becoming a major importer of Saudi oil, while in return, providing high-level technological expertise. This exchange of oil for technology has been mutually advantageous, allowing Saudi Arabia to fuel its economy as Japan secures a reliable energy supply to support its industrial base.[1]

Over the decades, the relationship has grown beyond mere economic transactions. During the 1970s, Saudi Arabia began importing Japanese automobiles and electronics, establishing Japan as a key trade partner. During this period, Japan also commenced various technical and developmental assistance programs aimed at aiding Saudi Arabia’s infrastructure and industrial projects. The relationship gained new dimensions with the introduction of Saudi Arabia’s Vision 2030 initiative, a strategic plan designed to diversify the Saudi economy away from its dependence on oil. Japan has been a significant partner in this endeavor, collaborating on projects in sectors such as renewable energy, infrastructure development, and technology transfer. Japanese companies are heavily involved in major projects, including the development of smart cities and the modernization of the Kingdom’s industrial capabilities.[2]

Cultural and educational exchanges have also played a crucial role in strengthening bilateral ties. The Saudi-Japanese partnership includes scholarships

[1] Al-Monitor. (2024, May). Despite postponement, MBS visit shows Saudi-Japanese ties on upswing.
[2] Gulf Research Center. (2019). Japan-Saudi Arabia relations: An overview.

for Saudi students to study in Japan, promoting a greater understanding and appreciation of Japanese culture within Saudi Arabia. Moreover, various cultural festivals and events held in both countries have showcased their rich heritages, thereby further solidifying connections between people. High-level diplomatic visits have been a hallmark of the Saudi-Japanese relationship. Visits by Japanese Prime Ministers and members of the Imperial family to Saudi Arabia, along with reciprocal visits by Saudi royals and officials to Japan, have underscored the commitment to deepening ties. These visits often result in agreements that pave the way for joint ventures and cooperative projects across multiple sectors.

Overall, the Saudi-Japanese relationship exemplifies a successful and multifaceted partnership that has evolved to meet the changing needs and strategic interests of both nations. As Saudi Arabia continues to pursue its Vision 2030 goals, Japan remains a crucial ally, providing expertise, technology, and investment to help achieve these ambitious objectives.

For several decades, Japan's energy relationship with Saudi Arabia has been a cornerstone of their bilateral ties, primarily focusing on oil and gas. Japan has long been one of the largest importers of crude oil from Saudi Arabia. This reliance dates back to the 1960s, when Japan began importing significant quantities to fuel its growing economy. As one of the world's largest oil producers and exporters, Saudi Arabia has been a reliable supplier in meeting Japan's energy needs. More than 90% of Japan's oil imports come from Saudi Arabia and other Gulf countries. The energy-centered relationship between Japan and Saudi Arabia extends beyond simple buyer-seller dynamics. It is a strategic partnership founded on mutual interests and stability in the global energy market. Japan values the stability of its energy supply, and Saudi Arabia's consistent production has been crucial in this regard. While oil remains a vital component of Japan's energy mix, the country has also been actively diversifying its energy sources, including investments in renewable energy, nuclear energy (prior to the Fukushima disaster), and efforts to improve energy efficiency. Nevertheless, oil continues to play a significant role in Japan's energy security strategy.[1]

Besides oil, Japan has also shown interest in liquefied natural gas (LNG) and gas-related projects with Saudi Arabia. LNG imports have become increasingly important for Japan's energy portfolio, and Saudi Arabia has explored opportunities to supply LNG to Japan through projects and long-term contracts. Historically, Japanese companies have invested in Saudi Arabia's energy sector, especially in areas such as refining, petrochemicals, and infrastructure. These investments have not only strengthened economic ties but have also facilitated technology transfers and knowledge sharing between the two nations.[2]

Recent geopolitical developments in the Middle East, including tensions and conflicts, have occasionally affected energy markets and Japan's energy

[1] Gulf Research Center. (n.d.). Scope and facets of Japan-Saudi Arabia relations.
[2] Mainichi. (2024, May 22). Japan-Saudi ties: An update on recent developments.

security. Consequently, both countries have engaged in strategic dialogues and initiatives to address potential disruptions to ensure stable energy supplies.[1]

In 2022, Saudi Crown Prince Mohammed bin Salman announced a $38 billion investment strategy for the Kingdom's Savvy Games Group, owned by the Public Investment Fund (PIF). According to a filing last June, in 2023, PIF became Nintendo's largest outside shareholder with an 8.6% stake. It has also reportedly bought stakes in "Call of Duty" developer Activision Blizzard, Electronic Arts, and "Street Fighter" producer Capcom.[2]

Saudi Arabia is also keen to organize an e-sports World Cup, starting this year, as part of its push to become the "premier global hub" for the industry, including homegrown studios making games. The Kingdom is planning a theme park based on the "Dragon Ball" manga franchise, featuring at least 30 rides and a 70-meter model dragon. These plans contribute to the Kingdom's Vision 2030 program. The Crown Prince of Saudi Arabia, Mohammed bin Salman, is scheduled to conduct an official visit to Japan from May 20-23, 2024. During this visit, he will meet with the Emperor of Japan, Naruhito, Prime Minister Fumio Kishida, as well as various senior political and business leaders in Japan.[3]

According to the official announcement by H.E. Yoshimasa Hayashi, Japan's Chief Cabinet Secretary, the Crown Prince will have an audience and "court luncheon" with Emperor Naruhito and will hold official talks with Prime Minister Kishida. Prime Minister Kishida plans to discuss bilateral cooperation and a broad range of areas affecting the Middle East and international communities amidst a changing world order. As part of the visit, the Crown Prince will hold various meetings with Prime Minister Kishida and other senior ministers, along with political and business leaders. The expected main subjects of these meetings include: 1) Japan's cooperation and technology transfer regarding decarbonization; 2) maintaining peace and order in the international communities in the Middle East and Global South countries; and 3) Ministry of Finance related agenda items, such as tax-exclusive pricing and the Zakat system between the two countries.[4]

In summary, Japan's interest in the new global system and the new leadership of Saudi Arabia revolves around economic stability, security, technological advancement, and strategic partnerships. Its economic positioning and alliances will adapt by diversifying supply chains, forging strategic partnerships, and actively participating in global trade agreements. The centers of economic power in tomorrow's world will be diverse, reflecting global trade networks, technological hubs, and strategic alliances. Japan's collaboration with Saudi Arabia and the broader Arab world aims to create mutually beneficial economic partnerships, foster regional stability, and serve as a counterbalance to

[1] Ministry of Foreign Affairs of Japan. (n.d.). Japan-Saudi Arabia relations: Key facts and data.
[2] Nippon.com. (n.d.). Japan's strategic relations with Saudi Arabia.
[3] Suzuki, N. (2024, May 18). Scope and facets of Japan-Saudi Arabia relations.Gulf Research Center.
[4]The Diplomat. (2019, June). Japan-Saudi ties: An interview with the Japanese ambassador.

escalating international rivalries through peaceful economic engagement and cooperation.[1]

References:

1. Al-Monitor. (2024, May). Despite postponement, MBS visit shows Saudi-Japanese ties on upswing. https://www.al-monitor.com/originals/2024/05/despite-postponement-mbs-visit-saudi-japanese-ties-upswing
2. Gulf Research Center. (2019). Japan-Saudi Arabia relations: An overview. https://www.grc.net/single-commentary/165
3. Gulf Research Center. Scope and facets of Japan-Saudi Arabia relations. https://www.grc.net/single-commentary/165
4. Mainichi. (2024, May 22). Japan-Saudi ties: An update on recent developments. https://mainichi.jp/english/articles/20240522/p2g/00m/0in/006000c
5. Ministry of Foreign Affairs of Japan. Japan-Saudi Arabia relations: Key facts and data. https://www.mofa.go.jp/region/middle_e/saudi/data.html
6. Nippon.com. Japan's strategic relations with Saudi Arabia. https://www.nippon.com/en/japan-topics/e00219/
7. Suzuki, N. (2024, May 18). Scope and facets of Japan-Saudi Arabia relations.Gulf Research Center. https://www.grc.net/single-commentary/165
8. The Diplomat. (2019, June). Japan-Saudi ties: An interview with the Japanese ambassador. https://thediplomat.com/2019/06/japan-saudi-ties-an-interview-with-the-japanese-ambassador/
9. Wikipedia. Japan–Saudi Arabia relations. https://en.wikipedia.org/wiki/Japan%E2%80%93Saudi_Arabia_relations

HINDISTONDA GENDER TENGLIK

Nurjona RAHMONBOYEVA
Janubiy Osiyo tillari va adabiyoti oliy maktabi
2-bosqich hind-ingliz guruhi talabasi
Rahbar: katta o'qituvchi M.Murtazaxodjayeva

Annotatsiya: Ushbu maqolada Hindistondagi gender tenglik muammosi, Konstitutsiyada belgilangan huquqiy asoslar, siyosatda ayollarning roli va tengsizlikning o'tmishdagi va hozirgi holati tahlil qilinadi. Shu bilan birgalikda, taniqli ayollarning siyosiy faoliyati, yutuqlari hamda statistik asoslar haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: Hindiston, gender tenglik, konstitutsiya, siyosat, iqtisodiyot, tengsizlik, ijtimoiy stereotiplar, ayollarning vakolatlari, huquq va diskriminatsiya.

[1] Wikipedia. (n.d.). Japan–Saudi Arabia relations.

Hindiston gender tengligi yo‘lida sezilarli yutuqlarga erishgan bo‘lsa-da, ushbu maqsadga to‘liq erishish uchun hal qilinishi kerak bo‘lgan ko‘plab muammolar mavjud. Gender tengligi nafaqat ayollarning huquqlari masalasidir, balki iqtisodiy o‘sish, ijtimoiy rivojlanish va barqarorlik uchun ham muhimdir. O‘tmishda Hindiston jamiyatida qiz bolaning tug‘ilishi ko‘pincha fojia sifatida qabul qilingan. Bu, asosan, patriarxal qarashlar, iqtisodiy qiyinchiliklar va ijtimoiy bosim bilan bog‘liq edi. Qiz bolalar ko‘pincha oilaga og‘irlik, deb hisoblangan, chunki ular kelajakda sep berishni talab qilardi va oilaning daromadiga hissa qo‘shmaydi, deb hisoblanardi[1]. Tarixiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, o‘tmishda qiz bolalarning hayoti juda og‘ir bo‘lgan. Ba’zi hollarda, qizlar tug‘ilgandan so‘ng tiriklayin ko‘milgan yoki cho‘ktirib o‘ldirilgan. Bunday vahshiylik, ayniqsa, qashshoq oilalarda keng tarqalgan edi, chunki ular qizlarini boqishga qurbi yetmas edi. Qizlarni qurbonlik qilish holatlari ham qayd etilgan. Qizlarga nisbatan salbiy munosabatning yana bir sababi — ijtimoiy urf-odatlar edi. Erta turmushga berish, sep berish kabi an’analar qizlarning hayotini qiyinlashtirardi. Sep berish odati, qizlarning oilasini katta qarzga botirardi va sep bilan bog‘liq zo‘ravonlik, hatto o‘limga ham olib kelishi mumkin edi. Qizlarning ta’lim olishi cheklangan edi va ular ko‘pincha uy ishlariga jalb qilingandi.

Vaqt o‘tishi bilan vaziyat o‘zgarib, qizlarga nisbatan munosabat ham asta-sekin yaxshilanib bormoqda. Hukumat qizlarning ta’lim olishi, sog‘lig‘ini saqlashi va huquqlarini himoya qilishga qaratilgan ko‘plab dasturlarni amalga oshirmoqda. “Beti Bachao, Beti Padhao” (Qizingni asra, qizingni o‘qit) kabi dasturlar qizlarning jamiyatdagi o‘rnini mustahkamlashga qaratilgan. Shunga qaramay, muammolar hali ham mavjud. Qiz bolalarning o‘g‘il bolalarga nisbatan kam tug‘ilishi, sep bilan bog‘liq zo‘ravonlik, erta turmush va ta’lim olishdagi tengsizlik kabi holatlar saqlanib qolmoqda. Bu muammolarni hal qilish uchun jamiyatning barcha a’zolari, hukumat, nodavlat tashkilotlar va oilalar birgalikda harakat qilishlari zarur.

Hindiston — boy tarixi va madaniyatiga ega bo‘lgan buyuk mamlakat. Ammo, uning o‘tmishi ayollarning kamsitilishiga oid qorong‘i sahifalarni ham o‘z ichiga oladi. Bu kamsitishlar turli shakllarda namoyon bo‘lgan va millionlab ayollarning hayotiga fojiali ta’sir ko‘rsatgan. Eng shafqatsiz misollardan biri — Sati edi. Bu — eri vafot etganidan keyin xotinning o‘zini erining jasadidan qolgan gulxanda tiriklayin yoqib yuborish marosimi. Bu vahshiylik, ayolning eri bilan birga o‘lishi uning sadoqatining eng oliy namunasi sifatida ko‘rilgan jamiyatning qonli ko‘rinishi edi. Yana bir kamsitish shakli — Purdah, ya’ni ayollarning yuzini yopib yurishi. Bu odat ayollarning jamiyat hayotidan chetlatilishiga, ularning shaxsiy erkinliklari cheklanishiga olib kelgan. Yuzini yopib yurish ayollarga o‘z fikrini erkin ifoda etishga, ta’lim olishga va ijtimoiy faoliyatda ishtirok etishga to‘sqinlik qilgan. Erta nikoh — ham Hindistonda keng tarqalgan muammo bo‘lgan. 10-14 yoshli qizlarning turmushga chiqishi ularning bolalikdan mahrum bo‘lishiga, ta’lim olish imkoniyatlari cheklanishiga va sog‘lig‘iga jiddiy zarar yetkazgan. Erta turmushga berilgan qizlar ko‘pincha oilaviy zo‘ravonlik

[1] https://wcd.nic.in/

qurboniga aylangan va to‘laqonli hayot kechirish imkoniyatidan mahrum bo‘lgan. Sep — kelinning oilasi tomonidan kuyovning oilasiga beriladigan mol-mulk. Sep talab qilish odati kelinning oilasiga katta iqtisodiy yuk bo‘lgan va sep bermagan yoki kam bergan kelinlarga nisbatan zo‘ravonlik holatlari uchragan. Mehnat haqiga oid zo‘ravonliklar, ayniqsa, qishloq joylarda ayollarga teng bo‘lmagan munosabatda bo‘lish, ularning mehnatini qadrlamaslik va kam haq to‘lash kabi shakllarda namoyon bo‘lgan. Bu misollar Hindiston tarixida ayollarga nisbatan qanday adolatsizliklar sodir etilganligini yaqqol ko‘rsatib beradi. Lekin, shunga qaramay, hind ayollari o‘z huquqlari uchun kurashgan va ko‘plab yutuqlarga erishgan. Ta’lim olish, siyosiy va iqtisodiy hayotda ishtirok etish, zo‘ravonlikka qarshi kurashish — bu boradagi sa’y-harakatlar hali ham davom etmoqda. Ayollarga nisbatan teng munosabatda bo‘lish, ularning huquqlarini himoya qilish va jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash — barchamizning muhim vazifamizdir. Faqat shunday yo‘l bilan biz adolatli va farovon jamiyat qura olamiz.

Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Hindiston aholisining deyarli yarmini (48.41%) ayollar tashkil etadi. Bu shunchaki raqam emas, bu — jamiyatning to‘laqonli a’zolari, har biri o‘z orzulari, maqsadlari va imkoniyatlariga ega bo‘lgan insonlardir. Lekin, achinarlisi shundaki, bu ayollar har kuni zo‘ravonlik qurboniga aylanib, hayotiy imkoniyatlardan mahrum etilmoqda. Har kuni kamida 88 ta zo‘ravonlik holati qayd etilishi, bu muammoning naqadar jiddiy ekanligidan dalolat beradi. Bu shunchaki raqamlar ortida buzilgan taqdirlar, o‘chirilgan orzular va yo‘qotilgan umidlar yashirin. Shunga qaramay, umid uchqunlari ham yo‘q emas. So‘nggi yillarda ayol-qizlarning savodxonlik darajasi sezilarli darajada oshdi. 2021-yilda bu ko‘rsatkich 91.95% ga yetdi. Bu, maktablarda qizlarning ta’lim olishi, ularning ilmli bo‘lishiga e’tibor yanada kuchaytirilganligining, qabul qilingan chora-tadbirlar o‘z samarasini berayotganligining yaqqol dalilidir. Ta’lim — ayollarga o‘z huquqlarini anglash, mustaqil hayot qurish va jamiyatga o‘z hissasini qo‘shish imkonini beruvchi kuchli quroldir. Iqtisodiy sohada ham o‘zgarishlar kuzatilmoqda. 2023-yilda 32.68% ayollar ish bilan ta’minlandi. Ammo, bu quvonchga sabab bo‘ladigan yakuniy ko‘rsatgich emas.[1] Ming afsuski, chekka qishloq hududlarda ayol-qizlarning ko‘pchiligiga bajargan yumushlariga yarasha haq to‘lanmaydi. Ularga xuddiki tekin ishchi kuchi sifatida qaralgan munosabatda bo‘lish holatlari uchrab turadi. Bu — ayollarning mehnatini qadrlamaslik, ularning iqtisodiy mustaqilligiga to‘sqinlik qilish demakdir. Gender tengligi bo‘yicha dunyo miqyosida olib qaraganda, Hindiston 193 ta gender munosabatlari teng bo‘lmagan mamlakatlar ichida 108-o‘rinda turadi. Bu — Hindistonning bu borada hali ko‘p ishlarni amalga oshirishi kerakligini ko‘rsatadi. Erta turmush qurish hamon jiddiy muammo bo‘lib qolmoqda. Ammo, so‘nggi yillarda bu borada ham ijobiy tendensiya kuzatildi. 2020-yildan beri o‘rtacha turmush qurish yoshi 22.7 yoshga yetib keldi. Bu — yosh qizlarning o‘z ta’limini davom ettirish,

[1] https://data.unwomen.org/country/india — sayti ma’lumotlaridan foydalanildi

kasb o‘rganish va hayotda o‘z o‘rnini topish uchun ko‘proq imkoniyatga ega bo‘layotganligini anglatadi.

Hindiston — dunyodagi eng katta demokratiya. Mamlakat Konstitutsiyasi barcha fuqarolar uchun teng huquqlarni kafolatlaydi. Ayniqsa, Konstitutsiyaning 14-moddasi Hindiston hududida hukumat qonun oldida tenglikni yoki qonunlar tomonidan teng himoyani hech kimga rad etmasligini ta’kidlaydi.[1] Bu — har bir fuqaro, jinsi, irqi, dini, ijtimoiy kelib chiqishidan qat’i nazar, qonun oldida teng ekanligini anglatadi. 16-modda esa har qanday fuqaroga davlat xizmatlarida ishlashda kamsitish taqiqlanishini belgilab qo‘yadi. Bu, ayollarning davlat lavozimlarida, siyosatda o‘z o‘rnini topishiga imkon yaratadi. Shunday qilib, Hindiston Konstitutsiyasi gender tenglik uchun mustahkam huquqiy asos yaratib berdi. Ammo, qonunlardagi tenglik hayotdagi tenglikni to‘liq kafolatlay oladimi? Albatta, yo‘q. Ijtimoiy stereotiplar, patriarxal qarashlar va boshqa omillar ayollarning siyosiy hayotda to‘laqonli ishtirok etishiga to‘sqinlik qilishi mumkin.

Lekin, Hindiston siyosatida ayollarning roli tobora ortib borayotganligi — quvonarli holat. Indira Gandi — Hindistonning birinchi va yagona ayol Bosh Vaziri bo‘lgan. U o‘zining qat’iyati, siyosiy mahorati va xalq orasidagi obro‘si bilan mamlakat tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Pratibha Patil esa — mamlakatning birinchi ayol Prezidenti bo‘lgan. U o‘zining yuksak ma’naviyati, adolatliligi va xalqqa xizmat qilishga tayyorligi bilan barchaning hurmatiga sazovor bo‘lgan. Sushma Svaraj, Nirmala Sitharaman, Smriti Irani kabi ayollar ham Hindiston siyosatida katta ta’sirga ega bo‘lganlar. Ular turli vazirliklarda faoliyat yuritib, mamlakatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishiga katta hissa qo‘shganlar. Hozirgi kunda Hindiston Respublikasining Prezidenti ham ayol kishi ekanligi — juda quvonarli holat, albatta. Bu — ayollarning siyosatda o‘z o‘rnini topishiga imkon berilganligining, jamiyatda ularga bo‘lgan munosabat o‘zgarayotganligining yaqqol dalilidir.

Joriy yilning 22-29-mart kunlari biz uchun unutilmas voqealarga boy bo‘lgan safar — Hindistonda bo‘lib o‘tgan Hindiston-Markaziy Osiyo Yoshlar Forumi 2025da ishtirok etish imkoniyati nasib etdi. Aytishlaricha, “Har bir mamlakatga sayohat — bir kitob o‘qish bilan teng”. Bu so‘zlarning naqadar haqiqat ekanligini biz ushbu forum davomida yana bir bor angladik. Biz nafaqat Hindistonning Tashqi ishlar, Ta’lim vazirliklari, qator Universitet hamda muzeylariga tashrif buyurib, siyosiy, iqtisodiy va madaniy sohalardagi yutuqlari bilan tanishdik, balki mahalliy aholining turmush tarziga, jamoat transport vositalarining harakatlanishiga ham guvoh bo‘ldik. Hindiston — rang-baranglik, qadimiy tarix va zamonaviy texnologiyalar uyg‘unlashgan o‘lka ekanligiga amin bo‘ldik. Ayniqsa, bizni hayratga solgan va qalbimizni to‘lqinlantirgan holat — Hindistondagi Rikshalarda (uch g‘ildirakli velo-taksi) “अपनी बेटी को पढ़ाओ, अपना भविष्य सुरक्षित करो।” (O‘z qizingizni o‘qiting, kelajagingizni ta’minlang) yozuvlarini ko‘rganimiz bo‘ldi. Yaqin o‘tmishda qiziga baxtsizlik ramzi sifatida qaragan xalqning bugun aynan qizlarini o‘qitishni targ‘ib qilayotgani juda quvonarli va hayratlanarli hol, desak adashmagan bo‘lamiz. Bu — Hindiston jamiyatida ro‘y

[1] https://wcd.nic.in/

berayotgan ijobiy o‘zgarishlarning, ayollarning jamiyatdagi o‘rni tobora mustahkamlanib borayotganligining yaqqol dalilidir. Ta’lim — ayollarga o‘z huquqlarini anglash, mustaqil hayot qurish va jamiyatga o‘z hissasini qo‘shish imkonini beruvchi eng kuchli quroldir. Shunday qilib, Hindiston-Markaziy Osiyo Yoshlar Forumi biz uchun nafaqat yangi bilimlar va tajribalar manbai bo‘ldi, balki Hindistonning o‘tmishdagi adolatsizliklar bilan kurashish, gender tenglikni ta’minlash va kelajak avlodga yaxshi hayot yaratish yo‘lidagi sa’y-harakatlariga guvoh bo‘lish imkonini berdi. Umid qilamizki, bu kabi forumlar kelajakda ham davom etib, yoshlarning o‘zaro hamkorligini mustahkamlaydi va mamlakatlarimiz o‘rtasidagi do‘stlik rishtalarini yanada kuchaytiradi.

Xulosa qilib aytganda, Hindistonda gender tengsizlik muammosi hali o‘z yechimini topmagan bo‘lsa-da, ijobiy o‘zgarishlar ham kuzatilmoqda. Ta’lim, iqtisodiy imkoniyatlar va erta turmushga qarshi kurash sohalarida erishilgan yutuqlar, bu boradagi sa’y-harakatlarimiz samara berayotganligidan dalolat beradi. Lekin, bu bilan cheklanib qolmasdan, ayollarning huquqlarini himoya qilish, ularga munosib sharoit yaratish va jamiyatda to‘laqonli ishtirok etishini ta’minlash – eng muhim vazifadir. Hindiston tarixida qizlar ko‘p qiyinchiliklarni boshdan kechirgan bo‘lsalar ham, bugungi kunda vaziyat yaxshi tarafga o‘zgarmoqda. Kelajak avlod uchun adolatli va teng huquqli jamiyat yaratish — barcha sa’y-harakatlarimizning asosiy maqsadi bo‘lishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. National Commission for Women (NCW): https://ncw.nic.in/
2. Ministry of Women and Child Development (MWCD): https://wcd.nic.in/
3. United Nations India: https://www.un.org/en/india
4. PRS Legislative Research: https://prsindia.org/
5. Hindiston Konstitutsiyasi: 14-modda: https://www.constitutionofindia.net/constitution_of_india/14/articles/Article%2014
6. https://www.constitutionofindia.net

ÖZBEKISTAN ILE TÜRKIYE ARASINDAKI SIYASI-DIPLOMATIK ILIŞKLERININ GELIŞME EĞILIMLERI

Zarinabonu NORBOYEVA
SANJAR ABDUNABIYEV
Taşkent devlet şarkşınaslık üniversitesi
Diş politikasi ve uluslararası iktisade ilişkiler ensititüsü
Siyaset bölümü 4-sınıf öğrencisi
Danışman: A.Mamajonov

Özet: Bu makale Özbek-Türk ilişkilerinin oluşumunu, gelişimini incelemektedir. Tarihi ve kültürel bağlara sahip Türkiye ile Özbekistan’ın

ilişkileri 1991 sonrasında yeni bir gelişme sürecine girmiş, 2016 sonuna kadar inişli-çıkışlı devam etmiştir. Ancak 2016 sonrasında iki devletin ilişkileri Şevket Mirziyoyev'in Özbekistan Cumhurbaşkanı olmasıyla yeni bir gelişme ivmesi kazanmıştır. Türkiye ve Özbekistan'ın jeostratejik konumları ikili ilişkilerini bölgesel ve uluslararası düzeyde de önemli kılmaktadır.Çalışmanın ana sorusu münasebetlerin hangi aşamaya geldiği ve bundan sonra ne yönde gelişme potansiyelini içerdiğidir. İlk olarak ülke profilleri ortaya konacak ikili ilişkilerin 1991 sonrası gelişim süreci ele alınacaktır.

Anahtar kelimeler: Işbirliği, stratejik çıkarlar, integral aşama,terör örgütler.

Küreselleşen dünyada, ülkeler arasındaki ilişkiler, sadece coğrafi yakınlık ya da tarihî bağlarla sınırlı kalmamakta, stratejik çıkarlar ve ortak ideallerle şekillenmektedir. Bu ilişkiler, tarihin derinliklerinden bugüne uzanan karmaşık bir ağ oluşturur. Bazı milletler, tarihî köklerine ve kültürel miraslarına sadık kalarak geçmişin izlerini bugünün politikalarında ve iş birliklerinde hissettirir. Anadolu Türklerinin geldiği coğrafya olması nedeniyle "Atayurdu" olarak anılan Orta Asya'da Özbekistan Cumhuriyeti ile ilişkiler Türkiye açısından tarihi-kültürel bağlar açısından çok önemli bir temel teşkil etmektedir. Aynı etnik kökenden gelmenin, aynı dini inanç ve benzer dillerin yarattığı etkileşimin yanı sıra iki devletin bulundukları jeostratejik konumlar, sahip oldukları ekonomik işbirliği potansiyeli de Türk-Özbek ilişkilerinin gelişimine katkı sunmaktadır.[1] Bu kapsamda Türkiye ve Özbekistan'ın ikili ilişkileri hem bölgesel hem de küresel anlamda bir değer ifade etmektedir. Orta Asya'daki beş cumhuriyetten biri olan Özbekistan'ın 1991'de ilan ettiği bağımsızlığını tanıyan ilk devlet Türkiye olmuş ve iki ülke arasında başlangıcından itibaren diğer Türki cumhuriyetlerle olduğu gibi çok özel ilişkiler tesis edilmeye çalışılmıştır. 1991 yılında Türkiye Cumhurbaşkanı Turgut Özal'ın SSCB'ye yaptığı diplomatik ziyaret, sadece Moskova'nın değil, Azerbaycan, Kazakistan ve diğer birlik cumhuriyetlerinin de dikkatini çekti.[2]Bu ziyaretler, Türkiye'nin eski Sovyetler Birliği'nin güneyinde gelişmekte olan cumhuriyetlere artan ilgisini gösterdi. 8 Aralık 1991'de BDT (Bağımsız Devletler Topluluğu) kuruldu ve Türkiye bağımsızlığını yeni kazanan cumhuriyetleri tanıyan ilk ülke oldu[3]. Bu da Orta Asya ülkelerinin Türkiye üzerinden Avrupa ülkeleriyle temas kurması için geniş bir fırsat yarattı.

Muhakeme

Özbekistan ile Türkiye arasındaki ilişkiler gelişimi üç aşamada incelenebilir: Aşama 1: 1991-1999, Aşama 2: 2000-2016, Aşama 3: 2016'dan itibaren.

İlk aşama. 1991-1999 yıllarında iki ülke çeşitli alanlarda işbirliği kurarak karşılıklı yarar sağlayan sözleşme ve anlaşmalara imza attı. Ancak Türkiye'nin

[1] Rol teorisi, konstrüktivizm ve realizm çerçevesinde Türkiye-Özbekistan ilişkileri (1991-2023) Nurgül Bekar

[2] Muhittin Ataman, "Leadership Change: Ozal Leadership and Restructuring in Turkish Foreign Policy", Alternatives Journal, Vol. 1, No. 1 (Spring 2002): P.134.

[3] Bülent Aras, "Turkey's Policy in the Former Soviet South: Assets and Options", Turkish Studies, Vol. 1, No. 1, (Spring 2000): P. 45

bazı ticari şirketlerinin sözleşme şartlarını yerine getirmemesi ve Özbekistan'da faaliyet gösteren Özbek-Türk liselerinin dini ve siyasi terör örgütleriyle ilişkilendirilmesi gibi nedenlerle iki ülke arasındaki ilişkiler zayıfladı. Türkiye Başbakanı S. Demirel'in 28 Nisan 1992'de Özbekistan'ı ziyareti, iki ülke arasındaki ilişkilerin gelişmesinde önemli bir olaydı. 28 Nisan 1992'de Türkiye Cumhuriyeti'nin Taşkent'teki büyükelçiliği açıldı[1]. Ayrıca Özbekistan Cumhuriyeti'nin Ankara Büyükelçiliği de Ocak 1993'te faaliyete geçmiştir. İki ülkenin büyükelçiliklerinin açılması, karşılıklı siyasi, sosyo-ekonomik ve kültürel ilişkilerin hızlanması açısından önemli hale geldi.29 Haziran-1 Temmuz 1992 tarihleri arasında Özbekistan Cumhuriyeti'nin ilk Cumhurbaşkanı I. Kerimov Türkiye'yi ziyaret etti[2]. Ayrıca I. Kerimov, Haziran 1994 ve Kasım 1997'de Türkiye'ye resmi bir ziyarette bulunmuş ve Ekim 1998'de Türkiye Cumhuriyeti'nin 75. kuruluş yıldönümü kutlamalarına katılmıştır. [3]Böylece iki ülkenin işbirliği içinde büyük kutlamalar, festivaller ve bilimsel konferanslar düzenlemesi bir gelenek haline geldi.Türkiye Cumhurbaşkanı S. Demirel de 7 Mayıs 1996'da Özbekistan'a resmi bir ziyarette bulundu. Bu yılın ekim ayında Cumhurbaşkanı S. Demirel, Özbekistan'da düzenlenen Türk dili konuşan ülke liderlerinin 4. üst düzey toplantısına ve Emir Timur'un 660. yıldönümüne yönelik etkinliklere katıldı. [4]Özbekistan ile çok iyi başlayan ilişkiler 1993 yılında bozulmaya başlamıştır. Türkiye ile Özbekistan arasındaki ilk gerginlik, muhalif Özbek lider Muhammed Salih ve arkadaşlarının Türkiye'de bulunmasından kaynaklanmıştır. Özbekistan'ın resmi yaklaşımı Muhammed Salih'in Kerimov rejimini devirmeye çalışan bir terörist olduğu yönündeydi . [5]Bu durum iki ülke arasındaki işbirliğine dair fikirlerin değişmesine yol açmış ve Cumhurbaşkanı İslam Kerimov Türkiye'de okuyan Özbek vatandaşı öğrencileri geri çağırmış, ayrıca Türkiye'ye 1998'den itibaren öğrenci göndermemeye başlamış, Türkiye'den de öğrenci kabul etmemiştir.Türkiye Muhammed Salih'in herhangi bir siyasi faaliyetine müsaade etmeyeceği garantisini verse de Kerimov 1994'te.

Türkiye'ye ziyaretinde Salih'in Türkiye'de bulunmasından duyduğu rahatsızlığı ifade etmiştir. Sonraları Muhammed Salih Türkiye'den çıktıysa da asılsız birtakım iddialar Türk-Özbek ilişkilerinde sıkıntı yaratmaya devam etmiştir.Bu sorunlara rağmen 1996 yılında Özbekistan ve Türkiye arasında imzalanan Ebedi Dostluk ve İş Birliği Anlaşması iki,devlet arasında olup siyasi, ticari-ekonomik, bilimsel-teknik, terörle mücadele ve yasa dışı uyuşturucu ticareti, sağlık ulaşım, turizm, kültür ve diğer alanlarda 70'den fazla imzalı belge oluşturmuştur.

Özbekistan Cumhuriyetleri ile Türkiye arasındaki işbirliğinin geliştirilmesinin ikinci aşamasında (2000-2016), Türk hükümet başkanları

[1] Открытие посольства Турецкой Республики // Правда Востока. 30 апреля 1992 г
[2] Президент Республики Узбекистан в Турции // Народное слово. 1 июля 1992 г.
[3] Turkiya zaminidagi tantanalar // Xalq so'zi. 1998 yil 30 oktabr
[4] 1. O'zR MDA, M-7-fond, 1-ro'yxat, 331-ish, 36-varaq.
[5] Balım, Ç. ve Gürbüz, Y. E. (2012). O'zbekistan Respublikası: "Özbek Modeli", A. Aydıngün. ve Ç. Balım (Ed.) Bağımsızlıklarının Yirminci Yılında Orta Asya Cumhuriyetleri içinde (ss. 221-311), Ankara: Atatürk Kültür Merkezi.

tarafından resmi ziyaretler yapılmış, ancak ağırlıklı olarak iki ülkenin liderleri uluslararası konferanslarda bir araya gelmiştir.Ancak çeşitli faktörlerden dolayı Özbekistan ile Türkiye arasındaki siyasi işbirliğinde gerileme fark edildi. İki ülke arasındaki zayıf ilişkiler 2008-2013 yıllarına dayanıyor. Ticaret, transit ve diğer ekonomik ilişkiler sürdürülmesine rağmen diplomatik ve siyasi ilişkiler askıya alındı. Bunun nedeni olarak şu faktörleri gösterebiliriz:1). Özbekistan'da para birimi dönüştürme sorunlarının varlığı. Özbek-Türk ortak işletmelerinde çalışanların ve Özbek-Türk lisesi öğretmenlerinin aylık maaşlarının ödenmesinde, vize, uçak bileti alınmasında, sağlık hizmetlerinin sağlanmasında sorunlar.

Bazı Türk şirketlerinin uluslararası dini-siyasi terör örgütleriyle, özellikle de Nurcular (20. yüzyılın ilk yarısında Türkiye'de ortaya çıkan ve iç yönetim sistemine yerleşerek devleti yeniden düzenlemeyi amaçlayan yeni nesil) ile bağlantıları. Türkiye ve diğer ülkeler, gizlilik ve gasp üzerine kurulu, terör örgütü sayılan, özel okullar açan, olumsuz fikirleriyle gençlerin zihinlerini etkilemeye çalışan Fethullah Gülen'di. FETÖ, 15 Temmuz darbe girişiminin provasını 1999 yılının şubat ayında Özbekistan'da yapmıştı. Hedef, Özbekistan Devlet Başkanı Islam Kerimov'du. Yine aynı senaryo hazırlanmış, Kerimov'a FETÖ elemanları suikast planlamışlardı.1999 yılının şubat ayında, namluların hedefinde Özbekistan Devlet Başkanı İslam Kerimov vardı. FETÖ üyeleri, başarısız oldu. Ancak operasyon devam etti. Özbekistan hükümet binasında bir bomba patlatıldı. Sonrasında uzun namlulu silahlarla ateş açıldı ve hükümet binası yakınındaki 4 araba bombayla patladı. Ancak Özbek başkan ve hükümet darbe girşimini başarıyla savuşturdu.[1] Bundan sonra 1999 yılında Gülen okullarıda kapatıldı. Özbekistan'ın ilk cumhurbaşkanı İslam Kerimov döneminde inişli çıkışlı seyreden ilişkilerini 2016 sonrasında ticaretten kültüre, eğitimden turizme, ulaşımdan teknoloji ve sanayiye birçok alanda güncellemiştir. Şevket Mirziyoyev'in Özbekistan Cumhurbaşkanı olması Türkiye ile ilişkilerin yükselişe geçerek hergeçen gün daha da artarak devam etmesinin en önemli sebeplerinden birini teşkil etmektedir. Cumhurbaşkanı Recep Tayyip Erdoğan ve Şevket Mirziyoyev'in 17-18 Kasım 2016 tarihlerinde Semerkant'ta gerçekleştirilen görüşmesi Türkiye ve Özbekistan'ın ilişkilerinde bir dönüm noktası teşkil etmiş, iki taraf için ortak çıkarlar, kardeşlik hukuku ve tarihi sorumluluk fikirleri eşliğinde yeni bir dönem başlamıştır. 25-27 Ekim 2017 tarihlerinde Mirziyoyev'in Türkiye'yi ziyareti yirmi yıl aradan sonra cumhurbaşkanı seviyesinde Türkiye'ye gerçekleştirilen ilk ziyaret olması sebebiyle ayrı bir önem taşımaktadır.[2] 22 anlaşmanın imzalandığı bu ziyaretin ardından ikili ilişkiler gelişmeye devam etmiş, ekonomi, eğitim, sağlık, teknoloji, enerji, turizm, kültür ve askeri konularda işbirliği artmıştır. Özbek Parlamentosu 3 Şubat 2018'de Türk vatandaşları için vizeyi kaldırmış, bir ay süreyleTürklerin Özbekistan'a vizesiz girebilmesine onay vermiştir (Dirik, 2019). Bu dönemde CB Mirziyoyev

[1] https://tuncayilcim.av.tr/v5/feto-davasi-cianin-yesil-kusak-projesi-fethullah-gulen-cemaati-opus-dei-ve-moon-tarikatlari-arasindaki-benzerlikler/

[2] Taşkömür, F. (2017). How did Turkey-Uzbek relations after two decades of stagnation?, TRT World, Erişim Adresi: https://www.trtworld.com/turkey/how-did-turkey-uzbek-relationsimprove-after-two-decades-of-stagnation--11677

Özbekistan'daki Türk yatırımcılara kolaylık sağlanacağına ve gerekli kurumsal/yasal düzenlemelerin oluşturulacağına dair güvence vermiştir. [1] Aynı zamanda Cumhurbaşkanı Erdoğan'ın 29 Nisan-1 Mayıs 2018'deki Taşkent'i ziyareti sonrasında Türkiye ile Özbekistan arasında Yüksek Düzeyli Stratejik İş Birliği Konseyi (YDSK) kurulmuştur. Siyasi etki açısından stratejik ortaklığın en önemli kurumsal mekanizmaları ve itici güçlerinden birini YDSK ve etkinlikleri teşkil etmektedir, diğerleri ise Karma Ekonomik Komisyon ile Ortak Stratejik Planlama Grubu ve faaliyetleridir. Pandemi başlamadan hemen önce YDSK'nin ilk toplantısı 19- 20 Şubat 2020 tarihinde Mirziyoyev'in Türkiye seyahati sırasında gerçekleştirilmiştir. Eylül 2019'da da Özbekistan (daha önce katılmayı reddettiği) Türk Devletleri Teşkilatı'na (eski adıyla Türk Keneşi) resmen üye olmuştur (Yesevi, 2022). Özbekistan'da Türk İşbirliği ve Koordinasyon Ajansı (TİKA), Türkiye Radyo ve Televizyon Kurumu (TRT), Türk Standartları Enstitüsü (TSE), Anadolu Ajansı (AA) Temsilcilikleri, ZiraatBank Özbekistan gibi kurumlar da Türkiye-Özbekistan arasındaki ilişkilerde yapıcı ve geliştirici bir eğilim kazandırmaktadır. Bu gelişmelerin sonucunda ticari ilişkiler de artarak 2016-2019 yılları arasında dış ticaret hacmi 1.242 milyardan 2.211 milyar dolara yükselmiştir.[2] 2021 yılında ise ticaret hacmi 3,645 milyar dolar seviyesine çıkmıştır.Türkiye ve Özbekistan arasında hemen her alanda gerçekleşen tecrübe paylaşımının da desteğiyle ilişkiler gittikçe ivme kazanırken kısa vadede 5 milyar, uzun vadede ise 10 milyar dolarlık ticaret hacmi hedefi açıklanmıştır. Türkiye Ticaret Bakanlığı verilerine göre 2023 yılında Türkiye-Özbekistan ikili ticaret hacmı 3.12milyar dolar olmuştur.

Sonuç

Özbekistan ve Türkiye arasındaki ilişkiler, ortak kültürel ve tarihi bağlar üzerine inşa edilmekte ve gelişim göstermektedir. Özbekistan ile Türkiye arasındaki ilişkiler bazı nedenlerle bozulmuş olsa da, ilerleyen dönemde düzelecektir.İki cumhurbaşkanının sürekli iletişim halinde olması ve iş birliğini teşvik eden politikaları, bu ilişkilerin güçlenmesinde belirleyici bir rol oynamaktadır. Özbekistan ile Türkiye arasındaki ilişkiler bağımsızlık yıllarında farklıydı ülkede geliştirilen dış politikada barış, istikrar, eşitlik, karşılıklı güven, saygı ve ilgi, güç kullanmama gibi Özbekistan, dış ilişkilerde ikili ilişkiler ilkesine dayalıdır. Aynı zamanda çok taraflı anlaşmaların kurulması ve geliştirilmesinin de destekçi ve başlatıcıdır.

Kaynakça

1. Rol teorisi, konstrüktivizm ve realizm çerçevesinde Türkiye-Özbekistan ilişkileri (1991-2023) nurgül bekar.

[1] Aben, D. (2022). New Stage in Turkey-Uzbekistan strategic partnership, Eurasian Research Institute, Erişim Adresi: https://www.eurasian-research.org/publication/new-stage-inturkey-uzbekistan-strategic-partnership/

[2] İstikbal, D. (2021). Orta Asya'da Yeni İş Birliği Alanları: Türkiye-Özbekistan İlişkileri, (SETA
Analiz, Sayı 357) Erişim Adresi: https://www.setav.org/analiz-orta-asyada-yeni-is-birligialanlari-turkiye-ozbekistan-iliskileri/

2. Muhittin Ataman, “Leadership Change: Ozal Leadership and Restructuring in Turkish Foreign Policy”, Alternatives Journal, Vol. 1, No. 1 (Spring 2002): P.134.

3. Bülent Aras, “Turkey’s Policy in the Former Soviet South: Assets and Options”, Turkish Studies, Vol. 1, No. 1, (Spring 2000): P. 45

4. Открытие посольства Турецкой Республики // Правда Востока. 30 апреля 1992 г

5. Президент Республики Узбекистан в Турции // Народное слово. 1 июля 1992 г.

6.Turkiya zaminidagi tantanalar // Xalq so‘zi. 1998 yil 30 oktabr

7. O‘zR MDA, M-7-fond, 1-ro‘yxat, 331-ish, 36-varaq.

8.Balım, Ç. ve Gürbüz, Y. E. (2012). O‘zbekistan Respublikası: “Özbek Modeli”, A. Aydıngün. ve Ç. Balım (Ed.) Bağımsızlıklarının Yirminci Yılında Orta Asya Cumhuriyetleri içinde (ss.221-311), Ankara: Atatürk Kültür Merkezi.

9. https://tuncayilcim.av.tr/v5/feto-davasi-cianin-yesil-kusak-projesi-fethullah-gulen-cemaati-opus-dei-ve-moon-tarikatlari-arasindaki-benzerlikler/

10.Taşkömür, F. (2017). How did Turkey-Uzbek relations after two decades of stagnation?, TRTWorld, Erişim Adresi: https://www.trtworld.com/turkey/how-did-turkey-uzbek-relationsimprove-after-two-decades-of-stagnation--11677

11. Aben, D. (2022). New Stage in Turkey-Uzbekistan strategic partnership, Eurasian ResearchInstitute, Erişim Adresi: https://www.eurasian-research.org/publication/new-stage-inturkey-uzbekistan-strategic-partnership/

12. İstikbal, D. (2021). Orta Asya’da Yeni İş Birliği Alanları: Türkiye-Özbekistan İlişkileri, (SETAAnaliz, Sayı 357) Erişim Adresi: https://www.setav.org/analiz-orta-asyada-yeni-is-birligialanlari-turkiye-ozbekistan-iliskileri/

KONSTITUTSIYAVIY ISLOHOTLAR ZAMIRIDA SHARAFLI MEHNAT

Murodjon ABDURAZZOQOV
TDSHU, Xalqaro jurnalistika yo‘nalishi 1-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: PhD dotsent, D. Ro‘ziqulov

Biz shu vaqtgacha tarixning o‘zimizga yoqqan joylarini olib, yoqmagan tomonini yashirib o‘tdik. Birovga yoqadimi-yoqmaydimi, g‘ururimizmi-armonimizmi, muvaffaqiyatmi yo xiyonatmi — hammasini haqqoniy yozish kerak.
O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev.

Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q.
Marhum Prezident Islom Karimov.

Annotatsiya: Mazkur maqola mustaqillik, til va haq-huquqlar, islohotlar, etnik va mafkuraviy ziddiyatlar markazida rivojlangan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qisqacha evolyutsiyasi tadqiq etadi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ustida kechgan islohotlar, ushbu islohotlar zamiridagi kurashlar va ularning mohiyati tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: konstitutsiya, demokratiya, huquq, tizim, siyosat, evolyutsiya, tarix.

Konstitutsiya bosh qonun bo‘lib, bugungi kunda mamlakatlar huquq tizimida u yoki bu darajada ta’sir qiladi. Konstitutsiyalarning tartibga solish doirasi esa keng va xilma-xildir. Konstitutsiya normalari ta’sis etuvchi, yetakchi[1] ahamiyat kasb etadi va kelajak ko‘zlovlarini belgilab, oliy yuridik kuchga ega. Konstitutsiyalar asosan yozilgan va yozilmagan; hadya qilingan va legitim usul bilan qabul qilingan; qattiq va yumshoq; vaqtincha va doimiy turlariga bo‘linadi[2] va bunga ko‘ra O‘zbekiston Konstitutsiyasi yozilgan, legitim usul bilan qabul qilingan, qattiq va doimiy turdagi Konstitutsiyalar sirasiga kiradi.

Konstitutsiya — huquq olami tarixiga birmuncha yangi kirib kelgan huquqiy hujjat shaklidir. O‘tmishda esa davlatlar va xalqlar o‘zaro munosabatlarini tartibga solishda turli, qonun bitiklaridan foydalangan. So‘nggi asrlarga kelib, xalq qudratining oshishi, ijtimoiy tabaqalar va ular o‘rtasidagi farqlanishlarning qisqarishi, boyliklar va hokimiyat resurslarining tobora inklyuzivlashuvi kabi pretsedentlar tufayli ko‘plab xalqlar o‘z zamonaviy Konstitutsiyasini qabul qildi. Bunga ko‘ra jahon Konstitutsiyalari tarixi shartli ravishda uch davrni boshgan kechirgan: birinchi davrda Konstitutsiyalar asosan davlat hokimiyati, uning tarmoqlari o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar, vazifa va

[1] Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. . – T.: Adolat, 2024. – B. 12.
[2] Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – T.: Adolat, 2024. – B. 50.

vakolatlar, bir-birini tiyib turish va muvozanatlash mexanizmlarini yoritib keldi (1920-yillargacha). Ikkinchi davr Konstitutsiyalarida esa insonlarning fundamental huquqlari va erkinliklariga alohida e'tibor qaratildi (1990-yillargacha). Uchinchi davr Konstitutsiyalari esa fuqarolik jamiyatiga o'z diqqatini qaratdi (hozirga qadar).

Xususan, bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakat suvereniteti, davlat hokimiyati, fuqarolarning fundamental huquq va erkinliklari, O'zbekiston tomonidan yuritiladigan ichki va tashqi diplomatik siyosatni e'tirof etishda dolzarbdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining salkam asrga tatigulik rivojlanish tarixiga egaligi esa, garchi Konstitutsiya qabul qilingan kun mamlakatimiz bo'ylab keng va katta shodiyonalar bilan eslansa-da, e'tibordan chetda qolayotganday ko'rinadi. Shu yuzasidan qomusimiz taraqqiyotining evolyutsion bosqichlarini o'rganish O'zbekiston Konstitutsiyasi mazmunini kengroq tushunishga yordam beradi.

O'zbekiston degan dunyoviy respublika tashkil etish yo'lidagi dastlabki urinish uning negizi va asoslarini qamrab olgan Konstitutsiyasi bilan boshlangan, deyish mumkin. Bu Rossiya Sovet Federativ Sotsialistik Respublikasi nomidagi yangi davlat tuzilmasi tashkil etilishi kabi tarixiy voqeliklar bilan bilvosita bog'liq. Ayni shu tarixiy pallalarda o'tmishda o'zidan jadid fenomenini qoldirgan milliy taraqqiyparvarlarimiz butun Rus imperiyasi tarkibidagi barcha xalqlar kabi o'z haq-huquqlari, hurriyatini talab etib chiqa boshlagandilar. Bunday vaziyatning ibtidosi o'lkada Turkiston muxtoriyati kabi respublikaning, Sho'ro'i Islomiya nomidagi milliy parlament va ushbu muxtor respublika mavjudligining huquqiy asoslaridan biri bo'lib xizmat qilishi ko'zlangan **Turkiston muxtoriyati Konstitutsiyaviy hujjat loyihasi**ning tuzilishi bilan boshlangan edi. Keyinchalik Buxoro Xalq Respublikasi, Xorazm Xalq Respublikasi va yana qayta tashkillashtirilgan Buxoro Sovet Sotsialistik Respublikasi, Xorazm Sovet Sotsialistik Respublikasi, Turkiston Sovet Sotsialistik Respublikasi, milliy chegaralanish davrida ta'sis etilgan O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyalari ushbu tarixiy taraqqiyotni davom ettirdi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi portalida keltirilishicha[1], O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi o'z Konstitutsiyasini SSSR tarkibidayoq 7 marotaba, taxminan har 10 yillik oralig'ida tahrirlangan, tegishli o'zgartirish va qo'shimchalar, tuzatishlar kiritilgan. O'zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasi garchi o'z davrida rasmiy ravishda O'zbek SSR sotsialistik qonunchiligining poydevori deb e'tirof etilgan bo'lsa-da, amalda u o'z davrida SSSR tarkibidagi boshqa despotik davlatlarda bo'lgani kabi, mamlakatning amaliy va muhim, oliy qonun hujjati bo'lishi o'rniga, ko'proq SSSR va uning tarkibidagi O'zbek SSRning istiqbolli rejalari yoritilgan, KPSS farmonlariga yondosh hujjat, shunchaki qog'oz o'laroq ko'rilar edi. Shunga qaramay, O'zbekiston SSR Konstitutsiyasi o'z davrining ruhi, qadriyat va me'yorlari, tarixi, buguni va kelajagi to'g'risidagi ko'zlovlarini o'zida ifoda

[1] Elektron manba: https://constitution.uz/oz/list/articles.

etgani bilan bugun ham tadqiqotchilar uchun qimmatli tarixiy manba bo‘lib kelmoqda. Shuningdek, O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida bitilgan o‘ziga xos me’yorlarda demokratik sentralizm, vertikal byurokratik boshqaruv tizimi, yakka partiya hukmronligi, ijtimoiy hayotning yakka mafkura ideallari asosida tashkil etilishi, “mustaqil” O‘zbekiston SSR va SSSR, Ittifoqdosh SSRlar va avtonom Qoraqalpog‘iston SSR o‘rtasidagi munosabatlar va aloqalar, hokimiyatning oliy va ma’muriy-hududiy boshqaruv organlari, ularning vazifalari va vakolatlari kabi davlat ahamiyatiga molik masalalarning mayda detallarigacha batafsil belgilangani bilan o‘z davrida boshqa davlatlarning Konstitutsiyaviy hujjatlaridan ajralib turar edi.

O‘zbekiston Sovet Sotsialistik Respublikasi Konstitutsiyasi oxirgi bor 1989-yilda tahrirlandi va bundan ko‘p o‘tmay, O‘zbekiston Jumhuriyati Islom Karimov raisligida va o‘sha vaqtlar deputat bo‘lgan Shavkat Mirziyoyev jonbozligida o‘z mustaqilligini e’lon qildi! SSSR va O‘zSSR Konstitutsiyalaridagi *“xalqlarning o‘z taqdirini o‘zi belgilashiga”* va *“Ittifoq tarkibidagi respublikalarning o‘z ixtiyoriga ko‘ra SSSR tarkibidan chiqib ketishiga”* bo‘lgan suveren huquqlari O‘zbekiston Respublikasining o‘z mustaqilligini e’lon qilishida va bu mustaqillik qonuniyligining kafolatlanishida yosh va mustaqil O‘zbekiston Respublikasi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi, ushbu Konstitutsiyalar tom ma’noda mustaqillikka huquqiy poydevor vazifasini o‘tadi. Ushbu qisqacha keltirilgan ko‘chirmalar esa o‘zbek konstitutsiyanavisligi o‘zining salkam 100-yillik tarixiy evolyutsiyasiga ega ekanidan, o‘tmishdagi Konstitutsiyalarimizning zamon sinovlariga munosib javob qaytara olishi uchun har o‘n yilliklarda hech yo‘q bir bor bo‘lsa ham, o‘zbek xalqi ziyoli qatlami tarafidan doimiy isloh etilib, toblanib kelinganidan, o‘zbek davlatchiligi va xalqi o‘z huquqiy tizimi va Konstitutsiyasi ustida uzluksiz ish olib bora bilganidan dalolat beradi. Bu kabi tarixiy faktlar bilan yuzlashish esa har bir O‘zbekiston fuqarosi ko‘ksida, qalb-u shuurida faxr-u iftixor, g‘urur va porloq kelajakka ishonch hislarini jonlantirmay qo‘ymaydi. O‘z qonunchilik tizimining shonli tarixi bilan tanishgan har bir vatandosh, yosh avlod o‘zi yashayotgan huquqiy tizimidan yanada qoniqish tuyg‘ularini hosil qiladi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tarixi milliy istiqlol, til, haq-huquqlar masalalari kun tartibiga qo‘yilgan davrdan boshlanadi. Ushbu og‘ir yillarda respublikamiz o‘z taraqqiyot yo‘lini belgilab oldi.

1990-yillarga kelib O‘zSSR Oliy Soveti tomonidan O‘zbekiston Mustaqillik Deklaratsiyasi marhum Prezident Islom Karimov raisligi va yana bir guruh deputatlar ishtirokida qabul qilindi. Ushbu deklaratsiyaning 8-moddasida O‘zbekistonning *“o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi tanlashi”* to‘g‘risida; 10-moddasida bundan buyon Oliy Sovet *“davlat mustaqilligini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan qonunlarni ishlab chiqishi”* to‘g‘risida; 12-moddasida esa *“ushbu deklaratsiya O‘zbekistonning yangi Konstitutsiyasini ishlab chiqish uchun asos bo‘lishi”* to‘g‘risida so‘z boradi. Buni qarangki, Mustaqillik Deklaratsiyasi qabul qilinishining ertasigayoq Konstitutsiyaviy komissiya tuziladi va Konstitutsiya loyihasi ana shu komissiya tomonidan 2 yildan ortiq vaqt mobaynida tayyorlanadigan bo‘ldi. Bu orada O‘zbekiston Respublikasi Oliy Soveti davlat

mustaqilligi to‘g‘risidagi bayonotiga asoslanib, *“Davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”*gi Konstitutsiyaviy qonunni, shuningdek, Prezidentning *“Davlat mustaqilligini e’lon qilish to‘g‘risida”*gi qarori qabul qilindi, keyinchalik bu qonun qaror mazmuni umumxalq ovoziga qo‘yilgan yangi Konstitutsiyaviy loyihada o‘z aksini topdi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi to‘g‘risidagi bayonotida *“...bundan buyon O‘zbekiston Respublikasi hududida respublika Konstitutsiyasi va qonunlari shak-shubhasiz ustun deb e’tirof etiladi”,* deb e’lon qilindi, keyinchalik bu modda *“O‘zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to‘g‘risida”*gi qonunning 5-moddasida mustahkamlandi: *“O‘zbekiston Respublikasida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va uning qonunlari ustundir”*.

Shunday qilib, 1992-yil 8-dekabr kuni respublika o‘z Konstitutsiyasini qabul qildi, bu bilan mustaqillikka yana bir bor mustahkam huquqiy poydevor o‘rnatildi.

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasining birinchi Konstitutsiyasi o‘zida o‘zidan avvalgi qabul qilingan konstitutsiyaviy, davlat tili va mamlakat suverenitetiga oid qonun hujjatlarida belgilangan huquqiy normalarni ifoda etishga harakat qildi, uning ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi davlatchiligining qonuniy ajdodi bo‘lmish O‘zbekiston SSRning bir necha bor tuzatishlariga uchragan O‘zbekiston SSR Konstitutsiyasida belgilangan demokratiya, ijtimoiy adolat va tenglikka oid bandlaridan va shuningdek to‘qson yetti turli mamlakat Konstitutsiyalarining ilg‘or tajribalaridan tegishli namunalar olinib, moddama-modda deputatlar, mahalliy va xorijiy mutaxassislar, ziyolilar va keng jamoatchilik o‘rtasida muhokamaga qo‘yildi. Ushbu Konstitutsiyaning normalari o‘zbek xalqining teran tarixiy ildizlariga asoslangan bo‘lib, bu uning hayotiy ekanidan darakdir[1].

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida demokratiyaga oid qator moddalar va hatto alohida bir bob ham mavjud. Ular orasida 1992-yilgi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 7-moddasida qayd etilgan quyidagi norma hech bir fuqaroning diqqatidan chetda qolishi mumkin emas: *“Xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir”.* Bu deganiki, davlat hokimiyati, uning qudrati va manbasi xalqdir, suverenitet xalqda yashaydi va xalqdan kelib chiqadi, xalq tomonidan amalga oshiriladi va xalq manfaatlariga xizmat qiladi, xalqning irodasini ifoda etadi va xalq uchun mavjuddir, xalq nazoratiga bo‘ysunadi va xalq oldida javobgardir, suverenitet xalqnikidir, xalq qo‘lidadir, suverenitet egasi xalqdir. Buni yanada mufassal tarzda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning nutqlari va asarlaridan, yig‘ishlarda qilgan ma’zuralaridan ham anglashimiz mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qabul qilinishi va unda xalq hokimiyati to‘g‘risidagi huquqiy norma alohida va ixcham tarzda taqdim etilishi mustaqillikning ilk yillarida bizning ommadan xalq va davlatni bir-biridan ayro

[1] Elektron manba: https://constitution.uz/uz/pages/Konstitusiyamizning_yaratilishi.

ko‘radigan an’anaviy tasavvurlarimizni o‘zgartirishimizda g‘oyaviy-huquqiy asos, turtki va oldinga tashlangan yana bir ulkan qadam bo‘ldi.

Shuningdek, mustaqil O‘zbekistonning ilk Konstitutsiyasida totalitar tuzum asoratlaridan qutilish maqsadida tegishli moddalar belgilandi, xususan, Konstitutsiyaning 12-moddasida *respublikaning ijtimoiy hayoti siyosiy institutlar, mafkuralar va fikrlarning xilma-xilligi asosida rivojlanishi* ta’riflangan bo‘lib, unga ko‘ra *“Hech qaysi mafkura davlat mafkurasi sifatida o‘rnatilishi mumkin emas”,* bu **mustaqil O‘zbekiston endilikda rivojlanish yo‘nalishida ma’lum bir utopiyaga emas, balki pragmatik siyosatga asoslanishidan darak edi.** Ushbu pragmatik siyosat yo‘liga o‘tishda va yana boshqa konstitutsiyaviy islohotlarni ishlab chiqish, bu bilan mamlakatning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlashda O‘zbekiston birinchi Prezidenti Islom Karimovning mustahkam siyosiy irodasi va u kishi bilan yaqindan muloqotda bo‘lgan Shavkat Mirziyoyevning qonunchilik va davlat boshqaruvida to‘plagan ko‘p yillik zalvorli tajribasi hal qiluvchi o‘rin tutgani haqiqat.

Diqqat qiling, 10-moddada keltirilishicha, *“Jamiyatning biron-bir qismi, siyosiy partiya, jamoat birlashmasi, ijtimoiy harakat yoki alohida shaxs O‘zbekiston xalqi nomidan ish olib borishga haqli emas”.* Keyingi 11-moddada esa *davlat hokimiyati tizimi – hokimiyatning qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi va sud hokimiyatiga bo‘linishi prinsipiga asoslanishi* ko‘rsatilgan. Bu moddalar ta’bir joiz bo‘lsa, mustaqil O‘zbekistonni huquqiy jihatdan sovet totalitarizmidan masofalashga qaratilgan.

Mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasi mazmunan o‘zida ijtimoiy demokratiya, sekulyarizm, qonun ustuvorligi prinsiplarini, xalq vakilligining oliy ko‘rinishi bo‘lgan Oliy Majlis va Prezidentlik institutlarini, ularning vazifa va vakolatlarini ta’rifladi.

Konstitutsiyaviy islohotlar zamirida esa ko‘plab sharafli mehnat va kurashlar yotadi. Birgina misolda mamlakatning dunyoviy davlatchilik prinsipiga nisbatan Mustaqil O‘zbekistonning ilk yigirma yilliklarida mutaassiblar tomonidan bir necha bor namoyishkorona tahdidlar yuz berganini, Prezident Islom Karimov faoliyat olib borgan davr reaksion kuchlar tarafidan O‘zbekistonning dunyoviy xarakteriga xavflar kuchaygan vaqtlarga to‘g‘ri kelganini, yoqimsiz bo‘lsa-da eslashga urinaylik.

1991-yil, 20-dekabr. Namanganda bir to‘p manqurt olomon va jangarilar davlat binosini ishg‘ol etib, O‘zbekistonni radikal aqidaparastlikka asoslangan davlat deb e’lon qilish, mamlakatni Konstitutsiya va unga muvofiq barcha uchun umumiy, teng tatbiq etiluvchi qonunlar bilan emas, balki o‘z diniy konfessiyasining qoidalari asosida boshqarish, dunyoviy nizomga xilof ravishda o‘z konfessiyasini davlat dini deb belgilatish kabi O‘zbekistonning konstitutsiyaviy davlatchiligiga zid qator talablarini hukumat vakillari oldiga qo‘yadi. Jangovar kayfiyatdagi bir to‘p olomon bilan yuzlashish va ularni murosaga keltirishga esa yolg‘iz birinchi Prezident Islom Karimovning o‘zigina jazm eta oldi. U kishi bir guruh mutaassiblar qarshisiga kelib, ular bilan muzokaralar olib borishga kirishadi, aholiga vaziyatni ro‘y-rost tushuntirishga harakat qiladi va oqibatda aholining arz-holidan kelib chiqib, ma’lum nuqtalarda

yonbosishlar bilan tinchlikka erishadi, bir gala olomonni tarqalishga va uy-joyiga qaytishga ko‘ndiradi. Bu bilan Prezident Islom Karimov mamlakat ichkarisida diniy-siyosiy motivlar bilan ehtimoliy urushlar yuz berishining oldini oldi, — ta’bir joiz bo‘lsa yonbosishlar sirasiga musulmonlarning muqaddas bayramlarini davlat darajasida e’tirof etilishi va nishonlanishi; prezidentlik lavozimiga kirishish marosimida esa bo‘lajak prezidentning mus’haf va Konstitutsiyani birgalikda ushlab qasamyod etishi kabi konstitutsiyaviy nizom prinsiplariga putur yetkazmaydigan kichik amaliyotlar kirar edi. Shu bilan birga vijdon erkinligiga bag‘ishlangan qator qonunlar ham qabul qilindi, mutaassiblar esa asl maqsadlari zo‘ravonlik yo‘li bilan hokimiyatni egallash bo‘lgani uchun ham bunga qanoat qilishmas edi, bora-bora **konstitutsiyaviy, dunyoviy nizom himoyasida Prezident Islom Karimov siymosi** turganini anglagan aqidaparastlar Prezident Islom Karimov hayotiga suiqasd hozirlashadi va 1999-yil 16-fevralda poytaxtda sodir etilgan terakt bunga yaqqol misol bo‘lib tarixga muhrlandi. So‘z o‘rnida aytish kerakki, ushbu suiqasd va tartibsizliklar nafaqat konstitutsiyaviy tuzumning dunyoviylik prinsipiga, balki joriy Konstitutsiyada qayd etilgan demokratiya va umum inson huquqlariga ham qaratilgan xuruj edi.

Mustaqil O‘zbekiston tarixidagi bu kabi mudhish voqealarga qaramay, mustaqillikning ilk dekadalarida shaxsan Islom Karimov ishtiroki va raisligida olib borilgan muzokaralar, huquq tartibot organlari bilan hamkorlikda amalga oshirilgan sa’y-harakatlar natijasida bir qancha ommaviy tartibsizliklarning oldi olindi, O‘zbekiston o‘zining mavjud dunyoviy konstitutsiyaviy tuzumini saqlab qola bildi va pirovardida dunyoviy konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlashga qaratilgan harakatlar amalga oshirildi.

Bularning bari O‘zbekistonning birinchi Prezidenti Islom Karimovning *o‘z zukkoligi, qat’iyati, jasorati va yuksak ma’naviyati bilan mamlakatni ijtimoiy-siyosiy, diniy bo‘hronlar qa’ridan olib chiqishga o‘zida kuch va jur’at topa olgani* ortidan edi.

2017-yil bo‘lib o‘tgan prezidentlik saylovida, Shavkat Mirziyoyev Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan ilk bor o‘z nomzodini ko‘rsatdi va yuqori ovoz to‘plab katta farq bilan g‘alaba qozondi, bu bilan mustaqil O‘zbekiston tarixida yangi bir islohotlar erasi boshlandi. Prezidentimiz o‘z partiyasi prinsiplariga sadoqat ko‘rsatib, islohotlarida iqtisodiyotni liberallashtirish, xalqaro miqyosda mamlakat nufuzini ko‘tarish, inson huquq va erkinliklarini, matbuot va so‘z erkinligini, qonun ustuvorligini, xususiy mulk daxlsizligini ta’minlash, kichik va o‘rta biznesni rivojlantirish, demokratik institutlarni mustahkamlashga ustuvorlik qaratdi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshchiligida 2022-yilning 17-may kuni Oliy Majlis palatalarida eng ko‘p deputatlik o‘rinlariga ega bo‘lgan ikki siyosiy partiya, Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati – O‘zbekiston Liberal-demokratik partiyasi va “Milliy tiklanish” demokratik partiyasi fraksiyalari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish tashabbusini ilgari surishga qaratilgan qo‘shma yig‘ilish bo‘lib o‘tdi, 20-may kuni esa Senat va Qonunchilik palatasi kengashlarining qo‘shma majlisi o‘tkazilib, unda Konstitutsiyaviy komissiya tashkil etilishi

to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Shundan so‘ng qisqa vaqt ichida Yangi O‘zbekistonning Konstitutsiyaviy loyihasi umumxalq muhokamasiga qo‘yilib, fuqarolik jamiyati faollarining, ekspertlarning, inson huquqlari himoyachilarining va millionlab yurtdoshlarimizning takliflarini inobatga olgan holda qayta ko‘rib chiqildi, tegishli o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritildi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya tom ma’noda xalqimiz hammuallifligida yaratildi va 2023-yil 30-aprelda referendum yo‘li bilan qabul qilindi. O‘zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi avvalgisidan o‘zining batafsilligi bilan farqlanib, o‘zida fundamental inson huquq va erkinliklarining mufassal bayonini va avvalgi Konstitutsiyada ochiq qolgan huquqiy noaniqliklarning bartaraf etilishini jo etdi, unda xalqimiz va davlatchiligimizning azaliy muammolariga huquqiy yechimlar keltirilib, mazmunan va shaklan to‘ldirildi.

Ta’bir joiz bo‘lsa, Konstitutsiyaviy islohotlar Yangi O‘zbekistonni barpo etishdagi obyektiv zarurat ham edi.[1]

So‘ngi yillarda (hozir 2025, *muallif*) Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning mustahkam siyosiy irodasi va izchil siyosati orqali O‘zbekiston Respublikasining huquqiy xarakteri yanada mustahkamlandi. Xususan, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yetakchiligida ilmiy va publitsistik maqolalarda “chuqur davlat”, “davlat ichidagi davlat” nomlari bilan atalgan qator noqonuniy tuzilmalar, guruhlar va maxfiy tashkilotlar faoliyatiga chek qo‘yilib, mamlakatning muvoziy tarkiblariga va yana qator noqonuniy faoliyatlarga barham beriladi. Bu kabi mamlakatimiz hayotini isloh etish tashabbuslari orqali respublikamizdagi kriminogen vaziyat tubdan yaxshilanib, fuqarolarning huquq va erkinliklari tiklandi. Ushbu o‘zgarishlarda shubhasiz yangilangan Konstitutsiya va qonunlarimiz salmoqli ahamiyatga egadir.

O‘zbekistonning yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 1-moddasi mazmunida bayon etilgan davlatchilikning asosiy xususiyatlari yanada mustahkamlanib, boyitildi, endilikda O‘zbekiston o‘zini rasman *“boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat”* deb e’lon qildi. Davlatimizning o‘zgarmas ushbu xususiyatlari Konstitutsiyaning keyingi qatorlaridagi qonun ustuvorligi, sekulyarizm, ijtimoiy adolat, inson huquqlari, xalq hokimiyatchiligi, davlat hokimiyati tarmoqlari va maxsus organlariga bag‘ishlangan moddalari bilan yanada kengroq yoritildi va bu bilan ushbu xususiyatlarning to‘liq mohiyati yanada ochildi. **Yangi O‘zbekiston Konstitutsiyasi Prezident Shavkat Mirziyoyev tashabbusiga ko‘ra, insonparvar qadriyatlarni o‘zida ifoda etishi belgilandi.** Unga ko‘ra, inson, uning hayoti, sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari O‘zbekiston davlatining oliy qadriyati bo‘lib, O‘zbekistonda inson sha’ni, qadr-qimmati, huquq va erkinliklari hurmat va e’zozda, ardoqlanadi va qonuniy himoya qilinadi. **Mustaqil O‘zbekiston va Sovet O‘zbekistoni Konstitutsiyalaridagi asosiy farqlardan biri ham asli shu, sho‘ro O‘zbekistonining Konstitutsiyasi asosan davlat manfaatlarini ko‘zlab yozilgan bo‘lsa, mustaqil O‘zbekiston Konstitutsiyasida xalqaro hujjatlarga muvofiq inson manfaatlarini ulug‘lash**

[1]Sh. Mirziyoyev. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023. – B. 111.

ko‘zda tutilgan. Hozirgi davr ijtimoiy taraqqiyotining asosiy omili inson ekanini e’tirof etsak, jamiyat va hokimiyat mavqeyi ham insonga bo‘lgan munosabat, yuksak gumanistik g‘oyalarni amalga oshirish bilan belgilanadi. Mustaqil respublikamiz o‘zining ichki va tashqi siyosati, barcha amaliy faoliyatida keng ommaning, har bir shaxsning farovon, tinch va osoyishta turmush kechirishi, erkin, to‘q va sog‘lom yashashi uchun imkon yaratishni bosh vazifa qilib qo‘yayotgan ekan[1], bunda konstitutsiyaviy o‘zgarishlar yetakchi huquqiy islohotlar sirasiga kiradi.

Yangi Konstitutsiyada demokratik tizim asoslarini yanada mustahkamlash maqsadida xalqimizning oliy vakillik ko‘rinishlari bo‘lmish Oliy Majlis va prezidentlik institutlari[2]ning vakolat va vazifalari kengaytirilib, ularning faoliyatini, sudlar mustaqilligini kafolatladi.

Yangilangan Konstitutsiyada shuningdek mamlakatimizning boshqa mamlakatlar bilan manfaatli integratsiyalashuviga ham huquqiy zamin yaratildi, yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi ustidan aholining e’tirozlari o‘rganilib, Qoraqalpog‘istonning huquqiy maqomi shaxsan Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbusi asosida saqlab qolindi. Bundan anglashiladiki, O‘zbekiston – o‘zida unitar, federativ va konfederativ elementlarni jamlagan noyob ma’muriy tuzilishga ega suveren respublika. O‘zbekiston — xalqaro munosabatlarning to‘la huquqli subyekti bo‘lib, ittifoqlar tuzish, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishish uning suveren huquqlaridir. Uning milliy qonunchiligi esa ham xalqaro huquqiy normalarga muvofiqligi, ham xalqimizning an’ana va qadriyatlariga hamohangligi bilan alohida diqqatga sazovor, ta’bir joiz bo‘lsa ushbu milliy qonunchiligimiz negizida jonajon O‘zbekistonimizning yangilangan Konstitutsiyasi yotadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – T.: Adolat, 2024.
2. www.constitution.uz web-portali.
3. www.lex.uz web-portali.
4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
5. Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2024.
6. Daron Ajemo‘g‘li, Jeyms A. Robinson. Mamlakatlar tanazzuli sabablari. – T.: Nihol, 2021.

[1] Jabborov I., Jabborov S. Jahon dinlari tarixi. – T.: O‘zbekiston, 2024.
[2] Husanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. – T.: Adolat, 2024. – B. 115.

МОЛОДЁЖЬ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА – ТВОРЦЫ ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА

Камила АББАСОВА
ТГУВ, Студентка 3 курса
Институт Внешней политики и международных экономических отношений,
кафедры Международных отношений
Научный руководитель: А. Мамаджонов

Аннотация: В данной статье рассматривается государственная политика в отношении молодёжи в Новом Узбекистане и её влияние на образование, занятость, социальную защиту, здоровье и участие молодежи в общественной жизни. Обсуждаются основные направления развития, программы поддержки и инициативы, направленные на повышение качества жизни и активное участие молодежи в формировании современного общества. Анализируются ключевые мероприятия и планы дальнейших действия для достижения целей государственной политики в отношении молодёжи в Новом Узбекистане.

Ключевые слова: молодёжь, Новый Узбекистан, молодежная политика, образование, третий ренессанс, инновации, реформы, программы, инициативы.

В каждой махалле и в каждой семье всегда считалось важным обеспечить благополучие нового поколения, обеспечить молодёжь качественным образованием и воспитать их как достойных личностей с высокими духовными и нравственных принципами. Работа, проводимая в этом направлении, и забота о молодёжи являются практическим воплощением прав и гарантий, которые закреплены в основном законе. Стратегия «Узбекистан-2030» открывает новые возможности. Молодое поколение осознает важность проводимых реформ в экономике, образовании, культуре и науки, и готовы вносить свой вклад в развитие страны. Они понимают, что самоотверженный труд является ключевым фактором для представителя нового поколения. Поддержка молодёжи в Узбекистане достигла нового уровня, что отражается в активности выпускников вузов в образовательных учреждениях. Ведётся эффективная работа с одаренными студентами, которые стремятся заниматься научной деятельностью.[1] На молодое поколение третьего ренессанса возлагается огромная ответственность за воплощение инициатив главы государства. Эти результаты являются продуктом усердной работы и сильной политической воли лидера.

Молодёжь всегда оставалась в центре внимания государственной политики Узбекистана и сегодня продолжает играть ключевую роль в

[1] Будущее за новым поколением Нового Узбекистана 14 сентября 2023, Бехзод Тухтамуродов https://yuz.uz/ru/news/buduee-za-novm-pokoleniem-novogo-uzbekistana

обществе. В настоящее время в стране осуществляются значительные реформы в различных областях, направленные на решение актуальных проблем и создание благоприятных условий для развития и воспитания молодёжи. Узбекистан, по сути, является страной, где особое внимание уделяется молодому поколению.[1]

Основная часть.

Современный Узбекистан переживает период значительных изменений и развития во всех сферах жизни. Одним из ключевых факторов, определяющий этот процесс, является активное участие молодого поколения в формировании Нового общества. Молодёжь Нового Узбекистана выступает не только как стержень будущих изменений, но и как катализатор новых идей и творческих решений. Сегодняшняя молодёжь связана с предшественниками великого узбекского наследия и мировым культурным наследием. Они стремятся не только развитию экономики и социальной сферы, но и к созданию новых культурных ценностей, способствующих развитию страны в целом. Молодёжь Нового Узбекистана активно участвует в различных образовательных, культурных и социальных проектах, способствуя укреплению международных связей и развитию страны.[2]

Узбекистан — страна, где более половины населения составляет молодежь до 30 лет. На начало 2023 года число людей в возрасте до 30 лет достигло 19,6 миллиона, что составляет 55,6% от общей численности постоянного населения. Молодое поколение всегда было в центре внимания государства, так как их динамичность и мобильность являются ключевым ресурсом для будущего прогрессивного развития страны. Президент постоянно обращает внимание на это объективное обстоятельство. Специальное внимание к молодежи проявляется через укрепление законодательной базы, регулирующей государственную молодежную политику. Анализ законодательства позволяет выделить основные принципы политики, направленной на раскрытие потенциала молодежи и создание условий для их самореализации.[3]

Прежде всего, важно обратить внимание на получение образования, которое является ключевым фактором для успешной реализации молодежи. За последние 8 лет произошли значительные изменения в области образования, включая расширение сферы высшего образования и улучшение качества образовательного процесса. Теперь каждый желающий

---

[1] Страна для молодежи: поддержка подрастающего поколения — приоритет Нового Узбекистана, Евгения Юн, 30 июня 2023, https://yuz.uz/ru/news/strana-dlya-molodeji-podderjka-podrastayuego-pokoleniya---prioritet-novogo-uzbekistana

[2] Молодёжь нового Узбекистана: жизненные позиции и ценностные приоритеты, 28.06.2021, https://ijtimoiyfikr.uz/ru/issledovaniya/obschestvo/molodezh-novogo-uzbekistana-zhiznennye-pozitsii-i-tsennostnye-prioritety.htm

[3] Новый Узбекистан: новый взгляд на молодежь и будущее молодежи, Умирзаков А.З, 2022. https://cyberleninka.ru/article/n/novyy-uzbekistan-novyy-vzglyad-na-molodezh-i-buduschee-molodezhi

Afgʻonistondagi siyosiy va ijtimoiy oʻzgarishlarning boshida 1996-yilda Kobul Tolibon qoʻliga oʻtganidan bir necha hafta oʻtib, ularning ayollar ta'limi va ishlashiga qarshi siyosati jahon hamjamiyati tomonidan keskin tanqid qilingan edi. Tolibon tashqi ishlar vaziri Mulla Muhammad Gʻaus BMT delegatsiyasi bilan uchrashuvda Tolibonning bu boradagi muammolarini oddiy qilib izohladi: "Biz oʻz harbiy xodimlarimiz bilan shartnomalarimiz bor, ulardan biri ayollarni oʻqitishga toʻsqinlik qilishdir. Agar biz bu shartnomani buzsak, harbiylar jang maydonlarini tark etib, qishloqlariga qaytishadi. Shuning uchun, biz qarshimizda turgan dushmanlarga qarshi kurashish uchun qishloq jangchilariga ehtiyojimiz bor, biz ushbu siyosatni davom ettirishga majburmiz. Bu siyosatni oʻzgartirish faqat urush tugagandan keyin mumkin boʻladi".[3] Bu soʻzlar Tolibon siyosatining asl mohiyatini tashkil etgan boʻlsa-da, ular oʻzgarishlarga rozi boʻlmadi va oxirigacha bu siyosatni davom ettirdi. Ayol oʻqituvchilarni mamlakatda koʻp sonli boʻlishiga qaramay, ularni ishdan boʻshatishdi, bu esa ta'lim tizimi deyarli falaj qildi. Tolibon dastlab iqtisodiy muammolar tufayli ayollar uchun ta'limni islomiy shariatga mos ravishda tashkil qilish imkoniyatiga ega emasligini koʻrsatdi. Jahon jamoatchiligi bu diskriminatsiyani qabul qilmasdan, Tolibonni siyosatini oʻzgartirishga undash uchun turli yoʻllar bilan harakat qildi. Masalan, Yevropa hamjamiyati Kobuldagi 5 ta qizlar maktabining xarajatlarini Tolibon istagan shartlar asosida oʻz zimmalariga olishga tayyorligi bildirgan edi. Shuningdek, Norvegiya tashqi ishlar vazirining oʻrinbosari Tolibon tashqi ishlar vazirining oʻrinbosari Istoniqzay bilan uchrashuvda Yevropa davlatlari Kobulda 10 ta katta maktab qurishni va ta'mirlashni taklif qilishdi va 5 ta maktab faqat qizlar uchun boʻlishi kerak edi va qizlarning xavfsizligi va transporti uchun zarur choralar koʻrilishi kerak edi. Istoniqzay javoban, Tolibon bu ishda hech qanday muammo koʻrmasligini aytdi. Ammo dastlab ikki tomonli komissiya bu masalani diqqat bilan oʻrganishi kerak edi. Norvegiya tashqi ishlar vazirining oʻrinbosari bu kelishuvni Tolibonning muhim qadam deb e'lon qildi, lekin bu qaror amaliyotga oʻtmadi va Kobuldagi matbuot konferensiyasidan bir necha daqiqa oʻtib, bu taklifni Qandahorda joylashgan hukumat tomonidan rad etildi.[4] Islom Konferensiyasi tashkilotining vakillari Qandahorda Tolibonning yuqori

---

[1] ابرور اس. ظهور «طالبان» در افغانستان.-تهران، 1384.-222 ص.

[2] Истории традиционного и современного образования в Афганистане. – Душанбе, "Таъминотчӣ". 2018.-317 с.

[3] كومگور م .ج .تاريخ افغانستان– Kobul, 2002. -202 b. 67B

[4] ابرور اس. ظهور «طالبان» در افغانستان.-تهران، 1384.-222 ص

amaldorlari bilan bu masalani muhokama qilishdi, agar Tolibon ayollarni o‘qitishni shariatga xilof deb bilsa, ular bilan bu masala haqida bahs qilishga tayyor ekanliklarini bildirishdi. Tolibon bu savollarga aniq javob bermadi va Kobulda Norvegiya tashqi ishlar vazirining o‘rinbosari jahon hamjamiyatiga bu savollarga javob berish majburiyatini oldi.[1]

Siyosiy-iqtisodiy qiyinchiliklar tufayli ko‘plab o‘qituvchilar ishdan ketishi ta’lim tizimini izdan chiqardi. Bu vaziyatda xorijiy xayriya tashkilotlari, xususan Turkiyadagi nodavlat tashkilotlar Afg‘onistonda “pashtu-dariy-turk” maktablarini ochib, 6-sinfdan keyin o‘g‘il bolalarni imtihon bilan qabul qilib, zamonaviy ta’lim tizimini, jumladan turk, ingliz va arab tillarini o‘rgatishni yo‘lga qo‘ydi. Bu Afg‘onistonda ilgari bo‘lmagan yangi usul edi. Bu maktablarga Turkiyadagi islomiy tashkilotlar tomonidan yordam berildi. Bu maktablarning turk o‘qituvchilari taqvodor va diniy ilmlarga ixtisoslashgan edi.[2] Dastlab muvaffaqiyatli faoliyat yuritayotgan bu maktablarga Tolibon aralashuvi ayrim muammolarni keltirib chiqardi. Turkiya maktablari rahbariyati cheklovlarga qarshi kurashdi. Ta’lim vazirligining aralashuvi bilan maktabga kirish uchun davlat imtihonlari bekor qilindi, vazirlik buni moliyaviy imkoniyati bor oilalar farzandlari xususiy kurslarda o‘qishi va imtihonda davlat maktablaridagi o‘quvchilarga nisbatan ustunligi bilan izohladi .Chunki davlat maktablarida na o‘qituvchi, na ta’lim olish uchun zarur imkoniyatlar mavjud edi va 2000-yillarning boshlarida bu muammolar misli ko‘rilmagan darajada kuchayib ketdi.[3]

BMTning 2001-yil 11-sentyabrdagi voqealaridan so‘ng Afg‘onistondagi vaziyatni yaxshilashga qaratilgan sa’y-harakatlari muhim ahamiyatga ega. BMTning birinchi va eng muhim tashabbusi bo‘lgan Bonn konferensiyasi AQSh va Afg‘onistonning qo‘shni davlatlari bilan hamkorlikni ta’minlash maqsadida 6+2 formatida va afg‘on guruhlari ishtirokida 2001-yil dekabrda Germaniyaning Bonn shahrida konferensiya o‘tkazildi. Bu Afg‘onistonda tinchlik va barqarorlikni o‘rnatish yo‘lidagi dastlabki qadam bo‘lib, 9 kunlik muzokaralardan so‘ng muvaffaqiyatli yakunlandi. Ushbu konferensiyada Afg‘onistondagi iqtisodiy, siyosiy va ta’lim sohasidagi muammolarni hal qilish bo‘yicha bahslar olib borildi va bu XXI asr boshidagi Afg‘oniston uchun muhim natija bo‘ldi.[4] Bonn konferensiyasidan so‘ng, 2001-yil sentyabrdan BMT Afg‘onistonda siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy va ta’lim tizimini rivojlantirishga faol kirishdi. Vaqtincha hukumat tuzilgach, BMT Xavfsizlik Kengashi ISAF (Xavfsizlikni Ta’minlash uchun Yordam Kuchlari)ni yaratishni topshirdi. BMT bosh kotibining maxsus vakili Laxzar Ibrohimiy Kobulga yuborilib, Afg‘oniston hukumatiga yordam berishni davom ettirdi. ISAFning birinchi guruhlari Afg‘onistonga kirib, inglizlar boshchiligida ish boshladi. Keyinchalik BMTning siyosiy faoliyati va maxsus vakillari Afg‘onistonda kengayib, ma’muriy tuzilmani yaratish va zarur shaxslarni tayinlashda muhim rol o‘ynadi. 2001-yildan boshlab BMT idoralari,

[1] –تاریخ افغانستان .ج .کومگور م
[2] 23 .ص 222 — .1387کابل، -.معارف افغانستان تاریخ .ج .کومگور م
[3] .ص 188 -.200تهران، — .افغانستان و پنج سال حکومت طالبان .مژدا وی
[4] .2صفحه .ص 225-.1385تهران، -.افغانستان و کشورهایاروپایی .ثاقب م .

siyosiy missiyalari, g‘arb davlatlarining ikki tomonlama ishtiroki, nodavlat tashkilotlar va xalqaro tashkilotlarning faoliyati sezilarli darajada oshdi. BMTning Afg‘oniston hukumatiga ko‘rsatgan hamkorligi natijasida 2001-2021-yillarda ko‘plab siyosiy tashabbuslar amalga oshirildi. BMTning Afg‘onistonga yordam berish bo‘yicha tashabbuslari, masalan, 2010-yil yanvarida Londonda, 2010-yil iyunida Kobulda, 2012-yil iyunida Tokioda bo‘lib o‘tgan xalqaro konferensiyalarda Afg‘onistonda xavfsizlikni ta’minlash, tinchlik va barqarorlikni yaratish, demokratik institutlarni mustahkamlash va milliy hokimiyatni ta’minlash maqsadida amalga oshirildi.[1]

Shu bilan birga, 2021-yilning 7-oktyabrdagi Bonn shahridagi “Pittsburgh” mehmonxonasida turli afg‘on guruhlari vakillari ishtirokida Bonn konferensiyasi o‘tkazilgan va unda professor Burhoniddin Rabboniy Afg‘onistonning Tinchlik Kengashining raisi sifatida siyosiy vaziyatni yaxshilash va ayniqsa ta’lim sohasida katta hissa qo‘shgan.[2]

Homid Karzayning 13 yillik davri Bonn konferensiyasidan so‘ng boshlanib, Afg‘oniston uchun juda muhim davr bo‘ldi. Ushbu davrda mamlakatda nisbiy tinchlik o‘rnatildi va afg‘on xalqi, siyosiy o‘zgarishlar, ta’lim sohasidagi rivojlanish va boshqa sohalarda duch kelgan bir qator muammolarga qaramay, sezilarli yutuqlarga erishdi. 2004-yilgi Afg‘oniston konstitutsiyasining 43-moddasiga ko‘ra: “Har bir Afg‘oniston fuqarosi ta’lim olish huquqiga ega”[3] — ekanligi belgilangan. Konstitutsiyada ta’lim har bir fuqaroning asosiy huquqlaridan biri sifatida belgilangan. Davlat barcha fuqarolar uchun bepul ta’lim berishi va boshlang‘ich ta’limni majburiy qilishini kafolatlagan. Ta’lim tizimi Islomiy qadriyatlar va milliy birlik tamoyillariga asoslangan bo‘lishi shart edi. Universitetlar va ilmiy tadqiqot muassasalari mustaqil ishlashi kerakligi belgilangan, shuningdek, xususiy ta’lim muassasalari ochishga ruxsat berilgan. Eng muhim jihatlardan biri – ayollar va erkaklarning teng ta’lim olish huquqi edi. Konstitutsiya ayollarning ham maktab, ham universitetlarda o‘qishini kafolatlardi. Prezident Ashraf G‘ani davrida (2014-2021) Afg‘onistonda ta’lim tizimida ijobiy o‘zgarishlar bo‘ldi. Ta’lim tizimi davlat va xususiy sektor maktablari hamda oliy ta’lim muassasalaridan iborat edi.

Ta’limning asosiy bosqichlari:

Boshlang‘ich ta’lim (1-5-sinf);

O‘rta ta’lim (6-9-sinf);

Oliy ta’lim (10-12-sinf).

Ashraf G‘ani davrida ta’lim oluvchilar soni oshdi. 2001-yildan keyin ta’lim tizimi tiklanib, 2014-yilda 9 milliondan ortiq o‘quvchi maktabda ta’lim olayotgan edi. Lekin ularning ko‘pchiligi qishloqlarda edi, shaharlarda va xavfli hududlarda imkoniyatlar cheklangan edi. Ashraf G‘ani davrida qizlar va ayollar ta’lim olish imkoniyatiga ega bo‘lishdi, ammo Tolibon nazoratidagi hududlarda qiyinchiliklar

[1] اف فضیلیور .دولت در افغانستان سازی و ملی جامعه جهانی .-کابل، 1396.-ص245. صفحه81

[2] Шарифов Р.Я. Традиционное образование народов Хорасана (Ретроспективный взгляд на историю формирования и эволюции системы). – Душанбе, “Эр-граф”. 2017. – 109с. 22С

[3] Afg‘oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasi — Kobul-2004

mavjud edi. Urush va nizolar ta’lim tizimiga ta’sir ko‘rsatdi, maktablar hujumlarga uchradi, o‘qituvchilar va o‘quvchilar xavf ostida qoldi. Afg‘oniston ta’lim tizimiga xalqaro tashkilotlar, xususan BMT, Jahon banki va boshqalar yordam ko‘rsatdi. Bu yordam maktablar qurish, o‘qituvchilarni tayyorlash, darsliklar chop etish va zarur resurslarni ta’minlashga qaratildi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, Afg‘onistonda ta’lim sifati so‘nggi yillardagi siyosiy va iqtisodiy beqarorliklar natijasida ancha past ko‘rsatkichda. [1]

Afg‘onistonda davlat va xususiy oliy ta’lim muassasalarining o‘sishi, 1380-1393 (2001-2014)[2]

Yil	*2001*	*2006*	*2012*	*2014*
Davlat OTM	6	19	31	34
Xususiy OTM	0	2	66	92
Umumiy	6	21	97	126

Lekin 2021-yilda siyosiy beqarorlik natijasida Afg‘oniston yana hukumat almashishi yuz berdi. Tolibon hukumati ikkinchi marotaba Afg‘onistonni o‘z nazorati ostida oldi va hozirgi qator Muvaqqat hukumat faoliyat ko‘rsatmoqda. Lekin Tolibonlar yana ayollar va qizlar ta’lim olishlari imkoniyat bermayapti. Xususan, YUNESKO tashkilotining 2024-yil 15-avgustdagi hisobotiga ko‘ra, “1,4 million afg‘on qizi maktabga bormaydi. Boshlang‘ich ta’lim olish imkoniyati ham keskin pasayib, 1,1 million nafarga yaqin o‘g‘il va qiz bolalar maktabga bormoqda”. YUNESKO Bosh direktori Odri Azuleyning fikriga ko‘ra, “Bugungi kunda Afg‘onistonda 12 yoshdan oshgan qizlar va ayollarning ta’lim olishi ta’qiqlangan dunyodagi yagona davlatdir. Bu holat barchamizni tashvishga solishi kerak, ta’lim olish huquqini cheklab bo‘lmaydi. Xalqaro hamjamiyat afg‘on qizlari va ayollari uchun maktab va universitetlarning ochilishiga erishish uchun to‘liq safarbar bo‘lishi kerak” – deydi hisobotda. Bu hisobotga ko‘ra, taqiqlar joriy etilgunga qadar maktabdan tashqarida bo‘lgan qizlarni ham qo‘shib hisoblasak, hozir mamlakatda 2,5 millionga yaqin ta’lim olish huquqidan mahrum qizlar bor, bu maktab yoshidagi qizlarni 80 foizini tashkil etadi. 2021-yildan beri qizlarning 12 yoshga to‘lmagan qizlarga maktab borishga ruxsat berilgan bo‘lsa-da, maktabda o‘qiydigan bolalar soni kamayib borgan. Masalan, 2022-yilda boshlang‘ich maktabda atigi 5,7 million qiz va o‘g‘il bolalar tahsil olishar edi. 2019-yilda bu ko‘rsatkich 6,8 million edi. Yangi hukumat ayol o‘qituvchilarning o‘g‘il bolalarga dars berishini taqiqlash to‘g‘risidagi qarori natijasida, o‘qituvchilar tanqisligi yanada kengaydi. Buni, shuningdek, tobora qiyinlashib borayotgan ijtimoiy-iqtisodiy sharoitda ota-onalarning farzandlarini maktabga yuborishga rag‘batlanmasligi bilan izohlash mumkin. 2021-yildan buyon oliy o‘quv yurtlarida tahsil olayotgan talabalar soni 53 foizga kamayganligi bilan oliy ta’lim sohasida ham bu ko‘rsatkichlar juda tashvishlidir. Natijada, mamlakat tezda eng yuqori malakali mutaxassislar uchun tayyorlanayotgan bitiruvchilarning tanqisligiga duch keladi.

[1] صمدیا. رویدودوپینجدهیآخردرافغانستان.- پشور، 2004.-533 ص. 13صفحه

[2]https://www.unesco.org/en/articles/afghanistan-14-million-girls-still-banned-school-de-facto-authorities

YuNESKO ma’lumotlariga ko‘ra, 2021 yildan beri universitetlarga qabul qilingan talabalar keskin kamaygan. Natijada, mamlakatda yuqori malakali ish o‘rinlari uchun tayyorlanayotgan bitiruvchilarning yetishmasligi yuzaga keladi, bu esa rivojlanish muammolarini yanada kuchaytiradi, deyiladi hisobotda. **“**Ta’lim huquqi muzokara va murosaga kelinadigan masala emas. Xalqaro hamjamiyat afg‘on qizlari va ayollari uchun maktab va universitetlarning so‘zsiz ochilishiga erishish uchun to‘liq safarbar bo‘lishi kerak”, — dedi YuNESKO Bosh direktori Odri Azuley. Shuningdek, 2023-yilning 20-martida Jeneva konferensiyada ekspertlar tomonidan Afg‘onistonda qizlar va yosh ayollarning ta’lim olish huquqining noqonuniy ravishda inkor etilishi butun jins, avlod va mamlakat kelajagiga ta’sir ko‘rsatuvchi ta’lim sohasidagi global pasayish ekanligini ta’kidladi. Afg‘onistonda ayollar ta’limini rivojlantirish bo‘yicha Al-Azhar universitetining nufuzli olimi Shayx Ahmad at-Tayyeb fikricha, ayol olimalar va o‘qituvchilar ishtirokidagi pedagogik modelni ishlab chiqishni taklif qilgan. At-Tayyeb ta’kidlaydiki, “Maktabni yopish emas, balki uni islom qoidalariga muvofiq qayta qurish – bu hal qiluvchi nuqtadir. Marokash, Indoneziya kabi mamlakatlarda islomiy tamoyillar asosida ayollar universitetlari muvaffaqiyatli faoliyat ko‘rsatmoqda”. Tolibon uchun amaliy yechim – diniy jihatdan qabul qilinadigan, lekin ilmiy jihatdan samarali ta’lim modelini joriy etishdir.Afg‘onistonda ta’lim, ayniqsa ayollar uchun ta’lim masalasi siyosiy jihatdan ham juda murakkab. Tolibon hukumati uchun bu masala nafaqat ichki siyosat, balki xalqaro munosabatlar va legitimlik bilan bog‘liq. Tolibon o‘zining “haqiqiy islomiy” hukumat ekanligini isbotlash uchun ta’limni boshqarish usulini o‘zgartirishi kerak. Buning uchun Saudiya Arabistoni yoki Eron modelidan farqli o‘laroq, Indoneziya yoki Malayziya kabi mamlakatlarning islomiy ta’lim tizimidan namuna olishi kerak. Bu orqali xalqaro hamjamiyatning bosimini kamaytirishi mumkin. Agar Tolibon qizlar maktablarini qayta ochsa, ba’zi davlatlar ularni tan olishga tayyor bo‘lishi mumkin. Agar Tolibon ayollar ta’limini qisman qayta ochsa, g‘arb mamlakatlari moliyaviy blokadalarni ma’lum darajada yumshatishi mumkin.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Afg‘onistonda 1996-2001-yillargacha ta’limga cheklovlar juda ham ko‘p edi. 2001-yilgi voqealardan keyin yangi Afg‘oniston Islom Respublikasi hukumati ta’limga bo‘lgan e’tiborni kuchaytirib, ayollar va o‘g‘illar ta’lim olishlari barcha imkoniyatlar yaratib berdi. Shunday bo‘lishiga qaramasdan, avvalgi tuzumdan qolgan qoldiqlarni tozalash juda ham mushkul va mas’uliyatli ish edi. 2001-2021-yillargacha ma’lum darajada ta’limga erkinlik berildi va yangi maktablar, universitetlar qurildi. Bu o‘z navbatida Afg‘onistonda savodli va o‘qimishli kadrlar yetishib chiqishi ta’minladi. Lekin 2021-yilda mamlakatda yuz bergan siyosiy beqarorlik natijasida, hokimiyatni yana Tolibonlar o‘z qo‘liga oldi. Tolibon hukumati 1996-yilgi siyosatini olib borishni boshladi va barcha xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyatlar cheklab qo‘ydi. Bu esa, jahon hamjamiyati tomonidan qatiq tanqid qilindi. Lekin bu holat hozirga qadar davom etmoqda.

Afg‘oniston oliy ta’limida sifatni ta’minlash e’tiborsiz qoldirib bo‘lmaydigan o‘ta muhim masala hisoblanadi. Afg‘oniston yoshlari sifatli oliy

ta’lim tizimidan kamiga loyiq emas. Yoshlar mamlakatning kelajagidir. Afg‘onistonda yuqori malakali mutaxassislarga bo‘lgan o‘tkir tanqislik mavjud bo‘lib, sifatli oliy ta’lim tizimi bu muammoni hal qila oladi. Ammo sifatli oliy ta’lim tizimining kengroq ijtimoiy foydalarini ham tan olish muhimdir. Bu borada ham boshqa rivojlanayotgan davlatlar tajribasi yordam berishi mumkin. Biroq, ayni paytda, oliy ta’limda sifatni ta’minlash tizimini ishlab chiqishda Afg‘onistonning o‘ziga xos siyosatini hurmat qilishi kerak.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. احمدی جی .ح .نگاهی به تاریخ نوین افغانستان .-کابل، 1398.-240 ص.
2. عبدالبکی ایم .سپتامبر 11افغانستان بعد از .-کابل، 1385. — 168 ص.
3. عبدالبکی م .سپتامبر 11افغانستان پس از .— کابل، 2005. — 168 ص.
4. وفادار الف .م .«طالبان»علل شکست و نابودی .-تهران، 1383.-166 ص.
5. مژدا وی .افغانستان و پنج سال حکومت طالبان .— تهران، 200،188 ص.
6. مجدا وی .افغانستان و پنج سال حاکمیت طالبان .تهران، ۲۰۰۱۸۸ ص –.
7. رسولی ع .نگاهی به سمت تاریک تاریخ معاصر افغانستان .-تهران، 1382.-180 س.
8. Истории традиционного и современного образования в Афганистане. – Душанбе, “Таъминотчӣ”. 2018.-317 с.
9. فضیلیور اف .جامعه جهانی و ملی سازی دولت در افغانستان .-کابل، 1396.-245ص.
10. A.M.Mannonov, N.A.Abdullayev,R.R.Rashidov.‘‘Afg‘oniston tarixi’’ — Toshkent — 2018.
11. Afg‘oniston Islom Respublikasi Konstitutsiyasi — Kobul-2004

Foydalangan ijtimoiy tarmoq sahifalari:

9. https://www.afghanistan.gov.af
10. https://www.un.org
11. https://www.state.gov
12. https://www.nato.int
13. https://www.unesco.org

SUN’IY INTELLEKT: TA’LIM TIZIMIDA YANGI INQILOB SARI

Sino HABIBOV
TDSHU, Tarix Yapon-ingliz guruhi 3-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi R. Xaydarova

Annotatsiya: Ushbu maqolada sun’iy intellekt (SI) texnologiyalarining xususiyatlari, ularning qaror qabul qilish jarayonida qanday ishlashi va ta’lim tizimidagi o‘rni tahlil qilingan. Xususan, Claude kabi katta tilli modellar misolida SIning oldindan rejalashtirish, mantiqiy fikrlash, ma‘lumotni qayta ishlash qobiliyatlari o‘rganilgan. Shuningdek, inson o‘qituvchilari va SI asosidagi virtual o‘qituvchilar o‘rtasidagi farqlar, ularning afzallik va kamchiliklari muhokama qilingan. Maqolada sun’iy intellekt imkoniyatlarini ta’limda samarali qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar ham berilgan.

Kalit so‘zlar: Sun’iy intellekt, Claude, ta’lim texnologiyalari, virtual o‘qituvchi, mantiqiy fikrlash, raqamli ta’lim, AI pedagogikasi.

Sun’iy intellekt (SI) nafaqat texnologiya sohasida, balki ta’lim tizimida ham katta inqilobiy o‘zgarishlarni boshlab berdi. Uning qobiliyatlari, xususan Claude kabi til modellari orqali ma‘lumotni qayta ishlash, rejalashtirish, mulohaza yuritish va hatto yolg‘on ma‘lumot berish salohiyati ilk bor aniq tadqiqotlar asosida ochib berildi[1]. Mazkur maqolada SIning ta’limdagi imkoniyatlari, xavflari va insoniy omil bilan munosabati tahlil etiladi.

Bugungi kunda ko‘pgina mamlakatlar ta’lim sifatini oshirish maqsadida sun’iy intellektdan foydalanishga harakat qilmoqda. Ayniqsa, o‘qituvchilar yetishmovchiligi kuzatiladigan joylarda[2], SI asosidagi o‘qituvchilar muvaffaqiyatli yechim sifatida taklif qilinmoqda. Shuningdek, Claude kabi til modellari inson kabi oldindan rejalashtirish, mantiqiy fikr yuritish qobiliyatiga ega ekani aniqlandi.[3]

Sun’iy intellekt qanday “o‘ylaydi”?

Anthropic kompaniyasi tadqiqotchilari Claude kabi modellarning fikrlash jarayonini tadqiq qilish maqsadida “circuit tracing” va “attribution graphs” kabi nevrologiyada qo‘llaniladigan usullarni joriy etishdi.[4] Ular model qanday qaror qabul qilishini, ma‘lumotni qanday qayta ishlashini va kayfiyatga ko‘ra javobni qanday o‘zgartirishini kuzatishga muvaffaq bo‘lishdi. Masalan, Claude she‘r yozishda avval oxirgi so‘zni aniqlab, so‘ngra unga mos ravishda misrani tuzadi — bu esa oldindan rejalashtirish salohiyati mavjudligini ko‘rsatadi.[5]

Claude har bir tilni mustaqil tizim sifatida emas, balki umumiy tushunchalarga asoslangan yagona tarmoq orqali tushunadi va tahlil qiladi. “Katta” va “kichik” kabi “qarama-qarshi” tushunchalar Claude’da tilga bog‘liq bo‘lmagan umumiy formatda saqlanadi. Ya’ni, sun’iy intellekt bilimni bir tildan boshqasiga o‘tkaza oladi, ko‘p parametrli modellar esa yanada umumlashtirilgan va mavhum tafakkur tuzilmalarini yarata oladi.

Ammo har doim ham hammasi ijobiy emas. Agar Claude’dan murakkab matematik masalani – masalan, katta sonning kosinusini hisoblab berish so‘ralganda, model ba’zida hisoblash qadamlarini ko‘rsatib, yolg‘on tushuntirish beradi. Uning ichki faoliyati esa bu soxta “fikrlash zanjiri”ni aslida bajarmaganini ko‘rsatadi. Ba’zida u foydalanuvchi bergan javobdan orqaga qarab mantiqiy yo‘l yaratadi, aslida esa u bu yechimni mustaqil topmagan bo‘ladi. Tadqiqotchilar bu holatni “bullshitting” (bema’ni gapirish) yoki “motivated reasoning” (oldindan belgilangan javobga moslashtirilgan mantiq) deb atashdi.[6]

Sun’iy intellektga asoslangan o‘qituvchilar hech qachon charchamaydi, barchaga bir xil munosabatda bo‘ladi va doim onlaynda mavjud. Ular

[1] Anthropic. (2024). Inside Claude: Understanding How AI Models Think
[2] Mitra, S. (1999). Hole in the Wall Project
[3] Batson, J. (2024). Early Mapping of AI Thought Processes
[4] Anthropic. (2024). Inside Claude: Understanding How AI Models Think
[5] Batson, J. (2024). Early Mapping of AI Thought Processes
[6] Metz, C. (2024, March 27). Anthropic’s Claude is good at poetry—and bullshitting. Wired. https://www.wired.com/story/plaintext-anthropic-claude-brain-research/

sezilmaydigan kamchiliklarsiz vazifani bajaradi. Bu ayniqsa kam imkoniyatli maktablar va qishloq hududlarida muhim ahamiyatga ega. Mitraning 1999 yildagi “Hole in the Wall” loyihasi bunga misol bo‘la oladi: bolalar mustaqil ravishda kompyuter orqali ta’lim olgan bo‘lsa, endi ular Claude yoki ChatGPT bilan muloqot qilish orqali ta’lim olish imkoniga ega.[1]

Claude ba‘zan matematik masalalarga javob berganda, aniq hisoblash o‘rniga “to‘qilgan” izohlar beradi. Bu jarayon “motivated reasoning” yoki “bullshitting” deb ataladi. U holda model berilgan javobni aqliy izohlashga harakat qiladi, xolos.

Model ba’zan bilmagan narsasini to‘qib gapiradi. Nega? Claude’da “sukut zanjiri” mavjud: agar ma‘lumot yo‘q bo‘lsa, model javob bermaslikka urinadi, ammo o‘zini ishonch bilan “biladi” deb o‘ylasa, xatoli javob ham bo‘lsa, qat’iy aytadi. Bu ta’limda yolg‘on ma‘lumot tarqalishiga olib kelishi mumkin. Shu sababli inson o‘qituvchisining roli – mehr, ishonch va empatiya orqali o‘quvchi shaxsiyatiga ta‘sir qilish – SI tomonidan to‘liq qoplanmaydi.

Yaqin orada AI o‘qituvchilar ekranda inson o‘qituvchilarga o‘xshay boshlaydi: ularda yuz, ovoz, jins bo‘ladi. Hatto o‘zingizga yoqqan ko‘rinish, yoshi, soch va ko‘z rangi, hattoki shevasini ham tanlashingiz mumkin bo‘ladi. Ular sizning yuz ifodalaringiz va tana harakatingizni tahlil qilib, sun’iy empatiya (Artificial Empathy) orqali hissiy intellektni aks ettiruvchi javoblar bera boshlaydi. Sizga zarur bo‘lgan o‘quv materiallarini avtomatik tarzda tanlaydi yoki yaratadi. Istalgan shaklga kirishadi – inson, hayvon, buyum yoki tajriba ko‘rinishida bo‘lishi mumkin. Apple Vision Pro kabi qurilmalar yordamida sizni xohlagan joyga virtual olib borishadi — hatto mavjud bo‘lmagan, tasavvur qilinayotgan joylarga ham.

• Aslida, inson o‘qituvchi yoki AI o‘qituvchi tanlovi mavjud emas – uchinchi yo‘l bor: haqiqiy intellektual va hissiy salohiyatga ega inson o‘qituvchilar va sun’iy intellekt vositalarining hamkorligi.

• Ba’zi joylarda o‘qituvchilar yetishmaydi – masalan, Hindistonning qishloq maktablarida bitta ingliz tili o‘qituvchisi 1500 dan ortiq o‘quvchiga dars beradi.

• Sugata Mitra’ning 1999-yildagi “Hole in the Wall” loyihasida oddiy devorga o‘rnatilgan kompyuterlar orqali oddiy bolalar mustaqil bilim olgan. Endi ular ChatGPT bilan muloqot qilish imkoniga ega bo‘lsa, bu yanada ta’sirli bo‘lishi mumkin.

• Hali ham dunyoning ayrim hududlarida raqamli texnologiyalarga kirish imkoniyati juda cheklangan. Bu esa “raqamli tafovut”ni yanada chuqurlashtirishi mumkin.

Takliflar:

1. Sun’iy intellektni ta’limga joriy etishda inson o‘qituvchilar bilan hamkorlik konsepsiyasiga amal qilish kerak.

[1] Mitra, S. (1999). Hole-in-the-Wall Education Project (HiWEP). Hole-in-the-Wall. https://www.hole-in-the-wall.com/AboutHiwel.html

2. Claude kabi modellarni tekshiruvchi, nazorat qiluvchi inson ekspertlar joriy qilinishi lozim.

3. O‘quvchilarga SI natijalarini tanqidiy baholash qobiliyatini o‘rgatish zarur.

4. Sun’iy intellektdan foydalanishda axloqiy me‘yorlarni ishlab chiqish zarur.

Claude kabi til modellarining ichki ishlash mexanizmlari tadqiq qilinishi SIning nafaqat vosita, balki muayyan darajada fikrlovchi tizim ekanini ko‘rsatdi. Ammo undagi “to‘qish”, “ishonch bilan xato javob berish” holatlari ta’limda sun’iy intellektning inson o‘rnini to‘liq bosolmasligini ko‘rsatadi. Yaqin kelajakda eng samarali yondashuv – bu inson va SI o‘rtasidagi hamkorlik bo‘ladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak:

Inson o‘qituvchining eng kuchli jihati – u bolalarga chin dildan ishonadi, hatto boshqalar umidini uzganda ham. Aynan ishonch har bir insonning hayotida ijobiy va katta o‘zgarish olib kelishi mumkin.

• Muloqot qilishni faqat ustoz va insonlar bilan muloqot qilish davomida o‘rganish mumkin AI bilan emas

• AI bunga urinishi mumkin, lekin haqiqiy ishonch va e’tibor faqat insondan chiqadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Anthropic. (2025). Circuit Tracing: Revealing Computational Graphs in Language Models. Transformer Circuits. https://transformer-circuits.pub/2025/attribution-graphs/methods.html

2. Batson J. (2024). Early Mapping of AI Thought Processes. Anthropic Research.

3.Metz C. (2024, March 27). Anthropic’s Claude is good at poetry—and bullshitting. Wired. https://www.wired.com/story/plaintext-anthropic-claude-brain-research/

4. Mitra S. (1999). Hole in the Wall Project. https://www.hole-in-the-wall.com

PEDAGOGIK AMALIYOTNING RAQOBATBARDOSH MUTAXASSISLAR TAYYORLASHDAGI AHAMIYATI

Mino RAXIMOVA
TDSHU, Koreyashunoslik oliy maktabi
4-kurs talabasi
Ilmiy rahbar: katta o‘qituvchi R. Xaydarova

Annotatsiya: Mazkur maqolada pedagogik amaliyotning mazmuni, uning o‘quv jarayonidagi o‘rni va samaradorlik mezonlari tahlil qilinadi. Shuningdek, pedagogik amaliyot jarayonidagi muammolar va ularni bartaraf etish yo‘llari ham ko‘rib chiqiladi. Tahlil natijalari pedagogik amaliyotni yanada takomillashtirish

va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: pedagogik amaliyot, ta’lim jarayoni, kasbiy mahorat, innovatsion ta’lim texnologiyalari, mentorlik tizimi, xalqaro standartlar, Bolonya jarayoni, PISA, TIM SS, monitoring mexanizmi, ta’lim sifatini oshirish.

Har qanday ta’lim tizimida pedagogik amaliyot muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki u talabalarning nazariy bilimlarini amaliyotda sinab ko‘rish, ularning kasbiy mahoratini rivojlantirish va mustaqil pedagogik faoliyat yuritishga tayyorgarlik ko‘rish imkonini yaratadi. Pedagogik amaliyot jarayonida talabalar real o‘quv jarayoniga jalb qilinib, ta’lim muassasalarida o‘qitish va tarbiya ishlarini olib borishni o‘rganadilar, innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanishni o‘zlashtiradilar va o‘quv jarayonini tashkil etish bo‘yicha tajriba orttiradilar. Shuningdek, pedagogik amaliyotning muhim jihatlaridan biri bu – talabalarning muloqot madaniyati, psixologik tayyorgarligi va pedagogik etikasini rivojlantirishdir. O‘qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki jamiyatning yetuk a’zosi sifatida shaxsiy o‘sish va ijtimoiy mas’uliyatni o‘z zimmasiga oluvchi inson bo‘lishi lozim.

O‘zbekiston Respublikasining quyidagi me‘yoriy hujjatlarida pedagogik amaliyotning huquqiy asoslari belgilangan:

- **“Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni** (2020 yil 23 sentyabr) – ushbu qonunda ta’lim sohasidagi davlat siyosati, pedagog kadrlarning malakasini oshirish va amaliyot jarayonining o‘rni belgilangan.
- **O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF–5712-sonli Farmoni** – pedagog kadrlarning malakasini oshirish va ta’lim sifatini yaxshilash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan.
- **O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 13 iyundagi 202-sonli qarori** – oliy ta’lim muassasalari talabalarining o‘quv-ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish va o‘tkazish tartiblarini belgilaydi.

Hozirgi kunda ta’lim tizimi oldidagi eng muhim vazifalardan biri – malakali, ijodiy fikrlay oladigan va zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalana oladigan o‘qituvchilarni tayyorlashdir. [1]Bugungi kun talablari nafaqat nazariy bilimga, balki amaliyotda qo‘llay oladigan ko‘nikmalarga ega bo‘lishni ham talab qiladi. Shu nuqtai nazardan, pedagogik amaliyot talabalarning kelajakdagi kasbiy faoliyati uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

- Pedagogik amaliyotning dolzarbligi quyidagi omillar bilan izohlanadi:
- Ta’lim sifatini oshirish zaruriyati
- O‘qituvchilarning kasbiy mahorati ta’lim sifatini belgilaydi.
- Innovatsion metodlardan foydalanish ko‘nikmalarini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.
- Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etish

[1] Xaydarova, Ra’no Anvarovna Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // ORIENSS. 2021. №Special Issue 2.

- Zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limda keng qo‘llanilmoqda.
- Talabalar pedagogik amaliyot davomida bu texnologiyalardan samarali foydalanishni o‘rganadilar.
- Pedagog kadrlar yetishmovchiligini bartaraf etish
- Ta’lim muassasalarida malakali pedagoglarga ehtiyoj yuqori.
- Pedagogik amaliyot yosh mutaxassislarning kelajakdagi kasbiy faoliyatiga tayyorgarlik bosqichi hisoblanadi.
- Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘sir
- Sifatli ta’lim jamiyat taraqqiyotining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.
- Pedagogik amaliyot mutaxassislar tayyorlashning muhim qismi sifatida iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga hissa qo‘shadi.

Shu sababli, pedagogik amaliyotni takomillashtirish, uning uslubiy bazasini mustahkamlash va pedagogik faoliyatga tayyorgarlik jarayonini samarali tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Pedagogik amaliyotning ilmiyligi uning nazariy va metodologik asoslariga tayanilishi, ta’lim jarayonidagi yangi yutuqlar va innovatsion yondashuvlar bilan bog‘liqligida namoyon bo‘ladi:

- Pedagogika va psixologiya nazariyasiga asoslanganligi
- Amaliyot J. Piaje, L. S. Vыgotskiy, A. N. Leontev, Sh. Amonqulov va boshqa pedagog va psixologlarning nazariy ishlariga tayanadi.
- Pedagogik faoliyat jarayonida talabalarning kognitiv rivojlanishi, tanqidiy va ijodiy fikrlash qobiliyatlari o‘rganiladi.
- Ta’limda innovatsion metodlardan foydalanish
- Pedagogik amaliyotda zamonaviy ta’lim metodlari, masalan, interaktiv o‘qitish, aks ettirish (refleksiya), kollaborativ ta’lim va STEM metodikasi tadqiq etiladi.
- Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanishning samaradorligi tahlil qilinadi.
- Tajriba-sinov ishlariga asoslanganligi
- Pedagogik amaliyot natijalarini o‘rganish uchun empirik tadqiqot o‘tkaziladi.
- Talabalarning pedagogik amaliyot jarayonidagi muvaffaqiyat darajasi baholanadi.
- Komparativ tahlil va xalqaro tajribalardan foydalanish
- O‘zbekistondagi pedagogik amaliyot tajribasi boshqa davlatlardagi ta’lim tizimi bilan solishtiriladi.
- Xalqaro standartlar, masalan, Bolonya jarayoni, PISA va TIMSS baholash tizimlari o‘rganiladi.
- Pedagogik amaliyotni takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish
- Ilmiy tadqiqot natijalari asosida pedagogik amaliyot jarayonini yanada samarali tashkil etish uchun uslubiy takliflar beriladi.

- Talabalarning kasbiy kompetensiyalarini oshirish strategiyalari ishlab chiqiladi.

Shu tariqa, pedagogik amaliyot nazariy va amaliy tadqiqotlarga tayanadi, uning uslubiy asoslari doimiy ravishda takomillashtiriladi va amaliyotga ilmiy yondashuv asosida integratsiya qilinadi.

Pedagogik faoliyatni samarali amalga oshirish uchun talabalar darslarda olgan bilimlarini ko‘nikma va malakalarga aylantira olishlari lozim. [1] Bunday kompetensiyani faqat amaliyotda shakllantirish mumkin. Amaliyot davomida talabalar quyidagi ko‘nikmalarni shakllantiradilar:

- pedagogik vazifani qo‘yish va yechish ko‘nikmasi;
- pedagogik muloqotga kirisha olish ko‘nikmasi;
- pedagogik jarayonni hamkorlik va o‘zaro ta‘sir sifatida tashkil etish ko‘nikmasi;
- o‘quv materiallarini bilim olish vazifalari tizimi sifatida tanlash va tayyorlash ko‘nikmasi;
- fanlararo aloqalarni yo‘lga qo‘yish ko‘nikmasi;
- o‘quvchilarga individual va tabaqalashtirilgan yondashuvni qo‘llay olish ko‘nikmasi;
- ta’lim oluvchilarning kasbiy rivojlanish istiqbollarini bashorat qilish va didaktik harakatlarni loyihalashtirish ko‘nikmasi;
- o‘quv jarayonini rejalashtirish va tashkil etish ko‘nikmasi;
- ta’lim usullarini to‘g‘ri tanlash va qo‘llash ko‘nikmasi;
- talabalar va o‘quvchilar bilan pedagogik muloqot o‘rnatish;
- o‘quv va tarbiyaviy ishlarini samarali olib borish ko‘nikmasi;
- innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ko‘nikmasi:
- pedagogik bilimlarni mustaqil oshirib borish ko‘nikmasi.

Pedagogik amaliyot odatda bir necha bosqichdan iborat:

1. *Tanishuv bosqichi*

- Amaliyot bazasi bilan tanishish.
- Maktab yoki oliy ta’lim muassasasi faoliyatini o‘rganish.
- Pedagogik jamoa bilan muloqot qilish.

2. *Tahlil va tayyorgarlik bosqichi*

- Dars jarayonini kuzatish va tahlil qilish.
- O‘quv rejasi va dasturlari bilan ishlash.
- Pedagogik usullar va vositalarni tanlash.

3. *Tajribaviy faoliyat bosqichi*

- Dars o‘tish va mashg‘ulotlar o‘tkazish.
- O‘quvchilar bilan mustaqil ishlash.
- Tarbiya ishlarini olib borish.

4. *Yakuniy bosqich*

[1] Шаюсупова Азиза Асфандияровна, Хайдарова Рано Анваровна Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования // Бюллетень науки и практики. 2019. №6.

- Amaliyot bo‘yicha hisobot tayyorlash.
- Amaliyot natijalarini tahlil qilish.
- Ta’lim muassasasida himoya qilish va baholash.

Tanishtiruv bosqichida talabalarni amaliyot davridagi vazifalari va faoliyatlarini rejalashtirib olish, ularga burch va majburiyatlarini belgilab berish uchun kirish konferensiyasini tashkil etish tavsiya etiladi. Anjuman tashkilotchilarining vazifalariga quyidagilar kiradi:

- Talabalarni pedagogik amaliyot maqsad va vazifalari bilan tanishtirish;
- Pedagogik amaliyot hisoboti mazmuni, natijalarni prezentatsiya qilish va baholash mezonlarini ko‘rsatib berish;
- Talaba ma‘lum sabablarga ko‘ra qatnasha olmasa, pedagogik amaliyot kreditini ololmasligini tushuntirish;
- Pedagogik amaliyot davrida talabalar amaliyot o‘tayotgan o‘quv muassasa ichki tartibiga qat’iy rioya qilishi va amaliyot rahbari ko‘rsatmalariga bo‘ysunishi kerakligi aytiladi.

Tahlil va tayyorgarlik bosqichida asosiy e‘tibor ta’lim jarayonini o‘rganish, rejalashtirish va samarali usullarni tanlashga qaratilgan. Tajribaviy faoliyat bosqichida nazariy bilimlar amaliyotda qo‘llanilsa, yakuniy bosqichda amaliy faoliyat natijalari tahlil qilinadi va hisobot tayyorlanadi. Ushbu bosqichlar bir-biri bilan uzviy bog‘langan bo‘lib, amaliyot jarayonini samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagogik amaliyot talabalarga haqiqiy o‘quv jarayonida ishtirok etish imkonini beradi, ularni mutaxassislikka tayyorlaydi va kelajakda o‘qituvchi sifatida faoliyat yuritishga tayyorlaydi. Amaliyot natijalari fakultet va universitet darajasida muhokama qilinib, talabalarga baholar qo‘yiladi.

Bu jarayon talabalarga nazariy bilimlarni amaliyotda qo‘llash imkonini yaratib, ularning kasbiy malakasini oshiradi.

Pedagogik amaliyotni takomillashtirish yo‘llari:

1. Mentorlik tizimini joriy etish

- Tajribali o‘qituvchilarning yordamida talabalarga amaliyot davomida individual rahbarlik qilish.
- Mentorlik orqali talabalarga pedagogik ko‘nikmalarni takomillashtirishga yordam berish.

2. Innovatsion ta’lim texnologiyalaridan foydalanish

- Masofaviy ta’lim platformalari orqali amaliyot jarayonini to‘ldirish.
- Virtual sinfxona va simulyatorlardan foydalanish orqali pedagogik mahoratni oshirish.

3. Xalqaro tajribani joriy etish

- PISA va TIMSS baholash standartlarini o‘rganish va joriy etish.
- Bolonya jarayoni doirasida pedagogik amaliyotni xalqaro standartlarga moslashtirish.

4. Statistik tahlil va monitoring tizimini joriy etish

- Pedagogik amaliyot natijalarini baholash uchun monitoring mexanizmini ishlab chiqish.
- Talabalarning malaka darajasini aniqlash va tahlil qilish.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, pedagogik amaliyot talabalarni kasbiy tayyorgarlikka tayyorlashning eng muhim vositalaridan biridir. Uni takomillashtirish uchun mentorlik tizimini yo‘lga qo‘yish, innovatsion texnologiyalardan foydalanish, xalqaro tajribalarni joriy etish hamda natijalarni tahlil qilish mexanizmini shakllantirish lozim. Bu orqali ta’lim sifatini oshirish va talabalarning kasbiy mahoratini yuqori darajaga ko‘tarish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Шаюсупова Азиза Асфандияровна, Хайдарова Рано Анваровна Формирование педагогической компетентности преподавателя языкового вуза в системе непрерывного образования // Бюллетень науки и практики. 2019. №6.

2. Botirova, D. B., Abdullayeva, M. R., Khaydarov, I. Y., Khaydarova, R. N. A., & Sharofova, S. S. Social Psychological Features of the Process of Professional Stress in Pedagogical Activity. Journal Power System Technology ISSN, 1000-3673.

3. Xaydarova, Ra’no Anvarovna Yosh mutaxassislarning kasbiy adaptatsiyasi jarayonida tanqidiy fikrlashni rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish samaradorligi // ORIENSS. 2021. №Special Issue 2.

M U N D A R I J A			
Gulchehra Shavkatovna RIXSIYEVA		SO‘Z BOSHI	3
TILSHUNOSLIK			
1.	*Zilolaxon AHMADJONOVA*	Para (pul) tushunchasi aks etgan turk maqollarining semantikasi	4-9
2.	*Munisa ERGASHEVA*	Turkcha va o‘zbekcha iboralar tahlili — semantik farqlar va madaniy kontekst	10-12
3.	*Hurşida BEKMURODOVA*	Işitsel fiillerin anlambilimsel analizi: türkçe ve ingilizce üzerine karşilaştirmali bir çalişma	12-15
4.	*Nafosat O‘ROLOVA*	Xitoy tili didaktik mavzudagi frazeologizmlarining kelib chiqishi va ularni tarjimada berish masalasi	15-19
5.	*Oygul SHUHRATOVA*	Xitoy va ingliz tillari lingvomadaniyatida ko‘k rang tasviri	19-23
6.	*Xurshidaxon ABDUSALOMOVA*	Arab tilida istisno kategoriyasi	24-28
7.	*Moxiraxon XUDOYBERGANOVA*	Arab tilida foil va uning o‘zbek tilidagi egadan farqi	28-31
8.	*Jamila XUSANOVA*	Mumtoz she’riy asarlarning sintaksis xususiyatlari (XIV-XV asr she’riyati timsolida)	31-36
9.	*Mashxuraxon RASULOVA*	Translation Challenges of Uzbek idioms into English in the example of ”Shum Bola” (”Naughty Boy’’) by Gafur Gulom	36-41
10.	*Hulkar MUROTOVA*	Bozorg Alaviyning “**چشم‌هایش**” asari tarjimasida sifatlar berilishida tarjimon mahorati (tarjimon professor A.Quronbekov)	41-45
11.	*Farangiz NE’MATOVA*	Ikki dunyo: badiiy tarjima va xalqlar o‘rtasidagi ko‘prik sohibi	45-48
12.	*Muqaddas AKBARALIYEVA*	Urducha maqollarning lingvomadaniy qirralari	49-52
13.	*Odinaxon NURITDINOVA*	Hind-oriy tillarida (hindiy va urdu) tibbiyotga oid arab-fors o‘zlashmalarining lingvistik xususiyatlari	52-55
14.	*Muslima MAXAMADXO‘JAYEVA*	Murakkab tugal sifatdoshlarning aniqlovchi, ravish holi va ot-kesim vazifalarida qo‘llanishi (“Tohir va Zuhra” asarining urducha tarjimasi asosida)	55-59
ADABIYOTSHUNOSLIK			
15.	*Ozodaxon IBROHIMOVA*	Koreys afsonalarida tog‘lar tasnifi	60-63
16.	*Mohinur AZIMQULOVA*	Hozirgi zamon koreys adabiyoti	63-67
17.	*Durdona QO‘LDOSHOVA*	Ogahiy musammatlarining mavzuli tasnifi	67-71
18.	*Zuhra AHMADOVA*	Ogahiyning “Bo‘lmasa bo‘lmasun netay” radifli g‘azali tahlili	71-74
19.	*Ruxsora PARDABOYEVA*	Ogahiy ijodida fasllar tasviri: “Qish” va “Navro‘z” g‘azallarining badiiy tahlili	75-77
20.	*Iroda TOSHBEKOVA*	Zamonaviy xitoy bolalar adabiyotida Sie Bin Sin nasrining o‘rni va ahamiyati	77-81
21.	*Leyla DOĞAN*	Orhan Kemal’in hayatı, edebi kişiliği ve eserleri	82-86
22.	*Omina ISMOILOVA*	Abdulla Qodiriy hayoti va ijodiga nazar. Qodiriy romanlarining o‘ziga xosligi.	86-94
23.	*Sevinch Ro‘ziyeva*	Muhammad Said al-Amudining hikoyalarida insoniy tuyg‘ular qarama-qarshiligining ifodalanishi	94-99
24.	*Barno XASANBOYEVA*	Hind bolalar folklori	99-105

TARIX, TARIXSHUNOSLIK, SHARQ FALSAFASI VA MADANIYATI			
25.	*Azamat FAYZULLAYEV*	Umaviylar davrida Arab xalifaligida monarxiya boshqaruvining o‘rnatilishi: sabablari va oqibatlari	106-110
26.	*Samira TO‘LAGANOVA*	Islomgacha bo‘lgan davrda turkiylarning ijtimoiy-siyosiy hayotida ayollarning tutgan o‘rni	110-114
27.	*Mushtariybegim XOLMIRZAYEVA*	O‘rta Osiyo xonliklari va Usmoniylar o‘rtasidagi munosabatlarning tarixiy ahamiyati	114-117
28.	*Marjona O‘RALOVA*	Toshkent shahri darvozalari	118-121
29.	*Parvina KAZAKBOYEVA*	Eski Termiz buddaviylik manzilgohlari: Fayoztepa va Qoratepa	122-126
30.	*Фарангиз АХМАДЖОНОВА*	Салары: истоки, языковое наследие и культурная самобытность	127-131
31.	*Muxlisa USANOVA*	Tayvandagi Payvan xalqi: tarixi, madaniyati va zamonaviy turmush tarzi	132-135
32.	*Sardorbek BO‘RIYEV*	Taraqqiyparvarlarga qarshi olib borilgan say harakatlar	136-139
33.	*Shaxinabonu DAVLATOVA*	Mustafo Kamol Ataturk: ayollar huquqining poydevorini qurgan yetakchi	139-143
34.	*Feruza USERBAYEVA*	Jadidlar faoliyati talqini tarixiy xotira sahifalarida (Sadriddin Ayniy misolida)	143-146
35.	*Gulobar TO‘XTAVALIYEVA*	Imom Moturidiy hayotiga nazar va islom diniga qo‘shgan hissasi	147-150
36.	*Sevinch AZAMATOVA*	Musulmon Andalusiyasida madaniy hayot	150-156
37.	*Sardor ABDIQAHHOROV*	“Insonparast Sog‘uniy” haqida ba’zi mulohazalar	156-160
38.	*Akbar RAXMATOV*	Abu Nasr Farobiyning adolat, axloq va ijtimoiy uyg‘unlik haqidagi g‘oyalari	160-163
39.	*Shahzoda RAUFOVA*	Gandi falsafasida svarajya ta’limoti	163-167
40.	*Акмаль АБДУРАХИМОВ*	Просветительские идеи Махмудходжи Бехбуди – детерминанты формирования национального самосознания	167-173
41.	*Shaxzoda JALOLOVA*	Ogahiy ijtimoy-falsafiy qarashlarida inson psixikasining tasvirlanishiga doir mulohazalar	173-176
42.	*Qorako‘z TO‘LANBOYEVA*	Van Yan Min falsafiy qarashlari	176-182
43.	*Yodgorjon IBRAGIMOV*	Arastuning “Axloqi Kabir” va Abdullla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq” asarlarining qiyosiy tahlili	182-187
44.	*Nasiba TURSUNXO‘JAYEVA*	Mahmudxo‘ja Behbudiyning “A’molimiz yoinki murodimiz” maqolasida ta’lim va madaniyat islohoti	188-193
45.	*Shaxnoza URAYIMOVA*	Arastu va Abdulla Avloniy axloqiy qarashlarining komparabivistik tahlili	193-198
46.	*Yulduz G‘ANIYEVA*	Ibn Miskavayhning axloqiy qarashlari	198-203
XALQARO MUNOSABATLAR, XMI VA TURIZM			
47.	*Ruxshona OBIDOVA*	Zamonaviy davrda Turkiya tashqi siyosatining o‘zgarib borishi va unga ta’sir qiluvchi omillar	204-209
48.	*Сабина САЪДУЛЛОЕВА*	Молодёжь Узбекистана: двигатель ренессансного возрождения	210-216
49.	*Мохидил ЭРГАШЕВА*	Мировые акторы в санкционной политике на ближнем востоке	217-224
50.	*Kozim QAYUMOV*	Ijtimoiy — madaniy integratsiyalashuv jarayonlarining konseptual asoslari	224-230

51.	*Shamshodbek UNAROV*	Jahon iqtisodiyotida transport tizimining o‘rni	230-236
52.	*Shaxzoda KARIMQULOVA*	Chebollar: Janubiy Koreya iqtisodiy modelining ko‘rinmas imperiyalari	236-239
53.	*Gulshoda XAMIDOVA*	Koreya Respublikasining hozirgi iqtisodiy holati va kelajak uchun kutilmalar	239-242
54.	*Hasanbek NORBOYEV*	Janubiy Koreyaning yashil iqtisodiyotni rivojlantirish tajribasidan O‘zbekistonda foydalanish imkoniyatlari	242-245
55.	*Feruza OCHILOVA*	Janubiy Koreyada gender tengsizligi	245-248
56.	*Shaxlo RAVSHANOVA*	Janubiy Koreyada aholining qarishi: iqtisodiy o‘zgarishlar va ishchi kuchi yetishmovchiligiga ta’siri	249-253
57.	*Sevara OKTYABROVA*	Koreya Respublikasining zamonaviy demografik holati	253-256
58.	*O‘g‘iloy ANARBAYEVA*	Koreya Respublikasida ishsizlik va yoshlar orasidagi bandlik muammolari	256-261
59.	*Shaxzoda ADASHOVA*	Malayziyada turizmning mamlakat iqtisodiyotiga ta’siri: zamonaviy tendensiyalar	262-265
60.	*Nasiba RUSTAMOVA*	Mamlakatda rekreatsiya va dam olish turizmini rivojlantirish istiqbollari	266-269
61.	*Zukhra HAMDAMOVA*	Oil as a strategic element in Japan-Saudi relations: energy diplomacy in action	270-273
62.	*Nurjona RAHMONBOYEVA*	Hindistonda gender tenglik	273-277
63.	*Zarinabonu NORBOYEVA* *Sanjar ABDUNABIYEV*	Özbekistan ile Türkiye arasindaki siyasi-diplomatik ilişklerinin gelişme eğilimleri	277-282
64.	*Murodjon ABDURAZZOQOV*	Konstitutsiyaviy islohotlar zamirida sharafli mehnat	283-290
65.	*Камила АББАСОВА*	Молодёжь Нового Узбекистана – творцы третьего ренессанса	291-297
66.	*Dinora CHORSHANBIYEVA*	Iqtisodiy o‘sish barqaror rivojlanish asosi	297-303
67.	*Farangizbonu XAKIMOVA*	Educational institutions as promoters of civic participation: encouraging young people in Uzbekistan to get involved in society and politics	303-307
PEDAGOGIKA VA TA’LIM			
68.	*Asadbek SULTONBOYEV*	XXI asrda Afg‘onistonda ta’lim tizimi	308-314
69.	*Sino HABIBOV*	Sun’iy intellekt: ta’lim tizimida yangi inqilob sari	314-317
70.	*Mino RAXIMOVA*	Pedagogik amaliyotning raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati	317-322